

ISSN 3030-3710
E-ISSN 3030-3095

ILMIY AXBOROTNOMA * SCIENTIFIC BULLETIN * НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

№ 2, 2024

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 2, 2024

http://buxpxti.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA INSTITUTE OF PSYCHOLOGY AND FOREIGN LANGUAGES

scientific and practical journal

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ИНСТИТУТА ПСИХОЛОГИИ И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

научно-практический журнал

№2(6) 2024

Muassis: Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

Buxoro 2024



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИ АДМИНИСТРАЦИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ АХБОРОТ ВА ОММАВИЙ КОММУНИКАЦИЯЛАР АГЕНТЛИГИ

ГУВОХНОМА

№ 064916

"BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI" MASULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
С-5669145


СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
308196898

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
22.02.2023дан

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Бухоро вилояти, Когон тумани, "B. NAQSHBAND" MFY HUDUDI

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги

22.02.2023 12:34
ТАҚДИМ ЭТИЛГАН САНА



Гувохнома № 064916

Фаолият тури

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Қўшимча маълумотлар

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Оммавий ахборот воситасининг тили	Оммавий ахборот воситасининг тури
BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI	O'ZBEK,RUS, ILNGLIZ	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Ҳудуд	Тарқатилиш шакли
Республика миқёсида		Анъанавий

BUXORO PSIXOLOGIYA VA XORIJIY TILLAR INSTITUTI ILMIY AXBOROTNOMASI ilmiy-amaliy jurnal 2-son Buxoro - 2024. - 294 b. **Научный вестник Бухарского института психологии и иностранных языков** научно-практический журнал Выпуск 2. Бухара - 2024. - 294 с.	Jurnal Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti muassisligidagi nashr hisoblanadi. **Jurnalning nashr sifati uchun bosmaxona javobgar.** OBUNA INDEKSI 3062	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Bosishga ruxsat etildi 20.03.2024 Qog'oz bichimi 60x84, 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 18,3 Buyurtma № 56. Adadi - 60 Bahosi kelishilgan narxda. «Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahar O'zbekiston Mustaqilligi ko'chasi, 70/2 uy. Tel: 0(365) 222-46-46

BOSH MUHARRIR:

Baratov Sharif Ramazanovich

psixologiya fanlari doktori, professor,
Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Bosh muharrir o`rinbosari:
Shoumarov G'.B. – O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Mas'ul kotib:
Sobirova D.A. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

XORIJ OLIMLARI

Kozlov V.V. - psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Malix S.B. -psixologiya fanlari doktori, akademik (Rossiya)
Maksimenko S.D.- psixologiya fanlari doktori, akademik (Ukraina)
Rejep O`zyurek -psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Darya Gaysina - Sasseks universiteti Psixologiya fakultetida genetika va epigenetika, PhD (Angliya)

O'ZBEKISTON OLIMLARI
PSIXOLOGIYA FANLARI

Umarov B.M.- psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov B.R. - psixologiya fanlari doktori, professor
Qodirov U.D. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramova F.A. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Baratova D.Sh. -psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Utepberganov M.A. - psixologiya fanlari doktori, professor
Ayrapetova A.G.- psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nazarov A.M. - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Fayziyeva M.X. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Qarshiyeva D.S. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Arzikulov D.N. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva D.U. - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Ruxiyeva X.A. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Usmanova M.N. - psixologiya fanlari nomzodi, professor
Ostanov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rustamov Sh.Sh. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

PEDAGOGIKA FANLARI

Ibragimov X.I. - O'zbekiston Respublikasi fanlar Akademiyasi Akademigi
Olimov Sh.Sh. - pedagogika fanlari doktori, professor
Abdullayeva B.S. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyev A.R. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov T.I. - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

FILOLOGIYA FANLARI

Shodmonov Q.B. – filologiya fanlari doktori, professor
Gadoyeva M.I.- filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rajabov D.Z. - filologiya fanlari doktori, professor
Rasulov Z.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor v.b.
Toirova G.I. - filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Raxmatullayev Sh.N. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova R.R. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MUHARRIRLAR:

Raxmatova M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov M.M. - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov A.M. - BuxPXTI "Xorijiy tillar" kafedrasi mudiri

"Scientific reports of Bukhara institute of psychology and foreign languages"
scientific-theoretical journal

EDITOR-IN-CHIEF:

Baratov Sharif Ramazanovich

doctor of psychology, professor, Full Member (academician) of the International Academy of Psychological Sciences

Deputy editor-in-chief:
Shoumarov G.B. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS

Responsible secretary:
Sobirova D.A. – Doctor of Psychology (DSc), professor

FOREIGN SCIENTISTS

Kozlov V.V. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maliks S.B. - Doctor of Psychology, academician (Russia)
Maksimenko S.D. - Doctor of Psychology, academician (Ukraine)
Rejep Ozyurek - Doctor of Psychology, professor (Turkey)
Darya Gaysina - PhD, Genetics and Epigenetics, Faculty of Psychology, University of Sussex (England)

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN
PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Umarov B.M. - doctor of psychology, professor
Kadirov B.R. - doctor of psychology, professor
Kadirov U.D. - doctor of psychology, professor
Akramova F.A. - doctor of psychology (DSc), professor
Baratova D.SH. - doctor of psychology (DSc), professor
Utepberganov M.A. - doctor of psychology, professor
Ayrapetova A.G.- doctor of psychology (DSc), associate professor
Nazarov A.M. - doctor of psychology (DSc), professor
Atabayeva N.B. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Fayziyeva M.Kh. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Karshiyeva D.S. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Abdullayeva D.U. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Arzikulov D.N. - doctor of Psychology (DSc), Associate Professor
Rukhiyeva K.A. - candidate of psychology, professor
Usmanova M.N. - candidate of psychology, professor
Ostanov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD), associate professor
Rustamov Sh.Sh. - doctor of philosophy in psychology (PhD)

PEDAGOGICAL SCIENCES

Ibragimov X.I. - Academician of the Academy of Sciences of the Republic Uzbekistan
Olimov Sh.Sh. - doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Abdullayeva B.S. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Hamroyev A.R. - doctor of Pedagogical Sciences (DSc), professor
Rajabov T.I. - doctor of pedagogic sciences (DSc), professor

PHILOLOGY SCIENCES

Shodmonov Q.B. - doctor of Philology, professor
Gadoyeva M.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Rajabov D.Z. - doctor of Philology, professor
Rasulov Z.I. - doctor of Philology (DSc), professor
Toirova G.I. - doctor of philological sciences (DSc), professor
Rakhmatullayev Sh.N. - doctor of philosophy in philology (PhD)
Khalilova R.R. - doctor of philosophy in philology (PhD)

EDITORS:

Rakhmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Tursunov M.M. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
Kurbonov A.M. - Head of the Department of Foreign Languages of BukhPFL

Sattorov Erkin Niyazmetovich
O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza
qilish akademiyasi professori, psixologiya fanlari doktori

KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISH – TASHKILOT FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA’MINLASH SHARTI: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya. *Maqolada hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri – kadrlar zaxirasini yaratish masalasiga jahon ilg‘or tajribasi nuqtai nazaridan qaralgan. Bu masalaga pedagogik, psixologik yo‘nalishlarda qarash masalalari ko‘rilayotgan muammoning samaradorligi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Kadrlar zaxirasini tayyorlash maxsus treninglar tashkil etish muammoni tez va sifatli yechimini topishning asosiy yo‘llaridan ekanligi ko‘rsatilgan. Bunda besh pog‘onadan iborat treninglarning har bir pog‘onasida nimalarga va qanday erishilishi masalasi ko‘rsatilgan. Shuningdek, kadrlar zaxirasini o‘qitishda ularning odamlar bilan samarali o‘zaro munosabatlarga kirishish malakalarini rivojlantirish ham asosiy masala sifatida qaralgan. Tahlil ko‘rsatganidek, kadrlar zaxirasini tayyorlash masalasini, faqat unga ilmiy asoslangan va kompleks tarzda yondashgandagina yechimini topish mumkin. Bunda kadrlar zaxirasini tanlash, ularni o‘qitish, o‘qitishni bosqichli – har bir bosqichda konkret maqsadlarni nazarda tutgan holda amalga oshirish kutilgan natija berishi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *Kadrlar zaxirasi, kasbiy kompetentlik, innovatsiya, interaktiv texnologiyalar, trening, liderlik xarakteristikalari, psixologik hamrohlik, tashkilotchilik qvobiliyatlari, mas’uliyatlilik, ahloqiy sifatlar*

ФОРМИРОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РЕСУРСА – УСЛОВИЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация. *В статье рассматривается один из важнейших вопросов современности – вопрос создания кадрового резерва с точки зрения передового мирового опыта. Проблемы рассмотрения данного вопроса в педагогическом и психологическом направлениях анализируются с точки зрения эффективности рассматриваемой проблемы. Показано, что подготовка кадровых резервов и организация специальных тренировок являются одними из основных способов быстрого и качественного решения проблемы. Он показывает, чего и как достичь на каждом этапе пятиступенчатого тренинга. Также основным вопросом подготовки кадров считалось развитие у них навыков эффективного взаимодействия с людьми. Как показывает анализ, найти решение вопроса подготовки кадров можно только при условии его научного обоснования и комплексного подхода. При этом показано, что подбор кадрового резерва, его подготовка и поэтапное проведение обучения с учетом конкретных целей на каждом этапе дадут ожидаемый результат.*

Ключевые слова: *Человеческие ресурсы, профессиональная компетентность, инновации, интерактивные технологии, обучение, лидерские качества, психологическая поддержка, организаторские способности, ответственность, моральные качества*

FORMATION OF HUMAN RESOURCES - A CONDITION FOR ENSURING THE EFFICIENCY OF ORGANIZATIONAL ACTIVITY: PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL APPROACHES

Annotation. *The article examines one of the most important issues of our time - the issue of creating a personnel reserve from the point of view of advanced world experience. The problems of considering this issue in pedagogical and psychological directions are analyzed from the point of view of the effectiveness of the problem under consideration. It is shown that the preparation of personnel reserves and the organization of special training are one of the main ways to quickly and efficiently solve the problem. It shows what and how to achieve at each stage of the five-step training. Also, the*

main issue of personnel training was the development of their skills in effective interaction with people. As the analysis shows, it is possible to find a solution to the issue of personnel training only if it is scientifically substantiated and has an integrated approach. At the same time, it is shown that the selection of a personnel reserve, its preparation and stage-by-stage training taking into account specific goals at each stage will give the expected result.

Keywords: *human resources, professional competence, innovation, interactive technologies, training, leadership qualities, psychological support, organizational skills, responsibility, moral qualities*

Tashkilotlarda kadrlar zaxirasini shakllantirish – murakkab, ijodiy va ham umumiy, ham farq qiluvchi belgilarga ega nostandart jarayondir. Jamiyatda jadal rivojlanish jarayoni sodir bo‘layotgan ayni paytda rahbar kadrlar zaxirasini tayyorlash har qanday tashkilotda boshqaruvni samarali va uzluksiz tashkil etish imkonini beradi. Chunki rahbarlik lavozimiga tayyorlash jarayonining asosiy maqsadi – tashkilot faoliyati samaradorligini oshirib borishga, jamoada ijobiy psixologik muhit hukm surishini ta’minlashga, korxona faoliyatiga ilg‘or yangi texnologiyalarni kiritib borishga tayyor va shu kabi ilg‘or metodlarni o‘zlashtirgan kadrni tayyorlashdan iborat bo‘lishi kerak. Bu esa hozirgi kunda rahbar kadrlar zaxirasini maxsus tayyorlashni nafaqat tizim miqyosida, balki har bir tashkilot, korxona tizimida yo‘lga qo‘yish muhim va dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Maqolani tayyorlashda ilg‘or jahon tajribasini tahlil qilish va shu asosda undan mamlakatimiz sharoitiga moslashtirgan holda foydalanish – ya’ni, benchmarking metodi qo‘llanildi.

Tahlildan ma’lumki, kadrlar zaxirasini shakllantirishga, rivojlantirishga va ulardan foydalanishga bo‘lgan qator yondashuvlar mavjud. Bularning barchasi, odatda, tashkilotning ehtiyojlariga javob beradi. Qator tashkilotlarda zaxira sifatida xodimlarni faqat rahbarlik lavozimlariga nisbatan qarashadi va bu ish “Ishlab chiqarish (strukturaviy) bo‘linmalarida kadrlar zaxirasini shakllantirish va ular bilan ishlashni tashkil etish” deb nomlangan instruksiyalarda aks etgan. O‘sha yerning o‘zida kadrlar zaxirasini yaratish va ularni ishlab chiqarish bo‘linmalarida to‘ldirish tamoyillari belgilab berilgan.

Kadrlar zaxirasini tayyorlashga bo‘lgan psixologik-pedagogik yondashuvlar tanlovning metodlari va protseduralarini, mutaxassislarni tayyorlashni va ularning karerasini hamrohlik qilib olib borishni o‘z ichiga oladi.

Xodimlarni tanlash sifati kadrlar zaxirasini yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikka ega, tashkilotda yetarlicha ish stajiga ega bo‘lgan (odatda besh yildan kam bo‘lmagan), tashkilotchilik, ishchanlik qobiliyatlariga ega, o‘z shaxsiy sifatlariga, ijodkorligiga asoslangan holda odamlarni o‘ziga ergashtira oladigan xodimlardan shakllantirish imkonini beradi.

Kadrlar zaxirasini tayyorlash samaradorligiga yosh istiqbolli xodimlarni an’anaviy va innovasion interaktiv texnologiyalarni integratsiya qilish yo‘li bilan erishiladi (1). Bunday kadrlar zaxirasini tayyorlash yo‘nalishlaridan biri qisqa muddatli treninglarni o‘tkazishdan iborat bo‘lishi mumkin. Bu treninglar uslubiy jihatdan aniq tartiblashtirilgan va ma’lum bir pog‘onaliliklardan iborat bo‘lishi kerak (3):

1) treningning birinchi pog‘onasida o‘zining talab qilib olinganligini (“Men stajer rolidaman” motivatsiyasi), ta’lim jarayonining samaradorligini (“Qanday qilib men boshqaruv bilimlari, ko‘nikmalari, malakalarini olishim mumkin” motivatsiyasi) anglash sodir bo‘ladi;

2)treningning ikkinchi pog‘onasida – boshqaruv modelining nazariy asoslarining fundamental “amaliyligi”, ya’ni trening ishtirokchilarining amaliy faoliyatiga o‘tkazilishi sodir bo‘lishi kerak;

3) treningning uchinchi pog‘onasi – kadrlar zaxirasi ishtirokchilari tomonidan lavozimga kirish rejasining ishlab chiqilishini nazarda tutadi. Ushbu reja ishtirokchilarning har bittasiga keyingi tayyorgarlikdan o‘tishda boshqa psixologik-pedagogik jihatlarni amalga oshirishda yordam beradi. Eng muhim narsa shundaki, ta’limning maqsad, vazifalari, qaysi bosqichda va qanday muddatda stajer tomonidan ma’lum natijalarga erishilishi shart ekanligi aniq tushunilishi zarur;

4) treningning to‘rtinchi pog‘onasi – ustoz-boshqaruvchilar o‘z tajribalarini o‘rgatadilar, o‘zlarining amaliy tajribasini zaxirani tayyorlash dasturining (dasturni tuzishda o‘zlari bevosita ishtirok etishlari kerak) nazariy asoslari bilan taqqoslaydilar;

5) treningning beshinchi pog‘onasi – kadrlar zaxirasini tayyorlash guruhining har bir ishtirokchisi javob topishi kerak bo‘lgan: bo‘lg‘usi rahbar qanday sifatlarga ega bo‘lishi kerak, u muvaffaqiyatli rahbar bo‘lishi uchun nimalar qilishi kerak, tashkilotning strukturaviy bo‘linmalarini va yo‘nalishini

tubdan o‘zgartirmagan holda qanday yangi oqimlar, istiqbollar kiritishi kerak, degan jiddiy savol qo‘yilishini nazarda tutadi. Ayni paytda, bu - zamonaviy sharoitda davlat xizmatchilari kadrlar zaxirasini tayyorlashda eng murakkab psixologik-pedagogik jihatlardan biri hisoblanadi.

Rahbarlik lavozimlariga kadrlar zaxirasini shakllantirishda ko‘pincha birinchi o‘ringa nomzodning shaxsiy, va eng avvalo, liderlik xarakteristikalari chiqadi. Liderlik mavzusi butun dunyoda juda mashhur bo‘lib bormoqda. Ammo muvaffaqiyatli ish jarayonini tashkil qilish uchun mehnat jamoasining strukturasini bilishning o‘zi kamlik qiladi, xodimlarni ishga olish va har bittasiga konkret ish maydonini belgilab berish yetarli emas. Tashkilot xodimlari yagona komanda bo‘lishlari kerak. Bu tushunarli holat: kompaniyalarning ko‘pchiligi o‘z faoliyatlarining samaradorligi va mavaffaqiyatliligi ularning liderlik salohiyati qanchalik kuchli ekanligiga bog‘liq ekanligini anglamoqdalar. Strategiyani, tashkillashtirishni, operasion faoliyatni o‘z-o‘zini qo‘llab-quvvatlab turuvchi funksiyalar deb qarovchi “klassik” funksional yondashuv liderlikning o‘zlarini muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishlarida asosiy omil sifatida muhimligini hisobga olgan holda o‘zgarmoqdalar. Kadrlar zaxirasi rivojlanish vektorini belgilab berishda mas’uliyatni o‘zlariga olishga, o‘z ishini boshqalardan ko‘ra yaxshiroq qilish g‘oyasi bilan birlashgan jamoani o‘zlariga ergashtirishga qodir xodimlarni bir yo‘nalishga to‘plash vazifasini bajaradi. Keyingi paytda ko‘pchilik konsalting kompaniyalari liderlikni rivojlantirishga nisbatan turli xil yondashuvlarni: biznes-treninglar, kouching, boshqaruv konsaltingi, xatti-harakatlar bilan ustozlarcha o‘qitish va boshqalarni taklif etishmoqda. Ularning konsepsiyasi bozorda, xuddi shu singari tashkilot ichida sodir bo‘ladigan doimiy o‘zgarishlar sharoitida eng qimmatli narsa - o‘qishni – o‘zgarayotgan kontekstni tezda anglab olish va ularga eng yaxshi tarzda moslashishni tashkil qilish qobiliyati bo‘lmoqda, degan g‘oyadan iborat.

Kadrlar zaxirasini shakllantirishga psixologik yondashuv shundan iboratki, nomzodlarni tanlash va tayyorlash natijasida ular nafaqat kasbiy muhim malakalarni, balki samarali kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor postulatlari (qoidalari)ni ham o‘zlashtiradilar. Bunday postulat - qoidalarga misol quyidagilar bo‘lishi mumkin (4):

1. Uzoq va yaqin maqsad va vazifalarni qo‘yish, istiqbolni qarab chiqish.

2. Tajribani tahlil qilish malakalarini optimallashtirish, xulq-atvorning muvaffaqiyatli modellarini qo‘llash, muvaffaqiyatsizlik sabablarini tahlil qilish va qayta ishlashda konstruktivlik.

3.Bitta psixologik holatdan boshqasiga tezkorlik bilan o‘tish malakasi (vaziyatga bog‘liq ravishda).

4. Kritik vaziyatlarda ishonchni va o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmatni saqlash.

5. O‘zini chetdan turib kuzatish ko‘nikmasi, o‘zining psixoemotsional holatini va xulq-atvorini doimiy korreksiya qilish.

6. Psixologik bosimlar va manipulyatsiyalarga qarshi tura olish ko‘nikmalari, yuzaga kelgan vaziyatlarga o‘zining negativ reaksiyasini vaqtida oldini olish ko‘nikmasi.

Kadrlar zaxirasini tayyorlash dasturida shaxsning autopsixologik salohiyatini faollashtirish hisobiga shaxsiy-kasbiy rivojlanishni optimallashtirish maqsadida barcha psixologik-pedagogik jihatlarni to‘liq hisobga olinishi kerak. Hozirgi zamonaviy sharoitlarda korxonalar, tashkilotlar, kompaniyalar ishlashi sharoitida kadrlar zaxirasini tayyorlashning amaliy ahamiyatli natijalariga quyidagilarni kiritadilar: xodimlar kadrlar zaxirasini sifatli o‘qitish; kasbiy tajribani yetkazib berish; ijtimoiy-kasbiy moslashuv, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda tashkilotni, korxonani, bo‘linmani boshqarish.

O‘qitishning asosiy natijasi mutaxassislarni tayyorlashda: savodli, chuqur o‘ylanilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, samarali boshqaruv menejmenti kabi yakuniy natijaga erishishdan iborat (6).

Kadrlar zaxirasini tayyorlashning uchinchi muhim psixologik-pedagogik yondashuvi lavozimda o‘sishni hamrohlik qilib olib borish bo‘lib, u individual karera uslubini diagnostika qilish va shu asosda karerada o‘sishda o‘z- o‘zini boshqarish mexanizmlarini kiritish asosida karerada o‘sishning individual professiogrammalarini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

1.Ularning orasida psixologlar: sintetik, analitik va strukturaviy modellarni farqlab ko‘rsatadilar. Sintetik model – kareradan qoniqqanlik-qoniqmaganlik muammosini yechish; analitik model kareraning yuzaga keladigan va zudlik bilan yechish kerak bo‘lgan krizislari va muammolarini aks ettiradi; strukturaviy model kasbiy ustuvorliklar bilan bir qatorda psixologik ustuvorliklarni ham aniqlashtirishda ifodalanadi (2).

Professionalizmni rivojlantirish bo‘yicha psixologik hamrohlik qilib olib borishni: “rahbar - xodim”, “rahbar – yuqori turuvchi rahbar”, “rahbar – informatsiya”, “rahbar – sotsium”, “rahbar – shaxsning imkoniyatlari”, “rahbar – shaxsiy hayot”, “rahbar – davlat manfaati” ko‘rinishidagi strukturaviy zanjirlar sifatida tasvirlash mumkin.

Hozirgi kunda zaxirani kasbiy qayta tayyorlashning turli xil tizimlarida davlat xizmatchisi kasbiy faoliyatini psixologik hamrohlik qilib olib borishning turli xil modellari taklif qilinmoqda. Hamrohlik qilib olib borishning eng ommaviylashgan instrumentlariga guruhiy va individual psixologik konsultatsiyalarni kiritish mumkin. Ularni quyidagi: Ma’lum bir hayot tarzini qanday tashkil qilish va ushlab turish mumkin? O‘quv-kasbiy vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha faoliyatni qanday qilib optimallashtirish mumkin? va boshqa masalalar bo‘yicha psixologik yordam sifatida qarash mumkin. Kadrlar zaxirasini tayyorlashdan o‘tgandan keyin shakllangan rahbarning ma’lum bir modelini tavsiya qilish mumkin.

Bunda kadrlar zaxirasi tarkibiga nomzodlarni tanlab olishda quyidagilar asosiy mezonlar bo‘lib xizmat qiladi:

1) yuqori kasbiy kompetentlik;
2) boshqaruv ishi bo‘yicha yetarlicha tajribaning mavjudligi;
3) tashkilotchilik, ishchanlik va shaxsiy sifatlar;
4) ijodiy innovasion faoliyatga motivatsiyalash;
5) ijtimoiy-psixologik yetuklikning aniq ifodalangan belgilari;
6) xodimning kadrlar zaxirasiga kiritilishga roziligi. (5).

Kadrlar zaxirasi tarkibiga nomzodlarni tanlash quyidagi talablarga binoan amalga oshiriladi:

1) kasbiy kompetentlik: taalluqli ma’lumotga egalik, ish profili bo‘yicha tajriba. Bilim, ko‘nikma, malakalar, informatsiyalarni va hujjatlarni tahlil qilish qobiliyati, asosli qarorlarni qabul qilish va ularning ijrosiga erishish qobiliyati, ish madaniyati, savodlilik, professional darajasini muntazam oshirish, lavozim pog‘onalarida o‘sishga bo‘lgan yo‘nalganlik;

2) tashkilotchilik qobiliyatlari: xodimlarni boshqarish, ularning faoliyatini koordinatsiya va nazorat qilish ko‘nikmalari, boshqaruvning zamonaviy metodlari va texnikasini o‘zlashtirganlik, lavozim vazifalari doirasida vakolatlarni amalga oshirish qobiliyati, tashabbuskorlik;

3) mas’uliyatlilik: o‘ziga va xodimlariga yuqori talabchanlik, so‘zining ustidan chiquvchanlik, o‘z ishiga va jamoa ishiga ob’ektiv tanqidiy baho berish;

4) ahloqiy sifatlar: vijdonlilik, mehnatsevarlik, ob’ektivlik, ijtimoiy-psixologik va ahloqiy yetuklik, xodimlar bilan muloqotda xayrixohlik, kommunikativ qobiliyatlar, xushmuomalalik, insoflilik, atrofdagilarga e’tiborlilik.

Bunday tashqari, kadrlar zaxirasi tarkibiga, odatda, intizomli va ijrochi, tashabbuskor va maqsadga intiluvchan, obro‘ga ega va odamlar bilan ishlay oladigan xodimlar ham kiritiladi. Kadrlar zaxirasiga nomzodni tanlashda ular tomonidan kompaniyaning asosiy strategiyasini, qadriyatlarini va boshqarish prinsiplarini to‘liq qabul qilinganligi, uning tashkilotga to‘g‘riligi va sodiqligi bazaviy mezonlar bo‘lib hisoblanadi. Bunda kadrlar zaxirasi rahbarlik lavozimlari uchun bo‘lishini, o‘rinbosarlar lavozimlari zaxiraga kiritilmasligini hisobga olish kerak. Bundan tashqari, o‘quv muassasini tugatgandan keyin tashkilotda ikki yildan kam ishlagan yosh mutaxassislar, homilador ayollar zaxiraga kiritilmaydi. Bolaga qarash bo‘yicha ta’tilda bo‘lgan ayollar ishga chiqqanlaridan keyin bir yildan keyingina zaxiraga kiritilishi mumkin.

Keyingi vaqtda “o‘z-o‘zini o‘qituvchi tashkilot” prinsipiga asoslangan yondashuv o‘zini ko‘rsatdi va ommaviy bo‘la bordi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari, ayniqsa, Rossiyaning yirik kompaniyalari kadrlar zaxirasini shakllantirishda o‘z-o‘zini o‘qituvchi tashkilotga aylandilar. Bu kompaniyalar o‘z ishlaridan, boshqa kompaniyalar faoliyatidan va umuman bozor o‘zgarishlaridan qimmatli tajribani doimiy chiqarib oladilar va o‘z faoliyatlarini barcha yo‘nalishlarda takomillashtirish uchun ularni qo‘llaydilar. Bunda tarmoq liderlari kadrlar zaxirasini rivojlantirishda yanada olg‘a siljishga erishdilar va o‘zlarining korporativ markazlari asosida rahbarlarni rivojlantirishning kompleks dasturlari bo‘lgan liderlik maktablarini barpo qildilar. Bunday dasturlarning maqsadlari quyidagilar:

1) rahbarlarni rivojlantirishga yagona tarmoq yondashuvini tadbiq etish;
2) o‘zgarishlarni ro‘yobga chiqarish uchun tarmoq rahbarlarining yangi biznes-tafakkurini shakllantirish;

3) kompaniyaning maqsadlari va qadriyatlariga sherik bo‘luvchi va ularni ko‘rsatib beruvchi, o‘zini va boshqalarni rivojlantirishga motivatsiyalashgan liderlarni “tarbiyalab yetishtirish”.

Xulosa qilish mumkinki, tashkilot faoliyatining samaradorligi unda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarning professional salohiyati bilangina belgilanmay, balki korxona boshqaruvi qanchalik sifatli amalga oshirilishiga bevosita bog‘liq. Respublikamizda bu masalaga alohida e’tibor qaratilishi bilan birgalikda, qator sohalarda rahbar kadrlar defisiti sezilayotgan ayni paytda, rahbar kadrlar zaxirasini tayyorlash va kadrlarni joy-joyiga qo‘yishga ilmiy asoslangan jahon tajribasiga asoslangan holda yondashish hozirgi zamonning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, kadrlar zaxirasiga tanlash, ularni psixologik – boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘nalishida kelgusi boshqaruv faoliyatiga tayyorlash orqali smarali boshqaruvning uzluksiz tizimini yaratish har bir tashkilot, har bir korxonaning hayot faoliyatini ta’minlash uchun eng muhim vazifaga anlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Деркач А. А. Совершенствование психологического образования государственных служащих. – М.: Академия, 2012. – 214с. с.55.

2. Митрошенков О. Оценка, развитие и оптимизация кадров государственной службы: зарубежный опыт //Управление мегаполисом. – 2009. – №. 4. – С. 82-104.

3. Резник С. Д., Игошина И.А. Психолого-педагогические факторы формирования кадрового резерва. Управление персоналом. – М.: Инфра, 2008. – 177с

4. Санталайнен Т., Поренне П. Управление по результатам. – М.: Политиздат, 2013. – 135 с.

5. Формирование и организация работы с кадровым резервом в производственных подразделениях «Прогресстех». IN 3.2.10 РТ. Редакция 1. 2010 г. С. 4

6. Чернова Е. Повышение мотивации труда государственных служащих // Кадровик. Трудовое право для кадровика, 2011. – №3. – С. 21-29.

Arzikulov Dilshod Ne'matovich
O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti
Umumiy psixologiya kafedrasi professori psixologiya fanlari doktori(Dsc)
Orcid: 0009-0005-3082-2966

SPORTCHILARNI SPORT MUSOBAQALARIGA PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH MUVOFAQQIYAT OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Sportchilarni sport musobaqalariga psixologik jihatdan tayyorlash, ularning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish - sport amaliyotida sportchilarning g'alaba qozonishi ilmiy asoslash hamda sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiq.*

Kalit so'zlar: *sportchi, sport musobaqasi, psixik holat, ruhiy zuriqish, ruhiy hayajonlanish, start oldi holati, raqib, bulajak g'alaba.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА СПОРТСМЕНОВ К СПОРТИВНЫМ СОРЕВНОВАНИЯМ КАК ФАКТОР УСПЕХА

Аннотация. *Психологическая подготовка спортсменов на спортивных соревнованиях, дальнейшее совершенствование их физической и психологической подготовки является научно обоснованным подтверждением победы спортсменов в спортивной практике, и особое внимание уделяется подготовке спортивных специалистов и тренеров, а также спортсменов к соревнованиям.*

Ключевые слова: *спортсмен, спортивные соревнования, психическое состояние, моральное напряжение, волнение, предстартовое состояние, соперник, предстоящая победа.*

PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF ATHLETES FOR SPORTS COMPETITIONS AS A FACTOR OF SUCCESS

Annotation. *Psychological preparation of athletes for sports competitions, increasing the level of their physical and psychological preparation- it is important to pay special attention to the scientific justification of athletes' victory in sports practice as well as sports specialists and coaches.*

Keywords: *athlete, sports competitions, psychic condition, spiritual excitement, Start-up position, rival, future victory*

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish mas'uliyati shu o'lkada yashayotgan har bir ongli fuqaro jumladan, jismoniy madaniyat xodimlari, sportchi psixologlar hamda sportchilar zimmasiga ham ulkan va sharafli vazifalar qo'yyadi. O'zbekiston sportchilarining jahon miqyosida o'tkazilayotgan yirik musobaqalarda va olimpiyada o'yinlarida qatnashib, nufuzli o'rinlarni qo'lga kiritayotganligi ularni bu mas'uliyatli vazifani bajarishga astoydil kirishayotganligidan dalolat beradi. Albatta, nufuzli musobaqalarda ishtirok etish o'z-o'zidan bo'lmasligi hammaga ayon. Buning uchun sportchilarimizning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish hamda ularda yurtsevarlik hislarini yanada kamol toptirish lozim bo'ladi.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportning ommaviyligini oshirish, milliy o'yinlarni qayta tiklash, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, iqtidorli sportchilarni tayyorlash va ularning mahoratini oshirishda oxirgi yillarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Sport sohasidagi ulkan islohatlar va erishilayotgan yuksak natijalar mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona davlat siyosatining mahsulidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 30-avgustdagi "Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish" deb nomlangan 67-maqsadidan kelib chiqib, jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasining alohida e'tirof etilishi jismoniy tarbiya va sport sohasini davlat siyosati darajasida muhimligidan dalolat beradi.

Ma’lumki, inson bolalikdan turli yo‘nalishdagi harakat malakalarini ongsiz va ongli tarzda bajaradi. Natijada shu harakatlar ma’lum jismoniy (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamkorlik, egiluvchanlik) hamda shaxs (matonat, jasurlik, mustaqillik, o‘ziga ishonch va x.k.) sifatlar tusida rivojlana boradi. Sekin-asta hayotiy zarur harakat malakalari (o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini boshqarish, yurish, yugurish, sakrash, to‘xtash, osilish va h.k.) sayqal topadi.

Hozirgi paytda O‘zbekistonda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlar o‘rtasida sportning barcha turlariga qiziquvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Sport kishilarni har tomonlama rivojlantirish, sog‘lig‘ini mustahkamlash, mehnat va jangovar faoliyatga tayyorlashning vosita va omillaridan biri sifatida O‘zbekistonning buyuk davlat bo‘lishida xizmat qilmog‘i lozim. Chunki Turkiston xalqi azaldan chavandozlik, kurash, ov va sayohat bilan munta-zam shug‘ullanib kelishgan. Bunday sport musobaqalari va o‘yinlari «Alpomish», «Kuntug‘mish», «Qirqqiz», «Avazxon», «Ravshan», «Manas» kabi dostonlarda anchagina batafsil tasvirlangan.

Insonni hayotga yoki biror faoliyat sohasiga tayyorlash - hayotning o‘zi kabi rang-barang, keng qamrovli, murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, ular turli usullar, vositalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchini o‘qishga va mehnatga tayyorlash; harbiy askarni texnik, taktik va irodaviy tayyorgarlik sifatlarini rivojlantira borib, jismoniy, ruhiy, siyosiy jihatdan og‘ir sharoitlarda jangovar mashqlarga, ona vatanni himoya qilishga tayyorlash ko‘p bosqichli, turli xil usullar vositasida amalga oshiriladigan qiyin va qizg‘in ijodiy-tarbiyaviy jarayondir. Shuningdek, o‘quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyatda sportchilarni jismoniy mashqlarga hamda sport musobaqalariga ruhan tayyorlash, musobaqada g‘alaba qilishga, yangi rekordlar o‘rnatishga yo‘llash usullari ham rang-barangdir.

Sportchi yoki jamoa a’zolarining sport musobaqalarida yuqori natijalarga erishishi, birinchi navbatda, ularning ruhiy, ma’naviy, mafkuraviy, irodaviy, jismoniy, texnik, taktik tayyorgarligiga bog‘liq. Sport amaliyotida bo‘lajak aniq musobaqalarga psixologik jihatdan alohida tayyorgarlik ko‘rgan sportchilarning ko‘pincha g‘alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ulardan sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash bosqichlarini nazariy va amaliy jihatdan puxta bilishlari talab qilinadi.

Sport turlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, sportchilarni musobaqaga psixologik tayyorlashni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin:

1) sportchilarga raqibi va bo‘lajak musobaqalarning shart-sharoitlari haqida yetarlicha ma’lumotlar berib borish;

2) sport mashg‘ulotlari va musobaqalar haqida olingan ma’lumotlarni tekshirib ko‘rish, ishonchlilik darajasini aniqlash, musobaqaning boshlanish vaqti yoki kutilmagan o‘zgarishlarning alohida sportchilar yoki jamoaga g‘alaba keltirish yoki mag‘lubiyatga uchrash imkoniyatlarini o‘rganish;

3) sportchilarga musobaqada qatnashishdan ko‘zlangan maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishlari haqida ko‘rsatmalar berish;

4) sportchining musobaqaga ishtirok etish sababi, mohiyati va aniq maqsadini aniqlash, g‘alabaga erishishning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini tushuntirish;

5) sportchining bo‘lajak musobaqa jarayonidagi faoliyatini rejalashtirish, aqliy sifatlarini o‘stirishga e’tibor berish, musobaqaga taktik va texnik jihatdan ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish;

6) sportchini musobaqaga ruhan tayyorlash maqsadida kutilmagan maxsus to‘siqlar vujudga keltirish, ularda bu to‘siqlar va qiyinchiliklarni yenga oladigan malaka va ko‘nikmalar hosil qilish uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlar uyushtirish;

7) sportchiga musobaqa jarayonida paydo bo‘ladigan ichki ruhiy holatni boshqarish uslublaridan foydalanishni o‘rgatish;

8) sportchini musobaqa boshlanishida ruhiy ko‘tarinkilikka, asab tizimi faoliyatini boshqarishga, ruhan charchamaslikka odatlantirish hamda musobaqa jarayonida yanada faol harakat qilishga erishishga undash v.b.

Ma’lumki, sport turlari har xil bo‘lganidek, sportchilarning musobaqaga tayyorligi va ularning musobaqada paydo bo‘ladigan hissiy ta’sirlanish darajalari ham turlicha bo‘ladi. Ba’zi bir sportchilarda sport malakalarining qiyinchilik bilan hosil bo‘lishi; boshqasida esa kuchli hissiy ta’sirlanish, xavotirlanish, vahimaga tushish; uchinchisida asab tizimining zaifligi; to‘rtinchisida hissiyotlarining tez

o‘zgaruvchanligi sababli sport musobaqalarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishishi juda og‘ir bo‘ladi. Bunday sportchilar bilan ruhiy tayyorgarlik ishlari olib borilmasa, sport musobaqalari juda qiyin kechadi.

«Psixologiya» fanining isbotlashicha, kuchli muvozanatli asab tizimiga ega bo‘lgan sportchilar sport musobaqalarida va olimpiada o‘yinlarida barqaror ko‘rsatkichlarga erishib kelganlar.

Inson organizmining aqliy, ruhiy va jismoniy imkoniyatlari cheksizdir. Sportchilarda bunday si-fatlarni rivojlantirish, kundalik hayotda amaliy qo‘llashni yoshlik davridan boshlash kerak. Buning uchun sportchilar o‘z a’zolari faoliyat funksiyalarining xilma-xil qonunlarini bilib, ulardan aqliy mehnat unumdorligini o‘stirishda, ruhiy va jis-moniy faollik darajasini oshirishda to‘g‘ri va o‘rinli foydalana bilishi nihoyatda muhim.

Sportchilarning startdan oldingi ruhiy holatini murabbiylar, fiziologlar, psixologlar katta qiziqish bilan ko‘p yillardan buyon o‘rganib kelmoqdalar. Lekin sportchilarning startdan oldingi ruhiy tayyorgarlik holati haqidagi ko‘plab muammolar, masalalar shu kungacha yaxshi ishlab chiqilmagan yoki ilmiy hal qilinmagan. Faqat tadqiqotchi Z. Myuller o‘zining ayrim risola va maqolalarida xalqaro sport musobaqalarida sportchilarning yomon ko‘rsatkichlari faqat ularning jismoniy, texnik yoki taktik tayyorgarligiga bog‘liq bo‘lmasdan, balki ularning musobaqadan oldingi tayyorgarlik holatiga ham bog‘liq ekanligini ancha batafsil tushuntirib berishga erishgan.

Sportchining musobaqa jarayonida ruhiy hayajonlanish holati xilma-xil shakllarda ifodalanadi. Ularning musobaqadan oldingi yuqori darajadagi ruhiy tayyorgarlik holati qiyin va murakkab sharoitlarda ham o‘zini tuta bilishi, o‘zini to‘g‘ri boshqarishida ko‘rinadi. Sportchining musobaqadan oldingi ruhiy holati uning oldingi turli xil musobaqalarda erishgan muvaffaqiyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Ayrim olimlarning fikricha, miyada hosil bo‘lgan o‘rtacha qo‘zg‘alish musobaqada yaxshi natijalarga erishish imkonini beradi. Agar miyadagi qo‘zg‘alish start olish vahimasi darajasigacha etib borsa, qo‘zg‘alish yuqori bo‘ladi, oqibatda sportchining musobaqadagi natijalari yomon ko‘rsatkichlar bilan tugallanadi. Sportchining musobaqaga tayyorgarlik holati asab tizimining ta’sirchanligiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Sportchining startga tayyorgarlik holati - oldingi musobaqalarda o‘z kuchini qanday safarbar etganligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Bulardan tashqari, startga tayyorgarlik holati quyidagi sabablarga ham bog‘liq:

1) musobaqaning xarakteriga;
2) tomoshabinlarning xulq-atvoriga;
3)sportchining musobaqa oldidan bajargan jismoniy mashqlari sifatiga;
4) o‘z kuchiga ishonch hosil qilishiga;
5) sportchining individual o‘ziga xos xususiyatiga.

Bu sabablar sportchining startga tayyorgarligiga ta’sir qiladi.

Ba’zi sportchilarda uchraydigan psixologik faollikning zaifligi, dangasalik, fikrlash qobiliyatining torligi, tashabbussizlik qanday va qayerdan paydo bo‘ladi? Tabiiyki, bolalikdan ma’lum bir sport turiga intilish hayotiy zaruratdir. Biroq ayrim hollarda ota-onalar, tarbiyachi va murabbiylarning e’tiborsizligi natijasida ba’zi sportchilar o‘z faoliyatlarida tabiat va jamiyat sirlarini tushuna olmay turli qiyinchiliklarga duch keladilar.

Murabbiyning asosiy vazifasi sportchilarning sevimli sport mashg‘ulotlari yordamida aniq sport turiga, qolaversa, hayotga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil mashq qilishga odatlantirish, umidsizlik va dangasalikka berilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Murabbiy zarur bo‘lganda psixolog vazifasini ham bajarib, sportchilarni kelajakka ishonib yashashga o‘rgatsa, ularning o‘z kuchiga ishonchi oshadi, axloqli va odobli bo‘ladi, mustaqil fikr yuritish qobiliyati o‘sadi, sportchilarda irodaviy sifatlar va xarakterning ijobiy xislatlari shakllanadi, ongli ravishda ijtimoiy faoliyat turlariga bo‘lgan qiziqishlari ham ortib boradi. Sport murabbiysi jamoa psixologi bilan birgalikda sportchining mashg‘ulotlarga bo‘lgan qiziqishini oshirsa yoki mashqlarni o‘zlashtirishdagi ruhiy va aqliy to‘siqlarni yengishiga yordamlashsa, sportchining o‘qish va sport faoliyatida uchraydigan sovib ketish kabi salbiy hissiyotlarini o‘z kuchi bilan yengib o‘tishga o‘rgatsa, sportchining mashg‘ulotlarga bo‘lgan faollik darajasi yanada rivojlanadi. Murabbiy o‘z shogirdlarini jismoniy mashqlarni bajarayotganida, boshqa bir sportchi shaxsi bilan taqqoslamasligi maqsadga muvofiq. Sportchining mashg‘ulotlarga qiziqishining susayishi, yalqovlanib borishi, mashqlarni puxta o‘zlashtirmasligining asosiy sabablari ko‘p jihatdan murabbiyning sport mashqlarini sifatsiz o‘tishi, jismoniy madaniyat va sportga doir

bilimlarni puxta egallamaganligi, ijtimoiy tafakkurining zaifligi; shogirdlarining ruhiy holatlarini chuqur tahlil qila olmasligi pedagogik mahorati, bilimi va malakalarining yaxshi tarkib topmaganligidadir.

Ayni bir xildagi qiziqish-havaslarning kuchi turli sportchilarda turli darajada bo‘ladi. Kuchli qiziqish, ko‘pincha, kuchli hissiyotlar bilan bog‘liq bo‘lib, sportchida ehtiros tarzida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek bokschisi Muhammadqodir Abdullayev boksga yuqori darajada ehtirosli qiziqishi hamda zo‘r havas, chidam, sabr-toqat va sabotlilik singari irodaviy sifatlarining kuchliligi bois Olimpiada chempioni bo‘ldi. Sportchining o‘zi tanlagan sport turi shug‘ullanishga qiziqishining o‘sib borishi uning ichki dunyosiga, ma’naviy tarbiyasiga, hissiyotlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Murabbiyning sport mashg‘ulotlarini qiziqarli tashkil etishi sportchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishini oshiradi, ularning xolirasida o‘rganilgan harakatli o‘yin turlari va nomlarining uzoq muddat saqlanishini ta’minlaydi. Sportga qiziqish va sport bilan shug‘ullanish yoshlarda aqliy, axloqiy sifatlarni rivojlantirish bilan birga, ular shaxsini to‘g‘ri yo‘naltirishga ham katta ta’sir etadi. Sportchilarning mashg‘ulotlarga qiziqishlarini o‘stirish, musobaqalarda g‘oliblik shohsupasiga ko‘tarilishlari uchun quyidagilarga e’tibor berish zarur:

1.Murabbiy sport mashg‘ulotlari jarayonida sportchilar oldiga mashqlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammoli masalalarni qo‘yishi va bu muammolarni yechishda har bir sportchini mustaqil izlanishga odatlantirishi lozim. Natijada sportchi musobaqalarda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishda yuqori ehtiroslilik bilan yangi taktik musobaqalashish uslublarini izlaydi va qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan bo‘ladi.

2.Murabbiy sport mashg‘ulotlari va sport o‘yinlarini qiziqarli tashkil etsa, mashg‘ulotlarda shogirdlarini zeriktirib yoki charchatib qo‘ymasa, sportchilarning o‘zlari o‘rganayotgan har bir mashq turining musobaqalar jarayonida, umuman, kelajak faoliyati uchun muhim ekanligini tushunib oladi.

3.Sport mashg‘ulotlari jarayonida o‘rgatilayotgan mashqlar haddan ortiq yengil yoki qiyin bo‘lsa, sportchilardagi mashg‘ulotga bo‘lgan qiziqishni pasaytirib yuborishi mumkin. Buning uchun murabbiy shogirdlarining yoshi, kuchi, qobiliyatiga qarab mashqlar tanlashi, ularning jismoniy sifatlarini ko‘proq kuzatib borishi, baholashi, tekshirishi, sportchilarni bajariladigan mashqlarga qiziqtira bilishi lozim.

4. Murabbiy shogirdlarining yetuk sportchi bo‘lishi to‘g‘risida qancha ko‘p qayg‘ursa, g‘amxo‘rlik qilsa, o‘quv va sport jarayoniga nisbatan kuchli hissiyot uyg‘otsa, shogirdlarida sportga bo‘lgan qiziqish shunchalik kuchli bo‘ladi.

Sport amaliyotida shunday holat kuzatilganki, ba’zi murabbiylar bajarilgan mashqlarni yanada mustahkamlash maqsadida o‘rgatilgan mashqni takrorlayveradi, bilib-bilmay shogirdlarini zeriktiradigan vaziyatlar vujudga keltiradi. Bunday holatlarning qayta-qayta takrorlanishi sportchilarni zeriktirib qo‘yadi va sport mashg‘ulotlaridan bezdiradi. Ammo o‘z bilimini muttasil oshirib boradigan, mustaqil ijod qiladigan, shogirdlari ruhiyatini chuqur tushunadigan murabbiylar bu muammoni bartaraf etishga harakat qiladi va pedagogik mahoratlariga tayanib, mashg‘ulotlarda o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni mas’uliyat bilan uddalaydi. Fikrimizni quyidagi holatlar orqali isbotlashga harakat qilamiz:

Birinchi variant. Murabbiy sportchilarga birorta jismoniy mashqni, masalan, ikki oyoqda o‘tirib turish yoki qo‘lda tortilish mashqlarini bajarishni uyga vazifa tariqasida beradi. Murabbiy ertasiga shogirdlaridan mashqlarni ko‘rsatishni talab qiladi. Berilgan mashqlarni sportchilar bir necha marotaba takrorlaganidan so‘ng, ularda siqilish va zerikish holatlari paydo bo‘ladi. Bu holat mashg‘ulot samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ikkinchi variant. Murabbiy shogirdlariga o‘zlari sevgan harakatli o‘yin yoki jismoniy mashq turlaridan birini tanlab, uni bajarishni talab darajasida o‘rganib kelishni tavsiya etadi, Albatta, navbatdagi mashg‘ulotda uyga vazifaning bajarilishi tekshiriladi. Murabbiyning bunday mashg‘uloti birinchi variantga qaraganda qiziqarli bo‘ladi. Har bir sportchining mustaqil o‘rgangan mashqlari boshqa sportchilarda ham qiziqish uyg‘otadi. Sportchilar, albatta o‘zlari tanlagan sport turiga oid har bir harakatni diqqat bilan kuzatib, har xil harakatli o‘yin va mashq turlarini o‘zlashtirib oladilar. Sportchilarning harakatli o‘yin hamda mashqlarni bajarish uslublari ular shaxsini va ichki dunyosini ochib beradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, sportchilarni sport musobaqalariga psixologik jihatdan tayyorlash, ularning jismoniy va ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish - sport amaliyotida sportchilarning ko‘pincha g‘alaba qozonishi ilmiy isbotlangan. Demak, sport mutaxassislari va murabbiylar sportchilarni musobaqaga psixologik jihatdan tayyorlashga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlili, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majilisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 32 b.

4..Арзикулов Д.Н., Гаппаров З.Г. Вахабова Д.Б. Психология ва спорт психологияси жисмоний тарбия институти талабалари учун ўқув қўлланма / Уз.Р. Олий ва урта махсус таълим вазирлиги.-Т.: 2018. 280 б.

5. Родионов А.В. Практика психологии спорта. Ташкент, "Lider Press"-2008г.

6. В.Марищук, Ю.Блудов, В.Плахтиенко, Л.Серова Методики психодиагностики в спорте. М. ФиС, 1990 й.

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti professori
psixologiya fanlari doktori(Dsc)

SHARQ YAKKAKURASHI TURLARI XUSUSIYATLARINING SHAXS SHAKLLANISHIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada sharq yakkakurash turlari xususiyatlari va shaxs shakllanishida tutgan o‘rni borasida nazariy-falsafiy jihatlari haqida fikr yuritilgan. Maqolada sharq yakkakurashi turlarining shakllanish jarayoni, ushbu turlarning o‘ziga xosligi va mashg‘ulotlarining shaxs xususiyatlarini shakllanishiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *sharq yakkakurashi, shaxs, shaxs shakllanishi, shaxs xususiyatlari.*

РОЛЬ ХАРАКТЕРИСТИК ВОСТОЧНЫХ ВИДОВ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ БОРЬБЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретико-философские аспекты особенностей восточных единоборств и их роли в формировании личности. В статье рассматривается процесс становления восточных единоборств, уникальность этих видов, а также положительное влияние тренировок на формирование качеств личности.*

Ключевые слова: *восточные боевые искусства, личность, формирование личности, личностные качества.*

THE ROLE OF CHARACTERISTICS OF EASTERN INDIVIDUAL WRESTLING TYPES IN PERSONAL FORMATION

Annotation. *This article examines the theoretical and philosophical aspects of the characteristics of martial arts and their role in the formation of personality. The article discusses the process of formation of martial arts, the uniqueness of these types, as well as the positive impact of training on the formation of personality traits.*

Key words: *oriental martial arts, personality, personality formation, personal qualities.*

Qurolli va qurolsiz jang san’ati turlari azaldan barcha xalqlar amaliyotida mavjud bo‘lgan. Yakkakurash tarixidan ma’lumki, misrliklar va inklarning turli tizimdagi kurashi, greklarning “pankration”i, hindlarning “vadjra-mushti”, ruslarning qadimgi kurashi-“utrizna”si, O‘rta asr Yevropasining “ritsarlar jangi”, kamon va arbaletlardan otish, qilich, nayza va to‘qmoqlar bilan olishuvlar, bumerang, chalg‘ilarni uloqtirish kabi jang san’atlari haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Skiflar va keltlarning, Shimoliy Amerika hindulari va Avstraliya aborigenlarining, mo‘g‘ullar va vikinglarning ham o‘ziga xos jang san’atlari bo‘lgan.

Lekin bu xilma-xil kurash turlari usullarini bir aniq tizimga solish, uning prinsip va metodlarini, falsafiy va axloqiy-etikaviy asosini yaratish, shaxsni nafaqat jismoniy, balki axloqiy, psixologik va ma’naviy jihatdan shakllantirish usullarini birgina Sharqda ishlab chiqib, ma’lum bir tizimga keltirganlar. Faqatgina Sharqda qo‘l jangini kalligrafiya, choy marosimi, xitoylarning klassik to‘rtlik she’rlari kabi san’at darajasiga aylantira olganlar. Bu san’at xalq madaniyati va udumining ajralmas qismiga aylanib, bizgacha yetib kelgan. Ushbu jang san’atlari nafaqat jang usullarini takomillashtirishni, balki har bir harakatni aqlan bajarish va fikrlashga ham o‘rgatadi. Bu san’at odamdagi turli qobiliyatlarni shakllantirishi bilan bir qatorda o‘zini to‘liq nazorat qilishi, chuqurroq bilishi va boshqalarni yaxshi tushunishi, barcha sohalarda o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalana olishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Qadimgi jang san’ati ustalari nafaqat o‘z tanalarini boshqarishda, balki she’riyat sohasida ham mohir usta bo‘lganlar, ular qilichni qanchalik mohirona boshqargan bo‘lsalar, she’rni ham mohirona yoza bilganlar, shuning uchun jang san’ati asrlar osha nafaqat saqlanib qolgan, balki bugungi kunga kelib ham o‘ziga xos tarzda rivojlanib bormoqda va ko‘plab muxlislarni o‘ziga jalb qilmoqda.

Sharq yakkakurash san’atiga bo‘lgan qiziqish mamlakatimizda doimo yuqori bo‘lgan va uning ommaviyligi keyingi yillarda yanada kengayib bor-moqda. Shunga qaramasdan hozirgacha jangovar san’at haqida ko‘pchilik aniq tasavvurga va tushunchaga ega emas.

Ko‘pincha bu haqida hozir ham noto‘g‘ri axborotlar, afsonalar va ovozalar (mish-mish) vaqti-vaqti bilan vujudga kelib turadi. Darhaqiqat, bizda sharq yakkakurashi haqida ma’lumotlar judayam

kam, borlari ham chet elda chop etilgan adabiyotlar va uning nusxalari, videofilmlarda o‘z aksini topgan. Lekin ular sharq yakkakurashi haqida to‘liq ma’lumot bera olmaydi. Shu bilan birgalikda, ushbu adabiyotlarda yakkakurash nomlari turlicha ta’riflanib, sanalar va raqamlar noto‘g‘ri ifodalangan, bu esa yakkakurash haqidagi ma’lumotlarni yanada buzib ko‘rsatishga asos bo‘lib qolmoqda.

Ushbu tushunchalarga aniqlik kiritish maqsadida biz ayrim yakkakurash turlari haqida qisqacha tarixiy-falsafiy ma’lumotlarni keltirib o‘tishni lozim deb topdik.

Oltinchi asr o‘rtalarida Xitoydagi kichik bir “Shaolin” monastiri “ushu”, “kungfu”, “kuoshu”, “syuanfa” kabi jang san’ati turlarining tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Lekin ma’lumotlarga qaraganda ushbu jang san’atining turlari ancha ilgari ma’lum bo‘lgan. Shu bilan birgalikda, hayvonlar harakatiga taqlid qiluvchi bir qancha yakkakurash usullaridan “Yo‘lbars” (qudratli, kuchli zarba), “Leopard”(chaqqonlik va sakrash),“Ilon”(ohista, epchil va mayin harakatlar), “Turna”(keng va katta harakatlar) va “Ajdarho” (unda yuqoridagi usullarning barchasi jam bo‘lgan) kabilar ham mavjud bo‘lgan. Shaolinda esa “Beshiktervatar”, “Maymun”, “Burgut” , “Qarqara” va shu kabi jang usullari yaratilganligi aniq. Undan tashqari yakkakurashning aralashgan usullaridan “Yo‘lbars va Ajdarho”, “Yo‘lbars va Turna”, “Ilon va qush” kabilar jang texnikasini takomillashtirish maqsadida yaratilgan.

Bu singari ko‘pgina tarixiy ma’lumotlar falsafa nazariyalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda ezgulik va yovuzlik kuchlari bo‘lmish “In” va “Yan” nazariyasi o‘z aksini topgan. Ular doim bir-biri bilan kesishib, bir-birini to‘ldirib boradi va shu asosda Koinotni tashkil qiladi. deyilgan.

Yaponiya harbiy san’ati ham qadimiy tarixga egadir. Uning kumiuchi, kogu soku, tegiki, kosinomavari, yarpdzyusu, tando-dzyusu, nindzyusu kabi jang usullari ma’lum. Bundan ikki ming yillar oldin sumo kurashi paydo bo‘lgan va u hozirgi kunda ham milliyligi va ommaviyligini yo‘qotmagan. Lekin Yaponiyada ommaviyligi hamda ular bilan shug‘ullanuvchilar soniga ko‘ra, karate-do birinchi o‘rinni egallaydi. Aytish joizki, karate-doni vatani Yaponiya emas, balki Ryukyu arxipelagidagi Okinava oroli hisobla-nadi. Bu orol azaldan mustaqil bo‘lib, Xitoy va Yapon bosqinchilari tomoni-dan doimiy ravishda aziyat chekib kelgan. Orolga Xitoyning ta’siri kuchli bo‘lib, unda ko‘plab xitoyliklar ham yashaganlar, shu sababli ham ular orolda yashovchi aholini o‘zlarining jangovar san’atlarii bilan tanishtirganlar. Ta’kidlash joizki, 1902-yilda Yaponiya ta’lim vazirligi okinava-teni jismoniy tarbiya vositasi sifatida maktab dasturiga kiritish haqida qaror qiladi va shu bilan yaponlar okinava-te bilan tanishadilar.

Yaponiya ta’lim vazirligi tashabbusi bilan 1921-yilda Tokioda jang san’ati festivali tashkil etiladi. Keyinroq 1930-yilda “okinava-te” termini “karate-dzyusu” termini bilan almashtiriladi (karate-dzyusu “xitoy qo‘li san’ati” ma’nosini bildiradi).

Karate-do texnikasini o‘rgatish bilan bir qatorda axloqiy tarbiya jarayoni ham amalga oshiriladi. Murabbiy “Sensey” o‘z o‘quvchilariga chuqur ma’noga ega bo‘lgan turli afsonalarni aytadi, shu orqali ularni fikrlashga majbur qiladi va yuqori fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday holat faqat jiddiy maktablarga xos bo‘lib, ular oddiy jang texnikasini emas, balki jang san’atini o‘rganadilar. Ularda o‘qish jarayonining chegara-si yo‘q, o‘rganish doimo davom etadi. Jang san’atining chegara va hududi yo‘q, chunki unda “yo‘l” so‘zi bekorga tanlanmagan bo‘lib, o‘zlikni va atrofdagi-larni anglashning yo‘li chegarasizdir. Shunday ekan, takomillashuvni ham chegarasi yo‘q, u cheksizdir.

Koreyaning jangovar san’ati “taekvondo” (ma’nosi: qo‘l va oyoq yo‘li) bo‘lib, u ham boshqa sharq yakkakurashi turlariga o‘xshab o‘zining kelib chiqish tarixiga ega. Bizgacha yetib kelgan manbalarda qo‘l jangining bir necha turlari haqida ma’lumotlar berilgan, ular taeken, pigakul va boshqalar bo‘lib, o‘sha davr barcha qatlamdagi aholi o‘rtasida keng tarqalgan. Bu turdagi jang san’atlari bilan asosan jangchilar, monarxlar va qishloq-shahar aholisi shug‘ullangan.

Ba’zi chet el mutaxassislari o‘zlarining ilmiy ishlarida taekvondoni ko‘chirib olingan kurash sistemasi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, taekvondoning uchdan bir texnikasi “ushu”, uchdan ikki qismi “karate-do” texnikasidan iborat. Darhaqiqat, “taekvondo” tashqi jihatdan “karate-do”dan sira farq qilmaydi. Lekin, Koreyaning “xapkido” (djiu-djitsuning koreya varianti), “tang-sudo” (taniqli Chak Norris Koreyada turgan AQSH armiyasi safida xizmat qilgan paytda xuddi shu maktab jang san’ati bilan tanishib, shug‘ullangan va keyinchalik bir necha bor karate bo‘yicha jahon chempioni bo‘lgan edi), “Mu duk kvon” va boshqa jang san’atlari taekvondo soyasida qolib ketdilar.

Shunga qaramasdan, taekvondoni dunyoga tanitgan va o‘ziga xos, boshqa jang san’atlarida uchramaydigan belgilari bor. Bunday belgilardan asosiysi qo‘l zarbasiga nisbatan oyoqlarda ko‘plab zarbalar berish bo‘lib, yana baland hajmidagi sakrash texnikasiga va predmetlarni sindirishga (tamisevari) ahamiyat berishidir.

Sharq yakkakurashi va jangovar san'at turlari soni ko'p, lekin ularning barchasini san'at sifatida qabul qilib bo'lmaydi va barchasi haqida gapirish imkoni ham yo'q. Ularning ko'pchiligi to'liq yoki qisman unutilgan, ko'plari Koreyaning Mu duk kvon, tang-sudo, xvarang-do, Vetnamning vetvo-dao, Indoneziyaning kali, eskrima, penchak, silat, sikaran, tailand boksi va Osiyoning boshqa milliy yakkakurash kabi sport turlari kichik xalq ommasi vakillari orasidagina saqlanib qolmoqda.

Barcha jangovar san'at turlari hozirgi kunda jangovar yoki sog'lomlashtirish turlari bo'lishidan qat'iy nazar ular bir-biri bilan teng bo'lib, hammasining maqsadi bitta - shaxsni takomillashishiga, haqiqatga yetishishiga, tana va ongni birligiga erishishga qaratilgan hisoblanadi. Bu maqsadga qanday yo'l bilan erishadilar, sparring yoki jang paytidami, buning hech qanday ahamiyati yo'q. Haqiqat bitta, unga erishish yo'li esa ko'p va inson qaysi jangovar san'at turi bilan shug'ullanmasin, u mashg'ulot jarayonida o'z tanasini, psixikasini, aqlini rivojlantiradi va jasoratli jangchi bo'lib shakllanadi.

O'zbek xalqining sport tarixida milliy kurash alohida o'rin tutadi. Barcha sharq yakkakurash turlari kabi uning ham o'ziga xos tarixi bor.

Qadimiy grek yozuvchisi Klavdiyning ma'lumotlariga qaraganda O'zbekiston hududida "sak" qabilalari yashagan va ular orasida kurash sport turi judayam ommalashgan bo'lib, qabiladagi yosh yigitlar o'zlari uylanishi lozim bo'lgan qizlar bilan kurash tushishlari shart bo'lgan va faqat g'olib bo'lgach, o'sha qizga uylanganlar. Jangchi sarkardalar o'z jangchilarining jis-moniy tayyorgarligini, kuchini, chaqqonligini va jasoratini kurash orqali rivojlantirganlar.

Arab sayyohi va geografi Mahsudiyning ma'lumotiga ko'ra, yangi yil oldidan Navro'z bayrami oldidan Marv, Samarqand va Balxda shu kabi muso-baqalar o'tkazilgan.

X-XI asrlarda o'zbek xalqi orasida kurash jismoniy tayyorgarlik va sog'liqni tiklashning asosiy vositasi hisoblangan. Ibn Sino o'zining "Kitob-al-qonun fit-tib" asarida shunday yozadi: "Tibbiyotga asoslangan jismoniy tarbiya va mashqlar organizmni mustahkamlashga va to'g'ri shakllanishiga yordam beradi hamda insonga ijobiy ta'sir ko'rsatadi". U o'zining ushbu kitobida kurashning ikki turi haqida ma'lumot bergan.

Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda Amir Temurning jangchilari jismoniy jihatdan kuchli bo'lish maqsadida kurash usullari, qilichbozlik, nayza uloqtirish mashqlari bilan muntazam shug'ullanganlar.

Firdavsiy o'zining "Shohnoma" asarida o'zbek milliy kurashi haqida ma'lumot berib, jangchilar jangda g'olib bo'lishlari uchun ulardan chaqqonlik, chidamlilik va iroda talab qilinganligini eslatib o'tadi.

Sharq yakkakurashi turlarining shakllanish xususiyatlari hamda uning nazariy-falsafiy tahlili va mashg'ulotlar shaxs shakllanishidagi tutgan o'rni borasidagi izlanishlar natijasida quyidagi fikr-mulohazalarni keltirish mumkin:

1.Sharq yakkakurashi mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, shug'ullanuvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishi, balki ularning axloqiy va ruhiy shakllanishlari vositasi sifatida qaraladi. Shu bilan birgalikda, ular milliy madaniyatning bir bo'lagi ham hisoblanadi.

2.Taekvondo, karate-do, milliy kurash kabi yakkakurash turlarining kelib chiqishiga oid tarixiy manbalari, ularning kelib chiqishi haqidagi ma'lumotlar ilmiy-metodik adabiyotlarda keng yoritilmagan. Shuningdek, ularning metodologik asoslari, psixologik-pedagogik xususiyatlari haqida ham ma'lumotlar yetarli emas.

3.Sharq yakkakurashi mashg'ulotlari bilan faol shug'ullanish asosida shaxsda vijdonlilik, muloqotlilik, umumiy faollik va boshqa xislatlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda, bu mashg'ulotlar jarayonidagi beriladigan falsafiy bilimlar shaxslardagi asabiylik, ruhiy tuturiqsizlik, ijtimoiysizlik, odamovilik, ruhiy tajanglik, ruhiy azoblanish, tortinchoqlik va boshqa xislatlarning namoyon bo'lishini pasayishiga yordam beradi.

A d a b i yo t l a r

1.Абдурасулов Р.А. Философские и психологические особенности занятий восточными единоборствами в процессе формирования личности. //Педагогик маҳорат. 2017. 2-3. -С.279-281.

2.Абдурасулов Р.А.Ўқувчи ёшлар шахсини шакллантиришда яккакураш машғулотларининг таъсири. Республика педагогик ўқиш материаллари.Бухоро.1996.

3.Абдурасулов Р.А. Ўқувчи шахсини шакллантиришда спорт машғу-лотларининг ўрни. Монография.-Тошкент.Фан ва технология. 2013. 12,7 б.т.

4.ДолинА.А., ПоповГ.В. Кемпо-традиция воинских исскуств. 3-ое изд.-М. Наука. 1992. 429с.

Qarshiyeva Dilafro‘z Suyunovna
Oriental universiteti Uzluksiz ta’lim
pedagogikasi kafedrasi professori
Psixologiya fanlari doktori (Dsc)

PEDAGOGLARDA STRESS VA UNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotasiya. *Mazkur ilmiy maqolada pedagogik faoliyatda kasbiy stress uning xususiyatlari hamda reprizintasiyasi psixologik xususiyatlari ilmiy-nazariy asoslari hamda unga ta’sir qiluvchi omillarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek pedagoglarda kasbiy stress reprezentasiyasining ish stajiga bog‘liq jihatlari bayon etilish bilan bir qatorda uning ta’sir darajasini kamaytirishgan qaratilgan psixoterapevtik usullarning metodologik tamoyillari ham keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *stress, kasbiy stress, ijtimoiy, kompetensiya, sotsial-psixologik kompetentlik, refleksiya.*

СТРЕСС У ПЕДАГОГИ И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ

Аннотация. *В данной научной статье раскрываются роль и значение профессионального стресса в педагогической деятельности, его характеристики и проявления, психологические особенности, научно-теоретические основы и факторы, влияющие на него. Также представлены методические основы психотерапевтических методов, направленных на снижение уровня его влияния, а также описание аспектов репрезентации профессионального стресса у педагогов, связанных со стажем работы.*

Ключевые слова: *стресс, профессиональный стресс, социальный, компетентность, социально-психологическая компетентность, рефлексия.*

STRESS IN EDUCATORS AND ITS PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS

Abstract. *This scientifc article reveals the role and signifcance of professional stress in teaching activities, its characteristics and manifestations, psychological characteristics, scientifc and theoretical foundations and factors infuencing it. Also presented are the methodological foundations of psychotherapeutic methods aimed at reducing the level of its infuence, as well as a description of aspects of the representation of professional stress among teachers associated with work experience.*

Key words: *stress, professional stress, social, competence, socio-psychological competence, refection.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol va komil insonlar qilib tarbiyalashdir.

Zero, ta’lim faoliyati – subyekt uchun doimo harakat”da bo‘lishni talab qiladigan jarayondir. Ba’zi paytlarda tashqi tomondan ta’sir etuvchi bosim shunchalik kuchli bo‘lishi mumkinki, u insonni stressga olib keladi. Stress insonning mehnat hamda o‘quv faoliyatida salbiy aks etib, jiddiy natijalarga yuzlatishi mumkin. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, jamiyatimiz kelajagi yoshlarga ilm o‘rgatishda ularga xavfli vaziyatlardan chiqib keta olish, murakkab shart-sharoitlarda o‘z-o‘zini nazorat qilish malakasini singdirishimiz lozim.

Stress – og‘ir, mushkul yoki murakkab sharoitlarda yuzaga keluvchi psixikaning zo‘riqish faoliyatidir. Stressning vujudga kelish sabablari quyidagilardir: inson shug‘ullanadigan faoliyatning turi, uning mazmuni, mavjud shart – sharoitlar, faoliyatning tashkiliy qismi va shoshilinch (ekstremal) omillaridir. Tashqi muhit insonning bor imkoniyatlaridan ortig‘ini talab qilib qo‘yganida stress holati yuzaga keladi. Misol uchun, ta’lim faoliyatida talab ko‘tarilishini juda yaxshi bilamiz. Bu ham kuchli stressor hisoblanadi.

Jamiyatning murakkablashuvi, texnik hamda texnologik muhitning kengayishi natijasida stressning yangi ko‘rinishi – kasbiy stress yuzaga kelmoqda. 1980 – yillardan boshlab ishchilarning mehnat faoliyatida sog‘liqlari yomonlashayotganiga olimlar ahamiyat berdilar: mehnat faoliyati insonga axboriy, ruhiy hamda ijtimoiy bosim o‘tkazishda ortib borish xususiyatiga ega. Bu kasb egasining asab-psixik sohasining tarang ahvolga olib kelishini, natijada shaxslararo munosabatda nizolarning

vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Kasbiy stress – bu doimo mehnat jarayoni bilan davom etib ish joyida stressni vujudga keltirib chiqaruvchi hodisalar tufayli yuz beradi.

Bu ta’rifga muvofiq, haddan ziyod mehnat yuklamalarining ko‘pligi natijasida jamoadagi munosabatlarda stressning turli xil ko‘rinishlari hosil bo‘ladi. Agarda stressli reaksiyalar kuchli va uzoq vaqt davom etsa, inson sog‘lig‘ida jiddiy o‘zgarishlar vujudga kelishi mumkin.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, kasbiy stressning rivojlanishida jismoniy omil ikkilamchi, ammo u stressga ta’sir qilmasligi bilan birgalikda ishga bo‘lgan motivatsiyani so‘ndirish xarakteriga ega bo‘lar ekan.

Shu nuqtayi nazardan biz maqolamizda aynan pedagogik soha vakillarida ya’ni pedagoglarda kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganishni oldimizga maqsad qilib oldik. Chunki, kelajagimiz yoshlar qo‘lida ekan, albatta ularga ta’lim tarbiya beruvchi pedagoglarimiz har tomonlama yetuk,intellektual salohiyatga ega, komil inson bo‘lishi lozim.

Bizga ma’lumki, pedagog xodimlarning salomatligi va ularning pedagogik faoliyati samaradorligi ko‘pgina kasbiy sohalar singari ish sharoiti, jamoadagi muhit kasbiy funksional vazifalarga bog‘lik. Biroq ko‘pgina tadqiqotlarning ko‘rsatishicha oxirgi o‘n yillikda pedagogik faoliyat bilan bog‘lik stress faktorlar soni ortib bormoqda. Bugungi kunda pedagoglarninig faoliyati psixogen, intellektual, emotsional zo‘riqishlar bilan to‘ladir.

Pedagog kasbi o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarishni talab etuvchi stressogen faktorlarga moyil bo‘lgan kasblardandir. Pedagogik faoliyatga qo‘yiladigan talablarning tinmay o‘zgarishi, yangi informatsiya oqimining kirib kelishi va uni o‘zlashtirishga beriladigan vaqtning tanqisligi, pedagogik faoliyatdagi emotsional, ijtimoiy zo‘riqish professional faoliyat sharoitini qiyinlashtirib pedagoglardagi stressni ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Shularni hisobga olgan holda, biz pedagoglarda kasbiy stressning namoyon bo‘lishini aniqlashni o‘z oldimizga maqsad qilib belgilab oldik. O‘z empirik tadqiqotimizni olib borish uchun D.Fontan tomonidan ishlab chiqilgan “Kasbiy stress darajasini aniqlash shkalasi”ni o‘tkazib oldik. Mazkur metodika bo‘yicha olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari quyidagi jadvalda aks ettirildi.

Jadval-1

Pedagoglarda kasbiy stress namoyon bo‘lishining xususiyatlari

Shkalalar nomi	Sinaluvchilarning natijalari			
	5 yilgacha ish staji (N =47)	10 yilgacha ish staji (N =44)	15 yilgacha ish staji (N =51)	15 yildan yuqori ish staji (N =129)
Kasbiy stressning past darajasi	5,9%	5,7%	4,1%	3,6%
Kasbiy stressning o‘rta darajasi	12,3%	16,1%	8,1%	14,1%
Kasbiy stressning yuqori darajasi	1,1%	1%	9,6%	18,4%

Yuqorida keltirilgan jadvaldan 30,1% sinaluvchilarda kasbiy stress darajasi yuqoriligi aniqlandi, shundan 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan pedagoglarda 1,1%, 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlarda 1%, 15 yilgacha ish stajiga ega pedagoglarda 9,6%,15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan xodimlarda 18,4% ni tashkil etdi. Agar natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ish staji ortib borishi bilan sinaluvchilarimizdagi kasbiy stressga moyillik darajasi ortib borgan. Yosh mutaxassislar har tomonlama kuch g‘ayratga to‘la bo‘lganligi bois, dastlabki 10 yilda kasbiy stressning yuqori darajasi unchalik ko‘pchilikni tashkil etmagan. Chunki, 5 yilgacha bo‘lgan davrda pedagog jamoaga moslashish va o‘z o‘rniga ega bo‘lish uchun berilgan topshiriqlarni intensiv tarzda o‘zlashtirib bajarishga harakat qiladi. 5 yildan 10 yilgacha bo‘lgan muddatda esa endi ular jamoada o‘z mavqeiga ega, har qanday vaziyatdan pedagogik ijodkorlik bilan chiqib keta oladilar. Shu boisdan, kasbiy stressga unchalik berilmaydilar. Navbatdagi guruh sinaluvchilarimizda, ya’ni 15 yildan ortiq pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanayotgan pedagoglarimizning ko‘pchiligida kasbiy stress darajasi yuqori chiqqan. Mazkur holat ularda tafakkurdagi rigidlik, ijtimoiy stereotiplar, ishchanlik darajasining pastligi, yuqori darajadagi

xavotirlanish, emotsional zo‘riqishlar, charchoq, emotsional noturg‘unlikning yuqoriligi, aksariyat sinaluvchilarimiz 25-30 yillik ish stajiga ega ekanligini hisobga olsak, ulardagi nafaqaga chiqish bilan bog‘liq xavotirlanishning kuchliligi bilan xarakterlanadi.

Kasbiy stressning o‘rta darajasi 50.6%, past darajsi 19.3% sinaluvchilarda aniqlandi. Mazkur holatga to‘liq to‘xtalmasdan qisqacha izoh berib o‘tamiz: bu ko‘rsatkichlar pedagog jamoada o‘z mavqeiga ega va berilgan topshiriqlarning, pedagogik muammolarning yechimini konstruktiv tarzda hal qilish va shaxslararo munosabatlarda hamkorlikka intilish kuchli bo‘ladi, u pedagogik jamoa, pedagogik faoliyatning “past-balandi”ni empatiya, eruditsiya, kreativlik xususiyatlariga asoslangan holda to‘g‘ri tahlil qilib vaziyatga moslashishga, kasbiy stressga berilmaslikka urinadi, deb xulosa chiqarishimizga asos bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, pedagoglarda kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar uning pedagogik faoliyatiga salbiy ta’sir etar ekan avvalom bor biz bu omillarni bartaraf etishimiz lozim.Buning uchun xar tomonlama psixologik mahorotga, psixologik bilimga ega bo‘lishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G. Selye. Stress bez distressa. Riga: Vieda, 1992.
2. Selye G. «Ocherki ob adaptatsionnom sindrome» M. 1990g.
3. Bagnetova YE.AObraz jizni i professionalnve faktori riska zdorovye pedagoga. RIO Sur GPU, 2017
4. Vasilyev V.N. «Zdorovye i stress». M. 2002g.

Muxamedova Dilbar Gafurdjanovna
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Umumiy psixologiya kafedrasi mudiri
Psixologiya fanlari doktori(Dsc), professor

Sayidova Nargiza Xikmatillo qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
amaliy psixologiya talabasi

O‘SMIRLARDAGI AGRESSIV XULQ-ATVORGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Anotatsiya. *Jahonda deviant xulq shakllaridan biri hisoblanmish agressivlik o‘smirlar va o‘rtasidagi axloqiy, huquqiy, tibbiy va psixologik muammolarni vujudga keltiruvchi muhim omildir. Kelajak avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish samarali natija beradi. O‘smirlik yosh davri uchun xos bo‘lgan deviatsiya shakli agressivlikning sotsial-psixologik omillari, individual-tipologik xususyatlari, gender xususiyatlarini tadqiq etish amaliy psixologlarning bunday xulq og‘ishining psixoprofilaktik, psixokorreksiyasi uchun muhim ma’lumotlar bilan ta’minlaydi. O‘smirlik agressiv xulqini tadqiq etish mazkur xulq og‘ishning psixokorreksiyasida individual yondashuvlarni taqozo etadi va psixologik xizmatda ko‘p omillilikga sabab bo‘ladi.*

Kirish so‘z: *agressiya, deiant-xulq atvor, shaxslararo munosabat, gender, psixokorreksiya, o‘smir, deviatsiya, hissiyot.*

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА АГРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Агрессия, считающаяся в мире одной из форм девиантного поведения, является важным фактором, вызывающим моральные, правовые, медицинские и психологические проблемы у подростков. Учет их возраста и психологических особенностей в воспитании будущего поколения как всесторонне развитой личности даст эффективные результаты. Изучение типичных для подросткового периода форм девиаций, социально-психологических факторов агрессии, индивидуально-типологических особенностей, гендерных особенностей дает практическим психологам важную информацию для психопрофилактики и психокоррекции данного типа поведения. Исследование агрессивного поведения подростков требует индивидуального подхода к психокоррекции этого поведения и обусловливает многофакторность психологической службы.*

Ключевые слова: *агрессия, девиантное поведение, межличностные отношения, пол, психокоррекция, подросток, девиантность, эмоция.*

FACTORS AFFECTING AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS

Annotation. *Aggression, which is considered one of the forms of deviant behavior in the world, is an important factor that causes moral, legal, medical and psychological problems among adolescents. Taking into account their age and psychological characteristics in raising the future generation as a well-rounded person will give effective results. The study of the form of deviation typical for the adolescent period, socio-psychological factors of aggression, individual-typological characteristics, gender characteristics provides practical psychologists with important information for the psychoprophylaxis and psychocorrection of this type of behavior. The study of adolescent aggressive behavior requires individual approaches to the psychocorrection of this behavior and causes multifactoriality in psychological services.*

Key words: *aggression, deviant behavior, interpersonal relationship, gender, psychocorrection, adolescent, deviance, emotion.*

Kirish. Biz insonning tajovuzkorligi va uning tajovuzkor axloqqa moyilligi ahamiyatli tarzda uning individual rivojlanishi bilan determinatsiyalanadi degan gipotezadan kelib chiqamiz. Tajovuzkor xulqning kelib chiqishida ko‘plab omillar ishtirok etadi, shu jumladan, yosh, individual xususiyatlar, tashqi va ijtimoiy voqeliklar. Masalan, tajovuzkorlikni o‘zidan qoniqmaslik, oiladagi shaxslararo muammolar, ekologik muammolar, yashash sharoit va h.k. kabi tashqi sabablar yuzaga keltirishi

mumkin. Biroq ko‘pchilik ushbu masala tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra, shaxs tajovuzkor xulqining shakllanishida hal qiluvchi rolni uning bevosita ijtimoiy muhiti o‘ynaydi. Bizning nazarimizda shaxs tajovuzkor xulqini vujudga keltiruvchi yoki quvvatlovchi ba’zi yetakchi omillar mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Turli maktab va yo‘nalishlar tizimida xorij va mahalliy psixologlari tomonidan agressiya fenomeni keng doirada o‘rganilgan. Jumladan, R.Beron, A.Darki, N.D,Levitov, K.Lorens, A.K.Osnitskiy, T.G.Rumyanseva, E.O.Smirnova, va boshqalar,[1] agressiyaning turli bosqichlari shakllanishini tadqiqot predmeti sifatida N.D.Levitov, T.G.Rumyanseva, L.M.Semenyuk, S.Feshbax, A.Bandura, A.Bass va boshqalar tadqiq etganlar,[2] bolalar va o‘smirlarda agressiv xulq-atvorni shakllanishining sabablari R.Beron, T.B.Delova, H.D.Levitov, A.K.Osnitskiy, A.R.Ratinov, va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda batafsil bayon qilingan.[3]

Muhokama. A.Bandura va R.Uolter agressiyani yuzaga kelish sabablari sifatida “oilaviy” muammolarni ustunligini ta’kidlab o‘z tadqiqotlarida o‘rganishga bag‘ishladilar.[4] Tajovuzkor o‘g‘il bolalarning ota-onalari bolalarining yutuqlariga nazorat guruhidagi (tajovuzkor xulqi bo‘lmagan) ota-onalarga nisbatan kamroq talab qo‘yganlar va ularni bolalikda kamroq cheklaganlar. Ayni vaqtda ko‘rib chiqilgan o‘smirlar ota-onalarining ta’siriga kuchliroq qarshilik ko‘rsatganlar. Tajovuzkor xulqli o‘g‘il bolalar otalaridan ko‘ra onalariga ancha bog‘lanib qolgan. Nazorat guruhidagilar ichki o‘zini-o‘zi nazorat qilishni rivojlantirish, masalan, ishontirish usulidan keng foydalangan bir vaqtda tajovuzkor o‘smirlarning ota-onalari ko‘pincha majburlash usuliga tayanganlar. Tajovuzkor o‘g‘il bolalarning otalari keskinlik va ko‘pincha bolalarni jazolash tendentsiyasi bilan xarakterlangan bir vaqtda onalar zaif umumiy kelishuvda talabchan emaslik va o‘zaro munosabatlarda yetarlicha samimiy emasligi bilan xarakterlanadi. Tajovuzkor o‘g‘il bolalar o‘z otalari bilan kam o‘xshashdirlar, ular nazorat guruhidagi o‘smirlarga qaraganda ko‘pincha otalarining tanqidiy va dushmanlik munosabatlariga javob qaytaradilar. Bularning barchasi, tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, ota-onalik qadriyatlari tizimini o‘zlashtirish va ularning talablarini bajarishni murakkablashtiradi.

A.Bandura va R.Uolter o‘smirlarning ijtimoiylashuvi va ularning oilaviy sharoitlari o‘rtasidagi aloqani o‘rganib, bola xulqini belgilovchi uchta asosiy xususiyatlarni ajratdilar:[5] uning tobe (samimiy-shaxsiy) munosabatlar o‘rnatishga tayyorligi, vijdoniylikning rivojlanganligi, tajovuzga kuchli motivatsiya. Mualliflar fikriga ko‘ra, oila samarali ijtimoiylashuvning eng kam darajadagi sharoitini yaratishi kerak. Bolaning atrofdagilarni qiziqishi, e’tibori va ma’qullashini istashga o‘rgatadigan bevosita birinchi muhim shart mehribonlik motivatsiyasidir. Ikkinchi zaruriy shart deb tadqiqotchilar izchil talablar va cheklovlar (shu shart bilanki, ota-onalarning o‘zlari ijtimoiy me’yorlarni qabul qiladilar) shaklidagi “ijtimoiylashuvning bosimi”ni ataydilar. Aksincha, xulqning dushmanlik shakli oilada ota-onalik muhabbatiga ehtiyoj frustratsiyasi, doimiy jazoni qo‘llash (istalgan xulqni rag‘batlantirish ustidan uning ustunligi), ota-onalar tomonidan talablarning kelishmaganligi, ota-onalarning o‘zlarini tajovuzkorligi natijasida paydo bo‘ladi.

Shuningdek, N.D.Levitov, agressiyani nafaqat xulq-atvor, balki ruhiy holat sifatida ham o‘rganish kerak, deb hisoblaydi, unda kognitiv, hissiy va irodali tarkibiy qismlarni ta’kidlaydi.[6] Kognitiv komponent yo‘nalishni o‘z ichiga oladi, bu vaziyatni tushunishni, hujum uchun ob’ektni ajratishni va ularning "tajovuzkor" vositalarini aniqlashni talab qiladi. Hissiy komponent haqida gapirganda, muallif g‘azabni, g‘azablanish tuyg‘usini, qasoskorlikni va ba’zi hollarda kuch, ishonch hissi va boshqalarni ta’kidlaydi.

Natija va tahlil. Shunday qilib, “asotsial tajovuz nazariyasi”ga muvofiq bolaning tajovuzkor xulqi dastavval bitta yoki ikkala ota-ona tomonidan g‘amxo‘rlik va mehribonlik yetishmasligidan tug‘iladi. Ko‘ngil qo‘yish frustratsiyasi bolada doimiy dushmanlik tuyg‘usining paydo bo‘lishiga olib keladi, chunki o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan kattalarga (shu jumladan, uning hissiy ko‘rinishlari) taqlid qilish orqali rivojlanadi. Bolaning ota-onalari bilan munosabatida rivojlangan ko‘rsatmasi ustanovkaga, xulqi esa boshqa odamlarga taqlid qilish shaklida (sinfdoshlar, o‘qituvchilar, turmush o‘rtog‘i) shakllanadi. Agar aniq odamga nisbatan tajovuz ko‘rinishining oldi olinsa (yoki boshqa sabablar ta’sirida ro‘yobga chiqmasa), tajovuz yangi “ancha xavfsiz” ob’ektga siljishi mumkin.[3]

Ko‘pchilik tadqiqotchilar oilada har xil jinsdagi bolalarga yomon munosabatning ta’siri turlicha yuzaga kelishini ta’kidlaydilar. Bolaligida shavqatsizlik namoyon etilgan qiz bolalar mazoxistik pattern axloqining rivojlanishiga moyildirlar, o‘g‘il bolalar bunday holatda o‘zlarini tajovuzkor bilan ayniylashtiradilar va katta ehtimollik bilan sadistik yo‘nalishda rivojlanadilar.

Tajovuzkor axloqning sodir bo‘lishida oilaning yetakchi roli haqidagi gipoteza foydasiga yana bir isbot – bu ma’lum sharoit – bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarda tajovuzkorlik bilan bog‘liq bo‘lgan buzilishning ustunligi (asrab olingan bolalardan farqli ravishda) hisoblanadi.[5] Bir vaqtning o‘zida zaruriy ota-onalik g‘amxo‘rligidan mahrum bo‘lgan barcha bolalar ham tajovuzkor bo‘lavermaydilar. Oilaviy deprivatsiyaning boshqa oqibati odamovilik, bo‘ysunmaslik, chuqur xavotirlilik, deprivatsiyaning darajasi, bolaning yoshi, uning konstitutsional xislatlari va boshqa sharoitlarga bog‘liq.

Ta’kidlash joizki, ichki va tashqi omillarning salbiy ta’sirida tajovuzkor mayl haqiqatan tajovuzkorlik va jamoatchilik uchun xavfli shaklgacha bo‘lgan turg‘un buzg‘unchi xulq shakliga ega bo‘ladi. Biroq tajovuz salbiy oqibatlarga olib kelishi shart emas. Masalan, u nafaqat yangi ob’ektlarga aralashib ketishi, balki faoliyatning turli shakllariga – biznes, o‘qish, sport, sardorlik va h.k. larga qo‘shilishi (sublimatsiya qilinishi) mumkin.

Har bir pedagog, ota- ona o‘smirlik haqida tushunchaga ega bo‘lishi, ularda kechadigan fiziologik va psixologik o‘zgarishlardan xabardor bo‘lishi lozim. Ota- onalar o‘smirlik paytida farzandlari bilan muloqot jarayonini yanada ko‘proq qilishi, pedagoglar esa o‘smirlarga nisbatan do‘stona munosabatda ularni shaxsini hurmat qilishini unutmasligi lozim. Agressiv o‘smirlar bilan ko‘proq muloqot qilib, ularning ichki kechinmalari, emotsional holatlari bilan qiziqish kerak. Ularning ota- onalari bilan bevosita ish olib borish lozim.

Bola uchun hayotning shunday sharoitini yaratish kerakki, u odamlar orasida tinchliksevar munosabat namunalarini namoyish qila olsin, agressiv axloqning salbiy namunalari bo‘lmasin. Hamkorlik tamoyili asosida tarbiyalash – bu agressiyaning oldini olishning asosiy shartidir.

Shunday qilib, agressiv axloqni profilaktika qilish uchun o‘smirlarni ijobiy muloqot qilish, jamiyatning boshqa a’zolari bilan o‘zaro harakatlanish, nizolarni hal qilishning muqobil – tinch yo‘llarini topa olishga o‘rgatish zarur. Bolalar va o‘smirlarda agressiyaning oldini olish va korreksiya qilishda yetakchi rol oila, ota-onalarga tegishli. Biroq pedagoglar va psixologlarning bu boradagi o‘rni ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘smirlarning agressiv xulq-atvorga yosh davriga xos ulardagi fiziologik-psixologik omillarni sabab qilib keltirishimiz mumkin. Bolaning tajovuzkor xulqiga turli oilaviy omillar ta’sir ko‘rsatishi, masalan ota-onalar va bola o‘rtasidagi yetarlicha bo‘lmagan yaqinlik, janjalkashlik bolalar o‘rtasidagi o‘zaro salbiy munosabatlar, oilaviy tarbiyaning noteng uslubi. Masalan, o‘ta kuchli nazorat va g‘amxo‘rlikdan foydalanuvchi (giperopeka), nihoyatda qattiq jazoni qo‘llovchi ota-onalar ko‘pincha o‘z farzandlarining tajovuzi va quloq solmasligiga duch keladilar.

Shuningdek, otaning onaga nisbatan tajovuzkor munosabati (jismoniy zo‘ravonlik yoki aniq ma’naviy kamsitish) ham bolaga yaqqol salbiy ta’sir ko‘rsatadi, degan fikrlar mavjud. O‘smirlardagi namoyon bo‘layotgan agressiya gender xususiyatlariga ega bo‘lib, o‘g‘il va qiz bolalarda har xil namoyon bo‘lishini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Rasulova. O‘smirlarda agressiv xulq-atvor namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari. // psoxologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T– 2018 yil. 142 b.
2. Агрессия у детей и подростков: учеб. пособие / под ред. Н.М. Платоновой. - СПб.: Речь, 2004. - 336 с.
3. Берон Р., Ричардсон Д. Агрессия. //Серия «Мастера психологии». – СПб: Питер, 2001. 352 б.
4. Аликина Н.В. Принсипы диагностики агрессивного поведения. – М.: 2002. 140 б.
5. Рахимова, И. И., & Сафарова, Э. М. (2022). Безвозвратный шаг в никуда: сравнительный анализ суицида. Особые случаи у подростков. *Вестник интегративной психологии 2022г, 25*.
6. Рахимова, И. И., & Сайитова, У. Х. (2020). Психологическое положительное влияние компьютерных игр на детей студенческого возраста. In *European Scientific Conference* (pp. 248-250).

UDK: (UO‘K 301.085:15(021)

Fayziyeva Mavluda Xudayarovna
Qarshi davlat universiteti professori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

PSIXOLOGIK HIMOYANING IJTIMOIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya *Maqolada shaxsda psixologik himoya mexanizmi shakllanishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari xususidagi fikrlar bayon etilgan. Unda eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari: psixologik himoya tizimi haqidagi bilimlarni assimilyatsiya qilish, ayniqsa, shaxs va psixologik himoya tizimining ishlash talabalarini psixologik himoya tizimining turli yo‘nalishlarda o‘zgarishiga olib kelishi taxlillarda orqali ifodalangan.*

Kalit so‘zlar *: psixologik himoya, diagnostik, nazariy va tashkil etilgan tajriba bloklari, himoya tizimining umumiy kuchlanishi, psixologik himoya, koping xulq-atvor.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация*. В статье представлены взгляды на анализ программной эффективности формирования конструктивного механизма психологической защиты. В нем условия для проведения экспериментального исследования: усвоение знаний о системе психологической защиты, в частности, о характеристиках личности и системе психологической защиты, побуждают студентов менять систему психологической защиты в разных направлениях.*

Ключевые слова*: конструктивная психология, диагностические, теоретические и организованные экспериментальные блоки, анкета Плутчика - Келермана-Конте, общая напряженность защитной системы, психологическая защита, компенсаторное поведение.*

SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PSYCHOLOGICAL PROTECTION

Abstract. *This article presents the views on the analysis of software effectiveness of the formation of a constructive psychological defense mechanism. In it, the conditions for conducting experimental research: the assimilation of knowledge about the system of psychological protection, in particular, the performance of the individual and the system of psychological protection lead students to change the system of psychological protection in different directions.*

Key words *and concepts: constructive psychology, diagnostic, theoretical and organized experimental blocks, Plutchik-Kelerman-Conte survey, overall voltage of the protective system, psychological protection, coping behavior.*

Kirish Psixologik himoya hodisasi psixologiya fanida eng munozarali hodisalardan biridir. Zamonaviy psixologiyada shaxs rivojlanishini belgilaydigan psixologik himoyaning roli haqida yagona nuqtai nazar mavjud emas. Bir qator mualliflar psixologik himoya tushunchasini moslashishning yetarli bo‘lmagan usullarini, shaxsning atrof-muhit bilan real aloqasini susaytiruvchi, uning rivojlanishini qashshoqlashtiruvchi va deviant xulq-atvor shakllanishiga yordam beruvchi patologik kommunikatsiyalar sifatida baholaydilar. Boshqalar “Men” shaxsining ijobiy tasvirini saqlab qolish uchun himoyani qo‘llash zaruriyatini, asabiylashish vaziyatini boshdan kechirish, dezorganizatsion xulq-atvorning oldini olish uchun zarur imkoniyatlar sifatida baholaganlar.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jahonda sodir bo‘layotgan jiddiy o‘zgarishlar shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi va buning natijasida ma’lum bir ziddiyatlarning yuzaga kelishi ham sir emas.Bunday ziddiyatlarning mavjudligi shaxsni psixologik himoya qilishning turli yo‘nalishlarini yuzaga keltiradi. Ulardan biri psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv faoliyatini ta’minlash shart-sharoitlari, mezonlari va xususiyatlarini aniqlashni maqsad qiladi. Bu ulardan foydalanish samaradorligi muammosini oydinlashtirishga yordam beradi bu esa bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, psixolog olimlarimiz tomonidan talabalarda psixologik himoya mexanizmining ijtimoiy jihatlari yetarli o‘rganilmagan.

Tadqiqotning maqsadi: xorij olimlari va mamlakatimiz psixologlari tomonidan psixologik himoya mexanizmlarini shakllanish jarayonlarini o‘rganish va ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti : shaxsda psixologik himoya mexanizmlari jarayoni tanlandi.

Tadqiqotda tizimlilik, qiyosiy-mantiqiy tahlildan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik manbaini anketa so‘rovnomalari natijalari tashkil etdi.

Maqsad shaxsni psixologik himoya qilish faoliyati uning maxsus mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Psixologik himoya mexanizmlari ostida "kelib tushadigan axborotlarni ongli ravishda qayta ishlash hisobidan shaxsning intrapsixik moslashuv jarayonlari" yuzaga keladi, deb tushunish mumkin. Bu operatsiyalarda barcha ruhiy jarayonlar va funksiyalar ishtirok etadi: his-tuyg‘ular, fikrlash, tasavvur, diqqat, xotira, idrok. Psixik shikastlanish vaziyatida himoya mexanizmlari axborot filtrlari sifatida o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘ladi; axborotni tartibsizlashtirish yoki rad etish yoki buzib tashlash yoki boshqa bir ma’qulrog‘i bilan almashtirish tarzida ifodalanadi. Holatning bunday ichki o‘zgarishi atrofdagi voqelikka moslashuvning maxsus shakliga (himoya mexanizmiga) sabab bo‘ladi.

Eksperimental tadqiqotlar, psixologik himoya tizimi va uning faoliyat ko‘rsatish xususiyatlari turli shaxslar uchun bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ba’zilarda himoya zaif bo‘ladi va kerakli narsalardan himoya qilmaydi, boshqalarda esa shaxsni rivoj topishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni idrok etmaydigan darajada shunchalik intensiv himoya shakllanadi.

Mavzu bo‘yicha boshqa olimlar ilmiy asarlari qisqacha tahlili

Yuqorida aytib o‘tilganlar profilaktik funksiyalarni va jamiyatda shaxsning buzilishiga olib keladigan patologik himoyani bajaradigan normal, doimiy harakatlanadigan zaruriyatni farqlash talab qilinadi. Himoya mexanizmlarini normal va patologik tasniflashga urinishlar zamonaviy psixologiyada tasvirlangan (I.M. Granovskaya, G.V. Grachev, L.R. Grebennikov, YE.L. Dotsenko, B.V. Zeygarnik, V.G. Kamenskaya, F. Kramer, V.F. Morgun, I.M. Nikolskaya, YE.S. Romanova, R. Plutchik, A. Freud, T.S.). Ushbu tadqiqotlarda psixologik himoyani tasniflash uchun turli yondashuvlar qo‘llaniladi:

1. Klinik-neyropsixik buzilishlarning yetakchi belgilariga asoslangan;
2. Ontogenetik-alohida himoya turlari shakllanishining vaqtiga asoslangan;
3. Evolyutsion-emotsional- moslashuv tabiatiga ega bo‘lgan alohida asosiy his-tuyg‘ularni nazorat qilish tamoyiliga asoslangan.

Birinchi yondashuv patopsixologiyada, tibbiyotda va psixiatriyada keng qo‘llaniladi. Ikkinchisi 4 dan 36 gacha bo‘lgan ibtidoiy (bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishida birinchi bo‘lib shakllangan va namoyon bo‘lgan) va undan yuqori (rivojlanish jarayonida ibtidoiy o‘zgartiriladi)ga ajratiladi. Uchinchi yondashuv R. Plutchik tomonidan ilgari surilgan hissiyotlarning psixoevolyutsion nazariyasiga asoslangan. Birinchi marta himoya mexanizmlarining tasnifi A. Freydning monografiyasida berilgan

Muallif quyidagi mezonlarni taklif qiladi: "men" tahdidining lokalizatsiyasi, ontogenezda shakllanish vaqti. Bundan tashqari, A. Freyd rivojlanish jarayonlarining normalligi muayyan himoya jarayonlari va tendensiyalarning hukmronligiga bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. Agar shaxs bir himoya usulini qunt bilan qo‘llasa va boshqa odamlarga bo‘lgan munosabatlar ham shu himoyaga asoslansa, bu hodisani me’yoriymi yoki patologik, qay darajada ko‘rib chiqilishini aniqlash qiyin. Keyinchalik, so‘ngi mezon psixologik himoya mexanizmlarining zamonaviy bo‘linmalarida birlamchi va ikkilamchi, ibtidoiy va rivojlangan, adaptiv va moslanmaydigan, yetarli va kam, samarali va samarasiz bo‘lgan holda ishlatilgan.

Psixologik himoya mexanizmlarining asabiylashish sharoitida namoyon bo‘lishini M.A. Mertchyan ko‘rib chiqqan. Shaxs bunday vaziyatlarda hech qanday yagona ajratilgan mexanizm bilan emas, balki ulardan biri yetakchi va strukturaviy rol o‘ynaydigan himoya reaksiyalari butun majmuasi bilan reaksiyaga kirishadi. Himoya majmualarining shakllanishiga shaxsning o‘tmish tajribasi, uning qadriyatlari va munosabatlari ta’sir etadi. Muallif himoya mexanizmlarini ikki asosiy guruhga ajratadi: faol va sust ko‘rinishlarga. Faol himoyalar frustratorni, nizoli vaziyatni bevosita hujumni bartaraf etish orqali nizolarni bartaraf etishga olib keladi. Sust himoya reaksiyalari to‘siqlarni bartaraf etish orqali ziddiyatni bartaraf etishga olib keladi. Shaxsning yoshga oid rivojlanish bosqichida intrapersonal himoya mexanizmlarining tobeligiga asoslanib, bilim jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini R. Plutchik primitivlik-yetuklik mezoniga ko‘ra himoya tasnifini tuzadi. Ontogenetik jihatdan dastlabki himoyalar perseptual jarayonlarga asoslangan holda paydo bo‘ladi: diqqat, sezgilar, idrok, ularni faoliyatda ko‘rmaslik, axborotni rad etish bilan bog‘liq. Bu guruhga R. Plutchik rad etishni, loyihalashni,

orqaga qaytishni va ularning analoglarini tegishli, deb hisoblaydi. Mazkur himoyalar eng ibtidoiy, va ulardan foydalanadigan odam esa hissiy va chala shakllangan shaxs sifatida ifodalanadi. Keyinchalik, xotira jarayonlariga asoslangan himoyalar paydo bo‘ladi: o‘rnini egallash va o‘rnini almashtirish. Ushbu mexanizmlarning ta’siri axborotni unutishga asoslangan. Eng murakkab va yetuk himoyalarga o‘rnini almashtirish, kompensatsiya va ratsionalizatorlik kiradi. Ular tasavvur va fikrlashning rivojlanishi hajmiga ko‘ra shakllanadi va axborotni himoyali qayta ishlash va qayta baholashga yordam beradi. Biz sakkizta asosiy himoya mexanizmlarining konstruktivlik darajasini belgilaydigan va ularning ishlash xususiyatlarini ko‘rsatadigan holda tasvirlaymiz.

Inkor etish - dastlabki ontogenetik va eng ibtidoiy himoya mexanizmidir. Voqelikdagi narsa va hodisalar idrok qilinayotgan vaqtda axborot filtri faoliyat ko‘rsatadi. Shaxsning tasavvur mazmuni va dunyoqarashiga qarama-qarshilik qiladigan ma’lumotlar qabul qilinmaydi. Inkor etish mavjud voqelikni infantil almashtirishni nazarda tutadi va har qanday salbiy jihatlar bloklanadi va ijobiy tizimga ruxsat etiladi. Natijada, shaxs travmatik vaziyatni bosqichma-bosqich boshdan kechirish imkoniga ega bo‘ladi. Yangi sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo‘lib, konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Jadval-1

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari

Psixologik himoya mexanizmlarining ichki xususiyatlari	Inkor etish	Loyihalashtirish	Orqaga qaytish	O‘rin almashtirish	Siqib chiqarish	Ratsionalizatsiya	Kompensatsiya	Giperkompensatsiya
Yetakchi bilim jarayoni	O‘zlashtirish	O‘zlashtirish	Xotira	Fikrlash	Xotira	Fikrlash	Fikrlash	Fikrlash
Kechirgan his-tuyg‘ular	Rad etish	Yoqimsizlik	Jur’atsizlik	G‘azab	Qo‘rquv	Xavfsizlik	G‘am, qayg‘u, xorlik	G‘am, qayg‘u, xorlik
Moslashish tabiati	Sust	Faol	Faol	Aralash	Sust	Sust	Tobe emas	Tobe emas
Konstruk-tivlik darajasi	Quyi	Sust	Quyi	O‘rta	O‘rta	Yuqori	Yuqori	Yuqori

Loyihalashtirish - psixologik himoya shakli bo‘lib, bu tushuncha dastlab Z.Freyd tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Loyihalashtirishning funksiyasi subyekt tomonidan uning shaxsiy fikrlari, kechinmalari, siqib chiqarilgan motivlari va xarakter xislatlarini o‘zi anglagan va anglamagan holda boshqa odamlarga ko‘chirilishida namoyon bo‘ladi. Ba’zan o‘z qilmishlari uchun javobgarlikni o‘tkazish maqsadida qo‘llaniladi. Bunda atributiv loyihalashni ham farqlaydilar (o‘z salbiy sifatlarini ongsiz rad etish va ularni atrofdagilarga tarqatish); ratsionalistik o‘ziga tegishli fazilatlarni anglash va ("hamma shunday qiladi" formulasiga ko‘ra loyihalash); xushomadgo‘y (o‘zgalarning haqiqiy yoki xayoliy kamchiliklarini yaxshi fazilatlar sifatida talqin qilish); similyativ (kamchiliklarni o‘xshashlik bilan moslashtirish, masalan, ota – bola). Ushbu mexanizm ijtimoiy moslashishning faol turiga ega bo‘lgan shaxslar uchun xosdir. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

Orqaga qaytish – Zigmund Freyd nazariyasi bo‘yicha psixologik himoya mexanizmlaridan biri bo‘lib, inson tahlikali holatlarda odatda bolaligida o‘zlashtirgan xulq-atvor shakllariga murojaat etadi. Orqaga qaytish inqiroz, tanazzul, chekinish ma’nolarini ham ifodalaydi, rivojlanishning ancha oldingi darajalariga qaytish. Har bir katta yoshdagi kishi hatto juda yaxshi moslashib olgan bo‘lsada, “yengil tortib olish” uchun vaqti-vaqti bilan himoyalanishning bu usuliga qaytib turadi (bolaligida odatlangan ish-harakatlarini takrorlaydi). Orqaga qaytish ko‘proq hulq-atvorning va qoniqishning yetilmagan usullariga qaytishni taxmin qiladi. Regressiv xulq odatda bolaning infantilizatsiyasi va hissiy simbioziga munosabatda bo‘lgan kattalar tomonidan rag‘batlantiriladi. Orqaga qaytish- ijobiy o‘z-o‘zini his qilish uchun qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan va tajovuzkorga bevosita tobelikka tushib qolish xavfi bo‘lgan qo‘rquv hisini jilovlash uchun ishlatiladi. Qo‘rquv haqiqiy rag‘batni, shuningdek, u bilan bog‘liq barcha

narsalar, faktlar va holatlarni unutish bilan bloklanadi. Mexanizm moslashuvning sust turiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘llaniladi. Konstruktivlikning quyi darajasi ifodalanadi.

O‘rin almashtirish - g‘azab tuyg‘usini jilovlash uchun amal qiladi. Shaxs ko‘proq zaifroq jonli yoki jonsiz obyektga yoki o‘ziga tajovuz qilinganligiga e’tibor bergan holda keskinlikni yo‘qotadi. O‘rin almashtirish ham faol va ham sust shakllarga ega bo‘lib, shaxslar tomonidan ularning ziddiyatli munosabat turlaridan va ijtimoiy moslashishidan qat’iy nazar shaxs munosabatlarida foydalaniladi. Mazkur mexanizm faol moslashish turiga ega bo‘lgan shaxslar uchun xosdir. Bu holatda konstruktivlikning o‘rtacha darajasi namoyon bo‘ladi.

O‘rnini egallash (siqib chiqarish) – bu psixologik himoya mexanizmini dastlab Zigmund Freyd o‘rganib chiqqan (uning analoglari "bostirish"). Vahima yoki vasvasaga qarshi tura olmaydigan har bir kishida siqib chiqarish "o‘zini" himoya qilishning asosiy usuli hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda," repressiya " - bu shaxs uchun qabul qilinadigan impulslar: istak, fikr, tashvish uyg‘otadigan his-tuyg‘ular ongsiz namoyon bo‘ladigan himoya mexanizmi hisoblanadi. Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, bu mexanizm shaxsning boshqa himoya mexanizmlarining harakati ta’sirida ham namoyon bo‘ladi. Xulq-atvorda hali shakllanmay, repressiya qilingan (tushkunlikka tushgan) impulslar, ularning hissiy va psixovegetativ qismlarini saqlab qolishadi. Misol uchun, psixotravmatik vaziyatning mazmunli tomoni tushunilmaydigan odatiy holat bo‘lib, inson har qanday noto‘g‘ri xatti-harakatlarning amalga oshishini bekor qiladi, ammo intrapsixikada mojaro davom etadi va uning oqibatida paydo bo‘lgan hissiy tanglik subyektiv ravishda tashqi ko‘rinishdagi tashvish sifatida yuzaga chiqadi. Shuning uchun yuzaga kelgan istaklar nevrologik va psixofiziologik alomatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Yuzaga kelgan sharoitlarga moslashish sust xarakterga ega bo‘lib, konstruktivlikning o‘rta darajasi ifodalanadi.

Ratsionalizatorlik - stressli holatlarda yuzaga keladigan psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda yaqinlashib kelayotgan salbiy hodisa har tomonlama tahlil qilinadi, uning noaniqlik darajasi pasaytiriladi, hodisaning ichiga kirib, unga oldindan moslashib boriladi, kutilmaganlik (to‘satdanlik) effekti bartaraf qilinadi. Muammoning yechimiga erishish oqilona tashkil etiladi. Bu mexanizm, moslashuvning sust turiga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan qo‘llaniladi. Konstruktivlik darajasi yuqori bo‘ladi.

Kompensatsiya - psixologik himoya mexanizmlaridan biri. Bunda, ruhiy yoki jismoniy funksiyalarni maqsadga muvofiq rivojlantirish hisobiga adekvatlik hisining kechinilishi ro‘y beradi. Kompensatsiya insonning muayyan sohadagi biror bir kamchiligi, nuqsoni yoki ojiz tomonini boshqa sohalarda o‘zini namoyon qilish orqali bekitishga harakat qilishidir. Ushbu psixologik himoya mexanizmi ontogenetik jihatdan eng so‘nggi va kognitiv jihatdan murakkab mudofaa mexanizmidir. Haqiqiy yoki xayoliy yo‘qotish, yetishmovchilik va xorlik sababli g‘am va qayg‘u kabi his-tuyg‘ularni jilovlash uchun mo‘ljallangan. Kompensatsiya - o‘rnini qoplamoq, o‘rnini to‘ldirmoq ma’nolarida kelib, bu kamchiliklarni tuzatish yoki yaxshi sifatlarga o‘rnini almashtirishga urinishni o‘z ichiga oladi.

Kompensatsiya klasteriga ideal darajadagi kompensatsiya deb tushunish mumkin bo‘lgan **giperkompensatsiya** mexanizmi ham kiradi. Giperkompensatsiya-haddan tashqari, oqilona yoki mahorat bilan o‘rnini qoplamoq, o‘rnini to‘ldirmoq ma’nolarini ifodalaydi. Mexanizmdan foydalanish ijtimoiy moslashuvning individual turiga bog‘liq emas. Konstruktivlikning yuqori darajasi amal qiladi.

Talabalarda psixologik himoya mexanizmlarining konstruktiv usullarini shakllantirish bo‘yicha eksperimental izlanish natijalarini statistik qayta ishlash Vilkokson T-mezoni yordamida amalga oshirildi. Bu borada statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar psixologik himoya mexanizmlaridan: repressiya, regressiya, rad etish, kompensatsiya, giperpensatsiyalarda aniqlandi.

Psixologik tadqiqotimizning diagnostik natijalarini muhokama qilishning navbatdagi bosqichiga o‘tamiz. Ikkinchi jadvalda taqdim etilgan psixologik himoya mexanizmlarining talabalar guruhlaridagi sezilarli farqlarini tahlil qilish Styudent mezoni yordamida amalga oshirildi.

Jadval-2


1-kurs talabalarini psixologik himoya qilish mexanizmlarining keskinligini taqqoslash Tg-1 va Ng-1 o‘zaro ta’sirdan keyin

Psixologik himoya mexanizmlari	Tg-1kursda psi-xologik himoya mexanizmlarin-ing kuchlanishi (%)	Ng-1kursda psixologik himoya mexanizmla-rining kuchlanishi(%)	t< P
O‘rnini egallash	38	50	2,12
Orqaga qaytish	43	54	2,55
O‘rin almashtirish	41	46	2,01
Rad etish	44	60	2,15
Loyihalatirish	56	60	2,02
Kompensatsiya	69	60	2,80*
Giperkompensatsiya	42	33	2,78*
Ratsionalizatsiya	54	51	1,99
Psixologik himoya usullarining keskinligi	48	50	1,83

Izoh: 1,11-0,05 (2.04) darajasida muhim ahamiyatga ega.
1,11* - muhim ahamiyatga ega bo‘lgan 0,01 (2.75).
t< P. - Styudent mezonining ahamiyatli ko‘rsatkichi.

Ibtidoiy himoya guruhida mexanizmlarning keskinligi statistik jihatdan sezilarli darajada kamayib bordi: "o‘rnini egallash" (farq-12%;), "orqaga qaytish "(farq-11%)," “rad etish" (farq-16%). Psixologik himoyaning yuksak mexanizmlari guruhida "kompensatsiya" (farq-9%), "giperkompensatsiya" (farq-9%) dan foydalanish chastotasining oshishi qayd etildi.

Ta’kidlash joizki, Tg-1 va Ng-1 talabalarida himoya mexanizmlarining umumiy keskinligi (PHUK) ning ko‘rsatkichlari statistik jihatdan sezilarli farq qilmaydi, ammo hosil qiluvchi o‘zaro ta’sir natijasida har ikki guruh subyektlarining qiyinchiliklarni bartaraf etishlari uchun sifat jihatidan turli mexanizmlar ko‘rsatkichlari farqlandi (1-rasm).




1-rasm. 1-kurs psixologiya yo‘nalishi talabalarining tajriba guruhida koping xulq-atvor strategiyasini taqsimlanishi.

Talabalarning koping xulq-atvor xatti-harakatlaridagi o‘rta guruh o‘zgarishi faqat "muammoni yechish" strategiyasini qo‘llashda (tajribagacha-73%, keyin-88%; farq-15%). Talabalarning qiyinchiliklarni yengib o‘tish yo‘llarini mustaqil izlashga bo‘lgan intilishlari kuchayib borgan.

"Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash" strategiyasiga amal qilish intensivligi (tajribagacha -60%, keyin-60%), "qochish" mexanizmidan foydalanish (tajribagacha -58%, keyin-58%) o‘zgargani yo‘q.

O‘z-o‘zini anglashning xususiyatlari va psixologik himoya tizimining samaradorligi mezonlari sifatida ifodalangan "baholash", "kuch", "faoliyat" omillari o‘rganilganda, tajriba-tadqiqot ishlari natijalarida o‘zgarishlar yuz berdi (2-rasm).



2-rasm. Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabalarida (Tg-1da) o‘z-o‘zini anglash xususiyatlarining ifodalanish ko‘rsatkichlari.

"Baho" omilining guruhiy o‘rtacha ko‘rsatkichlari (tajribagacha-43%, keyin-57%; farq-14%) sezilarli ortganligi kuzatildi (3-rasm), bu o‘z-o‘zidan ularning qobiliyatlari ijobiy namoyon bo‘lishiga ko‘ra, imkoniyatlari oshib borayotganligini ko‘rsatdi.

"Kuch" omilining qiymatlari ham sezilarli ortganligi aniqlandi (tajribagacha- 33%, keyin-43%, farq-10%), bu talabalar shaxsining irodaviy sifatlarini kuchayib borish nazoratini oshirishni, qiyinchiliklarni yengib o‘tishga moyilligini ko‘rsatadi.

"Faollik" omili birinchi kurs talabalarida (tajribagacha- 10% gacha; keyin-24%; farq-14%) ancha yuqori baholanganligini ko‘rish mumkin, bu muammolarni hal qilishda qat’iylik, dadillik, jur’atlilik va tadbirkorlik sifatlari shakllanayotganligini ko‘rsatadi (3-rasm).

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlarimizga tayanib quyidagi xulosalarga kelindi

- konstruktiv psixologik himoyani shakllantirish bo‘yicha tajriba-eksperiment ishlari davomida birinchi kurs talabalarida psixologik himoya mexanizmlari va o‘zligini anglash strategiyalari munosabatlarida ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi.

- psixologik himoyaning funksional jihatlarida umumiy zo‘riqish ko‘rsatkichi saqlanib qolsa-da, ibtidoiy himoya qiymatlarining pasayishi kuzatildi (o‘rnini egallash, orqaga qaytish, rad etish) va yuksak himoya mexanizmlari (kompensatsiya, giperkompensatsiya) kuchayganligi aniqlandi.

- Yuqoridagi o‘zgarish talabalarning maqsadga erishishlarida faol bo‘lishga, shaxs xususiyatlarining namunali va meyoriy namoyon bo‘lishini ta’minlashga imkon berdi.

- aniqlangan o‘zgarishlar talabalarni psixologik himoya tizimining samaradorligini oshirishga va ularning yangi faoliyat darajasiga osonlik bilan o‘tishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Изд-во Эксмо, 2003. –256 с.
2. Мктрчян М.А. Проблема фрустрации и защитные механизмы личности: автореф. дис. … канд. психол. наук. – Ереван, 1975. – 26 с.
3. Фрейд З. Психология бессознательного. – М.: Просвещение, 1989. 448 с
4.Файзиева М. Шахснинг психологик ҳимоя механзмлари. Монография. – Қарши: “Насаф”, НМИУ. 2021. - 143 бет.

UDK:152.22

Djuxonova Noxida Xayotjonovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Orcid: 0000-0002-8935-4504

ETNIK STEREOTIPLAR VA IJTIMOIY USTANOVKALARNI ILMIY TADQIQ ETISHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek va qirg‘iz qizlarini etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalarini differentsial namoyon bo‘lishiga ko‘ra oilada muomala maromlarini o‘zlashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish, vaziyatni oqilona baholash va qiyinchiliklarga nisbatan sabr-toqatni tarkib toptirish orqali oilaga tayyorlikka erishishini asoslab berilgan. O‘zbek va qirg‘iz qizlarining etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalarini ifodalanishiga ko‘ra ijtimoiy qadriyatlari, shaxslararo emotsional va kognitiv xulq-atvor komponentlarining oilaviy hayotga tayyorlik darajasiga ta’sirini belgilovchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ekanligini isbotlab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *etnik stereotip, ustanovka, kognitiv, ruhiy-emotsional, psixosemantik, antropologik, emotsional-ekspressiv, ‘‘go‘zallik effekti’’.*

КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ НАУЧНОГО ИЗУЧЕНИЯ ЭТНИЧЕСКИХ СТЕРЕОТИПОВ И СОЦИАЛЬНЫХ УСТАНОВОК

Аннотация. *В данной статье обосновано, что у узбекских и киргизских девушек этнические стереотипы и психологические установки проявляются различным образом в процессе освоения норм общения в семье, саморегуляции, разумной оценки ситуаций и развития терпения к трудностям, что способствует их подготовке к семейной жизни. Доказано, что этнические стереотипы и психологические установки узбекских и киргизских девушек, в соответствии с их проявлением, являются социально-психологическими характеристиками, влияющими на степень готовности к семейной жизни через социальные ценности, межличностные эмоциональные и когнитивные компоненты поведения.*

Ключевые слова: *этнический стереотип, установка, когнитивный, психоэмоциональный, психосемантический, антропологический, эмоционально-экспрессивный, "эффект красоты".*

CONCEPTUAL BASIS OF THE SCIENTIFIC RESEARCH OF ETHNIC STEREOTYPES AND SOCIAL STANDARDS

Abstract. *In this article, according to the differential manifestation of ethnic stereotypes and psychological institutions of Uzbek and Kyrgyz girls, the content of mastering family etiquette, self-management, rational assessment of the situation, and patience in the face of difficulties it is justified that the readiness for the family is reached through the acquisition. According to the expression of ethnic stereotypes and psychological institutions of Uzbek and Kyrgyz girls, social values, interpersonal emotional and cognitive behavioral components have been proven to be social-psychological characteristics that determine the influence of the level of readiness for family life.*

Key words: *ethnic stereotype, ustanovka, cognitive, spiritual-emotional, psychosemantic, anthropological, emotional-expressive, "beauty effect".*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda yoshlarni ma’naviy-psixologik jihatdan yuksaltirish, oilada qizlarning ma’naviy-axloqiy va ruhiy olamini shakllantirish va rivojlantirishga ulkan ahamiyat berilgan bo‘lib, mazkur muammoning zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi. «Oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, «Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat» g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini yuritish...»[1], «...Oila qanchalik mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo‘ladi»[2] tamoyiliga asoslanib, qizlarni oilaga tayyorlash ishlarini amalga oshirish hamda takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni olib borishning imkoniyatlari yaratildi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi to‘g‘risida Nizom. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 apreldagi 228-son qaroriga 1-ilova.

[2] https://daryo.uz 26.12.2020

Har bir davlat oilani himoya qilish, ularning barqarorligini ta'minlash uchun yetarli va zarur sharoitlarni ta'minlashga harakat qiladi. Buning uchun esa qonunchilikda oilaga bag'ishlangan, uning zarurati va barqarorligini ta'minlaydigan hamda oiladagi umumbashariy qadriyatlarni saqlab qoladigan normalarni belgilash muhimdir.

Nikoh va oilaning ruhiy-emotsional negizlari, qiz bolalarni nikoh va oilaga, ma'nan va ruhan tayyor ekanligi inchunun, nikoh va oilaga qarashlar borasida qizlarni axloq-odobini me'yorga chaqirish to'g'risidagi tushunchalar tarkibini takomillashtirish muhim vazifa sifatida qaraladi. Oilaning an'ana va qadriyatlari ahamiyatining zaiflashuvi, qizlarni oilaga tayyorlashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalari ularni ijobiy va salbiy tomonlari nikoh munosabatlarining transformatsiyasi yosh yigit-qizlarni oilaga tayyorlash ularni juda yosh oila qurishlar soni ko'payishi, yoshlarning nikoh munosabatlarining rasmiy talablariga nisbatan e'tiborsizligi kabi xolatlarning jamiyatga ta'sir etishi sababli ijtimoiy-psixologik mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratish dolzarblashib bormoqda.

Ijtimoiy psixologiyada "stereotip" atamasi ma'lum bir toifadagi odamlarga nisbatan haddan tashqari umumlashtirilgan e'tiqod sifatida ta'riflanadi. Stereotiplar umumlashtiriladi, chunki ma'lum bir stereotip toifadagi har bir shaxsga alohida to'g'ri keladi.Tez qaror qabul qilishda bunday umumlashtirish foydali bo'lishi mumkin bo'lsada, har bir shaxsga alohida-alohida qo'llanilsa, ular noto'g'ri bo'lish ehtimolini yuzaga keltiradi. Stereotiplar noto'g'ri qarashlarni rag'batlantiradi" va bir qancha sabablarga ko'ra namoyon bo'lishi mumkin[1].

Stereotipning ob'ektiv zarurati va psixologik funktsiyasini tushuntirish uchun 1922-yilda fanga "ijtimoiy stereotip" tushunchasi kiritilgan [Lippman, 2004]. Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan atrof-muhitdan olingan murakkab ma'lumotlarni soddalashtirish va tizimlashtirish asosida ijtimoiy bilish jarayonidagi stereotiplar shaxslarni ijtimoiy dunyoni barcha murakkabligi bilan talqin qilishga olib borishi amalga oshadi. Stereotiplar faqat yuqori, aniqroq va individual tasvirlarga erishib bo'lmaydigan hollarda qo'llaniladi.

Ijtimoiy stereotiplar ijtimoiy toifalash deb ataladigan psixologik hodisa bilan bog'liq. Shu sababli, biz boshqa odamlarni ma'lum ijtimoiy guruhlarga ajratishga moyil bo'lamiz. Bu sodir bo'lganda, biz har bir kishiga individual sifatida emas, balki ko'proq o'z guruhining a'zosi sifatida munosabatda bo'lishni boshlaymiz.

Har bir kishida hamkorlikdagi faoliyat jarayoni va o'zaro ta'sirlar natijasida boshqalarni baholashda foydalaniladigan etalonlar vujudga keladi. Bu etalonlar asta-sekin shakllanib borganligi sababli shaxsning o'zi ham buni sezmay qolishi mumkin.

Mazkur stereotiplar to'liq anglanmagan bo'lsa ham ba'zan ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Inson buni qanchalik anglaganligidan qat'i nazar u atrofdagilarni ana shu stereotiplar prizmasi orqali idrok qilishda davom etaveradi.

Stereotiplarni tadqiq qilishning aksariyati etnik stereotiplarga bag'ishlangan. Biroq, to'plangan empirik materiallarning katta miqdoriga qaramay, bir qator fundamental masalalar, jumladan, stereotiplar haqiqati muammolari, stereotip va xulq-atvor o'rtasidagi munosabatlar hal qilinmagan. Ushbu muammolarning hali qoniqarli hal qilinmaganligining sabablaridan biri bu ijtimoiy psixologlarning uslubiy qurollanishining yetarli emasligidir.

Stereotiplarni o'rganishda [Soldatova,1998], ularning uchta "o'lchamlari" ko'pincha empirik tadqiqotlarga duchor bo'ladi, ya'ni: mazmuni, yo'naltirilganligi umumiy maqbullik o'lchovi va maqbullik darajasi sifatidagi xususiyatlar bir xil tartibda emas, balki stereotipdagi asosiy kognitiv tarkibi va yo'nalishi ma'lum bir tarkibning hissiy tomoni deb talqin etilgan.

Jumladan, o'zga ixtiyoriy bir ijtimoiy-psixologik voqeani kuzatishda bo'lgani singari, milliy stereotiplarning hamma tuzilmasi tomonlarini, ularning hamma jihatlarini isbotlashga iloj topiladigan konkret yo'llar mavjud emas. Har bir uslubiy vosita o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Hozirgi vaqtda ma'lum bir etnik guruh imidjining tarkibiy qismlarini miqdoriy o'lchashga imkon beradigan psixosemantik usullarga katta e'tibor qaratilmoqda, ya'ni uni to'g'ri psixologik o'rganishga yaqinlashish mumkin.

Etnik stereotiplar - bu ijtimoiy stereotiplarning bir turi bo'lib, ya'ni etnik guruhlar a'zolarini tavsiflovchi, ularga tegishli yoki ular bilan bog'liq bo'lganlar hisoblanadi.

[1] https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5175

Psixologik nuqtai-nazardan stereotiplashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a'zolariga moslashuvi jarayonidir. Demak, etnik stereotiplari yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruhlarning vakillari to'g'risidagi umumiy xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhning qadriyatlarini himoya qilishga intilish bilan birga juda ko'p axborotlarni "o'zlashtirish" uchun kundalik fikrlashda "kuchlarini tejash" prinsipidan foydalanish zarurligidir. Milliy psixologiya elementi bo'lmish, etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emotsional, rasional, irodaviy elementlar majmuidan iborat bo'ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga molikdir.[1]

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yilliklarda ijtimoiy psixologiyada stereotiplar - bilishning oqilona shakli sifatida, ya'ni mukammal tasniflash jarayonining alohida holati sanaladi. Bu borada ijtimoiy toifalarni yaratishda ma'lum bir guruhga mansub odamlar bir-biriga o'xshash va boshqa guruhlardan farq qiladigan xususiyatlarga e'tibor qaratish maqsadli.

Stereotiplarni tasniflashning bir necha variantlari mavjud. V.N.Panferovning fikricha, stereotiplar -antropologik, ijtimoiy, emotsional-ekspressiv kabi guruhlarga bo'linadi.

A.A.Rean esa ijtimoiy-psixologik stereotiplarni-antropologik, etnomilliy, ijtimoiy-statusli, ijtimoiy-rolli, ekspressiv-estetik, verbal xulq-atvorli kabi guruhlarini ajratib ko'rsatgan. Mazkur etalon-stereotiplar insonlar haqida ma'lumot kam bo'lganda, dastlabki taassurotlar yordamida fikr yuritish kerak bo'lib qolgan vaziyatlarda ishlab chiqiladi.

Antropologik stereotip odamning ichki va psixologik xususiyatlarini baholash uning antropologik belgilari, ya'ni tashqi ko'rinishi bilan bog'liq holda shakllanadi.

Etnomilliy stereotiplar kishini psixologik baholash uning irqi, millati va qaysi etnik guruhga taalluqli ekanligidan kelib chiqqan holda amalga oshirilganda namoyon bo'ladi.

Tadqiqotlardan ma'lumki, insonlarda notanish kishi haqidagi fikrlar ular mansub bo'lgan milliy yoki etnik guruh haqidagi mavjud tasavvurlar asosida shakllanadi.

Ayniqsa, bunday stereotiplar mazkur millat haqida juda kam ma'lumotga ega insonlarda kuchliroq tarzda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy statusli stereotiplar kishining shaxsiy sifatlari uning ijtimoiy maqomiga mos holda baholanganda kuzatiladi. Tasavvur etilayotgan odamning sotsial statusi nechog'lik yuqori bo'lsa, uning nainki ruhiy, hattoki jismoniy jihatlari ham shuncha yuksak qadrlanadi.

Ijtimoiy rolli stereotiplar shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, uni egallab turgan ijtimoiy roli va vazifalaridan kelib chiqqan holda baholanganda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy rolli stereotiplarning o'ziga xos majmui mavjud.

Hozirda ijtimoiy-rolli stereotiplar mavjudligini tasdiqlovchi ko'plab tajribalar o'tkazilmoqda. Shunday tajribalarning birida eksperimentatorning yordamchisi tekshiriluvchilar oldiga harbiylar kiyimi va boshqa kostyumda chiqqan. Tekshiriluvchilardan uning shaxsga xos sifatlari baholanishi so'ralganda berilgan baholarga ularning qanday kiyimda ekanliklari ta'sir qilganligi ma'lum bo'ldi.

Ekspressiv-estetik stereotiplar shaxsga berilayotgan bahoning uning tashqi ko'rinishi, jozibadorligi ("go'zallik effekti") bilan bog'liqligidir. Baholanayotgan shaxs qanchalik jozibali bo'lsa, berilayotgan baho shunchalik pozitiv (ijobiy) bo'ladi. Tashqi joziba o'z ichiga jismoniy go'zallik, kiyinish, harakatlarning nozikligi va his-tuyg 'ularning ifodalanishi (ekspressiya)ni ham oladi.

Verbal-xulq-atvor stereotiplari ham shaxsni baholashning tashqi xususiyatlarga - ekspressiya, nutq, mimika (yuz ifodasi), pantomimika va boshqalarga bog'liqligida aks etadi. Biroq bu vaziyatda "jozibadorlik" unchalik muhim xususiyat emas. Ko'pchilik kishilar "Siz insonlarning ichki dunyosini ularning tashqi ko'rinishiga qarab baholaysizmi?" degan savolga "yo'q" deb javob bersalar ham tajribada olingan ma'lumotlar buning aksini ko'rsatmoqda.

A.Miller tomonidan o'tkazilgan tajribada insonlarning uch guruhda -chiroyli, oddiy va chiroyli bo'lmagan (xunuk xolatdagi) fotosuratlari ajratib olingan. Tekshiriluvchilardan ana shu fotosuratdagi kishilarni qanday psixologik xususiyatga ega ekanliklarini baholash so'ralgan. Natijalarga ko'ra, "chiroyli"larga berilgan ta'riflar - o'ziga ishonuvchan, baxtli, samimiy, muvozanatli, g'ayratli, topqir, ma'naviy dunyosi boy va boshqalardan iborat bo'lgan.

Ekspressiv-estetik stereotiplar insonlar faoliyati natijasini baholashga ham o'z ta'siri ko'rsatar ekan. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, tashqi go'zallik nafaqat kishiga berilayotgan bahoga, balki baholayotgan odamning xulq-atvoriga ham ta'sir etishi mumkin ekan.

[1]Mo'tabar Muxtorovna Jalilova.Shaxs ma'naviyati qadriyat va etnik stereotiplar uyg'unligi muammosining psixologik mexanizmlari. "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3.

Amerikalik psixologlar tomonidan yirik firmalarning birida shunday tajriba o‘tkazishgan. Yangi ishga qabul qilinayotgan xodimlar ikki bosqichli suhbatdan o‘tishgan. Birinchi suhbat o‘rtacha tashqi ko‘rinishga ega bo‘lgan, ikkinchi suhbat esa juda chiroyli xodim tomonidan olib borilgan. Har ikki suhbat bosqichi videotasmaga tushirib olingan.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ikkinchi bosqichda, ya’ni chiroyli xodim oldida nomzodlar o‘zlarini juda g‘alati tutishgan, yutuqlarini oshirib ko‘rsatishga, yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilishgan. Buning natijasida esa jumlalarni tuzishga qiynalishgan, fikrlash tempi sustlashgan, xullas, mazkur o‘ringa da’vogar bo‘la olmasliklariga ishonib qolishgan.

Stereotip muammosi pedagogik faoliyat jarayoniga ham ta’sir etuvchi mexanizm sifatida, o‘quvchi yoki pedagog shaxsini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladi. Uning ijtimoiy, emotsional-ekspressiv turi ko‘proq, antropologik turi esa kamroq uchraydi.

Shaxsiy pedagogik tajriba davomida har bir o‘qituvchiga nisbatan o‘ziga xos stereotiplar - “a’lochi”, ”ikkichi”, “faol” kabi tushunchalar shakllanib boradi. O‘quvchilar bilan ilk bor uchrashgan vaqtidanoq pedagog ularda mazkur sifatlar bor yoki yo‘qligini qidira boshlaydi. Albatta bu stereotiplar o‘zgarmas emas, ular sub’ektiv va individual tabiatga egadir. Har bir pedagogning tajribasiga bog‘liq holda shakllangan o‘z stereotiplari mavjud bo‘ladi. Masalan, o‘quvchi materialni yaxshi o‘zlashtirsa, demak, u qobiliyatli, vijdonli, mas’uliyatli, intizomli; yomon o‘zlashtirsa dangasa, diqqatini to‘play olmaydigan, mas’uliyatsiz deb idrok qilinadi.

Pedagogik muloqot jarayonida emotsional-estetik stereotiplar ham ma’lum ahamiyat kasb etishi mumkin. O‘quvchi shaxsiga xos xususiyatlarni uning tashqi ko‘rinishiga qarab baholash bir qaraganda unchalik haqiqatga mos kelmaydigandek va hayratlanarli bo‘lib tuyuladi, ammo bu holat nafaqat o‘smirlarga, hatto kichik yoshdagi bolalarga nisbatan munosabatda ham kuzatilishi mumkin ekan.

Xulosa qilganimizda bunday keng tarqalgan va yo‘naltirilgan stereotiplar ta’lim jarayonida uchrab turadi. A.A.Bodalev tomonidan olib borilgan tajribalarning birida talaba-qizlarga yetti yoshli bolalarning xatti-harakatlarini baholash so‘ralgan. Ularga “kichik aybdor”larning fotosuratlari ham qo‘shib berilgan. Bo‘lajak pedagoglar tomonidan berilgan javoblar tahlil qilinganda, ma’lum bo‘lishicha, tashqi ko‘rinishi jozibali bo‘lgan bolalarning xulq-atvori muhokama qilinganda unga nisbatan yumshoqroq, avaylab munosabatda bo‘lishgan. Britaniyalik psixolog A.Teshfel stereotiplar nafaqat shaxsning qadriyatlarini, balki uning ijtimoiy o‘ziga xosligini ham himoya qilishga qodir ekanligini ta’kidlagan [A.Teshfel 1981].

Shundan kelib chiqib, stereotipning asosiy ijtimoiy-psixologik funktsiyalari guruhlararo differentsiatsiya yoki ko‘pincha o‘z guruhi foydasiga baholovchi taqqoslash va uning yordami bilan amalga oshiriladigan ijobiy ijtimoiy o‘ziga xoslikni saqlash deb hisoblanishi kerak.

Boshqacha qilib aytganda, stereotiplarning maqsadi guruhning munosabatlarini, birinchi navbatda, boshqa guruhlar bilan emas, balki o‘z ichida o‘rnatish, uning a’zolariga tarix girdobida o‘zlarini aniqlashga imkon beradigan tasvirni yaratishdir. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy stereotiplarning “yagona vazifasi” ramziy, ammo ijtimoiy hamjamiyatning yaxlitligini ta’minlashdir[1].

Biroq, boshqa odamlar guruhlarining afzalliklari ham mavjud. Etnik ozchiliklar kabi past maqomli guruhlar jamiyatdagi nisbatan past mavqeini qabul qilishi mumkin. Bunday hollarda ular salbiy avtostereotiplarni (o‘z guruhining stereotiplari) va ijobiy geterostereotiplarni (boshqa birovning guruhining stereotiplari) rivojlantirishga moyildirlar.

A.Teshfel shuningdek stereotipning ikkita ijtimoiy funktsiyasini aniqlagan:

1) guruhlar o‘rtasidagi mavjud munosabatlarni tushuntirish, shu jumladan murakkab va “odatda qayg‘uli” ijtimoiy hodisalarning sabablarini izlash;

2) mavjud guruhlararo munosabatlarni asoslash, masalan, boshqa odamlarning guruhlariga nisbatan sodir etilgan yoki rejalashtirilgan harakatlar.

Shunday qilib, stereotiplarning mazmuni psixologik emas, balki ijtimoiy omillar bilan belgilanadi, hukmronlik va bo‘ysunishga asoslangan guruhlararo munosabatlarning barqarorligiga hissa qo‘shadigan, stereotipning o‘zi mexanizmi emas, balki aynan salbiy stereotiplardir.

Muhokamava natijalar Oilashunos, psixolog olim G‘.B.Shoumarov tomonidan yaratilagn “Nikohga ma’naviy tayyorgarlik” testi aynan bizning ilmiy ishimiz mavzusiga tegishli metodikalardan biri bo‘lib, u tadqiqot ob’ektimizdagi nikoh yoshidagi o‘zbek va qirg‘iz qizlarini nikohga tayyorgarligini ko‘rsatib bera oladi. Chunki qizlarni oilaga tayyorligiga o‘z ishonchni baholashdan va

[1] https://psyfactor.org/lib/stereotype8.htm

kelajakda bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining xulq-atvorini o‘rganish va unga dastlabki moslashuvni boshlashligi bilan ko‘rsatib o‘tish lozim. Mazkur test orqali olingan natijalar 340 nafar o‘zbek oilasi oilasida voyaga yetgan qizlar (n=340) va 189 nafar qirg‘iz oilasida balog‘atga yetgan qizlar (n=189) bo‘lib, olingan natijalar tahlil etildi.

Tadqiqot ishida qo‘yilgan vazifalar o‘z tasdig‘ini topish uchun har ikki millat vakillari qizlarining fikrlari va ularning oilaviy hayotga tayyorgarligi, etnik stereotiplari va psixologik ustanovkalarida namoyon bo‘ladigan farqlar empirik aniqlandi.

So‘rovnomaga kiritilgan savollarni 5 ta shkalaga kiritildi. Bu borada o‘zbek va qirg‘iz qizlarining “Oilaviy hayot haqida tasavvurlarining darajasi”, “Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berish istaklari”, “Baxtli oila qurish uchun nimalarni bilish istaklari”, “Oila qurgandan so‘ng onalik ma’suliyatiga tayyor deb hisoblashlari”, “Ayol rolini bajarishga to‘laqonli tayyor deb hisoblashlari” kabi tasavvurlarining statistik tahlili aniqlandi. Tadqiqotda 340 nafar o‘zbek qizlari, 189 nafar qirg‘iz qizlari respondentlar guruhini tashkil etdi. 3.1. – jadvalda natijalar keltirilgan.

Tadqiqot ishida o‘zbek va qirg‘iz qizlarini yashash hududi bo‘lgan Farg‘ona va Andijon viloyati bo‘yicha ham farqlanishini aniqlandi. Olingan natijalar 2.1. – jadvalda natijalar keltirilgan.

Jadval-1

“Qizlarning oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari” so‘rovnomasining hududlar bo‘yicha natijalari
(Farg‘ona va Andijon viloyatlarining qizlari misolida)

Shkala	Xu-dud	O‘rta-cha	Dis-persiya	n	t
Oilaviy hayot haqida tasavvurlari darajasi	F	1,93	0,45	340	1,28
	A	1,85	0,41	189	
Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berish istaklari	F	2,40	1,01	340	-1,68
	A	2,57	1,27	189	
Baxtli oila qurish uchun nimalarni bilish istaklari	F	1,99	0,53	340	-2,54*
	A	2,17	0,62	189	
Oila qurgandan so‘ng onalik ma’suliyatiga tayyor deb hisoblashlari	F	2,01	0,83	340	-0,22
	A	2,02	0,78	189	
Ayol rolini bajarishga to‘laqonli tayyor deb hisoblashlari	A	2,01	0,83	340	-0,18
	F	2,02	0,80	189	

Izoh: *p<0,05; **p<0,01;***p<0,001; F – Farg ‘ona; A - Andijon

1-jadvalda mazkur so‘rovnomadan olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona va Andijon hududidagi qizlarda “Oilaviy hayot haqida tasavvurlaringiz qay darajada” deb berilgan savolga umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan farq aniqlandi t=1,28; p<0,05. Qirg‘iz millatidagi qizlarda esa olingan bunday qarashlar jamiyatda milliy an’analar va oilalarda hamon eskicha urf-odatlarning davom etayotgani bunga misol bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, “Mustahkam oila qurishda nimalarga e’tibor berishni istaysiz?” deb berilgan savolga Farg‘ona va Andijon hududidagi qizlarda umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi t=-1,68; p<0,05. Navbatdagi “Baxtli oila qurish uchun nimalarni bilishni istaysiz?” degan savolga har ikki millat qizlarida umumiy natijalarning o‘rta arifmetik qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi t = 2,54; p<0,05.

Natijalariga ko‘ra, respondentlardagi baxtli oila haqidagi tasavvurlarning boyitilishi ya’ni, “pul topishni”, “xulq –atvor qoidalari”, “xo‘jalik yuritishni”, “nizolarni bartaraf etishni” va “boshqalar” kabi variantlarni tanlanishiga qarab ularning oldidagi vazifasiga nisbatan ushbu javoblar olindi. Bunga aynan har ikki hududda yashaydigan qizlarda oilasining baxtli bo‘lishi uchun har bir oila a’zosi xщjalik yuritishni bilishlari, oiladagi xulq-atvor qoidalari va normalariga amal qilishlari, oilada yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish yo‘llarini bilishlari hamda oilaning iqtisodiy tomoniga o‘z hissasini qo‘shishi lozimligi aniqlandi. Shuningdek, “Siz o‘zingizni oila qurgandan so‘ng onalik ma’suliyatiga tayyor deb hisoblaysizmi?”degan savolga har ikki millat qizlarida umumiy natijalarning o‘rta arifmetik

qiymatlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. t = -0,22; p<0,05. Bunga qizlarni nikohga tayyorlashning ta’lim bilan bog‘liq tizimi mavjud emasligi, qizlarni nikohga tayyorlash jarayoni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmagan hamda qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning aniq metodikasi ishlab chiqilmaganligi, ularni asosan majburiy tarzda ishtirok etishlari, aksariyat hollarda auditoriya xuddi majburlab bir joyga to‘planganday tuyulishi va tadbirlarning ta’sirchanligi, bo‘lajak turmush o‘rtog‘ining oila a’zolari, ayniqsa, qaynona bilan ijobiy, ishonchli munosabatlarni o‘rnatishga hali tayyor emasliklari, qizlarga qaynonaning jamiyatda keng tarqalgan salbiy qiyofasi ta’sir qilsa, boshqa tomondan, ularda munosabatlar psixologiyasi, oilaviy hayotda o‘z huquq va majburiyatlari haqidagi bilimning yetishmasligi sabab bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki o‘zbek va qirg‘iz qizlarining oilaviy hayotni qurishlari, ularning turmush kechirishidagi qiyinchiliklarga uchrab qolishlari ehtimolini kamaytirishda psixologik ustanovkalarni, etnik stereotiplarning o‘ziga xos xususiyatlarini empirik tadqiq qilishda uslubiy yondashmoq zarurligi asoslandi.

Foydalanildan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. – T.: «Adolat», 1998. – 302 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T: «O‘zbekiston», 2018.– 40 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 fevraldagi «2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish kontseptsiyachini tadiqlash to‘g‘risida»gi PQ- 4190 - son qarori/Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.02.2019 y., 07/19/4190/2614-son.
4. Akmalovna A. F., Xayotjonovna D. N. Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish //so ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – T. 6. – №. 12. – C. 282-291.
5. Akmalovna, Akramova Feruza, and Djuxonova Noxida Xayotjonovna. "Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish. So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 282-291.
6. Akmalovna, A. F., & Xayotjonovna, D. N. (2023). Qizlarni oilaga tayyolashda etnik stereotiplar va psixologik ustanovkalarini o‘rganish. so ‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi, 6(12), 282-291.
7. Dzhukhonova N. Studying ethnic stereotypes and psychological standards in preparing girls for a family //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B5. – C. 13-16.
8. Dzhukhonova, N. "Studying ethnic stereotypes and psychological standards in preparing girls for a family." Science and innovation 2.B5 (2023): 13-16.
9. Dzhukhonova, N. (2023). Studying ethnic stereotypes and psychological standards in preparing girls for a family. Science and innovation, 2(B5), 13-16.
10. Djuxonova N., Qovlonbekov A. Oilaviy nizolar va ularning tavsifi //Conference Zone. – 2023. – C. 289-296.
11. Djuxonova, N., and A. Qovlonbekov. "Oilaviy nizolar va ularning tavsifi." Conference Zone. 2023.
12. Djuxonova, N., & Qovlonbekov, A. (2023, February). Oilaviy nizolar va ularning tavsifi. In Conference Zone (pp. 289-296).

Ostanov Shuhrat Sharifovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARNI DESTRUKTIV G‘OYALAR TA’SIRIDAN HIMOYALASH IJTIMOIY - PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yoshlarning destruktiv g‘oyalar, guruhlar ta’siriga tushib qolishining sabab va motivlarini aniqlash hamda mazkur holatning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini yaratish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. O‘smir va o‘spirinlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasi bo‘yicha nazariy ma’lumotlar ochib berilgan. Shuningdek destruktiv g‘oya tushunchasining ijtimoiy-psixologik mohiyatini aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *O‘smir, xulq-atvor, destruktiv, shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishi, agressiya, depressiya, pxsixokorreksiya, psixokonsultatsiya, diagnostika.*

ЗАЩИТА МОЛОДЕЖИ ОТ ВЛИЯНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫХ ИДЕЙ КАК СОЦИАЛЬНО - ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. *В данной статье разработаны предложения и рекомендации по выявлению причин и мотивов деструктивных идей, группового воздействия на молодежь и созданию системы профилактических мер, направленных на предупреждение данной ситуации. Выявлены теоретические данные по психокоррекции деструктивного поведения у подростков и подростков. Также выявлена социально-психологическая сущность понятия деструктивная идея.*

Ключевые слова: *подростковый, поведенческий, деструктивный, становление и психическое развитие личности, агрессия, депрессия, психокоррекция, психоконсультация, диагностика.*

PROTECTING YOUNG PEOPLE FROM THE INFLUENCE OF DESTRUCTIVE IDEAS AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEM

Annotation. *This article develops proposals and recommendations for the creation of a system of preventive measures aimed at identifying the causes and motives of youth falling under the influence of destructive ideas, groups, and preventing this situation. Theoretical data on destructive behavioral psychocorrection has been revealed in adolescents and adolescents. Also identified the socio-psychological nature of the concept of a destructive idea.*

Key words: *adolescent, behavioral, destructive, personality formation and psychic development, aggression, depression, pxsychocorrection, psychoconsultation, diagnostics.*

Kirish. Bugungi kunda bir qator destruktiv guruhlar butun dunyo mamlakatlari hududlarida faoliyat yuritib, bu davlatlar siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ma’rifiy hayotida bir qancha muammolar tug‘dirib kelmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, yildan-yil amalga oshirilayotgan terrorchilik harakatlari soni ortib bormoqda, birgina 2018-yili dunyoda 15,3 ming marta terakt sodir etilgan; O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2019-yil 12-martdagi hal qiluv qaroriga ko‘ra, internet jahon axborot tarmog‘idagi 40 nomdagi o‘zbek tilida yuritilayotgan profil, kanal va sahifalar ekstremistik va terroristik deb topildi; yer yuzida har 40 soniyada bir kishi o‘z joniga qasd qiladi, suiqasd tufayli har yili deyarli bir million inson hayotdan ko‘z yumadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, dunyodagi global o‘zgarishlar davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Hozirgi globallashuv jarayonida shaxs ongini egallashga qaratilgan xurujlardan saqlanish, har bir kishi ongida mustahkam ma'naviyatni shakllantirish, yoshlarni destruktiv guruhlar ta'siridan asrash, jamiyatimizdagi har bir fuqaro ongida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizga tayangan holda mafkuraviy immunitet, xavfsizlikni ta'minlashda antimanipulyativ, assertiv xulq-atvorni tarkib toptirish muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Bu esa kelajakda shaxs xavfsizligi, qolaversa, jamiyat hamda davlatning xavfsizligini ta'minlanishda garov vazifasini o'taydigan omillardan hisoblanadi.

O'smirlarda destruktiv xulq-atvor psixokorreksiyasini psixologik tadqiq etish orqali ularni turli guruhlar, oqimlarga kirishining oldini olish, shuningdek, destruksiya tufayli oila, ta'lim muassasasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlar, suiqasd, va boshqa jinoyatlarning oldini olish mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsning destruktiv xulqi, destruktiv faoliyat fenomeni so'nggi yuz yillik davomida ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lib kelmoqda. Dastlab bu mavzuga Erix Frommning yirik ilmiy ishi – "Inson destruktivligi anatomiyasi" kitobi alohida bag'ishlangan. "O'yinlar nazariyasi" va "transaksion tahlil"ning asoschisi E.Bern o'z qarashlarida o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladigan psixologik manipulyasiya unsurlarini yoritgan.

D.Karnegi kishilarni boshqarish masalasiga e'tiborini qaratib, boshqaruvni jamiyatda yashayotgan har bir qatlamning ontogenetik davr mobaynida shakllangan psixologik holatlaridan kelib chiqib amalga oshirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatib o'tgan.

E.Shostrom esa manipulyativ psixologiyani birinchi bor kompleks tarzda o'rganib, manipulyasiyani zamonaviy jamiyatning muammosi sifatida tahlil qilgan.

A.Maslou har bir shaxsda ifodalanadigan antimanipulyativ (assertiv) xulqni o'rganishda muayyan mezon asosida ish ko'rib, shaxsning o'zini o'zi ro'yobga chiqarish tushunchalarini ilmiy istilohga kiritgan.

V.Sheynovning "Yashirin boshqarish psixologiyasi" asarida manipulyasiyani o'rganish yuzasidan jahon maktabini yaratgan xorij psixologlarining nazariyalari tahlil qilingan.

Rus psixologi I.Vagin saylov texnologiyasi asosida siyosat sohasida manipulyativ psixologiya konsepsiyasini yaratgan va o'z qarashlari bilan jamiyatda ayrim jarayonlar sub'yektiv tarzda boshqarilishini ko'rsatib o'tgan.

N.Kozlov shaxsning evolyusion tarzda shakllanish jarayonidagi qadriyatlari mustahkamligi unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan turli destruktiv munosabatlardan himoyalanishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydi.

S.Kara-Murza shaxsni manipulyativ tarzda boshqarishda avvalo ong faoliyatining o'rnini, mexanizm va qonuniyatlarini nazariy va amaliy talqin qilib, so'ng antimanipulyativ xulqni shakllantirish kerakligini ko'rsatgan.

L.Mixaylov, V.Solomin, T.Malikova va O.Shatrovalar antimanipulyativ xulqning sub'yektiv va ob'yektiv omillarini o'rganib, har bir shaxs normal hayot tarziga turtki bo'layotgan xavflarni aniqlash lozimligini ta'kidlaganlar.

O'zbekistonlik faylasuf, sotsiolog, psixolog va pedagog olimlar ham mazkur muammo yuzasidan izlanishlar olib borishgan. Jumladan, A.X.Yugay, S.M.To'ychiyeva, D.X.Qarshibayevalar o'z ilmiy tadqiqotlarida o'quvchilardagi antimanipulyativ xulq avvalo, ta'lim muassasalarida shakllantirilishi lozimligini, buning uchun ta'lim jarayoniga e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatib o'tganlar.

R.Samarov o'z ilmiy ishida jamiyatda mavjud bo'lgan destruktiv xulqlarni aniqlash, ularning metodologik asoslarini tahlil qilish, taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ko'rsatish hamda har bir davlatning milliy manfaatidan kelib chiqib, muammoning xavflilik darajasini yoritish, unga siyosiy tus berish zarurligini ta'kidlaydi.

A.Tashanov, Sh.Mustafayevaning ilmiy ishlarida buzg'unchi g'oyalarning milliy o'zlikni anglashga salbiy ta'siri, bugungi global o'zgarishlar sharoitida mafkuraviy, destruktiv tahdidlar

va ularning milliy o‘zlikni anglash, yoshlar tarbiyasiga salbiy ta’siri ijtimoiy-falsafiy, psixologik jihatdan maxsus tadqiq etilgan.

Mazkur yo‘nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiq:

- yoshlik davriga xos psixologik himoyaning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash;
- tashqi muhitga va psixologik jihatdan destruktiv ta’sirga ega axborotga qarshi yo‘naltirilgan (ichki) psixologik himoyaning turlari hamda ko‘rinishlarini tasnif qilish;
- psixologik himoya mexanizmlarining faolligini ta’minlovchi shaxsning hissiy va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganish;
- psixologik himoyaning yetakchi mexanizmlari asosida shaxsning yoshlik davriga xos psixologik portretini ishlab chiqish.

Destruktiv sektalarga qarshi kurash borasida dunyodagi eng yetakchi tashkilotlardan biri bo‘lgan Amerika Oila Fondi qo‘llanmalarida sektalarga kishilarni jalb qilish bilan shug‘ullanadigan shaxsning to‘rt xil belgi, xususiyatlari ko‘rsatib o‘tiladi:

-shu paytgacha uchratilgan insonlar orasidagi eng do‘stona munosabatda bo‘ladigan odam;

-ob’yekt nimalarni, qanday faoliyatni xush ko‘rishi yuzasidan nihoyatda qiziquvchanlikni namoyon qiladigan odam;

-ro‘parasidagi insonga maqtovlar yog‘dirib, iltifot ko‘rsatib, undan energiya, jismoniy yoki aqliy kuch-quvvat, pul, kvartira va hokazolar olish mumkinligiga ishora qiladigan odam;

-barcha, har qanday savollarga javob bera oladigan odam.

Agar uning suhbatdoshi ishonuvchan, sodda ko‘rinsa, oldindan o‘ylangan reja asosida uni suhbatga tortishga, qiziqtirishga harakat qiladi. Bunda quyidagi ko‘rinishda ish olib borishi mumkin:

-a’zolikka nomzodning hissiyotlari, ruhiy holatidan kutilmagan darajada boxabarligini namoyon etib, uning farovonligi, xotirjamligi, yaxshi yashashi uchun kuyib-pishib harakat qilayotganini ko‘rsatadi. Bu esa nomzodda uni tushunayotganliklari to‘g‘risida ishonch hissini uyg‘otadi;

-nomzodning muammolari, tashvishlari yuzasidan kerakli ma’lumotlarni aniqlashtirib ola borib, uning qiziqishlari, mashg‘uloti, niyat, maqsad, orzulariga hamohang ravishda suhbat olib boradi. Muloqot jarayonida suhbatdoshidan ko‘z uzmaydi, unga yaqin holatda turadi, qarama-qarshi jins vakili bo‘lsa, psixologik ma’noda “shahvoniy” hujum qiladi. Yo‘riqchi muvaffaqiyatga erishsa, jalb qilinayotgan insonda unga nisbatan ruhiy yaqinlik, munosabatlarni davom ettirishga moyillik paydo bo‘ladi.

Jalb qilinayotgan inson guruhga qabul qilinishga tayyor deb hisoblansa (bu esa 15 minutlik suhbatdan keyin yoki tasodifiy ko‘rinishdagi bir necha uchrashuvlardan so‘ng aniq bo‘ladi), uni guruhga taklif qiladilar. Yo‘riqchilar odatda a’zolikka nomzodning maslak, qiziqishlaridan kelib chiqib guruhni ta’riflaydilar. Masalan, diniy bilimlarini mukammallashtirishni istagan odam “ulamolar suhbati”ga chaqirilsa, biror ilmiy yo‘nalish, aytaylik, iqtisodiyotga qiziqqan insonning qo‘liga “Iqtisodiyot muammolari bo‘yicha yetuk mutaxassislar ishtirokidagi ilmiy-amaliy seminar” taklifnomasi tutqazilishi mumkin.

Yetarli darajada axborotga ega bo‘lmagan va sodda kishilarda guruh a’zolari juda jonkuyar, mehribon insonlar sifatida yorqin taassurot qoldiradi. Biroq yo‘riqchi va rahbarlarning asl niyatlari xatti-harakatlarida ifodalanmaydi. Ular imkoni boricha tez fursatlarda nomzodning guruh uchun qay darajada qimmatga ega ekanligini, ya’ni pul olib kela olishi yoki boshqa a’zolarni jalb qila olishi mumkinligini aniqlashlari lozim bo‘ladi. Agar unga e’tibor qaratilishi zarur, deb topishsalar, nomzod a’zolikka qabul qilingunga qadar guruh diqqat markazida bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimi mutaxassislari bilan hamkorlikda yoshlarga ko‘rsatiladigan salbiy diniy ta’sirlarning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik dasturlarni amalga oshirish bo‘yicha ishlar samaradorligini kuchaytirish zarur.

Destruktiv guruhlarning ta’lim tizimiga qiziqishlari, mazkur sohadan manfaatdorliklarini quyidagicha ko‘rsatib o‘tish mumkin:

-ta’lim muassasalari bilan hamkorlik natijasida o‘z faoliyati qonuniyligini namoyish qilish va nufuzini ko‘tarish imkoniyatini qo‘ldan bermaslik;

-ta’limga doir axborotlar niqobi ostida o‘z g‘oyalarini, mafkurasini targ‘ib-tashviq etish;

-ko‘plab yangidan-yangi a’zolarni jalb qilish va ommaviy ta’sir ko‘rsatish imkoniyati;

-o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy tarbiyalash borasida o‘zlarining “ijtimoiy-foydali faoliyati”ni targ‘ib qilish.

Qayd etib o‘tish kerakki, destruktiv guruhlar o‘z ta’sirlarini ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida o‘tkazishga harakat qiladilar. Markaziy va mahalliy hokimiyat tuzilmalari, ta’lim tizimi xodimlari ko‘magi vositasida o‘z saflariga ko‘proq a’zolar jalb qilish uchun turli o‘quv seminarlari ko‘rinishida yig‘ilishlar o‘tkazadilar.

Moddiy-texnik qo‘llab-quvvatlanishga muhtoj ta’lim muassasalariga homiylik va insonparvarlik yordami, talabalar va o‘qituvchilar uchun sayohatlar va yozgi lagerlar tashkil qilish ko‘rinishidagi xatti-harakatlari vositasida mazkur muassasalar rahbariyati bilan mustahkam aloqalarni yo‘lga qo‘yib oladilar.

Bu ko‘pincha tasdiqlangan o‘quv dasturlari bilan birga tegishli ekspertizadan o‘tmagan va ota-onalar roziligisiz qo‘llanadigan, destruktiv guruhlar mafkurasi va aqidasi unsurlarini aks ettiradigan dastur va metodikalarning ta’lim jarayonida foydalanilishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa

Destruktiv faoliyat mohiyatini tadqiq etishda insonning biologik, neyrofiziologik va psixik xususiyatlariga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, destruktiv faoliyatning irsiy jihatdan shartlanganligi, destruksiya namoyon bo‘lishida gormonal va asab tizimining tutgan o‘rni, mazkur jarayonga psixik xususiyatlarning ko‘rsatadigan ta’siri masalasi ham tahlil qilinishi lozim.

2.Insonning destruktiv faoliyatiga baho berishda asosiy e’tibor ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo‘ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra, destruksiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan emas, balki, biologik jihatdan ahamiyatli omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева Г.М. «Социалная психология» М. 2005. – С.224.
2. Анохин Р.К. « Системные механизмы высшей нервной деятельности». М.: Найка, 1978. – С.134.
3. Дон Миллер «Как победит страх » М. 1950. – С.221.
4. Загайнов Р.М. «Психолог в команде». М.:ФиС. - 1984. – С.376.
5. Короленко Р. «Психофизиологическая адаптация к экстремальным условиям» Харков. 1998. – С.142.
6. Мерлин В.С. Лекция по психологии мотивов человека. 1971– С. 46.
7. Rasulov A.I. «Psixodiagnostika» T. 2010. – B.105.

Haydarov Shahriyor Shuxrat o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

BO‘LAJAK MUHANDISLARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak muhandislarda psixologik salomatlikni namoyon bo‘lishini empirik asoslari xaqida ma’lumotlar berilgan. Psixologik salomatlikni o‘rganish (xususan, bo‘lajak psixologlarning ruhiy salomatligi, hayot sifatining psixologik komponenti) faoliyat samaradorligini ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, uni tashkil qiluvchi psixologik omillarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *psixologik salomatlik, psixologik va ijtimoiy farovonlik, idrok, xotira, diqqat, tafakkur.*

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ

Аннотация. *В данной статье представлены сведения об эмпирической основе проявления психологического благополучия у будущих инженеров. Исследование психологического здоровья (в частности, психического здоровья будущих психологов, психологической составляющей качества жизни) является одним из приоритетных направлений эффективности деятельности, при этом большое значение имеет разработка психологических факторов, составляющих его..*

Ключевые слова: *психологическое здоровье, психологическое и социальное благополучие, восприятие, память, внимание, мышление.*

SPECIFIC PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE MANIFESTATION OF PSYCHOLOGICAL HEALTH IN FUTURE ENGINEERS

Abstract: *This article presents information about the empirical basis for the manifestation of psychological well-being among future engineers. The study of psychological health (in particular, the mental health of future psychologists, the psychological component of the quality of life) is one of the priority areas of activity effectiveness, and the development of the psychological factors that make it up is of great importance. .*

Key words: *psychological health, psychological and social well-being, perception, memory, attention, thinking.*

Kirish. Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida psixologik salomatlik muammolarini o‘rganish bo‘yicha juda ko‘plab izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, YUNESKO tashkiloti qoshidagi xalqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPSYS (International Union of Psychological Science) tomonidan psixologik salomatlik konsepsiyasi yaratildi. Ayni paytda, bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligini o‘rganish amaliyotini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslarini tadqiq qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan nazariyalarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Shuningdek, bo‘lajak muhandislardagi psixologik salomatlik bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni o‘rganish esa tobora dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda izchillik bilan davom etayotgan barkamol avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash jarayonlarida ularni salomatligini mustahkamlash, ruhiy va jismoniy jihatdan voyaga yetishida psixologik salomatlikning o‘rni hamda uning muammolari tadqiqi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada «Voyaga yetmaganlar orasida psixologik salomatlikni keng targ‘ib etishga va psixik salomatlik bilim va ko‘nikmalarini yoshlar va kattalarda shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy, amaliy, ilmiy va fundamental loyihalar ta’sis etish» masalasi ustuvor hisoblanib, bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatligini ta’minlash orqali ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga har jihatdan psixologik yondashuv tamoyillarini yanada mukammalroq tarzda takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Bo‘lajak muhandislarda psixologik salomatlik mezonlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi asosan psixologik salomatlik haqidagi nazariy-metodologik tushunchalarga tayanadi. Jumladan, har bir mezon ma’lum darajada o‘smir shaxsidagi psixologik salomatlik imkoniyatlarining u yoki bu jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Binobarin, har bir tadqiqotni olib borish, uning natijalarini ilmiy tahlil qilgan holda tegishli xulosalar qilish uchun shartli ravishda u yoki bu mezonlar qabul qilinadi. Albatta, har bir mezonning tanlanishi yuqoridagi bobning birinchi va ikkinchi paragraflarida qayd etilgan ilmiy-fundamental g‘oyalar asosida shakllantirildi. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, tadqiqotimizda bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatlik mezonlarini tadqiq qilish uslubini ishlab chiqishga erishdik(1-jadval).

Jadval-1

Bo‘lajak muhandislarning psixologik salomatlik mezonlar tizimini tadqiq qilish uslubi

Psixologik salomatlik omillari	**Psixologik salomatlik mezoni**	**Psixologik salomatlik belgisi**	**Psixologik salomatlik ierarxiyasi**
Emotsional holatlarni adekvat boshqarish	O‘z-o‘ziga adekvat emotsional munosabat (Xoll usuli asosida)	Ijtimoiy me’yoriy faollik Nome’yoriy faollik	1.O‘z his-tuyg‘ularini boshqarish 2.O‘z-o‘ziga motivatsiya 3.Empatiya 4.Emotsional bilimdonlik
O‘zini o‘zi hissiy baholash	Me’yoriy hissiy faollik (Riks – Uessman usuli asosida)	O‘zini o‘zi adekvat boshqarish	1. Xotirjamlik 2.G‘ayrat- shijoatlilik 3.Hissiy ko‘tarinkilik 4. O‘z-o‘ziga ishonch
Psixologik salomatlikni baholash	Adekvat psixologik motivatsiyasi (A.Nazarov,Sh.Haydarov so‘rovnomasi asosida)	Individual uslubni namoyon qila olish	1.Tajovuz 2.Agressiya 3.Qo‘rquv-xavotir 4.Tashqi o‘z-o‘zini chegarash 5.Ichki o‘z-o‘zini chegarash 6.Egoizm 7.Assertivlik 8.Ijtimoiy refleksiya
Psixologik salomatlik omillarini namoyon bo‘lishi	Shaxs dinamik xususiyatlari (Derogatis uslubi asosida)	Faoliyat va shaxs psixologik xususiyatlari mutanosibligi	1.Psixosomatika 2.Obsessif komplusivlik 3.Depressiya 4.Xavotir 5.Fobiya 6.Agressivlik

Bo‘lajak muhandislar shaxsida namoyon bo‘luvchi har bir individual xususiyat darajasidan (quyi, o‘rta, yuqori) kelib chiqib umumiy psixologik salomatlik ko‘rsatkichlariga izoh beriladi. Binobarin, mazkur mezon ko‘rsatkichlarining tanlanishi va tadqiq qilinishi tadqiqotning empirik salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak muhandislardagi psixologik salomatlikni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish qonuniyatlarini chuqurroq, ob’yektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, dastavval tadqiqotda psixologik salomatlikni shakllanishi, emotsional intellektga bog‘liq ekanligini nazardan qochirmagan holda, Xolning “Emotsional intellektni aniqlash” metodikasi imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik. Agar emotsional intellektning tabiatiga e’tibor qaratilsa, unda psixologik salomatlikni to‘ldiradigan tomoni borligining guvohi bo‘linadi. Bo‘lajak muhandislarning emotsional intellektini tatbiq etilgan testning beshta shkalasiga tayanib amalga oshiramiz . Endi asosiy natijalar sharhiga murojaat etaylik (2-jadval).

Jadval-2

Bo‘lajak muhandislarda emotsional intellektining umumiy ko‘rsatkichlari (n=410)

	Shkalalar	M	S
Emosional intellektni o‘rganish testi	Emotsional bilimdonlik	13,52	1,366
	O‘z emotsiyasini boshqarish	12,08	1,32
	O‘z–o‘zini rag‘batlantirish	11,56	1,82

	Empatiya	13,32	2,37
	O‘zga insonlarning kechinmalarini sezish	13,29	2,40

Izoh: M – o‘rtacha qiymat, S – standart xatolik

Bo‘lajak muhandislar emotsional intellektining umumiy natijalari uchta shkala bo‘yicha yuqori va ikkita shkalasi bo‘yicha o‘rta natijani qayd etmoqda. Ulardagi emosional bilimdonlik (13,52 ball) yuqori darajadan o‘rin olganligi inson kechinma chegaralari, shaxslararo munosabatdagi tuyg‘ularni his etish, emotsional intellektning ikki tomoni, ya’ni o‘zining emosiyalarini tushunish uchun intellektual boshqaruvga yoki aksincha kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy impulslar va intuitsiyalarni ta’minlashda emotsiyaga zarurat borligini anglash, inson emotsiyasining vazifalari to‘g‘risidagi bilimlarga, ish jarayonida emotsional barqarorlik va beqarorlik, stressli holat, depressiya va ulardan chiqish yo‘llarini izlash to‘g‘risdagi psixologik va hayotiy tajribadan boxabar ekanligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib, mazkur bobda bayon etilgan fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda, psixologik salomatlik omillari va uni tadqiq qilish metodlari aniqlandi. Shuningdek, bo‘lajak muhandislarda psixologik salomatlikni shakllantirishga qaratilgan metodikalarni tanlash va ularni tadqiqot maqsadiga mos ravishda qo‘llash quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Psixologik salomatlik muammosini maxsus o‘rganishga bag‘ishlangan metodikalar, testlar va qo‘shimcha matematik-statistik metodlar majmuasining qo‘llanilishi tadqiqotning amaliy-tatbiqiy jihatdan kengroq ochib berish imkonini yaratdi.

2. Ilmiy adabiyotlar va empirik izlanishlar asosida psixologik salomatlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik omillarining o‘ziga xos dinamikaga ega ekanligi qayd etildi, bu o‘z navbatida, pedagogik psixologiya fanidagi salomatlik fenomeniga yangicha nazar bilan qarashni taqozo etadi.

3. Bo‘lajak muhandislarning faoliyatida psixologik salomatlik muhim omil sanaladi. Bo‘lajak muhandislarning ruhiy, emotsional holatining o‘zgarishi bilan ularning psixologik salomatlik ko‘rsatkichlarida ham o‘zgarish kuzatildi. Muhandislarda muhim sanalgan psixologik salomatlik omillari ko‘rsatkichlarining rivojlanishi shaxs xususiyatlariga ham bevosita bog‘liq.

4. Bo‘lajak muhandislarda psixologik salomatlik omillari emotsional-irodaviy va shaxs xususiyatlari tegishli psixologik salomatlik ko‘rsatkichlariga mos ravishda ijobiy va yuqori qiymatlarga ega bo‘ldi.

5. Riks-Uesmann metodikasi natijalariga ko‘ra, muhandislarning psixologik salomatligi va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik aniqlandi. Bu mutanosiblik ularning shaxslararo munosabatlarida, hissiy-emotsional jihatdan barqaror bo‘lishida hamda ruhiy toliqish, ruhiy jihatdan zo‘riqishlarni kamaytirishni ta’minlashda ko‘rinadi.

6. Test natijalariga asoslanib, har bir respondentda qaysi psixologik salomatlik omillari ustuvorlik qilishi to‘g‘risida ma’lumotlar olindi. Olingan ma’lumotlar qo‘shimcha usullar va o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari bilan taqqoslanib tegishli xulosalar chiqarilgandan so‘ng psixologik salomatlik mexanizmlarining adekvat va noadekvat ko‘rsatkichlar ko‘lami belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алексеева, Ф. И. Психология профессионального долголетия учителя / Ф.И. Алексеева; под ред. М.А. Дмитриевой. - СПб. : Изд-во С.- Петерб. ун-та, 2004. -189 с.

2. Бабакова, Н. П. Особенности психологического здоровья в юношеском возрасте и возможности его коррекции : автореф. дис. ... канд. психол. наук: 19.00.13 / Бабакова Н. П. – Ростов-на-Дону, 2007. – 25 с.

3. Баротов Ш.Р ва бошқ. Экспериментал психология. – Магистрлар учун ўқув қўлланма. – Т.: Фан нашриёти, 2008. - 108 б.

4. Василенко, Е. В. Формирование профессионально-психологической устойчивости будущих сотрудников ОВД к экстремальным ситуациям : дис. канд. психол. наук : 19.00.07 / Василенко Елена Викторовна. – Ставрополь, 2008. – 229 с.

5. Ганзен, В.А. Описание психических состояний человека / В.А. Ганзен // Психические состояния / Сост. и общая редакция Л. В. Куликов. - СПб. : Питер, 2001. - С. 60-72. 296

Ikramova Malikabonu Azizovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
doktoranti

XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENTLIGI RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xorijiy til o‘qituvchilarini kasbiy kompetentligining shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari hamda unga ta’sir qiluvchi omillarning o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, ularning kasbiy kompetentligiga ta’sir qiluvchi shaxslilik xususiyatlarini empirik natijalar hamda psixologik talqini bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *psixologik kompetentlik, «Men-konsepsiyasi», ijtimoiy persepsiya, refleksiya, stress, agressiya,altruizm, agressiya , ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, sotsial-psixologik kompetentlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА

Аннотация. *В данной статье раскрываются научно-теоретические основы формирования профессиональной компетентности учителей иностранного языка, а также роль и значение факторов, влияющих на нее. Также описаны эмпирические результаты и психологическая интерпретация особенностей личности, влияющих на их профессиональную компетентность.*

Ключевые слова: *психологическая компетентность, "Я-концепция", социальное восприятие, рефлекс, стресс, агрессия,альтруизм, агрессия, социальная смелость, социальная зрелость, социально-психологическая компетентность.*

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS

Annotation. *This article reveals the scientific and theoretical foundations for the formation of professional competence of foreign language teachers, as well as the role and significance of the factors influencing it. Empirical results and psychological interpretation of personality traits that influence their professional competence are also described.*

Keywords: *psychological competence, "I-concept", social perception, reflex, stress, aggression,altruism, aggression, social courage, social maturity, socio-psychological competence.*

Kirish. Jahon ilmiy tadqiqot muassasalari va markazlarida xorijiy til o‘qituvchilari professional kompetentligining psixologik asoslarini o‘rganish, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning psixologik mezonlarini tizimlashtirish, sotsial-psixologik kompetentlik ko‘rsatkichlarini tadqiq qilish hamda rivojlantirish modelini yaratish, sotsial-psixologik kompetentlikni takomillashtirishga mo‘ljallangan maxsus modellashtirilgan topshiriqlardan iborat psixodiagnostik metodikalar majmuini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Xorijiy til o‘qituvchilarining psixologik tayyorgarlik darajasini yuksaltirish, ularning sotsial-psixologik kompetentligini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishga oid tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Natijada xorijiy til o‘qituvchilari psixologik kompetentligini oshirish, ularning shaxsiy fazilatlarini ro‘yobga chiqarish, psixokorreksion usullar orqali faoliyat samaradorligiga bevosita ta’sir etuvchi sotsial-psixologik kompetentlik omillari imkoniyatlarini ko‘rsatish yo‘nalishlarida ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida», 2018-yil 7-dekabrdagi PF–5590-son «O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari hamda 2019-yil 13-fevraldagi PQ-4190-son «2019-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» qarori va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash

tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu muammoni ilmiy jihatdan tadqiq qilish muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda, zamon talablariga mos, kasbiy faoliyat uchun zaruriy sifat va fazilatlarni egallagan, ijtimoiy faol pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning psixologik kompetentligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Ayni paytda, xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy kompetenligini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta’lim sifatini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan innovatsion natijalarni amaliyotga tatbiq etishga bo‘lgan zarurat tobora ortib bormoqda.

Metodika: Bu borada xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlanishida shaxslilik xususiyatlarining o‘rni va ahamiyatini belgilashda R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasi o‘tkazildi.

Ma’lumki, R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasi shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu so‘rovnoma muallifi G‘arbda shaxs psixologiyasiga murojaat qilgan dastlabki psixologlardan biridir. Biz xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi shaxslilik xususiyatlari bilan uyg‘un holda rivojlanadi degan nuqtayi nazardan kelib chiqib xorijiy til o‘qituvchilari shaxslilik xususiyatlarini tadqiq qilishni maqsad qilib oldik. Tadqiqotimizda so‘rovnoma tarkibidagi omillarning oltitasi klinik xarakterga ega ekanligi bois, faqat o‘n omilidan foydalanishni lozim topdik. Biz foydalangan omillar esa, aynan shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu o‘nta omil ko‘rsatkichlarini baholash orqali, xorijiy til o‘qituvchilari shaxsidagi shakllangan sotsial intellekt bilan bog‘liq xususiyatlarga baho berish mumkinligi nuqtayi nazardan tadqiqot umumiy maqsadiga moslashtirildi. Bizning izlanishimizga qadar olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu metodikadan keng foydalanilgan. Bu esa bizning amaliyot uchun obyektiv ilmiy ma’lumotlar berishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodika sifatida tatbiq etishimizda qo‘l keldi. Metodika oldingi metodikalar singari tadqiqot obyektiga tatbiq etildi. So‘rovnomaning umumiy va xususiy hollardagi natijalarini quyida batafsil tahlil etib o‘tamiz(1-jadvalga qarang).

Natija. Xorijiy til o‘qituvchilarining R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rovnomasiga tayanib olgan natijalarda shaxslilik xususiyatlari quyidagi psixologik tavsiflarga ega. Deyarli barcha omillar bo‘yicha xorijiy til o‘qituvchilari ko‘rsatkichlari o‘rtachadan yuqori zonadan o‘rin oldi.

Ularning ushbu shaxslilik xususiyatlari ko‘rsatkichini omillar bo‘yicha xususiy hollarda talqin etiladi:

Muloqotga moyillik (A) shkalasi (5,28). Bu qiymat shu bosqichdagi xorijiy til o‘qituvchilarining boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat-e’tiborli, qattiq g‘azablanish yoki xursand bo‘lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmasliklari, o‘z hulqini boshqara olish qobiliyatiga ega ekanliklari, ayni paytda rahmdil va samimiy, shu bilan birga o‘zgacha uslubda talabchanliklarini anglatadi.

Hissiy barqarorlik (S) (5,20±1,76). Bu ko‘rsatkichda pedagoglarga xos o‘z hislarini va kayfiyatini boshqara oladigan, «Men timsoli» kuchi yuqoriroq ekanligi, «Men» konsepsiyasini ijobiy bo‘lishiga intiluvchanligi, kasbiy faoliyatda ma’lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlashlari mumkinligini bildiradi. Xorijiy til o‘qituvchilarida hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo‘lsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi deyish mumkin.

Jadval-1

Xorijiy til o‘qituvchilarida shaxslilik xususiyatlari namoyon etilishining umumiy ko‘rsatkichlari

«Shaxsni 16 omil yordamida o‘rganish» so‘rov-nomasi (R.B.Kettell)	Омиллар	X	У
	Muloqotga moyillik (A)	5,28	1,61
	Hissiy barqarorlik (S)	5,20	1,76
	Hukmronlikka intilish (YE)	5,34	1,57
	Ijtimoiy yetuklik (Qr)	5,31	1,52

	Ijtimoiy dadillik (N)	5,56	1,61
	Ishonuvchanlik (J)	5,06	1,68
	O‘ziga ishonish (Q)	5,11	1,58
	Mustaqillik (Q2.)	5,66	1,74
	O‘zini nazorat qilish (Q3.)	5,58	1,67
	Xotirjamlik (Q4.)	5,25	2,01

Hukmronlikka intilish (YE) (5,34±1,57). Omilning bu darajasi xorijiy til o‘qituvchilari atrofidagi odamlar ta’siriga beriluvchanligi, atrofdagilar talabini ham hisobga olishi, mustaqilligini belgilovchi huquqingizni himoya qilishda agressiv emasliklari, shu bilan birga ularda kollej rahbariyati bilan erkin munosabatda bo‘lishga moyilligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy yetuklik (Qr) (5,31±1,52). Mazkur omilning ushbu darajasi xorijiy til o‘qituvchilari hayotga va ishga yengil qarashlari, javobgarlikni his qilmasliklari, tejamsizlik kabi hislatlardan to‘la ozod emasliklari, biroq bunday holat ularning «Men-konsepsiyasi» ni salbiy ekanligini anglatmaydi, balki o‘z hulqini boshqara olish va qa’tiylikni yetarli emasligi oqibati bo‘lib hisoblanadi. Ular umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va axloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxslar sifatida mavqega egadirlar.

Ijtimoiy dadillik (N) (5,56±1,61). Bunday qiymat xorijiy til o‘qituvchilari yetarli darajada botirliklari, odamlar bilan aloqaga erkin kira olishi, muomaladagi qiyinchiliklarni yenga olishi, kutilmagan holatlarga tushib qolganida o‘zini yo‘qotmasligidan dalolat bermoqda.

Ishonuvchanlik (J) (5,06±1,68). Ishonuvchanlik omilining ushbu ko‘rsatkichi xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy faoliyat va hayotiy masalalarni hal etishda aqlga asoslanib ishonishlari va shu orqali faoliyatda samaraga erishishla-ri mumkin.

O‘ziga ishonish (Q) (5,11±1,58). Omilning ushbu darajasi xorijiy til o‘qituvchilarini o‘ziga bo‘lgan ishonchi muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini, bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri baholash va ularga munosib javobni bera olishini, o‘z imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiradi. Ularda o‘zini kamsitishga moyillik bo‘lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo‘lish, ta’sirchanlik bor. Ular o‘zilariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari, kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e’tibor berishlari maqsadga muvofiq.

Mustaqillik (Q2.) (5,66±1,74). Xorijiy til o‘qituvchilari hamma narsani o‘zlari bajarishni ma’qul ko‘rsalarda, atrofidagilar tavsiyasi va takliflarini ham quloq soladilar. Ular mustaqil bo‘lishni ham, atrofdagilarga tayanishni ham, ularni qo‘llab-quvvatlashlarini ham hohlaydilar.Ulardagi mustaqillik faoliyatlarini samarali bo‘lishini ta’minlaydi.

O‘zini nazorat qilish (Q3.) (5,58±1,67). Ko‘rsatkich xorijiy til o‘qituvchilari ijtimoiy va axloq normalarini bajarishda qat’iyatli ekanligi, ko‘pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qilishlari. Ammo, ular har doim ham qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishni oxirigacha yetkazavermas ekanlar. O‘z faoliyatlarini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o‘zlarini nazorat qilishga ko‘proq e’tibor berganlari ma’qul.

Xotirjamlik (Q4.) (5,25±2,01). Ushbu omil ko‘rsatkichlarining namoyon etilishi, xorijiy til o‘qituvchilarini ehtiyojlar miqdorining ko‘pligi tufayli ularda bir muncha zo‘riqish borligidan va nisbatan ko‘proq asabiylikka moyillikdan dalolat beradi.

Murakkab maqsadlardan o‘zini olib qochish va zo‘riqish, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat natijasi bo‘lib, bunga o‘z navbatida, temperament tiplarining o‘ziga xos xususiyatlari ma’lum darajada o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Xulosa. Yuqoridagi xorijiy til o‘qituvchilari shaxslilik xususiyatlarini umumiy holati sharhida ham ijobiy, ham mo‘tadil va ayrim o‘rinlarda pedagogik faoliyat uchun teskari xarakterni aks ettiruvchi xususiyatlar mavjudligini ko‘rdik. Demak, R.B. Kettel uslubi natijalariga ko‘ra barcha xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy kompetentligi va shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va aloqadorlikda rivojlanishida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish xususiyatlarining yetakchilik qilishi aniqlandi. Xorijiy til o‘qituvchilari shaxslilik xususiyatlari o‘rtasidagi mutanosiblik ularni shaxslararo munosabatlarda hissiy barqaror bo‘lishlarini, hukmronlikka intilmasliklarini va ruhiy toliqish, qo‘zg‘alish va zo‘riqishlarni kamaytirishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman, xorijiy til o‘qituvchilari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg‘unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlariga baho berishda har bir pedagogning shaxslilik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali xorijiy til o‘qituvchilari kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. Xorijiy til o‘qituvchilari shaxslilik xususiyatlari orasidan muloqotmandlik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o‘ziga ishonish, o‘zini nazorat qilish kabi xususiyatlar kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy kompetentlik ko‘rsatkichlarining barqaror va izchil tarzda rivojlanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абульханова К.А. Социальное мышление личности// Современная психология: состояние и перспективы исследований. Часть 3. – Социальные представления и мышление личности. – М.: Изд-во "Институт психологии РАН", 2002 – С. 88-103.
2. Ананьев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция// Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991.– С. 75—84.
3. Бедерханова В.П. К вопросу о социальной перцепции в связи с использованием ролевых игр в процессе профессиональной педагогической подготовки// Теоретические и прикладные проблемы психологии познания людьми друг друга. – Краснодар: 1975. – С.232-233.
4. Безносов С.П. Профессиональная деформация и воспитание личности// Психологическое обеспечение социального развития человека. – Л.: 1989. – С. 69-74.
5.Собирова Д.А. Тиббиёт ходимлари фаолиятида социал-психологик компетентликни ривожлантириш концепцияси. Бухоро “Дурдона” 2020-96 б.

Isakova Muazzam Tulkinovna
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya fanlari doktori(DSc)

Xaydaraliyev Abdullo Usmonali o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Psixologiya yo‘nalishi magistri

YUQORI SINF O‘QUVCHILARI KASB TANLASH MOTIVLARINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada kasb tanlash muammosining xorijiy adabiyotlardagi ma’lumotlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, kasb tanlash motivlarini aniqlash maqsadida Farg‘ona tumanidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabining yuqori sinflarida o‘tkazilgan eksperimentning miqdor va sifat tahlillari ham muhokama qilingan.*

Kalit so‘zlar: *kasb tanlash, tanlov, qaror qabul qilish, motiv, funksional tanlov, shaxsiy tanlov, shaxsiy identifikatsiyasi.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ МОТИВАЦИИ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ СТАРШЕКЛАССНИКАМИ

Аннотация. *В статье представлен анализ проблемы выбора профессии по данным из зарубежной литературы. Обсуждались также количественный и качественный анализ эксперимента, проведенного в старших классах средней общеобразовательной школы № 19 Ферганского района с целью выявления мотивов выбора профессии.*

Ключевые слова: *выбор профессии, выбор, принятие решений, мотив, функциональный выбор, личностный выбор, личностная идентичность.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MOTIVES OF CAREER CHOICE OF UPPER-GRADERS

Annotation. *The article presents a data analysis of the problem of choosing a profession in foreign literature. Quantitative and qualitative analysis of the experiment carried out in the upper classes of the 19th General Secondary Education School in the Fergana district was also discussed in order to determine the motives for choosing a profession.*

Keywords: *Career Choice, Choice, decision making, motive, functional choice, personal choice, personal identity.*

Insoniyat yaratilibdiki, ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanishga ehtiyoj tug‘ilgan. Bu ehtiyoj hozirgi kunga kelib eng kerakli ehtiyojlar sirasiga aylandi. Kompyuter va sun’iy intellekt texnologiyalari tez rivojlanayotganligi sabab, ishsizlikning ortishi,kuchayish xavfi ham ortdi. Bunday sharoitda odamlar o‘z kasbining ustasi bo‘lishga, bilimini har soniya boyitib borishga intilmoqda. Bu muammolarning ildizi esa kasb tanlash davriga borib taqaladi. Chunki, to‘g‘ri tanlangan kasbgina insonni maqsad, marralariga olib boradi. Kasb tanlash muammosi uzoq yillardan buyon butun dunyo olimlarini tadqiqotlar o‘tkazishga, izlanishlap olib borishga undab kelgan. Rus olimlari S.E.Pinyayeva va N.V.Andreyevlar kasb tanlash jarayonining tuzilishini hisobga olgan holda tizimning umumiy strukturasini o‘rganishga batafsil to‘xtalganlar. Xususan, tadqiqotchilar “qaror qabul qilish - bir nechta variantlardan birini tanlash” sifatida talqin qilishadi. Ushbu bosqichdan oldin kasbning motivlari va maqsadlari, bo‘lajak kasb haqida axborotlar, yangiliklar, faoliyat natijasi haqidagi g‘oyalar shakllantiriladi. Qaror qabul qilishning umumiy sxemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

1) muammoni anglash bosqichida kasb tanlashdan maqsadni aniq tushunish muhim hisoblanadi;

2) muammoni yechish bosqichi. Bu bosqichda muammoni hal qilish usullarini ishlab chiqish, maqsadga erishish mezonini shakllantirish vazifalari amalga oshiriladi;

3) muammo yechimini tekshirish bosqichi;

4) tanlovni tuzatish bosqichi. Bu bosqich tanlovni o‘zgartirish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi, lekin har doim ham buning iloji bo‘lmaydi.

Shuningdek, S.E.Pinyayeva va N.V.Andreyev “qaror qabul qilish” va “tanlash” tushunchalarini bir ma’noga ega, degan xulosaga keldilar. Kasb tanlash va qaror qabul qilish bo‘yicha tadqiqot olib borgan I.I.Kamenev, A.V.Karpov, T.V.Kornilova, O.V.Stepanosovalar ham o‘z asarlarida shunga o‘xshash xulosalar chiqaradilar.

Bir nechta teng ahamiyatga ega bo‘lgan variantlardan birini tanlash zarurati inson hayotining barcha bosqichlarida, jumladan, kasb tanlash jarayonida yuzaga keladi. Bu holatning ahamiyatli jihati shundan iboratki, ba’zi tanlovlar nafaqat ma’lumot yetishmasligi sharoitida, balki cheklangan vaqt oralig‘ida ham amalga oshiriladi. Qabul qilingan qarorlar har bir shaxs uchun shaxsiy ahamiyati darajasida individual hisoblanadi. Shu asosda psixologiya fanlari doktori Y.P.Povarenkov funksional tanlov va shaxsiy tanlov tushunchasini yaratadi va ular bir-biridan shakli bilan emas, balki mazmuni bilan farq qiladi, deb tushuntiradi. Funksional tanlov faoliyatning aniq muammolarini hal qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi va kasbiy maqsadlarga bo‘ysunadi. Bu tanlov kasbning jamiyatdagi o‘rni, unda yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar sababli miqdoriy jihatdan ustunlik qiladi. Shaxsiy tanlov esa insonning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, uning ehtiyojlari, munosabatlariga ta’sir qiladigan muammolarni hal qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ular doimo shaxsiy ma’noga ham ega.

L.A.Golovey kasb tanlashni murakkab ijodiy muammoni hal qilish bilan taqqoslaydi. Kasbni tanlagan shaxs turli kasblarning mazmunini, insonga qo‘yadigan talablarini tushunishi hamda o‘z imkoniyatlarini, qobiliyatlarini, qiziqishlarini to‘g‘ri baholay olishi lozim.

Individual psixologiya yo‘nalishida izlanishlar olib borgan E.P.Ilyin o‘zining “motiv va motivatsiya” monografiyasida shunday yozadi: “kasb tanlash – bu erkin, ammo murakkab va uzoq davom etadigan motivatsion jarayondir. Chunki inson o‘z hayotidan zavqlanishi ko‘p jihatdan kasbni to‘g‘ri tanlashiga bog‘liq”.

Yana bir rus olimi L.F.Shexovtsovaning ta’rifiga ko‘ra, kasb tanlash nafaqat ish tanlash, balki ma’lum bir odamlar guruhiga qo‘shilish, ushbu guruhning axloqiy me’yorlari, qadriyatlari, turmush tarzini qabul qilishni anglatadi.

Mehnat psixologiyasi va inson qadr-qimmati asarining muallifi N.S.Pryajnikov kasbiy o‘z o‘zini belgilashda “hayotiy ssenariylar” nazariyasini asos qilib quyidagicha ta’riflaydi: “bolada hayot ssenariylar erta bolalik davrida ota-onalar tomonidan shakllantiriladi. Hayotiy ssenariylar shaxs hayotining muhim jihatlarida o‘zini qanday tutishini belgilaydigan rivojlanish dasturlariga qiyoslanadi”.

Kasb tanlash va tanlov qilish muammolari ko‘plab yevropalik olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Psixologiya fanining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan kognitiv psixologiyada tanlov qilishga ta’sir qiladigan omillar batafsil o‘rganilgan. Ushbu sohada izlanish olib borgan J.Kelli ayni bir jarayon turli odamlar tomonidan turlicha talqin qilinadi, ya’ni, odamlar dunyoni konstruktsiyalar deb nomlangan modellar yordamida idrok qiladilar, deb ta’kidlaydi. Har bir inson hayot voqealarini talqin qilish uchun bir nechta konstruktsiyalar to‘plamiga ega bo‘ladi. Bundan tashqari, ular har kuni voqealarni tushunish uchun qaysi konstruktsiyadan foydalanishni mustaqil tanlaydi. J.Kelli maqolalaridan birida shunday yozadi: “shaxs jarayonlari – bu psixikada yotqizilgan kanallardan iborat va uning yo‘nalishi bo‘yicha odam o‘z kelajagini bashorat qiladi”. Bu shuni anglatadiki, kasb tanlovi odamning kelajakdagi voqealarni qanday bashorat qilishi bilan belgilanadi.

Gumanistik psixologiya asoschilaridan biri K.Rojers o‘z qobiliyatlaridan to‘liq foydalanadigan, o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqaradigan va o‘zini rivojlantirishga intiladigan odamlarni “to‘liq ishlaydigan odam” deb ataydi. Tanlov oldidan ko‘p odamlar ijtimoiy me’yorlarga, boshqalarning hukmlariga yoki o‘tmishdagi tajribalarga tayanadilar. Lekin K.Rojers ta’riflagan odamlar uchun uchun tanlovning asosi “men to‘g‘ri ish qilyapman” degan ichki tuyg‘u hisoblanadi. To‘liq ishlaydigan odamlarning yana bir o‘ziga xos xususiyati – bu ulardagi ichki kuch ko‘plab vaziyatlarda erkin tanlov qilish imkonini beradi, chunki uning harakatlari va oqibatlari uchun faqat o‘zi javobgar ekanligini doimo his qiladi.

Rivojlanish psixologiyasining yirik namoyondasi E.Eriksonning fikricha, kasb tanlash turmush tarzini tanlashga o‘xshaydi, chunki kasbiy bandlik turmush tarziga ta’sir o‘tkazib, o‘ziga moslashtiradi. To‘g‘ri tanlov qilish uchun shaxs, avvalo, o‘zini anglay olishi, shuningdek, qaysi sohada ish hayotiga moslasha olishini to‘g‘ri baholay olishi kerak. Ma’lum bir kasbni tanlash u kelajakda qanday shaxs bo‘lishni xohlayotgani haqidagi xulosaga bog‘liq bo‘ladi. Lekin, o‘smirlarda o‘zini shaxsiy identifikatsiyasi qilishdagi noaniqliklar sababli vujudga keladigan ikkilanishlar uchrab turadi. E.Erikson bu holatni “kasb tanlash muammosi - shaxs inqirozining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lishi mumkin”, deb tariflaydi.

Hozirgi kunda kasb tanlash muammosi dolzarbligi sababli, biz o‘quvchilardagi kasb tanlash motivlarini o‘rganish maqsadida tadqiqot o‘tkazdik.

Tadqiqot maqsadi yuqori sinf o‘quvchilarida kasb tanlash motivlarini aniqlashdan iborat.


Ilmi izlanishning mohiyati. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish asosida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarinining samaradorligini oshirish mumkin.

Tadqiqot predmetini bitiruvchi sinflarda kasb tanlash motivlari tashkil qiladi.

Tadqiqot obyekti. Farg‘ona tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 87 nafar yuqori sinf o‘quvchilari tashkil qiladi.

Tadqiqot metodi. Rossiyalik psixolog R.Ovcharova tomonidan ishlab chiqilgan “Kasb tanlash motivlari” metodi tanlandi va natijalar tahlil qilindi.


Tadqiqotni o‘tkazish jarayonida o‘quvchilarga metodika tarqatildi va ulardan 20 ta ta’kidlarning kasb tanlashiga ko‘rsatayotgan darajasini 5 ballik shkalada baholab berish so‘raldi. Ushbu metodika yordamida kasb tanlashga ta’sir ko‘rsatayotgan motivlarning ichki individual, ichki ijtimoiy, tashqi ijobiy va tashqi salbiy turlarini aniqlash mumkin. Tadqiqotimiz natijalarini tahlil qilar ekanmiz, o‘quvchilarning kasb tanlash motivlari darajalarini diagrammaga kiritdik.



Kasb tanlash motivlari(R.Ovcharova) metodi natijalarining umumiy natijalari

Ushbu metodikada ishtirok etgan 87 nafar respondentning 46 foizida ichki individual motivlar ustunlik qilishligi aniqlandi. Ya’ni ular kasbi orqali o‘zlarining individual xususiyatlari va shaxsiy sifatlarini namoyon qilishni xohlaydilar hamda kasbiy marralarga erishishda faqatgina o‘z bilimi, qobiliyati va salohiyatiga suyanar ekanlar. Ko‘rsatgich bo‘yicha ikkinchi o‘rinni ichki ijtimoiy motivlar egalladi va u 41% ishtirokchi yetakchilik qildi. Bu motiv ustunlik qilivchi shaxslarning asosiy xususiyati - jamoa, odamlar guruhi bilan ishlashga bo‘lgan ishtiyoqning yuqoriligidir. Ular odamlar bilan muloqot qilishni, ularni boshqarishni, ularga yordam berishni istaydilar va ko‘proq ish joyi gavjum bo‘lgan vaziyatlarda ishlashni afzal ko‘radilar. Tashqi ijobiy motivlar ustunlik qilgan 9 % respondent kasb tanlash borasida atrofdagilar bilan maslahatlashishga harakat qilishadi. Bu ularga o‘zlarining kelajakdagi kasbini to‘liq o‘rganishga, uning sir-asrorlari, talablari bilan chuqurroq tanishishga yordam beradi. 4 % ishtirokchida tashqi salbiy motivlar yuqori daraja ko‘rsatdi. Bu ularda kasb tanlash borasida yetarli ma’lumotga ega emaslik, ikkilanish, oilada yoki o‘quv muassasida turli xildagi tanqidlar yoki bosimlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu o‘quvchilarni kasbga oid tadbirlar, seminarlarga jalb qilish orqali ulardagi salbiy motivlarni ijobiyga o‘zgartirish imkoni mavjud.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida o‘ninchi va o‘n birinchi sinf o‘quvchilarining motivlari o‘rtasidagi farqlarni ham aniqladik.



10-11-sinfda olingan tadqiqot natijalarining solishtirma diagrammasi

Yuqoridagi diagrammada ko‘rinib turganidek, 11-sinf o‘quvchilarining ichki individual motivlari 10-sinf o‘quvchilaridan bir muncha yuqori. Bu shuni anglatadiki, bitiruvchi sinflarda kelajakdagi kasbini aniq tushunish va unda natijalarga erisha olish, o‘zining bilim va salohiyatini to‘g‘ri baholay olish hissi yuqoriroq turadi.

Ikkinchi ko‘rsatgich bo‘yicha esa 10-sinf o‘quvchilarida ichki ijtimoiy motivlar darajasi ancha yuqori va ularda kasbning ijtimoiy ahamiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi ikki ko‘rsatgichdagi farqlarning asosiy sababi yosh davrlari bo‘yicha tafovutlar hisoblanadi.

Tashqi ijobiy motivlar har ikki guruhda deyarli teng. Buning sababi bugungi kunda ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarning samarasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tashqi salbiy farqlar 11-sinf o‘quvchilarida 6 foizni tashkil qilsa, 10-sinf o‘quvchilarida umuman natija bo‘lmadi. Kasb tanlash juda muhim qaror, shuning uchun unga oldindan tayyorlanish lozim. Lekin, ba’zi o‘quvchilar buni maktabni bitirish arafasida anglab yetmoqda. Natijada ular tashqi bosim ostida qoladilar, tanlovda ikkilanadilar. Shu sababli kasb tanlash jarayoniga faqatgina o‘quvchigina emas, balki ota-ona, o‘qituvchilar birdek mas’uldirlar.

Xulosa o‘rnida shularni ta’kidlash mumkinki, tadqiqot natijalarida ichki motivlarning ustunligi barchamiz uchun quvonarli holat. Sababi o‘quvchi va ota-onalar kasb tanlashning qanchalik muhim ekanligini anglab yetmoqda va bunda asosiy e’tiborni bolaning shaxsiy sifatlari va xususiyatlariga qaratmoqda. Zero, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar orasida eng katta e’tibor ta’lim sohasida, jumladan kasbga yo‘naltirishda amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir. Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug‘idir”.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev, Maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishdagi nutqi. 20.01.2023 Toshkent

2. Пиняева С.Е., Андреев Н.В. Личностное и профессиональное развитие в период зрелости // Вопросы психологии. 1998. №2. С. 3–10.

3. Головей Л.А. Психологические основы профориентации в школе и ПТУ: Учеб. пособие / Грищенко Н.А., Головей Л. А., Лукомская С.А. Л.: Издво ЛГУ, 1988. 79 с.

4. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. СПб: Питер, 2000. 512 с.

5. Шеховцова Л.Ф. Психологическое обеспечение в школе выбора профессии. СПб: Издво гос. унта педагогического мастерства, 2000. 98 с.

6. Пряжников Н.С, Пряжникова Е.Ю. Психология труда и человеческого достоинства. М.: Академия, 2001. 476 с.

7. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.: Прогресс, 1996. 344 с.

8. Isakova, M; Xaydaraliyev, A; Yuqori sinf o ‘quvchilarida kasb tanlash motivlarining o‘rganilishi,"Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры",3,6 Part 2,16-20,2023,

9. M.Isakova, Abdullo Xaydaraliyev; Kasb tanlashning psixologik fenomen sifatida xorijiy adabiyotlarda o‘rganilishi,Zamonaviy ta’lim muhitini tashkil etishda talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati‘ mavzusidagi Respublika ilmiy-masofaviy anjumani materiallari to‘plami,1,1,176-181,2023,Namangan 2023

10. А.Хайдаралиев, М.Исакова; Yuqori sinf o‘quvchilarida kasb tanlash motivlarining o‘rganilishi,Международный современный научно-практический журнал НАУЧНЫЙ ИМПУЛЬС,1,13,63-69,2023,Москва 2023

11. Isakova, M; Xaydaraliyev, A; Maktab o ‘quvchilarida kasb tanlash motivlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish. Scientific Impulse,2,15,345-352,2023,

12. Atadjanov, M; Xaydaraliyev, A; ,"Yangi O‘zbekistonda shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi masalalari",O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2.22.92-99,2023,

Muxtorov Erkin Mustafoyevich
Buxoro davlat pedagogika instituti "O'quv ishlari bo'yicha prorektor" psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

SHIFOKORLARDA KASBIY MAHORAT RIVOJIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQINING EMPIRIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada shifokor kasbiy mahoratining oliy negizi bo'lgan ishonch kategoriyasi, uning jamiyat tuzilmalari hamda vrach-bemor munosabatlaridagi ahamiyati ilmiy-ijtimoiy mushohadalar asosida ochib berildi.*

Obro' muammosiga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar analiz, sintez metodlari asosida tahlilga tortilib, ishonch obro'ning hosilasi bo'lishi, ko'p hollarda esa obro' ishonchning natijasi ekanligi haqida nazariy xulosalar keltirildi.

«Kasbiy mahorat indeksi" (KMI) mualliflik so'rovnomasida asosiy e'tibor vrach faoliyatida namoyon bo'luvchi kasbiy mahoratni tashkil qiluvchi psixologik omillarining namoyon etilishini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi. Shifokorlarning kasbiy mahoratini shakllanganlik darajasini baholashda besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan vrachlar hamda o'n yil va undan ko'p ish stajiga ega vrachlar jalb etildi.

Ekspert baholash natijalari yuzasidan yig'ilgan ko'rsatgichlar jadval asosida shakllantirilgan, malaka staji bilan bog'liq tafovutlar kuzatildi. Shifokorning kasbiy mahorati aniq mezonli va tizimli, ilmiy asoslangan tadqiqot metodikasi asosida yoritildi va bu metodikaning kasbiy mahorat bilan mazmuniy bog'liqligi izohlab berildi. `

Kalit so'zlar*: Emprik, mahorat indeksi, mualliflik asosnomasi, "kreativ" shkalasi, kognitivlik,musiqiy intellekt, pragmatika, ekspert baholash, altruizm.*

ВЛИЯНИЕ НА РАЗВИТИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ НАВЫКОВ ВРАЧЕЙ ЭМПИРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФАКТОРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. *В данном государстве на основном научном и социальном обблюдении категории доверия, которая является высшей осноой профессионального мастерства рача, ее значение в структурах общества и тношениях врачей-пациентов.*

На основе методов анализа и синтеза проанализирован ряд научных исследований, посвященных проблемам репутации, и сделаны теоретические выводы о том, что является продуктом репутации, а во многих случаях репутация является результатом доверия.

В авторском опросе «Индекс профессиональных мастеров» (КМИ) основное внимание было уделено анализу проявления психологических факторов, составу профессиональных мастеров, проявлению деятельности врача. К оценке уровня сформированности профессиональных навыков врачей приводекались рачи со стаём боты до пяти лет и врачи со джем боты десять лет и более.

Показатели, собранные по результатам эксперта, формировались на основе таблиц, различий, связанных с отборочным этапом, не наблюдалось. Профессиональная магистратура врача базируется на четких критериях и систематических, научно обоснованных методах исследования, а также разъясняет содержание методики профессиональной магистратуры. `

Ключевые слова: *эмпиризм, индекс мастерства, авторство, «творческая» шкала, когнитивный, музыкальный интеллект, прагматика, экспертная оценка, альтруизм.*

AFFECTING THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL SKILLS IN DOCTORS EMPIRICAL FOUNDATIONS OF FACTOR RESEARCH

Annotaton. *In this article, the category of trust, which is the highest basis of the doctor's professional skill, its importance in the structures of society and the doctor-patient relationship was revealed on the basis of scientific and social observations.*

A number of scientific studies devoted to the problem of reputation were analyzed based on analysis and synthesis methods, theoretical conclusions were made that trust is a product of reputation, and in many cases reputation is a result of trust.

In the author's questionnaire "Professional skill index" (KMI), the main attention was paid to the analysis of the manifestation of the psychological factors that make up the professional skill manifested in the doctor's work. Doctors with up to five years of work experience and doctors with ten years or more of work experience were involved in the evaluation of the level of formation of professional skills of doctors.

The indicators collected based on the results of expert evaluation were formed on the basis of the table, differences related to the qualification experience were observed. The doctor's professional skill was highlighted on the basis of clear criteria and systematic, scientifically based research methodology, and the meaningful connection of this methodology with professional skill was explained. `

Key words: *empiric, skill index, authorship, "creative" scale, cognitive, musical intelligence, pragmatics, expert assessment, altruism.*

Kirish. Butun dunyoda har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatga ega, raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Hozirgi paytda kasbiy mahoratni ta’minlashning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. “Sog‘liqni saqlash tizimlari salomatlik va farovonlik uchun”[1] Tallin Xartiyasi va boshqa muhim xalqaro hujjatlarda aholining tibbiyot va psixologiyaning yutuqlaridan foydalanishi zarurligi bilan bir qatorda shifokorlarning kasbiy mahoratini oshirish masalasiga ham alohida urg‘u beriladi. Bu borada tibbiyot sohasini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlab olish, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, yangicha psixologik texnologiyalar bilan ta’minlangan usullarni amalga joriy qilish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Shifokorlarda kasbiy mahoratni rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillardan biri ishonch kategoriyasidir. Aytish mumkinki, jamiyat hayoti nafaqat inqiroz, balki yo‘qlikka yuz tutadi. Ishonch faqat alohida shaxslar orasida emas, guruhlar, katta ijtimoiy qatlam o‘rtasida va shaxsning o‘ziga nisbatan ham mavjud bo‘ladi.

Ishonchning mohiyatini ochishga bag‘ishlangan bir qator yondashuv va nazariyalar mavjud ekaniga qaramasdan, ishonch o‘zi nima, uning mohiyati nimada, u qanday funksiyalarni bajaradi, degan savollarga hanuzgacha javob topilmagan. Tibbiyot psixologiyasida esa vrach-bemor munosabatlarida ishonch muhim rol o‘ynashi ta’kidlanishiga qaramasdan, uning mohiyati, shakllanish jarayoni, bosqich va darajalari deyarli tadqiq etilmagan.

Obro‘ muammosiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlarda ham ishonch masalasiga murojaat qilinadi. M.Yu. Kondratev, Yu.P. Stepkin, E.B. Tkachev kabi olimlar ishonch obro‘ning zarur sharti ekanini ta’kidlashadi. Lekin, ular ham ishonchning mohiyati to‘g‘risida hech narsa deyishmaydi. Bu mualliflarning fikriga ko‘ra, obro‘li subyektning axboroti ko‘proq ishonch bilan qabul qilinadi. Bunday talqinga ko‘ra, ishonch obro‘ning hosilasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bizning fikrimizcha, ishonch obro‘ning hosilasi bo‘lish bilan birga ko‘p hollarda obro‘ ishonchning natijasi ham bo‘ladi. Lekin, bunday hol amaliyotda kamroq uchraydi.

Tadqiqot ishimizning nazariy tahlilini amalga oshirish jarayonida vrach kasbiy mahoratini amaliy jihatdan o‘rganish, unga ta’sir qiluvchi omillarni tadqiq qilish uslublari o‘tgan asrdayoq olim va mutaxassislarning diqqat markazida bo‘lganligi va ma’lum darajada o‘zining tadqiq etish texnikasiga ega ekanligi qayd etiladi.

Metodlar. Maqolani yozish jarayonida nazariy-deduktiv, mantiqiylik, xulosa chiqarish, analiz va sintez, komporativistik, psixologik tahlil tamoyillari qo‘llanildi.

Natijalar. «Kasbiy mahorat indeksi” (KMI) mualliflik so‘rovnomasida asosiy e’tibor vrach faoliyatida namoyon bo‘luvchi kasbiy mahoratni tashkil qiluvchi psixologik omillarining namoyon etilishini tahlil qilishga qaratiladi. Vrachlarning kasbiy mahoratini shakllanganlik darajasini baholashda besh yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan vrachlar hamda o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlar jalb etildi.

Ekspert baholash natijalari yuzasidan olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan (1-jadval). Vrachlarning kasbiy mahoratini baholash umumiy ko‘rsatkichlarda ekspertlarning natijalarida o‘ziga xos tafovutlar kuzatildi. Ekspert baholashda vrachlarning «xulqiy» mezoni bo‘yicha besh yilgacha ish

[1] ttp//apps.who.int/gb/bd. Word health Organization Basic documents

stajiga ega tibbiyot xodimlarida 6,32 ball hamda o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarda 7,46 ball bilan baholagan bo‘lib, farqlar ishonchliligi p<0,05 qiymatni ko‘rsatdi. Sinaluvchilarning ushbu omil bo‘yicha natijalari vrachlarning o‘zga o‘z faoliyati davomida ijtimoiy normalarga, talab va qoidalarga rioya qilishlari, bemorlari va hamkasblarini ichki kechinmalari va kayfiyatlarini tezda sezishga, suhbatdoshni va biror bir masala yuzasidan murojaat qilgan kishiga nisbatan e’tiborli va yaxshi tinglovchi ekanligidan dalolat beradi. Bundan ko‘rinadiki, besh yilgacha ish stajiga ega tibbiyot xodimlarining ushbu qobiliyatini bevosita faoliyat davomiyligi bilan, o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlar esa, bevosita ish jarayoni, kasbiy faoliyat hamda kundalik turmush yumushlari bilan bog‘liq munosabatlaridagi taassurotlari orqali baholaganlar. Besh yilgacha ish stajiga ega vrachlar faoliyat jarayonidagi munosabatlarida zarur o‘rinlarda subordinatsiya saqlashga harakat qilishi mazkur shkala bo‘yicha qiymatlari o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarga qaraganda pastroq bo‘lishiga sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Vrachlarning «kognitiv» omili bo‘yicha ko‘rsatkichlarda ham o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega tibbiyot xodimlari bergan bahosi yuqoriroq ko‘rinish olgan (7,34 ball). Ushbu o‘rinda vrachlarning umumiy qiymatlarida insonlar haqida, o‘zga insonlarni tushunishning maxsus qoidalarini bilishi, insonlarning kayfiyatini, tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini tushunish motivi, sotsial mazmundagi xulq-atvorni mos tarzda kuzatuvchanlik qobiliyatini o‘zlarida shakllantirganligini ko‘rish mumkin.

Vrachlar bu qobiliyatlari orqali bemorlari va hamkasblari bilan munosabatida sotsial malakalari shakllanganligidan dalolat bersada, ularning sotsial voqelikni bashorat qila olish-shaxsiy xatti-harakatlari rejasini shakllantirish, o‘zining faoliyatini jipslashtirishi, shaxsiy faoliyatini boshqalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi va foydalanilmagan muqobil imkoniyatlar orqali baholash malakalari tafovutlanishi mumkinligini anglatadi. Vrachlarning «kreativ» shkalasi ko‘rsatkichlari ham besh yilgacha ish stajiga ega vrachlarda hamda o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlar tomonidan boshqa shkalalarda kuzatilgan manzarani aks ettirmoqda (besh yilgacha ish stajiga ega vrachlarda − 5,76 ball hamda o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarda − 6,03 ball, farqlarning ishonchliligi − p<0.001).

Jadval-1

Vrachlarning kasbiy mahorat indeksini ekspert baholash natijalari N=640 (IPS)

№	Mezon	Besh yilgacha ish stajiga ega vrachlar		O‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlar		Farqlanish	
		χ	Σ	χ	σ	t	R
1.	Xulqiy	6,32	1,52	7,46	2,22	-1,034	0,09
2.	Kreativ	5,76	1,59	6,03	1,24	-2,054	0,04
3.	Kognitiv	7,34	2,17	8,16	0,92	-2,726	0,04
4.	Altruizm	8,60	2,64	7,04	1,06	2,045	0,01
5.	Ijtimoiy adaptatsiya	5,44	2,26	7,18	0,89	-2,313	0,05

Izoh: *r<0.05; ****r<0.001

t - Studentning t-kriteriysi bo‘yicha farqlanish 99% ishonchlilik darajasi

r – ahamiyatlililik darajasi

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, omillar asosida ekspertlar vrachlarning kasbiy mahoratini ushbu nuqtasida noodatiy vaziyatlarda ham, muammoga original yechim topa olishlarini va bu qobiliyat ularning kasbiy faoliyatini samaradorligini ta’minlovchi muhim xususiyat ekanligini ko‘rsatmoqda.

Vrachlarning «altruizm»ga qobiliyatlari quyidagicha baholandi: besh yilgacha ish stajiga ega vrachlarda 8,60 ball hamda o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarda 7,04 ball; ko‘rsatkichlar orasidagi farqlar ishonchliligi - p<0,01. Bu qiymatlar besh yilgacha ish stajiga ega vrachlar, o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarga nisbatan, insonlar bilan muloqotda ko‘proq o‘z maqsad va

manfatini emas, balki sherigining fikri va niyatini ustun qo‘yishi va shaxslaro munosabatda muomala odobiga o‘ta rioya qilishlarini ko‘rsatmoqda.

Intellektning ko‘p qirraliligi borasidagi g‘oya asoschisi sifatida X. Gardner “shaxsning ichki” va “shaxslararo intellekt” tushunchalariga ajaratdi [246]. Xulosa qilib aytish mumkinki, intellekt muammosi chet el (G‘arbiy Yevropa, AQSH) psixologiyasida juda keng o‘rganilgan bo‘lib, ular turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo‘nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan [298]. Shuning bilan birga, intellektni o‘lchash mezonlari, darajalari, ko‘rsatkichlari, o‘ziga xos xususiyatlari, test yaratish va undan turli yoshdagi kishilar aqliy rivojlanishini tekshirishda foydalanish xilma-xil ilmiy-nazariy negizlarga qurilgandir. Ana shu boisdan, biz ularni tahlil qilganda, bir nechta yo‘nalishga ajratib, talqin mohiyatini osonroq tushunish, idrok qilish, muayyan xususiyatga, shaklga, darajaga, mantiqiy izchillik bilan fikrlarning uyg‘unlashishiga murojaat qilishga harakat qildik. Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida dastavval tadqiqotda qo‘llanilgan metodikalar, ularning maqsadga mosligi va qo‘llash tartiblarini bayon qilishni lozim topdik.

Vrachlarda kasbiy mahorat xususiyatini shakllanishining asosiy omillaridan biri ularning intellekti va ijodiy qobiliyatlari tuzilmalari ekanligini nazardan qochirmagan holda, biz tadqiqotimizda vrach kasbiy mahorati darajalari va intellektni aynan ularga xos ustuvor sifatlarinini o‘rganishga qaror qildik.

Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda zamonaviy psixologiyada intellekt xususiyatlarini tadqiq qilish bo‘yicha juda ko‘plab testlar qayd etilgan. Biz tadqiqotimizda bulardan ilmiy jamoatchilikda keng qo‘llanilayotgan, o‘zining ishonchliligi va validligiga ega bo‘lgan mashhur G.Gardnerning “Intellekt tiplarini aniqlash metodikasi” imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik.

Mazkur metod shaxsning intellekt xususiyatining o‘ziga xos sifatlarini o‘rganadi. Bizningcha, vrach intellektining shakllanganligi ulardagi kasbiy mahorat omillarini shakllanishiga zamin hozirlashi mumkin. Ushbu metodika 28 ta savolnoma va 7 ta shkaladan iborat. Har bir shkala ma’lum bir intellekt tiplarini aniqlashga mo‘ljallangan.

Xotirjamlik va diqqat bilan ishlang. Topshiriqlarni qanday joylashgan bo‘lsa shunday ketma-ketlikda bajaring. Navbatdagi topshiriqqa javob topa olmasangiz uzoq ushlanib qolmang keyingisiga o‘tib ketavering. Har bir bo‘limdagi ishni boshlash va tugatishda siz o‘qituvchini aniq ko‘rsatmasiga e’tibor bering.

1. Lingvistik (og‘zaki) intellekt- G.Gardner ushbu aql tarkibida nutqni talaffuz qilish qobiliyatini ko‘rdi. Ushbu intellektda nutqning fonetik, semantik va grammatik tarkibiy qismlariga, shuningdek, turli vaziyatlarda (pragmatik tarkibiy qism) foydalanish uchun javob beradigan mexanizmlar mavjud.

2. Musiqiy intellekt- G. Gardner aqlning ushbu turi bo‘yicha tovushlarga kiritilgan ma’nolarni yaratish, uzatish va tushunish qobiliyatini tushungan. Bunga quyidagi mexanizmlar kiradi bu bilan biz tovushning ohangi, ritmi va tembrini (sifat ko‘rsatkichlarini) idrok eta olamiz.

3. Mantiqiy va matematik intellekt- G.Gardnerning fikricha bunday aql faqat IQ testlari bilan baholanmoqda. Bu amalda bo‘lmagan harakatlar yoki obyektlar o‘rtasidagi aloqani ishlatish va baholash qobiliyati, boshqacha aytganda, mavhum fikrlash qobiliyatidir.

4. Fazoviy intellekt - G.Gardner ushbu turdagi aql sizga vizual tasvirlarni idrok etish, shuningdek, fazoviy ma’lumotni o‘zgartirish, shuningdek vizual tasvirlarni asl stimulga murojaat qilmasdan qayta yaratishga imkon beradideb ta’kidlaydi. Fazoviy intellekt tufayli biz tasvirlarni uch o‘lchovda to‘plashimiz, shuningdek, ularni aqliy ravishda siljitish, aylantirish va o‘zgartirishimiz mumkin.

5. Tana-kinestetik intellekt - ushbu turdagi aql G.Gardnerning fikricha muammolarni hal qilish va tanangizning barcha qismlaridan foydalangan holda mahsulotlar yaratish uchun javobgardir. Bunga nozik va qo‘pol harakat qobiliyatlari, shuningdek tanaga aloqasi bo‘lmagan tashqi obyektlarni ta’sir qilish qobiliyati kiradi.

6. Shaxsiy intellekt- (emotsional intellekt) G.Gardner ushbu intelekt ikkita turini o‘z ichiga oladi: ichki shaxsiy va shaxslararo intellekt. Intrapersonal intellekt insonning his-tuyg‘ularini, niyatlarini va sabablarini tan olishga javobgardir. Shaxslararo intellekt boshqa odamlarning his-tuyg‘ularini, munosabatlari va niyatlarini, shuningdek, boshqa odamlarda turli xil his-tuyg‘ularni farqlash qobiliyatini tushinish imkoniyatini yaratadi [42].

Ushbu turlarning barchasi bir-biridan mustaqildir va o‘zlarining qonunlariga bo‘ysungan alohida tizimlar sifatida ishlaydi. Shaxsiyatni to‘liq anglash uchun barcha keltirilgan intellekt turlari talab

qilinadi. Biroq, ba'zi odamlarda irsiyat, ta'lim va boshqa omillar ta'siri ostida intellektning ba'zi turlari boshqalarga qaraganda ancha kuchli rivojlanishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Ijodiy fikrlash o'rtasidagi munosabatlar muammolariga nisbatan eng katta qiziqish "shaxsiy intellekt" bo'lib, unda G.Gardner o'z turkumlarining oltinchi turiga ikki tomonlama – ichki shaxsiy va shaxslararo xususiyatlarini quyidagicha izohlaydi.

Shaxsiy intellekt o'zini-o'zi boshqarish vazifalarini bajaradi. G.Gardnerning fikriga ko'ra, aynan ushbu intelektning mavjudligi tufayli inson o'z his-tuyg'ularini boshqarishi, bilishi, ijodiy fikrlashi ularni ajratishi va tahlil qilishi, shuningdek, olingan ma'lumotlardan o'z faoliyatida foydalanishi mumkin. Shaxslararo intellekt odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammolari bilan bog'liq bo'lib, bu boshqa odamlarning ehtiyojlari va his-tuyg'ularini, ularning niyatlarini aniqlash, tahlil qilish va tushunish qobiliyatini anglatadi. Uning yordami bilan inson turli xil holatlarda boshqa odamlarning xatti-harakatlarini tahlil qilishi.

Jadval-2

G.Gardnerning "Intellekt tiplarini aniqlash metodikasi" orqali vrachlar dan olingan dastlabki natijalar tahlili n=640

Omillar	O'n yil va undan ko'p ish stajiga ega vrachlar	%	Besh yilga-cha ish sta-jiga ega vrachlar	%
Lingvistik (og'zaki) intelekt	61	19,3	58	17,9
Musiqiy intellekt	47	14,9	59	18,2
Mantiqiy va matematik intellekt	58	18,4	50	15,4
Fazoviy intellect	52	16,4	52	16,1
Tana-kinestetik intellect	45	14,2	56	17,3
Shaxsiy intellect	53	16,8	49	15,1
Jami:	**316**	**100 %**	**324**	**100 %**

Tadqiqotimizda vrachlarning kasbiy mahoratini shakllanishiga intellekt tiplarini ahamiyatini belgilash uchun G.Gardnerning "Intellekt tiplarini aniqlash metodikasi" imkoniyatlaridan foydalanishni lozim topdik. Endi ushbu metodika natijalari tahliliga murojaat qilsak. O'n yil va undan ko'p faoliyat davomiyligiga ega bo'lgan vrachlar «lingvistik (og'zaki) intelekt» qobiliyati (19,3%), besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan vrachlarda esa, «musiqiy intellekt » qobiliyati (18,2%) eng yuqori o'rinni egalladi. Bundan ko'rinib turibdiki o'n yil va undan ko'p faoliyat davomiyligiga ega bo'lgan vrachlarda kasbiy va shaxsiy faoliyati davomida aksariyat hollarda kognitiv qobiliyatlarga asoslangan aqliy harakatlar yetakchilik qilishi, har bir vaziyatni jiddiy qabul qilib, hukm chiqarishda tafakkurga suyanishi yetakchilik qilar ekan(2-jadval).

Shuningdek, besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan vrachlarda shaxsiy intellektning yetarlicha shakllanmaganligi(15,1) va har bir vaziyatga obektiv baho berish qobiliyati rivojlanmaganligini ko'rish mumkin. Demak, ayni paytda besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan vrachlarda, vaziyatlardan hozirjavoblik va uddaburonlik bilan chiqib keta olishlari vaziyatlarni osongina hal qilishlarida bir muncha to'siqlarga uchrashlari mumkin ekan. Shu bilan birgalikda «tana-kinestik intelekt» qobiliyatini (17,3) o'n yil va undan ko'p faoliyat davomiyligiga ega bo'lgan vrachlarga(14,2) nisbatan yaxshi shakllanganligidan bilish mumkin. Besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan vrachlarning o'ziga bo'lgan e'tiborning, o'z MEN ligini sevishi va doimo muammolarni hal qilish va o'zlari uchun vaqt ajratgan holda tanalari ustida yaxshi ishlashlaridan dalolat beradi. Demak o'n yil va undan ko'p faoliyat

davomiyligiga ega bo‘lgan vrachlarda muammoli vaziyatlarda doim ham oson chiqib keta olmasliklari, qiynalishlari hamda ijtimoiy kutilmalarda adashishlaridan darak beradi.

Yuqoridagi empirik natijalardan ham bilsa bo‘ladiki, vrachlarning kasbiy mahoratini oshirish uchun avvalo, kasbiy mahoratni o‘sishiga sabab bo‘luvchi omillarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida V.Ryaxovskiyning “Muloqotga kirishuvchanlik” metodikasidan foydalandik. Chunki vrach kasbiy mahoratini o‘stirishda, muloqot muhim omillardan biri sanaladi. Vrachlarda muloqotga kirishuvchanlik, tinglash texnikasi, o‘z fikriga bo‘ysundirish, axborotga qiziquvchanlik va boshqalarni o‘z ortiga ergashtirish kabi omillarning shakllanganligi, vrach kasbiy faoliyati samaradorligini ta’minlovchi muhim komponentlar sanaladi. Endi, bevosita natijalarga to‘xtalamiz.

Jadval-3

V.Ryaxovskiyning “Muloqotga kirishuvchanlik” metodikasi natijalari (n=640)

№	Mezon	O‘n yil va undan ko‘p ish sta-jiga ega vrachlar		Besh yilgacha ish stajiga ega vrachlar		Farqlanish	
		χ	Σ	χ	σ	t	R
1.	Muloqotga kirishuvchanlik yuqori	7,31	2,02	6,10	0,88	-1,038	0,07
2.	Muloqotga kirishuvchanlik o‘rta	7,9	1,54	6,55	1,33	-2,049	0,03
3.	Muloqotga kirishuvchanlik past	6,74	1,64	7,47	0,84	-2,674	0,04

Izoh: *r<0.05; ****r<0.001

t - Studentning t-kriteriysi bo‘yicha farqlanish 99% ishonchlilik darajasi

r - ahamiyatlililik darajasi

Bu metodikada asosiy e’tibor vrachlarning muloqot texnikasini egallanganlik darajasiga qaratildi. Vrachlarning psixologik tayyorgarligida ularning muloqot munosabatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Dastavval vrachlardan olingan natijalar foiz hisobida aniqlandi va so‘ngra o‘zaro korrelyatsiya munosabatlari aniqlandi.

Endi, vrachlarni muloqot motivatsiyasi namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalarni umumiy sharhi tahliliga o‘tamiz to‘xtalib o‘tamiz. Birinchi navbatda, “muloqotga kirishuvchanlik past” mezoniga murojaat qildik. Besh yilgacha ish stajiga ega vrachlarda ushbu omil bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich ya’ni, 7,47 % ni tashkil etdi (3-jadval).

O‘rganilgan vrachlarda real muloqot qilishga nisbattan noadekvat munosabat, ijtimoiy identifikatsiyaning noto‘g‘ri shakllanganligi, qo‘zg‘aluvchan, sabrsiz va biroz ma’suliyatsiz ekanliklari aniqlandi. Bunga sabab, ularning sabrsiz, ba’zan o‘rtoqlari va boshqa insonlar bilan notipik vaziyatlarda yanglishishlari mumkinligi, o‘z rejalarini amalga oshirishda hech nimadan qo‘rqmasliklaridir. O‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarda esa, bu ko‘rsatkich 6,74% ni tashkil qildi.

Binobarin, o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlar, besh yilgacha ish stajiga ega vrachlarda nisbattan ijtimoiy adaptatsiya yaxshi shakllangan va vaziyatga moslashuvchan, shuningdek, har bir ishga ma’suliyat bilan yondashishlari aniqlandi. Bu esa, o‘z navbatida ularning irodali, emotsional jihatdan barqaror, chidamli ekanliklari hamda har bir ishga ma’suliyat bilan yondashishlarini ko‘rsatadi. Keyingi mezon bu “muloqotga kirishuvchanlik yuqori” bo‘lib, bunda besh yilgacha ish stajiga ega vrachlar (6,10%) ayrim holatlarda ruhiy tushkunlik, beqarorlik, ba’zi hollarda esa, o‘z iroda kuchiga ishonmaslik va ruhiy jihatdan pessimistik holatlari ko‘zga tashlanadi. Bunday shaxslararo munosabatlar ularda har doim ham ijtimoiy jihatdan faol emasliklari hamda o‘z fikrlarini doimo to‘g‘ri va ochiq

ifodalay olmasligidan dalolat beradi. O‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarlarda esa, bu ko‘rsatkich eng yuqori , ya’ni, 7,31% ni tashkil etdi.

Demak, bu toifa vrachlar ancha faol va pozitiv xususiyatlarga ega. Bu esa, o‘z navbatida ularning kasbiy va shaxsiy faoliyati uchun ham muhim omil ekanligini ko‘rsatadi. Keyingi mezon bu “muloqotga kirishuvchanlik o‘rta ” omili bo‘yicha 7,9 % o‘n yil va undan ko‘p ish stajiga ega vrachlarda ayrim hollarda ruhiy bosim, beqarorlik, ba’zi holatlarda esa, o‘z iroda kuchiga ishonmaslik va ruhiy jihatdan pessimistik holatlari ko‘zga tashlanadi. Bunday shaxslararo munosabatlarga kirishish ularda ijtimoiy munosabatlarda faol emasliklari hamda o‘z fikrlarini doimo to‘g‘ri va ochiq ifoda etolmasliklari aniqlandi. Besh yilgacha ish stajiga ega vrachlarda esa, bu ko‘rsatkich biroz past ya’ni, 6,55% ni tashkil etdi. Demak, bu toifa vrachlar faoliyatida shaxslarao munosabatlarning noadekvat shakllanganligi, ijtimoiy identifikatsiya omillarini past shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Bu omil esa ularni yangi muhitga, shaxslararo munosabatlardagi vaziyatlarni tahlil eta olishga, ijtimoiy persepsiyani va adekvat tushunish qobiliyatini rivojlantirish hamda kamchiliklarni bartaraf etishga moyil ekanliklarini ko‘rsatmoqda.

Jadval-4

Vrachlarda “Muloqotga kirishuvchanlik” va “Kasbiy mahorat indeksi” omillari orasidagi korrelyatsion aloqadorlik natijalari (n=640)

X^2 (Pirson)	Xulqiy	Kreativ	Kognitiv	Alturizm	Ijtimoiy adap-tatsiya
Muloqotga kiri-shuvchanlik yuqori	1	0,553*	0,201**	0,665	0,236
Muloqotga kiri-shuvchanlik o‘rta		1	0,526	0.607*	0.203
Muloqotga kiri-shuvchanlik past			1	-0.532	-0,201

Demak, yuqoridagi empirik tahlillardan ma’lum bo‘layaptiki, vrachlar o‘z faoliyatlarida har qanday muammolarni bartaraf etishga moyil va har qanday holatda ham intiluvchan, vaziyatlarni hamma vaqtda ham adekvat baholay olishga qiynalishlari bilan xarakterlanadi.

Endi bevosita V.Ryaxovskiyning “Muloqotga kirishuvchanlik” metodikasi bilan “Kasbiy mahorat indeksi” o‘rtasidagi korrelyatsion natijalar tahliliga o‘tamiz (4-jadval).

Dastlabki omil hisoblangan “muloqotga kirishuvchanlik yuqori” bo‘lishi “kretiv” (0.553**), “kognitiv” (0.201*) omillari o‘rtasida ishonchlilik darajasida bog‘liqligi kuzatildi. Ya’nikim, vrachlarda faoliyat jarayonida “kretiv” (0.553**), “kognitiv” (0.201*) omillari qanchalik yuqori bo‘lsa, ulardagi muloqotga kirishuvchanlik omilining ortib borishi namoyon bo‘ldi. Ya’ni kasbiy mahoratning asosiy omillaridan biri kasbga nisbatan adekvat munosabatlarni shakllantirish muhim sanaladi.

Xulosa va tavsiyalar. Shifokorlarda “alturizm” psixologik mexanizmi oshgani sayin, “muloqotga kirishuvchanlikning o‘rta” mexanizmi ham oshib borishi kuzatildi (0.607*) “Muloqotga kirishuvchanlikning o‘rtacha” mexanizmi asosan, o‘zini idrok qilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, vrachlar faoliyatida muhim hisoblanib, har qanday vaziyatda bemorlar va atrofdagilar bilan munosabatlarda, shuningdek kasbiy kompetentlikda asosiy omil sanaladi.

Demak, yuqoridagi tahlillardan ko‘rish mumkinki, vrachlarda kasbiy mahoratni rivojlantirishda muloqotning, shaxslararo munosabatlarning ahamiyati va roli nihoyatda katta ekan. Tadqiqot metodikalari sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat olib borayotgan vrachlarda qo‘llanildi. Biz ushbu bobda tadqiqot metodikalarini tatbiq etishdan olingan empirik ma’lumotlar bo‘yicha tahlillarimizni atroflicha yoritishga harakat qildik. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, aytish mumkinki, vrachlar kasbiy mahorati omillarini shakllantirish uchun ma’lum bir dasturga zarurat sezadi. Ayni paytda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, vrachlarning kasbiy mahorat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish, uning o‘ziga xos

ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish bugungi kunda ijtimoiy islohotlar uchun muhim muammolardan biridir.

Xulosa o‘rinida aytish mumkinki vrachlar kasbiy mahorati aniq mezonli va tizimli, ilmiy asoslangan tadqiqot metodikasi asosida aniqlandi. Bu uning kasbiy mahorat bilan mazmuniy bog‘liqligini tushuntirish imkonini berdi. Shuningdek, yuqoridagi ilmiy mulohazalardan kelib chiqib, vrachlarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish uchun avvalo, kasbiy mahorat omillarini shakllantirish zarur ekan. Buning uchun esa, vrachlarning kasbiy mahoratini va uning omillarini rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. PQ-2863-son. 01.04.2017.

2. Абрамова Г.С., Юдчиц Ю.А. Психология в медицине: Учебное пособие. –М.: “Кафедра-М”, 2008.

3. Дёрнер К. Хороший врач. – М.: “Алетея”, 2016. – С.73

4. Каримова В.М. Саломатлик психологияси. – Т: “Янги аср авлоди”, 2005. –72 б.

5. Соложенкин В.В. Психологические основы врачебной деятельности. –М.: Академический проект, 2003. – С. 74.

6. Мухторов Э.М. Врач касбий маҳорати ва психодиагностика самарадорлиги. – Тошкент: “Фан ва технология”, 2016.

Nasirdinova Soliha Ravshanbek qizi
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalari universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jismoniy tarbiya kafedrasi assistenti

O‘QUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKURNI NAMOYON BO‘LISHINING O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni tadqiq etishning psixodiagnostik asoslari hamda sanogen tafakkur muammosining dolzarbligi, nazariy asoslari tahlil qilinib, maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlantirish jarayonining kognitiv, tayyorlov, yakuniy fazalariga ustuvorlik berish asosida sog‘lom fikr yuritish va sanogen xulq-atvorga oid tarkibiy komponentlari mazmuni yoritilgan. Shuningdek maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida uni rivojlantirish,maktab o‘quvchilarida sanogen tafakkurni rivojlanganlik darajasini va uning komponentlarini tahlil qilish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *sanogen tafakkur, patogen tafakkur, sanogen refleksiya, sog‘lom fikr yuritish, sanogen xulq-atvor, dinamiklik, beqarorlik, ijtimoiy-psixologik mexanizm,ijodiylik, intellekt.*

ОСОБЕННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ САНОГЕННОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧЕНИКОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются психодиагностические основы исследования саногенного мышления у студентов, а также актуальность, теоретические основы проблемы саногенного мышления, освещается содержание структурных компонентов здорового мышления и саногенного поведения на основе приоритета когнитивных, подготовительных, заключительных фаз процесса развития саногенного мышления у студентов. Также на основе исследования педагогико-психологических особенностей развития саногенного мышления у студентов разработаны практические рекомендации по его развитию, анализу уровня развития саногенного мышления у студентов и его компонентов.*

Ключевые слова: *саногенное мышление, патогенное мышление, саногенная рефлексия, здравый смысл, саногенное поведение, динамичность, нестабильность, социально-психологический механизм, креативность, интеллект.*

FEATURES OF THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF SANOGENIC THINKING IN STUDENTS

Annotation. *This article analyzes the psychodiagnostic foundations of the research of sanogenic thinking in students and the relevance, theoretical foundations of the problem of sanogenic thinking and highlights the content of the structural components of the process of developing sanogenic thinking in students on the basis of prioritization of cognitive, preparatory, final phases of common sense and sanogenic behavior. Also, on the basis of research on the pedagogical and psychological characteristics of the development of sanogenic thinking in students, practical recommendations for its development, analysis of the degree of development of sanogenic thinking in students and its components have been developed.*

Key words*: sanogenic thinking, pathogenic thinking, sanogenic reflex, common sense, sanogenic behavior, dynamism, instability, socio-psychological mechanism, creativity, intelligence.*

Jahonda ta’lim berishdagi yagona maqsad sanogen tafakkurini rivojlantirish usullarini takomillashtirish bo‘lib, bunda asosiy omillar kognitiv, konativ, ijodiylik, innovatsion, intellektual salohiyatga alohida tadqiq qilinmoqda. Globallashuv davrida «... yuqori aqliy qobiliyatli yoshlarni aniqlash, ularni tizimli dastur yordamida qo‘llab-quvvatlash»ga ustuvorlik berish orqali ularni har tomonlama barkamol jihatdan shaxs bo‘lib shakllantirish, o‘zi egallagan kasbi va bilimi bilan faxrlanishni tarkib toptirish masalalari dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda. Avstraliyaning Melburn universitetidagi ilmiy-amaliy tadqiqotlarda shaxs tafakkuri, kreativligi, uning emotsional holati, intellekti va ularning jamiyat bilan aloqasi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada yoshlarning indikator ko‘rsatkichi sifatida kasbiy muvaffaqiyati va salohiyatini tafakkur mezonlari orqali belgilanishi, shaxsning yaratuvchanligi, iqtidori, iste’dodi, talanti jamiyatning strategik zaxirasi sifatida e’tirof etilishi bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda pozitiv, ratsional, kreativ, mantiqiy, tarixiy, ma’naviy tafakkurlarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro‘yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish uchun shart-sharoitlar yaratishning zaruriy huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi, hamda «...jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ishida ...yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash va ro‘yobga chiqarish...» vazifalari belgilanganligi yosh avlodga intellektual tafakkurini shakllantirish orqali ularning o‘quv faoliyatidagi yo‘nalishlarini belgilash ilmiy tadqiqotlar uchun asos bo‘lmoqda. Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirish, hamda ijodkorlik xususiyatlarni inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni chuqurlashtirishga imkoniyatlar yaratildi.

Barcha davrlardan inson salomatligi va uning sog‘lom fikrlashi masalasiga katta e’tibor qaratib kelingan. Xususan, sog‘lom fikrlash asosida sog‘lom raqobat muhitini yaratish, shaxsning psixo emotsional yetukligi akmeologik tadqiqotlarning asosiy mummolaridan bo‘lgan. Mazkur muammo pedagogika, sotsiologiya, psixologiya kabi qator fanlar kontekstida o‘ziga xos tarzda talqin qilingan. Vaholanki, “barkamol avlod” tarbiyasi g‘oyasi negizida shaxsni aqlan, jismonan, ruhan yetuk qilib voyaga yetkazish masalasi yotar ekan, biz tadqiqi etmoqchi bo‘lgan “Sanogen tafakkur” muammosi ham dolzarb ahamiyat kasb yetishini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

O‘zbekiston psixolog olimlaridan A.F.Azimova, Z.A.Abduraxmonova, M.Vohidov, M.G.Davletshin, E.G‘oziyev, A.M.Jabborov, T.S.Jo‘rayev, V.M.Karimova, J.X.Mavlonov, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, E.Z.Usmonova va boshqalar tomonidan shaxs tafakkuri, uning intellektual rivojlantirish usullari tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.B.Brushlinskiy, L.S.Vigotskiy, Y.A.Klimov, B.F.Lomov, N.S.Leytes, A.M.Matyushkin, V.S.Merlin, L.S.Rubinshteyn, A.V.Savenkov, B.M.Teplov, M.Xolodnaya, N.I.Chuprikova va boshqalar tadqiqotlarida tafakkur muammosining muhim jihatlari o‘rganilgan.

Xorij olimlaridan A.Adler, A.Bek, A.Binet, Z.Freyd, J.P.Gilford, F.Galton, R.B.Kettell, K.Levin, K.Perlet, J.Piaget, J.Renzulli, C.Spearman, R.Sternberg, L.L.Thurstone, K.Heller va boshqalar tomonidan shaxsning taraqqiyotida tafakkurning xususiyatlari, uning psixologik barqarorlikka ta’sirini, bilish jarayonlarida tafakkur alohida tadqiq qilingan. Ammo aynan talabalar sanogen tafakkurini rivojlantirish masalalari to‘liq ilmiy jihatdan o‘rganilmagan.

Sanogenik fikrlash haqida ko`plab xorijiy mutaxassislarning (R.Byern, K.Buyettnyer, D.Jampolskiy, M.Jyeyms, D.Yongvard, Ye.Lye Shan, M.Ruttyer, Z.Fryeyd, K.Xorni va boshqalar), rus olimlarining (Ye.M.Alyeksandrovskaya, A.B.Dobrovich, I.V.Dubrovina, A.I.Zaxarov, N.Kozlov, V.Lyevi, V.Y.Syemkye, M.Tyshkova va boshqalar) asarlari mavjud.

Asosan, mualliflar o‘z asarlarida sanogenik tafakkur namoyon bo‘lishining individual shakllariga, shuningdek, uning elementlarini shakllantirishning o‘ziga xos usullariga e’tibor berishadi. Kam hollarda mutaxassislar sanogenik fikrlashning mohiyati, tabiati va mexanizmlariga to‘xtalib o‘tadilar.


Masalan, Z.Freyd ruhiy kasallik sifatida nevroz xatti-harakatlarning madaniy aqliy avtomatizmlari tomonidan yaratilganiga ishonch hosil qiladi. K.Yung shaxsning arxetipik xususiyatlari bilan belgilanadigan fikrlash va tushunish usullarini engib o‘tish zarurligini ta'kidlaydi. Ya'ni, har doim ham mantiqiy qoidalarga to‘g‘ri kelmaydigan Sanogenlik qoidalariga muvofiq fikrlashni boshqarishga urg‘u beradi. K.Xornining fikricha, inson xatti-harakati ko‘pincha madaniy omillar bilan tartibga solinadi, chunki bizning madaniyatimiz oqilona fikrlashga katta ta'sir ko‘rsatadi, uni yuksaltiradi va irratsional prinspni pastroq deb hisoblaydi. M.Jeymsning fikricha, Sanogenik tafakkurning asosi hozirgi paytda sodir bo‘layotgan narsalarni tushunish qobiliyati sifatida xabardorlikdir. Tafakkuri keng odam o‘zining ichki his-tuyg‘ulari, fantaziyalari dunyosini biladi, undan qo‘rqmaydi va uyalmaydi, uning fikri va tanasi "bu yerda va hozir" vaziyatga to`la to`kis mos keladi.

P.Ya.Galperin fikriga ko‘ra, tafakkur - bu orientirlash-tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya’ni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yechishda sub'yektning tafakkuriga orientirovka qilish jarayonini o‘rganishga asoslanadi deb tushuntiradi.

P.Ya.Galperin tafakkurning boshqa jihatlarini o‘zining aqliy harakatlari bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.

A.V.Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarini bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o‘tiladi.

N.A.Zaryembo tomonidan ishlab chiqilgan “Sanogen tafakkur darajasini aniqlash testi” hamda shaxsdagi sanogen tafakkur tuzilmasini aniqlash imkonini beruvchi “O‘quvchilar sanogen tafakkur darajasini aniqlash” ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi o‘tkazib oldik va natijalarni tahlil qildik. Bunda biz o‘quvchilarni bosqichlar kesimida tahlil qildik. Natijalarni bosqichlar kesimida tahlil qilish orqali sanogen tafakkurni rivojlanish dinamikasini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldik.



O‘quvchilardagi sanogen tafakkurni rivojlanganlik darajasini o‘ziga xos xususiyatlari

Olingan natijalarda ko‘rinib turibdiki sanogen tafakkurning past darajasi 1-bosqichlarda 18%ni, 4-bosqichlarda 8%ni tashkil etgan. Mazkur holat o‘quvchilardagi o‘z hissiyoti va fikrlarini boshqarish, ularni konstruktiv ifodalash ko‘nikmasini yetishmasligidan dalolat beradi. Birinchi bosqichlardagi mazkur holat o‘quv jarayoniga moslashish bilan bog‘liq bilishga oid qiyinchiliklar, ya’ni kasbiy tushunchalarni o‘zlashtirishdagi murakkabliklar hamda ta’limga moslashish bilan bog‘liq jarayonlar ta’sirida yuzaga keladi. Chunki o‘quvchi birinchi bosqichga qabul qilinganda ijtimoiy moslashishni talab etuvchi shaxslararo munosabatlar, pedagoglar bilan muloqotning o‘ziga xos jihatlari bilan bog‘liqdir. Qolaversa, sanogen tafakkurni rivojlanishi o‘quvchilarda kognitiv faoliyat ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasi bilan bog‘liq. O‘quvchilarda kognitiv rivojlanish jarayonida uning olam haqida olgan ma’lumotlari, uning xotirada saqlanishi va bilimga aylantirilishini hamda bu bilimlarning diqqat va xatti-harakatlariga qanday ta’sir qilishi jihatlariga e’tibor qaratilishi bilan bog‘liq. Birinchi bosqich o‘quvchilariga qaraganda to‘rtinchi bosqich o‘quvchilarida kognitiv faoliyatning yuqoriroq bo‘lishi ularda sanogen tafakkurning nisbatan yuqoriroq bo‘lishiga olib kelganligini kuzatishimiz mumkin.

Navbatdagi bosqichda o‘quvchilardagi sanogen tafakkurning tarkibiy tuzilmasini tadqiq etdik. Buning uchun ilmiy rahbarimiz bilan hammualliflikda ishlab chiqqan so‘rovnomamizni o‘tkazib oldik. Natijalar quyidagi jadvalda kyeltirilgan.

O‘quvchilardagi sanogen tafakkurning tarkibiy xususiyatlarini o‘ziga xos xususiyatlari (n=370)

Shkalalar	1-bosqich n=175	4-bosqich n=195	t
Mustaqil fikrlash	13,4	15,1	-2,02*
Nostandart fikrlash	14,3	12,1	2,40**
Rasional tafakkur	12,6	15,1	2,30**
Refleksiv tafakkur	13,8	14,2	2,93**

Mazkur ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma orqali sanogen tafakkurning “mustaqil fikrlash”, “nostandart fikrlash”, “sanogen tafakkur”, “refleksiv tafakkur” komponentlari ajratilgan. O‘quvchilarning natijalarida birinchi va to‘rtinchi bosqich orasida mustaqil fikrlash ($t=-2,02$; $p<0,05$), nostandart fikrlash ($t=2,40$; $p<0,01$), ratsional tafakkur ($t=2,30$; $p<0,01$), ryeflyeksiv tafakkur ($t=2,93$; $p<0,01$) mezonlari bo‘yicha o‘ziga xos differensial farqlar aniqlangan.

Xususan, mustaqil fikrlashning 4-bosqich o‘quvchilarida yuqoriligi, ularning bilimlari, dunyoqarashi, kasbiy pozitsiyasiga ega ekanligi, ijtimoiy dadilligidan dalolat beradi. 1-bosqichlarda esa kasbiy ta’lim jarayoniga adaptatsiyaning ta’sirida ijtimoiy faollik va dadillikning yetarli darajada namoyon bo‘lmayotganligi kuzatilgan.

Talabalarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tadqiq etish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

Shaxs tafakkurining rivojlanishi masalasi sharq allomalarining pedagogik-psixologik qarashlarida “barkamol inson tarbiyasi” g‘oyasi kontestida tahlil qilib berilgan va shaxsning sog‘lom fikr yuritish qobiliyati ilmli bo‘lish, ezgu fikrlash, dunyoqarashning keng bo‘lishi, o‘z axloqini tahlil qilish, ijtimoiy zukkolik sifatlarini bilan bog‘liq tarzda namoyon bo‘lishi pedagogik-psixologik manbalarda keltirib o‘tilgan.

Sanogen tafakkur shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilishiga, stressogen omillarni rolini adekvat idrok qilishga, ijtimoiy stereotiplarni konstruktiv qabul qilishiga, shaxsning ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi fikrlash turi ekanligi tahlil qilingan.

Shaxsda sanogen tafakkurning rivojlanishi atrof-muhitga nisbatan emotsional munosabatini barqaror bo‘lishi, o‘z fikrlarini boshqarish ko‘nikmasini, hayotga pozitiv qarashlarni shakllanishiga olib kelishi aniqlangan hamda sanogen tafakkur bilish jarayonlarining optimallashtirilishi (e’tibor, tasavvur, xotira, his qilish) va aqlning ijobiy fazilatlari aql, moslashuvchanlik, mustaqillik, tanqidiy fikr, aqlga amal qilish qobiliyati uchun ichki sharoitlarni yaratishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Галперин Р.Я. Эмоциональный интеллект. Почему он может значить больше, чем IQ - М.: «Манн, Иванов и Фербер», 2013. — С. 560.
2. Рубинштейн С.Л. Человек и мир / С. Л. Рубинштейн. – М.: Наука, вт. изд. 2007. – С.133.
3. Богословский В.В. Модель проблемной ситуатsiи //Проблемы эвристики. - М., 2000– С.83.
4. Abdurahmonova Z.A. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda sanogen tafakkurni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent. 2020. - 46 b.

Rahmatova Nasiba Sobirovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

KICHIK MAKTAB YOSHDAGI O‘QUVCHILARNING EMOTSIONAL-IRODAVIY SOHASINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda hissiy kechinmalar juda yorqin tarzda aks etishi. O‘quvchilarning tez ko‘nikuvchanligi va ma`lum darajada ta`sirchanligi, ulardagi ishonuvchanlik, taqlid qilishga moyillik, o‘qituvchining katta obro‘ga ega ekanligi muhim ahamiyat kasb etishi kabi mavzular yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Iroda ,kichik maktab yoshi, his-tuyg‘u, intellek, o‘quvchi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish.*

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ СФЕРЫ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. *В данной статье очень ярко отражены эмоциональные переживания детей младшего школьного возраста. Большое значение имеют такие темы, как быстрая адаптация учащихся и определенный уровень впечатлительности, их надежность, склонность к подражанию, а также тот факт, что преподаватель имеет отличную репутацию.*

Ключевые слова: *Воля, младший школьный возраст, эмоция, интеллект, ученик, контроль своего поведения.*

CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL AND VOCATIONAL FIELD OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Abstract. *In this article, the emotional experiences of children of primary school age are vividly reflected. It is important that the students are quick to adapt and to a certain extent impressionable, their trustworthiness, tendency to imitate, and the fact that the teacher has a great reputation.*

Keywords: *primary school age, pedagogical-psychological, emotional-volitional, controlling one's behavior.*

Kirish. Tuyg‘ular noma’lum ob’ekt bo‘lib, ularni his-tuyg‘ular deb tasniflash mumkin emas, chunki ular bir lahzalik hodisadir. Bugungi kunda psixologiyada hissiyotlar sohasida global tadqiqotlar boshlandi, chunki bu his-tuyg‘ularni yaratishdir. Biz insonning hayot tomonidan taqdim etilgan holatlarga qanday hissiy munosabatda bo‘lishi haqida gapiramiz. Biz xursand bo‘lamiz, qo‘rqamiz, g‘azablanamiz, deb aytishga odatlanganmiz - bu barcha harakatlar qalbimizning holatini ifodalaydi. Ilgari, hissiy holatlar his-tuyg‘ularga tenglashtirilgan, ammo bu mavzu bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, his-tuyg‘ular avvalgi holatdir. Avvaliga biz hissiy munosabatda bo‘lamiz, keyin esa hissiyotga ega bo‘lamiz.

“Iroda” termini deganda shaxsning qiyinchiliklarni yengib aniq maqsadni ko‘zlab harakat qilish qobiliyati tushuniladi. Zo‘r iroda bu biror narsani qilishga intilish va unga erisha olishgina emas balki zarur bo‘lib qolganda o‘zini biror narsadan voz kechishga majbur qila olish hamdir. Iroda shunchaki istak va uning qondirilishi emas, balki bu ham istak, ham uni to‘xtatilishi, ayni vaqtda undan voz kechish hamdir. Kishi hayotida irodaning ahamiyati nihoyatda kattadir. Iroda oddiy kundalik hayotda, ayniqsa, katta qiyinchiliklarni yengishga to‘g‘ri keladigan qiyin paytlarda zarur bo‘ladi. Irodaning o‘ziga xos ko‘rinishlari shaxsning tavakkalchilik vaziyatidagi xatti-harakatida ko‘rinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Irodaga motivatsion yondashuv dastavval Aristotel asarlaridan boshlangan. Keyinchalik, fransuz olimi Rene Dekart bu masalani atroflicha o‘rganishga kirishgan. U Aristoteldan farqli ravishda irodani insonni xatti-harakatlarga undovchilar ruhning xohishi, deb qaraydi va uni reflektorga bog‘liq bo‘lmagan ruhiy hodisa, deb reflektor haqidagi ta’limotni kengaytiradi. Irodaning asosiy vazifasi deb tushuntiradi. R.Dekart ehtiroslarni jilovlab, tanlangan xatti-harakatlarni bajarishdan iboratdir, deb ta’kidlaydi. Iroda tashqi narsalar ta’sirida tug‘iladi, xohish esa bevosita ruh asosida paydo bo‘ladi. Ya’ni ruhning mahsuli. Iroda ehtiroslarga qarshi kurashishi, vujudning ehtirosga

qaratilgan harakatlarini tormozlab qo‘yishi mumkin. R.Dekart aqlni irodaning quroli deb tushuntiradi va yaxshilik hamda yomonlik to‘g‘risida qat’iy hukmga ega bo‘lgan ruhni kuchli ruh deb hisoblaydi.

Fransuz psixologi Teodol Arman Ribo jonli materiyaning vaziyatda javob berishini oddiy iroda shakliga kiritadi. Irodaning asosida “motivlashtiruvchi kuch sifatida ehtiros va qiziqish yotadi” hamda irodaning rivojlanishi “bu reflektor reaksiyalardan mavhum (abstrakt) g‘oyalarga undovchi, xatti-harakatlarga o‘tishdan iboratdir ” degan fikrlarni ilgari surgan.

Amerikalik psixolog U.Jeyms ishlarida ikki va undan ortiq xatti-harakatlar g‘oyasi bo‘lganda ulardan birini tanlab olish irodaning asosiy vazifalaridan biri deb hisoblaydi.

L.S.Vigotskiy irodani yuksak ruhiy funksiya sifatida talqin etib, uni tarixiy taraqqiyot mahsuli ekanligini, har bir irodaviy akt avvalo ijtimoiy, jamoaviy, umumruhiy, inter psixologik jarayon deb ta’kidlaydi. Irodaning keyingi taraqqiyotini esa u kollektiv faoliyatda ko‘radi. Masalan, L.S.Vigotskiy, bola o‘yin va o‘qish jarayonida boshqalarning buyruq va ko‘rsatmalari, o‘yin qoidalarini bajarib, o‘zini boshqarishga o‘rganadi deydi. O‘yin haqida K.Levin irodaning mohiyati affektlar va xatti-harakatlarni boshqara olishlikdan iborat deydi. Darhaqiqat, ko‘p psixologlar kuchli iroda egalari kam affektga tushadi deb ta’kidlaydilar. L.Vekker irodaning xulq-atvorni tartibga solib turuvchi alohida funksiyasi borligini ta’kidlaydi.

V.I.Selivanov irodani “Odamning o‘z xulq-atvorini, ongli tartibga solish qobiliyati”, deb ta’riflab buni miyaning tartibga soluvchilik funksiyasidan iborat deydi. [1]

Maktab ta’limi uning turmush tarzi, tartibi, ijtimoiy holati, sinf jamoasi, oila muhitdagi ahvolini o‘zgartiradi, bolaning asosiy vazifasi o‘qishdan iborat bo‘lib qoladi. Yangi bilim, ko‘nikma, malakalar egallashdan tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi qonuniyatlarni o‘zlashtira boshlaydi. Ta’lim o‘quvchidan muayyan darajadagi uyushqoqlikni, intizomlikni, irodaviy zo‘r berishlikni, faollikni, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni talab qiladi. Ixtiyorsiz xatti-harakatlar o‘rnini anglashilgan rejali, maqsadga muvofiq aqliy mehnat egallay boradi.


Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning axloqiy onglari birinchi va to‘rtinchi sinfdagi o‘qish mobaynida muhim o‘zgarishlarga uchraydi va axloqiy sifatlar, bilim va tasavvurlar sezilarli darajada boyiydi va bola o‘zini o‘zi anglay boshlaydi. U o‘ziga xos bo‘lgan yaxshi-yomon xususiyatlarni bilmasa ham, lekin u o‘zining “Men”ini his qiladi. O‘zining vazifasi, maqsadi, uni bajarish lozimligi, unga berilgan vazifalarni bajarish, takrorlash uning burchi ekanligi kabilarni anglab yetadi.

Axloqiy his-tuyg‘ular va shaxsning irodaviy xususiyatlari ham shakllanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida iroda tarbiyasi tashabbuskorlik, dadillik, o‘zini tuta bilish, sabotlilik, chidamlilik, qat’iylik, kamtarlik va intizomlilik kabi irodaviy sifatlarni o‘stirish va mustahkamlashdan iboratdir. Iroda tarbiyasi bolalarda yomon sifatlar paydo bo‘lishining oldini olish va agar bunday sifatlar paydo bo‘lsa, ularni yo‘qotishdan iboratdir. Bolalar irodasining salbiy tomonlaridan biri o‘ziga ishonmaslikdir. O‘ziga ishonmaslik holati o‘qish, mehnat, o‘yin va shu kabi faoliyatlarda tez-tez qaytarilib turadigan muvaffaqiyatsizliklar tufayli yuzaga keladi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning his-tuyg‘ulari ularning faoliyatida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘zlarining har bir faoliyat natijalariga baho bera oladilar. Baho kishida qoniqish va qoniqmaslik hislarini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lib, bu hislar bolani yaxshi o‘qishga ruhlantiradi. Ba’zan past baho olish orqali yuzaga kelgan salbiy hislar chuqurlashib, o‘qituvchining noto‘g‘ri reaksiyasi va kattalarning doimiy tanbeh va tanqidlari oqibatida bolaning xarakter xislatiga aylanib qolishi mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining faoliyatlari uchun ijobiy baho olishlariga yordam beruvchi asosiy hislardan biri intellektual hislardir. Odamning aqliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan hislar intellektual hislar deb ataladi. Bilishga qiziqish, taajjublanish,va hayron qolish hislari, ishonch, ishonchsizlik va shubhalanish hislari intellektual hislar qatoriga kiradi. [2]

Kichik maktab o‘quvchilarning irodaviy fazilatlarining rivojlanish darajasini aniqlash uchun T.I. Shulgi so‘rovnomasidan foydalanildi. Sinf o‘qituvchilari va ota-onalardan har biri o‘quvchi uchun tegishli ustunga “ + “ belgisini qo‘yish orqali sifat rivojlanish darajasini ko‘rsatadigan anketani to‘ldirish taklif qilinadi.

Kichik maktab o‘quvchilarda irodaviy fazilatlarning rivojlanish darajasini o‘rganish natijalari maktab o‘quvchilari 1-rasmda aks ettirilgan.



1-rasm- Kichik maktab o‘quvchilarda irodaviy fazilatlarning rivojlanish darajasi.

1-rasmda keltirilgan natijalarni tahlil qilish bizga quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ixtiyoriy fazilatlarini rivojlantirish darajasiga oid xulosa.

Intizom xulq-atvorni talablarga bo‘ysundirish sifatida, kattalar tomonidan ilgari surilgan qoidalar 1-sinf o‘quvchilarida kam rivojlangan (1,4), 4-sinf o‘quvchilari uchun-o‘rtacha (1.6) ball. Qat’iylik, boshlagan ishni oxirigacha yetkaza olish qobiliyati sifatida, ishning uzoq muddatli bajarilishi 1-sinf o‘quvchilari past darajada (1,2), 4 – sinf o‘quvchilari o‘rtacha darajasi (1,9). Harakat, hissiyotlarni sekinlashtirish qobiliyati sifatida chidamlilik, qabul qilingan qarorning amalga oshirilishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar 1-sinf o‘quvchilari past darajada (1,1), 4-sinf o‘quvchilari ham past daraja (1,3). Belgilangan maqsaddan tezda o‘tish qobiliyati sifatida qat’iyatlilik 1-sinf o‘quvchilarida o‘rtacha (2,2), 4-o‘quvchilarda rivojlangan sinflar yuqori darajada (2,6). Jasorat hayot, sog‘liq uchun xavf bilan harakat qilish qobiliyati sifatida 1-sinf o‘quvchilarida past darajada (1,1), 4-sinf o‘quvchilarida esa o‘rtacha (1,9). Mustaqillik, harakatni bajarish qobiliyati sifatida tashqi yordam, o‘zingizni boshqarish qobiliyati va xulq-atvori va xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘lish 1-sinf o‘quvchilarida past (1,4), 4 – sinf o‘quvchilari o‘rtacha (1,7). Tashkilotchilik, mehnatsevarlik, rejaga muvofiq ishlash qobiliyati sifatida, belgilangan maqsadlarni rejalashtirish va aniq bajarish, ularni oxirigacha yetkazish, 1-sinflarda ishlab chiqilgan kattalarning barcha ko‘rsatmalariga aniq rioya qilish darajasi (1,3), 4-sinf o‘quvchilari ham past darajada (1,4). Ishchanlik, o‘z ishini shunday tashkil qilish qobiliyati sifatida buni aniq belgilangan vaqtda bajaring, 1-sinf o‘quvchilarida ishlab chiqilgan past (1,2), 4 – sinf o‘quvchilari ham past (1,5). Tashabbuskorlik, o‘z oldiga yangi vazifalar qo‘yish qobiliyati sifatida va ularni amalga oshirish, 1-sinf o‘quvchilarida past darajada rivojlangan (1,2), 4-sinf o‘quvchilari-o‘rta darajada (1,9). Maqsadga intilish, maqsadga uzoq vaqt rioya qilish qobiliyati sifatida, qiyinchiliklarni yengish, 1-sinf o‘quvchilarida past darajada rivojlangan (1,4), 4-sinf o‘quvchilari o‘rta darajada (1,8). Tirishqoqlik, o‘quv ishlarini bajarishda to‘planish sifatida, aniqlik, tirishqoqlik, 1-sinf o‘quvchilarida yuqori darajada rivojlangan (2,2), 4-sinf o‘quvchilari uchun-o‘rtacha (1,6).

Irodaviy fazilatlarning rivojlanishini o‘rganish natijasida kichik maktab o‘quvchilaridan, yani 1-sinf o‘quvchilarida aniqlandi intizomi past darajada rivojlanishi bilan tavsiflanadi, qat'iyatning rivojlanish darajasi past, qat’iylikning rivojlanish darajasi, past chidamlilik, o‘rta daraja qat’iylikni rivojlantirish, jasoratning past rivojlanish darajasi, past mustaqillik, past tashkilotchilik, kam ishchanlik, tashabbuskorlikning past rivojlanish darajasi, fidoyilik past darajasi, mehnatsevarlikning yuqori darajasi namoyon bo‘ldi.

4-sinf o‘quvchilari o‘rtacha rivojlanish darajasiga ega intizom, qat’iyatlilikning o‘rtacha rivojlanish darajasi, past chidamlilik, qat’iyatlilikning yuqori darajasi, o‘rta daraja jasoratni rivojlantirish, mustaqillikning o‘rtacha rivojlanish darajasi, past tashkilotchilik, past samaradorlik, o‘rtacha rivojlanish darajasi tashabbuskorlik, maqsadga muvofiqlikning o‘rtacha rivojlanish darajasi, o‘rtacha tirishqoqlikning rivojlanish darajasi namoyon bo‘ldi.

Xulosa qilib aytilganda iroda – shaxsning harakatini ifodalaydigan ruhiy jarayon. Mustaqil - o‘zining asosli fikriga ega bo‘lish. Chidam – shaxsning yuqori darajadagi irodaliligi. Qat’iyat – o‘z qarorlarida sobitqadam bo‘lish. Abuliya - irodasizlikning yuqori ko‘rinishi hisoblanadi. Maqsad - shaxsni biror sohaga undovchi xolat. Natija-harakat tufayli erishilgan yutuq. Irodaning shakllanishi birinchi navbatda ota-onaga bog‘liq. Bolada ongli intizomni shakllantirish tarbiyaning muhim shartlaridan biridir. Irodaviy fazilatlarni rivojlantirish intizomning zaruriy sharti bo‘lib, u xulq-atvor qoidalariga rioya qilish zarurligini tushunishga yordam beradi, shuningdek, o‘z xohish istaklarini tartibga soladi. Irodaviy sifatlarni tarbiyalashda maktab muhim o‘rin tutadi. U bolaga bir qator talablarni qo‘yadi, ularsiz maktabda o‘qish mumkin emas, u bolaning intizomini shakllantiradi. O‘qituvchi bolaning irodaviy fazilatlari, shuningdek, turli axil xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bolalar ko‘pincha o‘qituvchining xatti-harakatlariga taqlid qilishga intiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. o‘quv qo‘llanma. - T.: “Barkamol fayz media”, 2018.
2. Z. T. Nishanova Taraqqiyot psixologiyasi va differensial psixologiya /darslik/. Toshkent: «Inuovatsiya-Ziyo”, 2020, 418 bet.
3. E G‘oziyev.Ontogenez pslxologiyasi/darslik /.Tosbkent:”NIF MSH”, 2020.
4. Nishanova, Z.T.Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya :darslik 2018 yil

UO‘K: 159.9

Soliyev Farxodjon Sodiqovich
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd)

TASHQI IJTIMOIY XULQNI BAHOLASHDA SUBYEKTNING SHAXSIY XUSUSIYATLARINI O‘RGANISH SAMARADORLIGI

Annotasiya. *Ushbu maqolada shaxs madaniyati, tashqi ijtimoiy xulqini vizual o‘rganish bilan bog‘liq muammosining vizual analizatorlar yordamida idrok etiladigan "tashqi ko‘rinish ifodalari" bo‘lgan l belgilarga oid nazariyalar haqida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, xulq modelini kuzatish orqali olingan natijalarining, ya’ni A.Pavlovning “Shaxsning o‘ziga xosligini vizual diagnostika: 8 dominant” metodikasi bilan V.P.Zaytsev tomonidan ishlab chiqilgan MINI-MULT psixologik test varianti bilan qiyosiy solishtirmasi natijalari tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar*: vizual diagnostika, “tashqi” xulq-atvor xarakteristikasi, noverbal kommunikatsiya, shaxsninig jismoniy (konstitutsion, individual xarakter) белгилари, шахснинг ijtimoiy belgilar yoki tashqi ko‘rinishni ijtimoiy bezash, ekspressiv xulq-atvor.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИЗУЧЕНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ СУБЪЕКТА ПРИ ОЦЕНКЕ ВНЕШНЕГО СОЦИАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье представлены изложения о теориях зрительных знаков, которые представляют собой «выражения внешнего вида», воспринимаемые с помощью зрительных анализаторов, о проблеме, связанной с визуальным изучением культуры личности, внешнего социального поведения. Также даются результаты, полученные при наблюдении за моделью поведения и сравнительный анализ результатов, полученных при проведение психологического теста МИНИ-МУЛЬТ, разработанного В.П.Зайцевым с методикой «Визуальная диагностика личности: 8 доминант» А.Павлова.*

Ключевые слова*: визуальная диагностика, «внешние» поведенческие характеристики, невербальное общение, физические (конституциональные, индивидуальный характер) признаки личности, социальные признаки человека или социальное украшение внешности, экспрессивное поведение.*

THE EFFECTIVENESS OF STUDYING THE PERSONAL CHARACTERISTICS OF A SUBJECT IN ASSESSING EXTERNAL SOCIAL BEHAVIOR

Annotation. *This article presents the theories of visual signs, which are "expressions of appearance" perceived with the help of visual analyzers, about the problem associated with the visual study of personality culture, external social behavior. The results obtained by observing the behavior model and a comparative analysis of the results obtained during the MINI-MULT by V.P. Zaitsev with the test "Visual personality diagnostics: 8 dominants" by A. Pavlov are also given.*

Key words*: visual diagnostics, "external" behavioral characteristics, non-verbal communication, physical (constitutional, individual character) personality traits, social characteristics of a person or social decoration of appearance, expressive behavior.*

Kirish. Axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi ijtimoiy va iqtisodiy sohada faoliyat yuritayotgan shaxs psixologiyasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, shaxs psixotipini ma’lum darajada o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Butunjahon HRD Kongressi[1]ning doimiy faoliyat ko‘rsatishi bugungi kunda kadrlar tanlashning yechilishi lozim bo‘lgan muammolari ko‘pligidan dalolatdir. Bu borada, ijtimoiy munosabatlarda shaxs psixotipi va uning xulq modelini anglash uchun yangi psixologik texnologiyalarni o‘z ichiga olgan yondashuvlardan bo‘lgan, vizual psixologik tashxis usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari ilmiy tadqiqot etish dolzarb muammolardan bo‘lib kelmoqda.

Hozirgi kunda «shaxsni tashqi ko‘rinishi va ekspressiv xulqiga asoslanib vizual diagnostika qilish» muammosiga bo‘lgan qiziqish tobora ortib borayotganligi bois muammoni yoritishga qaratilgan ko‘plab ilmiy yondashuvlar bo‘lishiga qaramay, biz tanlagan muammo nazariy, amaliy va ta’limiy

[1] World HRD Congress. - https://www.worldhrdcongress.com/

jihatidan to‘liq o‘rganilishni talab etmoqda. Ijtimoiy kommunikatsiya jarayonida vizual diagnostikaga oid usullarni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik izlanishlar olib borish zarurati paydo bo‘ldi.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy jabhalarda faoliyat yurituvchi xodimlarni zamon talablariga mos texnologiyalar bilan qurollantirish hamda zaruriy huquqiy–me’yoriy asoslari yaratildi. «Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari»ning «Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish» bo‘limida qayd etilgan «ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish...»[1] ga doir masalalar yangi rivojlanib kelayotgan sohalarni amaliyotga joriy etishga keng yo‘l ochib beradi hamda shaxslararo munosabatlarda ilmiy va innovatsion yutuqlarni o‘z ichiga olgan vizual diagnostika usulini amaliyotga joriy etishni dolzarb muammo sifatida qaralishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019-yil 3-oktabrdagi PF-5843-son «O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlar, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-oktabrdagi 814-son «O‘zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o‘tkazish punktlarida ikki yo‘lakli tizimni qo‘llash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida», 2019-yil 7-iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlar hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur izlanish ma’lum darajada xizmat qiladi.

Zamonaviy gumanitar fanlarda shaxs madaniyatini vizual o‘rganish bilan bog‘liq muammoga qiziqish ijtimoiy psixologiya yo‘nalishiga bevosita ta’sir ko‘rsata boshladi. Ijtimoiy psixologiyadagi tarixiy-madaniy ilmiy izlanishlar natijasida verbal nutqni o‘rganish vizual ma’lumotlarni talqin qilish bilan birga tadqiq etila boshladi. Postmodern davri madaniyatining vizual transformatsiyasini davom etishi ijtimoiy psixologiyada vizual tadqiqotlarning olib borilishiga asosiy turtki bo‘lib kelmoqda.

Vizual psixodiagnostika tayanadigan asosiy prinsip bu inson psixikasi uning jismoniy tanasida namoyon bo‘ladi. Psixikani anglash qiyin, lekin tananing jismoniy harakatlarida uni tez payqash mumkin. Vizual psixodiagnostikaning vazifasi shaxsning “ichki” psixologik tuzilmasini ochib berish maqsadida uning “tashqi” xulq-atvor xarakteristikasi va qiyofasini tadqiq etish orqali har bir kishining individual o‘ziga xosligini va yashirin potensialini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashishdan iboratdir. Ushbu muammoning dolzarbligi shundan iboratki, barcha ijtimoiy sohalarining rivojlanishida inson faktorining roli va ahamiyatining oshib borish sharoitida odamlar bilan ishlashning psixologik muammolarini hal etishda professional psixologlar xizmatidan foydalanish zarurati tug‘ilmoqda. Tezkor adekvat metodikalar esa ushbu muammolarni yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vizual diagnostika tezkor axborot davrida vaqtni tejash imkonini beradi[2].

Adabiyotlar tahlili. Ushbu muammo bilan A.A.Bodalyov, A.A.Leontev, V.N.Kunitsina, V.N.Panferov, G.M.Biryukova, S.Ash, G.Kelli va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Bugungi kunda noverbal kommunikatsiya muammolari bilan bog‘liq ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Noverbal kommunikatsiyani “o‘qishga” oid konkret metodikalarni A.Piz, P.Ekman V.Feber, D.Nirenberg, G.Kalero va boshqa mualliflar ishlab chiqqan[3].

Ijtimoiy psixologiyada odamlar va odamlar guruhlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida yuzaga keladigan va asosan vizual analizatorlar yordamida idrok etiladigan "tashqi ko‘rinish ifodalari" vizual belgilar deb hisoblanadi. Ushbu belgilar asosida shaxsni bevosita muloqot qilish va idrok etish jarayonida shaxsning vizual diagnostikasi amalga oshiradi[4].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘G‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – https://lex.uz/docs/3107036

[2] Солиев Ф. Выявление скрытых возможностей, заложенных в психотипе личности, в межличностных отношениях. - Сборник материалов международной научно-практической конференции. Екатерингбург, 2022. — 258-266 с.

[3] Петрова А. Визуальная диагностика личности в практической деятельности психолога. - М.:РИЦАИМ, 2007. — 131 с.

[4] Петрова Е.А. Знаки общения. - М., ГНОМ и Д 20 01. —256 с.

Rus psixologiyasida insonning tashqi ko‘rinishi "anatomik, funksional va ijtimoiy xususiyatlarning majmuasi sifatida muayyan-hissiy aks ettirish” deb qaraladi[1]. A.Petrova, insonning barcha tashqi ko‘rinish komponentlarini birlashtirgan xolda “muloqotning vizual matni” degan tushunchani fanga olib kiradi. Tashqi ko‘rinishning barcha tarkibiy qismlari ma’lum bir fazoviy-davriy yaxlitlikni hosil qiladi va shu bilan birga, ular "idrok va talqin qilishning alohida ob’ektlari” sifatida mavjud bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan shaxsning vizual diagnostika asoslarini jismoniy (konstitutsion, individual xarakter), ijtimoiy belgilar yoki tashqi ko‘rinishni ijtimoiy bezash, ekspressiv xulq-atvor sifatida talqin qilish mumkin. O‘rtacha barqaror komponentlarga tashqi ko‘rinishni bezash bilan bog‘liq barcha usullar kiradi. Ularning dinamikasi gender-yoshga oid, mavqe-rolli tuzilmalarga, davr uslublariga va jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy belgilarga oid modda bilan belgilanadi. Shaxsning o‘zgaruvchan komponentlariga shaxsning ekspressiv xulq-atvori kiradi. Bu komponent shaxsning rivojlanishiga xos.

Tashqi ko‘rinishning ko‘p komponentligidan kelib chiqib, “muloqotda vizual matn” fiziognomika, tashqi ko‘rinishni psixosemantik bezash (misol uchun soch turmagi, kiyim, turli aksessuarlar va h.z) shakllanadi va rivojlanadi. Tashqi ko‘rinishga shaxsning noverbal ifodalanishi sifatida yondashishda asosan urg‘u uning ekspressiv xulq-atvorini vizual diagnostika qilishga yo‘naltiriladi[2].

Shaxsning tashqi ko‘rinishi va ekspressiv xulq-atvoriga oid vizual diagnostika metodlarini ishlab chiqishga bo‘lgan katta qiziqishga qaramay muammoning nazariy, amaliy va ta’limiy tomonlari to‘liq hal etilmagan[3].

Muhokamava natijalar. Tadqiqotimizda respondentlarning xulq modelini kuzatish orqali olingan natijalarini, ya’ni “Shaxsning o‘ziga xosligini vizual diagnostika: 8 dominant” metodikasini ishonchliligini aniqlashni maqsad qilgan holda V.P.Zaytsev tomonidan ishlab chiqilgan MINI-MULT psixologik test varianti bilan qiyosiy solishtirildi.

MINI-MULT asosini Stark Xatuey, Djon Makkinlining MMPI metodi tashkil etadi. MMPI (Minnesota Multiphasic Personaliti Inventori), (Minesota ko‘p aspektli shaxs so‘rovnomasi) AQSHning Minesota universiteti xodimlari tomonidan XX asrning 30-40-yillarida ishlab chiqarilgan bo‘lib, metodika shaxsning individual xususiyatlari va psixik holatini tadqiq etishga mo‘ljallangan[4].

Biz tadqiqotimizda V.P.Zaytsev tomonidan ishlab chiqilgan MINI-MULT psixologik test variantidan foydalandik. Test asosiy klinik shkalalar ipoxondriya (Hs), depressiya (D), isteriya (Nu), psixopatiya (Pd), paranoyallik (Ra), psixasteniya (Pt), shizoidlik (Se), gipomaniya (Ma) va baholovchi, yolg‘on shkalasi (L), ishonchlilik shkalasi (F), korrektsiya shkalasi (K) shkalalaridan iborat bo‘ldi[5].

Tadqiqotning ikkinchi bosqichda “Shaxsning o‘ziga xosligini vizual diagnosika: 8 dominant” metodikasida aniq dominant tiplariga ega bo‘lib chiqqan 300 nafar respondentlar ishtirok etdilar, 5 nafar ishtirokchi ayrim sabablarga ko‘ra ishtirok eta olmadi. Shuningdek, tadqiqotning birinchi metodi bo‘yicha aralash dominant tipli bo‘lgan respondentlar ishtirok etmadilar.

Ikkinchi bosqichda olingan natijalar MINI-MULTning baholash shkalasi yordamida tekshirildi. Unga ko‘ra respondentlarning 34 nafari L va F shkalalarida me’yoridan og‘ish ko‘rsatkichiga ega bo‘lib, ularning bergan javoblari hisobga olinmadi.

Yolg‘on shkalasi (L) bu shkala respondentning haqqoniylik darajasini baholaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, 12 nafar respondentlar yolg‘on shkalasida o‘ta olmadilar.

Ishonchlilik shkalasi (F) bu shkala ishonchli bo‘lmagan javoblarni aniqlaydi. Bu shkala bo‘yicha ko‘rsatkich qanchalik baland bo‘lsa, natijalar shunchalik ishonchsiz bo‘ladi. Bunday ishonchsiz javoblarini respondentlarning 24 nafarida qayd etildi.

Korreksiya shkalasi (K) bu test jarayonida respondent tomonidan ehtiyotkorlik maqsadida yo‘l qo‘yiladigan buzilishlarni silliqlashtiradi. Bu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar xulq atvorni ongsiz

[1] Панферов В.Н. Восприятие и интерпретация внешности людей // Вопросы психологии.- 1974.-№2. — 59 с.

[2] Лабунская В.А. Невербальное поведение: социально- перцептивный подход. - Ростов–на-Дону: Издательство Ростовского госуниверситета, 1991. – 148 с.

[3] Самойлова Е. Комплексная визуальная диагностика. — М., 2007. –288 с.

[4] Березин Ф.В., Мирошников М.П., Соколова Е.Д., Методика многостороннего исследованиуа личности (ММИЛ) структура, основы интерпретации, некоторые области применения. 3-издание. - Издательство “Березин Феликс Борисович”, 2011. – 320 с.

[5] Зайцев В.П. Вариант психологического теста MINI-MULT. // Психологический журнал, 1981, №3, –118-223 с.

ravishda nazorat qilishdan dalolat beradi. Respondentlarning javoblari ushbu shkala bo‘yicha ko‘rsatkichlariga bog‘liq bo‘lgan asosiy shkalalarni korreksiyasi uchun ishlatildi.


Qolgan respondentlarning javoblari asosiy shkalalar bo‘yicha hisoblanib chiqildi.

Jadval-1

Respondentlarning qayd etilgan javoblari shkalalar bo‘yicha uch ko‘rsatkichli mezonga oid tahlili

№	Asosiy shkalalar	Respondentlar soni	%
1	Gipomaniya (Ma)	40	15
2	Depressiya (D)	5	2
3	Ipoxondriya (Hs)	11	4,1
4	Isteriya (Nu)	9	3,4
5	Paranoyal (Ra)	103	38,7
6	Psixoasteniya (Pt)	32	12
7	Psixopatiya (Pd)	53	19,9
8	Shizoidlik (Se)	13	4,9
Jami:		**266**	**100**

Baholash shkalasining me’yorlariga mos tarzda bajarilgan 266 nafar respondentning natijalari asosiy shkalalar me’yorlariga solinib aniqlandi. So‘ngra 1-rasmga solindi.



1-rasm. Respondentlarning MINI-MULTning asosiy shkalasi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalari.

Olingan natijalarga muvofiq, asosiy shkalalar bo‘yicha respondentlarning eng yuqori ko‘rsatkich paranoyal (Ra) shkalasida (38,7%)i qayd etildi. Paranoyal shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichni olgan respondentlarning asosiy xususiyatlari, ular o‘ta muhim juda ahamiyatli fikrlarni hosil qiladilar. Bunday odamlar bir tomonlama ishlaydigan bo‘ladi, agressiv va kek saqlashga juda usta bo‘ladilar. Ular bilan hamfikr bo‘lmagan odamlar, yo ahmoq yoki dushman hisoblanadi. O‘z fikrlarini qat’iylik bilan o‘tkazmoqchi bo‘lganlari uchun doimo nizoli vaziyatlarga ko‘p tushadilar. O‘zlarining kichik bir yutuqlarini ham juda yuqori baholaydilar.

MINI-MULTning asosiy shkalasi bo‘yicha psixopatiya (Pd) shkalasida (19,9%) qayd etildi. Psixopatiya shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar ijtimoiy dezadaptatsiyadan dalolat beradi. Bunday

insonlar agressiv, nizokash bo‘ladilar, ijtimoiy norma va qadriyatlarni umuman hurmat qilmay, inobatga olmaydilar. Kayfiyatlari o‘zgaruvchan, tez xafa bo‘lib qoladilar, tez qo‘zg‘aluvchanlar hamda tezda hissiyotlarga berilib ketadilar. Bu shkala bo‘yicha ko‘tarilish vaqtinchalik bo‘lib, qandaydir bir sabab tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.

Gipomaniya (Ma) tipli (15%) shaxslarning kayfiyatlari vaziyatlarga bog‘liq bo‘lmagan holda a’lo darajada ko‘tarinki bo‘ladi. Ular faol, serg‘ayrat faoliyatni, hayotni juda yaxshi ko‘radilar. Ish jarayoni tez-tez o‘zgarib turadigan faoliyatni bajonidil bajaradilar, odamlar bilan munosabatlarda kirishimlilar, ammo qiziqishlari yuzaki va noturg‘un, ularga sabr-toqat va qanoat yetishmaydi.

Respondentlarning 12 %i psixasteniya (Pt) shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘ldilar. Bu shkala xarakteri bezovta va bir narsaga qotib qoladigan toifalarni diagnostika qiladi. Ularga bezovtalanish, qo‘rqish hissi, qaror qabul qila olmaslik va doimo ikkilanish hissi bilan yurish xosdir.

Shizoidlik (Se) shkalasida faqat 4,9 % respondentning ko‘rsatkichlari yuqori chiqdi. Bu shkala bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlar qayd etilgan shaxslarga xulq-atvorning shizoid turi mos bo‘ladi. Ular abstrakt obrazlarni o‘tkir his qilish va idrok qilish qobiliyatiga ega, ammo kundalik xursandchilik yoki g‘am-g‘ussalar ularda hech qanday emotsiyalarni tug‘dirmasligi mumkin. Bu toifaning umumiy xususiyati shuki, hissiyotlarning juda yuqori bo‘lishi emotsional sovuqlik va shaxslararo munosabatlarda yolg‘izlanish bilan birgalikda kechadi.

Tadqiqotda qatnashgan respondentlarning 4,1 %i ipoxondriya (Hs) toifasiga mansub bo‘lib, astenonevrotik tipga yaqin bo‘ladi. Bu shkala bo‘yicha ko‘rsatkichlari baland respondentlar passiv, xatti-harakatlari sekin, ishonuvchan, boshqaruvga bo‘ysunuvchan bo‘ladi. Ijtimoiy adaptatsiya darajasi past, muhit o‘zgarishini og‘ir kechiradilar. Ijtimoiy nizolarda o‘zlarini tez yo‘qotib qo‘yadilar.

Isteriya (Hy) shkalasi bo‘yicha ham respondentlarning 3,4%i qayd etilib, shkalalar o‘rtasida past ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib qayd etildi. Isteriya shkalasi nevrologik himoya reaktsiyalarga moyil shaxslarni aniqlaydi. Ular somatik kasalliklarining belgilarini javobgarlikdan qochish maqsadida ishlatadilar. Barcha muammolar kasal bo‘lib qolish bilan hal etiladi. Bu toifa insonlarning asosiy belgilari shuki, ular doimo boridan ortiqroq ko‘rinishni, keragidan ortiqroq o‘zlarining ahamiyatli ekanliklarni bildirishni istaydilar, o‘zlariga diqqatni qaratishni juda yaxshi ko‘radilar. Ularning hissiyotlari juda yuzaki, qiziqishlari esa umuman chuqur emas.

Depressiya (D) 2% toifadagi shaxslar senzitiv, juda hissiyotlarga beriluvchan, uyatchan, va bezovtalanishga moyil bo‘ladilar. Ishlarni qunt bilan bajaradilar, oqko‘ngil, axloqiy jihatdan ham juda baland saviyali bo‘ladilar. Ammo mustaqil ravishda qaror qabul qila olmaydilar, o‘zlariga ishonch darajasi past va har qanday kichik bir noxushlik ham ularni sarosimaga solib qo‘yishi mumkin.

Tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning asosiy shkalalarga xos klinik tiplar o‘rtasida jinsiy tafovut aniqlandi.

2-jadval.


Respondentlarning asosiy shkalalarga xos klinik tiplar o‘rtasida jinsiy farq

№	Asosiy shkala	Erkaklar	Ayollar	Ayollar %	Erkaklar %	Farq
1	Gipomaniya (Ma)	13	27	19,7	10	9,7
2	Depressiya (D)	2	3	2,2	1,6	0,6
3	Ipoxondriya (Hs)	6	5	3,6	4,7	-1,1
4	Isteriya (Nu)	8	1	0,8	6,2	-5,4
5	Paranoyal (Ra)	60	43	31,4	46,5	-15,1
6	Psixoasteniya (Pt)	16	16	11,7	12,4	-0,7
7	Psixopatiya (Pd)	22	31	22,6	17	5,6
8	Shizoidlik (Se)	2	11	8	1,6	6,4
Jami:		129	137	100	100	

Jadvalning diagramma ko‘rinishi 2-rasmda berilgan.

Tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilar orasida paranoyal (Pa) tiplilar har ikkala jins vakillarida eng ko‘p uchragan tip bo‘lib chiqdi. Ular kuchli tana tuzilishiga ega, o‘rta bo‘yli, mimikasi qat’iy va ishonchli, ovozi baland, tez gapirishi bilan ajrab turadi. Ayol vakillarining imo-ishoralarida ham

keskinlikni uchratish mumkin. Har ikkala jins vakillari konservativ kiyinish uslubini ma'qul ko'radilar. Moda bilan ham nafas kiyinmaydilar, ammo o'z stiliga sodiq bo'ladilar.



2-rasm. Respondentlarning asosiy shkalalarga xos klinik tiplar o'rtasida jinsiy farq.

Psixopatiya (Pd) tiplilar ham ishtirokchilar orasida ko'p uchragan shaxs tipi bo'lib, ayol respondentlar erkak sinaluvchilarga nisbatan 5,6 %ga ko'p kishini tashkil etdi. Bunday tiplarning erkak vakillari atletik ko'rinishda bo'ladilar, ayollarida biroz asimmetriya kuzatiladi. Mimikalarida ifodaviylik kuzatilmaydi, bosiq emotsional holatni namoyon qiladilar, sekin, lekin qat'iy nutqga ega bo'ladilar. Nigohlari to'g'ri yo'naltirilgan rasmiy, avtokratik qarashdan ko'p foydalanadilar. Kiyinishida to'q ko'k, kulrang yoki jigarrangni ma'qul ko'radilar. Ayollarida klassik uslubdagi kiyimlar yetakchilik qiladi. Erkak vakillari klassikani sport uslubi bilan qorishtirgan holda kiyishni ma'qul biladilar.

Gipomaniya (Ma) vakillari ham ayollarda erkak respondentlarga nisbatan ko'p qayd etildi. Ular 9,7 %ga ko'proq ustun bo'ldilar. Gipomaniya tiplilar bo'y jihatidan piknik tipini eslatadi. Ayol vakillari to'lachadan kelgan, lekin chaqqon harakatlari bilan ajralib turadi. Ularning verbal nutqida mavzudan chetlashish ko'zga tashlanadi. Erkak vakillari muloqot jarayonida dominant rolini bajaradi. Imo-ishoralari ilhomlashtiruvchi, yumshoq harakatlardan iborat bo'ladi. Kiyinishlarida har ikkala jins vakillarida palapartishlik sezilib turadi.

Psixasteniya (Pt) tiplilar ham respondentlarning har ikkala jins vakillari orasida 10 %dan ko'p kishini tashkil etdi. Ushbu tip vakillari jismoniy kuchsiz rivojlanishdagi tanaga egadirlar. Emotsional ekspressivligi kam. Imo-ishoradan kam foydalanadilar. Kiyim-kechak uchun barcha talablari minimal darajada amalga oshiradilar.

Shizoidlik (Se) vakillari orasida ayol respondentlar erkak respondentlarga nisbatan ko'p ekanligi aniqlandi. Ayol respondentlar 6,4%ga erkak shizodlardan ko'ra ko'p ekanligi aniqlandi. Shizoid vakillari kuchsiz nerv tizimiga ega bo'ladilar. Kutilmagan, keskin nutqga ega bo'ladilar, bu xususiyat ayol vakillarida muloqot jarayonida unga nisbatan emotsional to'siqlarni vujudga keltirishi mumkin. Erkaklardagi bunday nutq odatiy deb qabul qilinadi. Kiyinishda ayollar kapyoshon, shapka, ko'zoynakdan foydalanishadi. Erkak vakillari esa, ko'tarilgan kiyim yoqasidan to'siq sifatida foydalanadilar. Ayol vakillari katta sumkalardan, erkak vakillari ryukzaklardan foydalanishni xush ko'radilar.

Ipoxondriya (Hs) tiplilar har ikkala jins vakillarida deyarli teng ko‘rsatkichga ega bo‘ldilar. Ipoxondriya vakillarini vizual baholashda uning tanasiga ko‘proq e’tibor beriladi. Ularning tana tuzilishi beso‘naqay ko‘rinishga ega bo‘ladi. Payqash qiyin bo‘lgan ifodasiz mimikaga ega bo‘ladilar. Muloqotda tobe tip vakili sifatida namoyon bo‘ladi. Har ikkala jins vakilining nutqida hadiksirash, xato gapirib qo‘yishdan qo‘rqish kuzatiladi. O‘z-o‘zini tinchlantiruvchi harakatlarni bajaradi. Ayol vakillari yorqin bo‘lmagan berk kiyimlarni xush ko‘radilar. Kiyim matolari asosan kichik geometrik hoshiyali bo‘ladi. Erkak vakillari qoramtir va kulrang tusli kiyimlarni ma’qul ko‘radilar.

Isteriya (Nu) tiplilar orasida erkak respondentlar ayol respondentlarga nisbatan 5,4 %ga ko‘p bo‘lib chiqdi. Isteriya tiplilar jonli, emotsional mimikaga ega bo‘ladilar. Nutqi dramatik to‘xtalishlar bilan kechadi. Har ikkala jins vakillari faol imo-ishoralardan foydalanadilar. So‘nggi modaga xos kiyinadilar. Ularni vizual baholashda ko‘proq aksessuarlariga e’tibor berish kerak, chunki ularning aksessuarlari yorqin va ko‘p miqdorda bo‘ladi.

Depressiya (D) tiplilar har ikkala jins vakillarida qayd etildi. Bunday tiplilar elastik gavda harakatlariga ega, past va jozibador ovoz toniga ega bo‘ladilar. Suhbatdoshiga ziyon yetkazmaydigan, sekin almashinuvchi ohista imo-ishoralardan foydalanadilar. Bunday tana harakatlari ayol jinsiga mansublarga xos bo‘lsada, erkaklarda ushbu harakatlar iltifotli ko‘rinishga ega bo‘ladi. Har ikkala jins vakillari did bilan mutanosib kiyinadi, yumshoq, ushlab ko‘rishda yoqimli, qulay kiyimlarni xush ko‘radilar.

MINI-MULT metodi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalarning o‘rtasida jinsiy tafovut mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida Vilkokson (W) mezonidan foydalandik.

Jadval-3

Vilkokson mezoniga ko‘ra MINI-MULT metodi bo‘yicha qo‘lga kiritilgan natijalarning o‘rtasida jinsiy farq

№	Asosiy, ustun belgi	Ayollar	Erkaklar	Farq	Farq moduli	Farq moduli rangi	Ishorali ranglar
1	Gipomaniya (Ma)	13	27	-14	14	6	-6
2	Depressiya (D)	2	3	-1	1	1,5	-1,5
3	Ipoxondriya (Hs)	6	5	1	1	1,5	1,5
4	Isteriya (Nu)	8	1	7	7	3	3
5	Paranoyal (Ra)	60	43	17	17	7	7
6	Psixoasteniya (Pt)	16	16	0	0	0	0
7	Psixopatiya (Pd)	22	31	-9	9	4,5	-4,5
8	Shizoidlik (Se)	2	11	-9	9	4,5	-4,5
Jami:		**129**	**137**				**10**

Tadqiqotimiz davomida vizual psixodiagnostika usullari yordamida olingan ma’lumotlarning ishonchliligini va amaliyotda qo‘llash imkoniyati mavjudligini aniqlash uchun MINI-MULTning asosiy shkalalari va “Shaxsning o‘ziga xosligini vizual diagnostikasi: 8 dominant asosida” metodining shkalalalari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Buning uchun MINI-MULTning asosiy shkalalariga berilgan ta’riflar vizual diagnostika shkalalaridagi shaxs xulqi modeli bilan solishtirildi.

“Shaxsning o‘ziga xosligini vizual diagnostikasi: 8 dominant asosida” metodining ishonchliligini oshirish maqsadida saralab olingan respondentlar sifat jihatidan qayta tahlil qilindi. Boshqa metod bilan solishtirish uchun faqat to‘rta faktorda sof tarzda namoyon bo‘lgan 277 ta respondent keyingi emperik izlanishlar uchun saralandi.

Har ikkala metodda berilgan shkalalar nomlanishidagi aynan o‘xshashlari 3 ta shkalada aniqlandi. Ular shizoid, isteroid va paronayal shkalalardir. Qolgan shkalalar psixologik xususiyatlar va shaxsning psixik holatlaridagi reaksiyalarining namoyon bo‘lishiga qarab topildi.

MINI-MULT metodining asosiy shkalalari va “Shaxsning o‘ziga xosligini vizual diagnostikasi: 8 dominant asosida” metodining shkalalari o‘rtasidagi bog‘liqliligini topish maqsadida Pirson korrelyatsiyasini hisoblash formulasidan foydalaniladi. Buning uchun har ikkala metod asosida olingan

shaxs tiplariga xos o‘zaro mos bo‘lgan 8 dominantlar klinik shkalalar natijalari formulaga solib taqqoslandi.

Xulosa. Ijtimoiy munosabatlarda shaxs xulqini vizual baholashning dastlabki bosqichida ob’ektning emotsional-affektiv kodiga oid patern namoyon qilishiga ahamiyat berish lozim, ya’ni ijtimoiy vaziyatlarda zo‘riqishni his qiladigan insonga xos bo‘lgan berk tana harakatlari va ijtimoiy muhitga ishonch bilan munosabatdagi inson xatti-harakatlari oid paternga e’tibor berish maqsadga muvofiqdir. Tashxis qo‘yishda «Brokau qopqoni»ga tushib qolmaslik kerak. Bunday xatoni «Individual xususiyatlar xatosi» deb nomlanib, insonning yolg‘onchi imkoniyatidagi xulqida bo‘ladigan individual farqlarni hisobga ola bilmasligi oqibatida kelib chiqadi. Bunday xato tufayli haqiqatni – yolg‘on, yolg‘onni esa, aksincha, haqiqat deb qabul qilish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. Toshkent sh., 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son. - https://lex.uz/docs/3107036
2. Березин Ф.В., Мирошников М.П., Соколова Е.Д., Методика многостороннего исследованиуа личности (ММИЛ) структура, основы интерпритации, некоторые области применения. 3-издание. Издательство “Березин Феликс Борисович”, 2011. – 320 с.
3. Зайцев В.П. Вариант психологического теста MINI-MULT. –психологический журнал, 1981, №3, –118-223 с.
4. Иванова Е.С. Лицевая экспрессия эмоций: этнические и гендерные особенности //Дискуссия. – 2013. – №. 9 (39). –159 с.
5. Лабунская В.А. Невербальное поведение: социально- перцептивный подход. Ростов–на-Дону: Издательство Ростовского госуниверситета, 1991. – 148 с.
6. Павлов А. Визуальнаya диагностика особенностей личности: 8 доминант. – 2014. https://psyfactor.org/lib/visual_diagnostika.htm
7. Панферов В.Н. Восприятие и интерпретация внешности людей // Вопросы психологии.- 1974.-№2. — 59 с.
8. Петрова А. Визуальная диагностика личности в практической деятельности психолога. М.:РИЦАИМ, 2007. — 131с.
9. Петрова Е.А. Знаки общения. М., ГНОМ и Д 20 01. —256 с.
10. Пол Экман Психология лжи. С.Петербург: Питер. 2001. – 82 с.
11. Самойлова Е. Комплексная визуальная диагностика. — М., 2007. –288 с.
12. Солиев Ф. Выявление скрытых возможностей, заложенных в психотипе личности, в межличностных отношениях. Сборник материалов международной научно-практичеcкой конференции. Екатеренгбург, 2022. — 258-266 с.
13. Soliev F. S. Determining the Pattern of Behavior of a Person in Social Relations by Using Visual Psychodiagnostic Methods //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding
14. Soliyev F. S., Akbarova N. A. SHAXS IMIJI USLUBI ASOSIDA UNING PSIXOTIPINI ANIQLASHNING EMPIRIK TAHLILI //E Conference World. – 2023. – №. 2. – С. 75-85.
15. SOLIYEV F., AKBAROVA N. TURLI KASB EGALARINING TASHQI SEMANTIK BELGILAR ASOSIDA O ‘ZGA SHAXSNI VIZUAL BAHOLASH XUSUSIYATLARI //Journal of Pedagogical and Psychological Studies. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 47-52.

Yuldosheva Gavhar O‘tkirovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi doktoranti

Dusmuxamedova Shoira Akabarovna,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasi dotsenti
psixologiya fanlari nomzodi

O‘SMIRLAR IQTISODIY XULQ-ATVORINING PSIXOLOGIK KOMPONENTI XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Bugungi kunda shaxslarning moliyaviy munosabatlari haqidagi ilmiy bilimlar faol rivojlanmoqda. Moliyaviy munosabatlari muammosining dolzarbligi va amaliy ahamiyati moliyaviy bozorlarning dinamikligi va o‘ziga xosligi, shuningdek shaxslarning moliyaviy mustaqillik ehtiyojining o‘sishi bilan xarakterlanadi. Xulq-atvor iqtisodiyoti so‘nggi yillarda samarali iqtisodiy qarorlar qabul qilish va maksimal foydani ta’minlashda muhim soha sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada iqtisodiy xulq-atvor va xatti-harakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, o‘ziga xos jihatlari va insonlarning qaror qabul qilishdagi xilma-xilligi keltirib o‘tilgan. Shuningdek, xulq-atvor omilining moliyaviy qarorlar qabul qilishdagi o‘rni va iqtisodiy jarayonlardagi roli, iqtisodiy xulq-atvor va iqtisodiy xatti-harakatlarga sabab bo‘luvchi omillar ta’siri yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiy qarorlar, xulq-atvor iqtisodiyoti, moliyaviy xulq-atvor, iqtisodiy psixologiya, tarnzitivlik aksiomasi, o‘zgarishlar aksiomasi.*

ХАРАКТЕРИСТИКА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО КОМПОНЕНТА ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Сегодня научные знания о финансовых отношениях физических лиц активно развиваются. Актуальность и практическая значимость проблемы финансовых отношений характеризуется динамичностью и уникальностью финансовых рынков, а также ростом потребности в финансовой независимости личности.В последние годы поведенческая экономика рассматривается как важное направление в принятии эффективных экономических решений и обеспечении максимальной прибыли. В этой статье упоминаются экономическая и социальная значимость, конкретные аспекты экономического поведения и поведения и разнообразие людей в принятии решений. Также выделена роль поведенческого фактора в принятии финансовых решений и экономических процессов, влияние экономического поведения и факторы, вызывающие экономическое поведение.*

Ключевые слова: *экономические решения, поведенческая экономика, финансовое поведение, экономическая психология, аксиома транзитивности, аксиома изменения.*

CHARACTERISTICS OF THE PSYCHOLOGICAL COMPONENT OF THE ECONOMIC BEHAVIOR OF TEENAGERS

Abstract. *Today, scientific knowledge about the financial relations of individuals is actively developing. The relevance and practical importance of the problem of financial relations is characterized by the dynamism and uniqueness of financial markets, as well as the growth of the need for financial independence of individuals.In recent years, behavioral economics has been seen as an important direction in making effective economic decisions and maximizing profits. This article mentions the economic and social importance, specific aspects of economic behavior and behavior, and the diversity of people in decision making. The role of the behavioral factor in making financial decisions and economic processes, the influence of economic behavior and the factors that cause economic behavior are also highlighted.*

Key words: *economic decisions, behavioral economics, financial behavior, economic psychology, axiom of transitivity, axiom of change.*

Kirish. Iqtisodiy xulq-atvor tushunchasi sotsiologiya, iqtisod, psixologiya kabi fanlar bilan birgalikda o‘rganiladi, har biri hozirgi vaqtda ushbu kategoriyaga nisbatan o‘ziga xos

“qarash”i ega, iqtisodiy xulq-atvor nazariy va metodologik asoslari, shuningdek, inson va jamiyat haqidagi istiqbollari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

Ijtimoiy psixologiyada xulq-atvor shaxsning mavjud bo‘lish usuli, shakli sifatida qaraladi. Individual xulq-atvorning o‘ziga xos xususiyati uning ijtimoiy tabiati ostida yotadi. Ijtimoiy xulq-atvor shaxsning xulq-atvori va namoyon bo‘lishining ajralmas va dominant shaklidir. Ijtimoiy xulq-atvorga shaxslarning jamiyatga, boshqa odamlarga va moddiy dunyoga nisbatan harakatlari kiradi. Bu harakatlar axloq va huquqning ijtimoiy normalari bilan tartibga solinadi. Ijtimoiy xulq-atvorning subyekti ham shaxs, ham ijtimoiy guruhdir.

Iqtisodiy xulq atvor insonning iqtisodiy faoliyatida, jamiyatning iqtisodiy hayoti jarayonida amalga oshirgan harakati, ishlarining izchilligi, yaxlitligi ifodasidir.

Ta’kidlash joizki, XX asrda Gabriel Tarde, Jorj Katon, Laslo Garai asarlari tufayli iqtisodiy psixologiya ancha rivojlandi.Ular tomonidan kutilayotgan foydalilik nazariyasi va vaqtlararo foydalilik modellari e’tirof etildi, ular asosida noaniqlik va vaqtli tanlov sharoitida qarorlar qabul qilish jarayoni haqidagi farazlarni ilgari surish imkoniyati paydo bo‘ldi. *J.Katona* iqtisodiy xulq-atvorning psixologik jihatlarini empirik tadqiq etishning birinchi loyihasini taklif etdi. Ushbu loyihaning qismlaridan biri iqtisodiyot va insonlar psixologiyasi o‘rtasidagi munosabatlarni tushuntirishdan iborat bo‘ldi. *J.Katona*ning fikriga ko‘ra, ijtimoiy-psixologik jarayonlar omma yoki guruhlar darajasida emas, balki har bir shaxs darajasida amal qiladi. Iqtisodiy xulq-atvor har bir shaxsning xulq-atvori va qabul qilish yig‘indisi sifatida tushuniladi.[1]

A.L.Juravlev iqtisodiy xulq-atvorni alohida va guruh sub'ektlarining turli iqtisodiy ob'ektlarga nisbatan har xil tashqi ko‘rinishdagi faoliyati sifatida tushuntiradi. Ulardan eng muhimlari qatoriga quyidagilar: iqtisodiy faoliyat shaklini tanlash (maoshli mehnat, jamoaviy mulk, tadbirkorlik va boshqalar), ko‘p sonli moddiy va rasmiy dinamik psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan real iqtisodiy faoliyat; iqtisodiy xatti-harakatlarning turli shakllari; iste'molchi, jamg‘arma, sarmoya va boshqalar kiradi.

V.S. Avtonomov psixologiyada inson haqidagi mavjud tushunchalarning xilma-xilligini va shu asnoda iqtisodiy xulq-atvorni tushunishga yondashuvlarning ko‘pligini ta'kidlaydi: "Iqtisodchilardan farqli o‘laroq, psixologlar inson xatti-harakatlarini ratsionallik bilan emas, balki boshqa narsa bilan belgilaydilar: bixeviorizm uchun - bu xatti-harakatni kuchaytirish mexanizmi berilgan xulq-atvor, freydizm uchun - ongsiz motivatsiya, rivojlanish psixologiyasi uchun - individual kognitiv rivojlanish bosqichi, ijtimoiy psixologiya uchun - ijtimoiy kontekst va uning individual idroki hisoblanadi.

Iqtisodiy xulq-atvor - nisbatan oqilona tanlash maqsadida alternativalarni sanab o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlar, ya'ni xarajatlarni minimallashtirish va sof foydani maksimal darajada oshirishni tanlashdir, bu ko‘p jihatdan jamiyatdagi iqtisodiy ongning holati, iqtisodiy fikrlash,iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy shaxslar va guruhlarning manfaatlari va ijtimoiy stereotiplari bilan bog‘liq bo‘ladi[2].

O‘smir shaxsining iqtisodiy xulq-atvori murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Iqtisodiy xulq-atvorning shakllanishi shaxsning ehtiyojlari va resurslarini, shuningdek, uning atrof-muhit va faoliyatining unga nisbatan ob'ektiv bo‘lgan barcha sharoitlari (psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy) majmuasini o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy xulq-atvor quyidagi tarkibiy qismlar: kognitiv (iqtisodiy parametrlarni idrok etish va ifodalash, iqtisodiy tafakkurda oqilona va irratsional jihatlar, qaror qabul qilish omillari); affektiv (his-tuyg‘ular va his-tuyg‘ular bilan bo‘yalgan sub'ektiv munosabatlar); va konativ (samarali-dinamik) bilan ifodalaniladi.

Kognitiv komponentlar o‘smirning o‘z iqtisodiy faoliyatining turli tomonlarini bilishi va oqilona baholashiga bog‘liq.

Iqtisodiy xulq-atvorning affektiv tarkibiy qismlari subyektiv, hissiy jihatdan sayqallangan fikrlar va baholashlardan iborat. Ular sheriklik va hamkorlikning boshqa shakllari orqali o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxslar, turli ijtimoiy guruhlar vakillari uchun iqtisodiy faoliyatning tashqi sharoitlariga, iqtisodiy faoliyat va ularning ishtirokchilarining xususiyatlariga taalluqlidir.

Bularga hislar, tuyg‘ular va tajribalar kiradi. Tuyg‘ular mazmun beradi va shu bilan iqtisodiy sohadagi individual tajribalarni mustahkamlaydi, iqtisodiy xatti-harakatlarga ta'sir qiladi.

[1] Цирихова, Н. В. Экономическая психология: история и современность // Молодой ученый. 2011. №12. Т.2. С. 76-79.
[2] Сущность и особенности формирования экономического поведения О.С. Елкина

Iqtisodiy xulq-atvorda hissiyotlarning modalligi va intensivligi muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ijobiy his-tuyg‘ular optimistik umidlarni kuchaytirish orqali iste'molchi faolligini rag‘batlantiradi, bu esa rejalashtirilmagan xarajatlarning ko‘payishiga va tejashga moyillikning pasayishiga olib keladi, salbiy his-tuyg‘ularning ta'siri esa aksincha holatlarga olib keladi. Iqtisodiy xatti-harakatlarda hissiyotlarning intensivligi ham muhim rol o‘ynaydi. Barchamizga ma'lumki, turli vaziyatlar turli darajadagi faollashtirishni talab qiladi. Qo‘zg‘alish darajasi juda yuqori bo‘lsa, faoliyatning kognitiv komponentlari buziladi, bu esa diqqatni maqsaddan natijaga o‘tkazishga olib keladi. Vazifaning murakkabligi va faoliyatga jalb qilingan mas'uliyat darajasi iqtisodiy xatti-harakatlardagi faoliyat modeliga ta'sir qiladi.

Konativ komponentlar shaxsning iqtisodiy xulq-atvorida ularning iqtisodiy faoliyatining motivlari va maqsadlari, niyatlari va turli xil iqtisodiy faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga tayyorligi shaklida ifodalanadi. Iqtisodiy motivlar motivlarning alohida kategoriyasini tashkil qiladi. Boylik to‘plash, raqobat, xudbinlik va altruizm, foydani ko‘paytirish, xavfga moyillik va bitimlar bilan bog‘liq motivlar iqtisodiy yo‘nalishga ega. Iqtisodiy motivlarni o‘rganish iqtisodiy xulq-atvorni nisbatan avtonom, iqtisodiy xatti-harakatlarning tarkibiy qismi sifatida tushuntirishga yordam beradi.

Metodlar. O'smir shaxsining moliyaviy ahvolini baholash uchun M.G. Rudnevaning "Iqtisodiy o‘zini o‘zi baholash" usuli qo‘llanildi. Muallifning so‘rovnomasini qayta ishlash natijalari o‘smirlarning namunasini ikki guruhga bo‘lish imkonini berdi: haq to‘lanadigan ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘smirlar(49,5%) va bunday tajribaga ega bo‘lmaganlar (50,5%). Tadqiqotda qatnashgan ikkinchi guruh 11-15 yosh oralig‘ida haq to‘lanadigan ish tajribasini ega bo‘lgan o‘smirlarni tashkil etdi. O'smirlar ishni o‘qish bilan birlashtirib, doimiy ish faoliyatini olib borishgan. Tizimli ish tajribasiga ega bo‘lish o‘smirlar shaxsi shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib borgan. Ish tajribasiga ega bo‘lmagan o‘smirlarning faoliyat komponenti ikkinchi guruhga qaraganda kamroq shakllangan, chunki o‘smirlar o‘zlarining mehnatga sarflagan sa'y-harakatlarini ahamiyatsiz deb baholashdi. Tajribaning motivatsion-qiymat komponenti shuni ko‘rsatdiki,o‘smirlarning ishlashga o‘zlari qaror qilganliklari, ish tajribasini zarur deb bilishlari ularning o‘zlarini ijobiy baholashlariga ta’sir ko‘rsatadi. O'smirlar ish tajribasiga ega bo‘lib borganidan so‘ng, ularning imidjlari yanada realroq ko‘rinishga ega bo‘lganini ko‘rsatdi. Ish tajribasi ortgani sari o‘smirlar tashqi ko‘rinishi mos ravishda o‘zgarib boradi.

O'smirlar tomonidan bajariladigan mehnatga haq to‘lash natijasida yuzaga keladigan o‘zgarishlar ularning psixologik xususiyatlariga ham ta’sir ko‘rsatdi: respondentlar o‘z ishining natijasi nima bo‘lishi kerakligini va bu boshqalarga nima uchun kerakligini yaxshi tushunganliklarini va bu natija uchun javobgarlikni o‘z zimmalariga olishlarini ta'kidlashdi.

Haq to‘lanadigan ish tajribasiga ega bo‘lgan va bo‘lmagan o‘smirlar o‘rtasida qadriyatlarning "mavjudligi" va "ahamiyati" o‘rtasidagi tafovutlar aniqlandi, "moddiy jihatdan o‘zini xavfsiz deb hisoblash", (o‘rtacha nomuvofiqlik qiymati 4,3), “faol hayot kechirish” (o‘rtacha nomuvofiqlik qiymati 3,4) va “baxtli oilaviy hayot kechirish” (o‘rtacha nomuvofiqlik qiymati 3,3) o‘rtasida farqli tafovutlar aniqlandi. Ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘smirlar guruhida farqlar kamroq aniqlanadi, ularda "salomatlik" (farqning o‘rtacha qiymati 2,4), "baxtli oilaviy hayot" (farqning o‘rtacha qiymati 2,3) va "qiziqarli ish" (o‘rtacha nomuvofiqlik qiymati 3,0). “Qiziqarli ish”ning qiymati va mavjudligi o‘rtasidagi katta tafovut, o‘smir o‘zini sinab ko‘rishi mumkin bo‘lgan kasbiy faoliyat turlarining cheklanganligi bilan izohlandi. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, haq to‘lanadigan ish tajribasiga ega bo‘lgan o‘smirlar orasida moliyaviy jihatdan xavfsiz hayotning "ahamiyati" va "mavjudligi" o‘rtasidagi tafovut bunday tajribaga ega bo‘lmagan o‘smirlarga qaraganda ancha zaifdir ($p \leq U = 72$). 0,01).O‘smir iqtisodiy xulq-atvor o‘zining qiymatga asoslangan va mazmunli tabiati bilan tavsiflanadi, bu iqtisodiy munosabatlar sub'ektining tanlash tizimi doirasida mavjudligini anglatadi - iqtisodiy faoliyatning ayrim turlarini ularning qiymat yo‘nalishlari, hayotiy tamoyillari, maqsadlari va intilishlariga qarab qabul qilish yoki rad etish kabilar kiradi. Qiymatga asoslangan ma'no ratsionallik subyektning iqtisodiy faoliyatining eng universal tartibga soluvchisi bo‘lib xizmat qiladi. Iqtisodiy xulq-atvorning ma'lum bir turini tanlash yoki rad etishga nafaqat iqtisodiy oqilonalik yoki uning imkoniyatlari va ehtiyojlarini baholash, balki hayotning ma'nosi, axloqiy va qadriyat yo‘nalishlari ham ta'sir qiladi, bu psixologik tadqiqot tahlilida isbotlandi. Iqtisodiy qarorlarning nomuvofiqligining psixologik sabablarini izlashda me'yorlar, odatlar va individual xususiyatlarning ta'siri, vaqt cheklovlari, energiyani tejash va tanlov konteksti tanlovning xavfliligiga ta'sir qilishi aniqlandi.

Xulosa. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, haq to‘lanadigan ish tajribasiga ega bo‘lmagan o‘smirlar uchun pul ishlash tajribasining yetishmasligi, shuningdek, o‘zlarining harakatsizligini anglash bilan bog‘liq muammolari tufayli ular "kattalik" tuyg‘usidan uzoqlashadilar. Shunday qilib, o‘smirning to‘g‘ri tashkil etilgan, uning imkoniyatlari va ehtiyojlariga mos keladigan haq to‘lanadigan mehnati uning

"moddiy" qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlarini uyg‘unlashtirishga yordam beradi, xulq-atvori, imdjini to‘g‘ri shakllanishiga olib keladi deb ta'kidlash mumkin.

Iqtisodiy xulq-atvor - bu o‘smir o‘z xatti-harakatlarida boshqaradigan ma'lum bir shartdir. O'z tafakkurining mantiqiyligi va hissiyligi muvozanatiga asoslanib, o‘smirlar faqat ularga eng katta sof foyda keltiradigan harakatlarni amalga oshiradilar.

Iqtisodiy xulq-atvor qimmatli va mazmunli bo‘lib, iqtisodiy munosabatlar sub'ekti ularning qiymat yo‘nalishlari, axloqiy tamoyillari, hayotiy tamoyillari, maqsadlari va intilishlaridan kelib chiqqan holda iqtisodiy faoliyat turini tanlash tizimi doirasida mavjudligini ko‘rsatadi. O‘smir Shaxsiy iqtisodiy ongi iqtisodiy sohadagi faoliyat uchun mafkuraviy asos bo‘lib xizmat qiladi.Zamonaviy xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar iqtisodiy xulq-atvor masalalarini faol tahlil qilmoqdalar. Shunga qaramay, haligacha ilmiy adabiyotlarda bu haqda har tomonlama tushunchalar mavjud emas; empirik tadqiqotlar ko‘p bo‘lsa-da, mavjud ma'lumotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. O‘smirlarning iqtisodiy xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik omillarini ochib berish va takomillashtirish ushbu kontseptsiyani mazmunli boyitish va rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o‘smirlarning iqtisodiy xulq-atvorining deganda o‘zi mansub bo‘lgan jamiyatning iqtisodiy normalari, qadriyatlari va an'analarini o‘zlashtirish va faol takrorlash jarayoni tushuniladi. O‘smirning iqtisodiy xulq-atvorning mazmuniy mohiyatini uning ijtimoiy-psixologik omillarini asoslash orqali ochish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Никитин, А.А. Экономическая психология: учеб.-метод. пособие // Перм. гос.ун-т. Пермь, 2012. 130 с.

2. Цирихова, Н. В. Экономическая психология: история и современность // Молодой ученый. 2011. №12. Т.2. С. 76-79

3. Малахов С.В. Основы экономической психологии: учеб. пособие / Под ред. Задорожнюка И.В. – М., 1992. Тема 1. Теория принятия решения и выбора в экономической психологии.

4. Основы экономической психологии: учеб. пособие / Под ред. д.э.н., проф. В.М. Соколинского. – М.: ФА, 1999. Глава 2. Личность в экономике.

5.Дейнека О.С. Экономическая психология: учеб. пособие. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2000. Модуль 1.

Yunusova Go‘zal Sultonovna
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: yunusovag73@gmail.com

TO‘LIQ VA NOTO‘LIQ OILALARDAGI ONALAR TOMONIDAN O‘SMIRLAR XULQINI NAZORAT QILISHINI O‘RGANISH NATIJALARI

Annotatsiya *Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida to‘liq va noto‘liq oilalardagi o‘smir yoshli o‘g‘il hamda qiz farzandi bo‘lgan onalar o‘rtasida ularning ayni shu yoshdagi farzandlari xulqini nazorat qilishini hamda ular bilan munosabatlari xarakterini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan E.G. Eydemiller hamda V.V. Yustiskiylar tomonidan ishlab chiqilgan OMTQ (“Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish”) metodikasi natijalari, psixologik taxlili va xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *to‘liq oila, noto‘liq oila, onalar, ijtimoiy xulq, o‘smirlar, tadqiqot, o‘g‘il bolalar, qiz bolalar.*

РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ КОНТРОЛЯ ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ МАТЕРЯМИ В НЕПОЛНЫХ И НЕПОЛНЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены результаты исследования, проведенного в условиях Узбекистана среди матерей, имеющих мальчиков и девочек подросткового возраста в неполных и неполных семьях, с целью изучения контроля за поведением их детей в том же возрасте и характера их взаимоотношений с ними. E.G. Эйдемиллер и В.В. Юстиниан даны результаты, психологический анализ и выводы методики ОМТК (“анализ семейных отношений”), разработанной.*

Ключевые слова: *полная семья, неполная семья, матери, социальное поведение, подростки, исследование, мальчики, девочки.*

THE RESULTS OF A STUDY OF ADOLESCENT BEHAVIOR CONTROL BY MOTHERS IN FULL AND DYSFUNCTIONAL FAMILIES

Annotation *This article was conducted in order to study the behavior of children of the same age and the nature of their relationship with them between a teenage boy and a mother with a girl in full and non-children in the conditions of Uzbekistan.E.G. Eidemiller V.V. Yustiski The results of the OMTQ (“analysis of family relations”) methodology developed by the justicians, psychological reasoning and conclusions are given.*

Keywords: *full family, non-family, mothers, social behavior, adolescents, research, Boys, Girls.*

Kirish. Respublikamizda so‘nggi yillarda “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi” [1] tamoyiliga ko‘ra Yangi O‘zbekiston yoshlarini ijod, ilm, ta’lim-tarbiyada peshqadam qilib tarbiyalashning konseptual g‘oyalari bo‘yicha zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratilib, “yoshlarni Vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash”[2] ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganiday “Yer yuzida muqaddas degan so‘zga eng munosib zot bu - avvalo, Onadir... Ayniqsa, siz, azizlarning sog‘lom zurriyod, barkamol avlod tarbiyalab voyaga yetkazishdagi o‘rningiz va xizmatingizni hech narsa bilan qiyoslab, baholab bo‘lmaydi”[3]-deya, insonni shaxsiy, maishiy va ijtimoiy hayotida ona muhim rol tutishini ko‘rsatib o‘tgan. Oilada ona obrazi bola uchun tabiiy avtoritet, maishiy va ijtimoiy me’yorlar hamda xulq na’munalarini egallash uchun andoza hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Har qanday oilaning ma’naviy va psixologik muhiti ko‘p undagi ona ko‘p jihatdan undagi ona va bolalarning ijtimoiy- psixologik munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan ma’naviy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020 yil 30 sentabr /https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020

[2] O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406 / http://lex.uz

[3] Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. 341-342 betlar.

muhit belgilaydi. Shu bois ham to‘liq va noto‘liq oilalarda oilada kamol topayotgan farzandlarning hayotdagi o‘z o‘rni va istiqbolini tasavvur qilishlarini o‘rganish uchun biz avvalo undagi ona va bola o‘zaro munosabatlarining o‘ziga xos qirralarini o‘rganish kerak, deb hisoblaymiz.Chunki ushbu mavzu oxirgi yillarda bir qator amaliyotchi psixologlar va pedagoglarning doimiy diqqat-e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Masalan, oilaning noto‘liqligi tufayli bola psixik rivojlanishida nuqsonlar vujudga kelishi masalasi rus tadqiqotchisi M. Buyanov [5] ishlarida alohida ta’kidlangan. Lekin tadqiqotchi o‘z ishlarida tarbiyasi og‘ir bolaning psixik rivojlanishiga oilada onaning ijtimoiy-psixologik maqomi qay tarzda va qanday darajada ta’sir ko‘rsatishini alohida o‘rganmagan.

Onalar oilada qanday sharoit va qanday psixologik muhit hukmron bo‘lmasin, aksariyat holatlarda o‘z farzandlarini kelgusi hayotga sog‘-salomat, bilimli va ijobiy xulq egasi qilib tayyorlashga urinadilar. Bu borada ulardagi o‘z farzandining psixologik tomondan qanday jinsga oidligidan kelib chiqqan holda fe’l-atvorini yaxshi bilishi, ayniqsa, ularni farzandlari bilan munosabatlari xarakteri katta rol o‘ynaydi. Shu bois ham biz onalar o‘rtasida tadqiqot o‘tkazdik.

Biz o‘smir yoshli o‘g‘il hamda qiz farzandi bo‘lgan 50 nafar onalar o‘rtasida o‘smir yoshli o‘g‘il hamda qiz farzandi bo‘lgan onalar o‘rtasida farzandlari xulqini nazorat qilishini va ularning ayni shu yoshdagi farzandlari bilan munosabatlari xarakterini o‘rganishga qaror qildik. Tadqiqot jarayonida 25 nafar to‘liq oila vakilalari hamda shuncha miqdorda noto‘liq oila vakilalari bo‘lgan ayollar bilan ishladik. Maqsadimiz o‘smirlik davrining xususiyatlaridan kelib chiqib, ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlardagi chekinishlar, ziddiyatlar va ularning tub sabablarini aniqlash bo‘ldi. Biz tadqiqotda yuqorida mazmuni keltirilgan ***E.G. Eydemiller hamda V.V. Yustiskiylar tomonidan ishlab chiqilgan OMTQ (“Oilaviy munosabatlarni tahlil qilish”)*** metodikasidan foydalandik.

Muhokama va natijalar. So‘rovnoma o‘z ichiga ota va onalarning o‘z farzandlari bilan o‘rnatadigan munosabatlaridagi ayrim chekinishlarni aniqlashga ko‘mak beruvchi shkalalardan iborat. Bu shkalalar, masalan, o‘smir ustidan nazoratning qattiqligi (**G+**), nazoratning yetishmasligi (**G-**), o‘smir ehtiyojlarining hamisha qondirilishi (**U+**) yoki mutloq qondirilmasligi (**U-**), o‘smir oldiga qo‘yiladigan talablarning ko‘pligi va murakkabligi (**T+**) yoki bunday talabchanlikning yo‘qligi (**T-**), o‘smir oldiga qo‘yiladigan ta’qiqlarning ko‘pligi (**Z+**) yoki ushbularning mavjud emasligi (**Z-**), talablar bajarilmagan taqdirda o‘smirni jazolashning keskinligi (**S+**) yoki uning aksi (**S-**)ni bildiradi. So‘rovnoma o‘ziga xos bolani tarbiyalashga oid fikrlardan iborat bo‘lib, har bir fikr tartiblanib nomerlangan, aynan shu tartib raqamlari “Javoblar blanki”da ham qayd etilgan.

So‘raluvchi respondent har bir jumlani diqqat bilan o‘qib chiqib, o‘zining shaxsiy fikriga mos raqamni aylanaga olib belgilashi, mos emasini esa o‘chirishi lozim bo‘ladi. Biror fikrni tushunmasa, aniq fikri bo‘lmasa, uning ro‘parasiga so‘roq belgisini qo‘yadi. Mualliflar fikricha, so‘rovnomada mutloq “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” jumlalar yo‘q, balki har birini o‘qib chiqib, o‘zi shu haqda nima deb o‘ylashiga ko‘ra javob berishi lozim.

Jadval-1

To‘liq va noto‘liq oilalardagi onalar tomonidan o‘smirlar xulqini nazorat qilishining ko‘rsatkich natijalari

№	VARIANTLAR	To‘liq oila N= 25		Noto‘liq oila N=25	
		Qiz N=11	O‘g‘il N=14	Qiz N=15	O‘g‘il N=10
1	O‘smir ustidan nazoratning qattiqligi (**G+**)	3.6	2.5	3.3	3.2
2	O‘smir ustidan nazoratning yetishmasligi (**G -**)	1.6	2.9	1.1	3.1
3	O‘smir ehtiyojlarining hamisha qondirilishi (**U+**)	3.8	2.4	2.5	1.6
4	O‘smir ehtiyojlarining mutloq qondirilmasligi (**U**)	0.7	1.4	1.2	0.3
5	O‘smir oldiga qo‘yiladigan talablarning ko‘pligi va murakkabligi (**T+**)	3.0	2.8	1.8	2.9
6	O‘smir oldiga qo‘yiladigan talabchanlikning yo‘qligi (**T-**)	0.3	1.1	0.5	2.3
7	O‘smir oldiga qo‘yiladigan ta’qiqlarning ko‘pligi (**Z+**)	4.2	3.4	3.4	1.8

8	O‘smir oldiga qo‘yiladigan ta’qiqlarning mavjud emasligi (**Z-**)	2.1	3.7	3.3	3.5
9	Talablar bajarilmagan taqdirda o‘smirni jazolashning keskinligi (**S+**)	3.5	4.1	2.5	2.2
10	Talablar bajarilmagan taqdirda o‘smirni jazolashning yumshoqligi (**S-**)	4.4	2.7	1.8	2.9
11	Ota-onalik hislarining orttirilganligi **(RRCh)**	4.8	3.4	4.4	4.2
12	O‘smirda bolalik sifatlarining ko‘proq namoyon bo‘lishini istash **(PDK)**	2.6	1.1	3.2	3.7
13	Ota yoki onaning o‘z tarbiyaviy usullariga shubhasining borligi **(VN)**	3.7	3.1	3.8	2.2
14	Bolasini yo‘qotib qo‘yishdan cho‘chish **(FU)**	2.5	1.1	3.1	4.5
15	Ota-onalik sifatlarining unchalik rivojlanmaganligi **(NRCh)**	1.3	0.4	1.8	2.4
16	O‘zidagi mavjud kamchiliklarni bolaga to‘nkashga moyillik **(PNK)**	0.5	2.8	1.6	0.3
17	Ota-onalarning kayfiyatga beriluvchanligi **(N)**	2.2	1.6	0.9	2.8
18	Tarbiya borasidagi bilimdonlik (kompetensiya) **(VK)**	0.9	2.1	0.2	1.1
19	Bolaning jinsiga ko‘ra ota-onadagi tarbiya uslublarining o‘zgarishi: - Erkaklik (PMK) sifatlariga ko‘proq urg‘u berishga moyillik; - Ayollik (PJK) sifatlariga ko‘proq urg‘u berishga moyillik	 4.1 2.3	 4.8 1.9	 4.1 1.2	 3.8 2.5
20	Erkaklik (PMK) sifatlariga urg‘u berishga moyillikning yo‘qligi Ayollik (PJK) sifatlariga ko‘proq urg‘u berishga moyillikning yo‘qligi	2.1 2.2	3.7 1.5	3.3 0.8	0.2 2.2

Avvalo shuni ta’kidlash o‘rinliki, onalar qanday oila vakilasi bo‘lmasin, o‘smir yoshli bola xulqi ustidan nazorat qilish, ularga alohida e’tiborli bo‘lishni anglaydilar. Savollarga berilgan javoblar yuzasidan shunga amin bo‘ldikki, ayniqsa, to‘liq oiladagi onalarning askariyatining javoblarida “O‘smir ustidan nazoratning qattiqligi” mezoni maksimal ko‘rsatkich 7 hisoblangan sharoitda 3,6 ko‘rsatkichni oldilar, ya’ni, qattiqqo‘llikni birinchi navbatda qizlarga nisbatan qo‘llash tarbiyaning muhim mezoni. Ayni shu o‘rinda qiz va o‘g‘il farzand tarbiyalayotgan to‘liq oila onalarining fikrlarida farq yaqqol namoyon bo‘ldi, chunki qiz farzand tarbiyalayotgan onalarning 85,7% javobida, o‘g‘li borlarning atigi 14,3% javoblarida o‘smir ustidan nazorat qilish shartligi fikri bayon etildi. Shunga mos holda o‘smir yoshlilar ustidan nazoratning yetishmasligi mos ravishda 25 va 37,5 foizni ko‘rsatdi, ya’ni, o‘g‘il bolasi bor onalarning javoblaridan ularda o‘smir ustidan nazorat yetishmasligi (G+- 37,5%) ma’lum bo‘ldi. Shunga o‘xshash qiz va o‘g‘il bola tarbiyasidagi muammolardagi farqlar boshqa pozitsiyalar yuzasidan ham ko‘rindi. Masalan, o‘smir qiz ehtiyojlarining hamisha qondirilishi onalar fikricha deyarli 100 foizni tashkil etgan holda, o‘g‘il bola ehtiyojlarining to‘la qondirilishi har uchta javobning bittasida belgilandi (U+- 33%); o‘smir oldiga qo‘yiladigan talablarning to‘la qondirilishida ham to‘liq oila onalarining fikrida gender farqlar bor (mos ravishda 25% va 50%); onaning o‘z tarbiyaviy usullarining to‘g‘riligiga shubhasi esa mos ravishda 75 va 50 foizlarni tashkil etdi. Bunday holatning sabablarini biz boshqa pozitsiyalardagi onaning o‘zidagi muammolarga bog‘liq ekanligi bilan bog‘ladik. Chunki 75 foiz qizlarning onalari hamda 50 foizgina o‘g‘il bolalarning onalari farzandini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqadi (FU), yana salkam 43 foiz qizlarning onalari va barcha o‘g‘illar onalari javoblarida onalik sifatlari uncha rivojlanmagan ekanligi (NRCh), o‘zidagi mavjud kamchiliklarni bolaga to‘nkashga moyillik (mos ravishda 14,3 va 28,6), turli vaziyatlarda kayfiyatga beriluvchanlik, tarbiya borasida kompetensiyaning yetishmasligi, onalarda erkaklik sifatlariga urg‘u berish kabilar ma’lum bo‘ldi.

Savolnomani psixologik tahlil qilar ekanmiz, ayrim masalalarda onalarning bola jinsidan qat’iy nazar deyarli bir xil pozitsiyada ekanliklari ham ma’lum bo‘ldi. Masalan, o‘smir oldiga qo‘yiladigan

talablarning ko‘pligi hamda murakkabligi (T+), o‘smir oldiga qo‘yiladigan ta’qiqlarning ko‘pligi (Z+), aksincha ayrim javoblarda o‘smir oldiga qo‘yiladigan ta’qiqlarning mavjud emasligi (Z-), o‘smirni jazolashga moyillik va uning keskinligi (S+), yoki yumshoqligi (S-), erkaklik sifatlariga urg‘u berishga moyillik (PMK) kabilarda ikkala guruhda farq topish qiyin bo‘ldi. Bulardan umumiy xulosa shu bo‘ldiki, bolasi o‘smirlik yoshiga yetgach aksariyat onalar vaziyatga qarab baribir xatoliklarga yo‘l qo‘ya boshlaydilar, lekin o‘zlarining fikricha, aynan shu yoshdagi bola ustidan qattiq turish lozim, uni nazorat qilish shart va agar bola adashsa, uni jazolash ham ota – onaning vazifasi. Umuman olganda esa, bolaning jinsidan qat’iy nazar, uning xulq-atvori kattalarning nazoratida bo‘lishi shart.

Javoblarni koeffitsientlarda tahlil qilishni davom ettirib, oilaning turiga e’tibor berishimiz, to‘liq va noto‘liq oila onalari fikrlarida bola xulqiga nisbatan keskinlik yoki qattiqqo‘llikda keskin farq kuzatilmaganligini ko‘rsatdi (3,6 va 3,3). Baribir, o‘g‘il farzandga nisbatan qattiqqo‘l onalar noto‘liq oila vakillari orasida ko‘proq ekanligini ayon bo‘ldi (3,2 va 2,5 to‘liq oilada). Demak, bizning sharoitda qizlarga nisbatan qattiqqo‘llik yuqoriroq bo‘lib, o‘g‘il farzandlilarda noto‘liq oilada qattiqqo‘llikning yetishmasligi barcha guruhlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib chiqdi (3,1). Qizlarga nisbatan, aksincha, noto‘liq oilada qizlar ustidan nazoratning yaqqolroq namoyon bo‘ldi. Endi ushbu ko‘rsatkichlarni boshqa tarbiya mezonlari bilan solishtiramiz.

Ota va ona o‘z farzandlaridagi turli moddiy hamda ma’naviy ehtiyojlarni muntazam qondirilishini o‘zlarining burchlari hisoblashadi. Biz tavsiya etilgan savollar orasida “O‘smir ehtiyojlarining hamisha qondirilishi” mezoniga tushadigan javoblarga e’tibor qaratdik. To‘liq oilada qiz tarbiyalayotgan onalarning aksariyati qizlariga hamisha hohlagan narsasini harid qilishga tayyorligini, bunda narsaning qimmatligi ham unchalik ahamiyatli emasligini, qizdan hech narsani ayamasliklarini qayd etishgan. Ayni shu ma’noda ushbu pozitsiya noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan o‘smir o‘g‘il bolasi borlarda o‘zgacharoq, ularning har to‘rttasidan bittasigina o‘g‘liga nisbatan bunday munosabatda, ularning fikricha, bolani aytganini qilish shart emas, qolaversa, unga biror narsani uqtirish, tushuntirish mushkul, uy ishlari bunday mustasno emas, shuning uchun ona o‘g‘liga o‘rgatishdan ko‘ra, o‘sha yumushlarni o‘zi bajarib qo‘ya qoladi. Bunday yondashuv ikkita toifali oila vakilalariga xos.

Yuqoridagi holatlar anketaning “O‘smir oldiga qo‘yiladigan talablarning ko‘pligi va murakkabligi” mezoniga tushuvchi savollarga berilgan javoblarda ham muayyan ma’noda aksini topdi. Masalan, onalarning deyarli barchasi farzandning jinsidan qat’iy nazar, uning oldiga turli vazifalar qo‘yish, uy yumushlarida ularga yordamchi bo‘lishlarini xohlaydi, ayniqsa to‘liq oilada qiz o‘stirayotgan hamda noto‘liq oilada o‘g‘il tarbiyalayotganlar (3,0 va 2,9). Chunki o‘smirlik yoshidagi bola jinsidan qat’iy nazar, agar undan kichik ukasi (singlisi) bo‘lsa, albatta, ularga qarashib yuborishi, ba’zan ukasiga qarashga majbur ekanliklarini qayd etishgan. Shu bois barcha ko‘rsatkichlar o‘rtadan yuqori ekanligi ma’lum bo‘ldi. Faqat aksariyat noto‘liq oiladagi onalar qizlariga nisbatan talablari yumshoq ekanligini (0,5), u qadar talabchan bo‘lish mumkin emasligini ta’kidlaganlar. Ayrim ma’lumotlar esa to‘liq oiladagi onalar javoblarida qarama qarshi: talabchan bo‘lish kerak deganlar salkam 70 foizni tashkil qilgan sharoitda, shunday pozitsiyaning yo‘qligini 100 foiz takidlaganlar ham bo‘ldi. Bu ham tarbiyadagi murakkablik bo‘lib, aynan shunday ambivalent pozitsiya o‘zaro munosabatlarning buzilishigiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, biz o‘tkazgan so‘rovnoma ham ota-onalarning o‘smirlik yoshidagi farzandlari bilan o‘zaro munosabatlaridagi muayyan muammolarning mavjudligini, aynan shular ona bilan o‘smir bola o‘zaro munosabatlarining yomonlashib ketishiga sabab bo‘lishini ko‘rsatdi. Bizning “bolajon” muhitimizda bunday sabablarning eng keng tarqalgani avvalo bolasini yo‘qotib qo‘yishdan cho‘chish (FU), ya’ni, uning mehrini yo‘qotishdan qo‘rqish, chunki aslida ayollar ko‘p holatlarda erta ona bo‘lganliklari va bolasi o‘smirlik ostonasiga qadam qo‘yganda, hali o‘zlarida ota-onalik sifatlarining unchalik rivojlanmaganligi (NRCh), shu bois ham onaning o‘z tarbiyaviy usullariga shubhasining borligi (VN), onalik hislarining orttirilganligi (RRCh), yana shundan kelib chiqadigan yana bir istak o‘smirda bolalik sifatlarining ko‘proq namoyon bo‘lishini istash (PDK), kayfiyatlarga beriluvchanlik, tarbiya borasidagi bilimdonlik (kompetensiya)ning yetishmasligi (VK), shuning uchun bo‘lsa kerak, o‘zidagi mavjud kamchiliklarni bolaga to‘nkashga moyillik (PNK) kabilar qayd etildi. Bularning barchasi psixologik omillar bo‘lib, ular onaning bolasi bilan munosabatlarida ona tomonidan aslida u qadar anglanmaydi. Bu narsa noto‘liq oila onalariga xos bo‘lib, ularda bolasini o‘z orzu va tasavvurlaridagi kabi yaxshilab tarbiyalash istagi o‘ta kuchliligidan ham kelib chiqadi. O‘zaro suhbatlardan ma’lum bo‘ldiki, noto‘liq oiladagi ayol ko‘pincha o‘z ota va onasi, ko‘pincha ulardan kattalar bilan yashagani bois, ular ham o‘smir ustidan nazoratni o‘z bo‘ynilariga olganliklari sabab,

tarbiyadagi muammolarda faqat o‘zining emas, balki ularning ham ulushi borligini anglaydilar. Muammo paydo bo‘lganda aybni o‘zidan emas, yonidagi kattalardan qidiradi. Bu ham bizdagi etnopsixologik o‘ziga xoslik bo‘lib, eridan ayrilgan ayol aksariyat holda yolg‘iz emas, yaqinlari bilan birga bo‘ladi. Ayrim holatlarda farzandlarni butunlay kattalar tarbiyasiga topshiradi, o‘zi boshqa ro‘zg‘or qilib ketadi.

Albatta, to‘liq va noto‘liq oiladagi o‘smir yoshli bolani tarbiyalashda uning jinsiga e’tibor berish kabilarda mutloq farqlar sezilmaydi. Xar ikkala holatda ham qiz bolani tarbiyalashga alohida e’tibor borligi aniqlandi. Chunki o‘zbek oilasida o‘smir qizni oilaviy hayotga, turmush qurishga tayyorlash aynan shu davrdan boshlanadi. Shuning uchun ham ular tarbiyasiga hamma alohida e’tibor qaratadi. Noto‘liq oilada esa, o‘g‘il bola borligidan onalarning umidi ko‘proq bo‘lgani sabab, ularga e’tibor, ular xulqi ustidan nazorat qattiqroq ekanligi ma’lum. Lekin bizning onalar o‘g‘il bola tarbiyasidagi muammolarda ko‘proq ularning jinsidan kelib chiqadigan hatolar bilan bog‘lashga urinadilar. Shu bois tarbiyada ham ko‘proq anglashilmovchiliklar o‘g‘li bor to‘liq va noto‘liq oiladagi onalarda ayon bo‘ldi. Lekin otasi bilan birgalikda o‘g‘il tarbiyalayotgan ona bilan yakka o‘zi tarbiyalayotganning erkaklik sifatlariga urg‘u berishida aniq farq ko‘rinmasada, bola xulqi ustidan nazorat qilishda, uning kamchiliklarini ko‘rishda noto‘liq oila onalari ko‘proq e’tiborli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Aynan ular bolani jazolashda ham ancha demokratik ekanlar.

Xulosa. Xulosa o‘rnida ta’kidlash o‘rinliki, o‘smirning holatini oila muhitida o‘rganish psixolog oldiga murakkab vazifani, ya’ni, nafaqat o‘smir xulqini korreksiya qilish, balki uning ota-onasi xulqini ham tuzatishni nazarda tutadi. Bunda aynan oilaviy o‘zaro munosabatlar tizimida ota-onaning farzandi bilan bo‘ladigan shaxslararo munosabatlari nazarda tutiladi.

O‘smirlik yoshidagi farzandi bor ota-onalar va farzandlar o‘rtasida ko‘pincha kelishmovchilik, o‘zaro bir-birlarini tushunmaslik holatlari ro‘y berishiga qaramay, to‘liq oila a’zosi bo‘lgan onalarning aksariyatida farzandlar va boshqa a’zolar bilan munosabatlarni ancha ijobiyligi bois bunday oilalarda muayyan ma’noda uyushganlik, egiluvchanlikka xos ekanligi isbotlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020 yil 30 sentabr /https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020

2.O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-406 / http://lex.uz

3.Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. 341-342 betlar.

4.Торохтий В.В. Психология социалной работы с семей.- М., 1996. – С. 187-195.

5.Буянов М.И. Ребенок из неблагополучной семьи: Записки детского психиатрия: Книга для учителей и родителей .- Москва: Просвещение, 1988, -207 с.

Ахмадов Назиржон Рахматович
Преподаватель кафедры психологии и социологии
Бухарского государственного университета
Orcid: 0000-0002-1837-9878

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ДЕЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье описан опыт педагогического отряда по организации социально-психологической реабилитации дезадаптированных детей и подростков в условиях летнего оздоровительного лагеря, представлены основные направления подготовки вожатых для успешного решения данной проблемы.*

Ключевые слова*: социально-психологический реабилитация, дезадаптация, дезадаптированный подросток.*

DEZADAPTATSIYALASHGAN O`SMIRLARNI REABLITATSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Maqolada yozgi sog‘lomlashtirish lageri sharoitida noto‘g‘ri bolalar va o‘smirlarni ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya qilishni tashkil etish bo‘yicha o‘qituvchilar jamoasining tajribasi tasvirlangan va ushbu muammoni muvaffaqiyatli hal qilish uchun maslahatchilarni tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-psixologik reabilitatsiya, noto‘g‘ri moslashish, moslashtirilmagan o‘smir.*

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF REHABILITATION OF DISADAPTED ADOLESCENTS

Annotation. *The article describes the experience of the teaching team in organizing socio-psychological rehabilitation of maladjusted children and adolescents in the conditions of a summer health camp, and presents the main directions of training counselors to successfully solve this problem.*

Key words: *socio-psychological rehabilitation, maladjustment, maladjusted teenager.*

Изучение многочисленных факторов, влияющих на развитие и поведение личности, ее адаптацию к жизненным условиям и успешность деятельности, становится все более актуальным в связи с социально-экономическими преобразованиями общества и повышенным уровнем требований к физическим, интеллектуальным, нравственным, гражданским и другим качествам человека. Особенно важно изучение стрессогенных факторов, оказывающих отрицательное воздействие на психическое состояние подростков, снижая их познавательные возможности, работоспособность, обостряя проблемы взаимоотношений с окружающими людьми. Анализ состояния негативных тенденций в детско-подростковой популяции показывает, что такие дети и подростки, которые не вписываются в жизнь современного общества и которых чаще всего называют дезадаптированными, являются наиболее активной частью населения. Уровень преступности несовершеннолетних за последние пять лет на 25% превысил аналогичный показатель среди взрослых. Значительными темпами растет криминальная активность подростков, не достигших возраста уголовной ответственности, т.е. до 14 лет. В структуре подростковой преступности растет удельный вес тяжких преступлений, направленных против личности, характеризующихся усилением черт безмотивности, жестокости, садизма. Специальные исследования психического здоровья в различных возрастных группах несовершеннолетних с отклонениями в поведении показывают, что распространенность психической патологии среди подростков с криминальной активностью тесно связана с их возрастом. В группе детей с криминальной активностью до 14 лет она составляет 80,2%; в группе 1 4 - 1 5 лет - 53,7%; 1 6 - 1 7 лет - 38,6%. Число несовершеннолетних, употребляющих наркотические вещества, за последние годы возросло в 8 раз (Б.Н. Алмазов, И.П. Башкатов, С.А. Беличева и др

Так в исследованиях К. Бютнера, Е.В. Веттенберга, А. Коэна, Э.Кречмера, К. Леонгарда, А. Маслоу, Р. Мейли, Ж. Пиаже, М. Ратгера, К. Роджерса, Г. Селье, В. Франкла, А. и З. Фрейд, Э, Фромма, Э. Эриксона, К. Хорни, К. Юнга и других раскрываются причины, структурные ком-

поненты, характерные проявления дезадаптации, ее виды и другие вопросы. Достоинством исследований этих ученых является то, что они разработали достаточно достоверные методики для диагностики этого сложного социального явления.

Теоретические аспекты реабилитации социально дезадаптированных подростков, находящихся в интернатных учреждениях неразрывно связаны с понятиями «норма», «социализация» и «адаптация». В раскрытии этих понятий имеется значительное количество наработок как отечественных, так и зарубежных исследователей.

В.Н. Кудрявцев полагает, что социальная норма «... закрепляет большей частью такое поведение, которое выражает социальные связи и отношения, характерные для большинства представителей данного класса или социальной группы, одобряется или встречается наиболее часто»

К сожалению, психология в союзе с родственными дисциплинами - педагогикой, социальной педагогикой, психофизиологией, медицинской психологией, социологией и другими - не смогла дать четких критериев нормы психического развития личности. Следует оговориться, что речь идет именно об общих критериях, а не о частных психологических механизмах и критериях работы психического аппарата. Поэтому в русле нашего исследования для нас ближе всего подходит определение Б.С. Братуся о норме и его представление о психическом здоровье. Норма понимается им как «...отсутствие или слабая, не мешающая социальной адаптации, выраженность проявлений, их относительная скомпенсированность»

Однако, наиболее полное раскрытие этого сложного социального явления дает Г.М. Андреева. Она считает, что «социализация - двусторонний процесс, включающий в себя, с одной стороны, усвоение индивидом социального опыта путем вхождения в социальную среду, систему социальных связей, с другой стороны, процесс активного воспроизводства системы социальных связей индивидом за счет активной деятельности, активного включения в социальную среду»

Дело в том, чуо личность, взаимодействуя со средой избирательно усваивает все то, что ее окружает. Причинами этой избирательности выступают природные задатки, чувства и установки, привитые с детства, психологическая предрасположенность к чему-либо, потребность и др. Особенную роль в восприятиях подростков имеет семья, образ поведения родителей, ближайшее формальное и неформальное окружение (сверстники, друзья, знакомые и др.). Многослойность и многозначность существующих в обществе взглядов, мнений, убеждений, оценок свидетельствуют о неоднозначном влиянии среды на людей различного возраста, пола, национальности, материальной обеспеченности, культурно-образовательного уровня, политической и религиозной принадлежности и т.д.

Толкование социальной дезадаптации в этих значениях следует рассматривать как необходимый и составной компонент процесса адаптации. В связи с этим, можно утверждать, что процессы адаптации и дезадаптации тесно взаимосвязаны и взаимообусловлены, они представляют единство разнополюсных, разнонаправленных приспособительных возможностей человека - адаптационной и дезадаптацнонной. Нарушение функционирования адаптационных возможностей человека ведет к изменению его дезадаптивных возможностей.

Не разделяя мнения К.Хорни об обязательном возникновении у ребенка состояния «основного беспокойства», мы вместе с тем солидарны с ней в том, что неблагоприятные внешние условия развития личности, депривация психологического развития способствуют возникновению социальной дезадаптации и формированию личностных отклонений. В этом случае действительно имеют место описанные ею механизмы психологической защиты, препятствующие формированию адекватных переживаний и представлений личности о себе.

В результате экспериментальной работы нами было установлено, что воспитанники школы имеют различные степени социальной дезадаптированности, которые могут проявляться в нарушениях многообразных отношений в семье, школе, в ближайшем социальном окружении подростков. Было выявлено девять областей нарушения отношений, которые обуславливают возникновение, развитие и функционирование социальной дезадаптации. К их числу относятся отношения в семье, к учебе, к учителям, в классе, в неформальных группах, к самому себе, к правилам общественного поведения, к трудовой деятельности. Существенное влияние на развитие этих отношений оказывает состояние здоровья воспитанников. Степень негативной выраженности этих отношений и состояние здоровья у каждого воспитанника школы различная.

Распределение воспитанников по степеням социальной дезадаптации и эмоциональному неблагополучию отражено нами в таблице 1.

Таблица 1

Соотношение степени социальной дезадаптации воспитанников с их эмоциональным неблагополучием *(n* = 250 в %)

Эмоциональное неблагополучие Степень дезадаптации	*Возбудимый тип*	*Тормозной тип*	*Итого*
Отсутствие дезадаптации	**7**	**8**	**15**
I степень	**10**	**8**	**18**
II степень	**12**	**10**	**22**
III степень	**33**	**12**	**45**
Итого	*62*	*38*	*100*

Кроме этого, анализ социометрических данных позволил нам установить социальный статус каждого социально дезадаптированного воспитанника в зависимости от того, какова степень дезадаптации у него выражена и к какому типу эмоционального неблагополучия он относится. Распределение воспитанников по отдельным социометрическим категориям неравномерно. Очень большой процент (85%) составляют воспитанники с низким социометрическим статусом. Они занимают позиции «отверженных» и «изолированных». При чем к «изолированным» относятся 45% воспитанников, получивших минимальное количество положительных и отрицательных выборов. Другими словами, учебный класс не проявляет к ним ни симпатии, ни антипатии; не принимает, но и не отвергает их. К «отверженным» относятся 40% воспитанников, которые получили наибольшее количество отрицательных выборов и не получили положительных. Этих подростков не любят в классе и интернате, отвергают их, не хотят с ними играть, учиться, выполнять поручения.

Однако личность воспитанника проявляется не только через отношение к окружающему миру, но и через самооценку, отношение к самому себе. И эта динамика изменения самооценки отношения к самому себе, является одним из ведущих показателей эффективности реабилитационной работы. Изучение самооценки проводилось нами с помощью модифицированной методики «Лестница самооценок» В.Г. Шур Оценивание проводилось в начале и в конце реабилитационного периода по шкалам: «хороший - плохой», «добрый - злой», «умный - глупый», «сильный - слабый», «смелый - трусливый», «аккуратный - неаккуратный», «красивый - некрасивый», «хороший ученик - плохой ученик». После заполнения бланка воспитанниками и экспертами проводился сравнительный анализ полученных результатов. Существующая разница между оценкой воспитанников и экспертов, которая могла быть больше или меньше единицы, свидетельствует о завышенной или заниженной самооценке того или иного ребенка. Статистическая оценка различий между средними величинами также определялась с помощью применения Т - критерия Стьюдента. Полученные общие результаты представлены нами в таблице 2.

Таблица 2

Показатели изменения самооценок воспитанников на начало и конец реабилитационного периода *(n=50)*

№	Оцениваемые качества	Начало реабилитационного периода			Конец реабилитационного периода		
		экспериментальная	контрольная	значимость	экспериментальная	контрольная	значимость
1.	Хороший - плохой	7,1	7,3	-	6,2	8,4	0,01
2.	Добрый - злой	8,2	8,5	-	7,4	9,2	0,01
3.	Умный-глупый	8,3	8,2	-	5,9	8,3	0,01
4.	Сильный - слабый	7,0	7,4	-	5,8	6,7	0,05
5.	Смелый - трусливый	8,5	8,6	-	6,7	8,7	0,01
6.	Аккуратный - неаккуратный	7,6	7,8	-	4,4	6,8	0,01
7.	Красивый - некрасивый	7,9	8,2	-	6,9	6,0	0,05

8.	Хороший ученик - плохой ученик	8,2	8,3	-	4,8	7,4	0,01

Из таблицы 2 видно, что показатели самооценки социально дезадаптированных воспитанников в начале реабилитационного периода в контрольной и экспериментальных группах примерно одинаковы, т.е. существенная разница практически не значима. В конце же реабилитационного периода уже наблюдаются существенные различия по всем шкалам. В частности, самооценка воспитанников экспериментальной группы значительно ниже, чем в контрольной группе, за исключением качества «красивый - некрасивый». По этому качеству воспитанники экспериментальной группы оценивают себя выше.

Таблица 3

Оценка различий самооценки социально дезадаптированных подростков

№	Оцениваемые качества	Экспериментальная группа			Контрольная группа		
		начало	конец	значимость	начало	конец	значимость
1.	Хороший - плохой	7,1	6,2	0,01	7,3	8,4	0,10
2.	Добрый - злой	8,2	7,4	0,2	8,5	9,2	-
3.	Умный - глупый	8,3	5,9	0,05	8,2	8,3	0,05
4.	Сильный - слабый	7,0	5,8	0,01	7,4	6,7	-
5.	Смелый - трусливый	8,5	6,7	0,01	8,6	8,7	-
6.	Аккуратный - неаккуратный	7,6	4,4	0,05	7,8	6,8	0,10
7.	Красивый - некрасивый	7,9	6,9	0,05	8,2	6,0	0,05
8.	Хороший ученик - плохой ученик	8,2	4,8	0,05	8,3	7,4	0,25

По данным таблицы 12 видно, что для воспитанников экспериментальной группы характерна тенденция к снижению обобщенной самооценки по всем оцениваемым качествам от начала до конца реабилитационного периода. Это свидетельствует о том, что у воспитанников растет адекватная самооценка, вызванная реабилитационным процессом.

Заключение. Проблема социально-психологическая реабилитация социально- дезадаптированных подростков в условиях школы-интерната обусловлена комплексным нарушением отношений воспитанников к учебной, трудовой и общественно-полезной деятельности, самим себе, сверстникам и взрослым, отклонениями в официальном и неофициальном общении, поведении, эмоциональной сфере, неадекватной самооценкой, низким социальным статусом и непринятием таких детей окружающими.

Она может быть решена только на основе многофункционального подхода, включающим в себя диагностические, коррекционно-развивающие и оздоровительные комплексы, а также творческие мастерские, деятельность которых направлена на формирование у социально дезадаптированных подростков способностей к ремеслу, искусству, музыке, любви к природе, умении понимать окружающий мир и найти в нем место для себя. Очень важно, чтобы в реабилитационную деятельность были включены все субъекты:

учителя, воспитатели, мастера, медицинские работники, психологи, социальные педагоги, общественные организации, правоохранительные органы. Основой для разработку социально-психологическая реабилитация для нас послужили идеи личностно ориентированной психотерапии, подразумевающей гармонизацию личностной структуры и отношений воспитанников, за счет воздействия на их эмоциональную и коммуникативно-поведенческую сферы.

На начальном этапе реабилитации подростков мы обращались к ранним особенностям их эмоционального развития и общения и старались использовать положительные стороны этих особенностей в процессе адаптивной перестройки личности в качестве раннее не использованных резервов. На основном этапе реабилитационной работы мы стимулировали процесс взросления личности воспитанников до уровня ближайшего развития и способствовали активному

освоению этого уровня. Данные этапы реабилитационной работы осуществлялись нами в процессе изобразительной деятельности, разыгрывания психодраматических ситуаций в специально создаваемых тренинговых группах общения, а также в процессе психолого-педагогического консультирования воспитанников, их родителей, родственников, представителей общественности и других лиц по актуальным вопросам реабилитации. Вся эта деятельность направлялась на раскрытие и развитие содержательных и выразительных характеристик личности, в активизации уровней эмоциональной регуляции, совершенствовании этапов общения, формировании адекватной самооценки у воспитанников.

Основаниями социально-психологическая реабилитация у нас выступали компенсаторные и адаптационные возможности психики, существование значительных резервных сил в психике человека, дополнительно проявляющихся в случае необходимости. Для оптимизации реабилитационной работы социально дезадаптированных подростков нами была разработана и апробирована программа социально-психологическая реабилитация на весь период пребывания их в интернате. Реализация данной программы в школе позволяет нам сделать следующие выводы.

1. Социальную дезадаптацию подростков- воспитанников школы-интерната необходимо рассматривать с междисциплинарных позиций. Раскрытие ее «сущности возможно лишь при четком понимании понятии "норма", "социализация" и "социальная адаптация". В зависимости от степени выраженности социальной адаптированности - дезадаптированности существуют различные типы подростков, имеющих отклонения от социальной нормы. Социальная дезадаптация у таких детей проявляется в двух основных средах: личностной и микро социальной.

2. Социальная дезадаптация- это сложное социально-психологическое образование, обусловленное действием социальных и психологических факторов, значимых для человека и выражаемых им в тех или иных переживаниях, отношениях и моделях поведения.

3. На возникновение и развитие социальной дезадаптации подростков влияет множество неблагоприятных субъективных и объективных факторов, среди которых семейное неблагополучия выполняет ведущую роль. Комплексное воздействие этих факторов препятствует нормальному вхождению развивающейся личности в общество и обеспечивает ее десоциализацию. Возрастные особенности подростков, отклонения в их развитии сами по себе не обуславливают возникновение социальной дезадаптации, но создают благоприятные условия для ее проявления.

4. Реализация дезадаптационных факторов осуществляется через различные отношения подростков с родителями, учителями, сверстниками, сами себе, к учебе, труду, нравственным ценностям, правилам поведения. Нарушение этих взаимоотношений приводит к рассогласованию у подростков познавательной, интеллектуальной, эмоционально- коммуникативной, волевой и других сфер личности. Эти отношения, реализуясь в микросреде, находят выражение в асоциально-криминальных поступках и поведении подростков, в их высказываниях, привычках, навыках, а также мимике, жестах, речи, внешнем виде и т.д.

5. В качестве механизмов формирования социальной дезадаптации подростков нами взята теория объективных отношений, суть которой состоит в том, что личностные отношения с момента рождения ребенка занимают центральное место в формировании поведенческих стереотипов и характера. Мы выделяем следующие виды отношений воспитанников школы- интерната: "отношения зависимости- независимости", "отношения соответствия - несоответствия", "отношения причастности - непричастности", "отношения использования - неиспользования" и дает им характеристику.

Литература

1. Беличева С. А., Фокин В. М. Охранно-защитная концепция социальной профилактики отклоняющегося поведения несовершеннолетних. - М., 1991.

2. Буянов М. И. Ребенок из неблагополучной семьи. - М., 1988.

3. Ахмадов, Н. Р. (2022). Социально-психолого-педагогическая реабилитация дезадаптированных подростков. *Science and Education*, *3*(2), 1045-1053.Бочарова В. Г. Педагогика социальной работы. - М.,1994.

4. Ахмадов, Н. Р. Психологические основы реабилитации дезадаптированных подростков. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 2022. №*3*(3), с. 79-84.

5. Axmadov, N. R. Dezadaptatsiya va uning o‘smir xulqida na’moyon bo‘lishi. *Science and Education*, 2022. №*3*(3), 389-395b.

Xajiyeva Iroda Adambayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali
filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Orcid: 0000-0001-7084-5701

TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA MA'NAVIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ZARURAT SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada texnika oliy ta'lim muassasasi talabalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishning zarurati va uni amalga oshirish usullari to‘g‘risida mulohaza yuritiladi. Muammoning nazariy va uslubiy asoslari tahlil etiladi. Texnika yo‘nalishi talabalariga ma’naviy qadriyatlarni tushuntirishda ta’lim muassasasining o‘ziga xususiyatlari to‘g‘risida fikr yuritildi. Shuningdek, bu yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarning qiziqishlari, psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratildi. Ajdodlarimiz merosini talabalarga tushuntirishda Xorazm adabiy muhitining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi davrida yaratilgan “Haft shuaro” majmuasi tadqiqotimizga asos qilib olindi. O‘rganishlar jarayonida Xorazm adabiy muhitining alohidalik jihatlari, kitobatning paydo bo‘lishi, ijodning taraqqiy etishi haqida mulohaza yuritdik. Tadqiqotlarimiz asosida texnika oliy ta’lim muassasasi talabalarining zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqligini inobatga olib, majmuaning o‘zbek, rus, ingliz tillarida elektron ilovasini ishlab chiqdik. Elektron ilova orqali talabalarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda tushuntirish ishlari olib borildi.Mazkur maqolada tadqiqotimizning ayrim natijalarini keltirdik.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, didaktika, nazariya, metodik ta’minot, qadriyat, bilim, ta’lim dasturi, qiziqish, psixologik xususiyat.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАЗВИТИЯ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКОГО ВУЗА КАК СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ

Аннотация. *В данной статье рассматривается необходимость совершенствования дидактического обеспечения развития духовно-нравственных ценностей у студентов технического вуза и методы его реализации. Анализируются теоретические и методологические основы проблемы. При разъяснении нравственных ценностей студентам технического направления было дано мнение об особенностях самого учебного заведения. Также было уделено внимание интересам и психологическим особенностям студентов, обучающихся по данному направлению. В целях разъяснения студентам наследия наших предков в основу нашего исследования был положен комплекс «Хафт Шуаро», созданный в период конца XIX – начала XX века. В ходе занятий мы обсудили особенности литературной среды Хорезма, возникновение литературы, развитие творчества. На основе наших исследований мы разработали электронное приложение комплекса на узбекском, русском и английском языках с учетом подключения студентов технических вузов к современным технологиям. Разъяснительная работа проводилась исходя из интересов студентов посредством электронного приложения. В этой статье мы представили некоторые результаты нашего исследования.*

Ключевые слова: *образование, дидактика, теория, методическое обеспечение, ценность, знание, образовательная программа, интерес, психологическая особенность*

ENHANCING DIDACTIC SUPPORT FOR THE DEVELOPMENT OF SPIRITUAL VALUES AMONG STUDENTS OF TECHNICAL UNIVERSITIES AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL NECESSITY

Abstract. *This article deals with the need to improve the didactic support for the development of spiritual and moral values in students of a technical higher education institution and the methods of its implementation. The theoretical and methodological foundations of the problem are analyzed. In explaining moral values to students of the technical direction, an opinion was given about the*

characteristics of the educational institution itself. Attention was also paid to the interests and psychological characteristics of students studying in this direction. In order to explain the heritage of our ancestors to students, the "Haft Shuaro" complex, created in the period of the end of the XIX century and the beginning of the XX century, was used as the basis of our research. In the course of studies, we discussed the peculiarities of Khorezm's literary environment, the emergence of literature, and the development of creativity. Based on our research, we developed an electronic application of the complex in Uzbek, Russian, and English languages, taking into account the connection of students of technical higher education institutions with modern technologies. Explanatory work was carried out based on the interests of students through the electronic application. In this article, we have presented some results of our research.

Key words: *education, didactics, theory, methodological assurance, value, knowledge, educational program, interest, psychological trait*

Kirish. Mamlakatimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar bugun nafaqat jamoatchiligimiz tomonidan, balki butun jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Ta'kidlash joizki, davlatimizda ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish va komil insonni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarildi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning “Ilm-ma'rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma'naviy poklik, kattalarga hurmat, kichiklarga shavqat, qadriyatlarimizga sadoqat kabi ezgu fazilatlar azaldan xalqimiz, millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak”[1], degan fikrlari ayni shu maqsadga qaratilgandir. Bugungi kunda zamonaviy oliy ta'lim tizimida o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim-tarbiyasi sifatini oshirish, fan asoslarini puxta o‘qitishning yuqori ilmiy darajasini ta'minlash, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularga psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish, shuningdek, talaba-yoshlarni milliy-ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning didaktik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Oliy kasbiy ta'lim tizimida sodir bo‘layotgan yangilanish jarayonlari kelajakda oliy texnik ma'lumotga ega bo‘lgan mutaxassislarga yangi talablarni qo‘ydi. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida nafaqat ma'lum bilim va ko‘nikmalar yig‘indisiga ega bo‘lgan, balki o‘zini o‘zi anglash, o‘z-o‘zini tarbiyalashga hissa qo‘shadigan, shaxsiy xususiyatlar va fazilatlarning boy ichki salohiyatiga ega bo‘lgan raqobatbardosh muhandislarni yetishtirish davr talabidir.

Texnika oliy ta'lim muassasalarining o‘quv jarayoni o‘quv dasturining turli fanlarini o‘rganish uchun alohida jarayonlar to‘plami sifatida shunday tashkil etilishi kerakki, u nafaqat talabalarga bilim berishga, balki talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish, bilimlarini kengaytirish, barqaror ehtiyojini shakllantirishga yordam berishi lozim[7]. Biroq bu rivojlanish faol va samarali davom etishi uchun talaba o‘quv faoliyatida motivatsion tarzda ishtirok etishi kerak, ya'ni o‘quv faoliyati uning uchun alohida ahamiyatli bo‘lib, faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam berishi lozim.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur masala dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib, bir qator ilmiy adabiyotlarda tahliliy fikrlar keltirilgan. Zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarda talaba-yoshlar bilan samarali tarbiyaviy ish olib borish, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning uslubiy asosi - bu shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga asoslangan gumanistik ta'lim paradigmasi (Sh.A.Amonashvili, A.S.Belkin, D.A.Beluxin, E.V.Bondarevskaya, K.V.Gavrilovets, I.A.Zimnyaya, V.V.Serikov, I.S.Yakimanskaya va boshqalar), talabalarning maksimal shaxsiy o‘zini o‘zi anglashiga, ularning o‘ziga xos subyektiv shakllarini va o‘zini-o‘zi takomillashtirish usullarini, insonparvarlik va madaniy qadriyatlarni, o‘z tajribasini va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda xatti-harakatlar va muloqot uslublarini izlashga qaratilgandir. Shuningdek, talabalarda milliy qadriyatlarni rivojlantirish aksiologik yondashuv bilan birgalikda amalga oshiriladi (K. V. Gavrilovetts, V.A.Karakovskiy, V.A.Slastenin, V.I.Slobodchikov, N.M.Talanchuk va boshqalar), ya'ni universitetda ta'lim faoliyatini jamiyatda amal qilayotgan umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar, mafkuraviy munosabatlar asosida tashkil etishni o‘z ichiga oladi.

Maqolada ilgari surilayotgan muammo qiyosiy-tahliliy va eksperimental metod orqali tahlil etiladi.

Natijalar. Texnika oliy ta'lim universitetlari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish muhitini yaratish quyidagi tashkiliy-psixologik- pedagogik talablarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi:

- ta'limning eng muhim qadriyati sifatida ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining ijodkorligiga yo‘naltirish;
- turli xil ta'lim dasturlarini taqdim etish orqali talabalarning individual xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida qadriyatlarga sodiqlik munosabatlarini o‘rnatish;
- ochiqlik, oshkoralik, hamkorlik, korporatizm va kollektivizm ruhini qo‘llab-quvvatlash;
- samarali rag‘batlantirish tizimining mavjudligi;
- universitetni ochiq ijtimoiy tizimga aylantirish, bu ta'lim innovatsiyalarini, ta'lim yo‘nalishlarini inobatga olib, talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini doimiy ravishda takomillashtirishni nazarda tutadi.

Muhokama. Ma'lumki, oliy ta'lim talabalarini ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash muhim masalalardan biridir. Bu sohada ma'lum tajriba ham to‘plangan. Biroq quyidagi kamchiliklar kuzatiladi:

- ushbu muammoning yechimi tarbiya nazariyasida pedagogik jihatdan to‘laligicha o‘z ifodasini topgani yo‘q;
- oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishni tashkil etish va boshqarish bo‘yicha yagona, izchil bir tizim ishlab chiqilmagan;
- jamiyat taraqqiyoti, ilm-fanning jadal rivojlanishi talabalarga yangicha psixologik yondashuvni talab etadi;
- ushbu sohani rivojlantirishga doir metodik ta'minot yetarli emas;
- talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish va boshqarishda ham ba'zi bir muammolar mavjud.

Shu bois biz tadqiqotimizda texnika oliy ta'limi talabalarida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishga doir ilmiy-pedagogik, nazariy va amaliy asoslarini yaratishga e'tiborni qaratdik[11].

Texnika oliy ta'lim muassasalarida talabalar chuqur nazariy va amaliy bilimlar hamda kasbiy malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan birga ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarga to‘g‘ri baho berishi va hal eta olishi, turli vaziyatlarga mustaqil munosabat bildirishi, milliy va umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lishi, o‘z millati va Vatanini sevishi, u bilan faxrlanishi, milliy ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni hurmat qilishi, asrashi va ularni rivojlantirishga o‘zining hissasini qo‘shishi, jismoniy jihatdan sog‘lom va barkamol, ma'naviy-axloqiy, ruhiy, siyosiy, ekologik dunyoqarashga ega, fuqarolik madaniyati shakllangan etib tarbiyalash asosiy maqsad qilib qo‘yiladi[6].

Shuning uchun ham oliy ta'lim o‘quv rejasi birinchi blok qismiga bir qator ijtimoiy-gumanitar fanlar kiritilib, ularning o‘qitilishi bugungi kun talabidan kelib chiqqan holda, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ma'naviy-axloqiy taraqqiyotsiz hayotni tasavvur etib bo‘lmasligi sezilmoqda. Zero, oliy ta'lim talabasi – jamiyatimizning ertangi yetuk, yuqori malakali mutaxassisidir. Uning qalbi va ongida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish masalasi dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Zero, talabalar qaysi yo‘nalishda tahsil olishidan qat’iy nazar dunyoda va jamiyatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni idrok etishi, ularga nisbatan faol munosabatda bo‘lishi taraqqiyotning muhim talablaridan biridir.

Bizning nuqtayi nazarimizcha, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini quyidagi tarkibiy bo‘linmalarga ko‘ra, ajratib ko‘rsatish kerak:

- texnika universiteti talabalarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanish xususiyati gumanitar universitetlarga nisbatan yuqori darajada ekanligi;
- texnika universitetining turli yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning gumanitar fanlarga qiziqishining alohidalik xususiyatlari;
- texnika universiteti talabalarining o‘quv faoliyatining xususiyatlari hamda uning asosiy dinamik o‘zgarishlarida (diqqatni jamlash va boshqalar) o‘quv faoliyatini rag‘batlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari[8].

Universitet shaxs oliy ma'lumot oladigan ta'lim muassasasining bir turi bo‘lganligi sababli,

universitetning xususiyatlari oliy ta'lim tizimining asosiy elementlarining xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Yangi tahrirdagi “Ta'lim to‘g‘risida”gi qonunda berilgan ta'rifga ko‘ra, ta'lim tizimi bu davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o‘quv rejalari va o‘quv dasturlarini; davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablari va o‘quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini; ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni; ta'lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek, ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o‘z ichiga oladi[3].

Gumanistik ta'lim paradigmasining nazariy va uslubiy asoslariga muvofiq tarbiya universitet o‘quv jarayonining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u talabalarning yanada samarali shaxsiy va kasbiy rivojlanishini, ularning ijtimoiy, ta'lim va tadqiqot faoliyatini shakllantirishni ta'minlaydi, shuningdek, ularning o‘zini to‘liq anglashiga hissa qo‘shadi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, oliy ta'limning maqsad va vazifalari nafaqat didaktik va kasbiy sharoitlarda, balki ta'lim jarayonining tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirishni hisobga olgan holda ham yangilanadi. Bunda texnika oliy ta'lim muassasalarining ijodiy imkoniyati juda samaralidir[5].

Ma’naviy merosimizning ajralmas qismini tashkil etadigan qadriyatlar texnika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarni intellektual ma’naviy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bu jihatdan biz XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitida yashab ijod etgan shoirlarning asarlarini o‘zida mujassam etgan “Haft shuaro” majmuasini talabalarga o‘rgatishni maqsad qildik.

XX asr boshidagi Xorazm adabiy muhitining asosiy xususiyatlari davrdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, milliy uyg‘onish tuyg‘usining kuchayishi, badiiy ijodda an’ana va yangilanishning uyg‘unlashuvi kabi omillar bilan bog‘liqdir. Bu xususiyatlarni asosan quyidagilarda ko‘ramiz:

a) adabiy muhit boy va tarixan uzoq adabiy tajribalarga suyangan holda ularning yangi asrdagi davomi sifatida shakllandi va o‘zbek mumtoz adabiyotining so‘ngi, yangi davr adabiyotining esa boshlanish bosqichi bo‘ldi;

b) adabiy muhit vakillarining aksariyati bevosita, bir qismi esa saroy bilan bilvosita bog‘langan bo‘lsa ham, Feruz shoh sifatida ularning umumiy homiysi va muhit tashkilotchisi, shoir sifatida ijodkor hamkori edi;

v) ijodkorlarning asosiy adabiy mahsuli bo‘lgan lirik she’riyatdan tashqari, qator epik, tarjima va tarixiy asarlarning yaratilgani adabiy muhit xususiyatlaridan biridir. Bu borada Tabibiy dostonlari, Otaniyoz Niyoziy, Mirzo tarjimalari, Bayoniyning “Shajarai xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi”, Komyobning “Tavorix ul-xavonin”, “Muntaxab ul-voqeot” tarixiy asarlari va boshqalarni ko‘rsatish mumkin;

g) adabiy muhitga xos jihatlardan yana biri lirik janrlar rang-barangligi. Bu sohada yigirmaga yaqin janr va shakllarda ijod etgan ustoz Ogahiy an’anasi davom ettirildi va shoirlarning ayrimlari o‘n to‘rtta janrda ijod etishdi. Tabiiyki, bular orasida g‘azal va muxammaslar asosiy o‘rin tutadi;

d) adabiy muhit namoyandalarining ijodiy takomilida Navoiy, Fuzuliy, Munis va Ogahiy dahosidan bahramandlik, shuningdek, zullisonaynlik an’anasi ham muhim omil bo‘ldi. Ustozlarga izdoshlik asosan ijodiylik kasb etdi, o‘zbek va fors tillarida ijod qilish esa har bir shoirga xos xususiyat edi;

y) muhim jihatlardan yana biri shundaki, shoirlar ijodi ko‘p qirrali edi. Ular adabiy ijoddan tashqari, xattot, musiqashunos, tarjimon, tarixnavis ham bo‘lganlari bois bu ijod qorishiq xarakter kasb etdi;

j) adabiy muhitning o‘ziga xosligini ifodalovchi asosiy xususiyatlardan biri – badiiy asarlarning kitobat – devon, bayoz, tazkira, majmua shakliga keltirilishi va targ‘ib qilinishida namoyon bo‘ladi.

Xususan, tazkiralarda o‘sha davr ijodkorlari, jumladan, “Haft shuaro”ga kirgan shahzoda shoirlar biografiyasi va ijodiy faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Xorazm adabiy kitobatchiligi silsilasida majmualar ham muayyan mavqega ega bo‘lib, mumtoz ijodiy merosning ancha qismini o‘zida mujassam etadi. Ularning tuzilishi tuzuvchining maqsadiga, dunyoqarashi va shaxsiy mayliga hamda mavjud an’analarga rioya qilishiga bog‘liq bo‘lib, majmualar bayozlardan farqli o‘laroq, maxsus tanlangan she’rlar asosida mavzu va g‘oya yo‘nalishiga ko‘ra bunyod etiladi. Chunonchi, “Haft shuaro” majmuasidagi she’rlarda ishqiy-ma’rifiy mavzu, “Yug‘urum”

(1923) majmuasidagi she'rlarda esa inqilobiy mavzu yetakchidir. Shu bilan birga, ularda shoirlar ijodi xususidagi ayrim ma'lumotlar ham uchraydi. Mulla Bekjon tomonidan nashr etilgan "Yug'urum" majmuasining bu jihatini adabiyotshunos A.Abdug'afurov alohida ta'kidlab yozgan edi:

"Mulla Bekjon" to'plamidagi boshqa asarlar qatorida, ularning (Bayoniy, Mutrib, Safo Mug'anniy she'rlari – I.X) har biriga kichik-kichik izohlar beradi, qachon yozilgani va qaysi manbadan olib chop etilayotganligini aniq ko'rsatadiki, bu davr adabiy jarayonini hamda konkret ijodkor merosini o'rganishda, uning g'oyaviy-badiiy evolyutsiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi"[12].

Ikkinchidan, majmualarda she'r mualliflari to'g'risida, garchi qisqa bo'lsa-da, biografik ma'lumotlar uchraydi. Shu jihatdan aksariyat majmualar o'zida asosan badiiy asarlarni jamlagani sababli bayozga, qisman shoirlar haqidagi muxtasar ma'lumotlarni aks ettirgani bois tazkiraga xos xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Shuningdek, majmualar har bir shoirning faqat saylanma she'rlaridan ham tuzilishi mumkin, bayozlarda esa, odatda, she'riy parchalar cheklanmaydi, ularni qat'iy davrlashtirish tamoyiliga hamisha amal qilinmaydi.

Biz o'rganishlarimiz jarayonida XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xorazm adabiy muhitining o'ziga xos jihatlariga e'tiborni qaratdik. O'z navbatida tahlilga tortilgan "Haft shuaro" majmuasining bu davr taraqqiyotidag o'rni va ahamiyati to'g'risida mulohaza yuritdik.

Tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy tartibga soluvchilari umuminsoniy va madaniy qadriyatlar, jamiyatda amalda bo'lgan mafkuraviy, axloqiy-huquqiy talablar va normalar hisoblanadi.

Ta'lim jarayonini konseptual va dasturiy-uslubiy ta'minlashda insonparvarlik, ezgulik va adolat g'oyalariga asoslangan ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, o'z navbatida, ta'lim va tarbiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni belgilovchi respublika ahamiyatiga molik dasturiy hujjatlar asosiy rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi"yangi tahrirdagi Qonuni, oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari universitetda ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishning nazariy va uslubiy tamoyillarini belgilab beradi. Bu yerda eng muhimi qadriyatlarga sodiqlik tamoyilidir. Uni amalga oshirish shaxsning o'ziga xosligini rivojlantirishga, uning maksimal darajada o'zini o'zi anglashiga (o'zini-o'zi anglash) yordam beradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda texnika oliy ta'lim talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish yangi ma'noga ega: uni o'quv jarayoniga tatbiq etish o'zgaruvchan muhitda samarali ishlashga tayyor, professional, barkamol, raqobatbardosh bitiruvchini tayyorlashga qaratilgan moslashuvchan funksiyani ta'minlaydi. Moslashuvchan funksiya orqali universitetda talabalarni kasbiy tayyorlashning kompensatsion yoki proaktiv mexanizmi amalga oshiriladi, bu esa axborotlashtirish va globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlariga "to'siq" bo'lib xizmat qiladi[3].

Xulosa. Talaba yoshlarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda birlamchi manbalarning o'rni va ahamiyatini belgilash muhim o'rin tutadi. Texnika oliy ta'lim muassasalarida birlamchi manbalarni o'rganish asosida yaratiladigan elektron ilovalar ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishda ahamiyati beqiyos. Shunday ekan, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning didaktik ta'minotini takomillashtirishda ularni mustaqil bilim olishga undaydigan yangi samarali axborot kommunikatsiya texnologiyalarini, shuningdek, ma'naviy merosni (jumladan, "Haft shuaro" majmuasini) o'rganish orqali XIX asr Xorazm vohasining milliy-ma'naviy merosini tadqiq qilish va elektron ilovasini yaratish, majmuaning o'zbek, rus, ingliz tillarida elektron platformasini yaratish orqali talabalarda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish modelini takomillashtirish texnologiyalarini izlab topish ishlari olib borildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, " hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart."[2]

Didaktik ta'minotni takomillashtiruvchi axborot texnologiyalari umumdidaktik va maxsus tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqiladi va ta'lim jaryoniga joriy etiladi.

Bugungi kunga kelib dunyoning ta'lim rivojlangan, yangi pedagogik paradigmalarga amal qilayotgan davlatlarida o'quvchi va talabalarning ma'naviy-intellektual rivojlanishi uchun qulay madaniy muhit yaratish konsepsiyasi ilgari surilmoqda.[10]

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida takomillashtirilgan axborot texnologiyalarini joriy etish ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda

innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taqdim etadigan imkoniyatlari, vazifalarni tanlash talablari, texnologiyalarni qo‘llashning vazifalari, axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish kabi muhim masalalarga e'tiborni qaratish ta'lim sifati va samaradorligining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 dekabrda Yoshlar forumida so‘zlagan nutqi. https://yuz.uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega.

2. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil, 24-yanvar

3. O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yil O‘RQ-637-son “Ta'lim to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonuni.

4. Жук О. Л. Подходы к воспитанию студенческой молодежи в современных условиях / О. Л. Жук // Проблеми освіти: третій спец. випуск: матеріали Мижнар. навук.-практ. конф.«Проблеми професійного становлення молоді на основі духовно-моральних цінностей», Вінниця, 8–10 ліст. 2006 р., / Ін-т інновац. технолог. і змісту освіти М-ва освіти і науки України, Вінниц. соц.-екон. ін-т Ун-ту «Україна». – Київ, 2006. – С. 29–37.; Жук О. Л. Гуманизация воспитательного процесса в современном вузе / О. Л. Жук // Использование гуманистических технологий в образовательном процессе высшей профессиональной школы: сб.науч. ст. / науч. ред. И. Л. Федотенко; Тул. гос. пед. ун-т им. Л. Н. Толстого. – Тула, 2007. – С. 61–69.

5. Хажиева И.А., & Юсупов Ф. (2012). К проблеме воспитания образованного и интеллектуально развитого студента в современной социокультурной ситуации. Илм сарчашмалари, УрДУ, Урганч, (11), 89.

6. Khadjieva I.A. (2019). Development of spiritual and moral values of students on the basis of innovative technologies. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

7. Iroda KHADZHIEVA. Sultoniy ijodiyotini pedagogik texnologiyalar asosida o‘rgatish (“Haft shuaro” majmuasi asosida). Жамият ва инновациялар. 02 (2022) / ISSN 2181-1415. 266-271-b.

8. И.А.Хажиева.Дидактика гуманитарных дисциплин при создании адаптивной модели компьютерного обучения для студентов вузов технического направления. Ilm ham jamiyat.№3. 2022. 28-30-б

9. Khajieva I. The role of spiritual values in the light of the idea of the harmoniously developed person in the education process. Mintaqada zamonaviy fan, ta’lim va tarbiyaning dolzarb muammolari.№1ю 2017. 60-64-б.

10.Safarova .R.G. Mutafakkir ajdodlarimiz merosi ta’lim oluvchilarni intellektual ma’naviy va madaniy jihatdan rivojlantirirsh manbai. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. №5.2022. 15-b.

11.Xajiyeva Iroda Adambayevna. Texnika yo‘nalishidagi talabalarga inson va insonparvarlik g‘oyasini tushuntirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni. MUALLIM. №4.2022. 36-41-б.

12.Abdug‘afurov A. “Yug‘urmiya” – o‘zbekcha inqilobiy she’rlar to‘plami // O‘zbek tili va adabiyoti.T., 1988. -№5 -B.3-10

UDK 159.955.4

Kamalova Zulfiya Xasanovna
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Nafisa Akmal qizi Tojiddinova
Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy Universiteti magistranti

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA REFLEKSIYA VA UNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak psixologlarda kasbiy refleksiyaning namoyon bo‘lishi va uning ahamiyati haqida yoritib beriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda refleksiya masalasi psixologlar uchun muhim hisoblanadi. Klassik psixologik nazariyalardan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki, refleksiya tushunchasi psixologiyada shaxs o‘ziga chetdan nazar sola olishi va to‘g‘ri baholay olishidir. Bu tushuncha shaxsning hayotini belgilab beruvchi va yutuq va halokati o‘rtasida turuvchi hisoblanadi. Bo‘lajak psixologlar esa buni yaxshi tushunishi, avvalo o‘z hayotida, keyin esa boshqalarda buni shakllantirishga yordam berishi kerak. Chunki, avvalo psixolog o‘z harakatlari, fikrlari, xatolari haqida fikr yurita olsa, shundagina samarali faoliyat olib bora oladi. Shuning uchun, maqolaning asosiy mazmunini refleksiya psixologiyasi va uning ahamiyati tashkil etadi.*

Kalit so‘zlar: *refleksiya, kasb, psixolog, o‘ziga-o‘zi nazar solish, o‘z ustida ishlash, mutaxassis, metod, hayol, qobiliyat, shaxslararo munosabat.*

REFLECTION AND ITS IMPORTANCE IN FUTURE PSYCHOLOGISTS

Abstract. *This article describes the manifestation of professional reflection in future psychologists and its importance. It should be noted that today the question of reflection is important for psychologists. Based on classical psychological theories, it can be said that the concept of reflection in psychology is the ability of a person to look at himself from the outside and make a correct assessment. This concept determines the life of a person and stands between success and failure. And future psychologists should understand this well, first in their own lives, and then help to form it in others. Because, first of all, a psychologist can think about his actions, thoughts, and mistakes, then he can work effectively. Therefore, the main content of the article is the psychology of reflection and its importance.*

Key words: *reflection, profession, psychologist, introspection, work on oneself, expert, method, imagination, ability, interpersonal relationship.*

РЕФЛЕКСИЯ И ЕЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЛЯ БУДУЩИХ ПСИХОЛОГОВ

Аннотация. *В данной статье описывается проявление профессиональной рефлексии у будущих психологов и ее значение. Следует отметить, что сегодня для психологов важен вопрос рефлексии. Опираясь на классические психологические теории, можно сказать, что понятие рефлексии в психологии – это способность человека посмотреть на себя со стороны и дать правильную оценку. Это понятие определяет жизнь человека и стоит между успехом и неудачей. И будущие психологи должны хорошо это понимать сначала в своей жизни, а затем помогать формировать это в других. Потому что, прежде всего, психолог может обдумать свои действия, мысли и ошибки, тогда он сможет эффективно работать. Поэтому основное содержание статьи – психология рефлексии и ее значение.*

Ключевые слова: *рефлексия, профессия, психолог, самоанализ, работа над собой, эксперт, метод, воображение, способности, межличностные отношения.*

Kirish. Refleksiyani rivojlantirish muammosi psixologiyaning asosiy masalalaridan biridir. Bu mahalliy va xorijiy psixologik tadqiqotlar doirasida keng muhokama qilinadi. Refleksiya tuzilishini, uning rivojlanish dinamikasini o‘rganish nazariy va amaliy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi, chunki bu shaxsni shakllantirish mexanizmlarini tushunishga yaqinroq bo‘lishga imkon beradi. Bir qator eksperimental tadqiqotlarda aks ettirish nafaqat boshqa har qanday mavzuning muhim tarkibiy qismi sifatida, balki maxsus psixologik tadqiqot predmeti sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Refleksiya shaxslarda har xil davrda o‘zining yuqori darajasiga yetadi. Uning individligi buning asosiy sababidir. Lekin shaxs hayoti davomida refleksiyaning qanchalik darajada namoyon bo‘lishi uni

butun qolgan umrini qanday kechishini belgilab beradi. O‘zining ichki dunyosiga nazar sola olishi kerak. O‘zini faqat xatolarini emas balki, boshqalardan ajralib turuvchi ijobiy jihatlarini ham ko‘ra bilishi, to‘g‘ri baholay bilishi zarur. Shaxs kasbidan qat’i nazar bu dunyodagi o‘rni, o‘z xulq-atvori, xatolari-yu, fikr-mulohazalari haqida o‘ylashi kerak. Chunki refleksiya faqat o‘z kamchilik va xatolarini tahlil qilish bilan kechsa, bu uning halokati bilan tugaydi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxsning refleksiya psixologiyasini o‘rganishda, N.I.Gutkina, M.M.Mukanov, A.V.Zaxarova, M.E.Botsmanova, E.R.Novikova va boshaqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.[7]

Psixologiya manbalar nazariyasiga binoan refleksiya shaxsning o‘z xarakatlari, fikrlariga nisbatan “kuzatuvchi”, “tadqiqotchi”, “nazoratchi” shaklida bo‘lishi ifodalanadi.[4]

“Refleksiya” tushunchasi lotincha “reflectio” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib ko‘zgu degan ma’noni anglatadi. Ma’nosidan ma’lumki, bu so‘z insonga o‘ziga, o‘z harakatlari, psixik holati, faoliyatiga nazar solishga yordam beradi. Ushbu atama ilmiy foydalanishga fransuz faylasufi Rene Dekart tomonidan kiritilgan bo‘lib, o‘z fikrlari va o‘y hayollariga nazar solish, e’tibor qaratish qobiliyati bilan belgilangan. Ushbu kontseptsiyaning keyingi rivojlanishi faylasuflar Gotfrid Leybnits va Jon Lokkning qarashlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning asarlarida aks ettirish o‘zini-o‘zi bilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir.[2]

Refleksiya o‘zini-o‘zi anglash, aks ettirish bo‘lib, uni odatda ikki turga ajratib o‘rgansak birinchi tur o‘zini-o‘zi aks ettirish, ikkinchi turdagi esa boshqa subektlarga qaratilgan bo‘ladi va u insonning boshqa odamlar haqida mavjud taassurotlar haqida fikr yuritishidir. Chunki inson doimo o‘zida mavjud fikrlarni tahlil qilishi kerak. Ya’ni inson o‘zi haqida va shaxslararo munosabatlari va ularning o‘rni haqida fikr yuritishi zarur.[3]

Refleksiya shaxsning ichki dialogi hisoblanib, u individual ongni o‘zgartirishning psixologik mexanizmidir. U ichki muloqot, shaxsni yangi, yanada yaxlit holatga integratsiyalashuvi.[5]

Psixoterapevt Viktor Nurdaevning fikricha refleksiya insonga nafaqat ishda, balki, oddiy hayotda ham, masalan, oilaviy munosabatlarda ham kerak bo‘luvchi tushunchadir. Uning so‘zlaricha refleksiya “nima uchun?”, “nima maqsadda?” degan savollarga javob beruvchi va inson buning oqibatida o‘zida nima o‘zgarishlar qilishi kerakligini aniqlab oluvchi hodisadir.

Yevropa tibbiyot markazi psixologi Valeriya Moshnyatskaya shuni ta’kidlaydiki, refleksiya doim insonga rivojlanishga yordam berishi, yangi g‘oyalar manbai bo‘lib uni yuqoriga ko‘tarishi kerak[7]. Agar inson o‘z hatti-harakatlarini faqat tanqidiy baholayversa, uning o‘zini analiz qilish jarayoni faqat o‘zini kamsitish bilan ketsa, bu uning halokatiga sabab bo‘ladi.

Rus psixologiyasida refleksiyani o‘rganishga bag‘ishlangan aniq eksperimental ishlarning rivojlanishi I.M.Sechenov, B.G.Ananev, P.P. Blonskiy, L.S.Vygotskiy, S.J.Rubinshteyn va boshqa psixologlar ishlari bilan bog‘liq.[1]

Refleksiya masalasi juda nozik va muhim mavzu hisoblanadi. Aynan u tufayli, onggi tufayli inson o‘zining boshqa insonlardan va boshqa jonzotlardan mukammalroq yaratilganini tushunib yetadi. Boshqalarda bo‘lmagan noyob xususiyatga ega ekanligini anglaydi. Refleksiya nafaqat ong shakli, balki uning mavjudligi sharti, muhim qismi, ya’ni asosiy mexanizmlaridan biridir.[6]

Karen Xornining fikricha, o‘zini-o‘zi analiz qilish konsultatsiyada juda katta effekt beradi va bu barcha psixologlarga ayon. Barcha mijozlar albatta ongli ravishda o‘z xarakatlari haqida mulohaza qilishadi, lekin, ba’zida ongga ham bo‘ysunmaydigan, mijozlar o‘zlari anglamagan iqrorlarga to‘xtalish kerak. Bu esa refleksiyadir. Bu huddi kompozitor biror asar yaratish vaqtida ichki to‘sqinliklarga duch kelsa, o‘zi istasa ham buni uddalay olmasligiga o‘xshaydi. Insonlar psixologga murojaat qilsa-yu , ich-ichidan buni istamasa, refleksiya kuzatilmasa u holda u bilan ishlash hech qanday samara bermaydi.[2]

Insonlarda refleksiyaning shakllanishi har xil kechishi va namoyon bo‘lishi mumkin. Chunki bu tushuncha individual xususiyat hisoblanadi. Baholash sifatida biz inson xarakteridan kelib chiqqan holda uning ilk ko‘rinishlarini aniqlashimiz mumkin. Misol qilib shuni keltirish mumkin-ki, refleksiya yuqori shakllangan insonlar xatolaridan xulosa chiqara oladilar, agar ular sababli kimdir aziyat cheksa uzr so‘raydilar, emotsiyalarini boshqara oladilar, o‘z harakatlarini nazorat qila oladilar. Refleksiya shakllanmagan insonlar esa aksincha, doimiy tarzda bir xil xatolarni qayta-qayta bajaradilar, undan saboq olmaydilar, o‘z emotsiyalarini boshqara olmaydilar.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, refleksiya juda keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uni aslo samootsenka bilan adashtirish mumkin emas. O‘zini-o‘zi baholash insonni o‘ziga bo‘lgan ishonchi, u o‘zini qanday deb hisoblashi bo‘lsa, refleksiya esa, u o‘zini yanada yaxshiroq

tushunishi, kamchilik va xatolar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, o‘zini rivojlantirishi va yangi yechimlar o‘ylab topishidir. Refleksiyaning zarurligi ham aynan shunda. Inson o‘zini anglab yetsa, unga aynan nima kerakligini tushunib yetsagina, biror bir natijaga yetisha oladi. Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy hayotda doim refleksiya yuqori shakllangan insonlar samarali faoliyat olib boradilar. Chunki ular doim o‘zlariga nima kerakligi va ulardan nima talab qilinayotganligini yaxshi anglaydilar. Xatolar mavjud bo‘lganda ularni nima sababdan yuzaga kelganligi haqida fikr yuritadilar va keyinchalik qaytarmaslikka harakat qiladilar. Ular zararli odatlar yoki doimiy qaytariluvchi xatolarga yo‘l qo‘ymasliklari uchun ham refleksiya zarur hisoblanadi. Tarixdan ma’lumki hayotda yuqori natijaga erishgan insonlar, olimlarning dunyoqarashi keng, o‘z hatti-harakatlari haqida chuqur mulohaza yurituvchi insonlar bo‘lishgan. Bu refleksiyaning inson hayotidagi o‘rnini qanchalik muhim ekanligiga misol bo‘la oladi.

Butun tarix davomida insoniyatni sivilizatsiyaga chorlagan xususiyat ham aslida refleksiyaning ilk ko‘rinishlaridir. Agar insoniyat o‘zining hayoti, atrofdagi hayot, dunyoga aslida nimaga kelganligi, unga nima kerakligi haqida fikr yuritmaganda, balki g‘orlarda yashashda davom etardi. Bugungi rivojlangan hayot aslida refleksiyaning natijasidir. Inson hayotining doimiy yaxshilashib borishi, yoki, tanazzulga yuz tutishi refleksiyaning qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir.

Bu xususiyat ayniqsa bo‘lajak psixologlar uchun juda muhim. Ular insonlar bilan ishlash davomida, avvalo, o‘zlari va o‘z harakatlari haqida fikr yurita bilishi, xatolarini qabul qila olishi va to‘g‘irlay olishi kerak. Faqat shundagina u mijozlari va auditoriya uchun ijobiy tasir ko‘rsata oladi va yordam bera oladi. Psixolog mutaxassis sifatida inson o‘zini anglashiga yordam berishi va hayotda o‘z o‘rnini topishiga sababchi bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карпов А. В. Психология рефлексивных механизмов деятельности. — М.: Изд-во «Институт психологии РАН», 2004.
2. Хорни К. Самоанализ. - М. : Академический проект, 2009.
3. Лефевр В.А Лекции по теории рефлексивных игр. - М., 2009.
4. Лефевр В.А. Рефлексия [Сборник]. — М.: Когито-центр, 2003
5. Россохин А. В. Рефлексия и внутренний диалог в изменённых состояниях сознания: Интерсознание в психоанализе. — М.: «Когито-Центр», 2010.
6. Safaev, N., Kamalova, Z., & Ziyavitdinova, G. (2024). The Present Condition of Preparedness for the Development of Family Life. SPAST Reports, 1(1).
7. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Ziyavitdinova, G., & Kamalova, Z. (2022). The Relationship Between the Effectiveness of the Managerial Activity of an Education Manager With the Peculiarities of the Manifestation of His Communicative Potential in Uzbek System. Journal of Higher Education Theory and Practice, 22(4).

Rajabova Go‘zal Zarifovna
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

FOLKLOR AN’ANALARI ASOSIDA BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI VA IMKONIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqot ishida folklor an’analari asosida bola shaxsini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlanga va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari folklor an’analari asosida bola shaxsini rivojlantirishhning psixologik asoslari va imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek bolalarni folklor an’analari asosida qiziqishlarini o‘rganishning psixologik xususiyatlari amaliy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: hissiy-emotsional soha, folklor an’analari, pedagogik-psixologik determinantlar, o‘z-o‘zini nazorat qilish folklor, bolalar, qobiliyat, qiziqish, individuallik, empatiya.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ РЕБЕНКА НА ОСНОВЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ТРАДИЦИЙ

Аннотация. *В данной исследовательской работе выявлены педагогико-психологические особенности развития личности ребенка на основе фольклорных традиций и разработаны рекомендации. Кроме того, освещены психологические основы и возможности развития личности ребенка на основе фольклорных традиций. Также в практическом плане проанализированы психологические особенности изучения интересов детей на основе фольклорных традиций.*

Ключевые слова: *эмоционально-эмоциональная сфера, традиции фольклора, педагогико-психологические детерминанты, самоконтроль фольклора, дети, способности, интересы, индивидуальность, эмпатия.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS AND POSSIBILITIES OF DEVELOPING A CHILD'S PERSONALITY ON THE BASIS OF FOLKLORE TRADITIONS

Annotation. *In this research work, on the basis of folklore traditions, pedagogical and psychological characteristics of the development of the personality of a child are identified and recommendations are developed. In addition, on the basis of folklore traditions, the psychological foundations and possibilities of developing a child's personality are highlighted. Also, the psychological features of studying the interests of children on the basis of folklore traditions have been practically analyzed.*

Key words: *emotional-emotional sphere, folklore traditions, pedagogical-psychological determinants, self-control folklore, children, ability, interest, individuality, empathy.*

Kirish. Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni folklor an’analari orqali shaxslilik sifatlarini shakllantirish, empatiya, ijtimoiylashuv, shuningdek, kreativlik xususiyatlarini rivojlanishida adaptiv va interaktiv texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, bolalarning o‘zini va o‘zgalarni anglashi, xalq og‘zaki ijodi, milliy qahramonlar siymosini anglash ko‘nikmalarini egallashi, badiiy tasavvur va tafakkurini rivojlantirish, mashg’ulotlarda axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta’limda nazariya hamda amaliyot uyg‘unligini ta’minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor berilmoqda. Bolalarni axloqiy-ma’naviy tarbiyalashni aynan ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirishdan boshlash zarur. Zero, muloqot ishtirokchilari suhbatdoshlarining hissiy holatini anglamasa, o‘zlarining hissiyotlarini samarali boshqarishni bilmasa, hech qanday muloqot, o‘zaro ta’sir ijobiy natija bermasligi mumkin. O‘zining hissiyotlarini tushunish, anglash o‘sib kelayotgan shaxsning shakllanishida muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbek xalqi folklor an’analari o‘zining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan boshqa xalq og‘zaki ijodining turlariga nisbatan alohida jozibadorlik va ta’sirchanlik kasb etadi. Xalqimiz o‘zining ijtimoiy, ma’naviy taraqqiyotining har bir bosqichida, uning turfa ko‘rinishlari, urf-odat va marosimlariga atab juda ko‘plab namunalarini yaratgan. Bu esa, uzoq o‘tmishdan madaniy va ma’rifiy jihatdan o‘ziga xos an’anaga aylanib kelgan xalq hayotining turli qirralarini badiiy estetik ifodasi sifatida, an’anaviylik asosida avloddan-avlodga o‘tib, kishilar tarbiyasiga bevosita yoki bilvosita kuchli, badiiy-emotsional ta’sirini ko‘rsatib kelgan.

O‘zbek xalqining boy folklor merosi xazinasida katta yoshdagi kishilar dunyoqarashi bilan kichik yoshdagi bolalar ma’naviy olamini o‘zida mujassamlashtirgan bolalar folklor an’analari (aksariyat o‘yin bilan uzviy bog‘liq holda ijro etiluvchi) salmoqli o‘rin tutadi [4].

Folklor an’analari mazmunida bolalarning o‘ziga xos quvnoq, o‘yinqaroq, sodda va beg‘ubor hayoti, dunyoqarashlari, bolalarbop o‘yinlar, aytishuvlar va muayyan voqelik bilan bog‘liq jarayonlarni ifoda etilishi bilan o‘ziga xos xususiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Olimlaridan T.V.Anoxin, A.G.Asmolov, B.G.Ananyev, Y.M.Antanyan, G.A.Berulava, A.K.Belousova, I.V.Dubrovina, L.S.Vigotskiy, G.M.Ivashenko, A.A.Kibireva, I.B.Kotova, L.V.Lidak, L.A.Petrovskaya, T.P.Skripkina, T.N.Sherbakova kabilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda «Men»likning ifodalanishi, ularning shaxs sifatida shakllanishida folklor an’analaridan foydalanishning muhim rolini ta’kidlashgan.

Xorijiy olimlar tomonidan maktabgacha ta’lim borasida qator izlanishlar amalga oshirilgan, jumladan, J.Dyui, A.Maslou, Z.Freyd, T.Parsons, J.Piaje, P.Ekman, M.Klinnert, S.Xarter va boshqalarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish, o‘zini-o‘zi bilish, his-tuyg‘ularini tushunish, tasavvur darajasi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va his-tuyg‘ularini boshqarish, munosabatlarni tartibga solish, muloqot qobiliyatlari, empatiya, boshqalarning his-tuyg‘ularini qabul qilish, ijtimoiy tarbiya muammosi masalalari, ijtimoiy-hissiy rivojlanish borasida sharhlar bayon qilingan.

Biz jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining ijtimoiy-psixologik tahlili paragrifida tarbiya masalisi bo‘yicha ko‘plab konsepsiyalar ishlab chiqqan davlatlar Amerika, Germaniya, Fransiya, Angliya, Italiya, Gollandiya, Finlandiya, Shvetsiya, Yaponiya, Koreya, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Ozarbayjon kabilarni o‘smir tarbiyasiga qaratilgan konsepsiyalari, yondashuvlari bo‘yicha tajribalarini o‘rgandik va ularni o‘zimizning mavzuimiz doirasida izohlantirib bordik.

Yuqoridagi biz tomonimizdan tahlil qilingan davlatlarni milliy tarbiya masalasiga ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-pedagogik jarayon deb qaragan va bola tarbiyasida ijtimoiy psixologik omillar, jumladan oila, multfilm, xalq og‘zaki ijodi namunalari: ertak, afsona, rivoyat, maqol va topishmoqlar, kino-filmlar, jamiyat (atrofidagi odamlar, millatidagi ijtimoiy norma va odatlar), OAV kabilar o‘rganilgan.

Yevropa Ittifoqining ta’lim tizimini yangilash, ijtimoiy buyurtmaga yaqinlashtirishga qaratilgan tavsiyalarida ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mustaqil hayotga, konstruktiv amaliy faoliyatga tayyorlik sifatini baholashga kompetentli yondashuvni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi. Rossiya Federatsiyasida kompetentlilikka yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish 2001-yildan amalga oshirildi.

Ijtimoiy kompetensiyalar – har bir insonning kundalik hayotda duch keladigan yoshiga mos vazifalar hamda shu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalar tengligidir. (D.H.Dodd, R.M.White) [3].

Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni etib yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlar belgilab olinadi va amal qilinadi. O‘smir tarbiyasi “Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish” g‘oyasi asosida tashkil etiladi. O‘smir shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg‘un tutishga o‘rgatib boriladi.

AQShda fuqaro tarbiyasida shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o‘z aqli va iste’dodi bilangina yetishadi, kimgadir va nimagadir orqa qilish emas, balki o‘z kuchiga tayanish, milliy g‘oya vazifasini bajaruvchi “amerika orzusi”ga ishonch kabi fazilatlar yetakchilik qiladi. “Amerika orzusi”ning asosiy tushunchalarini shaxs erkinligi, erkin tadbirkorlik, demokratiya, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan mehnat tashkil qiladi.

«Amerika – 2000: ta’limni rivojlantirish strategiyasi» dasturida yetuk shaxsga xos fazilatlar sifatida rostgo‘ylik, maqsadda sobitqadamlik, to‘g‘rilik(ro‘y-rostlik), puxtalik va shaxsiy mas’uliyatga ustuvorlik berildi. Shuningdek, yosh amerikaliklarda jasurlik, fidoyilik, barqarorlik, qat’iylik, tirishqoqlik, hamdardlik, bag‘rikenglik singari asosiy fazilatlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan [7].

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi erkinlik bola tarbiyasida ham o‘z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 o‘smirida o‘yinchoqlarning barxa turi bilan tanishishadi, ko‘pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalari bir marotaba o‘ynalgan o‘yinchoqlar bilan to‘lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go‘dakligidanoq amerikalik bolakaylar «Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisan”, degan so‘zlarni har kuni eshitgan holda ma’nan va jismonan o‘sib boraveradi.

Maqsad – mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: «Yana bir marotaba harakat qilib ko‘r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo‘rsan!» deya qo‘llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o‘zining mevasini beradi.

Amerika tarbiyasi: Bolakay, sen zo‘rsan! Oiladagi ta’lim amerikaliklar uchun hali ham muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar, hatto band bo‘lganlarida va ma’lum bir ish bilan band bo‘lsalar ham, farzandlariga iloji boricha ko‘p vaqt sarflash, ularning muvaffaqiyat va rivojlanishlari bilan qiziqish, o‘zlarining sevimli mashg‘ulotlariga va muammolariga e’tibor berishga o‘zlarini burchli deb hisoblaydilar. Tabiatga bag‘riga tashrif buyuradigan oilaviy sayohatlar, ekskursiyalar, pikniklar, kamida muntazam ovqatlanish – ko‘plab Amerika oilalarining hayotining ajralmas qismi.

Bolaning ilmiy yutuqlari (masalan, o‘qish yoki yozishni erta boshlash) Amerikalik ota-onalarga juda ozdir. Vaqti kelganda, bola bu bilimlarning barchasini albatta bilib olishi mumkin.

Hatto juda boy amerikaliklar ham o‘z farzandlari uchun maxsus issiqxona sharoitlarini yaratishga moyil emaslar. Axir, bolalar bunday "kuch tejash rejimiga" hayotni yashash uchun olmaysiz, ular o‘g‘illari va qizlari kundalik hayot tarziga ko‘nikib mustahkamlash uchun zarur bo‘lgan, shuning uchun, bozor sharoitlari va raqobatga moslashish kerak.

Amerika qonunchiligi bolalarning jismoniy jazolanishini ochiqchasiga taqiqlamaydi, ammo jamiyatda bunday qarashlar ta’lim sohasidagi tadbirlar o‘tmishning ajralmas qismidir va ularni qo‘llayotgan ota-onalarning aqliy va axloqiy darajasi pastligidan dalolat beradi [7].

Itoatsiz go‘daklar uchun jazo sifatida o‘yin-kulgilardan, shirinliklar, o‘yinchoqlar va boshqa lazzatlar jazolanadi, lekin agar bola bu haqida boshqalarga shikoyat qilsa, ota-onaning bunday xatti-harakati (jismoniy yoki ma’naviy zarar keltirishi mumkin bo‘lgan noqonuniy harakatlar) deb hisoblanishi mumkin. Oxir-oqibat, bolani noto‘g‘ri yo‘l tutganligiga ishonch hosil qilishning eng yaxshi usuli – bu gapirish.

Har qanday jazo uning sabablarini batafsil tushuntirish bilan birga bo‘lishi kerak, deb hisoblanmoqda. Bir qarashda bu yondashuv juda murakkab va samarasiz bo‘lib tuyulishi mumkin, bu bolalarning ruxsatisiz kechishiga olib keladi, ammo amalda bu usul bolalar va ota-onalarni tarbiyalaydi.

Shaxs rivojlanishining ushbu nazariyasi o‘z davrida bir talay tanqidiy mulohazalar manbayi vazifasini o‘taydi, chunki inson zotidagi rivojlanish bosqichlari filogenezni aynan takrorlamaydi va takrorlashi ham mumkin emas.

K. Levin “Fazoviy zarurat maydoni” nazariyasini ilgari surib, individning xulqi psixologik kuch vazifasini o‘tovchi ishtiyoq, maqsadlar bilan boshqarilib turiladi va ular fazoviy zarurat maydoniga yo‘naltirilgan bo‘ladi degan g‘oyani ilgari surgan [8].

Yuqorida ifodalangan har bir nazariya shaxsning ijtimoiy xulqini o‘zgalar uchun yopiq yoki maxfiy muhitning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tushuntiradi, bunda u odam xohishi yoki xohlamasligidan qat’i nazar, mazkur sharoitga moslashmog‘i (ko‘nikmog‘i) zarur, degan qoidaga amal qiladi. Bizningcha, barcha nazariyalarda inson hayotining ijtimoiy-tarixiy, obyektiv shart-sharoitlari mutlaqo e’tiborga olinmagan.

R.Parka, G.Zimmelya, va R.Lintonalar shaxs taraqqiyotida “Rollar nazariyasi”ni yaratgan. Ushbu nazariyaning mohiyatiga binoan jamiyat o‘zining har bir a’zosiga status deb nomlangan xatti-harakatning barqaror usullari majmuasini taklif qiladi. Inson ijtimoiy muhitda bajarishi shart bo‘lgan maxsus rollari shaxsning xulq-atvor xususiyatida, o‘zgalar bilan munosabat, muloqot o‘rnatishida sezilarli iz qoldiradi [6].

Mualliflarning shaxsni ijtimoiy muhitga bog‘liq hamda shaxslararo munosabat va xulqning roli ushbu jarayonda muhim omil hisoblanishini ta’kidlab, shaxsni ijtimoiy roli jihatidan o‘rganishni taklif etishi muhim ahamiyatga ega.

E.Torndayk va B.Skinnerlar tomonidan “Individual tajriba va bilimlarni egallash nazariyasi” ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaga binoan shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko‘pincha ko‘nikmalarni egallashi va bilimlarni o‘zlashtirishning samarasi qo‘zg‘atuvchini uzliksiz ravishda mustahkamlanib borishi mahsulidir [7].

Ushbu nazariya vakillari shaxsning hayoti va uning voqelikka nisbatan munosabati ko‘pincha uning hayotiy ko‘nikmalarni egallashi va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida sodir bo‘lishini isbotlashga harakat qilgani bilan muhim ahamiyatga ega.

Tahlil va natijalar. Erta inkulturatsiya jarayonida o`zbek bolalar folklorining rolini o‘rganishda bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish kerak:

- bolalik fenomenini o‘rganish; folklorshunoslikning umumiy muammolarini tahlil qilish;

- o`zbek bolalar folklorining yuqori ixtisoslashtirilgan tadqiqotlari;
- bolalik davriga nisbatan stereotiplar nazariyasini ishlab chiqish[6].

Bolalar folklori folklor janrlari blokiga quyidagilar kiradi, jumladan:

1) kattalarning bolalar uchun ijodi, jumladan: hazillar, ertaklar, maqollar, matallar;

2) bolalar tomonidan o‘rganilgan an’anaviy kattalar madaniyati asarlari: qo‘shiqlar, sanamalar, o‘yinlar, hazillar, masallar, guldur-guplar, topishmoqlar, masxaralamalar va maqollar;

3) mustaqil bolalar ijodiyoti.

An’anaviy bolalar folkloriga XX asrgacha shakllangan matnlar kiradi. Arxetiplar instinktiv xatti-harakatlarga yo'naltirilgan o‘ziga xos kognitiv naqshlar, apriori shakllar bo‘lib, ular orqali emas, balki biologik (genetik) meros bo‘lib o'tadi.

Biz ushbu tadqiqotimizda “Oila rasmi” testidan foydalandik**.** Eston psixologi G.Xomentauskas tomonidan ishlab chiqilgan “Oila rasmi” testi kattalarga dunyoni bola ko‘zi bilan ko‘rishga yordam beruvchi vositadir. Bu test bolaning oilasi haqidagi tasavvurlari, oila a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli hayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi.

Bu metodika bolaning o‘z oilasi haqida tasavvurlari, oila a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlari, bola nimalarni idrok qila olmasligi, nimalarni kuchli hayajon bilan his qilishi haqida tushuncha beradi. Nimalar bolani ongsiz ravishda xavotirga solsa, xuddi shu narsalar bolalarning rasmlarida ifodalanadi.

Oila rasmi bola shaxsining psixologik portretidir. Bu testni 3 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarda qo‘llash mumkin. Psixologlar bu metodikadan bolaning “Men”ini o‘rganish maqsadida foydalanadilar. Ushbu metodikani o‘tkazish hamda amaliyotda qo‘llash qulay va ommabop.

Ushbu ishimizning obyekti maktabgacha ta’lim tashkilotining katta guruhlaridagi 5-6 yoshli bolalardir. Tadqiqot o‘tkazishimizdan maqsad folklor an’alarini orqali bola shaxsiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar ya’ni xavotirlanishi yuqori bo‘lgan bolalarni aniqlash hamda ularga o‘ziga xos psixologik yordam ko‘rsatish.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda muloqotning yangi motivlari paydo bo‘ladi, bu shaxsiy va yangi g‘oyalar motividir. Bolalardagi muloqotga bo‘lgan ehtiyoj bolani xavotirga solayotgan ichki muammolar bilan bog‘liqdir[5].

Bolalarning shaxsini tadqiq qilish murakkab jarayon bo‘lib, aksariyat metodlar katta yoshli odamlarga mo‘ljallangan va bolani o‘z-o‘zini tahlil qilish imkoniyatlariga asoslanmagan. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar psixodiagnostikasini tadqiq qilishda faqat maxsus proyektiv metodlar ya’ni bolani hissiy-shaxsiy motivlari va xavotirlanish holatlarini o‘rganish mumkin. Ekspert sifatida bolani yaxshi biladigan tarbiyachilari yoki ota-onalari bilan ishlash bolaning shaxs sifatlariga baho berish imkoniyatlarini oshiradi.

Bolalar bilan diagnostik tekshiruvni boshlashdan oldin ular bilan suhbat tashkil etish tavsiya etiladi. So‘rov usullaridan foydalanilganda, bolalar uchun tushunarsiz, noaniq va uzoq savollardan qochish kerak. Savollar boladan tizimli javob olinmaydigan holda bo‘lgani ma’qul. Bola barcha vazifalarni o‘yin sifatida qabul qilganda o‘yin muhiti ularning dam olishiga yordam beradi, stressli vaziyatlarni kamaytiradi. Agar bola bezovtalanib, javob berishdan xavotirga tushsa, u holda eksperimentatorga emotsional yordam kerak bo‘ladi. Bunday vaziyatda bolani quchoqlab, erkalatib, mehrli ovozda ishonch bildirishi u buni uddalay olishini ta’kidlashi lozim.

Shunday qilib biz tegishli ilmiy adabiyotlar tahlili va o‘z kuzatishlarimizga asoslangan ilmiy-tadqiqiy mulohazalar bugungi kunda uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, ayniqsa, boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanmish maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarning xavotirlanish holatlarini o‘rganish va tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Xulosa va tavsiyalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish vositasi sifatida xalq og‘zaki ijodidan foydalanish imkoniyati aniqlandi va uning bolalarning ijodiy rivojlanishi jarayoniga ijobiy ta’siri o‘rganildi. Bolalar ijodiy faoliyatini xalq og‘zaki ijodi orqali shakllantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan nazariy asoslarning samaradorligini isbotlab berdi, ular bir-biriga bog‘langan uchta bo‘g‘inning birligini ifodalaydi: xalq og‘zaki ijodi asarlarini hissiy va estetik idrok etish tajribasini boyitish; turli janrdagi folklor asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari va ularning tasviriy va ifodali vositalari haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirish; badiiy va ijodiy faoliyatning integratsiyasi o‘rganildi.

Bolalar hissiy holatlari real borliqni obyektiv aks ettirish uchun bolalar hayotida muhim rol o‘ynashi, boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabatlar, ularning xatti-harakatlari maktabgacha yoshdagi bolalar hissiyotlari shakllanishi uchun muhim manba hisoblanishini nazarda tutgan holda ota-onalar,

tarbiyachilar hamda bolalar o‘rtasida izchil va iliq emotsional munosabatlar o‘rnatish maqsadga muvofiq bo‘lar bedi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr. - Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. - 48 b.

2. Асмолов А.Г. Личност как предмет психологического исследования. М.: Ин-т практ. псих., Воронеж, 2006. - 768 с.

3. Астапов В.М. Функционалный подход к изучению состояния тревоги. // Психологический журнал. - №5. - 2002. - С. 111-117

4. Божович Л.И. Личност и ее формирование в детском возрасте. - М., 2008. - 464 с.

5. Бодалев А.А. Восприятие и понимание человека человеком /Монография. – М.: Издателство МГУ, 2002, – 200 с.

6. Hasanov A.SH., Qudratov I. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ashula darslari uchun Programma. -T.: O‘zb. Xalq ta’limi vazirligi, 1990. -32 b.

7. Alaviya M., Ro‘zimbaev S. Oq olma qizil olma. -T.: G‘ofur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashryoti, 1983. -115 b.

8. Gowan, J.C., Demos, G.D., Torrance, E.P. (ed. 5). Creativity: Its Educational Implications. N. Y.: John Wiley & Sons, 2007.

Ortiqov Sirojiddin Sa'dullayevich
Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tadqiqotchisi

O'SPIRINLARDA HUQUQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shaxsda huquqiy ongni shakllantirish – psixologik va pedagogik tadqiqot muammolari va o'spirinlarda huquqiy ongni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni amaliy tadqiq etish hamda ijtimoiy-psixologik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari o'spirinlar huquqiy savodxonligining psixologik komponentlari bilan huquqiy ong shakllarining o'zaro aloqadorligini nazariy jihatdan asoslangan.*

Kalit so'zlar: *ong, individuallik, psixologik xususiyatlar, determinism, huquqiy savodxonlok, ehtiyoj, motiv, munosabat, optimallashtirish, o'spirin, kuzatish, suhbat metodi, huquqiy ustanovka.*

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВОСОЗНАНИЯ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В данной статье разработаны проблемы психолого – педагогического исследования формирования правосознания у личности и предложения-рекомендации по практическому изучению социально-психологических особенностей и совершенствованию социально-психологических аспектов развития правосознания у подростков. Кроме того, теоретически обосновано взаимодействие форм правосознания с психологическими компонентами юридической грамотности подростков.*

Ключевые слова: *сознание, индивидуальность, психологические особенности, детерминизм, юридическая грамотность, потребность, мотив, отношение, оптимизация, подросток, наблюдательность, метод разговора, правовая установка.*

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF LEGAL CONSCIOUSNESS IN ADOLESCENTS

Annotation. *This article develops proposal – recommendations for the formation of legal consciousness in a person-problems of psychological and pedagogical research and practical research of socio-psychological characteristics of the development of legal consciousness in adolescents, as well as improvement of socio-psychological aspects. In addition, adolescents are theoretically based on the interaction of forms of legal consciousness with the psychological components of their legal literacy.*

Key words: *mind, individuality, psychological characteristics, determinism, legal literacy, need, motive, attitude, optimization, teenager, observation, conversation method, legal ustanovka.*

Kirish. Dunyo miqyosida sivilizatsiyalashgan jamiyat uchun huquqning asosiy ustunligi aynan fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy faolligini rivojlantirishdan iborat bo'lib, noqonuniy faoliyatni oldindan bartaraf etishning asosiy usuli, jumladan, «...axborot savodxonligi va huquqiy savodxonlik...inson huquqlari va faol fuqarolik kontekstida bir-biriga ta'siri»ni ta'minlashga zarurat tug'ilmoqda. Bu borada jamiyatda huquqiy bilimga ega, ijtimoiy jihatdan yetuk, erkin shaxsga muhtojlik, ko'plab ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarda yoshlarda huquqiy ongni rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning ortishi, huquqiy normalarni qanday o'rgatish, ularni tushuntirish va amalga oshirish mexanizmlarini tizimli tartibga solishni takomillashtirish masalalarini tadqiq etish dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Jamiyat taraqqiyotida huquqiy madaniyatni hozirgi davr talab va darajalaridan kelib chiqqan holda rivojlantirish har bir insonning kelajakka bo'lgan ishonch va e'tiqodini kuchaytirishga, har taraflama – ham ma'nan, ham ruhan, ham huquqiy jihatdan yetuk bo'lib yetishishiga xizmat qiladi. Yurtimizda hozirgi kunda sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash natijasida xalqimizning erkin va farovon yashashi, yurtimizning tinch-osoyishtaligi hamda taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan maqsadlar tashkil qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimiz aholisining har tomonlama komil inson bo'lib yetishishlari uchun ularda huquqiy ong va huquqiy savodxonlikni yuksaltirish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Ma’lumki, kelajagimiz vorisi bo‘lgan yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini oshirish, ularga bolalik davridan boshlab huquqiy qarashlarini, davlat oldidagi farzandlik burchi, mas’uliyati, huquq va majburiyatlari to‘g‘risidagi ilk tushunchalarini shakllantirib borish bugungi kundagi asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Chunki huquqiy bilim va madaniyatga ega bo‘lgan xalq hamda millat o‘zini o‘zi anglab yetadi, kuchi va imkoniyatlariga ishonch tuyg‘usi shakllanadi. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, aholining huquqiy ongi va huquqiy savodxonligini oshirish va uning ustuvorligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi uchun ham mazkur muammoning o‘rganilish tarixiga nazar tashlash, uning sohaga oid fanlar, jumladan falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda tadqiq etish holatlarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda fuqarolarning huquqiy savodxonlikni ta’minlash borasidagi psixologik tadqiqotlar ko‘lami kam darajada tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarda huquq psixologiyasining ba’zi muammolarini psixolog olimlardan M.X.Axmedova, Ye.Yu.Agzamova, B.Jo‘raev, N.G‘.Kamilova, G‘.A.Normurodov, B.M.Umarov, V.G.Shepotkin, U.D.Qodirov va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan. Tahlil ko‘rsatadiki, respublikamizda huquqiy savodxonlikni ta’minlashning psixologik muammolaridan ko‘ra, boshqa yo‘nalishlar, ya’ni, jinoiy xulq-atvor xususiyatlari, huquq-tartibot yo‘nalishi xodimlari faoliyati psixologiyasi masalalari tadqiq etilgan, lekin aynan o‘spirinlarda huquqiy bilimlarni shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ilmiy muammo sifatida o‘rganilmagan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan S.N.Aleksandrova, S.SAlekseev, V.Vasilev, O.B.Yermakova, A.M.Kunijev, M.M.Molonova, O.V.Martishin, Yu.V.Orexova, O.N.Panteleeva, S.A.Shediy, T.N Shamaeva, Ye.A.Pevsova, N.I.Xabibulina, A.F.Cherdansev va boshqalar huquqiy ong, huquqiy savodxonlik, huquqiy tushunchalar shakllanishi xususiyatlarining pedagogik-psixologik yo‘nalishlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan, lekin o‘spirinlarning huquqiy savodxonligini psixologik shakllanish xususiyatlari maxsus ilmiy tadqiq etilmagan.

Bugungi sotsial-iqtisodiy, sotsial-madaniy va huquqiy shart-sharoit jamiyat oldida ta’lim oldida muhim talablarni qo‘ymoqdaki, unda o‘quvchi shaxsini jamiyatning huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga hamohang tarzda o‘quvchilar bilimini o‘stirish, huquqiy jihatdan savodxonligini ta’minlash, qonunda belgilangan huquq me’yorlariga amal qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgandir. Ta’limning har bir bosqichida o‘quvchilarda huquqiy savodxonlikni ta’minlash fan doirasidagi bilimlarni o‘zlashtirish va faoliyatini ongli boshqarishga o‘rgatishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirishda esa ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida huquqshunoslik faniga doir bilim va tushunchalarni shakllantirish muhim o‘rin tutadi. Huquqiy tushunchalarni o‘zlashtirish asosida shaxs jamiyat va o‘z manfaatlarini qonuniy jihatdan boshqarishning negiziga ega bo‘lishi, qonun, huquq normalaridan chetga og‘ishmaslikka o‘rgatishdan iborat masalani ta’minlash g‘oyasini o‘zida mujassamlashtiradi.

Yuqoridagi keltirilgan izohlarda huquqiy bilimlar, huquqiy tushunchalar shakllanishida tushunchalarning o‘rni va ahamiyati, uning mazmun-mohiyati va shaxs ongining rivojlanishida tutgan o‘rnini ko‘rishimiz mumkin. Tushuncha qanday tasavvurga ega bo‘lishimiz doirasidagi ma’lum umumlashtirilgan munosabatlarning majmui keltirilgan. Endi asosiy e’tiborni huquqiy tushunchalarni shakllantirishning falsafiy talqiniga aniqlik kiritish qaratamiz. Chunki huquq metodologlari huquqiy bilimlarni shakllantirish huquqshunoslik fani predmeti mazmunini aniqlashtirish hisobida ta’minlashini qayd etadilar. Mazkur muammoni hal etishda turli mualliflik yondashuvlari bo‘lishi, tabiiy. Huquqiy bilim va tushunchalarning shakllantirishning metodologik masalalari ma’lum tadqiqot yo‘nalishlarida olib borilgan (A.M. Vasilyeva, V.S. Nersesyansa, A.S. Ioffe, Yu.G. Tkachenko, A.F. Cherdanseva) [146].

Yuqorida mualliflarning nomlari keltirib o‘tilgan ayrim tadqiqotlarda huquqiy bilim va tushunchalar shakllanishining metodologik masalalarida cheklanishlar mavjud. Huquqiy voqelikni o‘z fani doirasida tadqiq etishga to‘g‘ri keladi. Shu sababli huquqning to‘laqonli nazariy tasvirini huquqshunoslik ta’minlaydi. Ushbu ma’noda A.M.Vasilyev quyidagicha izohlaydi: “davlat va davlat huquqi nazariyasidagi kategoriyalarda huquq “o‘z-o‘zi bilan” aynan qo‘llanadiki, boshqa ijtimoiy fanlardagi tushuncha va kategoriyalarda” “boshqalar bilan” tufayli davlat va huquqning iqtisod, siyosat, madaniyat, axloq va boshqalardagi qo‘llashning tomonlari va chegaralariga o‘tishini yoritib beradi”.

S.S.Alekseyevning ta’kidlashicha, huquqshunoslik huquq tushunchalarini shakllantiradi va bu tushunchalarning tizimini ilmiy predmet darajasigacha bo‘lgan tushunchalarga belgilab beradi [6].

V.S. Nersesyans huquqshunoslikning predmeti va “predmet birligi”ni muhokama qilish asosida, “Huquqiy tushunchalar majmui qachonki, huquqiy ma’noli boshlang‘ich tushunchalar, huquqiy tushunchalarni kelib chiqish asosida abstrakt ko‘rinishdagi tasavvur va yaxlit huquq fanida tushunchalarni tizimida konkretlashganda ziddiyatsiz tizimni hosil qiladi”, deb yozgan edi.

Yuqoridagi mulohazalar asosida huquqiy tushunchalarning tuzilishi har xil prinsipga ko‘ra tushunchalar tarkibiga ega bo‘ladi. Shu sababli ham tushunchalar fundamental va amaliy, abstrakt va konkret, qonunchilikda mustahkamlangan va mustahkamlanmagan singari tushunchalarga ajratiladi.

A.M.Vasilyev izlanishlarining ko‘rsatishicha, tushunchalarning shakllanishi huquq nazariyasi tushunchalari sohasi to‘rtta asosga ko‘ra tarkib topishi keltirilgan. Ularni quyidagicha ajratib ko‘rsatgan:

- yangi huquqiy kategoriyalarning shakllanishi;
- mavjud huquqiy kategoriyalarni aniqlashtirish, chuqurlashtirish va rivojlantirish;
- huquq nazariyasi kategoriyalaridan uning mantiqiy darajasiga mos emaslarini tarmoqlashtirish;
- o‘zini ishlatib bo‘lingan eski kategoriyalarni chetlatish [6].

Ye.M.Plyusninaning izlanishlarida 20-asrning boshlarida Rossiyada boshlang‘ich ta’limda savodxonlik fenomeni masalasi o‘rganilgan. Tadqiqotchi boshlang‘ich sinflarda savodxonlikni o‘zlashtirish asoslari shakllantirishda individual stereotip va aksiologik yo‘nalish bo‘yicha o‘quvchilarning nutqiy faoliyatining o‘ziga xos ahamiyatini yoritgan. Pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda boshlang‘ich savodxonlikni egallashning integrativ modelidan foydalanish o‘qitishni takomillashtirishning samarali vositasi sifatida asoslangan.

O.G.Sorokaning tadqiqotida uslubiy vositalardan keng foydalanish asosida shakllangan mantiqiy va algoritmik savodxonlik elementlari yosh o‘quvchilarning o‘quv jarayoni va ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun juda muhimligi, turli xil mantiq turlari, algoritmlash qoidalari, rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasi qoidalari asosida mantiqiy va algoritmik savodxonlik elementlarini shakllantirish, mantiqqa tayanib o‘qitish (taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirish), mantiqiy usullar orqali o‘qitish (tushuncha, hukm, xulosa chiqarish), algoritmlash ko‘nikmalarini rivojlantirish (tushuncha xususiyatlarini aniqlash, xususiyatlarni tuzish, grafik ko‘rsatish, algoritmni o‘zgartirish)larni o‘z ichiga olgan mantiqiy va algoritmik savodxonlikni shakllantirish modeli ishlab chiqilgan.

Muhokama va tahlil. Bir qancha huquqshunoslar huquqiy savodxonlik tarkibiy tuzilishi, funksiyalari, mazmuni bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan. Huquq sohasida huquqiy savodxonlik masalasida asosan insonlarga huquqiy bilimlarni berish, huquqiy ongini oshirishga qararatilgan bir qancha ilmiy-amaliy ishlar amalga oshirilgan. Bunday amaliy ishlarda bevosita maxsus ishlab chiqilgan huquqiy savodxonlik dasturlari muhim o‘rin tutadi. Mazkur dasturlarning uchta asosiy maqsadi bo‘ladi:

1. Ta’limiy.
2. Malakaviy.
3. Tanqidiy.

Insonlardagi huquqiy savodxonlikni oshirishning ijobiy jihatlari yuzasidan L.Xanter quyidagilarni keltirib o‘tadi:

1) o‘z majburiyatlari va huquqlarini to‘g‘ri anglaydi.

2) ziddiyatning huquqiy ziddiyat ekanligini ajrata olish yoki ziddiyatga huquqiy yechim topa olishni biladi;

3) muammoli holatlarni oldini olishda zaruriy xatti-harakatlarni amalga oshirish yoki buning imkoni bo‘lmasa o‘zini munosib tuta bilish ko‘nikmasini rivojlantiradi;

4) qonun va huquq bo‘yicha ma’lumotlarni qayerdan, qay tarzda olishni biladi;

5) malakali huquqiy yordam olishni biladi;

6) huquqiy institutlarning faoliyatini tushuna olish kabi malaka va xususiyatlariga ega bo‘la olish imkonini beradi.

Yuqoridagi natijalar faqat shaxsda huquqiy bilimlarni oshirish dasturlarining vazifalari to‘g‘ri qo‘yilgandagina amalga oshishini huquqshunoslar va pedagog-huquqshunoslar ta’kidlashadi. Odatda huquqiy savodxonlik dasturlariga quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsad qilib qo‘yiladi:

- savodxonlikni oshirish hamda o‘z salohiyatini rivojlantirish;
- huquqshunoslar va pedagog-huquqshunoslarni tarbiyalash;
- jamiyatga ta’lim berish hamda huquqiy imkoniyatlarni kengaytirish;
- huquqshunos-talabalarni o‘z sohalari bilan amaliy tanishtirish;
- jamiyat jipsligini oshirish va huquqiy bilimlarni eng quyi qatlamdan shakllantirish.

Huquqiy savodxonlikning muhim natijalaridan biri bu huquqiy madaniyatdir. Aynan huquqiy savodxonlikning rivojlanishi yuksak huquqiy madaniyatni shakllanishiga sabab bo‘ladi. Mazkur masalada bir qancha mutaxassislar o‘z izlanishlarini olib borishgan. Shunday ishlarda huquqiy savodxonlik madaniyati uchta tarkibiy qismga ajratiladi:

1. Moddiy.
2. Informatsion (axborotli).
3. Subyektiv.

Ta’kidlash joizki, huquqiy madaniyatning moddiy qismi davlat - huquqiy tashkilotlar, huquqiy institutlar, huquqiy-ijtimoiy munosabatlarning huquqiy texnologiyalari va moliyaviy asoslar bilan shakllanadi. O‘z navbatida informatsion qism esa tarkibiga tarixiy, mantiqiy hamda dalillarga asoslangan huquqiy axborotlar bazasini qamrab oladi. Qolaversa, aynan huquqiy madaniyatning informatsion qismi huquqiy munosabatlarning asosi hisoblanuvchi huquqiy ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va yetkazish jarayonlarini ham o‘z ichiga oladi. Huquqiy madaniyatning subyektiv qismi esa subyektning huquqni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan antropologik tuzilishi va organik holatini o‘z ichiga oladi. Bu insonlarning, insonlar guruhlari va jamiyatning ma’lum qatlamlari huquqiy madaniyatining normalarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojlari va imkoniyatlarini, shuningdek jamiyatda huquqiy xulq-atvorni ta’minlaydi.

A.P.Semetko fikriga ko‘ra esa huquqiy madaniyatning tarkibiy elementlari shartli bo‘lib, huquqiy faoliyatda doim ham namoyon bo‘lavermaydi.

B.I.Karipbayev huquqiy madaniyatning tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tadi:

1) huquqiy matnlar(huquqiy kuchga ega xujjatlar va matnlar);
2) huquqiy faoliyat(nazariy va amaliy);
3) huquqiy bilim(o‘zida kognitiv, emosional, ustanovka kabi komponentlarni mujassam etgan);
4) huquqiy madaniyat tashuvchisi(jamiyat, sinflar, millatlar, xalqlar, kollektiv, shaxslar).

Xulosava tavsiyalar. Inson huquqlarini himoya qilish, aholining huquqiy ongi va huquqiy bilimlarini oshirish va uning ustuvorligini ta’minlashda savodxonlik muammolarining o‘rganilishi tarixi tahlil etilgan, uning sohaga oid fanlar, jumladan falsafiy, pedagogik va psixologik adabiyotlarda tadqiq etish holatlari o‘rganilgan. O‘spirinlarda huquqiy ong va huquqiy bilimlar shakllanishining jahon va mahalliy tadqiqotlardagi holati muammoning yaxlit va yetarlicha o‘rganilmaganligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘spirinlar huquqiy bilimlarning psixologik tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etishga zarurat tug‘dirdi. O‘spirinlarda huquqiy ong va huquqiy tushunchasining etimologiyasini tahlil qilish asosida uning tarixiy ildizlari inson bilish va o‘zgartirishning ilk alifbosini shakllanishi, insoniyat rivojlanishining keyingi bosqichlarida iqtisodiy savodxonlik, fuqarolik savodxonligi, siyosiy savodxonlik, ijtimoiy va kommunikativ savodxonlik, madaniy savodxonlik, xulq-atvor savodxonligi ko‘rinishlar kabi savodxonlik turlari tavsifi tizimlashtirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi Farmoni. //Xalq so‘zi, 1997 yil 26 iyun.

2. Басова Е.А. Формирование у подростков функциональной грамотности в сфере коммуникации(на материале гумманитарных предметов: Автореферат диссерт.кандидат педагог. Наук Экспресс.-Санкт-Петербург.2012.-23 с.

3. Баҳром Жўраев. Узлуксиз таълим жараёнида юридик тушунчаларни психологик жиҳатдан тадқиқ этиш. “Узлуксиз таълим мазмунини, метод ва воситаларини модернизациялашнинг дидактик принциплари”. Республика илмий – амалий конференция материаллари Қарши 17 ноябрь 2015 й. 120-121 б.

4. Галиева Х.С. Формирование правовой культуры курсантов морского вуза в процессе профессиональной подготовки как средство становлениямежнационального полилога: Автор. дис... к. пед. Н. -Санкт-Петербург. 2011. -23 с

5. Герцог Т. Ю. Правовая функциональная грамотность и правовая культура: вопросы определения, соотношения, структуры // Правовая политика и правовая жизнь. Саратов : Саратов. гос. юр. академия, 2011.№ 2. С. 68–73.

6. ZubovaYa. V. Bulletin of the Adyghe State University - Series 1: Regional Studies: Philosophy, History, Sociology, Jurisprudence, Political Science, Culturology, 2 (2009). P 32.

Gadayeva Munira Muxamedovna
BVPYMO'MM Pedagogika va psixologiya
ta'lim texnologiyalari kafedrsi katta o'qituvchisi

O'ZBEK OILALARIDA O'SMIRLARNING EGOIZM MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek oilalarida o'smirlarning egoizm muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda o'smirlarning yoshga doir ijtimoiy – psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Bundan tashqari o'smirlarning egoistik xulq atvorini namoyon bo'lishi pedagogik psixologik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek oila ava oilaviy munosbatlarga doir munosabatlarni tartibga solish borasida ilmiy nazariy ma'lumotlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *egoizm, determinant, altruist, xulq motivlari, differensial, ekspressiv va vaziyatli axborotlar, kommunikativ xususiyatlar, kongruentlik va konform ustanovkalar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОБЛЕМЫ ПОДРОСТКОВОГО ЭГОИЗМА В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены социально-психологические особенности проблемы подросткового эгоизма в узбекских семьях, а также возрастные особенности подростков. Кроме того, были проанализированы педагогико-психологические аспекты проявления эгоистичного поведения подростков. Также были проанализированы научные теоретические данные по регулированию взаимоотношений в масле.*

Ключевые слова: *эгоизм, детерминант, альтруист, мотивы поведения, дифференциальная, экспрессивная и ситуативная информация, коммуникативные характеристики, конгруэнтность и конформные установки.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PROBLEM OF EGOISM OF ADOLESCENTS IN UZBEK FAMILIES

Annotation. *This article explores the socio-psychological characteristics of the problem of adolescent egoism in Uzbek families as well as the socio – psychological characteristics of adolescents about age. In addition, pedagogical psychological aspects of the manifestation of egoistic behavior of adolescents have been analyzed. Also, scientific theoretical data has been analyzed on the regulation of relations between oil and oil institutions.*

Key words: *egoism, determinant, altruist, behavioral motifs, differential, expressive and situational information, communicative properties, congruence, and conformal ustanovkas.*

Kirish. Oilaviy muammolar o'zining ko'p qirraliligi bilan alohida xususiyat kasb etib, jamiyat taraqqiyotini belgilashda, ma'nan barkamol, ruhan sog'lom avlodni voyaga yetkazish jarayonida ularning ijobiy yechimi katta ahamiyatga egadir. Agar har bir oilani tashkil etuvchilar o'z muammolarini bahamjihatlik bilan, o'zaro kelishuv asosida hal qilsalar, oiladagi tinchlik kafolatlanib, uning ma'naviy asoslari mustahkam bo'ladi. Alohida ta'kidlash joizki, er-xotin, qaynona-qaynota, kelin-kuyov munosabatlarida, fikrlar va qarashlardagi paydo bo'ladigan ayrim kelishmovchiliklar, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlarni uni tashkil etuvchi shaxslar o'zaro kelishib, muammoni konstruktiv tarzda yechishga qodir bo'lsalar, oiladagi ijtimoiy-psixologik hamda ma'naviy muhit yosh avlod ongida insoniy munosabatlar to'g'risida teran va ijobiy tasavvurlar shakllanishiga imkon beradi. Shu bois ham mamlakatimizda oila va uning tarbiyaviy imkoniyatlari qadriyat sifatida yuksaklarga ko'tariladi.

Oilaning o'smir yoshdagi bolalarining aqliy rivojlanishiga ta'siri hozirgi paytda alohida ahamiyatga ega bo'lgan mavzudir. Belgilangan muammoga ilmiy qiziqish zamonaviy oilalar faoliyat ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning murakkablashishi, bolalar va ota-onalarning jismoniy va ruhiy holatining yomonlashishi, ajralishlar sonining ko'payishi va oilaviy munosabatlarning buzilishi bilan bog'liq. Oilaning katta maktabgacha yoshdagi bolaning nutq rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj, inson rivojlanishining oldingi bosqichlari, ya'ni erta bolalik va boshlang'ich maktabgacha yoshdagi shunga o'xshash tadqiqotlar mavjud bo'lganda, ushbu yoshga nisbatan oilaviy faoliyat va nutqni rivojlantirish o'rtasidagi bog'liqlikka bag'ishlangan ishlarning yetishmasligi bilan belgilanadi. Bu maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishi uchun manba sifatida oilaning psixologik salohiyatidan foydalanish imkoniyatlarini pasaytiradi.

Bundan tashqari, mavzuning dolzarbligi, ilgari tadqiqotchilar asosan nikoh munosabatlariga emas, balki bolaning nutqi va bola-ota-onaning rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor berishganligi bilan bog‘liq.

Bolaning aqliy rivojlanishi sharoitida oila faoliyatining turli jihatlari ilgari tadqiqotchilar e’tiborini tortganidek (R.Zazzo, I.S. Kon, G.A. Kovalev, A.A. Leontiev, A.N. Leontiev, M.Mead, K.R. Rojers, D.B. Elkonin) va hozirda ko‘plab olimlarning qiziqishini uyg‘otmoqda (A. G. Asmolov, A.Y. Varga, A.K. Vodneva, D.V. Zaytsev, A.I. Zaharov, V.V. Belgi, K.B. Zuev, A.V. Maxnach, V.M. Miniyarov, L.F. Obukhova, E.A. Sergiyenko, A.S. Spivakovskaya, A.V. Suxarev, I.L. Stepanov).

Oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining bolaning nutqini rivojlantirishga ta’siri bilan bog‘liq muammolar ko‘pincha turli soha mutaxassislarining e’tiboriga tushdi, munozara mavzusiga aylanadi, ammo shunga qaramay, ular haligacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, nutqni rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha yoshdagi bolalar soni har yili o‘sib bormoqda va nutq buzilishlarining o‘zi tobora murakkablashib bormoqda. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bolaning nutqni rivojlantirishdagi kechikishi ota-onalar uchun katta maktabgacha yoshda aniq bo‘ladi, bundan tashqari, yaqinlashib kelayotgan maktab ta’limi nutqni rivojlantirishning ma’lum darajasini talab qiladi. Shu bilan birga, ushbu yoshdagi nutqni rivojlantirishda kechikishni tuzatish mutaxassislar uchun muammoni keltirib chiqaradi, uning yechimi psixologik resurslarning maksimal miqdorini, shu jumladan oilani jalb qilishni talab qiladi. Xususan, oilaviy rollar va ularning taqsimlanishi, oilaning barqarorligi va muvaffaqiyati, birgalikdagi oilaviy faoliyat, nikohdan qoniqish, oiladagi hissiy munosabatlar, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi aloqa xususiyatlari bolalar nutqini muvaffaqiyatli rivojlantirish shartlaridan biridir.

Ba’zi ishlarda bolaning jinsi (K. Jeklin, E. Makkobi, K. Nagle), yashash joyi (A. G. Ruzskaya), ota-onalarning ijtimoiy - iqtisodiy holati va ma’lumot darajasi (E. Xof-Ginsberg, P. K. Kerig), oilaning konfiguratsiyasi va ko‘p sonli siblinglarning mavjudligi (T. N. Andreyeva, G. R. Dobrova, T. A. Dumitrashku, T. N. Trefilova), nutq muhiti (E. I. Tixeyeva), onasi bilan o‘zaro munosabatlar (I.S. Kon, E.O. Smirnova, T.M. Sorokin, R.V. Ovcharova, G.G. Filippova), oilaviy tarbiya uslubi (P. K. Kerig, D.N. Chernov), bolaning ota-onasi bilan aloqasi tabiati (T.F. Bazilyevich, T.V. Kolyadina, P.K. Kerig, E.Reynshteyn), tengdoshlari bilan muloqot (M.I. Lisina, A.G. Ruzskaya, V.Vetrova, M. G. Elagina) bolalarning nutq rivojlanishiga ta’sir qilishi mumkin.

Mahalliy fanda oila xususiyatlari va bolalar nutqining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishning asosiy qismi umumiy va tibbiy psixologiya, ontolingvistika fan sohasida ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida nutqni o‘rganish yetishmovchiligi bilan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ilmiy adabiyotlarda oilaning ba’zi ijtimoiy - psixologik xususiyatlarining erta (K. N. Belogay, L. F. Obuxova, N. A. sonina, O. A. Shagraeva) va boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar nutqining rivojlanishiga ta’siri (T. N. Trefilova, D. N. Chernov), bolalar nutqini shakllantirish katta maktabgacha yosh va uning oilaning ijtimoiy - psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yetarlicha o‘rganilmagan. Ayrim nashrlarda (G. R. Dobrov, A. A. Zolotareva) oilani katta maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun manba sifatida har tomonlama ko‘rib chiqish vazifasi qo‘yilgan. Shu bilan birga, nutqni rivojlantirish jarayonini belgilaydigan ijtimoiy-psixologik sharoitlar asosan bolalarning ma’lum bir toifasi (maktabgacha yoshdagi somatik kasal bolalar, mushak-skelet tizimining buzilishi bo‘lgan bolalar, hissiy sohasi buzilgan bolalar) misolida o‘rganiladi, ammo umuman olganda aqliy sog‘lom bolalarda nutq tarkibiy qismlarini shakllantirish mexanizmlariga yetarlicha e’tibor berilmaydi.

Ilm-fanda bolaning nutq ontogenezining o‘zgaruvchanligiga ta’sir qiluvchi biologik va ijtimoiy omillarni aniqlashga urinishlar qilinmoqda, ammo shahar va qishloq bolalarining nutqini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari tizimi, oilaviy faoliyatni tashkil etishga, siblingning mavjudligiga qarab, hozirda aniqlanmagan.

Tahlil va muhokama. Shunday qilib, tadqiqot e’tiboridan tashqari, oilaning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va katta maktabgacha yoshdagi bolaning nutq rivojlanishining individual ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik muammosi paydo bo‘ldi. Boshqacha qilib aytganda, katta maktabgacha yoshdagi shahar va qishloq bolalarida nutqni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari oilaviy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari, oilaviy shaxslararo aloqa, oilaning konfiguratsiyasi bilan bog‘liq holda yetarlicha o‘rganilmagan, bu dissertatsiya mavzusini belgilab bergan.

Xorijiy mamlakatlarda oila va nikoh muammolarining ortib borishi munosabati bilan, so‘nggi yillarda oilaviy masalalar quyidagi ikki yo‘nalishda o‘rganilmoqda:

a) jamiyat tomonidan oilaga nisbatan alohida munosabatning shakllanayotganligi, ya'ni nasl qoldirish, bolalar tarbiyasi kabi qator ijtimoiy rollar ahamiyatining ortishi;

b) oilada sodir bo'layotgan ayrim salbiy hodisalar, jumladan, oilaviy ajrimlarning ko'payishi, bolalar tarbiyasidagi kamchiliklar, o'zaro munosabatlardagi turli xil nizolar, er-xotin mojarolarini ortishi kabi holatlarning jamiyatga keltirayotgan zararining ortishi kabilar.

Zamonaviy oilaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

- *Ota-onalarning alohida roli.* Zamonaviy jamiyatda bolalik davri uzaygan sharoitda bolalarni tarbiyalash, rivojlantirish va o'qitish uchun ota-onalar javobgar bo'ladi. Ota-onalar bolalar uchun jamiyatning kattalar a'zosi maqomini olgunga qadar - maktabni tugatgunga qadar va ma'lum jihatlarda - oliy ma'lumot tugaguniga qadar huquqiy, moddiy va ma'naviy-axloqiy javobgarlikni o'z zimmalariga oladilar.

- Oila tizimi ancha ochiq: zamonaviy jamiyatda turmush qurish oson, lekin ajrashish ham oson, turmush o'rtoqlar o'zlarining ustuvor qadriyatlar tizimidan kelib chiqib, o'z oilasining kelajakdagi taqdirini erkin belgilash huquqiga ega.

Egoizm (lotincha egodan - men) - bu hayotiy pozitsiya bo'lib, unga ko'ra insonning shaxsiy manfaatlarini qondirish eng yuqori yaxshilik deb hisoblanadi va shunga ko'ra, har bir kishi faqat shaxsiy manfaatlarini maksimal darajada qondirishga intilishi yaqqol namoyon bo'ladi, boshqa odamlarning manfaatlarini yoki umumiy manfaatlarini buzish kabi holatlarni kiritish mumkin. Egoizm altruizmga qarama-qarshidir . Ikkinchisidan farqli o'laroq, bu aniq, me'yoriy tarzda aks ettirilgan axloqiy pozitsiya emas; egoizm haqiqiy axloq tavsifining axloqiy-falsafiy umumlashtirish mahsulidir va axloqiy ta'limot sifatida bu umumlashtirishga ikkinchi darajali qayta qurish natijasidir. Faqat egoistik axloq va xarakterlarni axloqiy-falsafiy va axloqiy tanqid qilishda egoizm ma'lum bir me'yoriy va xulq-atvor modeliga umumlashtirildi.

J.Rouls egoizmning uch turini ajratib ko'rsatadi, ularni quyidagicha belgilash mumkin:

1) diktatorlik egoizmi: "hamma mening manfaatlarimga xizmat qilishi kerak"; 2) o'zining eksklyuzivligi:

3) Anarxik yoki umumiy egoizm: (har kimga o'z manfaatlarini xohlaganicha ko'rishga ruxsat beriladi)

O'zbek oilalarida o'smirlarning egoizm muammosining ijobiy va salbiy psixologik xususiyatlari

T/r	Buzg'unchi egoizmning belgilari	Sog'lom egoizmning belgilari
1.	Oiladagi egoist faqat o'zi bilan qiziqadi. Bu, ayniqsa, muloqotda seziladi: har qanday mavzu uning shaxsiga qaratiladi.	O'smir boshqalarning xohish-istaklarini e'tiborsiz qoldirib, o'z injiqliklarini ixtiyoriy ravishda beradi.
2.	O'zbek oilalarida o'smirlarning egoizm ikkta qoidasi mavzud: "noto'g'ri va meniki" degan tushunchalar	O'smir o'z ehtiyojlarini yaxshi biladi va ularni amalga oshirishda boshqalarning ehtiyojlarini inobatga olmaydi;
3.	Boshqa odamlar o'ziga ko'proq e'tibor berishni talab qilsa, egoistga bu xususiyat yoqmaydi.	Ratsional egoist tashqi manipulyatsiyadan himoyalangan, chunki u nima kerakligini yaxshi biladi. U o'zi uchun nomaqbul bo'lgan boshqa odamlarning talab va so'rovlarini bajarishga tayyor emas.

Sotsiologlar va psixologlar uzoq vaqtdan beri egoistlarning xatti-harakatlari sabablarini o'rganish bilan shug'ullanib, qiziqarli nazariyalarni keltirib chiqardilar: Sotsiologik nuqtai nazardan, egoizmning bir nechta asosiy nazariyalari mavjud: evolyutsion, ijtimoiy almashinuv, ijtimoiy normalar. Ular bir-birini to'ldiradi va individual ravishda nima uchun odamlar boshqalarga bepul yordam berishga tayyor ekanligi haqida to'liq tushuncha bermaydi.

Ijtimoiy almashinuv nazariyasi negizida chuqur egoizm tushunchasi yotadi. Nazariya tarafdorlari ongsiz ravishda fidokorona qadam tashlagan odam o'z foydasini oldindan hisoblab chiqadi, deb hisoblashadi.Ijtimoiy me'yorlar nazariyasiga ko'ra, altruizm ijtimoiy mas'uliyat sifatida qaraladi. Demak, egoistik harakatlar jamiyatga xos tabiiy ijtimoiy normalarning elementi hisoblanadi.Evolyutsiya nazariyasiga ko'ra, altruizm rivojlanishning bir qismi bo'lib, genofondni saqlashga yordam beradi va evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Faqat ijtimoiy fanlarni hisobga olgan holda bu kontseptsiyaning barcha qirralarini aniqlash oson emas. Bundan tashqari, har qanday shaxsning "ma'naviy" tarkibiy qismlarini eslab qolish muhimdir.

Psixologlarning nazariyasiga ko‘ra, egoistik xatti-harakatlarning asosi boshqa shaxslarning azoblari va tajribalarini kuzatishni istamaslikdir. Bu tuyg‘u ongsiz darajada mavjud bo‘lishi mumkin.

O’smirlardagi egoistik xususiyatlar:

- Ustuvorlik;
- O’z manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yish;
- Mas’uliyatsizlik;
- Tanlash erkinligining yuqoriligi;
- Vaziyatdan qoniqmaslik

Egoist o‘smirni quyidagi xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlash mumkin	
• Mojaroga moyillik;	o Vijdonsizlik;
• burch hissi yo‘qligi;	• o‘z-o‘zini hurmat qilmaslik;
• beparvo;	• dangasa;
• e’tibor bermaslik;	• tartibsizlikni yaxshi ko‘radi;
• maslahatga quloq solmaydi	• hech qanday talab qo‘ymaydi;

Xulosa. O’zbek oilalarida o‘smirlarning egoizm muammosining ijobiy va salbiy psixologik xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari mavzusi doirasida ijtimoiy-psixologik, diniy-falsafiy, sotsiologik ma’lumotlarni tahlil qilish asosida quyidagi xulosalarni shakllantirdik: Bugungi kunda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalasiga katta e’tibor qaratilayotgani bejizga emas. Zero, raqobatbardosh kadrlar, yoshlar jamiyatni tayanchi hisoblanadi. Bu borada psixolog kadrlarning o‘rni beqiyos. Chunki, sog‘lom psixologik muhitni yaratish, jamiyatda psixologik salomatlikni ta’minlashda ularning o‘rni katta. Shunday ekan, o‘smirlarning altruistik xulq motivlarini emperik o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Shu boisdan oiladagi o‘smir yoshidagi bolalarning egoistik xulq motivlarining ijtimoiy - psixologik xususiyatlarini o‘rganish orqali uni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlarini oshirish zarurati tug‘ilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдусатторова О.А.. Оила муҳитида ўсмирларда шаклланадиган идентификациянинг гендер хусусиятлари // Психол.ф.н. илмий дараж. олиш учун ёзилган дисс. автореф.-Т., ЎзМУ 2007. – 22 б.
2. Гендер тадқиқоти асослари курси хрестоматияси: Олий ўқув юртлари учун тавсия қилинади // Илмий муҳаррир: проф. Ў.Абилов; Рус тилидан қисқартирилган таржима: доц. З.Бобоева, З.Усмонова. – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 276 б.
3. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.– T.: Ma’anavyat, 2008-54 b.
4. Kon I.S. O’smirlik psixologiyasi: (Shaxsni shakllantirish muammolari). Darslik Pedagogik talabalar uchun qo‘llanma. Inst. – M.: Ta’lim, 1979. – 175 b.
5. Жабборов Х.Х. Ўсмирларда мафкуравий иммунитет шаклланишининг психологик омиллари: Психол. фанлари... фалсафа доктори (PhD) диссер.автореф. –Т., 2019. – 162 б.
6. Жабборов Х.Х. Ўсмирларда мафкуравий иммунитет шаклланишининг психологик омиллари: Психол. фанлари... фалсафа доктори (PhD) диссер.автореф. –Т., 2019. – 56 б.
7. Жумаев Р.З., Убайдуллаев У.А., Хўжанов Б.А. Конфликтология асослари (ўқув қўлланма). – Т.: Академия, 2000, –Б. 207.
8. Зазарова Ю.Б. О моделях психологической защиты на уровне межгруппового взаимодействия / Ю.Б. Зазарова // Вестн. Моск. ун-та.: Сер. 14. Психология. – 2001. – №3. – С. 11-17.

Arzimbetov Tileubergen Tilepbergenov
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filialiJismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

RIVOJLANISH DAVRIDA O’SMIRLARDA DESTRUKTIV G‘OYALAR TA’SIRIDAN HIMOYALASH IJTIMOIY - PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh davrlari inqirozi hamda shu davrda yuzaga keladigan psixologik xususiyatlar haqida so‘z boradi. Shuningdek yoshlarning destruktiv g‘oyalar, guruhlar ta’siriga tushib qolishining sabab va motivlarini aniqlash hamda mazkur holatning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimini yaratilgan. Bundan tashqari rivojlanish davrida o‘smirlarda destruktiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash ijtimoiy - psixologik xususiyatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *individuallik, psixologik xususiyatlar, inqiroz, iroda kuchi, jasurlik, qat'iylik, destruktiv g‘oyalar, psixologik test, ekspert baholash, xulq-atvor, psixologik himoya, pedagogik texnologiyalar.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЗАЩИТЫ ОТ ВЛИЯНИЯ ДЕСТРУКТИВНЫХ ИДЕЙ У ПОДРОСТКОВ В ПЕРИОД РАЗВИТИЯ

Аннотация. *В этой статье рассматривается кризис возрастных периодов, а также психологические особенности, возникающие в этот период. Также создана система профилактических мер, направленных на выявление причин и мотивов деструктивных идей, группового воздействия на молодежь и предотвращение данной ситуации. Кроме того, изучены социально - психологические особенности защиты подростков в период развития от воздействия деструктивных идей.*

Ключевые слова: *индивидуальность, психологические особенности, кризис, сила воли, смелость, настойчивость, деструктивные идеи, психологическое тестирование, экспертная оценка, поведение, психологическая защита, педагогические технологии.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROTECTION AGAINST THE INFLUENCE OF DESTRUCTIVE IDEAS IN ADOLESCENTS DURING DEVELOPMENT

Annotation. *This article will talk about the crisis of age periods as well as the psychological characteristics that occur during this period. Also created a system of preventive measures aimed at identifying the causes and motives of youth falling under the influence of destructive ideas, groups, and preventing this situation. In addition during development, the socio - psychological characteristics of protection against the influence of destructive ideas in adolescents are studied.*

Key words: *individuality, psychological characteristics, crisis, willpower, courage, determination, destructive ideas, psychological test, expert assessment, behavior, psychological protection, pedagogical technologies.*

Kirish. Mamlakatimizda keyingi yillarda ijtimoiy, ma’naviy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, dunyodagi global o‘zgarishlar davlat hamda jamiyat oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan bir qator vazifalarni qo‘ymoqda.

Destruktiv axborot oqimining ko‘payayotganligi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning o‘zgarayotganligi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining axborot-psixologik xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, individual, guruhiy va jamiyat darajasida tegishli ishlar olib borilishini taqozo etmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarni egallagan, mustahkam hayotiy pozisiyaga ega bo‘lgan yoshlarni tarbiyalash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, “ommaviy madaniyat” kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo‘lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma’naviy-ma’rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur”.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turli g‘oyalarning inson xatti-harakatiga ta’siri, yoshlarni destruktiv g‘oyalardan himoyalash muammosiga doir ijtimoiy-psixologiya yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, AQSHning Yel universiteti (Yale University, USA), Stenford universiteti (Stanford University, USA), Chikago universiteti (University of Chicago, USA), Irlandiyaning Dublin Triniti kolleji (Trinity College Dublin, Ireland), Germaniyaning Vuppertal universiteti (Universität Wuppertal, Deutschland), Avstraliyaning Tasmaniya universiteti (University of Tasmania, Australia), Janubiy Federal universitet (Rossiya Federatsiyasi, Rostov-Don)da olib borilmoqda.

Mazkur tadqiqotlarda guruhiy bosim va inson asosiy ehtiyojlarining shaxs ijtimoiylashuviga ko‘rsatadigan ta’siri (Yale University), turli guruhlarning psixologik tavsifi, ijtimoiy xulq-atvorning fundamental tamoyillari (Stanford University), pedagogika va amaliy psixologiya yo‘nalishida o‘smirlar, yoshlar bilan olib boriladigan xulq og‘ishlarining oldini olish (University of Chicago), psixoanalitik psixoterapiya, kognitiv xulq-atvor psixoterapiyasi (Trinity College Dublin), muayyan jamiyatda shaxs shakllanishi va rivojlanishi jarayonida o‘zini namoyon etish imkoniyatlari (University of Tasmania), muhitga nisbatan ijtimoiy-psixologik nomuvofiqlik shaxs xulq-atvorida asosial xususiyatlarni namoyon etishi, umumiy ijtimoiy faollikni amalga oshirishda psixologik ta’sir ko‘rsatish (Janubiy Federal universitet) singari muammolarni o‘rganishga asosiy e’tibor qaratilgan.

Inson destruktiv faoliyati mohiyatini uning biologik, neyrofiziologik va psixik asosini tahlil qilmasdan tushunib bo‘lmaydi. Eng avvalo, “Destruktivlik sof insoniy fenomenmi yoki boshqa jonzotlarga ham xosmi?” degan savolga javob topish zarur. Shuningdek, destruktiv faoliyatning irsiy jihatdan shartlanganligi masalasini ham o‘rganish, destruksiyaning namoyon bo‘lishida kishiga gormonal va asab tizimi sifatlari, psixik xususiyatlarning ko‘rsatadigan ta’sirini tadqiq etish ham lozim.

Destruktiv faoliyat biologik va neyrofiziologik asoslarini tahlil etishning mushkulligi mazkur muammoga bag‘ishlangan alohida amaliy ishning deyarli yo‘qligi bilan izohlanadi, shuning uchun ushbu masalani ko‘rib chiqishda insonlar va hayvonlarning tajovuzkorligini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalariga hamda qotillar va suisidal harakatlarni amalga oshirishga uringan kishilar o‘rtasida o‘tkazilgan tajribalar natijalariga murojaat etish maqsadga muvofiqdir.

Hayvonlar xatti-harakatini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha [2], inson destruktiv faoliyatining ayrim jihatlari hayvonot olamida ham uchraydi, biroq bir butun holda destruktivlik boshqa jonzotlarga xos emas. Ko‘pchilik hayvonot olami vakillaridagi populyasiya, ko‘payish instinkti o‘z turiga mansub hayvonlarni qirg‘in qilishga to‘sqinlik qiladi. Hayvonlarning turlararo kurashini destruksiya deb qabul qilish o‘rinli emas, chunki bu kurash o‘z turini saqlab qolishga qaratilgan bo‘ladi. Tur ichidagi tajovuzkorlik (bir turga mansub vakillar orasidagi raqobat) ham xuddi shu maqsadga qaratiladi. U hayvonlarning keng geografik hududga tarqalishiga hamda eng kuchli individuumlarning kurashda g‘olib bo‘lishi tufayli genofondning yaxshilanishiga sabab bo‘ladi. Oxir-oqibatda kuchli hayvonlar o‘z nasllarini saqlab qolish va himoya qilishning uddasidan chiqadilar [3]. Tur ichidagi tajovuzkorlikdan farqli o‘laroq, destruktiv faoliyat turni saqlab qolishga yo‘naltirilmaydi. Hayvonlardagi destruktiv faoliyatni eslatuvchi hodisalar juda siyrak kuzatilib, asosan hasharotlarda uchraydi. Misol uchun, asalarilar, chumolilar va termitlar o‘z to‘dalaridagi a’zolarni hididan farqlaydilar va bostirib kelgan har qanday “begona”ni darhol o‘ldiradilar [9].

Tahlil. Destruktiv xulq - jamiyat tomonidan qabul qilingan, e’tirof etilgan me’yor va rollarga mos kelmaydigan, muqobil nuqtai nazarlarga radikal ravishda qarshi yo‘naltirilgan xulq-atvor. Bu holatda ayrim olimlar me’yor sifatida muayyan xatti-harakatdan kutiladigan natija, samarani, boshqalari esa ma’lum bir xulq-atvor attityudi (andoza, shakli)ni nazarda tutadilar. Boshqa tadqiqotchilar esa nafaqat xatti-harakat, xulq-atvor, balki g‘oya, qarashlar ham destruktiv bo‘lishi mumkin, degan fikrni bildiradilar.

Ota-onalar, pedagoglar, nisbatan yoshi katta avlod vakillarining yoshlarga xos mustaqillikka intilish, hech bo‘lmaganda tashqi ko‘rinishi (kiyinishi, soch turmagi, yurish-turishi va h.k.) bilan ajralib turishga, zamonaviy ko‘rinishga harakat qilish kabi xatti-harakatlarni inobatga olmasliklari, butunlay qoralashlari noo‘rindir. Bu jihatni tarbiyaning eng muhim vositalaridan birini bee’tibor qoldirish sifatida baholash mumkin. Chunki doim ham har bir avlodga xos muayyan qadriyatlar katta avlod vakillari tomonidan to‘liq qabul qilinmagan (bu jihatni O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov “Hozirgi yoshlar” she’rida yaxshi tasvirlagan). Ayni hollarda taqiq, ma’muriy jazolash tizimlari faoliyati samarasiz bo‘lib, yoshlarga tegishli darajada maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishda ularning qiziqishlari, ehtiyojlari, psixologik xususiyatlari va qadriyatlari yo‘nalishiga mos holda ish olib borish afzaldir.

Ushbu fikrlarni tasdiqlash uchun juda ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Turli jamiyatlarda yoshlar majburan singdirilmoqchi bo‘lgan xulq-atvor ko‘rinishlariga nisbatan ko‘pincha namoyish-korona rad javobini berib, o‘z noroziliklarini turli yo‘llar bilan bildirganliklari ma’lum. Bu albatta, mazkur yosh guruhi vakillarida isyonkorlik xususiyatlarining mavjudligidan darak beradi. Shuning uchun psixolog, pedagog va faoliyati yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq mutasaddi, rahbarlar yoshlar bilan muloqot qilish yo‘llarini, ularga zarur bo‘lganda kerakli darajada psixologik ta’sir o‘tkaza olish malaka va ko‘nikmalarini puxta darajada egallagan bo‘lishlari lozim. Ayni paytda ijtimoiy-madaniy omillarning shaxs shakllanishi va rivojiga, qadriyatlar tizimiga ko‘rsatadigan ta’sirini inobatga olgan holda yoshlarni destruktiv guruhlar va g‘oyalar ta’siridan himoyalash masalasini hech qachon nazardan qochirmaslik zarur.

O’smirlik davriga xos shaxs xususiyatlari va psixologik himoya.

Yoshlik davri yosh davrlari psixologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yosh davri xususiyatlarining tarkib topishi ko‘plab individual-psixologik va ijtimoiy omillarga bog‘liq. Adabiyotlarda mazkur davrga bolalikdan yetuklikka o‘tish bosqichi sifatida ta’rif beriladi. Turli madani-yatlarda inson yoshining o‘ziga xos bosqichlari farqlanadi. Yoshlik shaxs shakllanishida juda muhim ahamiyat kasb etadigan mas’uliyatli davrdir. Inson yakka holda rivojlanmaydi, bunda ijtimoiy muhit, yon-atrofdagilarning ta’siri kuchli bo‘ladi. O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi yakunlanib, mustaqil hayotga qadam qo‘yilgach, jamiyatning teng huquqli a’zosi sifatidagi faoliyat boshlanadi.

Destruktiv targ‘ibot bir necha yo‘nalishlarda olib boriladi:

- millat tarixini kamsitish, erishilgan muvaffaqiyatlar, amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlarni tan olmaslik;
- milliy yetakchilar, qahramonlarni badnom qilish;
- rasmiy, milliy mafkurani obro‘sizlantirish;
-muqobil mafkuralarni targ‘ib qilish, yoyish, tarqatish;
-asotsial xulq-atvorga nisbatan tanqidiy munosabatni yo‘qotish.

Destruktiv faoliyat oqibatlari ayirmachilik, emigratsiya, jinoiy xatti-harakatlar, alkogolizm, giyohvandlik, foxishabozlik, axloqiy buzuqlik, ruhiy og‘ishlar, anomiya, addiktivlik va hokazolarda namoyon bo‘ladi. Har qanday destruktiv guruh mafkurasining zamirida aldov yoki firibgarlik yotadi.

Yoshlar hayotiy qadriyatlarining o‘ziga xos jihatlari ulardagi ekstremistik kayfiyatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardandir. Yigitlar va qizlar kelajakda nima qadrli nima esa aksincha bo‘lishi mumkinligi, kelajak, istiqbol xususida bosh qotira boshlaydilar. Ontogenezda qadriyatlar shakllanayotgan kezda inqirozli vaziyatlarga tushish, tajribali insonlar tomonidan yordam qo‘lining o‘z vaqtida cho‘zilmasligi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Destruktiv faoliyat mohiyatini tadqiq etishda insonning biologik, neyrofiziologik va psixik xususiyatlariga e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, destruktiv faoliyatning irsiy jihatdan shartlanganligi, destruksiya namoyon bo‘lishida gormonal va asab tizimining tutgan o‘rni, mazkur jarayonga psixik xususiyatlarning ko‘rsatadigan ta’siri masalasi ham tahlil qilinishi lozim. Insonning destruktiv faoliyatiga baho berishda asosiy e’tibor ijtimoiy-madaniy kontekstda sodir bo‘ladigan neyrofiziologik jihatlarga qaratilishi maqsadga muvofiq. Shunga ko‘ra, destruksiya biologik jihatdan asosiy, determinantlashgan emas, balki, biologik jihatdan ahamiyatli omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017.
2. Ananyev B.G. O prinsipax sovremennogo chelovekoznaniya. – M.: Nauka, 1977.
3. Beti Readon. Bag‘rikenglik: tinchlik sari olg‘a qadam. YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi. – Almati, 2002.
4. Gegen N. Psixologiya manipulyasii i podchineniya. – SPb. Piter, 2005.
5. Gegen N. Psixologiya manipulyasii i podchineniya. – SPb. Piter, 2005.
6. Kozlov N.N. Prakticheskaya psixologiya na kajdыy den: ili kak otnositsya k sebe i lyudyam. – M., 1999.
7. Lomov B.F. Metodologicheskiye i teoreticheskiye problemы psixologii. – M.: Nauka, 1984.
8. Lorens K. Oborotnaya storona zerkala. – M.: Respublika, 1998.
9. Oila psixologiyasi. Akademik lisey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. /Professor G‘.B.Shoumarov tahriri ostida. – Toshkent, 2011.

Оталиева Аделя Рахметовна
Государственный университет физического воспитания и спорта Узбекистана
Нукусский филиал Теория физического воспитания и гуманитарных наук
преподаватель кафедры естественных наук

ЗНАЧЕНИЕ КАРАТЕ КАК ВИДА СПОРТА В ФИЗИЧЕСКОМ И ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *В данной исследовательской работе рассматриваются педагогико - психологические аспекты спорта каратэ в физическом и духовном развитии молодежи, значение спорта в процессе воспитания. Кроме того, изучены истоки и предпосылки развития карате как вида спорта. Были проанализированы исследования, проведенные учеными в области спорта каратэ с научной точки зрения.*

Ключевые слова: *каратэ, искусство физическая культура, индивидуальность, спортивные упражнения, тренер, особые физические качества, техника боя, удары.*

THE IMPORTANCE OF KARATE IN THE DEVELOPMENT OF YOUTH PHYSICALLY AND SPIRITUALLY

Annotation. *This study will talk about the pedagogical and psychological aspects of karate in the physical and spiritual development of youth, the importance of sports in the educational process. In addition to karate the origin of the sport and the development ofng condition conditions have been studied. Scientific research by scientists on the sport of Karate has been analyzed.*

Key words: *karate, physical culture, individuality, sports training, trainer, special physical qualities, combat technique, shots.*

YOSHLARNI JISMONIY VA MA'NAVIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA KARATE SPORT TURINING AHAMIYATI

Annotatsiya*. Mazkur tadqoqot ishimizda yoshlarni jismoniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishda karate sport turining pedagogik- psixologik jihatlari, tarbiya jarayonida sportning ahamiyati haqida so'z boradi. Bundan tashqari karate sport turning kelib chiqishi va rivojlanishinng shart sharoitlari o'rganilgan. Karate sport turi bo'yicha olimlarning ilmiy jihatdan olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *karate, janga san'ati, jismoniy madaniyat, individuallik, sport mashqlari, trener, maxsus jismoniy fazilatlar, jangi texnikasi, zarbalar.*

Введение. Учитывая, что каратэ пользуется большой популярностью среди молодежи, в целях его дальнейшего развития, строительства современных спортивных объектов и сооружений по карате, а также обеспечения высоких результатов наших национальных сборных на престижных спортивных соревнованиях:

В республике в последние годы осуществляются последовательные меры по популяризации физической культуры и спорта, пропаганде здорового образа жизни среди населения, созданию необходимых условий для физической реабилитации лиц с ограниченными физическими возможностями и обеспечению достойного выступления страны на международной спортивной арене.

Вместе с тем существует необходимость внедрения в практику конкретных программ в сфере физической культуры и спорта, содействующих укреплению здоровья населения, широкого вовлечения молодежи в спорт и отбора среди нее талантливых спортсменов, формирования национальных сборных команд спортсменами-мастерами, обеспечивающими высокие результаты по видам спорта, и создания дополнительных условий для тренеров.

В целях определения приоритетных направлений, направленных на повышение квалификации и знаний населения в области физической культуры и спорта для формирования в стране всесторонне развитой и физически здоровой личности, обладающей высокой культурой, а также внедрения инновационных форм и методов в процесс отбора (селекции) талантливых спортсменов:

1.Определить основными направлениями реформирования системы физической культуры и спорта до 2025 года:

увеличение общей численности населения, регулярно занимающегося физической культурой и спортом, до 30 процентов, а молодежи, занимающейся в спортивных организациях и учреждениях, до 20 процентов;

поэтапное повышение качественного состава тренеров и специалистов в государственных спортивных образовательных учреждениях, в частности, доведение числа работников с высшим образованием до 80 процентов;

разработку и внедрение на местах эффективной и прозрачной четырехэтапной системы отбора (селекции) талантливых спортсменов среди молодежи — организация — район (город) — регион — республика;

Исходя из вышеизложенного, мы пришли к выводу о необходимости дальнейшей разработки решения проблемы применения боевых искусств для развития у детей и подростков не только физических, но и нравственных качеств.

Анализ литературы. Проблемами нравственного воспитания подростков средствами физической культуры и спорта занимались известные педагоги и психологи в области спорта В.В. Белорусова, Т.Т. Джамгаров, Н.В. Могильный, М.Я. Набатни-кова, Н.Г. Озолин, А.Ц. Пуни, И.Н. Решетень и другие. Их поиски привели к организации учебно-воспитательного процесса с учетом возрастных особенностей занимающихся и видов спортивных занятий. Особая восприимчивость подростков к педагогическому руководству нравственно-волевым развитием подчеркивается в исследованиях О.С. Богдановой, Л.И.Божович, Н.И. Болдырева, Е.В.Бондаревской, Т.В.Драгуновой, А.Г.Ковалева, Т.Н. Мальковской, Э.И.Моносзона, И.С. Марьенко, А.В.Мудрик, Л.И. Новиковой, Л.И.Рувинского, И.О. Свадковского, М.Г. Тайчинова, Н.Е. Шурковой и др.

В последние десятилетия написано много работ, посвященных истории, философии, методике обучения боевым искусствам. Большой интерес для нашего исследования имели работы основоположников современного каратэ-до Г. Фунакоси, М. Накаямы, профессора боевых искусств Р. Хаберзетцера, а так же отечественных авторов С.В. Биджиева, С.А. Иванова-Катанского, А.А. Маслова, И.В. Оранского, А.М. Подщеколдина, С.В. Цвелева и др. Написано несколько кандидатских диссертаций, касающихся использования восточных боевых искусств в учебно-воспитательном процессе (Ю.М. Лагусев, Д.И. Бородин, Л.Г. Авдонина и др.).

Каратэ – это не просто боевое искусство, это жизненный путь, в котором человек занимается укреплением своего тела и духа, расширяя пределы своих возможностей. Обучение каратэ – это не только изучение техник правильного нанесения ударов, но и особый образ жизни, в котором человек начинает отслеживать взаимосвязь во всем, что видит вокруг себя, и стремится достичь гармонии с природой. Главная задача этого боевого искусства – помощь обществу, а не нанесение ущерба другим людям. Исторически каратэ задумывалось как полноценное боевое искусство, в котором воины обучались рукопашному бою, а также использованию холодного, стрелкового и метательного оружия. Помимо этого, некоторые из стилей предусматривали обучение различным элементам армейской тактики и множеству других воинских тонкостей. В любом стиле каратэ изначально в основу ставился психофизический тренинг, соответствующий требованиям военного дела.

Не стоит думать, что боевые искусства представляют собой просто развлечения или театр. Здесь никто не выигрывает и не проигрывает, ведь люди учатся не бороться друг с другом, а вести правильный образ жизни.

Несмотря на то, что в современном мире каратэ рассматривается, в первую очередь, как отдельный вид спорта, его нельзя назвать исключительно спортивной дисциплиной. Главная разница боевого искусства со спортивными единоборствами заключается в том, что их главной целью является победа над противником любой ценой, в то время как ключевая задача спортсмена – продемонстрировать свое технико-тактическое мастерство, ограниченное правилами состязаний, для получения нужного количества баллов. Это создает различия и в психологическом тренинге.

Каратэ в качестве спортивной дисциплины развивается в трех ключевых форматах:

Кумитэ – свободный бой. Здесь предусматривается реальный спарринг с оппонентом. Правила и используемое оружие может меняться в зависимости от того, о каком виде идет речь, начиная от поочередных действий оппонентов и заканчивая полностью свободным поединком.

Тамэшивари – разбивание предметов. Направление, основанное на воспитании духовной концентрации и физической силы. Несмотря на то, что в тамэшивари разбиваются неподвижные объекты, достичь нужного эффекта можно только полностью сконцентрировавшись на ударе, ведь даже малейшая ошибка может привести к неудаче.

Ката – упражнения. Выполняется комплекс стоек, боевых движений и приемов, которые проводятся в разном темпе. Поединки в этом направлении только имитируются.

Существует несколько основных стилей каратэ, распространенных на сегодняшний день:

Годзю-рю. Стиль, созданный Тедзюном Мияги, комбинирующий мягкую и жесткую техники, основываясь, в первую очередь, на внутренней энергетике бойца. Характерен многочисленными контактными приемами с использованием коленей, локтей и элементов борьбы.

Косики. Появилось в конце 70-х годов прошлого века благодаря совместной работе ведущих мастеров Японии. Объединяет в себе лучшие качества японского и окинавского каратэ, что было сделано для появления универсальной соревновательной дисциплины с использованием защитного оборудования, в которой могли бы продемонстрировать свои навыки представители всех школ.

Сетокан. Стиль, основанный Фунакоси Гитином и характеризующийся линейными движениями и прикладыванием силы. Отличается мощными ударами и жестким стилем боя.

Киокушинкай. Это направление появилось в 50-х годах прошлого века под руководством Ояма Масутацу. Считается одним из самых жестких и трудных стилей, представляя собой воинское искусство, предусматривающие мощные контактные схватки без использования защитного снаряжения. На состязаниях нельзя только бить руками в голову.

Современный этап развития общества характеризуется коренными изменениями во всех сферах общественно-политической и экономической жизни. Кризис общественного сознания привел к усилению криминогенное™ общества, росту преступности (в том числе и детской), насилию, открытой пропаганде распущенности нравов. Особенно сложная ситуация сложилась в подростковой и молодежной среде.

Сегодня отчетливо обозначились объективная необходимость приобщать детей и подростков к ценностям общечеловеческой культуры, в том числе и физической, и на этой основе осуществлять воспитание духовности и нравственности.

Целостный педагогический процесс по формированию физической культуры личности одновременно складывается из процесса обучения и процесса воспитания. Они неразрывно связаны друг с другом, хотя каждый из них имеет свои преимущественные задачи и функции. Основная задача физической культуры состоит в развитии целостной личности. Она выступает и как одно из важных средств формирования здорового образа жизни, организации отдыха и досуга, воспитания и развития телесных и духовных сил.

Любой вид спорта - это достояние той или иной страны. Его проникновение на иной континент связано с развитием научно-технического прогресса, обменом опыта, с проблемой интеграции людей в различные уголки мира, с взаимодействием культур, расширением международных контактов и информационного пространства. Наша страна, исторически сформировавшаяся как межцивилизационный феномен, который развивается в условиях постоянного диалога и взаимодействия культур Востока и Запада, имеет большую возможность изучения и использования их культурного и исторического наследия.

Для молодого поколения большой интерес представляют традиционные восточные боевые искусства. Они привлекают разнообразием движений (уклонов, уходов, ударных и бросковых техник) и эффективностью.

Анализ отечественной и зарубежной литературы в области боевых искусств Востока привел нас к идее о возможностях их использования в учеб-но-воспитателыюм процессе детей и подростков.

Гармоничное сочетание физического и духовного начал в человеке является само собой разумеющимся фактором в восточных боевых искусствах, отличающихся комплексной системой психологической подготовки, где существует целостный взгляд на человека и на окружающую его действительность, которую он, в силу своих развитых физических, моральных и психологических качеств и при направляющем действии силы и чистоты сознания, способен изменить в лучшую сторону, создавая таким образом гармонию в самом себе и в окружающем

его мире. Ценность такого подхода к человеку не нуждается в специальных доказательствах, она подтверждается всей многовековой историей развития возможных единоборств.

Наряду с этим нередко можно наблюдать, что в практике их применения в работе с детьми и подростками воспитанию духовности и нравственности уделяется значительно меньше внимания, чем технической и физической подготовке. Некоторые инструкторы не задумываются о воспитательном эффекте занятий боевыми искусствами. Для детей и подростков, которые воспитываются на современных боевиках, где большое место занимают драки и жестокие убийства, привлекательны сами приемы, а не процесс собственного совершенствования. Им хочется научиться всему сразу и быстро.

В качестве новинки этой нашей работы можно сказать следующее.

формирование ценностных ориентаций юных спортсменов-каратистов на сохранение здоровья во время тренировок на начальном этапе длительных тренировок;

развитие потребностей и мотивации юных каратистов к освоению и эффективному использованию технических приемов и средств защиты от наступательных действий противника;

осуществление систематического педагогического контроля психического развития в процессе обучения, духовно-нравственного обоснования физических качеств и здоровья.

В настоящее время все большее значение в решении проблемы взаимосвязи физической и духовной сторон физической культуры приобретает философско-культурный подход, в котором приоритетной становится духовная зрелость личности. Одним из действенных средств реализации такого подхода является восточное боевое искусство, представляющее собой гармоничное сочетание глубокой духовности и физического совершенства человека.

Развитие современных боевых искусств предполагает внедрение в практику учебно-тренировочного процесса новых технологий, позволяющих совершенствовать учебный процес. В качестве рекомендации можно сказать о необходимости внедрения новых технологий в процесс обучения каратэ.

Использованной литература

1. Артеменко О.М. Комбинированные боевые искусства на кисти рук в айкидо будо//Додзё: воинские боевые искусства Японии. - 2000. - вып. 4., С.45-54.

2. Вещиков Ф.А. Стилевое каратэ программа спортивной подготовки.-Советский спорт. 2011. - 51 с.

3. Дащинский В.Э. Секреты каратэ-до. - М.: ФИАР, 2008. - 480 с.

4. Еганов В.А. Методика обучения защитным технико-тактическим действиям в кикбоксинге: автореф. дис. ... канд. пед. наук / В.А. Еганов; УралГАФК. - Челябинск, 2005. - 22 с.

5. Лихачев Б.Т. Педагогика: Курс лекций / Учеб. пособие для студентов педагог, учеб. заведений и слушателей ИГЖ и ФПК. - 4-е изд., перераб. и доп.— М.: Юрайт-М. 2001.—607с.

6. Новиков А.А. Педагогические основы технико-тактического мастерства в спортивных единоборствах (на примере спортивной борьбы): Автореф. дис.... докт. пед. наук,- М., 2000.- 62 с.

7. Соловьев Г.М. Педагогические технологии в формировании физической культуры личности студента. Автореф . дис. ...д-ра пед. наук. - М, -2003. - 42 с.

Erejepov Islam Yusupovich
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MASHG‘ULOTLARIDA SOG‘LOM-TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida sog‘lom-turmush tarzini shakllantirish samaradorligi hamda, jismoniy tarbiyaning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va faoliyati va rivojlanishining xususiyatlari va umumiy qonuniyatlari to‘g‘risidagi tizimli bilimlardan tahlil qilingan. Bundan tashqari bolalarda harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish borasida tahlillar olib borilgan.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, irodaviy sifatlar, mustaqillik, jismoniy etika, imkoniyat, intellektual salohiyat, individuallik, jismoniy mahurat.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ В ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ И СПОРТЕ

Аннотация. *В данной статье анализируется эффективность формирования здорового образа жизни при занятиях физической культурой и спортом, а также роль физического воспитания в жизни человека и общества, исходя из систематических знаний об особенностях и общих закономерностях функционирования и развития. Кроме того, был проведен анализ выбора и планирования подвижных игр у детей.*

Ключевые слова*: теория физического воспитания, физическая культура, здоровый образ жизни, волевые качества, Независимость, физическая этика, возможность, интеллектуальный потенциал, индивидуальность, физические навыки.*

THE EFFECTIVENESS OF HEALTHY-LIFESTYLE FORMATION IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS TRAINING

Annotation. *This article analyzes the effectiveness of the formation of a healthy-lifestyle in physical education and sports activities and systematic knowledge about the role of physical education in the life of a person and society and the features and General Laws of its functioning and development. In addition analysis has been conducted on the choice and planning of action games in children.*

Key words: *theory of Physical Education, Physical Education, healthy lifestyle, volitional qualities, independence, physical ethics, opportunity, intellectual potential, individuality, physical mahurat.*

Kirish. Sog‘lom avlod tarbiyasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundan boshlab davlatimiz olib borayotgan siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Sog‘lom avlod-nafaqat jismoniy baquvvat yoshlarni, shu bilan birga, chuqur bilimga ega, ma’naviy barkamol, dunyodagi tengdoshlari bilan bellashishga, ularga xalqimizning iste’dodi va salohiyatini namoyish etishga qodir bo‘lgan avlodlarni tarbiyalash demakdir. Hozirgi zamonda jamiyatning muhim sotsial vazifalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni ruhiy, ma’naviy va jismoniy kamolotga yetkazishdir.

Yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish, aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish uchun zarur shart-sharoitlar va infratuzilmani yaratish, mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta’minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida sport sohasini rivojlantirish borasida islohotlarda o'z aksini topmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining mustaqil yo'ldan borishi xalq ta'limi sohasini rivojlantirish mexanizmi va strategik yo'nalishlarni belgilab beruvchi 2017-2021-yillarda harakatlar strategiyasining ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘limida katta ahamiyatlar qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi farmoni ijrosini ta’minlash hamda o‘quvchi yoshlar va talabalarning jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishi tizimini takomillashtirish iste’dodli yoshlarni saralab olish va sport turlari bo‘yicha milliy terma jamoalar zaxirasini shakllantirish maqsadida amaliy ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu muammo yuzasidan Matveev.L.P, Mahkamjonov K.M, Usmonxo‘jayev T.S., Salamov R.S, IsmoilovT,Yunusov T.T, Ismoilova N., Ismoilov T, Arslanova M.A, Qoraboyev U, Qurbonovlarning ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Mahalliy olimlar: Abduraxmanov L R, Azad Artikovich, FarhodAzadovich, Galiev S, Nasriddinov F.N, Qosimov A.Sh, SoyibSamijonovich,Usmonxo‘jayev T S, Xo‘jayev F, G‘ulomov Y. Rasulov R, Qalandarov.M, Abduraxmanov L.R, Galiev Sh va boshqalar O‘zbekistonda harakatli o‘yinlar nazariyasini rivojlanishiga o‘zlarining katta hissalarini qo‘shganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlaridan: A.N.Liviskiy, A.Borj,E.A.Arkin, G.Vamper, L.Bajenko N.N.Kel, P.F.Lesgaft, T.Losokina .S.P.TolstovP.F. Lesgaft harakatli o‘yinlar nazariyasini ishlab chiqdi, uning izdoshlari esa uni ijodini rivojlantirdilar. (E. A. Arkin, N. N. Kel, T. L Osokina) P.F. Lesgaft o‘yin bolani hayotga tayyorlashga yordam beruvchi vosita deb hisoblaydi.

Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslarini tashkil qilish va o‘tkazish.

Jismoniy tarbiya har tomonlama jamiyatning eng muhum vazifalaridan biridir. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida mustahkam salomatlik, mustahkam iroda, yuksak samaradorlik va faollikni shakllantirish shaxsning intellektual rivojlanishi va jismoniy kamol topishiga asos bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya ta’lim jarayoni bo‘lib, ta’lim tizimining muhm elementidir. Ta’lim tizimida jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi o‘quvchi shaxsini yuqori aqliy, jismoniy, ijtimoiy faollikka ega bo‘lgan har tomonlama uyg‘un va har tomonlama rivojlanishini ta’minlashdan iboratdir. Jismoniy sifatlarni tarbiyalash bo‘yicha faol, maqsadli darslar barcha tana tizimlarining rivojlanish jarayonini tezlashtiradi va sifat jihatidan o‘zgartiradi. Asosiy jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadigan yaxshi jismoniy tayyorgarlik barcha turdagi o‘quv, mehnat, amaliy va sport faoliyatida mehnat qobiliyatining asosidir.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish shakllari - bu bolalarning rang-barang faoliyatini ta’lim-tarbiyaviy majmuasi bo‘lib, uning asosini harakat faolligi tashkil etadi. Bu shakllarning yig‘indisi bolaning jismoniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi va sog‘ligining mustahkamlanishi uchun zarur bo‘lgan muayyan harakat tartibini vujudga keltiradi. Bolalar tarkibini tashkil etishning shakllari quyidagilardan tarkib topgan:

1) jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari;

2) kundalik tartibdagi jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish ishlari, ertalabki gimnastika, harakat o‘yinlari, jismoniy tarbiya daqiqalari, jismoniy tarbiya mashqlari;

3) faol dam olish bolalar turizmi, jismoniy tarbiyali dam olish, jismoniy tarbiya bayramlari;

4) bolalarning mustaqil harakat faoliyati;

5) uyga vazifa;

Jismoniy tarbiya daqiqalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ko‘proq ahamiyatga ega bo‘ladi. U aqliy faoliyat uyg‘otuvchi (matematika, nutqni o‘stirish bo‘yicha) mashg‘ulotlarga va bolalarning faol dam olishi hamda ish qobiliyatini tiklash vaqti sifatida ikki mashg‘ulot o‘rtasiga kiritiladi. Ochiq havodagi harakatli o‘yinlar bolalar hayotining zarur sharti hisoblab chiqiladi.

O‘qituvchining o‘yin jarayoniga rahbarlik qilishi metodikasini egallagan bo‘lishi o‘yinlarni muvaffaqiyatli o‘tkazishning asosiy sharti hisoblanadi. Harakatli o‘yinlarni tanlash va rejalashtirish dasturga muvofiq amalga oshiriladi. Bunga har bir yosh guruhning ish sharoiti hisobga olinadi, chunonchi bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishining umumiy darajasi harakat ko‘nikmalarining rivojlanishi, har bir bola sog‘lig‘ining ahvoli, o‘ziga xos xususiyatlar, yil fasli, kun tartibi, o‘yin o‘tkazish o‘rni, shuningdek bolalar qiziqishlarini o‘ziga xos xususiyatlari. Harakatli o‘yinlar dastur talablariga muvofiq asta-sekin murakkablashtirib boriladi, bolalar ongini o‘sishi, ular to‘plagan harakat tajribasini, maktabga tayyorlash zaruriyatini hisobga olgan holda o‘zgartirib turiladi.

Pedagogika va jismoniy tarbiya nazariyasida o‘quv va ta’limning asosiy shakli dars ekanligi uqtiriladi. Bu jismoniy tarbiya faniga ham taalluqlidir. Jismoniy tarbiya darslarida alohida turlar mavjud bo‘lsada, ularning mazmunlari, shakllari bir-biri bilan uzviy bog‘lanib, takrorlanadi. Masalan saflanish, safda yurish, navbat bilan mashq o‘yinlarni bajarish va boshqalar faqat gimnastika darslaridagina emas, balki yengil atletika, sport o‘yinlari, harakatli o‘yinlar darslarida ham qo‘llaniladi. Ularning bir-biridan farqi shundaki gimnastika darslarida har bir amaliy harakatni to‘g‘ri bajarishga alohida e’tibor beriladi. Boshqa darslarda esa faqat tashkiliy jihatlargina ko‘zda tutiladi. 1-4 – sinflarda o‘tiladigan darslarning turlari va asosiy mazmuni haqida ba’zi bir tushunchalarni keltirish mumkin.

1-sinf. Gimnastika darsi. So‘nggi yillarda darslarni tashkil qilishusullarivapedagogik mahoratni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish natijalarigako‘raquyidagilarni e’tirof etish mumkin, ya’ni: Bolalarning bo‘yiga ko‘ra safda turishini da’vat etish shart emaschunkibu yoshdagi bolalar eng avvalo, o‘zaro tanish, yaqinlari bilan yonma-yonturishnima’qul ko‘radi. Dastlabki darslarda bir-birining qo‘lini ushlab safdaturish, safdayurish usullari qo‘llash mumkin. Lekin bu yo‘l doimiy ravishda takrorlansa, bolalarda mustaqil yurish-turish va mashq o‘yinlarni bajarishda ishonchi tezda rivojlanmaydi.

2. Saf (yonma-yon), qator (oldinma-keyin) mashqlarini bajarishga o‘rgatishda “saflan”, “bir qatorga tur” kabi ibora-buyruqlarni ishlatish zarur o‘quv yilining II-choragida o‘quvchilarning bo‘yiga qarab saflanishga (qatorga) o‘rgatish mumkin. Bu oraliqda o‘quvchilar bir-birini yaxshi tanib oladi va o‘z joylarini kimdan keyin va kimdan oldin turishini anglaydi. “Saflan”, “qatordan tarqal” buyrug‘ini ham tarqal iborasi bilan tushuntirish va amalda takrorlash lozim bo‘ladi. Ikki qator safga turish va tarqalib yana saflanish vazifalarini eng avvalo, alohida bajartirish, ma’lum ko‘nikmalar hosil qilingandan keyingina boshqa o‘yin-mashqlar va sport turlarida (yengil atletika, harakatli o‘yin va boshqalarda)ham qo‘llash lozim bo‘ladi. Saf yoki qatorga turish hamma o‘quvchilar asosiy talablarni (bo‘yiga qarab turish) teng bajara olmaydi. Ayniqsa, qiz bolalar yaqin tengdoshlari, dugonalari bilan yonma-yon yoki oldinma-ketin turishni istaydi. Natijada esa joy talashish, saf, qator tartib-qoidalari buziladi. Shu sababdan, o‘qituvchi asosiy tartib-qoidalarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajarishni muntazam eslatishi, qoidalar bajarilishi, nazorat qilishi va talab qilishi shart bo‘ladi. Safda, qatorda yurish, umum rivojlantiruvchi jismoniy mashqlarni (gimnastika mashqlari) bajarishda o‘z joyini bilish, mashqlarni bajarish uslubiga e’tiborni jalb etish maqsadida o‘qituvchi sergak va xushyor bo‘lishi, to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi lozim. Bunda o‘qituvchining o‘zi va iqtidorli bolalarning mashqlarni bevosita bajarishini namuna, ko‘rgazma shaklida namoyish qilishi zarur. Lozim bo‘lganda noto‘g‘ri yoki chala bajargan o‘quvchini chetga chiqarib, unga to‘g‘ri bajarish usulini o‘rgatish kerak. Bu o‘z navbatida ko‘rgazmalilik (tanbeh emas) tamoyili vazifasini o‘tashi lozim.

3. Akrobatik mashqlarni (oldinga, yonga do‘mbaloq oshish, qo‘llarga tayanib charx-aylanish, to‘siqlardan sakrab o‘tish va h.k.) bajarishni o‘rgatishda bajarilish usullarini aniq ko‘rsatish, ko‘rgazmalilikni ko‘proq qo‘llash, ayniqsa xatolarni to‘g‘rilashda o‘qituvchi ko‘proq amaliy yondashishi lozim.

4. Gimnastika narvonchasi (devor), turnik, brus va boshqa jihozlarda osilish, tortilish, gavdani ko‘tarib oshib tushish, gimnastika skameykasida yurish, muvozanat saqlash, yugurib o‘tish va boshqa harakatlarni o‘rgatishda hamnamunalik, ko‘rgazmalilik, rag‘batlantirish, Xatolarni to‘g‘rilash va hokazo usullari o‘qituvchi tomonidan diqqat bilan qo‘llanilishiga to‘g‘ri keladi.

5. Erkin mashqlar, raqslar, badiiy gimnastika qismlarini (element) O‘rgatishda o‘quvchilarning barcha jismoniy sifatlari qatorida ruhiy(psixologik)holatlarni (qiziqish, quvnoqlik, mustaqil harakatlar va h k.) E’tiborga olish qo‘shiq va musiqalardan foydalanish lozim. Bu jarayonlar o‘quvchilarning ma’naviy va jismoniy jihatdan shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

6. Gimnastika darslaridagi yurish, yugurish, sakrash, to‘plarni uloqtirish,bir-biriga uzatish, otish va boshqa o‘yin-mashqlar yengil atletika, sport o‘yinlari,harakatli o‘yinlar, kurash kabi turlarni aynan takrorlash (yaxshi natija ko‘rsatish, me’yoriy talablarni bajarish) emas, balki qomatni to‘g‘ri o‘stirish, jismoniysifatlarni shakllantirish, ruhiy ozuqa berish kabi tarbiyaviy jihatlarga qaratiladi.

7. Dasturdagi harakatli o‘yinlarni o‘tkazishda bolalarning faqat harakat malakalarini rivojlantirish yoki ruhiy (psixologik) holatlarini yaxshilash bilangina chegaralanib qolmasdan, balki o‘quvchilarning bir-biriga yaxshi munosabati, o‘rtoqlik, ahillik, o‘zaro hamkorlik, muhtoj bo‘lganda (yiqilish, surilish va boshqa holatlarda) tez yordam ko‘rsatish, o‘z shaxsi va jamoasining sharafi, manfaati uchun kurashish kabi eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirishga ham e’tibor qaratish zarur. Darslarda ko‘proq harakatli o‘yinlarni tashkil qilish, bolalarda g‘urur, iftixor hamda jismoniy sifatlarni tarbiyalovchi pedagogik jarayonlar ustuvor turmog‘i lozim.

Shunday qilib, bolaning to‘liq jismoniy rivojlanishini ta’minlaydigan usullarimizning asosiy vazifalari quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

- harakat faoliyatini tashkil etishning barcha shakllari va turlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro bog‘liqligiga rioya qilishlik;

- ongli, faol, mushaklarning to‘g‘ri kuchlanishi, barcha turdagi harakatlarni bajarish, barcha harakatchan sifatlarni maqsadli rivojlantirish istagi;

- bolalarda harakatlarning aniqligi va to‘g‘riligiga erishish, ularning tuzilishiga ko‘ra ongli ravishda bog‘lanishiga o‘rgatish;
- bolalarni o‘z harakatlarini va o‘rtoqlarining harakatlarini tahlil qilishga(nazorat qilish va baholashga) o‘rgatish;
- harakatli o‘yinlar va mashqlarni mustaqil tashkil etish va o‘tkazish ko‘nikmalarini tarbiyalash;
- ijodkorlik va jismoniy faoliyatning namoyon bo‘lishi uchun motivatsiya;
- bola rivojlanishining yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
- ijobiy hissiy va psixologik muhitni yaratishga yordam berish.

Xulosa. Xulosa qilib aytishim mumkinki, boshlang‘ich sinf jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida harakatli o‘yinlardan foydalanish jismoniy sifatlarni tarbiyalabgina qolmay ularning bilimi, dunyoqarashi, tarbiyaviy jihatlariga ham bevosita ta’sir qiladi. O‘yinlar avvalo bola diqqatini oshiradi, uni bir joyga jamlash, fikrlash, tez qaror qabul qilish kabi sifatlarni rivojlantiradi. Bevosita jismoniy rivojlanishga ta’sir etuvchi harakatli o‘yinlar bola fiziologiyasida, moddalar almashinuvi, yurak, qon-tomir, nafas olish, ayirish va asosiysi nerv sistemalarida sezilarli ko‘zga tashlanadi, shu bilan birgalikda o‘sish va rivojlanishga ijobiy hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sportni yanadatakomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ3031sonqarori. 2017-yil 3-iyun
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi “Jismoniytarbiyava sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirishchoratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son farmoni.
3. Abdullaeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘zaro munosabatlar “Boshlang‘ichta’lim“ Toshkent 2000-yil.
4. Rasulov R, Qalandarov M. “Boshlang‘ich sinfda harakatli o‘yinlar”. O‘quvqo‘llanma. — Toshkent, 2006-yil. 95-b.
5. Usmonxo‘djayev T.S.va boshqalar. “Bolalar va o‘smirlar sporti asoslari”. Toshkent. Zamon-Poligraf, 2014. — 189 b.
6. Usmonxodjaev T.S. va boshqalar. “Bolalar va o‘smirlar sporti asoslari”.Toshkent. Zamon-Poligraf, 2014-yil. 189-b.
7. Грибан Г.П. Физическое воспитание студентов аграрных высших учебных заведений: монография / Г.П. Грибан. – Житомир: Изд–во «Рута», 2012. – 514 с.

Internet ma’lumotlar

1. www.google.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.pedagog.uz

Rustamov Shavkat Shuxrat o‘gli
Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari o‘rganilgan. Shuningdek innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari; innovatsion ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligini tashkil etish texnologiyasini eksperimental sinovdan o‘tkazish kabi xususiyatlar o‘rganilgan.*

Kalit so'zlar: *professionallik. kasbiy rivojlanish, texnologik yondashuv, innovatsion kompetentsiya; tarkibiy qismlar; innovatsion faoliyat, innovatsion tarbiya.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧАЩИХСЯ К УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Аннотация. *В данной работе изучены педагогико-психологические основы развития инновационной компетентности. Изучены также такие особенности, как педагогико-психологические особенности подготовки учащихся к учебной деятельности на основе инновационных образовательных технологий; экспериментальная апробация технологии организации взаимодействия педагога и учащихся в Инновационном образовательном процессе.*

Ключевые слова: *профессионализм, профессиональное развитие, технологический подход, инновационная компетентность; составляющие; инновационная деятельность, инновационное воспитание.*

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF PREPARING STUDENTS FOR EDUCATIONAL ACTIVITIES ON THE BASIS OF INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES

Annotation. *The pedagogical and psychological foundations of the development of innovative competence have been studied in this Maola. As well as pedagogical-psychological features of preparing students for educational activities on the basis of innovative educational technologies; such features as experimental testing of the technology for organizing the interaction of teachers and students in the process of innovative education are studied.*

Key words: *professionalism, professional development, technological approach, innovative competence; components; innovative activity, innovative education.*

Kirish. O’zbekistonda islohotlar va yangilanish jarayonlari tezkor sur'atlar bilan amalga oshirilmoqda.Mamlakatimizning istiqboli, bozor iqtisodiyoti qonunlariga asoslangan jamiyat qurish sohasidagi ishlarning samarasi, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liq. Bunda “Ta'lim to`g‘risidagi qonun” shuningdek O‘zbekiston Respublikasi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi farmoni ana shu maqsadni ro`yobga chiqarishga qaratilgan. Bu hujjatlarda ilgari surilgan vazifalarni hayotga tadbiq etish davlatimiz siyosatining ustuvor sohasi bo`lib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son qaroriga muofiq 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Adabiyotlar tahlili. Tarbiyaviy faoliyat mazmuni va komponentlarini qator olimlar tomonidan o‘rganligini ko‘rish mumkin. Bular orasida O. A. Abdullina, N. I. Boldirev,I. V. Kuzmina, N. D.

Levitova, V. S. Ilyina, N. D. Nikandrova, A. I. Piskunova, M. N.Skatkina, V. A. Slastenina va boshqalar tarbiyaviy faoliyat mazmunini tadqiq qilgan bo‘lsalar, ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar metodologiyasi bo‘yicha E. I.Antipova, N. F. Belokur, N. A. Vaxrusheva, M. I. Voloshina, L. V. Lazareva, R. A. Litvak [4], S. V. Mitrosenko, O. P. Pesotskaya, N. A. Tomin, N. M. Yakovleva va boshqalar o‘z tadqiqotlarida ochib berganlar. Respublikamiz olimlaridan A.M.Abdumannotov, A.T.Tilegenov, B.X.Karaeva, G.K.Zaripova, D.A.Axatova, Z.B.Axrorova, K.Yu.Qilicheva, M.O.Inomova, M.S.Salaeva, M.E.Ismailova, N.M.Egamberdieva, N.Ortiqov, O.Musurmonova, R.Mamatqulova hamda S.Nishonovaning ilmiy-tadqiqot ishlarida tarbiya nazariyasi va amaliyoti, ma’naviy merosning shaxs kamolotiga ta’siri, sharq allomalarining komil inson borasidagi qarashlari o‘z ifodasini topganligini ko‘rishimiz mumkin.

Hozirgi davrda mamlakatimizda tarbiyaviy faoliyatining mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikada sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tamonlama rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqildi. Birgina “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir barkamol avlodni tarbiyalashga yo‘naltirilganligini keltirish kifoya.

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir.

Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga yetkazishdir”. Rog‘ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga yetadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi.

Xoja Ahmad Yassaviy o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo‘sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo‘lmoqda. Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari talaba shaxsini hushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisq-u fasod ishlardan o‘zini olib qochishga undaydi”. Shuning uchun ham ta’lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg‘inoniydir. Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon,burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta’limotining yirik namoyondasi Burhoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik,iymon-e’tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Alloma Marg‘inoniy o‘zining axloqiy huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan.

N.F.Radionova tarbiya jarayonini tashkil etishda uning ishtirokchilarini o'zaro munosabatlariga asoslanishini ta'kidlaydi. E.I.Isayev yozadi: ‘‘Tarbiyaning asosiy ma’nosi – har bir tarbiyalanuvchida o‘ziga xos qadriyat sifatidagi munosabat shaklini shakllantirishdir. I.I.Zaretskaya pedagogning ba'zi xususiyatlarini ta'kidlaydi: ‘‘Shaxsda qadriyat sifatida qabul qilish, tarbiyaviy faoliyatga yo‘naltirish, muvaffaqiyatga erishish uchun vaziyat yaratish’’ demakdir deydi.

S.V.Darmodexinning ta'kidlashicha, yoshlar tobora ko'proq tarbiya subyekti sifatida harakat qilmoqdalar, ular havaskor sifatida ishlash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z taqdirini o'zi belgilashga qaratilgan faoliyat shakllarida yaqqol namoyon bo‘layotganini ta’kilaydi. V.V.Rubtsovning so'zlariga ko'ra zamonaviy pedagogning portretini yaratish va uning ta'lim munosabatlari ishtirokchilari bilan o'zaro munosabatlari haqidagi asosiy g‘oyalarini aniqlash tarbiyaviy faoliyatga yo‘naltirishga juda muhim hisoblanadi.

Ma’naviy va insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va munosabat muhim o‘rin egallaydi. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota - onaning ongi, ma’naviyati, bilimi, tarbiyalanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Tahlil va natijalar. Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday metoddan foydalanishiga bog‘liq.

Metod, ya’ni usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

1. So‘z orqali ifodalash usuli.
2. Ko‘rgazmalilik usuli.
3. Amaliy namuna usuli.
4. Rag‘batlantirish va jazo usullariga bo‘linadi.

Bu metodlar o‘z navbatida quyidagi guruhlarga bo‘linadi.

Birinchi guruh - so‘z orqali uzatish, maslahat berish, ma’lumotlarni eshitish orqali qabul qilish, hikoya, ma’ruza, suhbat va boshqa usullarga.

Ikkinchi guruh - kinofilmlar, tasviriy san’at, badiiy san’at va boshqa ko‘rish orqali tarbiyalash usullariga.

Uchinchi guruh - tarbiya jihatlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o‘rnak ko‘rsatish, boshqalar mehnatini misol tariqasida ko‘rsatish.

To‘rtinchi guruh - yaxshi bajarilgan ishlarni o‘rtoqlari oldida ma’qullash, minnatdorchilik bildirish, iqtisodiy va ma’naviy rag‘batlantirish.

Jazo - bu bolaning noto‘g‘ri qilgan ishiga o‘zini iqror qildirish.

Tarbiya - har bir insonning hayotida, yashashi mobaynida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni.

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- talaba tarbiyasidagi faoliyatni o‘qituvchi, ota-ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta’minlash muhimdir.

Tarbiyaviy faoliyatni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish talaba qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan pedagog-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog‘liq. Ular quyidagi omillarni qo‘llash asosida vujudga keladi:

- tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar. Bunda tarbiyalanuvchilarning kundalik hayotiy voqyealari jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv kabilardir;
- tarbiyaviy faoliyatning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi. Tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;
- pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari. Pedagog va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqat va munosabatda bo‘lishlari, ruhiy shart – sharoitlar yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir.
- Talaba-yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish.

Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning samarali yo`llari. Tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o‘ziga xos jihatlari xususidagi mavjud nazariy va amaliy g‘oyalarga, pedagogik bilimlarga tayangan holda tarbiya texnologiyasining tarkibiy qismlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- tarbiyani tashkil etishga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyoj (rag‘bat);
- tarbiya maqsadi;
- tarbiya mazmuni (shakl, metod, usul va texnik vositalar);
- tarbiyachi faoliyati;

- tarbiyalanuvchi faoliyati;
- tarbiya samarasi (natija).

Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning texnologik xaritasi

Talabalarda ijodkorlikni shakllantirish		
Bosqichlari	**Mazmuni**	**Faoliyatdan kutiladigan natija**
Motivatsion- diagnos-tik	Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash darajasini tashxis etish, intelektuallikka doir motivatsion munosabatni tarkib toptirish	Talabalarni tarbiyaviy faoliyatiga nisbatan motivatsiya hosil bo‘ladi.
Axborotli-kognitiv	Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash haqida tushunchalar berish, tasavvurlar hosil qilish, mazmun-mohiyatini anglash	Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga o‘naltirishning yo‘l, usul metodlari tahlil etiladi va qo‘llaydilar.
Faoliyatga doir	Innovatsion tarbiya exnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda faoliyatga yo‘naltirish	Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga yo‘naltirish loyihasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.
Qadriyatli	Innovatsion tarbiya texnologiyalari asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash malakalarini egallash	Talabalarni tarbiyaviy faoliyatga nisbatan qadriyatlar tuzilmasi shakllanadi.

Texnologiya o‘zaro bog‘langan motivatsion-diagnostik, kognitiv, faoliyatga yo‘naltirilgan, kreativ komponentlarni qamrab oladi.

Texnologiyaning motivatsion-diagnostik komponenti motivatsion va diagnostik qismlardan tash-kil topgan.

Xulosa va tavsiyalar. Tarbiyani rivojlantirish xizmatlari talabalarni o‘quv dasturlarida yana ham ko‘proq muvaffaqiyatlarga erishishlariga qaratilgan. Universitet yoki fakultet miqyosidagi ta’limni rivojlantirish xizmatlari maqsadi talabalarni bilim olishlarini kuchaytirishga va ularni ko‘nikmalarini har xil strategiyalar orqali rivojlantirishga mo‘ljallangan, xususan konfidensial maslahat va uchrashuv, maslahat markazlari, maxsus kurslar, individual va guruh yig‘ilishlari, akademik kurslarni integral ta’minlash – bularning hammasi pedagog va boshqa yordamchi xizmatlarning rolini ideal tarzda birlashtiruvchi yondashuv yaratish uchun qaratilgan.

Tarbiya jarayoni bevosita pedagog rahbarligida amalga oshiriladigan talabalar pedagog tomonidan taklif etilgan o‘quv vazifalarini oydinlashtiradilar, o‘quv faoliyati davomida o‘z-o‘zlarini nazorat qiladilar, nazorat natijariga asoslanib, o‘quv faoliyatlarini kuchlari yetgancha to‘g‘rilaydilar, o‘quv faoliyatlari natijalarini o‘zlari va talabalararo tahlil etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 28 b.
2. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari.Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
4. Selevko G. K. Sovremenniye obrazovatelniye texnologii.- M., Narodnoyeobrazovaniye, 1998.
5. Внукова Н.В. Дидактические условия активизации творческой познавательной деятель-ности учащихся 5-7 классов: На материале преподавания математике: автореф. дисс. … канд.пед.наук: 13.00.01– Липецк, 2001. –172 с
6. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari.Avtoreferat. T.: 2004 y.

Tajibayev Shohruh Maqsudovich
Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

PEDAGOGLARDA KASBIY STRESS NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘qituvchilarda kasbiy stress namoyon bo‘lishiniing psixologik xususiyatlari har tomonlama tahlil etilgan. Taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib, stressning quyidagi psixologik jihatlari: hissiy stress, charchoq, nochorlik hissi, nazoratni yo‘qotish, diqqatni jamlash va xotira bilan bog‘liq muammolar, qaror qabul qilishda qiyinchiliklar, muloqotdagi muammolar va ish munosabatlaridagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqilgan. Ularning pedagogik faoliyatga va o‘qituvchilarning umumiy holatiga ta’siri tahlil qilingan. Ushbu hodisa maktab o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga ko‘rsatadigan salbiy oqibatlari yoritilgan va stressni oldini olish bo‘yicha mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar taklif etilgan.*

Tayanch iboralar: *kasbiy stress, hissiy zo‘riqish, tashvish, tushkunlik, g‘azab, tajovuz, apatiya, depressiya, fobiya, psixologik kasalliklar, gipertenziya.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТРЕССА У ПЕДАГОТОВ

Аннотация. *В данной статье комплексно анализируются психологические особенности проявления профессионального стресса у учителей. На основании представленных данных выделены следующие психологические аспекты стресса: эмоциональное расстройство, утомляемость, чувство беспомощности, потеря контроля, проблемы с концентрацией внимания и памятью, трудности в принятии решений, проблемы с общением и изменения в трудовых отношениях. Анализируется их влияние на педагогическую деятельность и общее состояние учителей. Освещены негативные последствия данного происшествия для профессиональной деятельности школьных учителей и предложены возможные меры профилактики стресса.*

Ключевые слова: *профессиональный стресс, эмоциональное напряжение, тревога, депрессия, гнев, агрессия, апатия, фобии, психологические расстройства, гипертоническая болезнь.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PROFESSIONAL STRESS IN TEACHERS

Annotation. *This article comprehensively analyzes the psychological characteristics of the manifestation of professional stress among teachers. Based on the data presented, the following psychological aspects of stress were identified: emotional distress, fatigue, feelings of helplessness, loss of control, problems with concentration and memory, difficulties in decision making, communication problems and changes in work relationships. Their influence on teaching activities and the general condition of teachers is analyzed. The negative consequences of this incident for the professional activities of school teachers are highlighted and possible measures to prevent stress are proposed.*

Key words*: professional stress, emotional stress, anxiety, depression, anger, aggression, apathy, phobias, psychological disorders, hypertension.*

Kirish. O‘qituvchilik kasbi intellektual ehtiyojlarni qondirish va ta’lim jarayonini ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu kasbga xos bo‘lgan yuqori kasbiy mahoratni oshirish va doimiy intellektual talablar uzoq vaqt davomida ruhiy zo‘riqish va stressga olib kelishi mumkin. Stress - maktab o‘qituvchilarining ekstremal sharoitlar va ularning kasbiy faoliyatining xususiyatlari natijasida duch keladigan eng keng tarqalgan ruhiy holatlardan biridir.

Adabiyotlar sharhi. Stress inglizcha “stress” so‘zidan olingan bo‘lib - yuk, bosim, kuchlanish yoki tananing normal holatini buzadigan ta’sirga (jismoniy yoki psixologik) ega rekaksiya sifatida belgilanadi [1]. Shu bois stressni o‘rganish ilmiy jamoatchilikda dolzarb mavzulardan biridir. "Stress" atamasi biologiya fanlarida keng qo‘llaniladi. Psixologiya sohasida stress tushunchasi “tashvish”, “konflikt”, “hissiy tanglik”, “shaxsiy o‘ziga xoslikka tahdid”, “umidsizlik”, “taranglik” va boshqalar kabi holatlarni o‘z ichiga oladi. Stress muammosi turli ixtisoslik va yoo‘nalishdagi olimlarning e’tiborini tortadigan ilmiy tadqiqot ob’yekti bo‘lib qolmoqda. Xorijda stressni va uni boshqarish usullarini o‘rganish bo‘yicha katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ilmiy tadqiqotchilardan: V. Vundt, V. Jeyms, V.

Kannon, R. Lazar, G. Sele kabi olimlarning faoliyati ushbu hodisani tushunishda muhim qadam bo‘ldi. Stress tushunchasining asoschisi kanadalik Gans Selye kalamushlarda tadqiqot o‘tkazdi va ularni muzdek suvda muzlatib qoydi, larzaga soldi, mexanik va kimyoviy omillarga ta’sir qildi, ya’ni ular uchun do‘zax hayotini yaratdi. Natijada kalamushlarda stress paydo bo‘ldi. Bu ularda oshqozon yarasi va boshqa endokrin tizimning buzilishi bilan bog‘liq kasalliklarga olib keldi. Ammo odamlar stressli vaziyatlarda boshqa xil bosimga uchradi. Chunki inson kalamush ems. Insonda ong mavjud, aql bor. O‘zbekistonda ham bu borada ancha ishlar qilingan. Amerikalik psixolog R.Lazarus stressni tushunish uchun nafaqat biz ko‘rgan yoki his qilayotgan tashqi hodisalarni, balki bu hodisalarni o‘z ichimizda qanday qabul qilishimizni ham hisobga olishimiz kerakligini aytadi. Bunda asosiy jarayonlardan biri “tahdidni” baholashdir. Stressga bo‘lgan munosabatimiz o‘zimizga tahdidni qanday baholashimizga bog‘liq. Bizning tanamiz va xatti-harakatlarimiz tahdidga nisbatan ichki idrok va psixologik tuzilishimizga muvofiq javob beradi [2] deydi u. Yana bir olim A. B. Leonovaning tadqiqotlariga ko‘ra, stressni uchta asosiy turga bo‘lish mumkin: ekologik, tranzaksion va tartibga solish. Ekologik yondashuvda stress insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati natijasi sifatida qaraladi. Tranzaksiyaviy yondashuvda stress qiyin vaziyatlarga individual moslashuvchan javob sifatida qaraladi. Tartibga solish yondashuvida esa stress tananing qiyin sharoitlarda faoliyatini tartibga solishga yordam beradigan maxsus holat sifatida qaraladi[3].

O‘qituvchining faoliyatini o‘rganayotganda, ish paytidagi stress o‘qituvchining shaxsiyatiga qanday ta’sir qilishini hisobga olish kerak deb hisoblanadi. Olimlar kasbiy stressni o‘qituvchi va uning ish muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifatida ko‘rishadi, bunda ish talablari uning imkoniyatlaridan sezilarli darajada oshib ketadi va uning kasbiy o‘sishiga tahdid soladi. Kasbiy stress - bu xodimning ishi bilan bog‘liq salbiy hissiy va ekstremal vaziyatlar tufayli yuzaga keladigan keskin holat sifatida namoyon bo‘ladi [4]. Ilmiy adabiyotlarda stress va stressga chidamlilikni o‘rganishga turli xil yondashuvlar mavjud. Misol uchun, Albert Ellis hissiy stress nazariyasini taklif qildi, unda u bizning hissiy muammolarimiz hayotimizda sodir bo‘layotgan voqealardan emas, balki bu voqealarga nisbatan bizda mavjud bo‘lgan mantiqsiz e’tiqodlardan kelib chiqadi, deb ta’kidlaydi [5]. L. Levining stressning psixosotsial nazariyasi, stressni, bizning tanamiz va ongimizga ta’sir qiluvchi, salbiy reaksiyalarni keltirib chiqaradigan psixologik va ijtimoiy omillar ta’sirida yuzaga keladi, deb aytadi [6]. Boshqa tasnifga ko‘ra, fiziologik va psixologik stresslarni ajratish mumkin. Bu so‘nggi o‘n yilliklarda zamonaviy inson hayotida ustun bo‘lgan va axborotning haddan tashqari yuklanishi, ijtimoiy mavqega tahdid va hokazolarda ifodalangan psixologik stresslardir [7].

Metodologiya va tahlil. Bu yerda biz professional stressning psixologik "xususiyatlari" va "sabablari" o‘rtasidagi farqni aniq tushunishimiz kerak. Chunki “xususiyat” deganda insonning stress omillariga nisbatan qanday javob reaksiyasini berishiga aytilsa, “sabablari” esa stressni keltirib chiqaruvchi omillarni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, "xususiyatlar" - bu odamning stressga qanday munosabatda bo‘lishi va "sabablari" - bu stressning nima uchun paydo bo‘lishidir. Misol uchun, o‘qituvchining kasbiy stressining psixologik "xususiyati" sinfdagi qiyin vaziyatlarda tashvishlanishning kuchayishi yoki nochorlik hissi bilan ifodalanishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu stressning "sababi" ishning haddan tashqari oshib ketishi, hamkasblar yoki talabalar bilan qiyin munosabatlar, ma’muriyat tomonidan yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaslik va boshqalar bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, professional stressning "xususiyatlari" uning ma’lum bir shaxsdagi ichki ko‘rinishlarini tavsiflaydi, Shu bilan birga, "sabablar" bu stressga yordam beradigan tashqi omillarga ishora qiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, so‘nggi paytlarda maktablarda o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasidagi nizolar tobora ko‘payib bormoqda. Buning sababi, o‘qituvchilarning jamiyatda o‘z obro‘-e’tiborlarini saqlab qolishda qiynalishayotganliklari va ko‘plab ota-onalar ularga qanday munosabatda bo‘lishlari kerakligi haqida ko‘rsatmalar berib, ularga past nazar bilan qarashni boshlaganliklaridadir. O‘qituvchilarning ota-onalarga nisbatan asosiy shikoyati - bu bolalarni tarbiyalashga qodir emasligi, haddan tashqari yumshoqlik va nazoratsizliklaridadir deb izohlanyapti [8].

Shu sababli, kasbiy stress turli xil psixologik xususiyatlarga ega. Maktab o‘qituvchilarida esa kasbiy stressning quyidagi psixologik xususiyatlari kuzatiladi.

Hissiy zo‘riqish – ya’ni inson ko‘p muammolarni o‘zi o‘ylab topadi, ongida tasavvur qiladi, bo‘rttirib ko‘rsatadi, oqibatda bezovtalik, asabiylik, tashvish, tushkunlik, g‘azab, tajovuz, apatiya, depressiya, fobiya, alamzadalik, qo‘rquv, havotir va boshqalar sodir bo‘ladi. Ya’ni uzini juda yomon his qila boshlaydi. Misol uchun, o‘qituvchi qiyin dars yoki imtihondan xavotirda bo‘lishi mumkin, o‘quvchilarga materialni yetkaza olmasligidan g‘azablanishi yoki o‘quvchilarning xatti-harakati yoki ishlashi haqida tashvishlanishi mumkin. Bunday holatda o‘qituvchilar diqqatni jamlash, eslash, qaror

qabul qilish va muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ba'zan bu hatto gollyusinasiya yeki suisid holatlariga ham olib kelishi mumkin.

Charchoq – insondagi bosim va stressli holat davomli bo‘lsa, surunkali charchoqga olib keladi. Inson doim quvvatsizlikdan, charchoqdan, kayfiyatni yoqligidan, ishtahani yoqligidan, uyqusizlikdan shikoyat kiladi. Depressiya doimiy charchoq, ortiqcha ish va yukni bartaraf eta olmaslik hissi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Nochorlik, himoyasizlik tuyg‘usi inson ongini qamrab oladi. Bunday vaziyatlarda insonda o‘ziga nisbatan ishonchsizlik paydo bo‘ladi. Muammolarni hal qilish yoki vaziyatni o‘zgartirishni iloji yo‘qligini his qiladi. Bu holat muammolarni hal qilish yoki mavjud vaziyatni o‘zgartirish mumkin emasligiga ishonish bilan tavsiflanadi. Ojizlikning namoyon bo‘lishi o‘quvchilarni o‘qitishdagi qiyinchilikdan befoydalik hissigacha davom etadi, bu esa farovonlik va motivatsiyaning yomonlashishiga olib keladi. O‘qituvchi o‘zini nochor his qilishining hissiy oqibatlari sifatida tashvish, befarqlik yoki depressiyani ko‘rish mumkin.

Nazoratning yo‘qolishi. Inson o‘zini o‘zi nazorat qila olmay qoladi. To‘satdan bo‘lgan ta'sirlarga javob bera olmaydi, yangiliklarni tez qabul qila olmaydi. O‘qituvchilarda bunday holatning vujudga kelishiga o‘quvchilarning hatti-harakatlaridagi oldindan aytib bo‘lmaydigan holatlar, kutilmagan vaziyatlar, bir nechta vazifalar yoki o‘z majburiyatlarini bajarishni qiyinlashtiradigan cheklangan resurslar sabab bo‘lishi mumkin. Misol uchun, o‘qituvchi o‘quvchilarning hatti-harakatlarini nazorat qila olmasa, sinfda tartib-intizomni saqlashga harakat qilganda o‘zini nochor his qilishi mumkin. Bu holat sog‘lig‘ining yomonlashishiga, xavotirning kuchayishiga yoki hatto vahimaning qo‘zg‘alishiga olib keladi. Pedagoglarning ruhiyatida nazoratni yoqotish tashvish, qo‘rquv va nochorlik tuyg‘ularini keltirib chiqarishi va ular o‘zlarini zaif his qilishlari va o‘zgaruvchan sharoitlarga samarali javob bera olmasliklari mumkin.

Xotira buziladi va fikrini jamlab ola olmaydi. Eshitgan, ko‘rgan va bilganlarini to‘liq esida saqlab qola olmaydi. Berilgan savollarga to‘liq javob bera olmaydi. Har bir ishni o‘z vaqtida boshlashga qiynaladi. O‘qituvchilar doimiy ravishda ma'lumotlarning haddan tashqari ko‘pligi, talabalarning o‘zlashtirishi uchun yuqori darajadagi mas'uliyat yoki tayyorgarlik va rejalashtirish uchun vaqt yetishmasligi natijasida diqqatni jamlash va eslashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Misol uchun, o‘qituvchi o‘quv rejasini, dasturlarni va darslar uchun materiallarni qisqa vaxt ichida eslab qolishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday doimiy bosim ostida o‘qituvchi yolg‘izlik va tushunmovchilikni his etadi. Bu xotira va diqqatni jamlashga salbiy ta'sir ko‘rsatadi va o‘ziga nisbatan ishonchni pasayishiga olib keladi.

Qaror qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki qo‘rquv va xavotir fikrni va miyani chulg‘ab olaveradi. O‘qituvchining ish faoliyatida bu holat o‘zini namoyon qilishi mumkin, masalan, o‘qitish usullarini tanlashda, ta'lim taraqqiyotini baholashda yoki sinfni boshqarishda aniq qaror qabul qilishda ikkilanishlar vujudga keladi. Biroq, stress ostida o‘qituvchi diqqatni jamlashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, bu esa xato yoki noto‘g‘ri qarorlar ehtimolini oshiradi. Bu vaziyatni oqilona baholash qobiliyatini kamaytiradigan hissiy stress bilan kuchayishi mumkin.

Muloqotda muammolar yuzaga keladi. Stress va hissiy stress tufayli hamkasblar, talabalar yoki ota-onalar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar vujudga keladi. Bunday muammolarga duch kelgan o‘qituvchilar ma'lumotni yetkazishda, og‘zaki muloqotda yoki ziddiyatli vaziyatlarda o‘zlarini fikrlarini aniq va ravshan bayon etishda turli xil qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

Ishga nisbatan munosabatlar o‘zgaradi. Ishga qiziqishning yo‘qolishi, beadablik, hamkasblardan uzoqlashish yoki ishdan charchash hissi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu xususiyatning namoyon bo‘lishi har xil holatlarda aks etadi. Misol uchun, xodim o‘z sa'y-harakatlari to‘g‘ri baholanmaganligini his qilsa uning motivatsiyasi va ishga bo‘lgan qiziqishining yo‘qolish xavfiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, u hamkasblari yoki rahbariyatiga nisbatan beodoblik qilishi, qo‘pol munosabatda bo‘lishi, ish muhitidan begonalashishi yoki jismoniy va hissiy jihatdan charchaganini his qilishi mumkin.

Demak, stress inson ruhiyatiga juda yomon ta'sir qiladi va organizmga zarar yetqazadi. Kichik stresslar muqarrar va zararsiz hisoblanadi, chunki odamlar stresslarsiz yashay olmaydi, har qadamda stresslar mavjud. Insonlar uchun haddan tashqari muamolarni keltirib chiqaradigan stresslar haddan tashqari stresslardir. Stresslar oqibatida quyidagi psixologik kasalliklar kelib chiqadi. Masalan: angena, piktoriz, astma, gastrit, oshqozon yarasi, hattoki tajovuskor reaksiyalar o‘z joniga qasd qilishga ham olib kelishi mumkin.

Stresslarning doimiyligi inson organizmida kasallikga moyillikni oshiradi. Surunkali stresslar yuqori qon bosimi (gipertenziya), yurak kasalliklari, shuningdek immunitet tizimining susayishi bilan bog‘liq kasalliklar, metabolik va boshqa kasalliklarga olib keladi. Masalan: ishemik yurak kasaligi o‘lim va surunkali kasalliklarning asosiy sababi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Stressdan halos bo‘lishning eng yaxshi yo‘li hayotdagi muammolarga berilmaslikdir. Ammo agar bu muammo hayotda doimiy hodisaga aylangan bo‘lsa, uni bartaraf etish uchun o‘z vaqtida zarur choralarni ko‘rish lozim. Psixologga murojaat qilish yoki o‘zingiz istamagan fikrlarni mustaqil ravishda olib tashlashga harakat qilish kerak, kuchlanish va tashvishlardan xalos bo‘lish, hayotdagi qiyinchiliklarga ijobiy tomondan qarashga harakat qilinishi shart va ularga yopishib qolinmasligi kerak, stress kasalliklarga olib kelmasligi uchun hayotdagi ba’zi qiyinchiliklarni juda hissiy jihatdan qabul qilmaslik kerak, shaxsiy kundaliklar yuritilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Hayotdagi tajriba va qiyinchiliklarning yozilishi ushbu muammolarning sababini topishga yordam beradi. Hayotdagi muammolarni qog‘ozga chizishga va undan keyin uni yo‘q qilish kerak. Bu insonga keraksiz fikrlardan xalos bo‘lishga yordam beradi. Meditatsiya qilish, mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishni boshlash, ko‘pincha jismoniy va ruhiy dam olishni tashkil qilish lozim.Tanani salqin suv bilan yuvish kabi usullar dam olishga va taranglikni bartaraf etishga yordam beradi. Jismoniy mashqlar ham foydali, u boshingizdan tashvishli fikrlarni olib tashlaydi. Biroq, suzish tanadagi salbiy ta’sirlardan xalos bo‘lishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Психология стресса и методы его профилактики: учебно-методическое пособие / Авт.-сост. – ст. преп. В.Р. Бильданова, доц. Г.К. Бисерова, доц. Г.Р. Шагивалеева. – Елабуга: Издательство ЕИ КФУ, 2015. – 142 с.
2. Лазарус Р. С. Теория стресса и психофизиологические исследования // Эмоциональный стресс / Под ред. Л. Леви. – Л.: Медицина, 2010. 135 с
3. Леонова А. Б., Чернышева О. Н. Психология труда и организационная психология: современное состояние и перспективы развития. – М.: Радикс, 2009. 237 с.
4. Самоукина Н. В. К проблеме манипуляции в педагогической деятельности (терминологический анализ, практические процедуры защиты) [Текст] / Н. В. Самоукина // Школа здоровья. 1996. Т.3. № 1. С. 57-66
5. Эллис А. Гуманистическая психотерапия. Рационально-когнитивный подход. СПб.: СОВА; М.: ЭКСМО-ПРЕСС, 2002. 272 с.
6. Леви Л. Психосоматические заболевания как следствие профессионального стресса [Текст] / Психосоциальные факторы на работе и охрана здоровья / Л. Леви. Женева, М., 1989.
7. Российские педагоги в зеркале международного сравнительного исследования педагогического корпуса (TALIS 2013) / под ред. Е. Ленской, М. Пинской ; Нац. исслед. ун-т «Высшая школа экономики», Ин-т образования. – М. : Изд. дом Высшей школы экономики, 2015. – 36 с
8. Ефимова, Г.З. Учителя-мужчины и учителя-женщины: общее и различное в социологических портретах [Электронный ресурс] / Г.З. Ефимова // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ». –2015. – Т. 7. – № 5. – URL : https://naukovedenie.ru/PDF/137PVN515.pdf (дата обращения: 03.03.2018)
9. Васильченко М.В., Желдоченко Л.Д. Феномен профессионального стресса в педагогической деятельности // Интернет-журнал «Мир науки» 2017, Том 5, номер 6 https://mir-nauki.com/PDF/43PSMN617.pdf (доступ свободный). Загл. с экрана. Яз. рус., англ.
10. Psychological characteristics of professional stress elimination in pedagogical activity. Karshieva Dilafruz Suyunovna. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol.8 No.7,2020

Muradova Mavjuda Radjabovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

O‘QUVCHILARDA EMPATIK QOBILIYATLAR RIVOJLANISH OMILLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilarda empatik qobiliyatlar rivojlanish omillarining o‘rganish tarixi, nazariy asoslari empatiya va empatik qobiliyatlarning rivojlanishining pedagogik va psixologik xususiyatlari o‘rganishning ilmiy adabiyotlarda talqini haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *empatiya, empatik qobiliyatlar, empatiyani rivojlantiruvchi munosabatlar, empatiyadagi identifikatsiya, hamdardlik mexanizmi, hissiy holat.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ ЭМПАТИЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются об истории изучения факторов развития эмпатических способностей у студентов, теоретических основах эмпатии и интерпретации педагогических и психологических особенностей развития эмпатических способностей в научной литературе.*

Ключевые слова*: эмпатия, эмпатические способности, отношения, которые развивают эмпатию идентификация в эмпатии, механизм симпатии, эмоциональное состояние.*

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF EMPATHIC ABILITIES IN STUDENTS

Annotation. *This article discusses the history of studying factors in the development of empathic abilities in students, the theoretical foundations of empathy and the interpretation of pedagogical and psychological features of the development of empathic abilities in the scientific literature*

Key words: *empathy, empathic abilities, relationships that develop empathy identification in empathy, mechanism of sympathy, emotional state.*

В теории и практике преподавания основ атлетической гимнастики большинство преподава- телей и тренеров, в первую очередь, указывают на необходимость начинать упражнения с вводного комплекса, направленного на развитие и укрепление основных мышечных групп (сгибателей и разгибателей мышц рук, ног, живота, спины), что обуславливает целесообразность включения средств атлетической гимнастики в основную часть занятия по физической культуре с использованием гантелей, различных отягощений, тренажерных устройств и гимнастических снарядов.

Тестовое контрольное упражнение.

Занятия физической культурой в процессе организации и проведения исследований а в дополнительных кружковых занятиях физическая подготовленность учащихся определялась следующими тестами, т. е. тестовыми контрольными упражнениями.

Таблица 1

Название упражнения	Порядок выполнения
Тяга на турнике	Упражнения на подтягивания выполняются на высоком или низком жиме лежа. Это включает в себя раскрытие рук на ширине плеч, удерживание ног в парном положении при подтягивании, а также полное прилегание шеи к перекладине жгута при подтягивании. Это упражнение выполняется двумя разными способами а именно простым подтягиванием и подтягиванием в положении лежа.
Письмо согнутыми руками, опираясь на Брюс	В этом упражнении руки раскрыты на ширине плеч, крепко держатся за перекладины и выписываются, держа туловище прямо, руки согнуты. При выполнении данного упражнения необходимо держать туловище прямо, ноги ставить в парное положение, а при наборе текста, сгибая руки, подмышки должны полностью приходиться на перекладину брюк.
Упражнения для общей и специальной физической подготовки.	При этом в упражнении 1 в течение 2 минут сидите, сложив руки за головой. В процессе выполнения упражнения требуется полностью стоять и сидеть. В упражнении 2 руки лежа за головой поднять туловище и подвести колено к

	голове. Бег на время и без времени до 1-3 км в упражнении 3.
Упражнения на равновесие	В процессе выполнения упражнений на равновесие выполняются следующие упражнения, а именно: стоя “Ласточка” на одной ноге на соло (бревно) с вытянутыми в стороны руками Выполняются упражнения на удержание в течение 1-2 минут, стояние на лопатах в вертикальном положении, вращение туловища, как обруч, на расстоянии 15-20 метров в стороны, опираясь руками на пол вперед-назад, размахивая ногами.

Выводы и рекомендации. Были рассмотрены и подробно освещены такие вопросы, как основные задачи и методические особенности гимнастики, организация и проведение гимнастических занятий в школе, методика обучения школьников гимнастическим упражнениям, подвижные игры по обучению гимнастическим упражнениям. В связи с этим были проанализированы и изучены соответствующие тематике аспекты организации и проведения общих и специальных упражнений, направленных на развитие силовых, выносливых и скоростных способностей, из научных трудов, учебных и других методических пособий. Из рассмотренных источников стало известно, что у учащихся, занимающихся гимнастикой в школе, проявляются все физические качества. Также учащимся часто приходится усваивать опасные элементы, которые заставляют их преодолевать страх, торможение защитного рефлекса.

Литература

1. Лебедихина, Т. М. Гимнастика: теория и методика преподавания: [учеб. пособие] / Т. М. Лебедихина; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. унт. - Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2017. - 67 с.

2. Арслонов К.П. Роль физкультуры и спорта в содействии личностному и социальному развитию учащихся // Academy. 2020. - № 10 (61). - С. 45. Акрамова Г.М. Как физическая культура в школах приносит пользу учащимся // Научно-методический журнал. - 2020. - № 10 (61). - С. 8.

3. Акрамова Г. М. Роль гимнастики в школе // Вестник науки и образования. - 2021. - №15-3. - С. 118.

4. Мазилкина, В. Е. Роль спортивной гимнастики для ученика начальных классов / В. Е. Мазилкина, Н. В. Бурова. — Текст: непосредственный // Юный ученый. -2020. - № 2.1 (32.1). - С. 39.

5. Гудимов, С. В. Атлетическая гимнастика: формирование тела со свободными отягощениями : учебное пособие С. В. Гудимов. - Ярославль : Изд-во ЯГПУ, 2009. - 55 с.

6. Казантинова, Г. М. Физическая культура студента: учебник / Г. М. Казантинова, Т. А. Чарова, Л. Б. Андрющенко. - Волгоград, 2017.

7. Ковалев, Н. К. Актуальные проблемы совершенствования программы по физической культуре в университетах страны/ Н. К. Ковалев, В. А. Уваров // 1 Всесоюз. науч-метод. конф. : тезисы докладов. - Ростов н/Д : РГУ 1991. - 113 с.

8. Крючек, Е. С. Аэробика: содержание и методика оздоровительных занятий: учебно-методическое пособие / Е. С. Крючек. - М. : Терра-Спорт, 2001. - 64 с.

Eshboyev Shoxruz Xon Farxodovich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti
tayanch doktoranti

ZIDDIYATLAR KLASSIFIKATSIYASI. ZIDDIYATLI VAZIYATLARNING KELIB CHIQISH SABABLARI

Annotatsiya. *Ziddiyatli vaziyatlar insonning jamiyatdagi hayoti va uning boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabatlarining ajralmas bir qismi deyish mubolag‘a bo‘lmaydi. Nizolar barcha joylarda vujudga keladi va har birimizni istalgan joyda kutishi mumkin, masalan, ish joyimizda, ta’lim muassasamizda, do‘kon yoki bozor, jamoat transportlarida va hatto uyda. Ushbu vaziyatni zararsizlantira olish qobiliyati har qanday odam uchun juda muhim mahorat va jamiyat uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu maqolada nizo turlari va klassifikatsiyasi, uni paydo bo‘lishi sabablari va uni zararsizlantirish uchun keyslar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ziddiyat, ziddiyatli vaziyat, nizo, mojaro, bipolyar, faol, funksional (konstruktiv) nizolar, disfunksional (buzg‘unchi) nizolar, obyektiv faktorlar, tashkiliy va boshqaruv faktorlar, ijtimoiy-psixologik faktorlar, shaxsiy faktorlar, noqulay ijtimoiy-psixologik iqlim, avlodlar to‘qnashuvi.*

КЛАССИФИКАЦИЯ КОНФЛИКТОВ. ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЙ

Аннотация. *Конфликтные ситуации являются неотъемлемой частью жизни человека в обществе и его взаимодействия с другими людьми. Конфликты возникают во всех местах и могут ждать каждого из нас где угодно, например, на работе, в учебном заведении, в магазине или на рынке, в общественном транспорте и даже дома. Способность нейтрализовать эту ситуацию-очень важный навык для любого человека и одна из насущных проблем для общества. В данной статье перечислены виды и классификация конфликта, причины его возникновения и кейсы по его нейтрализации.*

Ключевые слова: *конфликт, конфликтная ситуация, конфликт, конфликт, биполярный, активный, функциональный (конструктивный) конфликт, дисфункциональный (деструктивный) конфликт, объективные факторы, организационно-управленческие факторы, социально-психологические факторы, личностные факторы, неблагоприятный социально-психологический климат, конфликт поколений.*

CLASSIFICATION OF CONFLICTS. REASONS FOR THE ORIGIN OF CONFLICT SITUATIONS

Annotation. *It would not be an exaggeration to say that conflict situations are an integral part of a person's life in society and his interaction with other people. Disputes arise in all places and can await each of us anywhere, for example, at work, in our educational institution, in a store or market, in public transport and even at home. The ability to neutralize this situation is a very important skill for any person and one of the pressing issues for society. This article cites the types and classification of the dispute, the reasons for its occurrence and the keys to neutralize it.it.*

Keywords: *conflict, conflict situation, conflict, conflict, bipolar, active, functional (constructive) conflicts, dysfunctional (destructive) conflicts, objective factors, organizational and management factors, socio-psychological factors, personal factors, unfavorable socio-psychological climate, generational conflict.*

Kirish. Insoniyat tarixi, uning odob-axloqi, madaniyati, aql-zakovati uzluksiz g‘oyalar, intilish kurashi, kuchlar va manfaatlar raqobati ziddiyatli vaziyatdan chetlab o‘tgan emas. Har bir inson hayoti davomida muntazam ravishda turli xildagi to‘qnashuvlarga duch keladi. Maqsadlarga erishish doim ham osan bo‘lavermaydi. Inson muvafaqqiyatsizlikka uchraganida, ko‘p hollarda atrofdagilar aybdor ko‘rina boshlaydi. Atrofdagilar, o‘z navbatida, qarindoshlari, do‘stlari yoki ishdagi hamkasblari bo‘lishidan qat’iy nazar uning muammolari va muvaffaqiyatsizliklarida aybdor deb hisoblashi mumkin. Deyarlik har bir noroziliklar va hatto qarama-qarshilikka aylanishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklar keskinlikni keltirib chiqaradi va ziddiyatli vaziyatlarni vujudga keltiradi. Har bir inson hayotiy qarama-

qarshilikka ega. Biror narsadan norozi bo‘lishi, yangilikni dushmanlik bilan qabul qilishi va barcha narsaga rozi bo‘lmaslik odatiy holatdir. Bularning barchasi tabiiy, chunki inson tabiati shunday shakllangan.

Mojarolar muqarrar, degan xulosaga kelish juda asosli. Ammo, aslida, hamma narsa biroz boshqacha bo‘lishi ham mumkin. Vaqti-vaqti bilan odamlar o‘rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar nizo bilan tugamaydi.

Agar ziddiyatlar shaxsiy rivojlanish uchun rag‘bat bo‘lsa, o‘z ustida ishlashga undasa, uni ma’naviy va psixologik jihatdan mustahkamlasa va boshqalar bilan birdamlikni oshirsa, bunday ziddiyatlarda xavfli va salbiy hodisa sifatida qaramaslik darkor. Ammo buzg‘inchi potensiyaga ega bo‘lgan, munosabatlarni yomonlashtiradigan, ijtimoiy-psixologik noqulayliklarni tug‘diragidan va insonning izolatsiyasini kuchaytiradigan mojarolardan yiroqroq bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbekistonlik olimlarning (V.M. Karimova, O.E. Hayitov va boshqalar) fikriga ko‘ra, ziddiyatli vaziyatlar ikki qarama-qarshi istaklarning qarashlari, maqsadlari, manfaatlari va raqobati ortidan vujudga keladi. Zamonaviy psixologiyaning dolzarb vazifalari safidan tushunmovchiliklarni oldini olish, ziddiyatni mohiyatini anglash, nizolar turlari va ularni klassifikatsiyalash hamda nizolarni hal qilishning uslubiy tizimini ishlab chiqish o‘rin olgani shubhasiz.

Aksariyat hollarda mojaro tushunmovchilik, norozilik, dushmanlik yoki tahdidlarni keltirib chiqaradi. Har qanaqa holatda ham oldini olish kerak bo‘lgan mutlaqo salbiy hodisa deb ham izohlanadi. Ziddiyatli vaziyatlar, har qanday ijtimoiy hodisa kabi, naqafat o‘ziga xos ta’rifga, balki o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Ziddiyatli vaziyatlarning uchta xarakterli xususiyatga ajratish mumkin:

1. **Bipolyarlik** – (ikki qutblilik) ham qarama-qarshilik, ham o‘zaro bog‘liqlikni anglatadigan xususiyat o‘z ichiga mavjud ziddiyatning imkoniyatlarini oladi. Biroq, bipolyarlikning o‘zi to‘qnashuvni anglatmaydi.
2. **Faoliyat (yoki faol)** – tomonlarning qarama-qarshiligi va kurashi tushuniladi. Faol ziddiyatni paydo bo‘lishi uchun mojaro tomonlarning o‘zini konfliktli vaziyatning anglashi orqali o‘rnatiladigan impuls lozim.
3. **Nizolarning mavzulari** – subyekt konflikli vaziyatlarni yaratishga qodir bo‘lgan, shuningdek, mojaro jarayonida ta’sir ko‘rsatadigan faol tomon, bu esa, o‘z navbatida, uning maqsadlariga bog‘liq. Qarama-qarshilik faqat konfliktli tafakkurga ya’ni ikkita bir biriga mos kelmagan qarashlarga ega bo‘lgan insonlar uchun ziddiyatli vaziyatlarning manbai bo‘lishi mumkin.

Tashkilot faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi nizolar klassifikatsiyasi. Guruh yoki tashkilot faoliyatiga ta’siri nuqtai nazaridan qarama-qarshiliklar ikki xil ya’ni funksional yoki disfunksional nizolar bo‘lishi mumkin.

Funksional (konstruktiv) nizolar – asosli qarorlar qabul qilishga olib keladigan hamda ziddiyat ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga yordam beradigan nizolar. Ushbu turlari nizolarning bir nechta funksional oqibatlari mavjud:

1. Nizolarni har ikkala tomon manfaatlariga mos keladigan tarzda hal qilinadi, har ikkala tomon ham muammoni hal qilishda birdek ishtirok etadi;
2. Birdamlikda qabul qilingan qaror imkon qadar tez va oson amalga oshiriladi;
3. Ziddiyatlik ikkala tomon ishtirokchilari muammoni masalalarni hal qilishda samarali hamkorlik qilish mahoratini egallaydi;
4. Rahbar va xodim o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelganida, nizolarni hal qilishning ushbu amaliyoti “bo‘ysunish sindromi”ni bartaraf qilishga imkon yaratadi; (chunki pastroq lavozimdagi xodimlar, yuqori lavozimdagilarga o‘z nuqtai nazarini ifoda etishdan qo‘rqadi.)
5. Tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi;
6. Mojaro ishtirokchilari amaliyotdan so‘ng nizolarni salbiy va salbiy oqibatga olib keladigan vaziyat deb hisoblamaydi.

Funksional to‘qnashuvda rahbar va xodim faoliyati bilan bog‘liq biror masala bo‘yicha kelishuvga erisha olmasa, amaliyot suhbatidan va har ikkala tomon subyektiv fikrini bildirganidan so‘ng, murosa topiladi va rahbar va xodim umumiy til topadi, so‘ng ularning munosabatlari ijobiy ohangga ega bo‘ladi.

Disfunksional (buzg‘unchi) nizolar – bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ya’ni bir tomon manfaatiga qarab qaror qabul qilinishi hamda tomonlar o‘rtasidagi samarali o‘zaro ta‘sirga to‘sqinlik qilishi ortidan vujudga keladi. Mojaroning disfunksional oqibatlari quyidagilardan iborat:

1. Tomonlar o‘rtasida raqobatdoshlikni va qarama-qarshi munosabatlardi shakllantiradi;
2. Ijobiy munosabatlar va hamkorlikka intilishni yo‘qqa chiqaradi;
3. Tomonlar bir-birini dushman sifatida qabul qilishi, bir tomon ikkinchi tomonning pozitsiyasini faqat noto‘g‘ri, o‘zinikini to‘g‘ri deb hisoblashiga olib keladi;
4. Tomonlar o‘zaro aloqalarni kamaytiradi va hatto butunlay to‘xtatish istagini paydo qiladi;
5. Mojaroda g‘alaba qozonish umumiy yechim topishdan muhimroq ekanligini hisoblaydi;
6. Yomon kayfiyat, salbiy his-tuyg‘ular, nozorilik hissini uyg‘otadi.

Konstruktiv bo‘lmagan to‘qnashuvlar, tomonlar o‘rtasidagi urush, jismoniy zo‘ravonlik, oilaviy janjallar va shu kabi salbiy hodisalarga olib keladi. Nizolar ortidan munosabatlarni tiklash ya’ni funksional nizolarni yuritish amaliyoti buzg‘unchi nizolar amaliyotidan ko‘ra qiyinroqligi va unga bar-ham berish inson irodasiga bog‘ligligi bilan ahamiyat kasb etadi. Afsuski, jamiyatimizda disfunksional nizolar konstruktiv nizolardan ko‘ra ko‘proq uchraydi

Nizolarni hal qilishda uni qanday guruhga mansub ekanligi, guruhlar bir-biridan nimasi bilan farq qilishi, nizolarning asosiy bosqichlari va ularning dinamikasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mojarolarning faktorlarini asosiy to‘rt guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Obyektiv faktorlar;
2. Tashkiliy va boshqaruv faktorlari;
3. Ijtimoiy-psixologik faktorlar;
4. Shaxsiy faktorlar.

Nizolarning obyektiv sabablari – ziddiyatli vaziyatdan oldingi vaziyatda inson tomonidan sun’iy (kam hollarda tabiiy) ravishda shakllantirilgan belgilar keltirib chiqaradi.

Ko‘p holatlarda hayot jarayonida tabiiy ritmda yuzaga keladigan insonlarning ma’naviy va moddiy manfaatlarining to‘qnashuvi ortidan vujudga keladi. Rahbar ko‘pincha qo‘l ostidagilarini haqorat qiladi. Xodimlar o‘z qadr-qimmatini himoya qilib, ziddiyatli xatti-harakatlarga sodir etishga majbur bo‘ladi.

Hayot va faoliyat uchun zarur bo‘lgan ma’naviy va moddiy ne’matlarning kamligi obyektiv sabablarning biri bo‘lishiga hizmat qiladi. Hozirgi kunlarda jamiyatimizda ba’zi tovarlarning tanqisligini kuzatishimiz mumkin. Bu albatta insonlar hayotiga hamda faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi va ular o‘rtasidagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Bu yerda biz nizolarning obyektiv sababi moddiy resurslarni taqsimlash ortidan vujudga kelishiga guvoh bo‘lamiz.

Nizolarning tashkiliy va boshqaruv faktorlari – bir ma’noda bu sabablarni subyektiv deb ham atash mumkin. Subyektiv sabablari turli tashkilotlar, guruhlar, jamoalarni yaratish, shuningdek, faoliyati kabi jarayonlarda namoyon bo‘ladi.

Asosiy tashkiliy va boshqaruv sabablar:

1. Struktiv-tashkiliy sabablar – tashkilot tuzilmasi vas hug‘ullanayotgan faoliyati unga qo‘yilgan talablarga javob bermasligi bilan izohlanadi. Tashkilotni loyihalashda, uning vazifalarini prognozlashda xatolarga yo‘l qo‘yilishi ortidan ushbu sabablar kelib chiqadi. Tashkilot faoliyati davomida uning oldida turgan vazifalari doimiy ravishga o‘zgarib turishiga sabab bo‘ladi.
2. Funksional-tashkiliy sabablar – qoida tariqasida, tashkilot va tashqi muhit, tashkilotning turli bo‘linmalari yoki alohida xodimlar o‘rtasidagi aloqalarning optimalligi yo‘qligi bilan bog‘liq. Xodim-larning huquqlari va uning majburiyatlari o‘rtasidagi nomuvofiqlik tufayli nizolar paydo bo‘ladi. Ya’ni, ish haqi va bajarilgan ishlarning sifati yoki hajmi o‘rtasidagi tafovut; mehnat kodeksida belgilangan ish vaqtidan ortiq vaqtda ishlaganligi uchun norag‘batlantirish; va shu kabilar.
3. Shaxsiy-funksional sabablar – xodimning egallab turgan lavozimi talab qiladigan kasbiy, axloqiy va boshqa fazilatlarga asoslanib, yetarli darajaga mos kelmasligi. Xodim tashkilotdagi la-vozimidan ortiq fazilatlar talab qilinsa, hamkasblari yoki yuqori boshqaruvdagilar bilan o‘rtasida ziddi-yatli munosabatlar paydo bo‘lishi mumkin, chunki talab doirasidan yuqori fazilatlarda xatolarga yo‘l qo‘yishi nafaqat tashkilot balki tashkilotning boshqa xodimlari manfaatlariga ham o‘z ta’sirini ko‘rsa-tadi.
4. Vaziyat va boshqaruv sabablari – rahbar va xodim tomonidan o‘zlariga yuklangan vazifalarni hal qilish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar oqibati. Noto‘g‘ri boshqaruv qarori qabul qilinishi, uning ijrochilari va muallifi o‘rtasida nizo kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Xodim o‘ziga yuklangan vazifalar bajarmasa yoki noto‘g‘ri bajarsa, ushbu vaziyatlar yuzaga keladi.

Nizolarning ijtimoiy-psixologik sabablari – shaxslararo munosabatlarga xos bo‘lgan ijtimoiy-psixologik shartlariga asoslanadi. Shuning uchun uni bir necha turlarga bo‘lishimiz mumkin:

1. Noqulay ijtimoiy-psixologik iqlim – bu qadriyatlarga yo‘naltirilgan birlik bo‘lmagan va odamlar o‘rtasida birdamlik darajasi past bo‘lgan vaziyatlar;

2. Ijtimoiy-me’yorlar anomaniyasi – tashkilot yoki jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy-normalarning nomuvofiqligi. Bu ikki tomonlama standartlarni keltirib chiqarishi mumkin – bir tomon o‘zi amal qilmagan narsalarni boshqalardan talab qiladigan holat;

3. Ijtimoiy kutishlar va ijtimoiy rollarni amalga oshirish va funksionallikni bajarish o‘rtasidagi nomuvofiqlik – bir tomon taxminlarni shakllantirib bo‘lganidan so‘ng ham, ikkinchi tomon bundan behabarligi bilan bog‘liq;

4. Avlodlar to‘qnashuvi – bir tashkilotladi xodimlarning tajribalari, yoshi va xatti-harakatlari o‘rtasidagi tafovut bilan bog‘liq;

5. Norasmiy tuzilmada buzg‘unchi rahbarning mavjudligi – norasmiy tashkilotda buzg‘unchi rahbar bo‘lsa, u shaxsiy maqsadlariga erishish yo‘lida, rasmiy rahbarning ko‘rsatmalariga emas, balki uning ko‘rsatmalariga bo‘ysunadiganlar guruhini tashkil qilishi mumkin;

6. Jamoaning yangi a’zolarining ijtimoiy-psixologik moslashuvidagi qiyinchiliklar ko‘p hollarda yangi odam tashkilotga, kompaniyaga yoki boshqa odamlar guruhiga qo‘shilganida paydo bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda jamoaning barqarorligi buziladi, bu esa uni ichkaridan ham, tashqaridan ham salbiy ta’sirlarga moyil qiladi;

7. Psixologik mos kelmaslik – bu insonlarning ba’zi psixologik mezonlarga ko‘ra bir-biriga mos kelmasligi holat: xarakter, temperament va boshqalar kiradi.

Nizolarning shaxsiy sabablari – tomonlarning psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq. Inson psixikasida uning tashqi dunyo va uning atrofidagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarida sodir bo‘ladigan jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Bir tomon ikkinchi tomonning xatti-harakatini nomaqbul deb baholashi – har bir insonning xulq-atvorining tabiati uning shaxsiy va psixologik xususiyatlariga, shuningdek uning ruhiy holatida, boshqa shaxsga yoki vaziyatga munosabatiga bog‘liq.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiyaning past darajasi - shaxs konfliktli vaziyatlarda samarali harakat qilishga tayyor bo‘lmagan yoki nizodan oldingi vaziyatdan chiqish uchun ko‘plab nizosiz usullardan foydalanish mumkinligi haqida tasavvurga ega bo‘lmagan holatlarda o‘zini namoyon qiladi.

Psixologik barqarorlikning yetarli emasligi - odam ijtimoiy o‘zaro ta’sir paytida stress omillarining ta’siriga yetarli darajada javob bera olmasligi bilan izohlanadi.

Yetarlicha rivojlanmagan empatiya qobiliyati, agar bir kishi boshqasining hissiy holatini tushuna olmasa va unga hamdard bo‘la olmasa, nizoning sababi bo‘ladi.

Intilishlar darajasining oshishi yoki pasayishi, agar odam o‘zini o‘zi qadrlamasa yoki o‘zining kuchli va imkoniyatlarini baholamasa, ziddiyatga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, konfliktlarni tan olish va olidni olish – muloqot madaniyatini egallash, o‘zini tuta bilish, boshqa odamlarning shaxsiyatiga hurmat ko‘rsatish, ularga ta’sir qilishning turli usullarini qo‘llash demakdir. Hech narsa har xil tushunmovchilarlarni bartaraf etishga asosiy odob-axloq ko‘nikmalarini bilish va ularni o‘zlashtirish qobiliyatini, shuningdek, samarali aloqa o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash, o‘z uslubini rivojlantirish qobiliyatini o‘z ichiga olgan malakali, madaniyatli muloqot kabi kuchli yordam bera olmaydi.

Agar inson qiyin, qarama-qarshi vaziyatga vaziyatga duch kelganida, eng muhimi, xatti-harakatlarini nazorat qilish va ijtimoiy jihatdan malakali harakatlar qilishi lozim. Agar mojaroli vaziyat tajriba va his-tuyg‘ularga asoslangan bo‘lsa, unda yoqimsiz his-tuyg‘ular juda uzoq vaqt davomida qolishi mumkin. Shu sababli, hissiy holatni boshqarish, xatti-harakatlarni va reaksiyalarni nazorat qilish malakasini shakklantirish va uni rivojlantirish darkor. Bunda doimo asab tizimi barqaror va muvozanatda bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.M.Karimova, O.E.Hayitov, F.A.Akramova, N.X.Lutfullayeva – Psixologiya, Toshkent – 2007.
2. O.E. Hayitov – Boshqaruv psixologiyasi. Toshkent – 2021
3. B.T. Ataxanov, M.B. Isabayev – Fuqarolik jamiyati fanidan atamalar lug‘ati. Toshkent –2016
4. V.I. Novoseltsev, S.A Barkalov, D.A. Novikov, A.I. Polovinkina. V.N. Shipilov – Модели управления конфликтами и рисками.
Voronej – 2008
5. V.I. Novoseltsev, D.B. Desyatov – Теория конфликта.Voronej – 2008

UDK:152.22

Abdullayeva Aropat Rustamovna
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi

YOSHLARNING OILAGA MA’NAVIY TAYYORLIGINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATDAN O‘RGANISH NATIJALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanish,shuningdek, yoshlarni oila hayotiga ular asosida tegishli malakalar va ko‘nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri ekanligi haqida amaliy natijalar tahlili yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, xavsizlik, ijtimoiy, ma‘naviyat, malaka, omil, nosog‘lom, noqobil, nizo, guruh.*

РЕЗУЛЬТАТЫ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ДУХОВНОЙ ГОТОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ К СЕМЬЕ

Аннотация. *В данной статье освещается анализ практических результатов, свидетельствующих о том, что прочность семьи является определяющим фактором, определяющим экономическую, социальную, патполитическую, национальную безопасность общества, его процветание и развитие, а также о том, что духовная подготовка молодежи к семейной жизни является одной из важнейших задач сегодняшнего дня по подготовке молодежи к семейной жизни путем предоставления наиболее важных знаний по семейной психологии и формирования на их основе соответствующих навыков и умений.*

Ключевые слова: *семья, безопасность, социальное, духовность, квалификация, фактор, нездоровый, неблагоприятный, конфликт, группа*

THE RESULTS OF THE STUDY OF THE SPIRITUAL READINESS OF YOUNG PEOPLE FOR THE FAMILY FROM A SOCIO-PSYCHOLOGICAL NATURE

Annotation*. This article covers the analysis of practical results on the fact that the strength of the family is considered a decisive factor determining the economic, social, political, national security of society, its prosperity, development, as well as providing the most important knowledge of Family Psychology in the spiritual preparation of young people for family life and, on their basis, forming the relevant*

Key words: *family, debauchery, social, spirituality, qualification, factor, unhealthy, unstable, disput, group*

Kirish. Mamlakatimizda oilaga jamiyatning asosi, muhim bir bo‘g‘in sifatida qaraladi va u ijtimoiy ahamiyat kasb etgan. Zero, barkamol inson – har tomonlama farovon, bekamu-ko‘st, sog‘lom oilada tarbiya topadi, ulg‘ayadi. Bu siyosatning mazmunini birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch” kitoblarida “...oila institutini jamiyatning boshqa muhim ijtimoiy tuzilmalari, yurtimizdagi ma’naviy o‘zgarishlar bilan uyg‘un tarzda rivojlantirish, uning nufuzini oshirish masalasiga davlat siyosatining eng muhim va ustivor yo‘nalishi sifatida doimiy e’tibor berib kelmoqdamiz” deb ta’kidlaydilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son «Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2022-yil 1-maydan 2022-yil 1-martdagi PF-81-son «Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlar, 2018-yil 27-iyundagi PQ-3808-son «O‘zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, 2020-yil 31-dekabrdagi 820-son «Oila institutini yanada rivojlantirish va yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlar hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Yosh oilalar hayotiga aloqador tipik muammolarga hayotning dastlabki yillaridayoq farzand tug‘ilishi va uni tarbiyalash bilan bog‘liq masalani kiritish mumkin. Ya’ni ikki kishilik kichik guruhga yangi “mehmon”ning qo‘shilishi nafaqat moddiy, balki ko‘plab ma’naviy-ruhiy muammolarni keltirib chiqaradi. Satirning fikricha zurriyodning paydo bo‘lishi, tug‘ilishi er va xotinning asl munosabatlarini sinovdan o‘tkazadi va ular o‘ziga xos yangicha munosabatlar davrini boshdan kechira boshlaydilar. Bu davrga asosiy mazmun va ma’no beruvchi voqea – bu er va xotinga yangi rollarning berilishi, anchagina katta ijtimoiy mas’uliyatni qamrab olgan ota-onalik rollarining boshlanishidir.

Adabiyotlar tahlili. Professor V.M.Karimova [1] yosh oiladagi muammoli holatlarga vaqt taqchilligi, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, moddiy yetishmovchilik kabilarni ajratadi. Yosh oiladagi vaqt taqchilligi muammosida yoshlar aynan kuchga to‘lgan, bilim va malakalarini oshirishga chanqoq paytida ro‘zg‘or bilan bog‘liq masalalarni hal qilishga ham majbur bo‘lishlari rol o‘ynaydi. O‘z ustida ishlash uchun eng maqbul bu davrda oila yumushlarini hal qilish zarurati bo‘sh vaqtning deyarli yo‘qligi, uning taqchilligini keltirib chiqaradi.Buning ustiga aynan yoshlik paytida yoshlar o‘ynab-kulgisi, do‘stlar davrasida ko‘proq bo‘lish, kinoteatr kabi madaniyat o‘choqlariga borishni ham xohlashadi. Bu masalni muvaffaqiyatli yecha olgan oila a’zolari salomatliklariga ham zarar yetkazmay, barcha yumushlarga ulgurishi mumkin, lekin buning aksi ularda ruhiy tangliklarni keltirib chiqarishi, yoshlar salga jizzakilik qilib janjallashib qolishlari ham mumkin. SHuning uchun vaqtdan oqilona foydalanish borasida ham yoshlar muayyan to‘g‘ri tasavvurlarga ega bo‘lishlari oilaviy hayotga tayyorlikning bir yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim.

Bunday ijtimoiy psixologik vaziyat yigit va qiz o‘rtasida turli ziddiyatlar, mojarolarning paydo bo‘lishi va ajrimlarning kelib chiqishiga zamin yaratadi. Psixolog olimlarning tadqiqot ishlari (G‘.SHoumarov, V.Karimova, E.Sattorov, N.Sog‘inov, F.Akramova, E.Usmonov, X.Karimov, N.Lutfullaeva va boshqalar) shuni ko‘rsatadiki, oilaning shakllanishi, munosabatlarning barqarorlashuvi, turli ziddiyatlar davri 18-34 yoshlarga to‘g‘ri kelar ekan. Binobarin, ajralish muammosi oiladagi shaxslararo munosabatlarning buzilishi sababli ro‘y berishini inobatga oladigan bo‘lsak, oila haqidagi tasavvurlarning adekvat shakllanishi, farzand ko‘rish va uni tarbiyalashga tayyorlik, talaba bo‘la turib, o‘qituvchi murabbiylardan tashqari, qaynona-qaynota va boshqa yaqin qarindoshlar bilan yaxshi munosabatlarni o‘rnata olish, talabalik mas’uliyati bilan kelin-kuyovlik mas’uliyatini teng idrok etish madaniyati har qanday oila uchun muhimdir.

O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida talaba yoshlarning turmush o‘rtog‘lariga nisbatan ijtimoiy ustanovkalari shaxsdagi kuchli fazilatlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ikkala tomonda ham sherigidan faqat ijobiy sifatlarni kutish psixologiyasi bor. N.Lutfullaevaning fikricha [2], turmush qurgan oilali talabalardagi bunday ustanovkalarga ota-onalarning ta’siri ham bor, chunki oliy ma’lumot olishga da’vogar bo‘lgan, istiqbolda malakali mutaxassis bo‘lib yetishishga intilayotgan yoshlarga nisbatan yaqinlari o‘ziga xos munosabatda bo‘ladi. Bu holat, ayniqsa, ota-onaning ra’yi-xohishi bilan qurilgan yosh talabalar oilasiga xos bo‘lib, kattalar, ayniqsa, yigitlarning oliy ma’lumot olayotganligi va kelajakda o‘z oilasini o‘zi boshqara oladigan inson sifatida shakllanishiga umid bildirib, ulardan shunga mos ijobiy sifatlarni kutadi, bunday munosabat kelin-kuyovlarning o‘zlariga nisbatan va bir-biriga nisbatan kutishlarida aks etadi.

Endi shu xususiyatlarning bugungi kun yoshlarida ko‘rib chiqaylik. Ular 12-13 yoshlarida jinsiy (fiziologik) yetuklikka erishadilar, biroq ular biror - bir kasb-hunar egasi bo‘lib, mustaqil ishlab o‘zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan bo‘lishi uchun avvalo maktabni bitirishi, yoki 9 yil maktabda, 3 yil kollej yoki litseyda o‘qishi zarur bo‘ladi.

12 yillik barcha uchun majburiy ta’limdan so‘ng yoshlarimizning ma’lum bir qismi o‘qishni oliy o‘quv yurtida davom ettiradi. Bundan ko‘rinib turibdiki yoshlarimizning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari ularning ma’lum qismi uchun 20-21, boshqalari uchun 23-25 yoshga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari odamlarning kundalik hayoti o‘zgarib, kiyinishga, maishiy buyumlarga moddiy farovonlik darajasiga bo‘lgan ehtiyoji ham ortib bormoqda.

Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilaning, oila mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.

[1] Karimova V.M. Yosh oilani qo’llab-quvvatlash – davr talabi. Ilmiy-ommabop qo’llanma.-T.: “Fan va texnologiya”, 2008.-31-b.

[2] Lutfullaeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtiomiy psixologik xususiyatlari. // Psixol.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferat.-T.:2006.

Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi uning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi uni inqirozga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog‘lom, noqobil va nizoli oilalar, ajrashishlar sonining ortishi, jamiyatga turli iqtisodiy, ijtimoiy ziyon yetkazishi bilan birga bunday nosog‘lom psixologik muhitda, nizo-janjalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelgan, shakllangan bola keyinchalik nafaqat ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan mehr-oqibatsiz, balki atrofdagilarga, qolaversa o‘zi yashagan jamiyatga nisbatan mehr oqibatsiz bo‘lib, shafqatsiz, zolim, xudbin jamiyat yurt manfaatlariga zid har xil tashqi kuchlar ta’siriga oson beriluvchan shaxs bo‘lib shakllanishi, shu asosda esa o‘z oilasi, o‘z xalqi, o‘z yurti uchun xavfli insonlarning yetishib chiqishiga ham asos bo‘lishi mumkin.

Demak, oilaning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Oila psixologiyasiga doir eng muhim bilimlarni berish va ular asosida tegishli malakalar va ko‘nikmalarni shakllantirib, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Muhokama va natijalar. Biz o‘z tadqiqotlarimizda “O‘zingizni oilaviy hayotga tayyorman, deb hisoblaysizmi?” savoliga “Ha” javobini bergan talaba qizlarning (64 foiz) oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari real daraja bilan mosligini o‘rganish maqsadida «Oilaviy hayotga tayyormisiz?» testini o‘tkazdik (Test ilova qilinadi). O‘n to‘rt savoldan iborat bo‘lgan testning har bir savolida uchtadan javob variantlar berilgan bo‘lib, talaba qizlar o‘zlariga mos bo‘lgan variantlardan birini tanlashdi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Oilali talaba qizlarning oilaviy hayot haqidagi fikrlari.

Jadval-1

T.R.	A	B	V
1.	17 68%	5 20%	3 12%
2.	20 80%	-	5 20%
3.	5 20%	5 20%	15 60%
4.	12 24%	20 40%	18 36%
5.	15 60%	3 12%	7 28%
6.	4 16%	6 24%	15 60%
7.	2 8%	10 40%	13 52%
8.	1 4%	20 80%	4 16%
9.	16 64%	7 28%	4 8%
10.	18 72%	7 28%	-
11.	10 40%	2 8%	13 52%
12.	15 60%	4 16%	6 24%
13.	-	22 88%	3 12%
14.	-	19 76%	6 24%

Jadvaldagi sonlarning taxlili shuni ko‘rsatadiki, talaba qizlarning aksariyati ya’ni 68 foizi birinchi farzandi tug‘ilganidan so‘ng ish faoliyatini boshlashni, 20 foizi esa oilada har qanday holat bo‘lganda ham o‘z kasbini saqlab qolishini, faqat 12 foiz talaba qizlarimiz oila qurgandan so‘ng kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanishni istamasligini bildirishdi. Bunday istakni bildirgan qizlar kasbiy faoliyatdan ko‘ra faqat oila va uni asrab qolish muhimligini ta’kidlashdi. Talaba yoshlar ichidan 80 foizi farzandlarining soni ikkitadan oshmasligini ta’kidlashdi, bu esa ularda reproduktiv ustanovkalar yaxshi

shakllanganligidan dalolat beradi. 20 foiz talabalar esa farzand ko‘rishni faqat turmush o‘rtog‘ining ixtiyori bilan amalga oshishini belgilashdi.

Odamlar davrasida turmush o‘rtog‘ining boshqalarga qiziqishiga nisbatan 60 foiz talaba qizlar xafa ekanligini bildirmasdan munosabatda bo‘lishligini belgilashdi, bu esa ularning oilaviy munosabatlar jarayonida psixologik bilimga ega ekanliklaridan dalolat beradi. Lekin 20 foizdan iborat bo‘lgan qizlar o‘sha zahotiyoq boshqalar bilan gaplashish va janjal ko‘tarish istagini bildirishdi. Ular o‘tkazilgan suhbat va trening mashqlari natijasida bunday holat turmush o‘rtoqlar o‘rtasida faqat salbiy munosabatlar shakllanishiga olib kelishi mumkinligini anglab yetishdi.

Rashk borasidagi talaba qizlarning fikrlari bizni ancha qanoatlantirdi. Chunki ularning 40 foizi rashkchi emas, 36 foizi o‘z sherigiga ishonadi. Lekin sababsiz ham rashk qilishi mumkin bo‘lgan 24 foiz qizlarga bu boradagi psixologik maslahatlarni berdik va ularning rashk borasidagi fikrlariga oydinlik kiritishga muvaffaq bo‘ldik.

Oilada er-xotin o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatli holatlarda o‘zbek mentalitetiga xos tarzda shakllangan bilimlar qizlarimizning 60 foizida uchradi, ular bunday vaziyatda albatta yon berishliklarini aytishdi.

Oilada barcha oila a’zolarining ko‘nglini olish yo‘laridan biri bu qizlarning pazandalik sirlaridan yaxshi voqif bo‘lishliklari hisoblanadi. Chunki, shirin va chiroyli tayyorlangan turli taomlar yordamida ham ularning qalbiga yo‘l topish mumkin. Bu boradagi talaba qizlarning bilimdonligi 60 foiz ko‘rsatkichni berdi. Yosh oila vakillari o‘rtasida taom pishirishni hali o‘rganib ulgurmaganlari ham mavjud ekanligi bizni ajablantirdi (16 foiz). Ularning aksariyati oilada kichik farzand ekanliklarini ro‘kach qilishdi. Lekin oila baxtining butun bo‘lishini xohlaganliklari uchun ular ham albatta pazandachilik to‘garaklariga a’zo bo‘lishliklarini bildirishdi.

Har bir insonning o‘z ichki dunyosi va unda mavjud bo‘lgan sirlari bo‘ladi. Bunday sirlarni saqlay olish borasidagi qizlar fikriga murojat qiladigan bo‘lsak ularning 52 foizi ayrim narsalar haqida sir saqlash imkoniyatiga ega ekanliklarini aytishdi. Shu bilan bir qatorda odamlarning sevimli mashg‘ulotiga aylangan o‘z hobbisi ham bo‘ladi. Bunday mashg‘ulotlar insonning bo‘sh vaqtini sermazmun o‘tishiga yordam beradi. Buni to‘g‘ri tanlagan talaba qizlarning 80 foizi sherigining biron bir mashg‘ulotni yaxshi ko‘rishiga nisbatan ijobiy munosabatni bildirib, u mashg‘ul paytda men ham sevimli ishim bilan mashg‘ul bo‘laman, degan fikrni bildirishgan.

Ko‘pchilik yoshlarimiz, ayniqsa muvaffaqiyatli hollarda tarbiya topgan yoshlar, aksariyat hollarda o‘zlarining oilaviy hayotlari uchun o‘z ota-onasi oilasini ideal qilib oladilar. Shunday yoshlarimizning 64 foizi ota-onasining nikohdagi hayotini a’lo darajada baholashdi.

Sheriginning tanlagan kasbiga nisbatan munosabatini aniqlashda qizlarning 72 foizi har bir odam o‘z kasbida o‘sishi kerak deb hisobladi. 28 foiz qizlar esa sherigining professional mo‘ljallari bilan qiziqmasligini bildirdi.

Agar sherigingiz kiyinish bo‘yicha sizdan farq qilsa nima qilasiz? degan savolga respondentlarning 52 foizi mening didimga yoqishini kutaman, 40 foizi yon beraman, chunki bu unga yoqadi, 8 foizi kompromisslik qilaman, yoqmasa ham yoqdi deyman kabi fikrlarni bildirishdi.

«Sinov nikoh»iga munosabat bildirishda talaba qizlarning 60 foizi o‘z noroziliklarini bildirishdi, 24 foizi munosabat bildirishga qiynaldi, 16 foizi esa bir-birini bilish uchun yaxshi imkoniyat deb hisobladi. Bu jarayonni qizlarga nikohgacha bir-birlarini tanish va bilish bilan bog‘lab tushuntirilganda boshqacha munosabat vujudga keldi, ya’ni ular o‘z turmush o‘rtog‘ining shaxsiy psixologik xususiyatlari haqida bilimga ega bo‘lishlik albatta, oilaviy hayotdagi turli vaziyatlarda qo‘l kelishi mumkin degan fikrga kelishdi.

Erkak yoki ayolning nikohdan avval o‘zgalar bilan aloqada bo‘lishligini respondentlarning 88 foizi qoraladi faqat 12 foizigina o‘z munosabatini aniq namoyon qila olmadi.

Sizga xiyonat qilishsa kechirasizmi? savoliga talaba qizlarning aksariyati hech qachon (76%i), bu vaziyatga bog‘liq javobini (24 %i) tanladi.

Esini taniganidan boshlab ertaklar ruhida, badiiy filmlar, romanlar, afsona, rivoyatlar ruhida tarbiyalangan yoshlarimizda hamma vaqt ham oilaviy hayot haqida to‘g‘ri tasavvurlar shakllanaverishi mumkin emas. Ommaviy axborot vositalari orqali, teleko‘rsatuvlar, radioeshittirishlar orqali yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida berilayotgan materiallarda, oilaviy hayotni bir yoqlama faqat ijobiy tomondan talqin qilish hollari ko‘p kuzatiladi. Bu kabi holatlar yoshlarda oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini noto‘g‘ri shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Yosh oila vakillarida oilaviy munosabatlar bo‘yicha bilimlarni muvofiqlashtirish maqsadida ular bilan trening o‘yinlarini tashkil etdik. Bular «Xushomad qilish» va «Intervyu» o‘yinlari bo‘lib, trening mashg‘ulotlaridan maqsad talabalarni oilaviy munosabatlar jarayonida emotsional to‘siqlarni bartaraf etishga, o‘zgalar bilan samimiy munosabatda bo‘lishga o‘rgatish, oilaviy munosabatlar jarayonida muloqot malaka va ko‘nikmalarini hamda muomala madaniyatini shakllantirishdan iborat. «Xushomad qilish» treningi davomida talabalar o‘z xohishlari bilan qaynona, kelin, kuyov, qaynisingil kabi rollarga bo‘lindilar. So‘ng navbat bilan bir-birlariga samimiy tarzda, chiroyli so‘zlar bilan xushomad qildilar. Boshlovchi va qolgan guruh a’zolari ularning o‘zini tutishi, suhbatdosh bilan muomalasi, mimikasi, xatti-harakatlarini kuzatib turishdi. O‘yin so‘nggida kuzatuvchilar tomonidan ishtirokchilarning rollarni qanday bajarganliklari tahlil qilindi va kerakli maslahatlar berildi. Rollar o‘yin davomida almashilinib turildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jinsiy yetuklik odam anatomiyasi va fiziologiyasi nuqtai nazaridan yetarlicha aniq va ravshan bo‘lgan xodisadir. Yoshlarning nikohga jinsiy yetuklik masalasidan tashqari yuqorida keltirib o‘tilganidek, yana bir nechta ijtimoiy yetuklik turlarini farqlash mumkin. Bular: jinsiy, fuqarolik, kasb-hunar, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va psixologik yetukliklardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi oila kodeksi. Toshkent. «Adolat», 1998 - 300 b.
2. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq». Toshkent. «O‘qituvchi», 1992 - 160 b.
3. Abdullajonova M, Isoqova M, Isroiljonov S. Zokirova M. Ijtimoiy psixologik treningdan praktikum. «Farg‘ona» nashriyoti, 2003 - 68 b.
4. Бородкин Ф.М, Коряк Н.М, Внимание: Конфликт! Новосибирск, «Наука», 1989 - 190 б.
5. Гозман Л.Я Психология эмоционал отношений. М. Изд-во МГУ. 1987 - 176 б.
6. Ковалев С.В. Психология современной семье. Кн. Для учителя. М. «Просвешения», 1998 - 208 б.
7. Karimova V.M Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent «O‘qituvchi», 1994 - 94 b.
8. Karimova V.M Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent «Universitet» 1999 - 94 b.
9. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. –T.: “Fan va texnologiya”, 2008.-74-75-b.
10. Karimova V.M. Yosh oilani qo‘llab-quvvatlash – davr talabi. Ilmiy-ommabop qo‘llanma.-T.: “Fan va texnologiya”, 2008.-31-b.
11. Lutfullaeva N.X. Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtiomiy psixologik xususiyatlari. // Psixol.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferat.-T.:2006.
12. Raximova K. Abdullaeva A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Farg‘ona, 2006. 60 b.
13. Skott D. Nizolarni hal etish usullari. Kiev 1999.
14. To‘raeva O. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Toshkent. 1990.
15. Торохтий В.С. Осноциально-психологическогообеспечения социальной работи с семьей.-М.,2000.
16. Faxr ul Banot Sibgatullox qizi. Oila saboqlari. Toshkent. 1992 - 96 b.
17. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent, «Manaviyat», 1998 - 12 b.
18. Fozilova B, Raximova K. Muqaddas oila, hazrati inson. Farg‘ona, 2003 - 98 b.

UDK: UDK:159.92:61

Muxammadiyeva Kamuna Orifxon qizi
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID:0009-0003-8741-730X

ZO‘RAVONLIKKA DUCH KELGAN OILALARNING IJTIMOIY YORDAMGA MUHTOJ FARZANDLARIDA MAVJUD PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLAR MUAMMOSI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zo‘ravonlikka duch kelgan oilalarning ijtimoiy yordamga muhtoj farzandlarida mavjud psixologik o‘zgarishlarni aniqlash muammosi va bu jarayonda qanday psixologik xizmat ko‘rsatish bayon etilgan hamda zarur ko‘rsatmalar berib o‘tilgan. Hozirgi kunda mavjud zo‘ravonlik turlari va ularning bolalar hayotiga ta’siri muammosi dolzarb muammo ekanligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, farzand, zo‘ravonlik, zo‘ravonlik turlari, oilaviy munosabat, ijtimoiy himoya, huquq, psixologik xizmat.*

ПРОБЛЕМА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ У ДЕТЕЙ В СЕМЬЯХ, ПОДВЕРЖЕННЫХ НАСИЛИЮ, НУЖДАЮЩИХСЯ В СОЦИАЛЬНОЙ ПОМОЩИ

Аннотация. *В данной статье освещена проблема выявления психологических изменений у детей из семей, подвергшихся насилию и нуждающихся в социальной помощи, а также способы оказания психологических услуг в этом процессе и необходимые инструкции. В качестве актуальной проблемы выделена проблема существующих видов насилия и их влияния на жизнь детей.*

Ключевые слова: *Семья, ребенок, насилие, виды насилия, семейные отношения, социальная защита, право, психологическая служба.*

THE PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL CHANGES IN CHILDREN IN FAMILIES EXPOSED TO VIOLENCE AND IN NEED OF SOCIAL HELP

Abstract. *This article highlights the problem of identifying psychological changes in children from families exposed to violence and in need of social assistance, as well as ways to provide psychological services in this process and the necessary instructions. The problem of existing types of violence and their impact on the lives of children is highlighted as an urgent problem.*

Key words: *Family, child, violence, types of violence, family relationships, social protection, law, psychological service.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Zo‘ravonlik muammosi eng dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda, bu nafaqat psixologik, balki ijtimoiy, tibbiy va huquqiy jihatlarga ham ega. Uning oqibatlaridagi zo‘ravonlik eng og‘ir psixologik shikastlanishlardan biridir. Zo‘ravonlik natijasida buzilishlar inson faoliyatining barcha darajalariga ta’sir qiladi:

Kognitiv soha, ishtaha, uyqu va shaxsning doimiy o‘zgarishiga olib keladi. Bolalik davrida sodir bo‘lgan zo‘ravonlik insonning keyingi hayotiga ta’sir qiladi. Zo‘ravonlik tushunchasi noaniq, u nafaqat psixologiyada, balki yurisprudentsiyada ham qo‘llaniladi. Turli fanlarda zo‘ravonlik odamlar bir-biriga yetkazadigan jismoniy, psixologik, iqtisodiy zarar bilan tenglashtiriladi:

Zo‘ravonlik - bu o‘zini tutish erkinligini ataylab cheklash, bo‘ysunish, huquqlarni buzish va odamlarga zarar etkazish. Zo‘ravonlikning ko‘p turlari mavjud:

Oiladagi zo‘ravonlik, urush, terroristik harakatlar, musodara qilish, garovga olish, qo‘lga olish va boshqalar. Oiladagi zo‘ravonlik hozirgi zamonning eng tez-tez uchraydigan hodisalaridan biriga aylanmoqda.

Oiladagi zo‘ravonlik - bu bir kishi boshqa oila a’zosining xatti-harakatlari va his-tuyg‘ularini boshqarishi yoki boshqarishga urinishi.

Uydagi zo‘ravonlik - bu qo‘rquv hissini boshqarish, qo‘rqitish, tarbiyalash maqsadida jismoniy, og‘zaki, ma’naviy, iqtisodiy zo‘ravonlikning takrorlanadigan sikli. Oiladagi zo‘ravonlik bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, turmush o‘rtog‘iga (yoki munosabatlardagi sherigiga), ota-onaga nisbatan

zo‘ravonlik holatlarini o‘z ichiga oladi (masalan, keksa ota-onalarga nisbatan). Bunga quyidagilar kiradi:

Jismoniy - tarsaki urish, urish, kaltaklash, tepish, qurol ishlatish.

Jinsiy - sherik uchun istalmagan yaqinlik, jinsiy xarakterdagi harakatlar majburlash.

Psixologik - tashqi dunyodan ajralib qolish, tahdidlar, sherikni tanqid qilish, johillik.

Iqtisodiy - moddiy jihatdan qaram bo‘lgan oila a’zosiga cheklangan miqdordagi mablag‘ ajratiladi, u bu haqda to‘liq hisobot berishi kerak, sherikni oilaviy muammolarni ko‘rib chiqishda ovoz berish huquqidan mahrum qiladi, ishlashni taqiqlaydi. Zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan odamlarga quyidagilar xosdir: o‘zini past baholash, oilaning buzuq g‘oyasi, ayollarning jamiyatdagi o‘rni, jinoyatchining harakatlarini oqlash, aybdorlik hissi va jinoyatchiga nisbatan g‘azab tuyg‘ularini inkor etish, ularga hech kim yordam berolmasligiga ishonch. Zo‘ravonlik muammosini hal qilish, sheriklar o‘rtasidagi odatiy munosabatlar sifatida oiladagi zo‘ravonlik munosabatlari afsonasiga ishonish.

Agressorlar - bu boshqa odamlarga tajovuz qiladigan odamlar, ko‘pincha bolaligida ular zo‘ravonlikka duchor bo‘lganlar. Jabrlanuvchi bilan bir qatorda jabrlanuvchi quyidagilar bilan ajralib turadi:

Past darajadagi qadr-qimmati, erkaklarning oila va jamiyatdagi roli to‘g‘risidagi an’anaviy qarashlari, boshqalarni o‘zlari qilayotgan xatti-harakatlar uchun ayblash, zo‘ravonlikni munosabatlarda yetarlicha namuna sifatida qabul qilish, tezda paydo bo‘layotgan noqulaylik va ruhiy stress, tajovuz bilan kim javob beradi.

Viktimologiya - bu tajovuzkor, vaziyat va jabrlanuvchining o‘zaro aloqasi qanday bo‘lganligi haqidagi savollarga javob berishga harakat qiladigan ilmiy bilimlarning maxsus sohasi.

Jabrlanuvchi - muayyan sharoitlarda odamni jabrlanuvchiga aylantiradigan xatti-harakatlar. Jabrlanuvchining xatti-harakatlar dasturini amalga oshirish uchun xavf omillari quyidagi shaxsiy fazilatlardir: muvofiqlik, qat’iyatsizlik, uyatchanlik, noaniqlik. Zo‘ravonlik muammosiga bag‘ishlangan psixologik tadqiqotlarda Stokgolm sindromi deb ataladi. Stokgolm sindromi jabrlanuvchi va tajovuzkor o‘rtasidagi o‘ziga xos munosabatlarni aks ettiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik yordam berish juda qiyin vazifa, chunki zo‘ravonlikka uchragan va yoki unga duchor bo‘lgan odamlar qiyin psixoemotsional holatga tushib qolgan, uyalish, aybdorlik his qilishadi, zo‘ravonlik faktini tez-tez inkor etishadi, hodisani sir tutishadi (ayniqsa, bu oilaviy vaziyat bo‘lsa). Ular dahshat, gipervigilantlik, umidsizlik va kuchsizlik hissi, fiziologik va ruhiy stress, ichki bezovtalik, uyquning buzilishi, o‘z joniga qasd qilish fikrlari bilan ajralib turishi mumkin. Albatta, zo‘ravonlik qurbonlariga psixologik yordam zo‘ravonlik holati, uning chastotasi, ko‘lami, zo‘ravonlikdan omon qolgan odamning yoshi va boshqalarga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Biroq, umuman olganda, psixologik ishning uchta bosqichini ajratish mumkin: shoshilinch (yoki birinchi) yordam, inqirozga qarshi ish bosqichi va ishning tadqiqot bosqichi. Jabrlanganlarga shoshilinch psixologik yordam ularning hozirgi ruhiy va fiziologik holatini barqarorlashtirish va hayotdagi xavfsizligini tiklashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, shoshilinch yordam chuqur psixologik tadqiqotlar, tajribalar va boshqalarni o‘z ichiga olmaydi.

Zo‘ravonlik qurbonlariga birinchi yordam ko‘rsatish qoidalari:

Jabrlanuvchini quchoqlashga shoshilmang, badanga keraksiz tegishdan saqlaning. Oxirgi chora sifatida siz uning qo‘lini olishingiz yoki qo‘lingizni yelkangizga qo‘yishingiz mumkin. Jabrlanuvchiga hozir nimaga muhtojligini hal qilmang (u haqiqat ustidan nazoratni yo‘qotmaganligini his qilishi kerak).Voqealar tafsilotlari haqida so‘ramang, ayblamang.Jabrlanuvchi sizning qo‘llab-quvvatlash-ingizga umid qilishi mumkinligini his eting. Agar jabrlanuvchi nima bo‘lganligi haqida gapira boshlasa, unda aniq tafsilotlarni qayta so‘ramang, voqea bilan bog‘liq bo‘lgan his-tuyg‘ular haqida gapirishni rag‘batlantiring.Agar kerak bo‘lsa, siz jabrlanuvchiga hamrohlik qilishingiz mumkin, masalan, u politsiyaga murojaat qilish yoki o‘lgan qarindoshlarini aniqlash uchun murojaat qilsa. Zo‘ravonlik qurbonlari bilan inqirozga qarshi kurashda psixologning asosiy maqsadi shikast yetkazuvchi tajribalarni, yetishmovchilik, kamlik hissiyotlarini kamaytirish va yo‘q qilish va yetarli darajada o‘z qadr-qimmatini shakllantirishdan iborat. Ushbu bosqichda jabrlanuvchiga vaziyatda paydo bo‘lgan qiyin his-tuyg‘ularni boshdan kechirish imkoniyatini berish muhimdir. Ushbu ish bosqichi ham individual, ham guruh shaklida amalga oshirilishi mumkin. Shaxsiy format xavfsizroq muhitni yaratadi, guruhli format esa jabrlanuvchini ko‘proq qo‘llab-quvvatlashi va ularning yolg‘iz emasligini ko‘rishlari mumkin. Shu bilan birga, inqirozga oid ishlarning maqsadlari qisqa vaqt ichida (taxminan ikki oy) mavjud bo‘lgan kichik

bir xil guruhlarga (ya'ni o'xshash muammolarga ega bo'lgan ishtirokchilardan iborat) ko'proq mos kelishini unutmaslik kerak. Inqiroz qurbonlariga maslahat berishda quyidagilar muhim:o'zingizni imkon qadar to'liq qabul qilishni ta'minlang. Zo'ravonlik sharoitida aniq harakatlar rejasini tuzishda yordam bering.Asosiy muammolarni aniqlashga yordam bering.Yordam tizimlarini safarbar qilishga yordam bering.Sodir bo'lgan voqealarning jiddiyligini anglashga yordam bering. Qayta tiklash uchun vaqt ajratish kerakligini tushunishga yordam bering. Jabrlanuvchi shaxsining kuchli tomonlarini aniqlash va mustahkamlash. Hissiy javobdan so'ng, siz asta-sekin zo'ravonlik holatini ko'paytirishni ta'minlaydigan xulq-atvor naqshlari va mexanizmlarini o'rganishga qaratilgan ishlarga o'tishingiz mumkin. Ushbu ish bosqichining maqsadi shaxslararo munosabatlar tizimini ta'mirlashdir. Ushbu ish bosqichi uzoq va bir necha yil davom etishi mumkin. Shaxslararo munosabatlarni o'rganish haqida gapirganda, bunday mijozlar bilan ishlashda psixolog-mijoz munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini qayd etish juda muhimdir. Psixolog ko'pincha zo'ravon vaziyatlarda mijozlar munosabatlariga xos bo'lgan ustunlik, bo'ysunish va majburlash bo'yicha mijoz tomonidan tasdiqlangan dinamikada ishtirok etishga majbur bo'ladi.

Zo'ravonlik qurboniga aylangan mijozlar tajribani ajratishga moyilligi bilan ajralib turadi: dissotsiatsiya qilingan tajriba bostirilganga o'xshamaydi, dissotsiatsiya tajribani xotiradan ajratadi, tajriba somatik, hidli, taktil "xotiralar", alohida affektiv "chaqnashlar" ga bo'linadi. Ruhiy holatlar "lisoniy" tasavvurga ega bo'lmagan, begonalashtirilgan holda boshdan kechiriladi, mijozning dahshatli tajribasini so'zlar bilan ifodalash mumkin emas. Shuning uchun hayotingiz haqidagi voqeani, zo'ravonlik haqida hikoya qilish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar eng ko'p jabrlangan toifadir va ko'pincha turli vaziyatlarda jabrlanuvchiga aylanishadi. Ular maishiy va yoki maktabdagi zo'ravonlik qurbonlari, ko'chadagi zo'ravonlik qurbonlari, qarovsiz qoldirilgan yoki uysizlar bo'lishi mumkin. M.D.Asanova bolalarga nisbatan zo'ravonlikning to'rtta asosiy turini ajratib ko'rsatdi.

Jismoniy zo'ravonlik - bu bolani qasddan jismonan zaif holatga keltirishda, unga tan jarohati yetkazish yoki unga zarar yetkazish ehtimoli oldini olishda unga nisbatan munosabat turi;

Jinsiy zo'ravonlik - bu funktsional jihatdan yetuk bo'lmagan bolalar va o'spirinlarni o'zlarini to'liq tushunmasdan qilayotgan, ular uchun rozi bo'la olmaydigan yoki oilaviy rollarning ijtimoiy taqiqlarini buzadigan jinsiy harakatlarga jalb qilish;

Psixologik zo'ravonlik - bu uning potentsial qobiliyatlarini rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan yoki zarar yetkazadigan bolaga qarshi qilingan xatti-harakatlar. Psixologik suiste'mollik bolani kamsitish, haqoratlash, bezorilik va masxara qilish kabi xatti-harakatlarning surunkali shakllarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotni nazariy va amaliy ahamiyati. Beparvolik- ota-ona yoki tarbiyachining surunkali ravishda voyaga yetmaganning oziq-ovqat, kiyim-kechak, yashash joyi, sog'liqni saqlash, ta'lim, himoya va nazoratga bo'lgan ehtiyojlarini qondira olmasligi. Jismoniy jihatdan beparvo qilingan taqdirda, bola o'z yoshiga mos keladigan yetarli ovqatlanishsiz qolishi, ob-havo sharoitida kiyinmasligi mumkin. Hissiy tark etish bilan ota-onalar bolaning ehtiyojlariga befarq qarashadi, uni e'tiborsiz qoldirishadi, teginish aloqasi yo'q. E'tiborsizlik bolaning sog'lig'iga beparvolik bilan, unga kerakli davolanish yo'qligida namoyon bo'lishi mumkin. Bolaning ta'limiga e'tiborsizlik, bolaning ko'pincha maktabga kechikishi, darslarni qoldirishi, kichik bolalarga qarashda qolishi va hokazolarda ifodalanishi mumkin. Zo'ravonlik harakati bilan u tushunadi: hissiy, jismoniy, psixologik, jinsiy zo'ravonlik. Bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlikni keltirib chiqaradigan omillar orasida:

Ijtimoiy-iqtisodiy - kam daromad, ishsizlik, guruh ozchiliklariga mansub to'liq bo'lmagan va yoki ko'p oilalar omili va boshqalar;

Oila tuzilishi va aloqa modeli sabab bo'lgan omillar - ko'p bolalar, yolg'iz ota-ona tomonidan tarbiyalanganligi, homiylik ostidagi ota-onalar tomonidan tarbiyalanganligi, o'gay ota, o'gay onaning borligi, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi ziddiyatli muammoli munosabatlar, avlodlararo uzatilishi;

Ota-ona shaxsiyatidan kelib chiqadigan xavf omillari - ijtimoiy ko'nikmalarning past darajasi, ruhiy buzilishlar, jismoniy kasallikning mavjudligi, ota-onaning alkogol giyohvandligi;

Bolaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq xavf omillari ota-onaning bolani istamasligi yoki boshqa bola vafot etganidan keyin uning tug'ilishi, tug'ma ruhiy jismoniy buzilishlarning mavjudligi, xulq-atvor xususiyatlari (masalan, g'azab, impulsivlik), shaxsiy xususiyatlar (autizm), odatlar va uning

tashqi ko‘rinish. Maktabda zo‘ravonlikni keltirib chiqaradigan salbiy omillar bo‘lishi mumkin: o‘qituvchilar tarkibidagi yomon mikroiqlim, o‘qituvchilarning sinfda bo‘layotgan narsalarga befarq munosabati va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, maktabdagi zo‘ravonlik bolalarga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Bir tomondan, bolaga qaratilgan tajovuz, quvg‘in, umidsizlik, umidsizlik hissi, o‘z qadr-qimmatining pasayishi va shaxsning buzilishiga olib keladi. Boshqa tomondan, xo‘rlangan kishining pozitsiyasi guruhdagi bolaning ijtimoiy mavqeini pasaytiradi, boshqa bolalar u bilan do‘st bo‘lishni to‘xtatadilar, bu ham uning qadr-qimmatiga ta’sir qiladi, allaqachon qiyin bo‘lgan voqealarni kuchaytiradi. Rad etish boshqa sohalarga ham tarqalishi mumkin: bolada ta’lim va yurish-turish muammolari paydo bo‘lishi mumkin. Psixologdan kelib chiqadigan qiziqish, do‘stlik, samimiylik va iliqlik bolaning qarshiligini yengishga yordam beradi. Faqat bu holatda (ehtimol darhol emas) bola eshitilganligini his qiladi va unga ishonishi mumkin. Bolaning mutaxassisning kabinetida o‘zini qulay his qilishi muhim, bunga maslahat joyi va vaqti barqarorligi, xavfsizlik bilan erishiladi (ish paytida hech kim ofisga kirmaydi, telefon qo‘ng‘iroqlari bo‘lmaydi, konsultatsiyalar o‘z vaqtida boshlanadi). Ushbu oddiy qoidalarni buzish bolaning mavjudligini xavfsizligini buzadi va oxir-oqibat psixologik ishning o‘zini buzadi. Ba’zan, bolalar bilan ishlashning boshida zo‘ravonlik holatini aniqlash va bola tajribasining fenomenologiyasini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akramova F.A. "Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari". O'quv qo‘llanma. T., 2014.
2. Акрамова Ф.А., Товбаева М.С. Оиладаги зўравонликнинг ижтимоий-психологик масалалари. Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021. – 124 б.
3. Кекелидзе, И.Критические состояния в психиатрии. — М., 1992. — 360 с.
4. Клинические разборы в психиатрической практике / Под ред. Проф. А.Г. Гофмана. - М.: МЕДпресс - информ, 2006. - 704 с.
5. Морозов В.М. Избранные труды. - М.: Медиа медика, 2007. - 292 с.
6. Нил М. Дж. Наглядная фармакология = Medical Pharmacology at a Glance / Под ред. М. А. Демидовой. — М.: ГЭОТАР МЕДИЦИНА, 1999. — 104 с.
7. Психиатрия: национальное руководство / под ред. Т.Б. Дмитриевой, В Н. Краснова, Н.Г. Незнанова, В.Я. Семке, А.С. Тиганова. - М.: ГЭОТАР - Медиа, 2009,- 1000с
8. Руководство по психиатрии: В 2-х т./Под ред. А. С. Тиганова. — М.: Медицина, 1999. т. 1-2.
9. Рустанович А.В., Шамрей В.К. Клиническая психиатрия в схемах таблицах и рисунках. - СПб.: «ЭЛБИ-СПб», 2001. - 203с.
10. Снежневский А.В. Общая психопатология: Курс лекций. М.: МЕДпрессинформ, 2008. - 208с.

UDK: 301.085:15(048)

Bahrom Jurayev
Qarshi davlat universiteti proffesori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Boysunov Bilol Farit o‘g‘li
Psixologiya kafedrasi magistranti

O‘QUVCHI-YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Muallif maqolada mazkur muammo hozirgi kunda juda dolzarb ekanligi, o‘quvchi-yoshlarnining zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularni ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan.*

Kalit so‘zlar*: o‘quvchi, o‘smir, kasb, kasbga yo‘naltirish, talabgor kasblar, bilim, ko‘nikma, malaka*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ НАПРАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ СТУДЕНТОВ В ПРОФЕССИЮ

Аннотация. *В статье автор констатировал, что данная проблема сегодня весьма актуальна, что важно создать необходимые условия для освоения студентами и молодежью современных профессий, подготовить их к сознательному выбору общественно необходимых профессий.*

Ключевые слова: *школьник, подросток, профессия, профориентация, востребованные профессии, знания, умения, навыки.*

SOCIAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DIRECTING YOUTH STUDENTS TO THE PROFESSION

Annotation. *In the article, the author stated that this problem is very relevant today, that it is important to create the necessary conditions for students and young people to acquire modern professions, to prepare them to consciously choose socially necessary professions.*

Key words: *schoolchild, teenager, profession, vocational guidance, professions in demand, knowledge, skills, skills.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohatlarning zamirida yosh avlodning har tomonlama yetuk, bilimli, yuksak ma’naviyatli, barkamol shaxslar bo‘lib yetishishini ta’minlash, maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish orqali mustaqil hayotga tayyorlash, ularning hozirda mavjud va kelajak kasblari, mehnat bozori ehtiyojlari to‘g‘risidagi bilimlarini oshirish masalalari yotganligi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimiz umumta’lim maktablarida o‘quvchi-yoshlarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ta’lim va ishlab chiqarish tarmoqlari o‘rtasida integratsiyani yo‘lga qo‘yish, maktab bitiruvchilarining zamonaviy kasb-hunar egallashlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o‘quvchilar uchun kelajak kasblariga yo‘naltiruvchi to‘garaklar faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ma’lumki, kasb tanlash maktab bitiruvchilari hayotidagi muhim va mas’uliyatli bosqich hisoblanadi. Shuni chuqur anglagan holda ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlaridan unumli va maqsadli foydalanish, ularning ijodiy, intellektual va tadbirkorlik salohiyatini oshirish, zamonaviy fanlarni chuqur o‘rgatish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, o‘quvchi-yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni mustahkamlash, axborot makonidagi turli tahdidlarga nisbatan sog‘lom immunitetni hosil qilish, ularning mustaqil tashabbus va shaxsiy g‘oyalarini ilgari surish, hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishini ta’minlashga yo‘naltirilgan mahorat darslarini hamda madaniy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish muammolarini o‘rganish masalalari bugungi kunda pedagogika, psixologiya va boshqa shu sohaga oid fanlar tizimida muhim o‘rin egallamoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini o‘rganishda E.G‘. G‘oziyev, G‘.B.Shoumarov, V.M.Karimova,

A.M.Jabborov, Sh.R.Barotov, K.Q.Mamedov, B.R.Qodirov, Z.T.Nishonova, N.S.Safayev, B.M.Umarov, B.Jo‘rayev, F.N.Haydarov, G. To‘laganova va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarini ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir.

Biz ilmiy tadqiqotimizda o‘smirlarda kasb tanlash omillarini o‘rganish bo‘yicha Surxondaryo, Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarining umumta’lim maktablarida tdqiqot ishlarini olib bordik. Bunda tadqiqot obyekti sifatida o‘smir yoshidagi maktab o‘quvchilarining jami 387 nafari ishtirok etdi. Jami ishtirokchilar tajriba guruhida (TG) 224 nafar va nazorat guruhida (NG) 163 nafar ishtirokchi sifatida taqsimlandi.

Anketa so‘rovnomasi yordamida o‘smirlarning asosiy kasbiy qiziqishlari o‘rganildi. So‘rovnoma natijasiga asosan ayni o‘smirlik davridagi shaxslar qiziqishi yuqori bo‘lgan 7 ta asosiy kasb turlari aniqlandi: o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor, iqtisodchi, san’atkor kasblari. So‘rovnoma natijalari hududlar kesimida va umumiy ishtirokchilar soni bo‘yicha 1–jadvalda keltirilgan.

Jadval-1

O‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblari

Ishtirokchi	Guruh	Kasblar nomi						
		o‘qituvchi	shifokor	tadbirkor	harbiy	shofyor	iqtisodchi	san’atkor
Samarqand v n=111 (TG n=66 NG n=45)	TG	17	13	10	10	6	6	4
	%	25,8	19,7	15,2	15,2	9,1	9,1	6,1
	NG	12	9	8	6	4	4	2
	%	26,7	20,0	17,8	13,3	8,9	8,9	4,4
	Jami	29	22	18	16	10	10	6
	%	26,1	19,8	16,2	14,4	9,0	9,0	5,4
Qashqadaryo v n=147 (TG n=82 NG n=65)	TG	17	18	12	13	8	7	7
	%	20,7	22,0	14,6	15,9	9,8	8,5	8,5
	NG	15	15	11	7	7	6	4
	%	23,1	23,1	16,9	10,8	10,8	9,2	6,2
	Jami	32	33	23	20	15	13	11
	%	21,8	22,4	15,6	13,6	10,2	8,8	7,5
Surxondaryo v n= 129 (TG n=76 NG n=53)	TG	16	15	12	12	9	7	5
	%	21,1	19,7	15,8	15,8	11,8	9,2	6,6
	NG	14	11	9	6	5	5	3
	%	26,4	20,8	17,0	11,3	9,4	9,4	5,7
	Jami	30	26	21	18	14	12	8
	%	23,3	20,2	16,3	14,0	10,9	9,3	6,2
Umumiy ishtirokchi n=387 (TG n=224 NG n=163)	TG	50	46	34	35	23	20	16
	%	22,3	20,5	15,2	15,6	10,3	8,9	7,1
	NG	41	35	28	19	16	15	9
	%	25,2	21,5	17,2	11,7	9,8	9,2	5,5
	Jami	91	81	62	54	39	35	25
	%	23,5	20,9	16,0	14,0	10,1	9,0	6,5

n=387 / TG n=224/ NG n=163

Jadvalda keltirilgan, o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari bo‘yicha olingan natijalar tahlili:

Samarqand viloyati TGda o‘qituvchi kasbiga 25,8%, shifokor kasbiga 19,7%, tadbirkor kasbiga 15,2%, harbiy kasbiga 15,2%, shofyor kasbiga 9,1%, iqtisodchi kasbiga 9,1%, san’atkor kasbiga 6,1% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Samarqand viloyati NGda o‘qituvchi kasbiga 26,7%, shifokor kasbiga 20,0%, tadbirkor kasbiga 17,8%, harbiy kasbiga 13,3%, shofyor kasbiga 8,9%, iqtisodchi kasbiga 8,9%, san’atkor kasbiga 4,4% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Samarqand viloyati jami ishtirokchi soni bo‘yicha o‘qituvchi kasbiga 26,1%, shifokor kasbiga 19,8%, tadbirkor kasbiga 16,2%, harbiy kasbiga 14,4%, shofyor kasbiga 9,0%, iqtisodchi kasbiga 9,0%, san’atkor kasbiga 5,4% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Qashqadaryo viloyati TGda o‘qituvchi kasbiga 20,7%, shifokor kasbiga 22,0%, tadbirkor kasbiga 14,6%, harbiy kasbiga 15,9%, shofyor kasbiga 9,8%, iqtisodchi kasbiga 8,5%, san’atkor kasbiga 8,5% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Qashqadaryo viloyati NGda o‘qituvchi kasbiga 23,1%, shifokor kasbiga 23,1%, tadbirkor kasbiga 16,9%, harbiy kasbiga 10,8%, shofyor kasbiga 10,8%, iqtisodchi kasbiga 9,2%, san’atkor kasbiga 6,2% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Qashqadaryo viloyati jami ishtirokchi soni bo‘yicha o‘qituvchi kasbiga 21,8%, shifokor kasbiga 22,4%, tadbirkor kasbiga 15,6%, harbiy kasbiga 13,6%, shofyor kasbiga 10,2%, iqtisodchi kasbiga 8,8%, san’atkor kasbiga 7,5% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Surxondaryo viloyati TGda o‘qituvchi kasbiga 21,1%, shifokor kasbiga 19,7%, tadbirkor kasbiga 15,8%, harbiy kasbiga 15,8%, shofyor kasbiga 11,8%, iqtisodchi kasbiga 9,2%, san’atkor kasbiga 6,6% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Surxondaryo viloyati NGda o‘qituvchi kasbiga 26,4%, shifokor kasbiga 20,8%, tadbirkor kasbiga 17,0%, harbiy kasbiga 11,3%, shofyor kasbiga 9,4%, iqtisodchi kasbiga 9,4%, san’atkor kasbiga 5,7% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.


Surxondaryo viloyati jami ishtirokchi soni bo‘yicha o‘qituvchi kasbiga 23,3%, shifokor kasbiga 20,2%, tadbirkor kasbiga 16,3%, harbiy kasbiga 14,0%, shofyor kasbiga 10,9%, iqtisodchi kasbiga 9,3%, san’atkor kasbiga 6,2% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Umumiy ishtirokchi soni bo‘yicha TGda o‘qituvchi kasbiga 22,3%, shifokor kasbiga 20,5%, tadbirkor kasbiga 15,2%, harbiy kasbiga 15,6%, shofyor kasbiga 10,3%, iqtisodchi kasbiga 8,9%, san’atkor kasbiga 7,1% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Umumiy ishtirokchi soni bo‘yicha NGda o‘qituvchi kasbiga 25,2%, shifokor kasbiga 21,5%, tadbirkor kasbiga 17,2%, harbiy kasbiga 11,7%, shofyor kasbiga 9,8%, iqtisodchi kasbiga 9,2%, san’atkor kasbiga 5,5% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Umumiy ishtirokchi soni bo‘yicha o‘qituvchi kasbiga 23,5%, shifokor kasbiga 20,9%, tadbirkor kasbiga 16,0%, harbiy kasbiga 14,0%, shofyor kasbiga 10,1%, iqtisodchi kasbiga 9,0%, san’atkor kasbiga 5,5% o‘smirlarning qiziqishi yuqori ekanligi aniqlandi.

Umumiy ishtirokchi soni asosida o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari bo‘yicha olingan natijalar 4-rasmda diagramma shaklida berilgan.



1-rasm. O‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblari (Umumiy ishtirokchi)

Umumiy ishtirokchi soni asosida o‘smirlar shaxsining qiziqishi yuqori bo‘lgan kasblar turlari o‘qituvchi, shifokor, tadbirkor, harbiy, shofyor, iqtisodchi, san’atkor kasblari ketma-ketligida namoyon bo‘lgan.

Tahlil natijasiga asosan, o‘smirlarda kasb tanlashga ta’sir etuvchi asosiy omillar moddiy holat, ota-ona fikri va oilaviy qadriyat ketma-ketligidan iborat ekanligi aniqlandi. O‘smirlarda kasb tanlashda shaxsiy qaror omili yuqori emasligi namoyon bo‘lgan. Bundan tashqari o‘smirlarning qiziqishi yuqori bo‘lgan asosiy kasblar 7 ta ekanligi hamda ushbu kasblarga xos talablarni to‘liq anglamasdan shunchaki dastlabki qiziqish bilan munosabat bildirayotganligi aniqlangan. Diagnostika jarayoni natijasi asosida tashkil etiladigan tajribada o‘smirlarning kasb tanlashda shaxsiy qaror omilini oshirish, qiziqishi yuqori bo‘lgan 7 ta asosiy kasb turlarini ko‘paytirish hamda kasbga xos talablarni to‘liq anglashini ta’minlash lozimligi belgilandi.

Xulosa qilib aytganda, kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida individual shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, kasb tanlovi jarayonida o‘quvchi shaxsiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasbiy tarbiyani amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda, o‘quvchining kasbiy ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish lozim. Kasbiy bilimlar esa o‘quvchilarni kasbning mohiyati, uning shaxs oldiga qo‘yadigan talablari bilan tanishtirishdan iborat ta’sirchan axborotlar majmuasidan iborat bo‘lmog‘i kerak. Mazkur axborotlarni yoshlar ongiga yetkazishda jamiyatning barcha bo‘g‘inlari ishtiroki va hamkorligini tashkil etish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Adabiyotlar

1. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пособие – М.: “Академия”, 2004. – 304 с.

2. Голубева О.В., Каткова О.В., Корнева Т.А., Мададова К.Х. Влияние социальных факторов на выбор педагогической профессии. Инновационная экономика:перспективы развития и совершенствования: научно-практический журнал // №8 (42), 2019 . 197-202 с.

3. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень.- СПб.: Питер, 2011.- 224 с.

4. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности. Учебное пособие для вузов – М.. ПЕР СЭ, 2001 - 511 с.

5. Rafajac O. Analysis of Youth Professional Orientation in the Republic of Croatia Zbornik Veleučilišta u Rijeci, Vol. 7 (2019), No. 1, pp. 163-183

Qudratov Akmaljon
Qarshi davlat universiteti dotsenti
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Musurmonov Ramziddin Abror o‘g‘li
Psixologiya kafedrasi magistranti

O‘SPRINLARDA IQTIDOR VA QOBILIYATLARNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK ILMIY -AMALIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada iqtidorli o‘spirinlarni psixologik o‘rganishning ilmiy-amaliy tajribasi mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqolada iqtidorli o‘spirinlar shaxsini, iqtidor tushunchasining mazmun mohiyati, iqtidorlilikni o‘rganishning nazariy asoslari, iqtidorlilik va qobiliyatlarning o‘zaro aloqadorligi hamda iqtidorli o‘spirinlarning savodxonlik xususiyatlari kabilar batafsil yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: iqtidor, iqtidorli o‘spirin,, psixologiya, pedagogika, qobiliyat, maxsus qobiliyat, umumiy qobiliyat, ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, maktab, intellektual qobiliyatlar, savodxonlik, talant, rivojlanish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ТАЛАНА И СПОСОБНОСТЕЙ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *Данная статья посвящена теме научно-практического опыта психологического изучения одаренных подростков. Также в статье подробно описаны личность одаренных учащихся, значение понятия одаренность, теоретические основы изучения одаренности, взаимосвязь между одаренностью и способностями, особенности грамотности одаренных учащихся.*

Ключевые слова: *талант, одаренный подросток, психология, педагогика, способности, специальные способности, общие способности, воспитание, ученик, учитель, школа, интеллектуальные способности, грамотность, одаренность, развитие.*

PSYCHOLOGICAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL SIGNIFICANCE OF STUDYING TALENT AND ABILITIES IN ADOLESCENTS

Annatation. *This article is devoted to the topic of scientific and practical experience of psychological study of gifted teenagers. Also, the article describes in detail the personality of gifted students, the meaning of the concept of giftedness, the theoretical basis of studying giftedness, the relationship between giftedness and abilities, and the literacy characteristics of gifted students.*

Key words: *talent, gifted teenager, psychology, pedagogy, abilities, special abilities, general abilities, upbringing, student, teacher, school, intellectual abilities, literacy, giftedness, development.*

Kirish. Ma’lumki, iqtidorlilik muammosi psixologiya fanida tug‘ma xususiyat sifatida qaralib, uning mohiyatini tushuntirish qobiliyatlar va layoqatlarning tabiatini tahlil etish bilan uzviy bog‘liq sanaladi. Keng ma’noda, layoqatlar iqtidorlilikning irsiy alomatlari sanalib, uning yaqqol ko‘rinishi bolalarda erta yoki kech namoyon bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Misol uchun musiqiy, matematik va lingvistik sohalarga bo‘lgan iqtidor ayrim bolalarda to‘rt yoshda namoyon bo‘lsa, ba’zilarida besh yoki olti yoshda yuzaga chiqadi. Va bu keyinchalik, qobiliyatlar va uning keyingi rivojlanish darajasiga yaratib berilgan shart-sharoitlar bilan xarakterlanadi. Ilmiy jihatdan qaralganda, iqtidor bu-qobiliyatlarning yuqori darajada rivojlanganlik darajasi hamda shaxsning biror sohaga yo‘nalgan muvaffaqqiyatli harakatlari shuningdek, boshqalardan ajralib turuvchi alohida ustunlik sifatlari sanaladi. Iqtidorlilik ko‘plab umumpsixologik va ijtimoiy -psixologik sifatlar bilan bog‘liq bo‘lib, bunday o‘smir o‘quvchilar boshqa tengdoshlaridan kuchli darajada rivojlangan adolatlilik sifatlari, ijtimoiy sezgirlik, kognitiv sohaga qaratilgan ehtiyojlarning kuchi, oddiy yechimga ega masalalardan qoniqmaslik, yangicha fikrlashni va qaror qabul qilishni, yangi o‘qitish usullarini yoqitirish, notsandart fikrlashga asoslangan masalalarni yoqitirish kabilar bilan ajralib turadilar. Ko‘pincha, umumta’lim maktabi o‘qituvchilari iqtidorli o‘smir o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilmasliklari va ular bilan yangicha metodik usulda ishlay olishni tushunmasliklari oqibatida, iqtidorli o‘smir o‘quvchilarning ta’limi bilan bog‘liq ayrim mummolarga duch kelishadilar. Shunday ekan, iqtidorlilik

va uning psixologik tabiati, iqtidorli o‘smir o‘quvchilarning o‘ziga xos xarakterologik xususiyatlari, iqtidor turarini psixologik qo‘llab quvvatlash, uning kurtaklarini o‘z vaqtida aniqlash kabi ishlar hozirgi zamon psixologiyasi oldida turgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Xronologik jihatdan qaralganda, inson iqtidori va uni ta’riflash masalalari antik davr mutafakkirlarining ta’limotlari tarixi bilan uzviy bog‘liq sanaladi. Ilk yunon faylasuflaridan Aflotun, Suqrotlarning aytishicha iqtidor - bu xudo tomonidan berilgan qobiliyatdir. Uning asosida qandaydir irsiy va tabiiylik xususiyatlari mavjud [1,58-59]. Shu bois, inson ruhiyati va uning iste’dodi antik davrda tan olinishi va tushunilishi eng qiyin muammolardan biri bo‘lganligi sababli, alohida kishilarning sifat va qobiliyatlarini qudratli xudo yaratgan, deb hisoblangan. Aflotun o‘zining ajoyib ijod namunalarini yaratuvchining kuchi bilan kechayotganligini tushundi. Ya’ni insonda irsiylik va orttirilgan sifatlari alohida hodisa ekanligini nazarda tutdi. Hozirgi tilimiz bilan aytganda, bu bitmas-tuganmas iqtidor ko‘rinishi edi. Uyg‘onish davrida yevropalik olimlarning ko‘pchigi iste’dodning tabiatini tan olish muammosi bilan shug‘ullandilar. Ular orasida ispan shifokori Xuan Uarte o‘z tadqiqotlarini sarhisob qilar ekan, mamlakat kelajagi uchun avvalambor, Ispaniya imperiyasining tiklanishini, uning kelajak istiqboli uchun, davlat xizmatiga yuqori iqtidorli fuqarolarni jalb qilishdan iborat deb hisobladi[2,76]. Uning izlanishlaridan asosiy maqsad insonlarning qobiliyatlarini aniqlash va kelajakda mutaxassis tanlashda ularni hisobga olishdan iborat edi. O‘rta asr yevropaliklarining fikricha, agar odamlar bir xil sharoitda yashasalar, ularning aqli ham bir xil bo‘lar edi. Jon Lokk o‘zining "Inson ongi tajribasi" falsafiy asarida quyidagi fikrni bildiradi: insonda tug‘ma fikrlar bo‘lmaydi, ular tajriba asosida paydo bo‘ladi, insonning bolalikdagi ongi “toza varaq”ga o‘xshaydi; his etilmagan, o‘zlashtirilmagan narsa aqlda bo‘lolmaydi deb ta’kidlaydi[3,134]. Nemis mumtoz faylasuflari E.Kant ham iqtidor tushunchasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib, shu paytgacha tasavvurlarda hukmron bo‘lgan falsafiy tushunchalarni takomillashtirib, inson iqtidori va harakatlarining tabiatini amaliy o‘rganish imkoni mavjudligini ta’kidlab o‘tdi[4,94]. Vaqt o‘tib, bu muammo ko‘plab xorij psixologlari va pedagoglarining eng qiziq mavzusiga aylandi. O‘quvchilardagi iqtidorlilik xususiyatlarini pedagogik muammo sifatida o‘rganishning ilk pedagogik masalalari olimlardan Y. A. Komenskiy, I. G. Pestalotssi, A. Disterveg, J. Dyui, K.D.Ushinskiy kabi ko‘zga ko‘ringan pedagoglar ijodida aks etgan. Ular o‘z asarlarida bolalarning individual psixik xususiyatlariga, shuningdek, o‘smir o‘quvchilarning alohida qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligiga alohida e’tibor berishgan. Ya’ni ular o‘z g‘oyalari orqali xalq savodxonligini oshirish, individual qobiliyat va iqtidor turlarini rivojlantirish masalalarini keng ko‘lamda o‘rganishgan. Misol uchun, J.Dyui iqtidorlilik haqida shunday deydi: “Agar tabiiy aql faqat o‘zini o‘rab turgan narsalarni qamrab olsa, iqtidor bu - u ilgari hech qachon ko‘rmagan narsani tan olishga imkon beradigan ilg‘or bilimdir”[5, 321]. Muallif iste’dodning tug‘ma fazilat ekanligini e’tirof etib, inson qobiliyatini rivojlantirishga ta’lim va tarbiya, mehnat, atrof-muhitning ta’siri katta ekanligini ta’kidlab o‘tadi. A.Disterverg esa, iqtidorni - inson tabiatining bir bo‘lagi, tabiatning insonga bergan ajoyib sovg‘asi, tug‘ilishdanoq bilish va anglash istagi, deb ta’riflaydi”[6,57]. Ammo bola ulg‘aygan sari bu sifatni asta-sekin yo‘qotadi. Muallif insonning tafakkuri, ongi mehnat faoliyati jarayonida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Yuqoridagi olimlarning qarashlaridan farqli o‘laroq, iqtidorlilik, iqtidorli o‘quvchi, iqtidorlilikning yosh xususiyatlari kabi masalalar ko‘plab xorij va mahalliy psixologlarning ilmiy izlanishlarida yaxshi aks ettirilgan. Bunday psixolog olimlar guruhiga L. S.Vigotskiy, B.G.Ananyev, V. A. Krutetskiy, N. Leytes, V. Teplov, V.V.Bogoslovskogo, A.G.Kovaleva, A.M. Matyushkin, K.K. Platonov, Y.A. Ponomarev, V.D. Shadrikov kabilar kiritilsa, mahalliy olimlarimizdan M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, E.G‘.G‘oziyev, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova kabilarning izlanishlari bunga yaqqol misoldir. Rus psixologlarining iqtidorlilikni pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash borasidagi xulosalari, iqtidorlilikni rivojlantirishga yaxlit individual ta’lim sifatida qarash yoki unga tizimli yondashuvning tug‘ilishiga asos bo‘ldi. Va bu keyinchalik, inson iqtidorining tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon keng berdi. Mahalliy psixologlarning ilmiy g‘oyalari esa, iqtidorli o‘quvchilar ta’limi va uni psixodiagnostik o‘rganish, iqtidorlilik testlarini yaratish va mavjudlarini milliy muhitga moslashtirish ishlarini jadallik bilan rivojlantirdi. Oxirgi o‘n yil davomida yetakchi psixolog olimlar tomonidan, iqtidorlilikni tushuntiruvchi quyidagi nazariy konsepsiyalar ishlab chiqildi:

– ya’ni yoshni intellektual iqtidor fenomeniga moslashtirish konsepsiyasi (N. S. Leites);

– Iqtidorlilikka inson ijodkorligining namoyon bo‘lishi sifatida yondashish (A. M. Matyushkin, V. S. Yurkevich):

– Iqtidorlilikning dinamik nazariyasi (Y.D. Babayeva, N. A.Darxanov, M. A. Xolodnaya):

– Shaxsning ekopsikologik rivojlanishi yoki iqtidor rivojlanishga ekopsixologik yondashuv (V. V. Panov).

Yuqoridagilarga muvofiq, ko‘plab psixologik, pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish biz uchun, iqtidorli o‘quvchilarni tadqiq qilishning eng asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqotchi S.V. Kuznetsova iqtidorli o‘smirlarga xos bo‘lgan quyidagi keltirib o‘tadi: o‘smir o‘quvchining iqtidori – bu bilimlarni har qanday vaziyatda qo‘llay oladigan, bilimlarning kengligi, yoshiga qarab yuqori faollik, aqliy jarayonlarning yuqori darajada rivojlanishi, to‘g‘ri g‘oyalarga asoslangan va samarali faoliyatni ta’minlaydigan aqliy fazilatlar majmuidir[7,124]. N. Ojegov o‘zining ilmiy lug‘atida yozishicha, iqtidor bu - "tabiat" tomonidan berilgan maxsus qobiliyatdir. Biroq, psixologlar tomonidan tayyorlangan “Iste’dod tushunchalari” nomli hujjatda esa, “Iqtidorli bola alohida yutuqlarni va muvaffaqqityalarni qayd etuvchi shaxs sifatida ta’riflanadi[7,124].

Bundan tashqari, pedagogik ensiklopediyada quyidagi ta’rif berilgan: “Iqtidor” - bu insonning ma’lum bir faoliyat sohasida alohida muvaffaqiyatlarga erishishiga yordam beradigan qobiliyat rivojlanishining yuqori darajasidir. Ya’ni “iqtidor” tushunchasi “qobiliyat” tushunchasiga juda yaqin tushunchadir. Fanda jamiyatda, umumta’lim maktablarida, ta’lim-tarbiya natijasida iste’dodni aniqlash va rivojlantirish imkoniyati mavjud. Iqtidor - bu insonning ma’lum bir dunyoga bo‘lgan psixologik qobiliyati. Bu qobiliyatni vaqtida aniqlash va uni yanada rivojlantirish lozim. Umuman olganda, inson tabiatan qobiliyatsiz emas. Ba’zilari yuqori qobiliyatga ega, boshqalari o‘rtacha yoki past qobiliyatga ega bo‘ladi. Iqtidorli bolani ko‘rmaslikning iloji yo‘q, tengqurlari ichida u o‘z harakati, mayl va qobiliyati bilan darhol ajralib turadi. Iqtidorli bolalarni qanday aniqlash mumkin? Taniqli tadqiqotchi N. S. Leytes iqtidorli bolalarning 3 toifasini aniqladi[8,39]. Birinchi toifa - intellektual qobiliyati erta yoshda sezilgan o‘quvchilar. Ikkinchi toifa - bu muayyan faoliyat turi va maktab fanining ma’lum bir turi bo‘yicha qobiliyatlari bilan ajralib turadigan o‘quvchilar. Uchinchi toifa - iqtidor va harakati bilan ajralib turadigan o‘quvchilar. Maktabda o‘qish paytida intensivlik erta yoshda fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadigan o‘smir o‘quvchilar uchun xosdir. Ularning aqllari shu qadar yorqinki, ularni sezmaslikning iloji yo‘q. Biroq, o‘smir o‘quvchilarning iqtidori sezilmaydigan holatlar ham mavjud. Ba’zida, hatto bolaning keyingi yosh yillarida ham kamdan-kam qobiliyatlar namoyon bo‘ladi. Bolalarda muayyan qobiliyatlarning yorqin namoyon bo‘lishi fikrlash darajasining umumiy rivojlanishi, fan va san’atning maxsus sohasiga moslashish bilan tavsiflanadi. Uchinchi toifaga mansub o‘smir o‘quvchilar umumiy rivojlanish bo‘yicha tengdoshlari oldida turmaydi, lekin ular o‘zlarining ruhiy o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Ko‘pincha “Iqtidorli o‘quvchi yaxshi o‘qigan talabadir” degan fikr bor. Taniqli ingliz psixologi P.Torrensning tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, bu fikr o‘qituvchilar orasida ham keng tarqalgan. Ularga intizomli, uyushqoq, bilimli, barqaror, konseptual, o‘z fikrini aniq va aniq ifoda eta oladigan o‘quvchilar yoqadi. Mantiqsiz savollar beradigan, faqat o‘z ishlari bilan band, mustaqil, ko‘pincha tushunmovchiliklarga sabab bo‘ladigan, xayolparast, hamma narsaga turlicha qarashli o‘quvchilarni yoqtirishmaydilar. Muallifning xulosalariga ko‘ra, bunday sifatlar o‘quvchilarning ijodiy iqtidorini belgilab, ular kognitiv sohasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi. Fanda iqtidorlilikni e’tirof etish uchun, ikki xil yondashuv mavjud:

1.Har bir bola iqtidorli;

2.Iqtidorli bolalar juda kam uchraydi. Iqtidor haqidagi fikrlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlaridan qat’i nazar, insonning bir yoki bir nechta faoliyat turlarida yuqori natijalarga erishish imkonini beradigan qobiliyatlarga asoslanadi. A.M.Prixojanning aytishicha, iqtidorli o‘smir o‘quvchilarga quyidagi sifatlar xos sanaladi[9,50]:

– Kognitiv ehtiyojning yuqori darajasi,
– Katta qiziqish, sevimli ishiga bo‘lgan ishtiyoqli ishtiyoq
– Aniq ifodalangan ichki motivatsiyaning mavjudligi;
– Erta riovjlangan adolat tuyg‘usi:
– Empatiyaga moyillik;
– Yuqori darajadagi falsafiy fikrlarga moyillik;
– Hayot va uning tashvishlarini erta o‘ylash;
– Ko‘p savollar bilan murojaat qilish;
– Nozik didlik;
– Berilgan topishiriqlarni ortig‘i bilan bajarish va hokazo.

Quyidagi iqtidorli o‘smir o‘quvchilarning shaxslilik va intellektual sifatlarining o‘zaro aloqadorligi bilan bog‘liq, olib borilgan empirik tadqiqotimizning ayrim namunalariga e’tibor qaratamiz.

Jadval-1

Iqtidorli o‘smir o‘quvchilarning Raven testi bo‘yicha tajribadan oldingi va keyingi ko‘rsatkichlari

Sinaluvchi guruhlar	Tajribadan oldin		Tajribadan keyin		t	Ishonchlilik dara-jasi (p)
	$\bar{x}$	δ	$\bar{x}$	δ		
Tajriba guruhi (n=30)	174,9	42,5	215,3	36,8	3,8	0,001
Nazorat guruhi (n=30)	126,7	38,8	129,4	41,5	0,2	—

Jadvaldan ko‘rinib turganidek, rivojlantiruvchi tajribadan so‘ng oddiy o‘smir o‘quvchilarga nisbatan, iqtidorli o‘smir aqliy qobiliyatlari, tafakkur darajalari ko‘rsatkichlari bo‘yicha yuqori ishonch darajasidagi ustunlik jihatlari bilan farqlangan. Ya’ni, iqtidorli o‘smir o‘quvchilar o‘rtacha qiymat tajribadan oldin 174,9 ni tashkil etgan bo‘lsa, tajribadan so‘ng bu qiymat 215,3 ni tashkil etgan. Bu esa, iqtidorli o‘smir o‘quvchilarda mashg‘ulotlardan so‘ng aqliy masalalarni bajara olish ko‘nikmasi ahamiyatli tarzda oshganligini ko‘rsatmoqda.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim maktablarining iqtidorli o‘quvchilari kelajakda yangi texnologiyalar ishlab chiqaruvchi, adolatli siyosatchi, ishonchli shifokor, mohir musiqachi, betakror san’atkor, mas’uliyatli mutaxassis kabi yuksak ma’naviyatli inson bo‘lishi milliy qadriyatdir. Bizning fikrimizcha, iqtidorli o‘qiuvchilar yangicha ta’lim, yangi muhit, innovatsion o‘qitish usullari, o‘z vaqtida psixologik va psixodiagnostik qo‘llab-quvvatlashni talab etuvchi, yuksak maqsadlarga intiluvchi, boshqalardan o‘zining ajoyib kognitiv olami bilan ajaralib turuvchi quvnoq, bilimga chanqoq, aniq hayotiy maqsadlarga to‘la ta’lim subyektlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.С. Клеванов Обозрение философской деятельности Платона и Сократа / А.С. Клеванов. - Москва: Гостехиздат, 2012. - 838 с.
2. Хуан Уарте. Исследование способностей к наукам: пер.с исп. - М., вт.Изд. 2015. – 235 с.
3. Локк Дж. Два трактата о правлении. Политогия. - Х.: Фолио, 2001. – 831с.
4. Кант И. Критика чистого разума. Сочинения в шести томах. Т.3, М., «Мысль», вт. Изд. 1964. – 246 с.
5. Большой психологический словарь / сост. и общ. ред. Б. Мещеряков, В. Зинченко. – СПб. : Прайм-ЕВРОЗНАК. – 2003. – 672 с.
6. Джуринский А.Н. История образования и педагогической мысли. - М.: ВЛАДОС-ПРЕСС, 2003. – 400 с.
7. Кузнецова С.В. Основы психологии и педагогики : учебное пособия . М.: ТЦ Сфера, 2005. – 384 с.
8. Лейтес Н.С. Возрастная одаренность индивидуальные различия. - М.: Издательство.Институт практической психологии, Воронеж: НПО «МОДЭК», 1997 – 448 с.
9. Прихожан А.Н., Толстых Н.Н. Подросток в учебнике и в жизни. - М., вт. Изд. 2011. – 243 с.

UDK 152.26:796.83(045)

Bahrom Jurayev
Qarshi davlat universiteti proffesori
Psixologiya fanlari doktori (DSc)

Nazarov Asliddin Faxriddin o‘g‘li
Psixologiya kafedrasi magistri

O‘SMIR BOKSCHILARDA SPORT MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada o‘smir bokschilarda sport motivatsiyasini shakllantirishning psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Unda muammoning nazariy va amaliy jihatlari, bu borada olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari haqida so‘z borgan. Muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda ham juda dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport, boks, shaxs, o‘smir, muvaffaqiyat, motiv, iroda, musobaqa, psixologik tayyorgarlik.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СПОРТИВНОЙ МОТИВАЦИИ У БОКСЕРОВ-ПОДРОСТКОВ

Аннотация. *В статье рассматриваются психологические особенности формирования спортивной мотивации боксеров-подростков. В ней рассказывается о теоретических и практических аспектах проблемы, о научных исследованиях, проводимых учеными в связи с этим. Исследования, проведенные автором, показывают, что изучение данной проблемы остается весьма актуальным и на сегодняшний день.*

Ключевые слова: *физическая подготовка, спорт, бокс, личность, подросток, успех, мотивация, воля, соревнование, психологическая подготовка.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF SPORTS MOTIVATION IN TEENAGE BOXERS

Annotation. *The article deals with the psychological features of the formation of sports motivation of teenage boxers. It tells about the theoretical and practical aspects of the problem, about the scientific research conducted by scientists in connection with this. The studies conducted by the author show that the study of this problem remains very relevant today.*

Key words: *physical training, sport, boxing, personality, teenager, success, motivation, will, competition, psychological preparation.*

Kirish. Hozirgi paytda mamlakatimizda yuqori malakali sportchilarni tayyorlash uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlar o‘rtasida sportning barcha turlariga qiziquvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Insonni hayotga yoki biror faoliyat sohasiga tayyorlash – hayotning o‘zi kabi rang-barang, keng qamrovli, murakkab, ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, ular turli usullar, vositalar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, o‘quvchini o‘qishga va mehnatga tayyorlash, harbiy askarni texnik, taktik va irodaviy tayyorgarlik sifatlarini rivojlantira borib, jismoniy, ruhiy, siyosiy jihatdan og‘ir sharoitlarda jangovar mashqlarga, ona vatanni himoya qilishga tayyorlash ko‘p bosqichli, turli xil usullar vositasida amalga oshiriladigan qiyin va qizg‘in ijodiy-tarbiyaviy jarayondir. Shuningdek, o‘quv, tarbiyaviy va amaliy faoliyatda sportchilarni jismoniy mashqlarga hamda sport musobaqalariga psixik jihatdan tayyorlash, musobaqada g‘alaba qilishga, yangi rekordlar o‘rnatishga yo‘llash muhim ahamiyatga ega.


Bugungi kunda hech shubhasiz, boks mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarning eng sevimli sport turlaridan biriga aylangan. Bokschilarimiz jahon ringlarida 2016-yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan nufuzli musobaqalarning deyarli barchasida zafar qozonib, yetakchilikni qo‘ldan bermay kelyapti. Xalqaro boks maydonida sportchilarimiz egallagan bunday yuqori reyting esa yoshlarning boksga bo‘lgan ommaviy qiziqishini yanada oshirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash tizimini yanada takomillashtirish, soha bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash va moddiy rag‘batlantirish, shuningdek, o‘zbek boksining dunyoda yetakchiligini saqlab qolish uchun katta yo‘l ochdi. Bu yo‘lda mamlakatimiz Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-sonli “Boksni yanada rivojlantirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori g‘oyat muhim ahamiyat kasb etib, unda boksni aholi o‘rtasida eng ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish, boks infratuzilmasini yanada rivojlantirish hamda xalqaro talablarga moslashtirish, boks maktablarini, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida ko‘paytirish, boks bo‘yicha professional trenerlar va hakamlarni tayyorlash tizimini rivojlantirish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish, ilmiy-metodologik bazani yanada kuchaytirish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Hozirgi kunda respublikamizda sportning turli sohalari, jumladan boksni keng rivojlantirish va soha bo‘yicha yetakchi mutaxassislarni tayyorlash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bunda barcha fanlar, jumladan psixologiya faniga oid bilimlardan keng foydalanish muhim bo‘lib, undan sportchi shaxsining individual psixologik xususiyatlarini o‘rganishda, ularning hissiy-irodaviy sifatlarini shakllantirish, sportchilarni bo‘lajak musobaqaga tayyorlashning psixologik asoslarini o‘rganish, ularda harakat malakalarini shakllantirish, sport jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni yaxshilashda samarali foydalanish mumkin. Shu o‘rinda, o‘smir sportchilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ularning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, birinchi navbatda, sportchilarning psixologik, ma’naviy, irodaviy, jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini oshirishda psixologik bilimlarning ahamiyati kattadir.

Shuning uchun ham mamlakatimiz psixologiya fani sohasida o‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ularning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, sportchilarni bo‘lajak musobaqaga tayyorlashning psixologik asoslarini o‘rganish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan va hozirgi kunda ham bunday izlanishlar uzluksiz davom ettirilmoqda. Jumladan. E.G‘.G‘oziyev, M.M.Mamatov, A.I.Rasulov, O.E.Hayitov, Y.N.Masharipov, Z.H.Fayziyev, R.A.Abdurasulov, Z.G.Gapparov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar muhim bo‘lib, ularda sportchi shaxsining individual psixologik xususiyatlari, shaxsda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, iroda va irodaviy sifatlar muammosining nazariy-metodologik masalalari, ixtiyoriy harakatlar va ularni o‘zlashtirish, irodaviy sifatlar shakllanishining yosh xususiyatlari, o‘quvchilarda sport motivlari hamda axloqiy sifatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari masalalari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Tadqiqotning natijalari va uning muhokamasi. Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda yuqorida olimlar tomonidan amalga oshirilgan izlanishlardan farqli ravishda, o‘smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, sportchi o‘smirlarning irodaviy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash muammolari o‘rganilgan. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlarimizda Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi qoshidagi “Boks” sport turi bo‘yicha shug‘ullanuvchi sportchi-o‘quvchilarni respondent sifatida tanlab oldik. Tadqiqot ishimizda bir qator metodikalardan, jumladan, L.I.Vassermanning “Ijtimoiy frustratsiya darajasi” metodikasi, T.D.Dubovitskayaning “Yengib o‘tuvchi xulq-atvorni o‘rganish” so‘rovnomasi, M.V.Chumakovaning “Shaxs irodaviy sifatlarini o‘rganish” so‘rovnomasi va T.Elers tomonidan ishlab chiqilgan “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish” kabi so‘rovnomalardan foydalandik.



Tadqiqot natijasida bokschilarda motivatsion sohalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlandi. Bular: psixologik, ijtimoiy, pedagogik va metodik omillardir.

1-rasm. Shaxs intilish darajasi xususiyatlarini aniqlash so'rovnomasi natijalari

Shaxs intilish darajasi xususiyatlarini aniqlashga mo'ljallangan so'rovnoma bo'yicha birinchi shkala ichki motiv shkalasi bo'yicha 78,36 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 66,76 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 63,82 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar tashkil etgan.

Bilish motivi shkalasi bo'yicha 71,33 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 74,22 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 57,44 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar xarakterlangan.

Qochish motivi shkalasi bo'yicha 51,16 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 54,37 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 61,88 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar namoyon bo'lgan. Musobaqalashuv motivi shkalaga ko'ra, 75,11 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 78,69 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 69,25 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar tashkil etgan.

Faoliyatni almashtirish motivi shkalaga ko'ra, 50,89 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 55,65 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 66,42 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar tashkil qilgan.

Topshiriqlarning murakkabligi shkalaga ko'ra, 58,27 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 55,34 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 69,68 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar tashkil qilgan.

Irodaviy quvvat shkalaga ko'ra, 69,08 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 72,74 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 63,24 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar farqlangan.

O'z imkoniyatlarini baholash shkalaga ko'ra, 79,36 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 82,14 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 68,71 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar namoyon qilgan.

Natijalarning kutilganlik darajasi shkalasi bo'yicha 67,5 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 69,95 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 55,23 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar qayd etgan.

Navbatdagi tashabbuskorlik shkalaga ko'ra, 68,79 natijani Qarshi olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi, 64,25 ko'rsatkichni Termiz olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi hamda 60,46 Jizzax olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida tahsil oluvchi sportchi bokschilar farqlangan.

Sportchilarda irodaviy sifatlarga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni kompleks darajada yanada tizimliroq o'rganish uchun sport maktablarida jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanayotgan bokschi o'smirlarning kelgusida kasbiy qiyinchiliklarga duch kelishi, turli qiyinchiliklarni yengishi, irodaviy sifatlar darajasi va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish davomida ularning umumiy o'rtacha qiymatlari bilan birgalikda o'tkazilgan so'rovnomalar bo'yicha omilli tahlil usuli ham qo'llanildi. Odatda iroda inson tomonidan o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish sifatida baholanadi, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakati va xulq-atvorning amalga oshishida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o'tish tariqasida ta'riflanadi. Yoshlarning irodasi, eng avvalo, shaxsning ijtimoiy faolligida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Mazkur faollikdan uning mazmuni va shaklan tuzilishini farqlash mutlaqo zarur. Shaxs faolligining mazmundor tomoni - uning ijtimoiy xislatlarida o'z ifodasini topadi, chunki bunda ijtimoiy ko'rsatma (attityud),

e'tiqodlar, ma'naviy his-tuyg'ular, qiziqishlar dominantlik xususiyatini kasb etadi.

Shaxs faolligining shakli faoliyatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi ruhiy jarayonlar, ichki, tashqi va anglashilgan irodaviy xatti-harakat intilish namoyon bo'lishi orqali aniqlanadi. Shaxs uchun qiyin sharoitlarda o'zini o'zi ongli ravishda boshqara olish imkoniyati irodaviy zo'r berishning yordami bilan yuzaga keladi va belgilangan muayyan aniq maqsad, reja hamda uni ro'yobga chiqaruvchi xatti-harakatlar ularning ijrosiga yo'naltiriladi.

O'smir bokschilarda muvaffaqiyatga erishish motivlarini shakllantirish, ular irodaviy sifatlarini tadqiq etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari yuzasidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, irodaviy sifatlar omilini psixodiagnostik tashxis qilish, irodaviy sifatlar darajasi, ijtimoiy frustratsiya, yengib o'tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatga erishish-muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bo'yicha so'rovnomalardan olingan natijalar ulardagi o'rtacha ko'rsatkichlar va standart og'ishlarning darajalari o'smir sportchilar tarkibi bo'yicha qiyosiy tahlil qilinganligi va irodaviy sifatlarning namoyon bo'lish shakllari so'rovnomalar orasidagi qiymatlarga ko'ra sportchilarda o'rtacha koeffitsiyentni tashkil qilganligi va bu standart ko'rsatkich bo'yicha o'rtacha darajani tashkil qilganligini anglatadi.

Xulosa: Irodaviy sifatlarning asosiy jihatlari shundaki, sportchilardagi irodaviy sifatlar darajasi, ijtimoiy frustratsiya, shaxs irodaviy sifatlari, yengib o'tuvchi xulq-atvor va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi bilan bog'liq munosabatlar omilli analiz va sportchilarning irodaviy sifatlarini belgilab beruvchi asosiy xususiyatlarni ajratib beruvchi gistogramma tahlil mezonlari orqali tekshirilganda ularning natijalari o'rtachadan yuqori darajadagi omillarga birikganligi, ularning kelgusi faoliyatida asosiy psixologik xususiyatlarni tashkil qilishi va irodaviy sifatlarni rivojlantiruvchi psixologik omillar sifatida namoyon bo'lish kuzatildi. Sportchilarda irodaviy sifatlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bo'yicha so'rovnomalardan olingan korrelyatsion tahlillar shuni ko'rsatdiki, sportchilarda irodaviy sifatlarni o'zaro uyg'un ravishda rivojlantirish uchun ulardagi asosiy psixologik shkalalar bir-biri bilan bog'langanligi, ya'ni irodaviy matonat, oqilona harakat, vaziyatni yengib o'tish, muvaffaqiyatga erishish, nazorat, qat'iylik, matonatlilik, irodaviy mas'uliyatlilik, g'ayratlilik va qat'iylik kabi psixologik omillar yuqori darajada bog'langanligini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 03.06.2017 й. ПҚ-3031 сонли Қарори. Lex.uz.
2. Абдурасулов Р.А. Спорт машғулотларининг ўқувчи-спортчилар шахсини шакллантиришдаги роли (яккакураш турлари мисолида): психология фан. доктори (DSc) диссертация автореферати: 19.00.06. -Т.: 2018.
3. Арзикулов Д.Н. Психология ва спорт психологияси. -Ч.: "ЎзДЖТСУ", 2020.
4. Маматов М. Татбиқий спорт психологияси. -Т.: "Университет", 2019.
5. Машарипов Й. Спорт психологияси. -Т.: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти ", 2010.
6. Файзиев З.Ҳ. Казусли вазиятларда спортчи эмоционал ҳолатини коррекциялашнинг ижтимоий-психологик механизмлари: психология фан. бўйича фал. доктори (PhD) диссертация автореферати: 19.00.05. -Б.: 2020.
7. Ҳайитов О.Э. Спорт фаолияти психологияси. -Т.: "Umid Design", 2021

Elov Ziyodullo Sattorovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
E-mail: elovziyo2021@gmail.com

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINING RIVOJLANISH JARAYONI VA TARIXI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi kunga qadar chuqur izlanishga va qator ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishga, shuningdek juda ko‘plab munozara va bahslarga sabab bo‘layotgan, aniqlik va diqqat, juda katta bilim talab etilayotgan, sudga oid psixologik ekspertiza sohasining asl xususiyati va ushbu jarayonning qanday tarixga ega ekanligini tahlil qilingan bo‘lib, ushbu sohadagi ulkan o‘zgarishlar qilish, aniqliklarni zamonaviy texnologiyalar bilan yanada mukammlashtirish, bugungu zamonning muhim talabi ekanligi keng yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlari*: sud ekspertizasi, psixolog, ekspert, barmoq izi, ekspertiza turlari, sudlov jarayoni, sudya, affekt, depressiya.*

ПРОЦЕСС РАЗВИТИЯ И ИСТОРИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация*. В данной статье раскрывается своеобразие области судебно-психологической экспертизы, которая стала предметом глубоких исследований и ряда научных исследований, а также большого обсуждения, что требует точности и внимания, большого количества знаний и того, как этот процесс осуществляется. Проанализировано, что он имеет историю, и широко объяснено, что внесение огромных изменений в этой области, повышение точности с помощью современных технологий является важным требованием сегодняшнего времени.*

Ключевые слова: *судебная экспертиза, психолог, эксперт, отпечаток пальца, виды экспертиз, судебный процесс, судья, аффект, депрессия.*

DEVELOPMENT PROCESS AND HISTORY OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXPERTISE

Abstract. *In this article, the original nature of the field of forensic psychological expertise, which has been the subject of deep research and a number of scientific studies, as well as a lot of discussion, which requires precision and attention, a great deal of knowledge, and how this process is carried out. It has been analyzed that it has a history, and it is widely explained that making huge changes in this field, improving accuracy with modern technologies, is an important requirement of today's time.*

Key words: *Forensic expertise, psychologist, expert, fingerprint, types of expertise, judicial process, judge, affect, depression.*

Kirish. XXI asrda inson va uning baxtli hayot kechirishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev aytganlaridek: “....., biz har bir fuqaro o‘zining kuch va imkoniyati, qobiliyati va salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng sharoit va imkoniyat yaratib berishimiz kerak[1]”. Bu esa jamiyat a’zolaridagi ijtimoiy psixologik muammolarni o‘z vaqtida yuqori darajada yechimini topishni talab qiladi.

Biz bilamizki har narsani ibtidosi va intihosi bor, ammo ilm-fan ma’rifatda aslo yakun bo‘lmaydi. Qancha bilib o‘rganganiz qadar shuncha ko‘p yangiliklar yaratishimizni va albatta jamiyatga foydamiz tegishini anglab yetamiz. Ushbu bilimlar orqali kelajak avlodlarga, juda katta ma’naviy ozuqa yetkazib beramiz. Hozirgi kunda o‘rganilayotgan ba’zi bir sohalar uzoq bir davrlarni bosib o‘tganini ko‘rishimiz mumkin. Ammo, qaysidir davrlarda ma’lum sohalardagi tanazzul tufayli, rivojlanish va o‘sishda susayish keying davrlarda o‘zining kamchiliklari bilan taraqqiyotga ta’sir etayotganini ko‘rishimiz mumkin. Bugun bu kabi sohalarda orasida o‘zgarishga va rivojlanishga yanada muhtoj bo‘lgan sudga oid psixologik ekspertiza jarayoni haqidagi ilmiy ma’lumotlarni tadqiq qildik.

[1] Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016. 23-bet.

Asosiy tahlillar: Bugungi kunda, yuridik sohaning kun sayin rivojlanib borayotganligi natijasida, uning qator tarmoqlari shu jumladan yuridik psixologiya ham rivojlanmoqda. Natijada sohaning muammolari yuzasidan turli amaliy tadbirlarda sifat bosqichiga erishish uchun mavjud tajribalarga tayanib, mahalliy mutaxassislar tomonidan bir qator masalalar qayta ko‘rib chiqilishi lozim[1]:

1. Bugun jahon psixologiyasida qo‘llanilib kelayotgan “standartlar”ga tayanib, yuridik psixologiyada psixologik metodikalardan foydalanish borasida mahalliy muhit uchun aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqish;

2. Mahalliy sharoit uchun qo‘llanishi lozim bo‘lgan yuridik psixologiya sohasidagi qo‘llanmalarni nashr ettirib borishni yo‘lga qo‘yish;

3. Yuridik psixologiya imkoniyatlaridan foydalanish bo‘yicha amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqish;

4. Mutaxassislar tayyorlash jarayonida yuridik psixologiyaning boshqa tarmoqlari bo‘yicha ularning standartlari masalasi uchun alohida mashg‘ulot mavzularini ajratish lozim.

Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, fanlar tizimida psixologiya fani muhim ahamiyatga ega. Akademik B.M. Kedrovning fikricha – psixologiya o‘zlashtirilayotgan gumanitar, aniq va maxsus fanlarning markazini tashkil etadi.

Huquqni muhofaza qilish faoliyatida psixologik bilimlar quyidagi jarayonlarda qo‘llaniladi:

- shaxsni to‘g‘ri diagnostika qilish;
- insonga nisbatan individual yondashish;
- taktik usul va qarorlarni tanlash va ishlatish;

Yuridik sohada shaxsni mana shu kabi jarayonlar bilan tadqiq qilish va o‘rganish sudga oid psixologik ekspertizada amalga oshiriladi.

Asli sudga oid psixologik ekspertiza biz uchun nimaga kerak degan savol paydo bo‘ladi. Javob shundaki, aniq tashxis, tahlil, bir insonni hayot mamoti uchun ham vijdonan kurash olib borish uchun, bir insonni hayotini asrab qolish uchun ham bizga sudga oid psixologik ekspertiza kerak.

Sud psixologik ekspertizasi bu – sudda huquqiy masala uchun ishlatiladigan baxs yoki munozara. Shu sababli sudga oid psixologik ekspertizasi bu – sud sharoitida ilmiy psixologik nazariyalar haqidagi suhbat yoki munozara olib borish jarayoni hisoblanadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza nomi ya’ni argumentativ mashq degan ma’noni anglatuvchi sud tibbiyoti sifatdoshidan kelib chiqqan bo‘lib, uning ingliz tilidagi eng qadimgi ma’nosi sudlarga tegishli, qo‘llanilgan yoki sudlarga yoki ommaga muhokama va muzokaralarga mos keladi. Ingliz tilidagi ushbu so‘z, lotincha sud tibbiy so‘zidan olingan bo‘lib bozor yoki shakli, ommaviy degan ma’noni anglatadi, bu esa o‘z navbatida lotincha forum so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib bozor joyi, degan ma’noni anglatadi.

Sudga oid psixologik ekspertiza tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, bu yo‘nalishdagi dastlabki ishlar milodiy I asrning boshlarida Rimlik notiq va huquqshunosh Kvintilian tomonidan, aybsiz kishini oqlash uchun asosiy sud ekspertizasidan foydalanganligi ma’lum[2]. Rim modeli zamonaviy sud va huquq tizimining asosini tashkil qiladi. Shunday qilib, qadimgi Rimda dalillarni tekshirishda ilmiy tamoyillar qo‘llash ajablanarli emas. Ammo, g‘arbda Rim imperiyasining qulashi bilan sud ekspertizasini qo‘llanilishini keyingi ming yillikdagi jarayoni to‘xtab qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Milodning V asrlariga borib, German va slavyanlar jamiyatida birinchi bo‘lib o‘lim sabablarini aniqlashda tibbiy mutaxasislarni jalb qilish to‘g‘risida qonun chiqarilgan edi. Bu qonunga asosan tibbiyot hodimlarini alohida sud ishlariga jalb qilishini talab etilgan.

Tarixiy ekspertlarni izlanishlari natijasida VI asrlarda Xitoy mutaxassislari ham ushbu sohada yaxshigina bilimlarga ega ekanligini aytib o‘tish lozim. Ushbu faktlar bo‘yicha o‘sha davrdagi muhim qimmatga ega bo‘lgan asar Ming Yuen Shin Lu nomli muallifning kitobida eslab o‘tilganligini manbalar ko‘rsatib o‘tadi.

VII asrda barmoq izlaridan indentifikasiya qilish vositasi sifatida foydalanish tushunchasi birinchi marta qo‘llanildi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra savdogarlar o‘zlaridan qarzdor bo‘lgan mijozlarini kimligini uning barmoq izlarini hisob qog‘oziga olish orqali tekshirishga musharraf bo‘lgan. Keyinchalik esa bu metodikani sudyalar inkor etib bo‘lmaydigan dalil sifatida qabul qilishgan.

Mana biz hozirgi zamonda qo‘llab kelayotgan barmoq izlari aslida qanchalik tarixiy jarayonlarni bosib o‘tganligini guvohi bo‘lyapmiz aslida oddiygina savdogarlarni mijozlar bilan o‘rasidagi o‘rnatilgan bu kabi muloqot, bugungi davrda ham foydalanib kelinayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

[1] Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.
[2] Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.

Eramizdan avvalgi 1000-yilga kelib, o‘sha davrlarda Xitoy, Bobil, Fors va yangi Shotlandiya kabi joylarda rasmiy hujjatlarni imzolashda ham barmoq izlarini ishlata boshlashgan.

Bu birgina barmoq izi ekspertizasini qisqacha tarixiy jarayoni hisoblanadi. Biz izlanish olib borayotgan ushbu sohada juda ko‘plab ming yillik tarixga ega bo‘lgan metodikalar borligini ko‘rishimiz mumkin. Balki ba’zi bir metodikalarini hozirgi zamonaviy texnologiya asrida ham tatbiq etib uni zamon bilan hamfikr bo‘lgan holda o‘rganib chiqishimiz yoki yanada chuqurroq o‘rgangan holda bu sohada yanada ulkan yutuqlarga erishishimiz mumkin.

Bu tarixiy ma’lumotlardan tashqari, bugun zamonaviy ekspertiza jarayonida barmoq izlari bo‘yicha yirik olim, sohaning otasi sifatida, AQShning Takoma shtatidagi indefikasiya byurosi (*HM Smit barmoq izi*) rahbari Frensis Galton[1] hisoblanadi. Ko‘pgina malumotlarda bu insonni barmoq izlari bo‘yicha bugun dunyodagi eng asosiy shaxs sifatida qaraladi.

Xulosa va tahlillar: Yillar davomida o‘rganilib asta-sekin taraqqiy eta boshlangan bu soha hali ham rivojlanib bormoqda. Shu o‘rinda o‘quvchida sudga oid psixologik ekspertiza bo‘yicha tadqiqotchi kim degan savol paydo bo‘lishi tabiiy jarayondir.

Arximed ehtimol birinchi sudga oid psixologik ekspertizani asoschisi bo‘lgandir. Bir tarixiy ma’lumotda aytilishicha, qirol mahaliy zargardan maxsus oltin toj buyurtma qiladi, ammo, bu sof oltin emas deb gumon qilgan. U Arximeddan aldanganmi yoki yo‘qligini aniqlashini so‘raydi, lekin u tayyorlangan tojda biror bir sinov o‘tkazmasdan, unga zarar yetkazmasdan tekshirilishini xoxlaydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan afsonaga qo‘shimcha ravishda sudga oid psixologik ekspertiza Xitoyda vujudga kelgan degan taxmin ham borligini unutmaslik lozim.

Yani bir dehqon o‘z dalasida o‘roq bilan o‘ldirilgan. Tergovchilar tomonidan barcha dehqonlarning o‘roqlarini yig‘ib olishadi. Bir necha soniyalardan keyin bir o‘roq chivinlarni o‘ziga tortayotganligini ko‘rishadi va aynan shu o‘roq qotillikda ishlatilganligini va uning sohibi qotil ekanligini aniqlashadi.

Davrlar o‘tgani sayin, bu soxada ham asta-sekin rivojlanishlar bo‘ldi, 1247-yillarda Xitoyda sudga oid psixologik ekspertiza bo‘yicha birinchi darslik nashr etilgan bo‘lib, u shubhali o‘limini tekshirishda amal qilish kerak bo‘lgan tartiblarini hujjatlashtiriladi.

Yana bir ma’lumotga qaraganda miloddan avvalgi 44-yilda Yuliy Sezar o‘ldirilganidan keyin davolovchi doktor jasaddan topilgan 23 ta jarohatdan faqat bittasi halokatli ekanligini aytib o‘tganligini ham ko‘rishimiz.

Yuqoridagilarga asoslanib va boshqa qator juda ko‘plab manbaalar o‘rganilib chiqqan holda, sudga oid psixologik ekspertiza naqadar uzoq yillik tarixiga ega ekanligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Sud – psixologik ekspertizasi predmeti shundan iboratki, bu yerda ayblanuvchi, sudlanuvchi, guvoh va jabrlanuvchi ko‘rsatmalarining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash emas. Bu tergov va sudning vakolatlariga kiradi.

Sud – psixologik ekspertizasining asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishi natijasida, so‘roq qilinuvchi shaxsning individual xususiyatlariga ko‘ra, isbot uchun tegishli bo‘lgan faktlarni u tomonidan adekvat qabul qilinishi, eslab qolishi va so‘zlab berish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston. 2016. 23-bet.
2. Elov Z.S. Yuridik psixologiya. Darslik. Buxoro-2023 Kamolot nashriyoti 486 b.
3. Elov Z.S. Sud-Psixologik Ekspertizasi Tarixi Va Rivojlanish Bosqichlari (Ilmiy Manbalar Tahlili Asosida). Journal of Pedagogical and Psychological Studies 2 (1), 3-8. 2024
4. Tojiyeva N.T., Elov Z.S., Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o‘tkazilishining psixologik xususiyatlari. 2024 ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР 1 (№1), 9-14
5. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizalar o ‘tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari. 2024 Technical science research in uzbekistan 2 (2), 58-69

[1] Elov Z.S. Yuridik psixologiya. B.: 2023 Kamolot nashriyoti 238-b.
N.T.Tojiyeva., Z.S.Elov., Voyaga yetmaganlarda sudga oid psixologik ekspertiza o‘tkazsishning psixologik xususiyatlari. Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. 2024 №1

Shukurova Dilfuza Roupovna
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK TARBIYACHI SHAXSIDA KASBIY TAYYORGARLIK MASALALARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada pedagogik madaniyat, antroposentrizm va uning rivojlanish tarixi, olib borilgan tadqiqot ishi natijalari tahlil qilingan. Pedagogik madaniyat mazmuni, uni bo‘lajak tarbiyachilarida rivojlantirish zaruriyati asoslangan. Shuningdek, maqolada muallif tomonidan bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishning antroposentrizm tamoyiliga asoslangan taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: bo‘lajak tarbiyachi, pedagogik madaniyat, antroposentrizm, fonomen, malaka talablari.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВОПРОСОВ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ЛИЧНОСТИ БУДУЩЕГО ПЕДАГОГА

Аннотация. *В данной статье анализируется педагогическая культура, антропоцентризм и история его развития, а также результаты проведенного исследования. Содержание педагогической культуры исходит из необходимости ее развития у будущих воспитателей. Также в статье автором представлены предложения и рекомендации, основанные на принципе антропоцентризма для развития педагогической культуры у будущих педагогов.*

Ключевые слова*: будущий воспитатель, педагогическая культура, антропоцентризм, феномен, квалификационные требования.*

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF ISSUES OF PROFESSIONAL TRAINING IN THE PERSONALITY OF A FUTURE EDUCATOR

Abstract. *This article analyzes pedagogical culture, anthropocentrism and the history of its development, as well as the results of the conducted research. The content of pedagogical culture is based on the need to develop it in future educators. Also, in the article, suggestions and*

Keywords: *future educator, pedagogical culture, anthropocentrism, phenomenon, qualification requirements.*

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha butun dunyoning nufuzli oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning pedagogik madaniyati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyati tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rinni egallamoqda. Mamlakatimizda ilg‘or xorijiy tajribalar asosida uzluksiz ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, talabalar ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beruvchi zarur shart-sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni da “Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish, 2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish, maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bu borada bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Pedagogik madaniyat tushunchasi ta’lim sohasiga bir qator pedagog tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Pedagogik madaniyat - umumiy

madaniyatining ajralmas qismi, tarkibiy qismi bo‘lib, u doimiy ravishda pedagogik nazariya bilimlarini chuqur va puxta egallash darajasini, bu bilimlarni mustaqil ravishda, uslubiy asosli va yuqori samaradorlikda qo‘llash qobiliyatini tavsiflaydi. Pedagogik jarayonda talabalarning individual-tipik xususiyatlarini, ularning qiziqishlarini hisobga olgan holda fan va amaliyotning rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqlikni anglatadi. Pedagogik madaniyatda ma’naviy va moddiy qadriyatlar, shuningdek, insoniyatning avlodlar almashishi va ijtimoiylashuvi (o‘sishi, bo‘lishi) tarixiy jarayoniga xizmat qilish uchun zarur bo‘lgan odamlarning ijodiy pedagogik faoliyati usullari mavjud. Tarbiyachining pedagogik madaniyati esa, tarbiyachi shaxsiyatini shunday umumlashtiruvchi xususiyati bo‘lib, u bolalar va bolalar bilan samarali hamkorlikda ta’lim faoliyatini qat’iyatli va muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi. Bunday pedagogik madaniyatdan tashkil topmagan pedagogik amaliyot zerikarli va samarasizdir. Aynan, bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishda antroposentrizm tamoyilini o‘rganish va tahlil qilish va amaliyotga tadbiq qilish, bugungi kun zamonaviy tarbiyachisining fonomenini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Antropotsentrizm haqidagi dastlabki g’oyalar uyg’onish davridan paydo bo’lgan. Biroq ko’pchilik tadqiqotchilar antropotsentrizm ildizlari antik davrdan boshlanganini ta’kidlashgan. Bu dunyoqarash inson bilishining subyekt-ob’ektli sxemasi boshlanishini belgilab bergan. Uyg’onish davrining butun madaniyati va falsafasi insonning shaxs sifatidagi qadr-qimmatini tan olish, uning erkin rivojlanish huquqi va qobiliyatlarining namoyon bo’lishi bilan to’ldirilgan. Antroposentrizm termini falsafa faniga doir bo‘lib, nemis falsafiy antropologiyasining asoschisi M.Shelerning fikricha, falsafaning barcha markaziy muammolarini “Inson o‘zi kim?”, degan tushuncha atrofida mujassamlashtirish mumkin.Nutqni yaratish va idrok etish jarayonida insonning yetakchi rolini e’tirof etish natijasida tilshunoslar antropotsentrizm g‘oyasiga duch kelishdi va bunda lisoniy shaxs omili birinchi o‘ringa olib chiqildi. “Antroposentrizm” so‘zi yunoncha anthropos–odam hamda lotincha sentrum–markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan [2]. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antroposentrizmning ildizlari Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M L.Vaysgerber, A.V.Zveginsev, N.V.Bugorskaya E.D.Suleymenova va N.J.Shaymerdenov, V.M.Alpatov, V.Gumboldt qarashlarida til atrofdagi olamni ruhiyat mulkiga aylantiruvchi faoliyat turi sifatida namoyon bo‘ladi. Antropotsentrik nazariya – tadqiqot obyektining subyektda o‘rganilishidir, boshqacha qilib aytganda, til insonda, inson tilda tahlilga tortiladi. I.A.Boduen de Kurtenening fikricha, “til faqat yakka shaxsning ongida, ruhida, qalbida bo‘ladi, bu shaxs til jamoasini tashkil qiladi” [3].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ta’limda bo‘lajak tarbiyachilarnin antroposentrizm tamoyili asosida pedagogik madaniyatini rivojlantirish mutaxassisning yangicha qirralarini o‘rganishga zamin yaratadi. Ko‘plab olimlar pedagogik madaniyat tushunchasini pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tadqiq etgan bo‘lsada, so‘ngi pedagogik tadqiqotlarda aynan bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik madaniyatini rivojlantirish, ularga zarur ko‘nikmalarni singdirish, ularning ijtimoiy-madaniy rivojlanishining muayyan bosqichida bilimlarni uzatish masalalarini hal etishda antroposentrizm tamoyiliga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, pedagogika alohida fan sifatida nisbatan yaqinda shakllangan bo‘lishiga qaramay, ta’lim va tarbiya asoslari qadimgi davrlarda vujudga kelgan. Ijtimoiy faol va harakatchan, tashabbus ko‘rsatib, o‘zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, yuksak madaniyatli, innovatsion fikrlash qobiliyatiga ega va ta’limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor tarbiyachi shaxsini shakllantirish va ta’minlash oliy ta’lim muassasalarining muhim vazifasi hisoblanadi. Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Muhokama:Prezident Sh. Mirziyoyevning 2019- yil 19- oktyabrdagi maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda ta’kidlaganlaridek: “Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunda kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta’lim tizimidan boshlanadi”[4].

Ta’lim sohasiga qo‘yiladigan talablar orasida maktabgacha ta’lim tashkilotlari mutaxassislarining pedagogik madaniyatini oshirish uchun qator chora tadbirlar yo‘lga qo‘yilgan. Tarbiyachi shaxsiga qo‘yiladigan talab – eng avvalo o‘z ustida izlanishlar olib borishidir. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta’lim tashkiloti mutaxassislarining pedagogik yetukligini rivojlantirishdir. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib boruvchi bo‘lajak tarbiyachilarda

pedagogik madaniyatni rivojlantirish metodikasini antroposentrizm tamoyil asosida takomillashtirish tarbiyachilarning har qanday jarayonda o‘zining ijobiy sifatlarini namoyon qilishida shaxsiy na’muna va pedagogik vaziyatda ma’suliyat bilan yondashishni ko‘rsatadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni yangi zamon talablariga to‘laqonli javob bera oladigan, axloqiy qadriyatlarga xos yondasha oladigan, individual qobiliyatlarini rivojlantirish orqali, ularda eng avvalo maktabgacha ta’lim pedagog, tarbiyachilardan pedagogik madaniyatni talab etadi. Barkamol shaxsni voyaga yetkazishda roli beqiyos sanaladigan Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar maktabgacha ta’lim tashkiloti bo‘lajak tarbiyachilari hamda mutaxassislarini pedagogik madaniyatni rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi pedagoglarining zimmasidadir. Pedagogik madaniyat tuzilmasida uning odob-axloq bo‘limi muhim o‘rin egallaydi. Bu pedagogik ishonch jarayonining shakllanishi, natijasi va tarbiyachining o‘z qiziqishlarini ko‘proq aniqlash jarayonidir. Pedagogik madaniyatning kasbiy faoliyatiga bog‘liq tashkil etuvchisi pedagog tomonidan o‘zining pedagogik qobiliyatlarining barcha spektrini bilib olganligini xarakterlaydi, u esa pedagogik faoliyat muvaffaqqiyatining nishonasi, pedagogik xatolarning oldini olish va nihoyat, pedagogik qobiliyat usullarini egallanganligidan iborat. Pedagogik aloqa qilish madaniyati suhbatdoshni eshitish va eshita olishda, savollar bera olishda, aloqani amalga oshirib boshqani tushuna olishda, muloqotning qiyin holatlarini ko‘ra olish va odamlardagi ta’sir holatini to‘g‘ri tahlil qila bilishda, muloqotga tayyorlanish va muloqotga bo‘lgan xohishlarda ko‘rinadi. Bo‘lajak tarbiyachi uchun eng zaruri nutq madaniyatini egallashdir. Ularning nutqi yaqin kelajak pedagogic faoliyatda bolalar uchun ibratli bo‘lib borib ularning nutq madaniyatini shakllantirishga yordam berishi kerak. Nutqning Grammatik to‘g‘riligi, uning leksik boyligi, yaxshi ifodalanganligi, obrazliligi, nutq texnikasini egallanganligi tarbiyachining turli xil kasbiy masalalarni sifatli echishiga imkon beradi. Pedagogning tashqi ko‘rinish madaniyati, uning tashqi ko‘rinishga moslik darajasi va pedagogik faoliyati bilan baholanadi. Keng fikrlilik, tartibli, odobli, bosiqlik va o‘zini-o‘zi yaxshi boshqara olish kabilar pedagogik faoliyatning muvaffaqqiyatli bo‘lishiga olib keladi. Oliy ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalarda pedagogic madaniyatni shakllantirish jarayoni ularda pedagogik madaniyat darajasining rivojlanganligi bilan uzviy aloqador. Mazkur jihat bo‘lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyatni rivojlantirish muammosini maxsus tadqiq etishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyatda pedagogik madaniyat umumiy tuzilmasining muhim tarkibiy qismlaridan biri – bu pedagogik kompetentlik hisoblanadi. Zero zamonaviy tarbiyachi nafaqat bolalarga bilim beradi, ma’lumot, axborot yetkazadi, balki rivojlanayotgan shaxs va jamiyat o‘rtasida vositachi rolini ham bajaradi. “Bola-shaxs-jamiyat” munosabatlari o‘zaro aloqasining maqsadga muvofiq bo‘lishi tarbiyachining qanchalik pedagogik faoliyatda kompetentli, omilkor ekangigiga ham bog‘liqdir. Pedagogik madaniyatning asosiy vazifalari sirasiga moslashish, pedagogik jihatdan to‘g‘ri yo‘nalganlik, shaxsiy va umumijtimoiy tajribalarning uyg‘unlashuvi kabi jihatlarni kiritish mumkin. Shaxs pedagogik madaniyatini qay darajada ekanligi o‘zaro shaxslararo munosabatlarni olib borish, faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, shaxsning yangi ijtimoiy, globallashuv shart-sharoitlariga moslashuvi jarayonida insonlardagi pedagogik madaniyat darajasining shakllanganligi alohida o‘rin tutadi. Shaxsning shaxsiy xulq-atvori shakllanishi mexanizmlari, namoyon bo‘lish tendensiyalari, motivatsiyasi, mazmuniga bo‘lgan qiziqish, avvalo, “insonjamiyat” o‘zaro aloqasi xarakterining pedagogik ravnaqi, rivojlanishiga ko‘rsatadigan ta’siri bilan tavsiflanadi. Pedagogik madaniyatning mazmunini aniqlash maqsadida o‘tkazilgan ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi o‘ziga xos jihatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi: birinchidan, bo‘lajak tarbiyachining pedagogik madaniyati o‘zida jamiyat va madaniyat talablarini ifoda etishi mumkin. Bu esa, shaxsning pedagogik axloqiy me’yorlar mazmuni haqidagi bilimlarga, madaniy talablar asosida faoliyat shakllarini tashkillashtirish ko‘nikmasiga egaligi hamda uning qadriyatli yo‘nalganligi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, pedagogik madaniyat insonning pedagogik o‘zaro sheriklik, hamkorlik sub’yekti sifatidagi yaratuvchilik xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Tadqiqot natijalari. Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatini rivojlantirishning mavjud imkoniyatlarini tadqiq etish maqsadida bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayoniga qo‘yilayotgan zamonaviy yondashuvlarni inobatga olib maktabgacha ta’lim yo‘nalishining malaka talablari o‘rganildi. Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiy talablar quyidagilar:

- dunyoqarash va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; - gumanitar va tabiiy ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- Vatan tarixini bilishi, madaniy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lish;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi; - insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy, madaniy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilish;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini bilishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lish; - yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Maqolaning ilmiy mohiyati. Bo‘lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyatini rivojlantirish jarayoni o‘z navbatida tizimli hamda faoliyatli yondashuvni taqozo etadi. Bunda albatta, yuqorida qayd etilgan ta’lim jarayoniga antroposentrizm yondashuvining asosiy maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda mazkur jarayonning har bir bosqichini, mezonlarini, shakl, metod va vositalarini aniqlashtirish, ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Shu sababli, tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi Ushbu model oliy ta’lim tizimi bo‘lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyatini rivojlantirishning maqsadi va undan kelib chiqib kutiladigan natijani o‘zida aks ettirgan. Shuningdek, mazkur jarayon bosqichlari, asosiy pedagogik shartlar, faoliyatni tashkil etishning shakl, metod va vositalarini hamda talabalar tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini belgilab beradi. Bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirish samaradorligini ta’minlashning asosiy omillaridan biri sifatida eng avvalo professor-o‘qituvchi mashg‘ulot loyihasini ishlab chiqishda, asosiy maqsadni aniqlashda, pedagogik vazifalarni belgilashda mavjud shart-sharoitni, talabalarning bilim darajasini, ularning qiziqishlarini hisobga olishi, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga erishishning eng samarali yo‘llari, usullarini tanlay bilishi va o‘qitish jarayonida qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim. Bo‘lajak tarbiyachilarining kelgusidagi kasbiy pedagogik faoliyati “tarbiyachi-bola” o‘zaro aloqasi negizida olib boriladi, aynan shu jarayonda ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini o‘rganishda, eng avvalo, kommunikativ (muloqot) kompetentligiga e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va amaliy takliflar Xullas, antroposentrizm tamoyiliga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta’lim nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo‘llash o‘rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayoni amaliyotda qo‘llanilishi qiyin bo‘lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy-pedagogik muammolarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek o‘quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o‘zlari mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak. Bo‘lajak tarbiyachilarida pedagogik madaniyani antroposentrizm tamoyili asosida rivojlantirishning barcha xususiyatlarini to‘liq o‘rganish uchun quyidagi qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim:

- ta’lim-tarbiya jarayonida milliy, ma’naviy va tarbiyaviy qadriyatlarga talabalarda pedagogic madaniyatni rivojlantirishning muhim omili sifatida qarash;

- bo‘lajak tarbiyachilarda pedagogik madaniyati rivojlantirish uchun ularda yuqori darajadagi pedagogik, kommunikativ va psixologik to‘siqlarni kamaytirishga doir maxsus bilimlar tizimini shakllantirish;

- bo‘lajak tarbiyachilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash masalasini hal qilish;

- pedagogik madaniyatini rivojlantirish xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy pedagogik ta’lim sharoitida ushbu jarayonning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadga muvofiq. Zero, tarbiyachi kasbida faoliyat olib borayotgan shaxslarda umumiy va kasbiy madaniyatning yetarli darajada bo‘lishi eng muhim jihatlardan biri ekanligini unutmaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022- 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. Darvishov I.O`. Lingvokulturologiya fanidan ma`ruzalar matni 70230100 – lingvistika (o‘zbek tili) ixtisosligi magistratura bosqichi uchun namangan – 2021

3. Бердиева Х. Б., Бердиева Н. У. Проблемы развития социокультурной компетентности у школьников начальных классов //Евразийское Научное Объединение. – 2019. – №. 12-5. – С. 408-410.

Ro‘ziev Umar Muzafarovich
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi dotsenti

IJTIMOIY FOBIYA HOLATLARINING NAMOYON BO‘LISHI

Annotastiya. *Bu maqolada xavotir bezovtalik hissi va ijtimoiy fobiya ko‘rinishlari va ularni oldini olish, ijtimoiy fobiya belgilari, kimlarda ko‘proq kuzatilishi, ijtimoiy fobiyaning sabablari. Ijtimoiy tashvish va fobiya bilan kasallangan shaxslarda yolg‘iz bo‘lish istagi va nazorat kuchli bolalarga nisbatan do‘stlikni shakllantirish va guruhlarga qo‘shilish ko‘proq qiyin bo‘lishi, ijtimoiy fobiyaning differensial ifodalanishiga ko‘ra xulq-atvorning motivatsion omillari ustuvor xarakterga ega ekanligi, ijtimoiy fobiyani mezonlarining shaxslilik sifatlariga bog‘liq ekanligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *agorafobiya, xavotir bezovtalik, zaifliklar fobiya, xulq-atvor, somatik kasalliklar, vahima, irrastional qo‘rquv, chuqur depressiya, stereotip travmatik holat.*

ПРОЯВЛЕНИЯ СОСТОЯНИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ФОБИИ

Аннотация. *В этой статье мы рассмотрим чувство тревоги и проявления социальной фобии и их профилактику, симптомы социальной фобии, у кого они чаще всего наблюдаются, причины социальной фобии. Было высказано предположение, что у лиц с социальной тревожностью и фобиями желание побыть в одиночестве и контроль сильнее, что детям труднее формировать дружеские отношения и объединяться в группы, что мотивационные факторы поведения имеют приоритетный характер по сравнению с дифференциальным выражением социальной фобии, что критерии социальной фобии зависят от личностных качеств.*

Ключевые слова: *агорафобия, тревога тревога, уязвимости фобия, поведение, соматические расстройства, паника, иррациональный страх, глубокая депрессия, стереотипное травмирующее состояние.*

MANIFESTATIONS OF SOCIAL PHOBIA STATES

Abstract. *In this article, we will consider the feeling of anxiety and manifestations of social phobia and their prevention, the symptoms of social phobia, who they are most often observed in, the causes of social phobia. It has been suggested that people with social anxiety and phobias have a stronger desire to be alone and control, that it is more difficult for children to form friendships and form groups, that motivational factors of behavior have priority over the differential expression of social phobia, that the criteria of social phobia depend on personal qualities.*

Key words: *agoraphobia, anxiety disorder, vulnerabilities phobia, behavior, somatic disorders, panic, irrational fear, deep depression, stereotyped traumatic condition.*

Kirish: Fobiya - biror vaziyat, hodisa predmetga nisbatan vujudga keladigan birmuncha turg‘un va asossiz qo‘rquvdir. Fobiya bilan aziyat chekuvchilar qo‘rquvlariga sabab bo‘luvchi predmet yoki vaziyat haqida hatto o‘ylaganlarida ham ularni vahima qamrab oladi. Fobiya insonlarning normal hayot kechirishlariga to‘sqinlik qilib, shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy faoliyatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, bugungi zamon talablari asosida innovatsion yondashuvlarini joriy etish bo‘yicha olib borilgan islohotlar natijasida yoshlarni har tomonlama barkamol topishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, fan-texnika taraqqiyoti, sifatli va mustaqil ta’lim olishga ehtiyojlarining ortishi bu boradagi tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiya»sida «uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirish, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» kabi vazifalar belgilangan[1]. Shu nuqtai nazardan, mazkur muammoni chuqur nazariy jihatdan tahlil qilishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratildi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» PF-6108-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 472-sonli «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qarori hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Qo‘rquv muammosi bir necha olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, Zenkovskiy, V.S. Muxina, A.I. Zaxarov, E.M. Volkova, A. Fromm va boshqalar. Shaxslar qo‘rquvining sabablari orasida mutaxassislar ota-onalar bilan munosabatlardagi hissiy qiyinchiliklarni, oila ichidagi sabablarni nomlashadi. Biroq, maktabgacha yoshda, ilhomlangan qo‘rquvlar, shuningdek, shaxsning shaxsiy, subyektiv tajribasiga asoslangan qo‘rquvlar paydo bo‘lishining yuqori ehtimoli bor.

Ijtimoiy fobiya - bu fobik kasalliklar guruhiga ham kiritilgan va har qanday ommaviy harakatlarni (masalan, omma oldida so‘zlash), begonalarning diqqatini jalb qiladigan harakatlarni amalga oshirishdan doimiy ravishda qo‘zg‘almas qo‘rquv bo‘lgan keng tarqalgan kasallik deb tushuniladi (ovqatlanish joylaridan, jamoat hojatxonalaridan foydalanishdan qo‘rqish, tashqi tomondan tomosha qilish paytida biron bir narsa qila olmaslik va h.k.), yoki hatto shunchaki musofirlar va boshqa jinsdagi odamlar bilan muloqot qilish. Umuman olganda, ijtimoiy fobiya diqqat markazida bo‘lish qo‘rquvida, boshqalarni salbiy baholashda og‘riqli qo‘rquvda va bunday holatlardan qochishda namoyon bo‘ladi.

Qo‘rquvning kelib chiqishi modellashtirish usuli orqali, ya’ni kuzatish va taqlid qilish orqali ham sodir bo‘ladi. Odam birovning biror predmet yoki hodisadan qo‘rquvini kuzatib borishi natijasida o‘zida ham shunday holat paydo bo‘lishi mumkin.

Bixevioristlarning ta’kidlashlaricha, insondagi qo‘rquvlar o‘sib, rivojlanib, miqdor jihatdan oshib borishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, biror bir stimulga ko‘rsatilgan reaksiyani shunga o‘xshash boshqa stimular ham keltirib chiqarishi mumkin. Natijada reaksiyani keltirib chiqaruvchi stimullar hajmi kengayib boradi.

Bixevioristlar tomonidan o‘tkazilgan ba’zi laboratoriya eksperimentlari odamlar va hayvonlarda shartli refleksni hosil qilish orqali qo‘rquv reaksiyasini vujudga keltirish mumkinligini ko‘rsatadi.

Qo‘rquvga og‘riqqa qarshi shartli reaksiya deb qarash mumkin, og‘riq esa birlamchi tasodifiy mayl bo‘lib, qo‘rquv obyektidan qochishning mustahkamlanishi natijasidir. Shuni aytish mumkinki, sun’iy ravishda hosil qilingan qo‘rquvda ham, garchi u haqiqiy og‘riq bilan bog‘liq bo‘lmasada, qochish reaksiyalari hosil bo‘ladi va saqlanib qoladi. Qo‘rquv erishilgan va mustaqil hissiyot bo‘lib, uni har xil sabablar bilan bog‘lash mumkin.

Bunday fikrlar birinchi marta Maurer (Mowrer, 1939) tomonidan bayon etilgan edi. Bu hol 1926-yili Freyd taklif etgan qo‘rquv borasidagi psixoanalitik nazariyaning ikkinchi varianti sifatida qo‘llanilgan edi. Bu nazariyaga binoan qo‘rquv “real”, ya’ni faol signal bo‘lib, yaqinlashayotgan xavfdan ogohlantiruvchi va himoya reaksiyalarini namoyon etadi. Maurerning ta’kidlashicha, qo‘rquv ilk bor og‘riq his qilingan vaziyat bilan bog‘liq signal stimullarini chaqiradi. Og‘riqqa nisbatan shartli namoyon bo‘lgan qo‘rquv keyinchalik qochish reaksiyasi bilan aks etuvchi tasodifiy zo‘riqish holatidagi avtonom maylga aylanadi. Kelajakda qo‘rquv og‘riq mavjud bo‘lmagan holatda ham qochish reaksiyasi bilan namoyon bo‘la boshlaydi.

Bu ta’rifdan Maurer (Mowrer) 1938-yilda odamlar bilan o‘tkazgan tadqiqotida foydalandi. Sinaluvchilar barmoqlariga yorug‘lik signali bilan bir vaqtda yengil elektr toki ta’sir ettiriladi. Natijada sinaluvchilarda elektr toki yorug‘lik nuriga nisbatan ko‘proq ta’sirlanishlariga sabab bo‘lgani aniqlandi. N. Miller o‘zining (Miller, 1941-1948) qo‘rquvni o‘rganish borasidagi qator tadqiqotlari asosida quyidagicha fikrga keldi: «Qo‘rquv og‘riq stimullariga nisbatan vegetativ nerv sistemasining sharstiz reaksiyasi orqali namoyon bo‘ladi. U boshqa shartli sistemalar orqali ham kelib chiqishi mumkin. Ammo qo‘rquv bir vaqtning o‘zida reaksiyani keltirib chiqaruvchi stimul vazifasini ham bajaradi».

Xollning tushuntirishicha, qo‘rquv bilan mayl ba’zi qarama – qarshiliklarga ega. Hayvonlarda o‘tkazilgan eksperiment natijasiga ko‘ra ularda og‘riqni yuzaga keltiruvchi ta’sirdan tezroq qochish holatlari kuzatiladi. Bir qancha sinovlardan so‘ng hayvonlarda hatto og‘riq kuzatilmasdan avval ham ta’sirotdan qochishga harakat holati namoyon bo‘lgan, aniqrog‘i , ularda og‘riqdan qochish kuzatilgan.

Bu holatlar refleks natijasi sifatida yuzaga kelmaydi. Bu jarayonni qo‘rquvni maylning funksiyasi sifatida qarash orqali tushuntirish mumkin. Qo‘rquv ta’sirida qochish reaksiyasi bu reaksiyani mustahkamlaydi va uning so‘nishiga qarshilik qo‘rsatadi (qo‘rquvning o‘zi butunlay yo‘qolmaguncha).

Maurer o‘zining olib borgan tadqiqotlari asosida qo‘rquvdan qochish reaksiyasi ikki omilga bog‘liq deb hisoblaydi, ya’ni bunga ko‘ra har qanday ko‘nikma klassik yoki instrumental shart-sharoitga tayanadi.

Boshqacha qilib aytganda bu nazariyaga ko‘ra, avvalo qo‘rquv klassik tizimda signallar bilan bog‘lanadi, keyin esa qo‘rquv reduksiyasi qochishning instrumental reaksiyalari mustahkamlanishiga olib keladi.

Holbuki, bunday ta’riflar bilan ravshandek ko‘ringan natijalar Salomon va Uinni tadqiqotlarida o‘z aksini topmadi. Mualliflar shunday holatni aniqladilarki, hosil qilingan qochish reaksiyasi bir necha marta takrorlangandan so‘ng, qo‘rquv reaksiyasi sodir bo‘lgunga qadar amalga osha boshlar ekan.

Boshqa yoqimsiz hissiyotlar kabi qo‘rquv ham doimo zararli bo‘lmaydi. Har qanday hissiyot ma’lum bir funksiyani bajaradi va shaxsga ham, katta odamga ham o‘zini o‘rab turgan moddiy va ijtimoiy muhitni bilib olish, tushunish imkonini beradi. Demak, qo‘rquv insonni ko‘chadan o‘tishda, tog‘dagi sayohatda va shunga o‘xshash boshqa holatlarda ortiqcha tavakkaldan himoya qiladi. Qo‘rquv insonni xavfli vaziyatlardan saqlaydi yoki ogoh etadi, ba’zan esa faoliyatni, xulqni tartibga solib turadi. Bu qo‘rquvning himoya funksiyasi

U o‘z-o‘zini saqlashni ta’minlovchi ichki hissiyotda, instinktiv xulqda ishtirok etadi. Bundan tashqari qo‘rquv xulqni tuzatishda yordam beradi, u kechinmalardan kelib chiqadi. Qo‘rquv psixikaning normal faoliyati uchun zarur. Shaxsning organizmiga nafaqat shakar, balki tuz ham kerak bo‘lganidek, psixika ham yoqimsiz, ba’zan keskin emotsiyalarga ehtiyoj sezadi. Ba’zan shaxsning o‘zi qo‘rquv kechinmalarga ixtiyorsiz ravishda berilib ketadi. Ba’zan kechqurun bir yerga to‘plangan shaxslar daxshatli voqealarni hikoya qila boshlaydilar, yana buning ustiga keskin emotsional tugallanishda– oxirgi so‘zida hikoyachi to‘satdan qichqirib yuboradi, yonida o‘tirgan shaxsning qo‘lidan birdan ushlab olib ularni qo‘rqitadi. Bundan keyin odatda «dahshatli qichqiriq», kulgi va agressiyani yemirishga yo‘naltirilgan psixik energiyani bo‘shatib yuboruvchi – motiv kuzatiladi. Bunday holat ba’zan psixik apparatning moslashish tartibini buzib yuboradi. Bu kabi salbiy holatlarni oldini olish istagidagi ota-onalar farzandlari uchun yaxshi sharoitlarni yaratish maqsadida, uni har qanday yoqimsiz hodisadan, kuchli kechinmalardan himoya qilish uchun psixolog maslahatiga tez-tez murojaat qilishadi.

Patologik qo‘rquvni muayyan mezonlar bilan ajratib olish mumkin: agar qo‘rquv shaxs taraqqiyotiga, psixikaga, muloqotga kirishishga to‘sqinlik qilsa, ijtimoiy moslashishni qiyinlashuviga olib kelsa va undan keyin autizmga, psixik kasalliklarga olib kelsa bu shubhasiz patologik qo‘rquvdir. Qo‘rquv buzilishdan mustaqil ham bo‘lishi mumkin (masalan, katta itga to‘qnash kelganda qattiq qo‘rquvni his qilish). Ba’zan shaxs buzilishi bilan ham namoyon bo‘lishi mumkin. Bu hodisalarning hammasida umumiy sog‘lomlashtiruvchi psixoterapiya butun psixikaning ishini yaxshilash uchun foydali. Bunda chiniqtirish jarayoni shaxsning kun tartibi va ovqatlanishini tartibga solish bilan bir qatorda olib borilishi lozim. Uyqu oldidan sayr foydali, bu shaxs organizmi va psixikasiga yaxshi ta’sir qiladi va yana shaxs qo‘rquv haqida emas dam olish haqida o‘ylaydi. Modomiki, organizm va psixika bir butunlikni tashkil qilar ekan, birining yaxshi yoki yomon holati ikkinchisiga ta’sir qiladi. Shaxs qo‘rquvini yo‘qotishdagi korreksiya ishida bir qancha qo‘llanmalarni ko‘rsatish mumkin. Korreksiya usuli shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlanadi va samaradorlik ham shaxsning individual xususiyatlariga bog‘liq.

Fobiya - bu boshqalarning mutlaqo maqbul deb biladigan narsadan boshqarib bo‘lmaydigan qo‘rquvi. Fobiyalar shunchalik xilma-xil, shunchalik tushunarsizki, odam aqldan ozgan deb adashishi ham mumkin! Ammo bu umuman unday emas, chunki fobiya ko‘pincha mutlaqo sog‘lom odamlarda ham aniqlanadi. Aslida **ijtimoiy fobiya** odamlar orasida bo‘lishdan asossiz, bo‘rttirilgan qo‘rquv bo‘lib, shu qo‘rquv tufayli odam boshqa odamlar bilan bo‘lishning har qanday holatlaridan qochishni boshlaganda boshlanadi. Qochish paytigacha biz sostiogen tashvish, hayajon, uyatchanlik haqida gapiramiz. Ba’zida ijtimoiy fobiya yurak urishi, titroq, terlash, mushaklarning kuchayishi, issiq yoki sovuq his qilish, bosh og‘rig‘i bilan birga keladi.

Ijtimoiy fobiya turli xil qo‘rquvlar bilan shakllanadi deb taxmin qilinadi:

1) salbiy, dushmanlik munosabatlaridan qo‘rqish,

2) salbiy baho berish, qoralashdan qo‘rqish,
3) noto‘g‘ri xatti-harakatlardan qo‘rqish,
4) muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish,
5) raqobatdan qo‘rqish.

Ehtimol, asabiy charchoq (nevrasteniya, ortiqcha ish), ota-onalar va atrofdagilarning shaxsligida yetarlicha e’tibor va ijobiy munosabat kabi omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ehtimol, *ijtimoiy fobiya iroda kuchining zaiflashishi* bilan bog‘liq.

Ehtimol, ijtimoiy fobiyaning tashqi va ichki sabablarini ajratish mumkin. **Ichki omillar** - bu intilishlarning tanqidiy darajada past darajasi, o‘z-o‘zini hurmat qilishning past darajasi, oldingi ijtimoiy, jamoat xatti-harakatlaridagi muvaffaqiyatsizliklar (haqiqiy yoki xayoliy) natijasida o‘z-o‘ziga shubha qilish. Ehtimol, haddan tashqari yuqori intilishlar ta’siri, “a’lo darajadagi talabalar majmuasi” – “5” olmaslik qo‘rquvi tufayli shaxs baholash vaziyatidan qochadi. Ijtimoiy tajribaning yetishmasligi, ijtimoiy ko‘nikmalar, muayyan vaziyatda o‘zini qanday tutish kerakligini bilmaslik ham ta’sir qilishi mumkin.

Tashqi omillar - bu shaxsning xatti-harakatlarini past, salbiy baholash, ma’lum guruhlar (ota-onalar, qarindoshlar, sinfdoshlar, do‘stlar, qo‘shnilar va boshqalar) tomonidan unga nisbatan salbiy munosabat.

Fobiya qo‘rquvdan kuchli va turg‘un holda namoyon bo‘lishi, qo‘rquv uyg‘otuvchi obyektdan qochish istagining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Ma’lumotlarga qaraganda yer yuzi aholisi turli xil fobiyalardan aziyat chekadi. Bu holat insonda kutilmaganda va anglanmagan sababga ko‘ra paydo bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, shaxslarda qo‘rquv va fobiyalar ularning jamiyatga, o‘rab turgan olamga moslashish jarayonlarida ko‘proq uchraydi. Ko‘rsatilishicha, fobiyalar fantaziyasi yaxshi rivojlangan, xavotirlanuvchan xarakterga ega bo‘lgan, o‘ziga ishonmaydigan, o‘ziga past baho beradigan, muloqotga kirishish malakalari yaxshi shakllanmagan insonlarda ko‘proq kuzatilar ekan. Bu jarayonga irsiyat hamda tarbiya ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Fobiya erkaklarga qaraganda ayollarda ko‘proq uchraydi. Bu holat ayollarning hissiyotga beriluvchanliklari va ko‘pincha agressiyaning obyektiga aylanib qolishlari bilan bog‘liqdir.

Tahlil va natijalar. Xavotir va fobik kasalliklar orasida fobiyaning o‘rni shu tarzda aniqlanadi - bir qator mualliflar (D. Maknill, A. Lang, M. Shteyn) ijtimoiy fobiyani klinik psixologiya va shaxs psixologiyasi tutashgan joyda ko‘rib chiqqanlar. Tadqiqotchilar S. A. Sagalakova va D. V. Truevstev fobiyadagi kognitiv buzilish hodisalarini ko‘rib chiqqanlar. Kognitiv xulq-atvor yo‘nalishi, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarga nisbatan salbiy e’tiqodlar (S. Tyorner), qochish xatti-harakatlari (J. Kagan, R. Leybovich), diqqat markazida tashqi hodisalardan ichki buzilgan talqinga o‘tish (D.M. Klark va A. Uells, R. Xeymberg). Sotsiologik xulq-atvorning pasayishi va ijtimoiy ko‘nikmalar defistiti (K. A. Meleshko va L. E. Alden, V. Jons) fobiyada tasvirlangan. Bundan tashqari, ijtimoiy fobiya qo‘shimchani shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan asarlardagi fojia (I. Waters, M. Boskvet, B. Egiland). Shu bilan birga, ijtimoiy fobiya shakllanishiga oilaning ta’siri va oilaviy o‘zaro munosabatlarning turli jihatlari deyarli o‘rganilmagan. Bu shuni ko‘rsatadiki, shaxsligida ota-onalarning shaxsga bo‘lgan munosabati o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish uchun psixologik makon yaratishi, qiyin vaziyatlarda o‘zini tutishning afzal usullari, hissiy kontekstni tan olish va shunga mos keladigan hissiy munosabat, hissiy yoki to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan shaxsning ma’lum bir xususiyatlari namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy fobiya, hayotning boshqa davrlarida, odamlarning taxminan 7-11% ta’sir qiladi. Asosiy ijtimoiy tashvish travmasi, shaxslik va o‘spirinlik davrida yuz berishiga ishoniladi. Ijtimoiy fobiya ko‘pincha 15-18 yoshdan 20-24 yoshgacha bo‘ladi. Ba’zi xabarlarga ko‘ra, ijtimoiy fobiya rivojlanishining eng yuqori cho‘qqisi 30-45 yosh oralig‘iga to‘g‘ri keladi.

Ijtimoiy fobiyaning namoyon bo‘lishi.

Fiziologik	Kognitiv	Xulq-atvor
Yurak urish tezligining oshishi. Titroq, silkinish. Nafas qisilishi. Mushaklarning kuchlanishi. Tez-tez hojatga chiqish.	O‘ziga zarar etkazish haqida tashvishlar. Qo‘rquv haqidagi fikrlar. Aqlsiz ko‘rinish haqidagi fikrlar.	Boshqalardan qochish. O‘z o‘zidan qochish. Ishonchni yo‘qolishi. Mehrning yetishmasligi. G‘azablanish, yig‘lash.

Ko‘ngil aynishi, qayt qilish. Bosh og‘rig‘i, oshqozon og‘rig‘i Bosh aylanishi. Terlash. Diareya.	O‘z-o‘zini kamsituvchi fikrlar. Kamchilik haqidagi fikrlar. Qobiliyatsizlik haqidagi fikrlar. Diqqatni jamlashdagi muammo. Salbiy baholash fikrlari. Salbiy oqibatlar haqidagi fikrlar. Do‘stlar yetishmasligi haqidagi fikrlar.	Ovoz pastligi. Muzlash, sovqotish. Kattalarga suyanib qolish. Marosimlarga oyoq tortmasligi. Chekinish.

Guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasi bo‘yicha olingan dastlabki statistik natijalar tahlili (n=210)

№	Omillar	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		M	S	M	S
1	qaramlik	9,9	1,3	9,3	1,7
2	mustaqillik	6,7	1,1	7,3	1,3
3	muloqotmandlik	4,4	1,2	5,2	1,3
4	odamovilik	4,5	1,4	3,9	1,8
5	“kurash”ga tayyorlik	5,9	1,2	6,5	1,3
6	“kurash”dan qochish	8,6	0,9	7,3	1,0

Xulosa: Demak, yuqoridagi jadvalda keltirilgan empirik ko‘rsatkichlarni tahlil qiladigan bo‘lsak o‘spirinlar xulq-atvorida “qaramlik” tendensiyalari bo‘yicha tajriba guruhida (9,9), nazorat guruhida (9,3) ko‘rsatkichlar qayd qilindi. Demak, mazkurni holatni o‘spirinlarni kimlargadir tobelik bog‘liqlanib qolishlar yaqqol namoyon bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Qolaversa, bu sifat guruhdagi o‘zaro hamkorlik va munosabatlarda shaxsning raqobatdan, “kurash” dan qochishsha mayilliklarini ham bildiradi.

O‘spirinlarning xulq-atvorida “mustaqillik” tendensiyalari esa tajriba guruhida (6,7) nazorat guruhida (7,3) ko‘rsatkichni qayd qildi. Ush bu holatni o‘spirinlarda guruhning normalarini o‘z fikri va harakatida tasdiqlashga shaylik, mustaqil fikrlilikka bog‘liq faoliyatni ko‘rsatishga hozirligi bilan izohlash mumkin.

“Muloqotmandlik” xulq-atvor tendensiyalari bo‘yicha tajriba guruhida (4,4), nazorat guruhida esa (5,2) ko‘rsatkichlar qayd qilindi. Demak, bu tendensiya o‘spirinlarning guruh va uning tashqarisida emotsional aloqalar o‘rnatishga intilishi, bu aloqalarning ko‘pincha samarali ekanligini tasdiqlaydi.

O‘spirinlarning xulq-atvoridagi “odamovilik” tendensiyasi tajriba guruhida (4,5) va nazorta guruhida esa (3,9) ko‘rsatkichlarni qasd qildi. Mazkur holatni ular orasidagi guruhda qabul qilingan normalar va xulq standartlari hamda qadriyatlarni qabul qilishdan o‘zini chetga olishi va guruhdan ajralishga moyilligi bilan izohlash mumkin.

“Kurash”ga tayyorlik” xulq-atvori omili tajriba guruhida (5,9) nazorat guruhida (6,5) ko‘rsatkichni qad qildi. Buni o‘spirinlardagi guruh hayotida faol ishtirok etishga bo‘lgan ishtiyoqi, shaxslararo o‘zaro munosabatlartlarda yanada yuqoriroq mavqega ega bo‘lishga intilishlari bilan izohlash mumkin.

O‘spirinlar xulq-atvoridagi “kurash”dan qochish omili tajriba guruhida (8,6) nazorat guruhida (7,3) ko‘rsatkichlarni qayd qildi. Mazkur holatni o‘spirinlarni o‘zaro aloqa, ta’sirlarni chetlab o‘tish, ziddiyat va bahslarda neytralitet (betaraflik) ni saqlab qolishga intilishi bilan izohlashimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan guruhdagi xulq-atvor motivatsiyasini o‘rganish metodikasi o‘spirinlardagi fobiya holatlariga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar bo‘lib, mazkur omillarni aniqlash va korreksiya qilishni talab etadi.

Sotsiofobiya jarayoni shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosi bilan bog‘liq ekanligi, ushbu holatni korreksiya qilishda ham shaxsning o‘z-o‘ziga beradigan bahosini ko‘tarish evaziga amalga oshirish mumkinligi statistik natijalar orqali izohlandi. Buning uchun o‘smirlarda o‘zini anglashga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga, o‘z-o‘ziga adekvat baho berishga hamda shaxslararo munosabatlarda muloqotga kirisha olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beruvchi mashqlardan iborat trening mashg‘ulotidan foydalanish mumkin.

Adabiyotlar

1. Тревожное фобическое расстройство детского возраста/ И. А. Хрущ. – Мн. БГМУ, 2004.
2. Психологик консулътация ва психокоррекстия дарслик.У.М.Рўзиев -2021
3.Рузиев У.М. Симптомы социальной фобии человека. // Вестник интегративной психологии. -Ярославль: 2022 Выпуск 24 289ст-292ст
4.Рузиев У.М. Социальные фобии: причины возникновения и влияния на поведение человека, диагноз и психокоррекция. // Вестник интегративной психологии -Ярославль: 2022 Выпуск 26 ст 192-197
5.Ro‘ziyev U.M. Xavotirli bolalar, ijtimoiy fobiya namoyon etilishining o‘ziga xos xususiyatlari. // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 y №6) -Buxoro: B. 337-344.
6. Ro‘ziyev U.M. O‘spirinlarda ijtimoiy fobiya rivojlanishi bilan bog‘liq holatlarning diagnostikasi va psixokorreksiyasi. // № 4, 2022 “Psixologiya ilmiy jurnali” -Buxoro: B.125-132.

Karimova Muxayyo Nazar qizi
Termiz davlat pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

TALABA QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talaba qizlarga xos psixologik xususiyatlat, oilalarda qizlar tarbiyasida nimalarga e’tibor berish kerakligi va qizlarimizda qanday xarakter xususiyatlarini shakllantirsak ular kelajakda muvaffaqiyatli oila qurishi mumkinligi haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek oilalari, talaba qizlar, oila, jamiyat, etnik xususiyatlar, oilaviy qadriyatlar, pozitsiya, mustaqil hayot.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНЦОВ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье рассказывается о психологических особенностях студенток, на что следует обращать внимание при воспитании девочек в семье и какие черты характера можно сформировать у наших дочерей, чтобы они в будущем смогли построить успешную семью.*

Ключевые слова: *узбекские семьи, студентки, семья, общество, этнические особенности, семейные ценности, позиция, независимая жизнь.*

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING STUDENT GIRLS FOR FAMILY LIFE

Abstract. *This article talks about the psychological characteristics of female students, what should be paid attention to in the upbringing of girls in families, and what character traits can be formed in our daughters so that they can build a successful family in the future.*

Key words: *Uzbek families, female students, family, society, ethnic characteristics, family values, position, independent life.*

Kirish. Jahonda oilaviy ajrimlarning ko‘payib borayotganligi, oilalarda nosog‘lom muhitning hukm surishi va nikohning barbod bo‘lishi-ko‘plab ichki ruhiy siqilishlar, ziddiyatlar, salbiy oqibatlarni keltirib chiqarayotganligi va bunga sabab ko‘p hollarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyor emasligi, oilaviy hayot haqida noto‘g‘ri tasavvurlarining shakllanganligi, oila mustahkamligini ta’minlash muammosini o‘rganish zaruriyatini va bu borada olib boriladigan tadqiqotlarning dolzarbligini taqozo qilmoqda[1].

Har bir millat oila va u bilan bog‘liq jarayonga alohida e’tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazib kelmoqdalar. Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a’zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflanadi va o‘rganiladi. Oiladagi muhitning sog‘lomligi,avvalo,ayolga bog‘liq bo‘lganidek, jamiyatdagi ma’naviy muhitning sog‘lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma’sul bo‘lgan onaga bog‘liqdir. Bo‘lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning “Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo‘lsangiz, ularning qizlarini - bo‘lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go‘zal axloqqa o‘rgating” degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmli, tarbiyali hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo‘lsa, oiladagi muhit ham sog‘lom va oila mustahkam, farovon bo‘ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma’naviy psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egadir[2].

O‘zbek oilasidagi hayot tarzi va undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati buyuk muhaddis allomalar Muhammad ibn Ismoil Buxoriy, At-Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyandalari bo‘lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahror Vale tariqatlarida, oilaviy turmush qoidalari, undagi shaxslararo munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasiga e’tibor, erkak bilan ayol munosabatining o‘ziga xosligi, insoniy fazilatlarning shakllanish

me'yorlari haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari, xususan, o'zbek xalqining og'zaki ijodida (Alpomish, Kuntug'mish, Go'ro'g'li, Oysuluv, Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho kabi qator o'zbek xalq dostonlari) atroflicha bayon qilinganligi asoslangan.

Adabiyotlar sharhi: Rus olimlari Yu.I.Semenov, Masherov, Yu.T.Timofeevlarning tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi inson turmush tarzining butunligicha qamrab oluvchi sohalardagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Y.O.Tarasova o'z ilmiy izlanishlarida er-xotin munosabatlaridagi o'zgarishlar yosh xususiyatlariga bevosita bog'liq bo'lishini aniqlagan. K.N. Belogay er-xotin munosabatlarini barqarorlashtiruvchi omillar va nikohning psixologik vazifalari bilan bog'liq muammolarni tahlil qiladi. K.V. Adushkina ilmiy izlanishlarida "Yosh oilalarda nikohdan qanoatlanganlik determinantlari"ni (tasdiqlari, belgilari) tadqiq etgan.

S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurganlarida oila-nikoh munosabatlaridan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi. Shuning uchun yoshlar o'sib ulg'ayadigan va o'qish joylarida ularni oilaviy hayotga, turmushga tayyorlash, ularda baxtli oila va farovon turmushni ta'minlaydigan zarur sifat va fazilatlarni shakllantirish, ularni bo'lg'usi oila to'g'risidagi romantik, shirin xayollardan, har xil chalg'ishlardan qutqarish bilan bog'liq tarbiyaviy shart-sharoitlarni yaratish to'g'risidagi qimmatli maslahatlarni ilgari suradi.

Rus olimlari Yu.I.Semenov, Masherov, Yu.T.Timofeevlarning tadqiqotlarida oilada nizoli vaziyatlarni kelib chiqishi inson turmush tarzining butunligicha qamrab oluvchi sohalardagi o'zgarishlar bilan ham bog'liq ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Z.B.Sikevich va Yu.A.Possellar tomonidan millati bir xil yoki har xil bo'lgan kelin-kuyovlarda oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Yu.S.Kotelnikova yosh oilalarda nome'yoriy krizislar yuzaga kelishining psixologik xususiyatlarini birinchilardan bo'lib sistemali o'rgangan.

G.V.Lagonda nikoh munosabatlaridan kutish nazariyasi (orzu havas natijalarini kutish)ni atroflicha o'rganishga uringan. S.A.Garmayev o'z tadqiqotlarida Xristian diniga mansub kishilarning oilaviy munosabatlari madaniyati haqida alohida tadqiqotlar olib borgan. Ye.M.Savina ilmiy tadqiqotlarida bola tug'ilishi kutilayotgan davrda (onaning homiladorlik paytida) oiladagi ahamiyatli munosabatlar tizimi yoritilgan. Er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar madaniyatini amerikalik tadqiqotchilar V.Metyuza va K.Mixanovichlar olib borgan real oila hayotini o'rganish natijalari ham tasdiqlaydi. Tadqiqotlar davomida, baxtli va baxtsiz oilalar (shartli ravishda) o'rtasidagi o'ndan ortiq zarur farqlar ko'rsatib o'tilgan. Ajralish vaqtida ajralishayotgan er-xotin munosabatlarini o'rgangan tadqiqotchi Dayan Vagen ko'p hollarda jismoniy ajralishdan oldin er-xotinlar ijtimoiy-ma'naviy jihatdan boshqa-boshqa kishilar bo'lib qolishini aniqlagan[3].

Judet Vallerstayn va Jon Kellilar Kaliforniya shtatida ajralgan oltmishta oilaning bolalari hayotini o'rganib, ajralish holatlarining salbiy oqibatlari bolalar uchun nihoyatda og'ir kechishini ta'kidlashgan. Ye.Burgess, P.Vollin, L.Terman va M.Odema, G.Rolandlar keng qamrovli tadqiqotlariga tayanib er-xotinlikdan qoniqishda sheriklarga xos sifat va fazilatlarning bir qancha turlari mos kelishi zarurligini qayd etganlar. L.Vigotskiy, D. Elkonin, A.N.Leontev, G.Andreeva-Rossiya psixologlarining shaxsga faoliyatli yondashuv nazariyalari. Ijtimoiy psixologiyadagi ijtimoiy tasavvurlar konsepsiyasi (S.Moscovichi, J.Codol, A. Donsov, T.Emelyanova, V.Karimova va b), oilaviy hayot faoliyati aks ettirilishi jarayonini aniqlashga doir nazariyalar (A.Xarchev, S.Golod, Z.Yankova, H.Yurkevich, V.Sisenko, N.Solovev, D.Kutsar, T.Mishina).

Mazmuni: Oilaviy muammolarni o'rganish maqsadida olib borilgan tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolar o'zaro munosabatlardagi kelishmovchilik, o'zini tuta olmaslik, yoshlarda muomala madaniyatini shaklanmaganligi, turmush o'rtog'idan mamnun bo'lmaslik, zerikarli hayot, oilaviy burchlarning taqsimlanishi, janjalkashlik, o'ta manmanlik, xulq-atvordagi nomukamallik, moddiy qiyinchiliklar, jizzakilik kabi oila a'zolariga xos xatti-harakatlar va xarakter xususiyatlaridan kelib chiqar ekan. Yana shu narsaga amin bo'ldikki, inson o'zi ideal insonni izlarkan. Ko'p holatlarda er-xotinlarning bir-biridan qoniqmaslik (ish vazifalaridan norozilik), gumonsirash, tanqid, tanbeh kabilar ham ko'pgina muammolarni keltirib chiqarishini bildik. Oila a'zolari oilada bir-birini o'zaro tushunmaslik, xarakter xususiyatlarining bir-biriga to'g'ri kelmasligida deb bilsalar, ayrimlarida ayol kishi noroziligi, tanbehlari erkakdan o'zini ustun qo'yishi deb bildilar. Bundan shu narsa ma'lum bo'ldiki, oilaviy muammolarning asl sababi oilalarda pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligidadir. Buning uchun mahallalarda bu borada keng qamrovli ishlarni olib borish, mahalla

yig‘inlarini oilalar bilan hamkorlikda amalga oshirish, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash uchun,avvalo,ularni onalarini psixologik savodxonligini oshirish, psixolog va pedagoglarga bo‘lgan ishonchini oshirish masalalarini hal etish lozim. Qizlarimizni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga oilaviy hayotning chiroyli taraflari bilan bir qatorda hayotning past-balandliklari ham mavjud ekanligini, turli-xil murakkab vaziyatlardan shirin so‘z-chiroyli muomala bilan yechim topish mumkinligi borasida bilimlarni ham berib borish lozim. Misol uchun ko‘pgina oilalarda uchrab turadigan quyida zikr etilgan muammolar bilan ham tanishtirib borilsa, o‘zlari katta hayotga qadam qo‘yganda qiyinchiliklarga duch kelishganda dovdirab qolishmaydi, oqilona yo‘lini tanlab bu vaziyatdan chiqa olishlari mumkin bo‘ladi.

Fayziyeva Mavluda Xudoyorovna “Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida oila barqarorligini ta’minlovchi omillarni, oila barqarorligiga tasir etuvchi omillarni, hozirgi zamon oilalarida inqiroz shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini, oilada shaxslararo munosabatlar tengligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini o‘rgangan[2].

Lutfullayeva Nigora Xalimbayevna “Turmush qurgan talabalarning oilaviy munosabatlarga tayyorligining ijtimoiy psixologik xususiyatlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida talabalar oilasi ijtimoiy psixologiyadagi kichik guruh sifatida o‘rganilgan. Ilmiy ishda bu davrdagi o‘zgarishlar, talabalik hayotiga monand munosabatlar, er va xotin roliga xos mas’uliyat, o‘ziga xos ijtimoiy mavqe doirasida bo‘lib, unda boshqacha qadriyatlar tizimi, ota-onali, turmush o‘rtoqlik haqidagi tasavvurlar kuzatiladi.

Xidirova Firuza Farxodovna “Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash muammolarini pedagogik jihatdan yoritib bergan.

O.E.Eshmurodovning “Oila mustahkamligini ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotida oilaviy munosabatlar, oilada erkak va ayolning roli, ularda oilaviy qadriyatlarning shakllanganligi, o‘sib kelayotgan yigit va qizlarda oilaviy tasavvurlarning shakllanganligi haqida so‘z boradi[4].

D.T.Ismatovaning **“**Oilaviy munosabatlarda emotsional zo‘riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida o‘smirlarda emotsional-hissiy zo‘riqishlarning paydo bo‘lishida oila a’zolarining ularga bo‘lgan munosabati, bu davrdagi muhim psixologik o‘zgarishlar haqida so‘z boradi.

Natijalar: O‘zbek xalqimizda qadim-qadimdan oila muqaddas dargoh sanalgan. Albatta, oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Mahalla, yurt mustahkam bo‘lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Ko‘rinib turibdiki, oilaviy hayot masalalari hozirgi davr tadqiqot yo‘nalishining ustuvor sohalaridan biriga aylanib bormoqda.

Bugungi kunda Respublikamizda oila mustahkamligini taminlash, oilaga qizlarni tayyorlash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifa va muammolar ajralishlar sonini kamayishi, oilalarda sog‘lom psixologik muhit yaratilishi, jamiyatning ma’naviy va moddiy farovonligini oshirishi, farzandlar tarbiyasining muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Sababi, mustahkam oilalar sonining oshishi va bu oilada tarbiyalanayotgan yoshlarda faol yaratuvchanlikka asoslangan turmush tarzi jamiyat hayotining barcha sohalarida ijtimoiy faollik, oliy darajadagi fuqarolik sifati, aqliy, ma’naviy va jismonan sog‘lom, mehnatda, o‘zaro munosabatda, muloqotda yuksak madaniyatlilik, atrofdagilarga mehr-oqibatda bo‘lish kabi sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi. Darhaqiqat, oilada yaratilgan psixologik sog‘lom muhit kishilarni jamiyatda egallab turgan ijtimoiy mavqelarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu o‘rinda yana qizlarimizga singdirilishi lozim bo‘lgan oilaviy qadriyatlarni sanab o‘tish joiz:

▪ oilaning har bir a’zosi uchun ahamiyatga ega bo‘lgan ma’no - har bir oila muhtojlik, sevgini bilishi kerak;

▪ o‘zaro hurmat - boshqa shaxsning fikrlarini, hissiyotlarini va ehtiroslarini qabul qilish;

▪ halollik - agar oilada bunday qiymat bo‘lmasa, u boshqa shaxsning shaxsini hurmat qilmaslik deganidir;

▪ kechirish - xato qilgan odamlarni kechirishni o‘rgatish muhimdir;

▪ mas’uliyat - bu qadriyat boshqa oila a'zolarining xotirjam bo‘lishlari uchun zarurdir, chunki ular ishonadigan kishilar borligini biladilar;

▪ muloqot - bu qiymat oilani mustahkamlashga yordam beradi, muloqotni susaytirilishi noto‘g‘ri tushunishga va oilani buzishga olib keladi;

▪ urf-odatlar - bu oilaning eng muhim qadriyatlaridan biridir, bu sizning va yaqinlaringiz uchun xos bo‘lgan o‘ziga xoslikdir.

Shunday ekan turmushga chiqayotgan har bir qiz psixologik savodxonlikka ega bo‘lishi, muloqot ko‘nikmalarini egallaganligi, oilaviy muammolarni ijobiy hal qila olishi, har qanday sharoitda turmush o‘rtog‘i va bolalariga sog‘lom psixologik muhitni yarata olishi hamda oilaviy munosabatlarda namunal-ilik ko‘rsatib farzand tarbiyasidagi beminnat xizmatlari bilan o‘z hissalarini qo‘shmoqliklari lozimdir.

Olingan natijalarning ishonchliligi: Ijtimoiy psixologik so‘rovnoma; Rokichning “Qadriyatlar orientatsiyasi” testi; Amerikalik psixologlar D.Kraun va D.Marloular tomonidan 1960 va 1964-yillarda ishlab chiqilgan “Oilada qo‘llab-quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani o‘rganish” metodikasi; G.Eydemiller, I.Dubryakov, I.Nikolskayalar tomonidan ishlab chiqilgan “Oilaviy munosabatlarning egiluvchanligi va uyushganligini diagnostika qilish” metodikalari o‘tkazildi.

Odatda oila o‘z kuchi bilan munosabatlardagi buzilishlarni aniqlashga imkon topmaydi, chunki ushbu munosabatlarni chuqur o‘rganish, uni tahlil qilish uchun uni obdon o‘rganib, tadqiq etish talab etiladi.

“Qo‘llab-quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani o‘rganish” metodikasi dastlab amerikalik psixologlar D.Kraun va D.Marloular tomonidan ishlab chiqilgan testi shkalasini psixologiya fanlari doktori professor B.Umarov va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) O.Eshmuradov tomonidan mahalliy muhitga moslashtirilgan variantidan foydalandik.

“Qo‘llab - quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani o‘rganish” metodikasining mantig‘i shundayki, u yordamida shaxsning o‘zini o‘rab turgan yaqin insonlarining doimiy qo‘llab-quvvatlovi, rag‘batiga ega bo‘lish va ularning ko‘nglidagiday xatti-harakat qilishga moyillik darajasini o‘rganish mumkin. Bunday moyillik bolalar psixologiyasiga, ayniqsa, o‘smirlik yoshidagi farzandlarga ham xos bo‘lib, yaqin insonlarning maqtovini eshitish, amalga oshirgan say’i-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashlariga sazovor bo‘lib, ular faoliyatining kuchli motivi hisoblanadi.

Umumiy ko‘rsatkich qo‘llab-quvvatlangan motivlarning umumiy soni bilan baholanib, ularning qiymati 0 dan 20 gacha diapozonda joylashadi. Ko‘rsatgich qanchalik yuqori bo‘lsa, demak, qo‘llab-quvvatlanishga nisbatan motivatsiyani shunchalik kuchli, ya’ni, sinaluvchi o‘zaro muloqot jarayonida o‘zgalarning unga nisbatan xayrihox bo‘lishlarini istashi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Oilaviy o‘zaro munosabatlar tizimida bolaning ota-onasi va boshqa yangi yaqin qarindoshlar bilan o‘zaro munosabati kommunikativ akt sifatida undagi muloqatmandlik darajasini oshiradi, o‘smirlik davri ziddiyatlarini osonroq boshdan kechirishini ta’minlaydi.

Biz ushbu so‘rovnomani o‘smirlarga to‘ldirish uchun berdik va javoblarni kalit asosida tahlil qildik. Demak, ularning to‘plagan ballar qanchalik yuqori bo‘lsa, ularda qo‘llab-quvvatlashga nisbatan motivatsiya yuqori va aksincha, kichik ballar bunday intilishning yo‘qligini bildiradi. Ya’ni, bu shaxsning tashqi ijtimoiy muhitdagi unga nisbatan hissiy-emotsional yaqinlikni qanchalik ko‘ngliga yaqin olishi, o‘zgalar bilan iliq munosabatda bo‘lib, ularni qo‘llab-quvvatlashga moyillik va shunday munosabatni o‘zi uchun ham istashini bildiradi.

Izlanishimizning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi va tadqiqotning keng qamrovli ekanligidan kelib chiqib, biz metodikaning qadriyatlari qatorini oldik va muallif ishlatgan qayta ishlov uslubidan foydalanmadik. Chunki bizni qiziqtirgan asosiy masala – bu taklif etilgan qadriyatlarning qaysilari tanlangan ijtimoiy guruh vakillari uchun eng qadrli va ahamiyatli ekanligini bilishdan iboratdir. Ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonida biz quyidagi tamoyilga amal qildik, ya’ni, o‘smirlar reyting tizimida belgilab chiqqan har bir blokdagi 18 ta qadriyatlardan dastlabki 10 pozitsiyada eng ko‘p marta baholangan qadriyat-sifatlarni ajratdik. Ya’ni, ahamiyatli o‘nlikka kirgan sifatlarni biz eng e’tiborli tarzda belgiladik va ularning orasida eng qadrlisini aniqlab, shu asosda yoshlarning ijtimoiy-psixologik tasavvurlarini o‘rgandik.

Biz natijalarni hisob-kitob qilganda, javoblarda belgilangan o‘ntalik reytingi yuqori bo‘lganlarini mos ravishda shu raqamlarni sanab chiqib, umumiy tanlovdagilar sonining maksimal son bo‘lishi mumkinligidan kelib chiqib, o‘sha raqamga bo‘ldik. Masalan, “baxtli oilaviy hayot salomatlik” qadriyati 74 nafar javobida “1” raqami bilan eng qadrli sifatida birinchi o‘rinda baholangan bo‘lsa, necha kishi shu tarzda baholaganini 78 ga ya’ni, nazariy jihatdan qabul qilingan songa bo‘ldik.

Qiz bola turmush qurgandan so‘ng uning ijtimoiy muhitdagi mavqeyi tubdan o‘zgarishi asosida unga nisbatan boshqalarni va o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabati o‘zgarishi kuzatiladi. Mazkur o‘zgarishga nisbatan o‘zida ishonchni shakllantira olgan qiz bola yangi oilasida qisqa muddatda o‘z o‘rniga ega bo‘la olishida muloqot madaniyatining ahamiyati kattadir. Oila qurishga o‘zida ishonchni shakllantirishiga eng asosiy turtki rolini o‘ynovchi omillardan biri bu - o‘z-o‘ziga yo‘riqnoma berishi ya’ni, oilaga tayyorlik holatining har tomonlama o‘stirish hisoblaniladi. Yangi kelinlik mavqega moslashish albatta, tajriba va bilimlarga asoslanadi. Shularga ko‘ra, har qanday turmush qurish yoshiga yetgan qiz o‘zining yutuqlari va kamchiliklarini tafakkurida aqlan tahlil qilib o‘zi kelin bo‘lgach amalga oshiradigan xatti-harakatlarini tassavur eta olishi kerak.

Xulosa va takliflar: Talaba qizlarga ta’sir etuvchi har bir jabhani atroflicha o‘rganib, o‘sha omil uning kelajakdagi turmush hayotida qanday natija ko‘rsatishi mumkinligini ilmiy prognoz qilish va ularning qadriyatlar tizimidan kelib chiqib ularga ijobiy ta’sir etuvchi omillarni yanada ko‘paytirish, ularni kelajak maqsadlarini to‘g‘ri belgilashida ko‘maklashish zarur. Oila mustahkam va kelajak avlod baxtli bo‘lishi uchun qizlarimiz ongiga oila muqaddas qadriyat ekanligini, ayolning jamiyat va oiladagi o‘rnini anglatishimiz kelajakda ham ishbilarmon, ham oilaparvar ayollarimizni ko‘payishiga sabab bo‘ladi, bu esa oilalarda psixologik iqlimni yaxshilanishiga va albatta ajralishlar sonini kamayishiga olib keladi.

Adabiyotlar

1. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi:Darslik-T.:”Sharq”, 2014.272-bet.

2.Fayziyeva M, Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi.-T.:”Sharq”,2007.42-bet.

3.Eshmurodov, O. (2023). Қизларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий психологик жихатлари. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9087

4.Eshmurodov, O. (2023). Sog‘lom psixologik muhit oila barqarorligining omili sifatida . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). извлечено от https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9088

5.Karimova, M. (2023). Qizlarning muhabbat borasidagi tasavvurlarining oila mustahkamligiga ta’siri. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

6.Karimova, M. (2023). Qizlarning muhabbat borasidagi tasavvurlarining oila mustahkamligiga ta’siri. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2).

7.Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). Oilada o‘smirlarning sog‘lom turmush tarzi va oilaviy hayot haqidagi tasavvurlari shakllanishining pedagogik-psixologik omillari. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

8.Иманова, М. Б. (2021). Шахс характери акцентуацияси ва деструктив хулқ-атвор. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

9.Imonova, M. B. (2023). Musiqaning inson hissiyotiga tasiri. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.

10.Ne’matullayeva, S. (2023). Developing communication skills in preschool children through game therapy. *Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence*, *2*(4), 86-88.

11.Ne’matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo‘llashda innovatsion usullar. *O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari*, *1*(6).

Мирзажонова Элеонора Топволдиевна
Ферганский государственный университет
старший преподаватель кафедры Психологии
E-mail: e.mirzajonova@gmail.com

ПРОБЛЕМЫ РАБОТЫ С ДЕТЬМИ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ (ПО РЕЗУЛЬТАТАМ ПРОЕКТА

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы социализации детей с особыми потребностями с применениемсоответствующих адаптационных практик, новых методик и форм социокультурной деятельности, позволяющих создать необходимое и адекватное социальное пространство для определения и развития их жизненной стратегии.*

Ключевые слова*: дети с особыми потребностями,инвалидность, социокультурная деятельность,социально-правовая помощь, социально-культурная компетенция, социокультурная адаптация,микротоковая рефлексотерапия, адаптационные мероприятия, институциализация, уровень мотивации, абилитация,стигматизация*

PROBLEMS OF THE THEORY AND PRACTICE OF SOCIOCULTURAL ADAPTATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS

Annotation. *This article describes the problems of children's socialization in family and of the family. The article is dedicated to the problem of the socialization of children. With special needs in the family and out side the family through the organization of various form of sociocultural activities and effective adaptive practices, creating conditions for formation and development of their active life position.*

Key words and expressions*: children with special needs, sociocultural competence, sociocultural activities, sociocultural adaptation, disabilities, social and legal disability, social and legal help.*

ALOHIDA EHTIYOJI MAVJUD BO‘LGAN BOLALAR IJTIMOIY-MADANIY MOSLASHUVI NAZARIYASI VA AMALIYOTINING MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada alohida e'tibor va ko‘makka muhtoj bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvi masalalari ko‘rib chikilib, ularning faol xayotiy strategiyasini shakllantirish va rivojlantirishda yangi usullar va turli xildagi ijtimoiy-madaniy faoliyat hamda samarali moslashtirilgan amaliyotdan foydalanish haqida so‘z yuritilgan.*

Kalit so‘zlar*: alohida e'tibor va ko‘makka muhtoj bo‘lgan bolalar,nogironlik, ijtimoiy-madaniy faoliyat,ijtimoiy-huqukiy yordam, ijtimoiy-madaniy kompetentlik, ijtimoiy moslashuv, elektromikrotokli refleksoterapiya, adaptatsion tadbirlar, institutsiallashuv, motivatsiya darajasi,abilitatsiya, stigmatizatsiya.*

Введение. Социокультурная адаптация является довольно неоднозначным феноменом, поскольку характеризуется постоянной изменчивостью. Социокультурная адаптация ребенка с ограниченными возможностями осуществляется на уровне личности, общества и культуры как пересечение и совпадение их интересов и потребностей. При этом, постоянно корректируются как ожидания социальной среды, так и требования к личности «нетипичного» ребенка. В результате успешной социокультурной адаптации инвалид приспосабливает свои установки, поведение и потребности к реалиям той социальной среды, в которую он интегрируется. Приобретенные в результате социокультурной адаптации знания и навыки дети с ограниченными возможностями могут направить на удовлетворение своих жизненных потребностей, что поможет им стать полноценными членами общества. Эффективная адаптация детей с ограниченными возможностями здоровья к современному социокультурному пространству обусловливается приоритетами государственной социальной политики в отношении детей с инвалидностью, которая во многом зависит от уровня развития экономики. Всестороннее масштабное реформирование общества в современном Узбекистане нацелено на повышение уровня жизни населения страны. Одной из важных целевых задач, обозначенных в «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026

годы», является «формирование эффективной системы поддержки лиц с инвалидностью, повышение качества и уровня их жизни».

Это предполагает:

- недопущение дискриминации по признаку инвалидности, обеспечение равных условий для реализации прав, свобод и законных интересов лиц с инвалидностью и неотвратимости ответственности за их нарушение;
- имплементацию в национальное законодательство общепризнанных международных норм и стандартов в области обеспечения прав лиц с инвалидностью;
- повышение уровня и качества медико-социальной помощи лицам с инвалидностью;
- создание необходимых условий для усиления взаимосвязи лиц с инвалидностью с семьей, обществом и государством, их пребывания в благоприятной среде;
- совершенствование системы инклюзивного образования и трудоустройства лиц с инвалидностью, обеспечивающей их вовлечение и активное участие в социально-экономической жизни общества.

Эффективность и результативность адаптации определяется применением современных социокультурных технологий организации свободного времени и досуга детей с ОВЗ. При этом, необходимо отметить, что создание системы инклюзивного образования осуществляется с учетом международного опыта посредством разрешения противоречий: между прежней (привычной) системой интернатных учреждений, которые предстоит трансформировать или закрыть и внедрением довольно новой (для Узбекистана) системы отношений лиц с инвалидностью и образовательными учреждениями; между необходимо вынужденной социальной изоляцией людей с особыми потребностями и возможностью их социальной активизации через инклюзивное образование и социокультурную адаптацию; традиционным пессимистически-скептическим отношением к людям с инвалидностью и формированием нового позитивного взгляда на людей с инвалидностью как потенциально полезных обществу субъектов.

Всемирный банк проанализировал проблемы, с которыми сталкиваются лица с инвалидностью в Узбекистане. Их немало - какие-то уже решаются, другие еще обсуждаются или решаются на уровне отдельных проектов, как правило, региональных. В докладе Всемирного банка отмечается, что законодательная база содержит понятие инклюзивного образования: Закон об образовании 2020 года РУз впервые вводит определение инклюзивного образования в Статье 20, которая предусматривает, что «инклюзивное образование направлено на обеспечение равного доступа к образованию в учебных заведениях для всех учащихся с учетом разнообразия особых образовательных потребностей и индивидуальных возможностей». Это свидетельство положительного сдвига в решении проблемы.

Образовательные реформы в Узбекистане, инициированные главой государства Мирзиеевым Ш.М., открыли путь для изменений, которые могут привести к становлению системы инклюзивного образования, хотя некоторые меры по-прежнему способствуют раздельному обучению, нередко применяется медицинский подход к инвалидности и не используются адаптированные методы обучения и учебные программы. Одной из проблем, является то, что подавляющее большинство учителей в школах не имеют подготовки в области инклюзивного и специального образования, а также не имеют практического опыта обучения детей с инвалидностью.Школы систематически были не доступны для лиц с ограниченными физическими возможностями.

Литературный обзор. Л.С.Выготский, значительная фигура в психологии и педагогике, известен своими работами по культурно-исторической теории развития человека. Одним из важных аспектов его наследия является исследование аномального развития детей и нарушений развития. Например: в работе «Основы дефектологии», которая была выпущена после смерти автора, Выготский объединил свои исследования в области образования и реабелитации детей с различными формами аномального развития. Он рассматривал, как социальная среда и обучение могут способствовать развитию детей с нарушениями. [2]. А в работе «Диагностика развития и педологическая клиника трудных детей» (1923) Выготский исследовал методы диагностики и подходы к обучению детей с отклонениями в развитии. Он акцентировал внимание на значении социального взаимодействия и культурных факторов в развитии личности[3]. В книге «Про-


блемы возраста» Л.С.Выготский также затрагивал темы аномального развития в контексте возрастных изменений и этапов развития. Работы Выготского легли в основу многих современных подходов к образованию и реабелитации детей с особенностями в развитии[4].https://www.litres.ru/book/lev-vygotskiy-30932777/osnovy-defektologii/

А.Р.Лурия, выдающийся советский нейропсихолог, также внёс значительный вклад в изучение аномального развития. Он разработал основы нейропсихологической диагностики и реабелитации, что стало важным для понимания и коррекции развития детей с нарушениями. Среди его ключевых работ по этой тематике можно выделить: «Основы нейропсихологии» (1974), в которой Лурия обобщает свои исследования функциональной организации мозга и последствий её нарушений[5].https://avidreaders.ru/book/osnovy-neyropsihologii.html. «Нейропсихология памяти. Труды по нейропсихологии» (1976), где Лурия исследует механизмы памяти и её нарушения. А.Р.Лурия акцентировал внимание на том, как повреждения мозга влияют на когнитивные функции, предоставив тем самым ценную основу для развития методов диагностики и коррекции у детей с аномальным развитием[6].

В нашей республике многие исследователи, такие как М.Давлетшин, Э.Гозиев, Г.Шоумаров, В.Каримова, Б.Кадиров, З.Нишонова внесли вклад в развитие психологической мысли Узбекистана, развивая общую, детскую, возрастную, педагогическую психологию. Они изучают вопросы воспитания детей, подготовки молодёжи к семейной жизни, особенности детско-родительских отношений, социально-психологические аспекты развития семьи. Авторы подходят к вопросам аномального развития не как к чему то изолированному, а как к процессу, который можно понять только в контексте социальной среды и культуры.

Согласно исследованию ВсемирногоБанка, в Узбекистане 13,5% всего населения в возрасте от 3 лет и старше имеют ту или иную форму инвалидности, а 3,5% имеют серьёзную форму инвалидности. В республике 142,3 тысячи детей-инвалидов до 18 лет и 396,7 тысячи лиц с инвалидностью до пенсионного возраста.

Заключение и результаты исследования. Проблема развития социальной активности людей с инвалидностью, формирования концепции их активной, самостоятельной жизни, становления положительного имиджа семей, воспитывающих детей с инвалидностью, актуализировалась в условиях всесторонних реформ, проводимых в современном Узбекистане, в том числе и в социальной политике. Успех в решении этой проблемы предполагает постоянную и планомерную работу по изменению: личностных установок у людей с инвалидностью; установок у членов их семей (поскольку во многом активность инвалидов зависит от их воспитания в семье);установок и отношения других окружающих. Так, к примеру, социальные службы и центры реабилитации г. Ферганы и Ферганской области имеют определенный опыт по работе с детьми с особыми потребностями. Однако, существует проблема доступности и совершенствования организации, форм и методов социокультурной адаптации и деятельности в целях активизации и повышения эффективности социализации таких детей.



Для выявления актуальных проблем социализации детей с особыми потребностями и определения подходов к их решению были проведены исследования среди родителей детей с ОВЗ и сотрудников социальных служб. С целью изучения насущных вопросов и условий организации социокультурной деятельности семей (матерей) с детьми с особыми потребностямиучастниками проекта Ферганского регионального филиала РЦСАД - преподавателями и студентами ФерГУбыл проведен социологический опрос среди родителей и сотрудников организаций, обеспечивающих социально-правовую помощь детям и семьям с особыми потребностями. Целью исследования были - определение иразработка эффективной модели организации социально-культурной деятельности детей с особыми потребностями и апробация её в работе с семьями, в которых дети обучаются на дому. Анализ результатов исследования показал, что:- 26% детей проводят время за планшетом, компьютером и телефоном, 24% - смотря телевизор, 11% - слушая музыку, 14% - рисуя, 6% - читая книги, 10% -занимаясь спортом, 9% - занимаясь рукоделием. При этом, 79% детей не посещают кружки и 65% родителей не знают о функционировании кружков. На диаграмме показана схема увлечений детей в процентном соотношении.

Около половины опрошенных родителей высказались за организацию кружка по изучению информационно-компьюторнқх технологий, 32% - кружка «Умелые руки». Большая часть (67%) родителей отметила, что их дети посещают мероприятия, организованные школой или махаллёй к знаменательным датам, таким как «Хаит», «Праздник урожая», «Новый Год», «День инвалидов», «Навруз», «День знаний» и «Последний звонок». Проведенный опрос показал, что в работе с детьми с особыми потребностями участвуют 65% учителей школ, 18% членов махаллинских комитетов. При этом,71% специалистов, работающих с такими детьми, хотели бы повысить свои знания на семинарах-тренингах. Почти половина опрошенных (49%) указали на наличие материальных трудностей в семьях с детьми с ОВЗ, 21% респондентов отметили недостаточность психолого-педагогических знаний у родителей, 30% указали на отсутствие кружков, наличие кружков отметили 49% участников опроса (11% - спортивных, 22% -школьных, 22% - при детских центрах «Баркамолавлод»). Подавляющее большинство родителей (81%) ответили, что их дети не заняты в кружках.

Специалисты диагностических центров при опросе отметили, что врачисоставляют 97%, дефектологи - 92% работающих с детьми с особыми потребностями,11% - учителя, прикрепленные к детям, при этом, 79% из них имеют опыт работы с такими детьми. Специалисты выразили желание повысить свои знания: 42% - в Институте повышения квалификации; 51% - на семинарах-тренингах; 7% - на практических занятиях.Большинство респондентов (79%) отметили, что семьи с детьми с ОВЗ испытывают материальные трудности, а 21% - психолого-педагогические. Опрошенные специалисты указали на проблему дефицита кадров для работы с семьями, имеющими детей с особыми потребностями (15%), на необходимость материальной помощи семьям (49%), на необходимость работы с родителями детей с ОВЗ (36%).

Несмотря на наличие нерешенных проблем, есть и определенные сдвиги в этой области. Так, к примеру, в медицинском реабилитационном центре г. Ферганы работают врачи-невропатологи, которые успешно применяют новые методики:микротоковую рефлексотерапию для детей с различными нарушениями (дети с синдромом Дауна, Аутизм, ДЦП, ЗПР). Сеансы микротоковой рефлексотерапии комплексно сочетают с логопедическими упражнениями, психологическими консультациями и коррегирующими развивающими играми, с массажем, занятиями в бассейне и ЛФК.Центр сотрудничает со специалистами из других стран и приглашает их для развития данной деятельности не только в областных городах Узбекистана, но и на периферии. Эффективность сеансов очевидна, что оценили родители, быстро распространяющие информацию об успехах своих детей.

Таким образом, проведенное исследование позволило выявить основные проблемы в работе с семьями, имеющими детей с особыми потребностями, решение которых требует комплексного подхода исовместных, коллективных усилий родителей, детей, специалистов, членов махаллей, представителей различных образовательных учреждений, общественных организаций и государственных органов власти.

Что касается кружков, то, как выяснилось, творческие кружки функционируют, но их посещают чаще здоровые дети без особых потребностей.Следует отметить, что возможность посещения кружков зависит от диагноза ребёнка – это могут быть (в зависимости от заболевания)

спортивные кружки, курсы изучения языков, кружок кройки и шитья, вязания, бисероплетения, мастерские, фотокружки, плавание, кружок риторики, шахматы и шашки. Важно, чтобы кружки создавались в махаллях, что называется в шаговой доступности, поскольку многие родители испытывают затруднения по транспортировке детей в поликлинику, в реабилитационные центры или какое-либо другое место, не имея возможности выделить средства и найти время для того, чтобы возить детей на кружки или секции.

Ma’lumki, ayollarning emotsional holati nafaqat homiladorlik kechishiga balki tug‘ruq sifatiga va bolaning o‘zini o‘zi his qilishiga ham ta’sir etadi. Psixologlar va psixofiziologlar bola va ona o‘rtasida o‘zaro emotsional bog‘liqlik borligini aniqlaganlar. Ularning ta’kidlashlaricha, hali tug‘ilmagan bolaning o‘z-o‘zini his qilishi onasining emotsional holatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Zero, qadim – qadimdan homilador ayollarga nisbatan munosabatlar o‘zgacha bo‘lib, bu davr bo‘lajak ona hayotining muhim qismi sifatida qaralgan. Misrliklar, hindular, keltlar, afrikaliklar va boshqa xalqlarda ham homila sog‘lom shakllanishini ta’minlash maqsadida homilador ayol, emizikli ayol uchun barcha shart-sharoitlarni mujassamlashtirilishi nazarda tutilgan maxsus qonun ishlab chiqilgan. Bundan ming yillar ilgari Xitoyda prenatal klinikalar mavjud bo‘lib, u yerda tug‘ilajak farzandlarning sog‘lom va ko‘rkam bo‘lishlarini ta’minlash niyatida bo‘lg‘usi onalarga osoyishtalik, xotirjamlik, nafislikka qaratilgan sharoit yaratilganki, unda ona va bola uchun hamma imkoniyatlar yaratilgan.

Metodologiya. E.G‘oziyev yaratgan komil inson konsepsiyasi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ma’lumki, embrional davr bosqichi — bo‘lg‘usi shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etib, jismoniy barkamollikning, asab tizimi, bosh miya katta yarim sharlari, hissiy bilish, tana a’zolari paydo bo‘lishi va rivojlanishining dastlabki manbai vazifasini bajaradi. Ushbu bosqichda quyidagilarga e’tibor berish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

• homilaning jismoniy rivojlanishini uzluksiz ta’minlash uchun oqsillar, vitaminlar va boshqa turdagi oziqalarga nisbatan tabiiy ehtiyojini qondirib turish;

• unga salbiy ta’sir etuvchi qo‘zg‘atuvchilardan saqlanish, ijobiy his- tuyg‘u uyg‘otuvchi hodisalar to‘g‘risida ko‘proq o‘ylash;

• qaltis jismoniy harakatlardan o‘zini tiyib turib, ortiqcha zo‘riqishning uzluksiz ravishda oldini olish;

• homilaga sensor ta’sir o‘tkazishni odatiy psixologik holatga aylantirish;

• kontakt va distant vositalardan foydalanish;

• shaxslararo munosabatda muloqot maromlariga rioya qilish;

• bioritmika va psixometriya qoidalaridan og‘ishmay foydalanish;

• ijtimoiy tahlikali hodisalarga nisbatan loqaydroq munosabatda bo‘lish va hokazo [1].

K.T. Yadgarova o‘zining “O‘zbekiston Respublikasida tug‘ruqqa yordam ko‘rsatish faoliyatini baholash” [2], [3] nomli maqolasida fertil yoshidagi ayollarning aksariyat qismi u yoki bu darajadagi ekstragenital kasalliklar homiladorlik va tug‘ruq jarayonining kechishida turli xil asoratlarga sabab bo‘lishini ta’kidlagan. Homiladorlik davri toksikoz-lari, tug‘ruq jarayoniga jarrohlik aralashuvi, tezkor yoki cho‘zilgan tug‘ruq (18 soatdan ko‘p), tug‘ish oralig‘idagi suvsizlanish, tana haroratining yuqori ko‘tarilishi, chaqaloqlarning muddatidan oldin tug‘ilishi, homilada gipoksiya holatining uzayishi, chaqaloqda bosh miya ichki bosimining ortishi, ko‘karib (asfiksiya xolatida) tug‘ilish va shu kabilar, kelgusida rivojlanishdagi anomaliyalarga olib kelishi mumkin. YA’ni, ayollarda homiladorlik davrining og‘ir kechishi, homila va chaqaloqlarda psixo-fiziologik nomutanosibliklar salbiy emotsional o‘zgarishlar bilan kechadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra 15-20 mln homilador ayollar o‘z homilasini abort qildirishi, hali anatomik va fiziologik jihatdan yetilmay turib, qizlarning erta turmush qurishi, homiladorlik holatiga ijtimoiy moslasha olmaslik, ulardagi psixoseksual muammolar, kelish-movchiliklar, hayotiy vaziyatlardagi nizolar, shaxslararo munosabatlarga oid muammolarning ta’siri oqibatida ayolda homiladorlikning og‘ir kechishi va homilada negativ holatlar yuz berishi hayotda kuzatilayotgani ta’kidlanadi.

B.B. Negmadjanov [4] va boshqa olimlarning ko‘rsatishicha, erta turmush qurgan (16-17 yosh) homilador o‘smir-ayollarning (74%) homilasining tushishi, homiladorlik anemiyasi (60%), erta toksikozning rivojlanishi (30%), gestozlar (14%), onalik bilan bog‘liq jarohatlar (62%) bilan tugallanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Erta turmushga chiqqan homilador o‘smir-ayollarda turli darajadagi akusherlik va perinatal asoratlar kuzatilgan tajriba guruhidagi ayollarda homiladorlikning inqirozli davrlarida uch martadan davolanish kurslarini o‘tishlari shartligi qayd etiladi.

S.I. Indiaminov va boshqa tadqiqotchilar [5] ba’zan tug‘ruq jarayoni kechishi bilan bog‘liq yatrogen patologiyalarga to‘xtalib o‘tadilar. Bular tibbiyot xodimlarining e’tiborsizliklari sababli ro‘y beradi.

Bunday jarayonlar ham homilador ayollar emotsional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

A.K. Berdiyeva reproduktiv salomatlik patologiyasini o'z vaqtida aniqlash borasida tadqiqotlar olib borgan. Reproduktiv salomatlik patologiyasining ijtimoiy-psixologik tuzilishini o'rganish jarayonida, salomatlik holatini kompleks baholashning o'smir qizlarda yosh xususiyatlarini, yashash tarzini, jinsiy va jismoniy yetilish xususiyatlarini, shuningdek, psixologik tarbiya saviyasi takomillashmaganligi bilan bog'liq holatlar homiladorlikka salbiy ta'sir etishini aniqlagan [6].

M.S. Djurayevaning [7] ta'kidlashicha, ayolning yoshi nafaqat homiladorlik va tug'ish jarayoniga muayyan darajada ahamiyat kasb etadi, balki homilaning o'sishi, uning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, homilaning endokrin tizimi juda barvaqt shakllana boshlaydi, shuning uchun ham u onasining barcha emotsional holatlarini gormonal darajada "his" qiladi. Stress holatida organizm, xususan, buyrak osti bezi katexolamin, ya'ni stress garmonini ishlab chiqaradi, bu esa mavjud vaziyatdan chiqish imkoniyatini yaratadi. Ushbu gormonlar onaning holatini aks ettirib, uning fiziologik javoblarini shakllantiradi va platsentar to'siq orqali o'tib, homilaga ta'sir ko'rsatadi. Bunda katta yoshli insonlar hayotida vaqt o'tishi bilan himoya reaksiyasi rivojlanadi, biroq homilada himoya reaksiyasi hali rivojlanmagan, shu bois unga ta'sir etish ehtimoli ko'proqdir. Biz xursandchilik, baxtni his qilganimizda miyamizda endorfinlar yoki «baxt» gormonlari ishga tushadi. Ular homilaga xotirjamlik yoki xursandchilikni his qilishlariga imkon beradi. Agar bola ona qornidaligida shunday holatlarni ko'proq his qilsa, uning psixik va asab xususiyatlari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bu esa o'z navbatida homilaning keyingi xulq-atvor va xatti-harakati xususiyatlarini belgilab boradi.

Shved fotografi L. Nilson tomonidan mikroskopik kameralar yordamida olingan beqiyos fotosuratlar homilaning ona qornida faol psixik hayot tarzini kechirishini ko'rsatgan. Shuningdek, su'ratlarda ona kulsa, homila kulib, xafa bo'lsa, "qayg'uga tushishi", ya'ni ona mimikasining sinxron qaytarilishi qayd etilgan. Shunga ko'ra, homilador ayolning ijobiy emotsiyasi va qalb xotirjamligi homilaga har qanday davo yoki ovqatlanishni me'yorlashtirishdan ko'ra ko'proq samara beradi.

Shuningdek, psixik holatlar masalasini o'rganish bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik mualliflar mazkur muammo psixologiyada nisbatan kam ishlangan deb hisoblashadi. Emotsional holatlar tadqiqotchisi YE.P. Ilinning ta'kidlashicha, nashrlar ko'pligiga qaramasdan, emotsional holatlar muammosi hamon yetarlicha to'liq yoritilmaganligicha qolmoqda [8].

Emotsional holat nisbatan keng tushunchadir. Bugungi kunda ushbu fenomenning umumqabul qilingan tasnifi mavjud bo'lmasada ushbu muammoga daxldor tadqiqotlar mavjud.Ushbu mualliflar emotsional holatning davomiyligi, predmetli yo'nalganligi, intensivligi, anglanganligi, faolligi darajasi, barqarorligi, adekvatligi kabi shakllarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan ko'plab mezonlar ustida ilmiy mushohadalar yuritilgan.

Ma'lum bir psixik jarayonlar yoki uning dominantlik qiluvchi tarkibiy qismlarining ustivorligi belgilari asosida turli mualliflar, irodaviy va motivatsion holatlar bilan bir qatorda emotsional holatlarni ajratib ko'rsatishadi. Ko'plab tadqiqotchilar psixik holat va emotsional holat tushunchalarini sinonim sifatida qo'llashadi. Biroq bizning fikrimizcha, ularni aynanlashtirish mumkin emas, chunki, emotsional holatlar va psixik holatlar o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Zero, emotsional holatlar, psixik holatlarga nisbatan kengroq ko'lamda qo'llanadi.

Odatda emotsiya inson tomonidan qaysidir ahamiyatli obyektlar, hodisalarga o'z munosabatini boshdan kechirilishi sifatida xarakterlanadi. Hissiyot – bu ham ma'naviy va axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan nisbatan yuqori ijtimoiy darajadagi his-tuyg'ular bilan aloqador munosabatdir.

Emotsional holatlarning fiziologik asosini bosh miya po'stlog'ining ma'lum funksional darajasi tashkil etadi. Emotsional jarayonlarning paydo bo'lishi va kechishi asosida asab tizimining reflektiv faoliyati qonuniyati yotadi. Emotsiyalar – bu tashqi yoki ichki qo'zg'atuvchilarga javoban reaksiyadir. Emotsiyalar o'zining ko'p tarzli harakatlanuvchi va sekretorli reaksiyalari bilan birgalikda ham shartsiz, ham shartli reflekslar mexanizmi asosida yuzaga kelishi mumkin .

Emotsional holatlar quyidagi o'ziga xos belgilar bilan tavsiflanishi mumkin:

-subyektivligi, chunki, inson voqelikning o'zini emas, balki o'zining unga munosabatini aks ettiradi;

-mavjud barqarorlikning buzilishiga qarshilik funksiyasi natijasidagi faolligi;

-dinamikligi, chunki, mazkur holat bir necha fazalarni o'taydi (latentlik, barqarorlik va h.k);

-uzluksizlik, chunki, emotsional holatlar bir- birini almashtirib turadi;

-paydo bo'lishining tasodifiyligi;

-emotsional va fiziologik tarkibiy qismlarining birikuvi.

Emotsional holat tuzilmasining umumqabul qilingan konsepsiyasi mavjud emas. Eng keng tarqalgan konsepsiya, bu holatning psixologik (hissiyot va kechinmalardan iborat) va fiziologik (bir qator funksiyalarning o‘zgarishi) tarkibiy qismlarini ajratish konsepsiyasidir. Boshqa mualliflar javob qaytarish darajalarini quyidagilarga ajratib ko‘rsatishadi:

- fiziologik, psixofiziologik va psixologik;
-fiziologik, psixofiziologik, psixologik va ijtimoiy-psixologik;
- psixik, fiziologik va xulq-atvor.

Emotsional holat ma’lum bir xususiyatlarga ega bo‘lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- davomiyliligi – nisbatan turg‘unligi;
- mavjudligining dinamikligi;
- dastlabki holiga qayta tiklana olishi;
- turlicha intensivlikka egaligi;
- uzluksizligi – yaqqol ifodalangan o‘tishning mavjud emasligi;
- insonning faoliyatiga, munosabati va sog‘lig‘iga turlicha (ijobiy va salbiy) ta’sir etishi;
- qayta tiklanishning vaziyatliligi;
- predmetga yo‘nalganligi;
- qutublilik (holat «belgisi»ning mavjudligi);
- holat anglanishining turli darajasi;
- yaxlitligi.

Emotsiyaning biologik mohiyati – bu uning maqsadga muvofiqligi. U murakkab sharoitlar sodir bo‘lganda, paydo bo‘lgan qiyinchiliklarni va xavflarni bartaraf etish uchun faollikni rag‘batlantiradi, yangi kuchlarni safarbar etadi. Aytib o‘tish lozimki, ba’zan ushbu moslashuvchanlik «ortiqcha» bo‘lishi ham mumkin.

Emotsional holatlar bir qator funksiyalarni bajarishadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili uning quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi:

- adaptivlik;
- tartibga soluvchi;
- integratsiyalashtiruvchi;
- axborot tanqisligini to‘ldirish;
- rag‘batlantiruvchi, faollikka va vaziyatni o‘zgartirishga undash;
- atrofdagi muhitga yo‘nalganlik.

Emotsional holatning hammasidan ko‘ra muhim funksiyasi bu adaptivlikdir. U mavjudlikning aniq sharoitlari, faoliyat va xulq-atvorning xususiyatlarini inobatga olgan holda individning faollashtirilgan ehtiyojlari bilan uning imkoniyatlari va resurslari o‘rtasidagi mutanosiblikni o‘rnatishda namoyon bo‘ladi. Emotsional holat – organizmning passiv reaksiyasi emas, balki gomeostazni saqlab qolish uchun kurashdir. Bunda foydali natija sifatida holat yuzaga kelishining biologik maqsadga muvofiqligi namoyon bo‘ladi. Emotsiyalar organizmning tashqi muhit bilan muvozanatlashuvi funksiyasini bajaradi va uning darajasini aks ettiradi. Adaptivlik funksiyasi sog‘liqni, adekvat harakatlarga qobiliyat va muvaffaqiyatli faoliyatni, to‘laqonli shaxsiy rivojlanish imkoniyatini iloji boricha yuqori darajada saqlab turishga imkon beradi. Shunday qilib, emotsiyalar yaqqol namoyon bo‘lgan moslashuvchanlik xarakteri bilan farqlanadi.

Emotsional holat shaxs faolligini tartibga solishga yordam beruvchi mexanizm hisoblanadi. Emotsional holat – munosabatlar, xulq-atvor, faoliyat va organizmning funksional holatini muvozanatga saqlab, boshqarib turadi.

Emotsional holatning integrativ funksiyasi ostida faoliyatning o‘zgaruvchan sharoitlarida subyektning javob qaytarish javob qaytarishini ta’minlaydigan funksional tizimning shakllanishini anglash lozim.

Umuman olganda, YE.P. Ilinning emotsional holatlar insonning butun hayot-faoliyati kechadigan, ko‘p hollarda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakterini, inson xulq-atvorini, uning faoliyatini va hattoki, organizmning harakatini belgilaydigan holatni aks ettirishi to‘g‘risidagi fikriga qo‘shilamiz.

Nazariy va amaliy jihatdan muhim masala, bu emotsional holatlarni o‘rganish (yoki diagnostikasini amalga oshirish) muammosi hisoblanadi.

YE.P. Ilin, psixik holatni o‘rganish bo‘yicha bugungacha mavjud barcha metodlarni (ularning har biri bir qator «yutuq» va «kamchiliklar»ga ega) quyidagi guruhlarga ajratadi:

- insonning xulq-atvori va ta’sirchanligini kuzatish;
- fiziologik ko‘rsatkichlarni o‘lchash;
- psixologik ko‘rsatkichlarni o‘lchash;
- ayni vaqtdagi holatlar yuzasidan bilan so‘rov o‘tkazish;
- faoliyat samaradorligini qayd etish.

Kuzatishning asosiy «kamchiligi»ni natijalarning kuzatuvchi subyektivligiga bog‘liqligi va shuningdek, kuzatiluvchining o‘z holatini yashirish qobiliyati tashkil etadi. Faqatgina fiziologik ko‘rsatkichlarning o‘rganilishi psixik holatning to‘liq tasvirini bera olmaydi, chunki «individual reaktiv stereotip» tamoyili ma’lum bo‘lib, unga ko‘ra emotsional holatlarning vegetativ ko‘rinishlari juda ham individualdir. Psixofiziologik ko‘rsatkichlar esa, bir holatni ikkinchisidan ishonchli tarzda differensiallashtirib berolmaydi.

Emotsional holatlarni o‘rganishning nisbatan keng tarqalgan metodi – bu inson tomonidan o‘z holatining subyektiv baholanish metodi hisoblanadi. Inson tomonidan o‘z holatining subyektiv baholanishi yetarlicha ishonchli ekanligi bir necha marotaba o‘z isbotini topgan.

Psixik holat diagnostikasidagi subyektiv omil quyidagilarga imkon beradi:

-psixik holatni sifatli izohlash;

-bir holatni ikkinchisidan ajratib olish va uning fenomenologik mazmunini aniqlash;

-boshdan kechirilayotgan holat intensivligini baholash;

-psixik o‘zgarishlarning dastlabki diagnostikasini amalga oshirish;

-ham alohida insonning, ham butun guruhning tekshirish imkoni bo‘lgan keng spektrdagi holatlariga ega bo‘lish;

-his-tuyg‘ularining individual xususiyatlarini aniqlash.

Shu bilan birga diagnostikaning subyektiv metodlarini qo‘llash bir qator kamchiliklariga ham ega bo‘lib, olingan natijalarni izohlashda ular inobatga olinishi lozim:

- nosamimiy javoblar berilishi imkonining mavjudligi;
- keng ishlatiladigan lug‘atda ham, diagnostik shkalalarda ham mavjud bo‘lgan tushunchalarni o‘zicha tushunilishi va sharhlanishi;

-tekshiruv paytida respondent holatining ta’siri (kuchli qo‘zg‘alishda o‘zini baholash aniqligi pasayadi);

-holatni baholash subyektiv mezonlarning diagnostika qilinuvchining individual xususiyatlariga bog‘liqligi.

Shunday bo‘lsada emotsional holatlar diagnostikasi metodlari orasida subyektiv metodlar birinchi darajali o‘rinni egallaydi.

L.V. Kulikovning fikricha, ular bir qator ustunliklarga ega:

-holatning ichki tasvirini ko‘pgina sohalar bo‘yicha qamrab olish;

-psixik hodisalar kechishidagi o‘zgarishlarni dastlabki diagnostikasini amalga oshirish (yuzaga keladigan holatlar ko‘pincha birinchi navbatda subyektiv ko‘rsatkichlarni aks ettiradi);

-tekshiruv uchun keng doiradagi vaziyatlarning mavjudligi (ham alohida inson, ham butun bir guruh uchun);

-tekshiruv natijalarini qayta ishlashning nisbatan oddiyligi, miqdor va sifat tahlili muvofiqligi asosida izohlashning bir xildaligi.

V.P. Zinchenko shuni ta’kidlaydiki, u yoki bu ko‘rinishdagi psixik hodisa to‘g‘risida sinchiklab to‘plangan subyektiv ma’lumot o‘zida yetarlicha qimmatli ma’lumotlarni aks ettirib, u tadqiq etilayotgan hodisalarni chuqur tahlil qilish uchun obyektiv ma’lumotlardan kam bo‘lmagan darajada yaroqlidir. Subyektiv metodlarni sinchiklab tahlil qilgan M. Kreyts, shuni qayd etib o‘tadiki, bu metodlarning psixolog tomonidan rad etilishi, xuddi rangni o‘rganayotgan fizik ataylab ko‘zini bog‘lab olib, eksperimental uskunalar bilan ishlashda faqatgina paypaslashdan foydalanganidek ko‘rinadi.

Emotsional holatlarni diagnostika qilishning asosiy tamoyillari quyidagilar hisoblanadi:

-tizimlilik;

-komplekslilik;

-dinamiklik.

Umuman, emotsional holatlar psixologiya fani va uning alohida tarmoqlarida o‘rganishning «ommalashgan» obyekti hisoblanadi. Ammo, bu muammoni nazariy jihatdan yetarlicha ishlab chiqilgan deb hisoblab bo‘lmaydi. Tadqiqotchilar haligacha yagona fikrga kelmagan ko‘plab savollar mavjud.

Oxirgi paytlarda ayollarni onalikka tayyorlash bilan bog‘liq psixologik muammo ko‘plab tadqiqotchilarning e’tiborini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Ayniqsa, quyidagi muammolar faol o‘rganilib kelinmoqda:

-homiladorlik jarayonida bolaga nisbatan ota-onalik hissini shakllantirish;

-homiladorlik jarayonida ayolning shaxs xarakteristikalarini o‘zgartirish – unda «onalikning bazaviy sifatlarini» shakllantirish;

-homiladorlarning psixologik muammolari – ularning shaxsiy ichki muammolari;

-voqelikning turli jihatlariga homiladorlarning munosabati – o‘ziga, homiladorlikka, bolaga.

Shuningdek fundamental ishlanmalar ham mavjud bo‘lib, bular – perinatal psixologiya nazariyasi va amaliyoti, ekstremal vaziyatda (tug‘ruqda) psixika muammolari kabilardir.

Uzoq vaqt mobaynida homiladorlarning psixik holati uning patologik namoyon bo‘lishi, markaziy asab tizimidagi buzilishlar, nevrologik kasalliklar sohasida o‘rganilib kelingan.

Keyingi paytlarda emotsional holatlar muammosi borasida alohida ishlanmalar, masalan, homiladorlik davrida ayollarda xavotirlanish darajasini o‘rganish, og‘irlashgan akusher-ginekologik anamnezli homiladorlarda emotsional taranglik darajasi kabi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Umuman aytish mumkinki, homilador ayollarning emotsional xususiyatlari muammosi, ular dinamikasi yetarlicha o‘rganilmagan.

Ko‘plab mualliflar qayd etishlaricha, homiladorlik davrida ayollar emotsional holatining o‘zgarishi sodir bo‘lib, o‘zgarishlar homiladorlikning har trimestrida kuzatiladi.

Homiladorlikning o‘zi – bu ayolning odatiy turmush sharoitini o‘zgartiruvchi va uning psixikasiga ta’sir ko‘rsatuvchi inqirozli, stressli vaziyat sifatida taxmin qilinishiga asoslar mavjud.

Homiladorlarning organizmida sodir bo‘ladigan kompleks hodisalar, turli organlar va ular tizimi funkiyalari o‘zgarishi sababli «homiladorlikka moslashish» nomini olgan. Homiladorlik paytida ayollarning organizmining barcha muhim tizimlari jiddiy funksional o‘zgarishlarga uchraydi. Eng avvalo ayollarning gormonal statusi o‘zgarib, bu esa ayollarning emotsional holatiga ta’sir qilmasdan qolmaydi.

Homiladorlik davri umume’tirof etilgan holda asab-psixik buzilishlar rivojlanishi xavfi oshgan vaqt hisoblanadi. Bu gormonal fonning va asab-psixik holatida zo‘riqishning oshishi bilan shartlashgan. Homiladorlik, ayniqsa, uning birinchi qismi ko‘p hollarda asab tizimidagi buzilishlar, ichki sereksiya bezlari faoliyatining o‘zgarishi, vegetativ asab tizimi tonusi buzilishining keskin ifodalanganligi bilan kuzatiladi. Bu holat ko‘ngil aynishi, qayt qilish, ishtahaning yo‘qolishi, yuqori asabiylik, kayfiyatning beqarorligi kabilarda namoyon bo‘ladi. Bunday hodisalar shu bilan izohlanadiki, homiladorlik yangi, doimiy o‘zgarib turuvchi sharoitlarga moslashuvchi organizm hayot faoliyati jarayonini keskin o‘zgartiradi. Homiladorlik jarayonida moddalar almashinuvi, qon aylanishi, nafas olish kuchayadi.

Homiladorlik vaqtidagi emotsional buzilishlar yuqori ta’sirchanlik va xafachanlikda namoyon bo‘luvchi asab tizimi funksional holatining o‘zgarishi, uni tartibga soluvchi funksiyasining pasayishi, tormozlantiruvchi jarayonlarning ustivorligi bilan izohlanadi. Asab tizimi faoliyatidagi buzilishlarga homiladorlik vaqtida yuz beruvchi aqliy qobiliyatning pasayishi holatlari ham ta’sir qiladi:

- birinchi trimestrda - 35,8%;
- ikkinchi trimestrda - 24,4%;
- uchinchi trimestrda - 26,1%.

Ikkinchi tomondan, homiladorlikning birinchi kunlaridanoq ayollar organizmida organlar tizimi va barcha organlar hayot faoliyatining qayta tuzilishini, bundan kelib chiqib markaziy asab tizimi muvofiqlashtiruvchi faoliyatini kuchaytirishni talab qiluvchi bir qator gormonal va neyrogumoral o‘zgarishlar yuzaga kelishi kuzatiladi.

XULOSA: Psixik rivojlanishning birinchi davrlari bo‘lajak bola psixik sog‘lomligining asosini belgilaydi, deb hisoblanadi. Homiladorlik vaqtidagi emotsional stress bolalikdagi psixopatologiya, past intellekt, yomon o‘zlashtirish, giyohvandlikka moyillik va suitsidga urinish bilan bog‘liq. Bundan tashqari ba’zi mualliflar fikricha, onaning stressli holati – naslda nevroz rivojlanishining patogen omili hisoblanadi. Insonning afzal ko‘rilgan reaksiya ko‘rsatish uslubi pereinatal davrdagi emotsional holatlarning rivojlanishi shartlari bilan belgilanadi.

Bundan tashqari homiladorlik paytidagi ayollarning psixik holati ko‘p jihatdan onalik funksiyasining amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan onaning psixik va jismoniy sog‘lomligi, qulay oilaviy va shaxslararo munosabatlarning shakllanishi homiladorlikning kechishi xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Bu o‘rinda ayollarning emotsional holati uning umumiy barqarorligi va sog‘lig‘ining shakllanishida belgilovchi holat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyot

1. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психологияси. – Тошкент, 2011

2.Ядгарова К.Т. Оценка деятельности системы родовспоможения в Республике Узбекистан (1991-2003) // Вестник врача, №4, Самарканд, 2007. – С. 51-55.

3.Ядгарова К.Т. Совершенствование родовспоможения в Республике Узбекистан. // Вестник врача, №3, Самарканд, 2009. – С. 2-9

4. Негмаджанов Б.Б., Раббимова Г.Т., Узакова У., Каримова Н.А. Осо-бенности течения беременности, родов у юных первородящих // Вестник врача, 2009. – №1. Самарканд. – С. 79-81

5. Индиаминов С.И., Исломов Ш.Э., Кушбаков А.М. Смертность от ишемической болезни сердца // Вестник врача, 2008. №3, Самарканд. – С. 127-129

6. Бердиева А.К. Этапы выявления патологии репродуктивного здоровья у девочек и подростков // Вестник врача, 2007 , №1. Самарканд. – С. 18-20.

7. Джураева М.С, Негмаджанов Б.Б, Фаттоева Ш.М, Джураева И.А, Амонова М.Н, Джураева Д.Н. Особенности течения беременности и родов в старшей возрастной группе // Вестник врача, 2007, №4. Самарканд. – С. 31-33.

8. Ильин Е.П. Психофизиология состояний человека / Е.П. Ильин. – СПб: Питер, 2005. – 412 с.

9.Луқмонов А.С. “Ҳомиладорлик даврида аёллардаги эмоционал ҳолатлар намоён этилишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари” // психология фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2023. – 123 б.

Umarova Dilora Turobovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALARDA REFLEKSIV QOBILIYATLARNI NAMOYON BO‘LISHINING DINAMIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘smirlarda refleksiv xususiyatlarini o‘rganishning nazariy ososlari berilgan. Bundan tashqari shaxs taraqqiyotini ta’minlashda refleksiv yondashuvning mazmuni va ta’sir mexanizmlarini aniqlashtirish; turli yosh davrlarida refleksivlikning rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek refleksivlikning shaxsda bilish jarayonlari, tafakkur tipi, diqqat xususiyatlari hamda umumiy intellektual faoliyat bilan interkorrelyatsion xususiyatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *refleksivlik, individuallik, determinizm, qobiliyat, ko‘nikma, malaka, subyekt, psixologik mexanizmlar, iroda, tafakkur, intellekt, psixologik xususiyatlar.*

ДИНАМИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ РЕФЛЕКСИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. *В данной статье дается теоретическое обоснование изучения рефлексивных особенностей подросткового возраста. Кроме того, уточнить содержание и механизмы действия рефлексивного подхода в обеспечении развития личности; изучены особенности развития рефлексивности в разные возрастные периоды. Также изучены интеркорреляционные свойства рефлексивности у человека с когнитивными процессами, типом мышления, особенностями внимания и общей интеллектуальной деятельностью.*

Ключевые слова: *рефлексивность, индивидуальность, детерминизм, способности, умения, навыки, субъект, психологические механизмы, воля, мышление, интеллект, психологические характеристики.*

DYNAMIC CHARACTERISTICS OF THE MANIFESTATION OF REFLEXIVE ABILITIES IN STUDENTS

Annotation. *This article provides a theoretical ososlab of the study of reflexive properties in a teenager. In addition to clarify the content and mechanisms of action of the reflexive approach in ensuring the development of personality; the features of the development of reflexivity in different age periods are studied. Also studied are the cognitive processes of reflexivity in the individual, the type of thinking, the characteristics of attention, as well as the features of intercorrelation with general intellectual activity.*

Key words: *reflexivity, individuality, determinism, ability, skill, competence, subject, psychological mechanisms, will, thinking, intelect, psychological characteristics.*

Kirish. Jahonda refleksiya, refleksivlik muammolari bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, ta’lim muhitiga nisbatan refleksivlikni shakllantirish, zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi faoliyati samaradorligini ta’minlashda refleksivlikka aloqador shaxslilik komponentlarining ta’siri, shaxsda refleksivlik shakllanganligini aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik vositalar ishlab chiqilganligi va amaliyotga tadbiq etilishi, turli yosh davrlarida refleksivlikning komponentlarini ilmiy o‘rganilayotganligi shular jumlasidandir. Bu borada shaxsning o‘zini o‘zi anglashining taraqqiy etishi, o‘zini o‘zi refleksiyalash, o‘zini o‘zi baholash, emotsional intellekt, shaxs shakllanishi asosida uning individual imkoniyatlarini yaxshilash, o‘quv, kasbiy, kommunikativ, intellektual sohalarda refleksivlikni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash masalalariga e’tibor qaratish zarurati kuzatilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Xorij tadqiqotchilaridan A.Buzeman, D.Derner, M.Ekenberg, D.Frenems, Z. Freyd, R.Holland, M.Keller, M.Kepling, M.Mentey, J.Piaget, R.Rossa, D.Schon, K. Yung, M.Woodcock va boshqalar refleksivlik muammosini keng doirada tadqiq etgan bo‘lsalar-da lekin shaxs taraqqiyotida refleksivlikning o‘rni masalalari tadqiqotchilar e’tiboridan chetda qolgan.

Psixologik asarlarda refleksiya tushunchasiga quyidagicha ta’riflar berilgan: "Refleksiya" (lotincha reflexio – «ortga nazar») dastlab falsafada shakllangan bo‘lib, u insonning o‘z ongida sodir

bo‘layotganlarni mushohada qilish jarayonidir”. Boshqacha qilib aytganda, “bu insonning ruhiy olami mohiyatini ochishga qaratilgan o‘zini o‘zi bilish faoliyatidir”.

Refleksiya ya`ni aks ettirish jarayonini inson tafakkurining o‘zini o‘zi tanqidiy tahlil qilish qobiliyati, deb ta`riflasak ham bo`ladi.

Refleksiya inson ma’naviy dunyosining ichki tuzilishini ochib beruvchi o‘zini o‘zi anglash faoliyati; bilish metodi va mazmunining tanqidiy tahlili; bilimni predmetli ko‘rib chiqish kabi uni tushunish va anglashga yo‘naltiruvchi tafakkur tamoyili hisoblanadi.

Refleksiya – biror voqelikni o‘rganish va taqqoslashda fikrlash, ma’noni anglash jarayoni sifatida tushunilib, tor ma’noda – “Men”ni bilishdan keyin inson ruhiyatning “yangi burilishi” (“Men” markaz sifatida) va uning mikro dunyosida anglanganlik (o‘zini o‘zi anglash) demakdir.

Shuningdek, refleksiya – inson o‘z xatti-harakatlarini anglashga va tushunishga qaratilgan, uning ma’naviy dunyosida o‘ziga xosligini ochib beradigan o‘zini o‘zi anglash faoliyatining nazariy va amaliy shaklidir. Refleksiya mazmunan predmetli-hissiyotli faoliyat bilan bog‘liq. Umuman olganda, refleksiya madaniyatning predmetli dunyosini anglash, deb tushuniladi.

Refleksiya - falsafiy anglashni talab qiluvchi tushuncha bo‘lib, inson nazariy faoliyati shaklini tavsiflovchi, o‘z madaniyati va uning asoslarini, xatti-harakatlarini anglashga yo‘naltirilgan insonning ma’naviy dunyosini ochib beruvchi o‘zini o‘zi anglash faoliyati sifatida talqin qilinadi.

Refleksiya – individ o‘z ongida sodir bo‘layotgan hodisalar ustida fikrlash jarayonini ifodalaydigan falsafiy tushunchadir.

Refleksiyaning ontologik ahamiyati Teyyar de Sharden konsepsiyasida o‘z aksini topgan bo‘lib, unga ko‘ra: “Refleksiya – ong tomonidan o‘ziga e’tiborni qaratish qobiliyatining o‘zlashtirilishi, o‘ziga xos barqarorlik va maxsus ahamiyatga ega bo‘lgan predmet sifatida o‘zini o‘zi boshqarishni egallash bo‘lib, u shunchaki bilish qobiliyati emas, balki o‘zini o‘zi bilish, shunchaki bilish emas, balki nimani bilishini bilishdir. Refleksiya qilayotgan kishi o‘z-o‘ziga e’tiborni qarata oladi va yangi muhitda rivojlanish qobiliyatiga ega bo‘lgan holda rivojlana boshlaydi. Aslida bu yangi olamning paydo bo‘lishidir”.

Inson hayot faoliyatining eng muhim tavsifnomasi sifatida refleksiv ong g‘oyasini rivojlantirgan holda V.I.Slobodchikov va Ye.I.Isaev uni hayvonlardan insonni ajratib turadigan chegara deb ko‘rsatadilar. Refleksiya tufayli insonda ichki hayot paydo bo‘ladi hamda o‘zining holati va intilishlarini boshqarish - tanlash erkinligi vujudga keladi. «Refleksiyani amalga oshirayotgan inson o‘z istak - xohishlariga bog‘lanib qolmaydi, u tashqi olamga taalluqli bo‘lib undan yuqorida va unga nisbatan erkin bo‘ladi. Inson o‘z hayotining sub’ektiga aylanadi. Refleksiya shaxsning muhim xususiyati sifatida olamni o‘ziga xos tarzda o‘lchashdir».

Refleksiya fenomeni ilmiy-psixologik tadqiqotlar predmeti sifatida keng o‘rganilmoqda. Refleksiya fenomenining terminologik maydoni chegaralangan bo‘lib, uning doirasida o‘zini o‘zi bilish, introspeksiya, retrospeksiya, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi kuzatish, o‘zini o‘zi boshqarish kabi o‘zaro bog‘langan tushunchalar muayyan ierarxiya bo‘yicha joylashgandir. Ong va faoliyat muammosi doirasida refleksiya masalasiga oid ishlanmalar XX asrning 80-yillarida Moskvadagi metodologik to‘garakda yaratilgan bo‘lib, G.P.Shchedroviskiy va V.A.Lefevrlar nomi bilan bog‘liqdir. G.P.Shchedroviskiyning fikricha, refleksiya – “faoliyatning ichki akti o‘rtasidagi o‘ziga xos kooperativ aloqa, kooperatsiyaning kooperat va kooperantlarni birlashtiruvchi muhim tarkibiy qismidir”. Refleksiyaning turli ko‘rinishlarini tushuntirish uchun muallif kooperativ aloqa sxemasini taklif qiladi. U refleksiv munosabatlarga turli individ va turli faoliyatlar o‘rtasidagi kooperatsiya turi sifatida qaraydi. Psixolog refleksiv kooperatsiyani asosiy paradoksni ya’ni, o‘zaro tushunishning mavjud emasligi va tushunishni ta’minlash usullarini qidirish, deb ifodalaydi. O‘zaro tushunish imkoniyatining mavjud emasligi refleksiya qilinayotgan va refleksiya qilayotgan faoliyat o‘rtasidagi tengsizlik, ularning turli ierarxik darajalarda joylashganligi, ob’yektlar va faoliyat vositalarining turli-tumanligi bilan izohlanadi.

Birinchi individ uchun yagona imkoniyat, ikkinchi individ xabarida joylashgan mazmunni adekvat tushunish, uning “nuqtai nazarida bo‘lish, faoliyatdagi uning maqomini qabul qilishdan iborat”. Uni ijodiy mexanizmga aylantirish uchun u “refleksiya qilinayotgan va refleksiya qilayotgan faoliyatni haqiqiy kooperatsiya doirasida birlashishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit va vositalarni yaratuvchi konstruktiv amallar bilan to‘ldirishi lozim”.

G.P.Shchedroviskiy bilan bahs natijasida V.A.Lefevrning refleksiya haqidagi tasavvurlari shakllandi: “refleksiya–bu boshqa personajga, uning xatti-harakati va fikrlariga nisbatan tadqiqotchi maqomida bo‘la olish qobiliyatidir”.

A.V.Karpovning fikricha, hozirga qadar talabalarda refleksiya muammosini tadqiq etishda mavhum-falsafiy yondashuv aniq-ilmiy yondashuvdan ustun bo‘lgan. «Tadqiqot predmeti sifatida refleksiya ko‘p hollarda ontologik tasavvurlar sifatida va psixik borliqning maxsus qonuniyatlariga ega tizimi deb qaralgan va gnoseologik jihatdan umumiy rejada o‘rganilgan bo‘lib, “refleksiya haqidagi pozitiv fan”ning rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Muallif buning sababini refleksiyani tadqiq etishning uzoq falsafiy va qisqa psixologik tarixga ega ekanligida deb biladi.

Zamonaviy psixologik lug‘atlarda refleksiyaning o‘zini o‘zi nazorat qilish va boshqarish jarayoni bilan bog‘liqligi haqida ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, psixologik lug‘atda (V.B.Shapar): «Psixik o‘zini o‘zi boshqarish – bu tizim faolligini boshqarish darajasining biri bo‘lib, borliqni aks ettirish va modellashtirish, jumladan, refleksiya vositalarini qo‘llashda namoyon bo‘ladi» deb keltiriladi. Psixologiyaning yana bir zamonaviy lug‘atida (V.V.Yurchuk): «refleksiv-irodaviy boshqarishning modellar-konditsiyalar-omillari o‘zini o‘zi boshqarishning bazal ingridientidan biri sifatida o‘zini o‘zi nazorat qilishga asoslanadi» debta`kidlangan.

Tahlil. O‘zi haqidagi tasavvur (o‘z “Men”ining sub’ektiv obrazi), A.N.Leontevning fikricha, boshqa kishilarning jamiyatda qabul qilingan me’yorlar va ideallarga o‘zining xulq-atvori natijalari, motiv va maqsadlari mos kelishi hamda baholanishi asosida shakllanadi. Refleksiya – tashqi amaliy faoliyat va ichki aqliy faoliyat tuzilishi o‘rtasidagi o‘zaro moslikni qidirishning o‘ziga xos turidir. Bu odamlarning hamkorlikdagi faoliyatida namoyon bo‘ladigan o‘zini ijtimoiy ahamiyatga loyiq, xatti-harakat va amallarni bajara oladigan, deb tasavvur qilishga imkon beradigan turmushiga, borlig‘iga munosabatidir.

Ta’kidlash joizki, refleksiya haqidagi bilimlarning rivojlanishi uning yanada ijtimoiylashuviga sharoit yaratmoqda. Zamonaviy psixologiyada refleksiyaning uchta asosiy turi farqlanadi:

-elementar refleksiya bilimlarni tahlil qilish, ularning chegarasi hamda mohiyatini ko‘rib chiqishiga olib keladi;

- ilmiy refleksiya – metod va usullar asosida ilmiy tadqiqotlarning ushbu sohasiga taalluqli nazariy bilimlarni tahlil va tanqid qilish;

- psixologik refleksiya –tafakkur, umuman, shaxs strukturasi asoslarini anglash va tushunish [4].

Bosqichlari	Mazmuni
1920-1950-yillar	Mazkur bosqich psixologiya fani metodologiyasi asosida rivojlaninh bilan tavsiflanadi, refleksiya gnoseologik yo`nalish doirasida anglangan va ixtiyoriy psixologik xodisalarni bilishning umumpsixologik tamoyili sifatida talqin etiladi. (P.P.Blonskiy, L.S.Kravkov).
1950-1960-yillar	Birinchi darajali xodisalarni tahlil qilishda ong va faoliyatli yondashuvning shakllanishi muammosi chiqdi (S.L.Rubinshteyn, E.V.Shoroxova). Ilmiy bilish metodologiyasida ilmiy tafakkur (V.N.Sadovskiy, G.P.Shchedrovskiy, E.G.Yudin va boshqalar), ilmiy bilishni tizimli tahlil qilishning metodologik vositalarini izlash, inson tafakkurini EHMda modellashtirish muammosi dolzarb bo`lib qoldi. Ushbu muammo refleksiyaning “refleksiv chiqish” (G.P.Shchedrovskiy), “refleksiyali tizim” (M.A.Rozov), “refleksiv boshqaruv” (V.A.Lefevr) kabi modellarning shakllanishiga olib keldi.

Jadval-1

Refleksiya haqidagi bilimlarning fan tarmoqlari doirasida taraqqiy etishi

1950-1960-yillar birinchi darajali hodisalarni tahlil qilishda ong va faoliyatli yondashuvning shakllanishi muammosi chiqdi (S.L.Rubinshteyn, Ye.V.Shoroxova). Ilmiy bilish metodologiyasida ilmiy tafakkur (V.N.Sadovskiy, G.P.Shchedroviskiy, E.G.Yudin va boshqalar), ilmiy bilishni tizimli tahlil qilishning metodologik vositalarini izlash, inson tafakkurini EHMda modellashtirish muammosi dolzarb bo‘lib qoldi. Ushbu muammo refleksiyaning “refleksiv chiqish” (G.P.Shchedroviskiy), refleksiyali tizim” (M.A.Rozov), “refleksiv boshqaruv” (V.A.Lefevr) kabi modellarning shakllanishiga

olib keldi. 1970-yillar tizimli faoliyatli metodologiya asosida dastlabki bosqichga xos bo‘lgan kibernetik paradigma ustunligini bartaraf etish. Refleksiya muammosi differensiatsiyalana boshladi, refleksiv jarayonlarning eksperimental tadqiqotlari pedagogik psixologiya (V.V.Davidov), tafakkur psixologiyasi (Yu.N.Kulyutkin, I.N.Semenov), faoliyat va uni boshqarish muammosi (N.G.Alekseyev, G.P.Shchedroviskiy), ijtimoiy psixologiya (K.E.Danilin) zamirida olib borildi. Ilk bor odatiy va ijodiy vazifalarni yechish jarayonida refleksivlikning rolini aniqlashga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib (I.N.Semenov, V.K.Zareskiy, S.Yu.Stepanov), ularda refleksiya fikrlash faoliyatini boshqarishni ta’minlaydigan vosita, uslub va asoslarini anglash sifatida qaraladi. 1980-yillar Refleksiyani psixologik o‘rganish predmeti va metodi muammosi qo‘yildi. (I.N.Semenov, S.Yu.Stepanov). Refleksivlik fenomenini tushunishning ikkita asosiy yo‘nalishi shakllandi[1].

Ma’lumki, refleksiya, refleksivlik kategoriyasini tadbiq etish chegarasi tobora kengayib, u nafaqat psixologik, balki, umumilmiy darajada ham faol qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy fanning klassik bo‘lmagan yo‘nalishlarida yoki fanlararo ishlanmalarning metodologik vositasi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, ijtimoiy va gumanitar fanlarda tavsiflovchi tamoyil bo‘lib xizmat qilmoqda. Refleksiya ilmiy bilishning xususan, psixologiyaning alohida yo‘nalish predmetiga aylandi.

L.I.Bojovichning fikriga ko‘ra, o‘smirlik davrida refleksiyaning rivojlanishi o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan o‘smirlik davriga kelib, refleksiya jadal ravishda rivojlanadi hamda u bilish jarayonlarini (xayol, diqqat, xotira, tafakkur) va o‘z shaxsiy xususiyatlarini nazorat qilishga yordam beradi. A.Buzemanning ta’kidlashicha, L.S.Vigotskiy bo‘yicha o‘smirlik davridagi refleksiyani tavsiflovchi 3 ta xususiyat mavjud:

-birinchidan, refleksiya o‘smir rivojlanishi bilan birgalikda kechadi;

-ikkinchidan o‘zini o‘zi anglay boshlaydi.

- uchinchidan o‘zini o‘zi anglash metafizik hodisa sifatida qaralmaydi.

Xulosa. Jahon psixologiyasida shaxs refleksivligi, shaxsning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini o‘zi rivojlantirish, bilish jarayonlari va faoliyatni boshqarish, qobiliyat va ixtiyoriy faollik, guruhiy o‘zaro ta’sir, shaxslararo muloqot, ijtimoiy persepsiya, empatiya, o‘zini o‘zi baholash, tafakkur, kommunikativ jarayonlar, hamkorlikdagi faoliyat tarkibi hamda o‘quv faoliyatini tashkil etishning instrumental vositasi, o‘z hayot faoliyatini anglash kabilarga fikrlash faoliyati nuqtai nazaridan yondashiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni http://lex.uz/doss/3107036

2. Асмолов, А.Г. Психология личности: Принципи общепсихологического анализа / А.Г. Асмолов – М.: Смисл, 2001. – 416 с.

3. Горская Н.С. Самосознание и мотивационная сфера личности: монография. Игрутск: Изд-во. ИрГГУ,2011.128с

4. Моисеева О.А. Формирование стратегии социального самоутверждения у старшеклассников: Автореф. дисс. канд. пед. наук / О. А. Моисеева. – М., 2010. – 22 с.

5. Шляпников, В.Н. Исследования волевой регулятсии в современной зарубежной психологии / В.Н. Шляпников // Вопроси психологии. – 2009. – № 2. – С. 135-144.

6. Сафаев Н.С. Психологические особенности националного самосознания студенческой молодежи. Автореф. дис...д. психол.наук. – Т.: НУУз, 2005. – 38 с.

[1] Semenov, I.N. (2011), "Methodological problems of reflexive psychology of creativity: from the study of creativity to the development of innovation activity" ["Metodologicheskie problemy refleksivnoi psikhologii tvorchestva: ot izucheniya kreativnosti k razvitiyu innovatsionnoi deyatel'nosti"], Rossiya: tendentsii i perspektivy razvitiya. Ezhegodnik INION RAN, No. 6, pp. 117-129.

G‘aybulloyev Alisher Asadovich
Buxoro davlat universiteti Psixologiya va
sotsiologiya kafedrasi o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARIDA BULLING XULQ ATVORNI BARQARORLASHTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada “Bulling” xulq-atvor zamonaviy jamiyatning ijtimoiy psixologik hodisasi sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek determinantlarni o‘rganish va bezorilikni oldini olish konsepsiyasini ishlab chiqish zarurligini asoslaydi.*

Kalit so‘zlar: *Og‘zaki zo‘ravonlik, haqoratli imo-ishoralar yoki, harakatlar, qo‘rqitish, izolyatsiya qilish, tovlamachilik, mulkka zarar yetkazish va boshqalar.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ СТАБИЛИЗАЦИИ БУЛЛИНГОВОГО ПОВЕДЕНИЯ У СТУДЕНТОВ

Аннотация. *В статье анализируется феномен “Буллинга” как социально- психологического явления современного общества. Также обосновывается необходимость изучение детерминант и разработка концепции превенции буллинга.*

Ключевые слова: *вербальный буллинг, обидные жесты или действия, запугивание, изоляция, вымогательство, повреждение и иные действия с имуществом,*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF STABILIZING BULLYING BEHAVIOR IN STUDENTS

Annotation. *The article analyzes the phenomenon of bullying as a socio-psychological phenomenon of modern society. It also substantiates the need to study the determinants and develop a concept for the prevention of bullying.*

Keywords: *verbal bullying, offensive gestures or actions, intimidation, isolation, extortion, damage and other actions with property.*

Kirish. Jahonda bulling global darajada ko‘rib chiqilayotgan dolzarb muammolardan biridir. “Bola huquqlari” to‘g‘risidagi konvensiyada bolalarning jismoniy, psixologik, zo‘ravonlik, haqorat, ekspluatatsiyaning barcha turlaridan himoya qilish kabi huquqlar belgilangan. BMT Bosh Assambleyasi 2014-yilda 69/158 sonli rezolyutsiyani qabul qilib, unda bullingning butun dunyoda ro‘y berayotgani, uning bolalar huquqiga ta’sir ko‘rsatayotgani va zo‘ravonlik qurbonlari uzoq muddatli salbiy oqibatlar ta’sirida qolib ketayotganini ma’lum qildi. Rezolyutsiyaga asosan Bosh Assambleya a’zo davlatlarga bolalarni maktablarda bullingdan muhofaza va himoya qilish bo‘yicha choralarni qabul qilishni tavsiya qildi. YUNESKOning “Maktabda zo‘ravonlik va bulling” global hisobotiga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 246 millionga yaqin bolalar va o‘smirlar maktabda zo‘ravonlik va ta’qibga duch kelishadi. BMTning Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 13-15 yosh oralig‘idagi 130 milliondan ziyod bolalar maktabda bullinga uchraydi.

So‘nggi yillarda respublikamiz umumta’lim maktablarida bulling profilaktikasi va uning oldini olish borasida me’yoriy asoslar yaratildi va “Mazkur yo‘nalishda rivojlangan mamlakatimizning ilg‘or tajribasini o‘rganish va tahlil qilish asosida umumta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida bulling profilaktikasi va uning oldini olish dasturini joriy etish” kabi vazifalar belgilangan. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda 13 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida qasddan sodir etilgan jinoyatlar ko‘rsatkichlari 129 kishini, 2020-yilda 188 kishini (o‘sish 46%) va 16-17 yoshdagi bolalar orasida mos ravishda 689 va 1088 kishini tashkil etdi (o‘sish 58%). Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, bu holat bolalarning rivojlanishi uchun ma’lum xavflarni keltirib chiqarishi, ularning huquqbuzarliklarga moyilligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Maktabdagi zo‘ravonlik muammosi XX asrning boshlarida paydo bo‘lgan, 1905-yilda K. Dyuks birinchi marta ushbu mavzu bo‘yicha o‘z ishini nashr etgan. Bezorilik muammosining birinchi tizimli tadqiqotlari Skandinaviya tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirildi: D.Olweus, P.P. Heinemann, A. Picas, E. Roland. Ular bullying (ingliz tilidan bully - bully) tushunchasini ishlab

chiqdilar, uni zulm, diskriminatsiya va zo‘ravonlik deb ta’rifladilar. Keyinchalik bu muammo V.T.Orton, D.A. Leyn, D.P. Tattum, E. Munthe. kabi ingliz olimlarini qiziqtirdi. Tattum (1989) bezorilikni zo‘ravonlikning o‘ziga xos turi sifatida tushunganki, odam uzoq vaqt davomida boshqa kuchsiz shaxsga jismonan hujum qilganda yoki unga tahdid qilganda, inson o‘zini yolg‘iz, qo‘rquv va harakat erkinligidan mahrum his qiladi.

D.Leyn o‘z tadqiqotida E.Roland ijodiga tayanib, bezorilikka quyidagi ta’rifni beradi: zo‘ravonlik, ya’ni qisqa muddatli ham, uzoq muddatli ham bo‘lishi mumkin bo‘lgan zo‘ravonlik, jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlik bo‘lishi mumkin va o‘zini shunday ko‘rinishda namoyon qiladi. Bugungi kunda o‘zini himoya qila olmaydigan shaxs yoki odamlar guruhiga munosabat.

Besag kabi boshqa xorijiy olimlar bezorilik tushunchasi haqida o‘z fikrlarini ilgari surdilar. Besag (1989) qo‘rqitish, jismoniy, psixologik, ijtimoiy yoki og‘zaki takroriy hujumlar deb ta’riflanishi mumkin bo‘lgan xatti-harakat kuchlari rasmiy yoki situatsion jihatdan katta bo‘lgan odamlarda, o‘zini himoya qilish uchun hech qanday vositaga ega bo‘lmaganlarga nisbatan takroran sodir bo‘lishi mumkinligini aytib o‘tdi.

T.R.Heald (1994), so‘zlariga ko‘ra, bezorilik - bu bir kishi tomonidan amalga oshiriladigan uzoq muddatli, jismoniy yoki psixologik zo‘ravonlik yoki guruhda va taktik vaziyatda o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga qarshi qaratilgan, ongli ravishda og‘riq keltirish, qo‘rqitish yoki odamni uzoq vaqt stressga duchor qilish bilan tahdid qilish.

P.K.Smit va I.Uitni bezorilikni vaziyat sifatida belgilab, qo‘rqitishning aniq misollarini ko‘rsatadi, masalan; tahdid qilish, kaltaklash va tepish, xonani qulflash, qo‘rqitish xabarlarini yuborish va odam bilan muloqot qilishdan bosh tortish.

Arora (1994) maktab muhitida zo‘ravonlik muammosini o‘rganib chiqdi va zo‘ravonlik maktabda o‘qiyotgan yoshlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan, norozilik yoki stressni keltirib chiqaruvchi omillar kuzatilishi mumkin degan xulosaga keldi. Jismoniy va ruhiy jihatdan zaifroq bo‘lgan "jabrlanuvchi" ga nisbatan ustunlikdan "huquqbuzar" qoniqish hissini oladi; "Huquqbuzar" bu xatti-harakatidan boshqalarni qadrsizlantirish, o‘z kelib chiqishidan ajralib turish uchun foydalanadi.

Bezorilik dunyoda keng tarqalgan va har doim mavjud bo‘lgan. Ular uzoq vaqtdan beri bu muammo bilan kurashmoqdalar, qo‘rqitish muammosini bir zumda va abadiy hal qilish mumkin emas. Agar zo‘ravonlikning namoyon bo‘lishi o‘z vaqtida to‘xtatilmasa, vaqt o‘tishi bilan ular yanada xavfli bo‘lib qoladi. Zo‘ravonlik muammosini hal qilish uchun zo‘ravonlik holatini yaratishga urinishlarga to‘g‘ri va o‘z vaqtida javob berish muhimdir. Agar ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari zo‘ravonlik muammosi bilan faol va jiddiy shug‘ullansa, unda ko‘plab nizolarning oldini olish ehtimoli katta.

Bezorilikning oldini olish; ogohlantirish, bartaraf etish va nazorat qilish kabi jihatlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Profilaktik ish o‘quvchining hayoti va xulq-atvori sifatini yaxshilashga yordam beradigan, shaxsiy yo‘nalishlarini o‘zgartirish orqali maxsus pedagogik va tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash orqali uning ijtimoiy, oilaviy va shaxsiy holatini o‘zgartirishni o‘z ichiga oladi.

Bezorilik holatlarining oldini olish choralarining asosiy maqsadi: bolalarga stressli vaziyatlar va tajovuzkorlikka qarshi kurashishni o‘rganishga yordam berishdir.

Zo‘ravonlikning oldini olishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

• o‘qituvchilarni qiyin bolalar bilan ishlash va bezorilik holatlarini hal qilishga o‘rgatish;
• o‘quvchilarning ijtimoiy farovonligini oshirishga ko‘maklashish;
• ota-onalarning psixologik-pedagogik ta’limi;
• travmatik va ijtimoiy xavfli vaziyatni bartaraf etish;
• o‘quvchilarda bag‘rikenglik va vatanparvarlikni rivojlantirish;

"O‘smirlar o‘rtasida bezorilikning oldini olish dasturi" (K.S. Shalaginova) amalga oshirilgandan so‘ng, "Bezorilik so‘rovi (o‘zini o‘zi baholash)", "Agressiya testi" (L.G. Pochebut), "Sotsiometriya" usullaridan foydalangan holda takroriy tadqiqot o‘tkazildi. ” (Moreno). Tadqiqot 6 "B" sinfining nazorat guruhi va 6 "B" sinfining eksperimental guruhida o‘tkazildi, ular bilan o‘smirlar o‘rtasida bezorilikning oldini olish dasturi amalga oshirildi.

Sinfda bezorilik holatlari mavjudligini aniqlash uchun “Bezorilik so‘rovi (o‘z-o‘zini baholash)” natijalarini ko‘rib chiqamiz. Anketaga ko‘ra, zo‘ravonlik "qurbonlari" soni biroz ko‘paygan - 46%,

o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘smirlarning 50%, qizlar orasida esa 44% ni tashkil qiladi. Bezorilik "qurbonlari" umumiy sonining ulushi biroz oshdi, ular haftada bir martadan kam qo‘rqitishadi va bezorilik olti oydan kamroq davom etadi - 15%.

Keyinchalik biz T.R. tomonidan berilgan kontseptsiyaga tayanamiz. Heald (1994), zo‘ravonlik - bu bir shaxs yoki guruh tomonidan amalga oshiriladigan va o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga qarshi qaratilgan uzoq davom etadigan jismoniy yoki psixologik zo‘ravonlik. Ushbu kontseptsiya "bezorilik" tushunchasini eng to‘liq va aniq tavsiflaydi va biz aniqlagan barcha xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Maktabda bezorilik qanday shakllarda bo‘lishini aniqlang. Avval ta’kidlanganidek, D. Leyn zo‘ravonlik tushunchasiga jismoniy va ruhiy zo‘ravonlikni o‘z ichiga oladi, tadqiqotchi I. Berdishev jismoniy zo‘ravonlik bilan og‘zaki, xulq-atvor va aslida tajovuzkor zo‘ravonlikning mavjudligi haqida gapiradi; T.Mertsalova jismoniy, hissiy, og‘zaki, ruhiy va jinsiy zo‘ravonlikni ajratadi.

Shunga asoslanib, zo‘ravonlikning quyidagi shakllarini ajratish mumkin:

1. Jismoniy maktabdagi bezorilik - qasddan turtish, urish, tepish, kaltaklash va boshqa tan jarohatlari yetkazish va hokazo.Jinsiy zo‘ravonlik ham mumkin, bu jinsiy xarakterdagi harakatlarni o‘z ichiga oladi.

2. Psixologik maktab zo‘ravonligi - bola ruhiyatiga ta’sir qilish bilan bog‘liq zo‘ravonlik, psixologik travma doimiy haqorat, tahdid, ta’qib va qo‘rqitish orqali amalga oshiriladi.

"Jabrlanuvchi" doimiy ism qo‘ng‘iroq qilish (zararli taxalluslar), masxara qilish, yoqimsiz mish-mishlar tarqatish, izolyatsiya qilish, qo‘rqitish ("jinoyatchi" "jabrlanuvchini" o‘zi istamagan narsani qilishga majburlashi mumkin), tovlamachilik tufayli o‘zini ishonchsiz his qila boshlaydi. Pul, oziq-ovqat, biror narsani o‘g‘irlashga majburlash, mulkka zarar yetkazish va boshqa harakatlar (o‘g‘irlik, talonchilik, "jabrlanuvchining" shaxsiy narsalarini yashirish). Bu, shuningdek, “Kiberbulling”ni o‘z ichiga oladi - mobil telefonlar, internetdan foydalangan holda haqorat qilish, bahsli tasvirlar, fotosuratlar va mish-mishlarni tarqatish, ism-shariflar va boshqalar.

Shunday qilib, tahlillar asosida xulosa qilishimiz mumkinki, bezorilik deganda uzoq vaqt davomida bir shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga nisbatan tizimli ravishda amalga oshiriladigan zo‘ravonlik tushuniladi va bu harakatlar uzoq vaqt davomida jabrlanuvchiga zarar yetkazish va, zo‘ravonlikdan psixologik yoki jismoniy qoniqish olish.

Diagramma



Biz maktab muhitida o‘smirlar o‘rtasida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq holda, maktabda yoki undan tashqarida o‘quv jarayoni ishtirokchilari bilan sodir bo‘ladigan bezorilikni ko‘rib chiqamiz.

"Agressiya testi" (L.G. Pochebut) natijalari bir xil bo‘lib qoldi, o‘smirlarning 31 foizi past darajadagi tajovuzkorlik va yuqori darajada moslashtirilgan xatti-harakatlarga ega. Qolgan 69% o‘smirlar o‘rtacha tajovuzkorlik va moslashish darajasiga ega.

Agressiya shkalasi natijalariga ko‘ra, natijalar bir xil bo‘lib qoldi: sinfdagi o‘smirlarning 16 foiz-ida jismoniy tajovuzkorlik darajasi yuqori, 12 foizida ob’ektiv tajovuzkorlik darajasi yuqori, o‘smir-larning 19 foizida yuqori darajada. o‘z-o‘ziga tajovuz.

Jadval-1

"Agressiya testi" usuli yordamida miqdoriy ma’lumotlar (L.G. Pochebut)

Tajovuzkorlik darajasi	Og‘zaki tajovuz		Jismoniy tajovuz		Ob’ektning tajovuzkorligi		Emotsional agressiya		O‘z-o‘zini shikastlash	
	n	%	n	%	n	%	n	%	n	%
O‘lchovdagi tajovuzkor-lik va moslashuvchan-likning normal darajasi.	26	100	22	84	23	88	26	100	26	81
O‘lchov bo‘yicha yuqori darajadagi tajovuzkorlik va past darajadagi moslashuvchanlik	0	0	4	16	3	12	0	0	5	19

Eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi tajovuzkorlik darajasidagi ("Agressiya testi" usuli bo‘yicha) va sotsiometrik maqom indeksidagi ("Sotsiometriya") farqlarning ishonchliligini aniqlash uchun natijalarni taqqoslash amalga oshirildi. Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida guruhlar o‘rtasidagi farqlarni baholash mumkin. O‘smirlar o‘rtasida zo‘ravonlikning oldini olish dasturidan oldin guruhlar barcha o‘rganilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha bir xil ko‘rsatkichlarga ega edi.

Nazorat bosqichida ko‘rsatkichlardagi farqlar aniqlandi: nazorat guruhidagi o‘smirlarning tajovuzkorlik darajasi eksperimental guruhdagi o‘spirinlarga qaraganda yuqori, eksperimental guruh ishtirokchilarining sotsiometrik holati esa o‘smirlarnikidan yuqori edi. nazorat guruhi. Binobarin, pro-filaktika ishlari barcha o‘zgaruvchilarda ijobiy tomonga sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi.

Ikkala guruh - nazorat va eksperimental natijalarni solishtirsak, sinfda zo‘ravonlik holatlarining mavjudligini aniqlash uchun "Bezorilik so‘rovi (o‘z-o‘zini baholash)" usulidan foydalangan holda, 6-"B" sinfida "jabrlanganlar" soni ko‘proq ekanligini ko‘rish mumkin. va zo‘ravonlik holatlarining o‘zi 6 "B" eksperimental guruhiga qaraganda ko‘proq. Shunday qilib, nazorat guruhida qo‘rqitish "qurbonlari" sinfning umumiy sonidan 46%, eksperimental guruhda esa 27%, deyarli ikki baravar kam. Shuningdek, nazorat guruhida zo‘ravonlik holatlarining 31% uzoq vaqt davomida sodir bo‘ladi; eksperimental guruhda bu foiz pastroq va 23% ni tashkil qiladi.

Wilcoxon T-testi yordamida natijalarni hisoblash shuni ko‘rsatdiki, empirik T qiymati "ahamiyati" bo‘yicha muhimlik zonasiga to‘g‘ri keladi. Eksperimental guruhda tajovuzkor xatti-hara-katlar va moslashuvchanlik darajasining pasayishi (Temp. = 153), shuningdek, guruhdagi o‘smirlarning sotsiometrik holatining biroz yaxshilanishi (Temp. = 3) bo‘yicha ijobiy tendentsiya kuzatildi.

Nazariy tahlildan foydalanib, zo‘ravonlik uzoq vaqt davomida bir shaxs yoki bir guruh shaxslar tomonidan o‘zini himoya qila olmaydigan shaxsga nisbatan tizimli ravishda amalga oshiriladigan zo‘ravonlik ekanligini aniqladik.

O‘smirlik davrida zo‘ravonlikning asosiy sabablarini tashqi, shaxsiy va oila ichidagilarga bo‘lish mumkin.

- tashqi sabablar - bu o‘smir tahsil olayotgan ta’lim muassasasining muhiti,
- shaxsiy sabablar o‘smirlik tajribasiga asoslangan bo‘lib, psixologik va fiziologik o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi,
- oila ichidagi sabablar esa ota-ona aka-uka, opa-singil va bola munosabatlaridagi muammolardan kelib chiqadi. Bu sabablar o‘smirning psixologik o‘zgarishlari va uning tajribalari bilan bog‘liq bo‘lib, "huquqbuzar" va "jabrlanuvchi" uchun ham amal qiladi.

Individual xususiyatlarni hisobga olgan holda potentsial “bezorilar” va “jabrlanuvchilar” bilan individual ishlarni olib borish muhim, zo‘ravonlikning oldini olishda yaxshi natijaga erishish uchun qo‘rqitishning oldini olish bo‘yicha guruh ishlari butun maktabda va har bir sinfda alohida o‘tkazilishi kerak.

Amaliy tadqiqot davomida darslarda bezorilik holatlari mavjudligiga tashxis qo‘yildi, o‘smirlarning tajovuzkorlik darajasi o‘lchandi, potentsial “jabrlanuvchilar” va “huquqbuzarlar”ni aniqlash uchun “Sotsiometriya” o‘tkazildi.

Shu munosabat bilan o‘smirlar o‘rtasida bezorilikning oldini olish dasturi tanlab olindi, unda nizolarda konstruktiv javob berish, tajovuzkor reaksiyalarni kamaytirish, shaxslararo munosabatlarni optimallashtirish va bag‘rikenglikni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar mavjud. Treninglar davomida ishtirokchilar faol ishladilar, o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar, darslarning taklif etilgan mavzularini qiziqish bilan muhokama qilishdi.

Dastur natijasida o‘smirlar o‘rtasida bezorilik holatlarining kamayishiga erishildi, takroriy diagnostika dastur samaradorligini isbotladi.

Tadqiqot belgilangan maqsadiga erishildi. O‘smirlar o‘rtasida bezorilik va uning oldini olish bo‘yicha barcha belgilangan vazifalar bajarildi. Tashxis o‘tkazildi va o‘smirlar o‘rtasida bezorilikning oldini olish dasturi tanlandi, bu qayta tashxis qo‘yish natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Xulosa. Bulling - bu tasodifiy, bir martalik yoki kamdan kam sodir bo‘ladigan holat bo‘lmasdan, balki doimiy ravishda shaxsga yo‘naltirgan psixologik, fiziologik va verbal ko‘rinishdagi tizimli tahqirlash hisoblanadi; Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sinfda “himoyachilar” qanchalik ko‘p bo‘lsa, bulling holatlari shunchalik kamayadi. Umumiy va ezgu g‘oya asosida birlashgan bolalardan tarkib topgan “jamoa”, sinfda bulling holatlarini bartaraf etilishiga olib keladi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Реан А.А., Новикова М.А., Коновалов И.А., Молчанова Д.В. Руководство по противодействию и профилактике буллинга: Методические рекомендации – Москва, 2019.
2. Доклад ООН о положении дел в мире в области профилактики насилия в отношении детей 2020 г.: резюме. ISBN 978-92-4-000713-0 (Версия онлайн).
3. Воробьева К. Детская агрессивность как следствие деструктивного семейного воспитания / К. Воробьева // Воспитание школьников. – 2008. – № 7. – С. 48–56.
4. Jalolov J., Makhkamova G., Ashurov Sh. English Language Teaching Metodology (theory and practice). –T: Фан ва технология, 2015. –336 б.
5. Краевский В.В. Методология педагогики: новый этап. -М.: Академия, 2006. - 393с.
6. Каримова О., Гафаров З. Основы государства и права. – Тошкент, 1995.- 218 б.

Abdullayev Amrullo Nassulloyevich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti

HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARING SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA ILMIY METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. *Harbiy ta'lim fakulteti talabalarining shaxslilik sifatlarini tadqiq qilishning ilmiy metodologik asoslari, milliy iftixor, o'zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi va rivojlanganligini aniqlash uchun ta'lim-tarbiyani masalasi hali ham ko'plab professor-o'qituvchi va mutaxassislarining e'tiborini tortib kelmoqda. Hozirgi vaqtda ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishi turli yoshdagilarda harbiy xizmatchilarni tarbiyalash masalasiga qaratilgan va bu qobilyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-mashg'ulot jarayonlari pedagogik muloqotni o'zlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga hamda talabalarda imkon qadar , pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning sifat darajalarini yuqori darajada rivojlantirishga yordam beradi. Mazkur maqolamiz manashu muammolarning yechimiga bag'ishlangan bo'lib, maqolada harbiy ta'lim muassasalari talabalarining, pedagogik muloqot omillarini shakllantirishning rivojlanganlik darajalari tadqiq etilgan.*

Kalit so'zlar: *Xususiy metodologiya, Shaxslararo idrok, pragmatik funksiyasi, stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti, vatanparvarlik tuyg'ularining shakllanganligi.*

PSYCHOLOGICAL AND SCIENTIFIC METHODOLOGICAL BASIS OF RESEARCHING PERSONALITY QUALITIES OF STUDENTS OF THE FACULTY OF MILITARY EDUCATION

Abstract. *The scientific methodological basis of researching the personality qualities of students of the faculty of military education, the issue of education to determine the formation and development of national pride, self-awareness, patriotism is still a problem for many professors and teachers. attracts the attention of experts. Currently, the interest of many researchers is focused on the issue of education of military servicemen at different ages, and the training processes aimed at developing these abilities are aimed at creating favorable conditions for mastering pedagogical communication and, as much as possible, the formation of quality factors of pedagogical communication in students. helps to develop the levels at a high level. This article is dedicated to the solution of these problems, and the development levels of formation of pedagogical communication factors of students of military educational institutions are studied in the article.*

Key words: *Private methodology, Interpersonal perception, pragmatic function, Stereotyping effect, formation of patriotic feelings.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И НАУЧНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ЛИЧНОСТНЫХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ФАКУЛЬТЕТА ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *Научно-методическая основа исследования качеств личности студентов факультета военного образования, проблема воспитания, направленная на формирование и развитие национальной гордости, самосознания, патриотизма, до сих пор остается проблемой для многих профессоров и преподавателей. внимание специалистов. В настоящее время интерес многих исследователей сосредоточен на проблеме воспитания военнослужащих разного возраста, а процессы обучения, направленные на развитие этих способностей, направлены на создание благоприятных условий для овладения педагогическим общением и, по возможности, формирования качественные факторы педагогического общения у студентов помогают развивать его на высоком уровне. Решению этих проблем посвящена данная статья, а также изучены уровни развития факторов педагогического общения курсантов военно-учебных заведений.*

Ключевые слова: *Частная методика, Межличностное восприятие, прагматическая функция, Стереотипический эффект, формирование патриотических чувств.*

Hozirgi zamonaviy fan nuqtai – nazarida «metodologiya» atamasi uchta turli darajadagi ilmiy yondashuv asosida anglanadi.

Umumiy metodologiya – tadqiqotchi tomonidan qabul qilinadigan umumiy falsafiy yondashuv, umumiy bilish usuli, umumiy anglash usuli. Umumiy metodologiya tadqiqot jarayonida anglangan yoki anglanmagan tarzda qabul qilinadigan eng umumiy tamoyillarni shakllantiradi. Xususan, ijtimoiy psixologiya uchun jamiyat va shaxs, inson tabiati masalalarini tushunilishini aniqlash zarur. Umumiy metodologiya sifatida tadqiqotchi turli falsafiy tizimlarni qabul qilishi mumkin.

Harbiy ta'lim fakulteti talabalaring shaxslilik sifatlari tadqiqida ham biz, shaxs va jamiyat kategoriyalarini umumiy metodologik tamoyil sifatida asos qilib oldik.

Xususiy (yoki maxsus) metodologiya – ma'lum bir bilimlar sohasi qo'llanadigan metodologik tamoyillar majmuidir. Xususiy metodologiya tadqiqotning o'ziga xos ob'yektiga nisbatan qo'llanadigan falsafiy tamoyillarning o'rganilishini taqozo etadi. Bu ham o'ziga xos bilish usuli, ammo bilimlar sohasining birmuncha tor doirasiga moslashtirilgan usuldir. Ijtimoiy psixologiyada uning ikki soha asosida kelib chiqishi bilan bog'liq holda maxsus metodologiya ham psixologiya, ham sotsialogiya tamoyillariga mos kelishi lozim. Misol tariqasida faoliyat tamoyilini ijtimoiy psixologiyada qanday qo'llanishini olish mumkin. Sotsialogiyada keng ma'nodagi faoliyat falsafiy tamoyili insonning jamiyatda hayot kechirishi usuli, insonlar faoliyati orqali yuzaga chiqadigan ijtimoiy qonuniyatlarning amalga oshirilishi sifatida qaraladi. Faoliyat yaratadi va individlarning, shu bilan birga butun jamiyatning hayot kechirishi shart – sharoitlarini o'zgartiradi. Aynan faoliyat orqali shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirishadi. Psixologiyada esa faoliyat inson faolligining o'ziga xos turi, inson – sub'ekt tegishli tarzda ob'ektga nisbatan munosabatda bo'lishi, uni tasarruf etishi sifatida namoyon bo'ladigan sub'ekt – ob'yekt munosabati ko'rinishi sifatida qaraladi. Faoliyat davomida inson o'z qiziqishlarini qondiradi va shu asosda dunyoni o'zgartiradi. Shu bilan birga, kishi o'z ehtiyojlarini qondirishi jarayonida yangi ehtiyojlarning tug'ilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, faoliyat davomida inson shaxsi rivojlanuvchi jarayon sifatida yuzaga chiqadi [33].

Muloqot psixologiyasida qo'llaniladigan kategoriyalardan yana biri mehnat guruhi psixologiyasidir.

Axloqiy – etik me'yorlar inson faolligining barcha shakllarini qamrab oladi, ular universaldir, ammo har bir sohada ushbu yozilmagan qonunlar o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Bunday qoidalar to'plami odatda professional etika deb ataladi. Azaldan tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar va boshqa kasb egalari uchun axloqiy qoidalar to'plami mavjud.

Professional etikaning muhim shakllaridan birini muloqot etikasi tashkil etadi, chunki, uning zamiridagi bosh omil inson omilidir.

G.M. Andreyevaning fikriga ko'ra, muomalaning eng muhim birligi muloqot sanalib, motivatsiyada motiv qanchalik ahamiyat kasb etsa, u ham muomalada xuddi shunday muhim rol uynaydi. Muomala hamkorlik faoliyatining ehtiyojidan vujudga keluvchi, shaxslararo muloqot rivojining ko'p qirrali jarayonidir. Jahon psixologiyasi fanida e'tirof etilganidek, muomala ushbu tarkiblardan tashkil topgan bo'ladi.

1. Kommunikativ (asosan bir tomonlama) axborot uzatish.
2. Interaktiv (ikki tomonlama o'zaro ta'sir).
3. Perseptiv (o'zaro bir-birini idrok qilish).

1. Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilaridan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo'lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bulmish nutq faoliyatiga bevosita murojaat qiladilar.

2. Muomalaning ikkinchi tomoni muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so'z orqali fikr almashinuvi, balki xatti-harakati va xulq-atvori bilan ham ta'sir o'tkazish hamda ta'sirlanishdan iboratdir.

3. Muomalaning uchinchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kiruvchilarning (muloqotdoshlarning) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayonida namoyon bo'ladi, insonning inson tomonidan idrok qilishi yuzaga keladi. Bu jarayonning eng zarur tomoni unda muloqotga kipishuvchi sheriklarning biri aqlli, farosatli, tajribali, saviyasi yuqori inson sifatida ikkinchisining ishonchini qozonganligi uchun uni idrok qilish juda muhim ekanligi anglanadi yoki bir-birlarini oldindan u bari bir hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, degan taxminga suyangan ruhiy holat vujudga keladi [33, B. 79 – 174.].

Muomala ishtirokchilarining aloqaga kirishish jarayonida bir-birlariga nisbatan ular uchun u yoki bu darajada muhim bo‘lgan muayyan maqsadlarni ko‘zlashlari odatiy holdir, bu maqsadlar o‘z mazmuniga ko‘ra bir-biriga mos kelishi yoki bir –biridan farq qilishi mumkin. Mazkur maqsadlar – muomala ishtirokchilarida mavjud bo‘lgan ma’lum motivlar ta’sirida yuzaga kelib, ularni amalga oshirish har bir insonda muomalaning ob’ekti va sub’ekti sifatlarini rivojlanishi davomida shakllanadigan turli xulq-atvor usullaridan doimiy foydalanishni taqozo qiladi.

O‘z shakli va turiga ko‘ra shaxslararo muloqot juda xilma-xildir. Be’vosita va bilvosita muloqot, verbal (so‘z orqali) va noverbal (imo-ishora, mimika, hatti-harakatlar orqali) shakllarga ajratiladi.

O‘z vazifasiga ko‘ra muomala ko‘p funksiyalidir. Muomala funksiyalaridan 5 ta asosiysini ajratib ko‘rsatish mumkin [140, B. 94-96].

1. Muomalaning pragmatik funksiyasi. Birgalikdagi faoliyat jarayonidagi kishilarning o‘zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

2. Muomalaning shakllantiruvchi funksiyasi. Insonning psixik qiyofasi shakllanishi va o‘zgarishi jarayonida yuzaga kelib, o‘zgalar tajribasini qabul qilish, o‘zlashtirish, qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

3. Muomalaning tasdiqlovchi funksiyasi. shaxslilik sifatlarida inson o‘z-o‘zini anglash, o‘zligini tasdiqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z mavjudligini, qadr-qimmatini tasdiqlash xoxishi insonni o‘zgalardan «tayanch nuqtasi» qidirishga undaydi.

4. Muomalaning shaxslararo munosabatlarni tashkil etish va ta’minlash funksiyasi. O‘zga kishilarni idrok etish va ular bilan turli munosabatlarga kirishishni amalga oshirish. Har qanday kishi uchun o‘zgalarga baho berish ma’lum emotsional (ijobiy yoki salbiy) munosabatlarni o‘rnatishda ko‘rinadi.

5. Muomalaning shaxs ichki dunyosi bilan bog‘liq funksiyasi. Kishining o‘z-o‘zi bilan (ichki yoki tashqi nutq vositasida, dialog tipida qurilgan) muloqoti.

Ko‘pgina hollarda, muomala deb ataluvchi insonlarning shaxslararo munosabatlari faoliyat bilan chambarchas bog‘liq holda uning amalga oshirilishining sharti sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, muomala xizmat qilayotgan faoliyat turi faoliyat qatnashchilari orasidagi muomala mazmuniga, shakliga, uning jarayoni oqimiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Boshqa effekt – «izchillik effekti» bo‘lib, u ma’lumotlar ziddiyatli bo‘lgan taqdirda inson qiyofasini va u to‘g‘risidagi tasavvurni shakllantirishga birinchi navbatda kelib tushgan ma’lumotlar eng ko‘p ta’sir etishida namoyon bo‘ladi. Agar bu tanish odamga daxldor bo‘lsa, aksincha, eng oxirgilari ko‘p ta’sir ko‘rsatadi.

«Stereotiplashtirish (qoliplashtirish) effekti» idrok etilayotgan kishini muayyan ijtimoiy guruhga xos xislatlar unga ham xos deb qarashda namoyon bo‘ladi. Har birimizda muayyan ijtimoiy stereotiplar – o‘qituvchi, harbiy kishi, jinoyatchi kabi guruhlarning stereotiplari mavjud. Muayyan guruhning vakiliga duch kelganda, biz oldindan unga ushbu guruh vakillari bo‘lgan kishilarga xos muayyan xislatlarni unga ham xos deb qabul qilamiz. Ko‘pincha bunday stereotipdan xalos bo‘lish juda qiyin bo‘ladi [82].

Harbiy ta’lim fakulteti talabalaring kasbiy mahoratini hamda ular zimmasiga yuklatilgan funksiyalarning muvaffaqiyatli bajarilishini ko‘p jihatdan belgilab beruvchi muhim tarkibiy qism kasbiy muomala ko‘nikmalarini egallash va o‘z xizmat vazifalarini bajarish chog‘ida fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnata olish qobiliyatini shakllantirish bo‘lib hisoblanadi.

Psixologik aloqa o‘rnatish muloqotning kerakli yo‘nalishida rivojlanishini va belgilangan maqsadga erishilishini ta’minlovchi sharoitlarni yaratishga qaratilgan, maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtiriladigan faoliyatdir. Psixologik aloqa o‘rnatishda muloqot rivojlanishi umumiy jarayonning bir qismini qamrab oluvchi bir necha bosqichlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

– muloqotni oldindan rejalashtirish;
– aloqa o‘rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish;
– tashqi kommunikativ xislatlarni namoyon etish;
– kelishuvlarni to‘plash;
– umumiy va neytral qiziqishlarni izlab topish;
– muomaladagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlar;
– individual ta’sir etish.

Muloqotni oldindan rejalashtirish. Psixologik aloqa o‘rnatish chog‘ida maqbul tarzdagi munosabatga erishish uchun harakatlarning avvaldan tuzilgan rejasiga ega bo‘lish, bo‘lg‘usi

muloqotning qanday kechishini oldindan ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun muloqotga kirishish mo‘ljallanayotgan shaxs haqida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lish zarur. Masalan, uning muomalaga kirishuvchanlik xislatlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish lozim. Shaxs bilan aloqaga kirishishni osonlashtiradigan ochiqlik, qiziquvchanlik, kirishimlilik, xushmuomalalik, odoblilik kabi xislatlar ham mavjud. Shu bilan birgalikda, aloqa o‘rnatishni qiyinlashtiradigan ortiqcha asabiylik, jizzakilik, tajovvuzkorlik, shubhaga beriluvchanlik, alamzadalik kabi shaxsiy xislatlar mavjud. Muloqotni oldindan rejalashtirish chog‘ida yuqorida sanab o‘tilgan xislatlarning mavjudligini doimo inobatga olish zarur.

Aloqa o‘rnatishni osonlashtiruvchi tashqi sharoitlarni yaratish. Har bir muayyan vaziyatda tashqi sharoitlar shaxslilik sifatlarida muloqot qilish zarur bo‘lgan ijtimoiy rolga ideal ravishda mos kelishi kerak. Hech narsa muloqotga xalaqit bermasligi, suhbatdoshingizni chalg‘itmasligi kerak. Vaziyat ishonchli suhbatga moyil bo‘lishi lozim. Shaxslararo masofa, shaxsiy maydonlar haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish hamda ulardan shaxslilik sifatlarida unumli foydalanish zarur.

Kasbiy muloqot – xodimning muayyan qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etuvchi anchagina murakkab jarayon bo‘lib, mazkur qobiliyatlarning rivojlantirilishi bojxona xodimi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovi sifatida yuzaga chiqadi va bojxona tizimi samaradorligini oshirishga ijobiy ta’sir etadi.

Kommunikatsiya jarayonida odamlar haqida axborot olish, ularga baho berishda verbal kommunikatsiya – so‘z, og‘zaki va yozma nutq keng qo‘llaniladi, ammo olimlarning ta’kidlashlaricha noverbal belgilar – mimika, vizual aloqa (ko‘z kontakti), muomalaning masofa va vaqt o‘lchamlari, jestlar, tana harakatlarini o‘qiy olish samarali muloqotning muhim shartidir [55].

Shunday qilib biz yuqorida shaxslilik sifatlarini psixologik jihatdan tadqiq qilishning metodologik tomonlariga to‘xtalib o‘tdik. Unda asosiy e’tiborimizni shu yo‘nalishda psixologiya fanida mavjud bo‘lgan turli xil ilmiy qarashlar va yondashuvlarga qaratdik. Endi tadqiqot predmetini o‘rganishga safarbar etilgan psixologik metodlar tavsifini ko‘rib chiqishga o‘tamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy. Fazilat, baxt-saodat va kamolot haqida. – Toshkent: Yozuvchi, 2002.- B.62.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.- 224 b.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy «Al Jomi’ as– sahih». – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. 4-jild.- 526 b.
4. Alisher Navoiy. Mahbub – ul – qulub. – Toshkent, 1983.- 138 b.
5. Amir Temur va Temuriylar madaniyati va san’ati. – Toshkent: F. Fulom, 1996.- 88 b.
6. A’zamxo‘jayeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi: Dis. … psixologiya fanlari nomzodi. – Toshkent, 2002.- 160 b.
7. Barotov Sh.R. Sotsialno-psixologicheskiye i nauchno-prakticheskiye osnovi sozdaniya psixologicheskoy slujbi v Uzbekistane: Avtoref. dis. … dokt. psixol. nauk. – Tashkent, 1998.- 37 s.

Aminova Gulnoza Nasritdinovna
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti tadqiqotchisi

IJTIMOIY KOMPETENTLIK - MAKTABGACHA TA`LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI KASBIY KOMPETENLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarni ijtimoiy kompetentligining ilmiy-nazariy asoslari va imkoniyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlikning mazmun-mohiyati ilmiy asoslab berilgan..*

Kalit so'zlar: *iroda, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, funksional yondashuv, psixolik mexanizm, qobiliyat, shaxslilik, mustaqil fikrlash, ta`lim-tarbiya, professiogramma, dinamik yondashuv, pedagogik mahorat.*

СОЦИАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ - КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИО-НАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТ-НОСТИ ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. *В данной статье раскрываются основы и возможности научно-теоретической основы социальной компетентности педагогов дошкольного образования. Также научно обосновано содержание социальной компетентности.*

Ключевые слова: *воля, социально-психологическая компетентность, функциональный подход, психологический механизм, способности, личность, самостоятельное мышление, образовательная профессия, динамический подход, педагогическое мастерство.*

SOCIAL COMPETENCE - AS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF PRESCHOOL TEACHERS

Abstract. *This article reveals the foundations and possibilities of the scientific and theoretical basis of the social competence of preschool teachers. The content of social competence is also scientifically substantiated.*

Key words: *will, socio-psychological competence, functional approach, psychological mechanism, abilities, personality, independent thinking, educational profession, dynamic approach, pedagogical skill.*

Kirish. Respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar,ayni paytda ushbu tizimda mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlarni yetishtirish vazifasini qo'ymoqda. Ushbu vazifaning amaliy jihatdan bajarilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom psixologik muhitning yaratilishi bilan bevosita bog'liqdir.Jumladan har bitr tarbiyachida shaxslilik xususiyatlari va ijtimoiy - psixologik kompetentlik o'rtasidagi ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlovchi psixologik mexanizmlarning faoliyat samaradorligiga bevosita ta'sirini belgilab beruvchi omillarni aniqlash,tadqiq qilish asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy-psixologik kompetentlikni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va uni bevosiya amaliyotda qo'llash masalasini yoritib berish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- son " O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida" farmoni, 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son O'zbekiston Respublikasi Bolalar bog'chalariga qadar ta'lim vazirligining 2018 yil 5 apreldagi PK-3651-son "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son "Maktabgacha ta`lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me`yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dessertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Metodologiya. Psixologiyada muayyan darajadagi ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarini o'rganish va tadqiq qilish bo'yicha xorijda, Rossiyada va O'zbekistonda ko'plab tadqiqotlar olib borilgan . Ushbu tadqiqotlarda muammoning metodologik asoslari ochib berilgan. Chunonchi, har bir tadqiqotchi mazkur muammoga o'z yondashuvlari va o'ziga xos ilmiy-amaliy tajribalar asosida yondashadi. Ushbu yondashuvlarning umumiy jihati shundaki, aksariyat tadqiqotchilar ijtimoiy-

psixologik kompetentlik masalasini kasbiy kompetentlikning shakllanish jarayoni bilan bevosita bog‘laydilar. Chunki shaxsning o‘zi tom ma`noda ijtimoiy mavjudot bo‘lganligi uchun,uning kasbiy yo‘nalganligi va kasbiy layoqatning namoyon etilishi va bevosita muayyan darajadagi ijtimoiy-psixologik omillar bilan belgilanadi. Shu ma’noda har bir ijtimoiy-psixologik kompetentlik omili shaxs kasbiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan quyida tahlil qilinadigan har bir talqin ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillarining u yoki bu darajasining uslubiy omillarini aniqlashga xizmat qiladi . Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy mahoratini oshirish ularda ma’lum darajadagi ijtimoiy-psixologik kompetentsiyani shakllantirish jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, bu haqda bizning ilmiy ishlarimizda bir qator qomusiy olimlarimiz asarlarida ham bayon etilgan. Qolaversa, ijtimoiy-psixologik kompetentlik omillari,qadimdan sharq mutafakkirlari tomonidan yaratilgan durdona asarlarning asosini tashkil qilib kelgan. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Donish va boshqalar tomonidan yozilagan asarlarda muammo atroflicha qilingan [3] .

Shuningdek, sharq mutafakkirlaridan buyuk orasidan buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta’lim-tarbiyaning ijtimoiylashuvi to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, ta`lim-so‘z va ko‘nikmalar majmui,tarbiya amaliy malakalardan iborat ish harakat ekanligi,ijtimoiylashuv o‘z hayoti davomida xalqning ijtimoiy-siyosiy,ma`naviy-ruhiy qarashlari ta`siri ostida shakllanishini e`tirof etadi [5].

Buyuk qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning fikriga ko‘ra, shaxsning shakllanishida uning atrofini o‘rab turgan tashqi muhit va odamlar ta’siri alohida rol o‘ynaydi. Aynan mana shu tashqi olam va odamlar insonning nafaqat atrofdagi olam haqidagi bilimiga, balki uning ruhiy holatiga ham ta'sir qiladi [4]. Yusuf Xos Xojibning mulohazalarida har bir kishi jamiyatga munosib bo‘lib kamol topmog‘i lozim. U qobil shaxsning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning ruhiy xususiyatiga e`tibor berishni ta`kidlaydi.

Voiz Al-Koshifiyning ta`kidlashicha, insonni ta’lim-tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobiliyatini o‘stirish mumkin. Koshifiy o‘zining psixologik qarashlarida shaxsda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasiga alohida e’tibor berib ota-onalarning, o‘qituvchilardan bu masalaga alohida ahamiyat berishlarini talab qilishi lozimligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, buyuk mutafakkirimiz Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida tarbiyachining odobi, muloqotchanligi va o‘z kasbiga sadoqatini ifodalovchi juda ko‘plab jihatlar haqida alohida mushohadalar yuritganlar. Ushbu mushohadalarda bevosiya tarbiyachining ijtimoiy-psixologik kompetenliigiga daxldor fikrlar mujassamdir .

Mulohaza. Ijtimoiy kompetentlik - shaxslararo munosabatlar jarayonida faollik ko‘rsatish ko‘nikma va malakalariga egalik,kasbiy faoliyatda shaxslararo muloqotga kirisha olishga aytiladi.Ijtimoiy-psixologik kompetentlik mutaxassisning shunday kasbiy faoliyati nazarda tutiladiki,bunda yetarlicha yuqori darajadagi pedagogic faoliyat,pedagogic muomalaga urg‘u beriladi.Binobarin,tarbiyachining ijtimoiy-psixologik kompetentlikligini uning malakalari va psixologik sifatlar mutanosibligi bilan baholash mumkin .

A.A. Dunyushinning fikriga ko‘ra, shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni qo‘llash qobiliyatidir. Ushbu ta'rif muallif tomonidan quyidagi bir nechta mulohazalar orqali aniqlangan:

a) kompetentlik sub'ektning o‘ziga xos faoliyati tavsifi sifatida qaralishi mumkin;

b) kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyatning maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog‘liq;

v) hissiy iroda va kommunikativ xususiyatlar, aql-zakovat, shaxslararo munosabatlar va shaxsiy yo‘nalish kompetentsiya uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

A.A. Verbitskiy va M.D. Ilyazova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi ta'rif berilgan: kompetentsiya - bu shaxs tomonidan faoliyatni amalga oshirishni ta'minlaydigan maqsadlar, qadriyatlar, motivlar, individual xususiyatlar, bilim, ko‘nikma, ko‘nikma, malaka va tajribalar yig‘indisidir; kompetentlik esa amaliy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash darajasi hamda shaxsning ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish darajasi bilan bir xil ahamiyatga ega . Bu yerdagi ta'rifdan quyidagi xulosaga kelish mumkin: kompetensiya - maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish mexanizmi, kompetentlik esa bu jarayonni amalga oshirishda uchun zarur bo‘lgan axloqiy fazilatlar yig‘indisidir.

E.A. Panko tomonidan taklif etilgan kasbiy profil pedagogning kompetentsiyasining tuzilishini yoritishga xizmat qiladi. Bunda asosan ta'lim jarayoni ob'ekti va sub'ektlari o'rtasidagi aloqadorlikni ifodalovchi pedagogik-psixologik imkoniyatlar ko'lami ochib beriladi. Mazkur kasbiy dastur mutaxassisning kasbiy malakasini oshirishga qaratilgan pedagogik mahoratning o'sish dinamikasini ta'minlashga xizmat qiladi . Bizningcha, agar tarbiyachi o'z kompetentligi ustida ko'proq ishlasa, uning pedagogik mahorati ham takomillashib boraveradi.

M.A. Holodnaya tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda: kompetentlik insonning ichki psixologik va tashqi jismoniy harakatlarga kirishish jarayonida samarali qarorlar qabul qilishga imkon beruvchi predmetli o'ziga xos bilimlarni tashkil etishning maxsus ko'rinishi ekanligi alohida ta'kidlanadi. L.G. Semushina fikricha, mutaxassis kasbiy faoliyatini o'rganishda funksional yondashuv ko'rinishi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda tarbiyachi kasbiga predmetli va pedagogik malakalar, bilimlar asosida yondashuv tasvirlanadi [5] .

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilarining kompetentligi muammosi faoliyat va shaxsiy uyg'unligi jihatdan ham alohida tadqiq etilgan. (B.G. Ananyev, A.A.Bodalev, A.N.Leontyev, A.Maslou, A.G.Asmolov, G.Olport) [1]. Bunda tadqiqotchilar shaxsning individual-psixologik sifatlari, faoliyat talablariga uyg'unlashtirilgan holda alohida yondashadilar .

Zero, har bir ilmiy talqin mazkur tadqiqotchilar tomonidan yaratilgan ilmiy konsepsiyalarga asoslanadi.

Quyidagi jadvalda biz kompetentlik bilan bog'liq olimlarning ishlarini sistemalashtirdik hamda ularni nazariy tahlil qilib, o'rganilayotgan muammoga daxldor tomonlarini metodologik asos sifatida oldik (1- jadval).

Jadval-1

Kasbiy kompetentlik bilan bog'liq psixologik omillarni tadqiq etgan olimlar

Beruniy Forobiy Navoiy	Insonlarni tushinish, muloqotmandlik, bemorning kechinmalariga "adekvat" sezuvchanlik, axloqiy ustanovkalarni "yuqori darajadagi axloqiy sifatlar deb ta'riflaganlar
D.Mayers	Emotsional intellektini kasbiy faoliyatiga ta'sirini o'rgangan.
Yan Van Ek	Verbal kompetenlikni rivojlantiruvchi omillarni tadqiq etgan
G.K.Ushakov	Sotsial-psixologik kompetentligi asosini ijtimoiy munosabatlar tashkil qilishin isbotlagan.
M.M.Kabanov	Kommunikativ kompetentligni tadqiq qilgan
N.Zubareva	Kasbiy kompetentlikni "sotsial donishmandlik" deb ta'riflaydi
L.G.Matveeva	Kasbiy kompetentligini oshirish uchun "supervayzerlik treningi"ni taklif etgan.
M.X.Karamyan	Psixosomatik kasalliklarga ta'sir qiluvchi kasbiy kompetentlik omillarni tadqiq etgan
D.A.Sobirova	Tibbiyot xodimlarini sotsial-psixologik kompetentligini faoliyat samaradorligiga ta'sirini o'rgangan
I.M.Latipov	Bo'lajak hamshiralarda kasbiy mahoratni oshirishda ijtimoiy tasavvurlarni o'rni va ahamiyatini asoslab bergan.

Shuningdek, respublikamizda amalga oshirilgan ushbu tadqiqotlarning umumiy tavsifiga murojaat qiladigan bo'lsak, birinchi navbatda professor M.G. Davletshin, E.G`.G`oziyev, G`.B. Shoumarov rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda shaxsning muloqotmandlik,muomalaning o'quv faoliyatini boshqarishdagi roli, hamkorlik faoliyatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlarini alohida qayd etish mumkin [3].

Ammo mamlakatimiz psixologlarini tomonidan hanuzgacha ijtimoiy-psixologik kompetentlikning maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari faoliyati misolida atroflicha va to'liq o'rganilmaganligi kuzatilmoqda. Bu esa bugungi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari faoliyati misolida uning ijtimoiy-psixologik kompetentligiga daxldor bo'lgan imkoniyatlari ko'lamini aniq belgilab olishni taqozo etadi.

Xulosa. Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari uchun kasbiy faoliyatning turli sharoitlarda bir tomondan kasb talablariga mos kelishi, ikkinchi tomondan uning kasbiy rivojlanishiga rioya qilishi, hatto har qanday sharoitda ham ichki psixologik barqarorlikni saqlab turishi muhimdir.

Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy faoliyatining turli jihatlarini hozirgi davr talabi sifatida tushunish zarur. Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tadqiqotlarning tahlili kompetensiyani umumiy, ilmiy-nazariy nuqtai nazardan aniqlash imkonini bersa, ikkinchidan, u o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik kompetentsiya mezonlarini ishlab chiqish va amaliy foydalanishda ilmiy-nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilariga. Yuqorida keltirilgan barcha nazariy-uslubiy tahlillar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyasi to‘g‘risidagi g‘oyalarni shakllantirish uchun ma’lum darajadagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda tegishli ilmiy kuzatishlar olib borish imkonini beradi. Agar ushbu ilmiy mulohazalarni umumlashtirsak, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy faoliyati doirasida ijtimoiy-psixologik kompetentsiyani o‘rganish va tadqiq etish bugungi kunda ijtimoiy psixologiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligini yana bir bor e’tirof etishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Sh.X. Pedagog professional kompetentligini shakllantirishning ijtimoiy-psix-ologik mexanizmlari. (DSc) Muallif. - Toshkent, 2019 yil. – 61 b.

2. Ayzenk G.Yu. Intellekt tushunchasi va ta'rifi // Psixologiya savollari № 1. - M., 1995. – S. 111-131.

3. Barotov Sh.R va boshq. Eksperimental psixologiya. - Magistrlar uchun o‘quv qo‘llanma. – T.: Fan nashriyoti, 2008. - 108 b.

4. Ganjiyev F.F. Maktabgacha ta`lim muassasasi tarbiyachilari sotsial psixologik kompetentligining psixologik xususiyatlari // Psixologiya. Ilmiy jurnal - Buxoro 2020. № 2 (maxsus son). – B. 78–82. (19.00.00. №5).

5. Sobirova D.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilari sotsial intellekti bilan sotsial kompetentligi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish natijalari //Psixologiya ilmiy jurnali. № 2. – Buxoro, 2014.. – B. 71-77.

UDK: 159.9:373.3

Goyibnazarova Soxiba Shakarovna
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0003-5402-6468

OILA MUNOSABATLARIDA GENDER ROLLAR VA STREOTIPLARINING EMOTSIYALAR BILAN BOG‘LIQLIGI MUAMMOSI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oila munosabatlarida gender rollari va streotiplarining emotsiyalar bilan bog‘liqligi muammosi bayon etilgan va turli takliflar, oilaviy munosabatlarda xotin-qizlarga nisbatan jamiyatda kamchiliklarga barham berish yo‘llari ochib berilgan. Shu jihatdan ayollarning bandligini ta’minlash, ularning o‘z intilish va qobiliyatlarini to‘laqonli ro‘yobga chiqara olishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish masalasi butun dunyoda ham, davlatimizning ham doimiy diqqat markazida ekanligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Oila, munosabat, gender, huquq, tenglik, urf, shakllantirish, vazifa gender tenglik, qonun, ijtimoiy to‘siqlar.*

ПРОБЛЕМА СВЯЗИ ГЕНДЕРНЫХ РОЛЕЙ И СТЕРЕОТИПОВ С ЭМОЦИЯМИ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Аннотация. *В данной статье излагается проблема соотношения гендерных ролей и стреотипов в семейных отношениях с эмоциями и раскрываются различные предложения, пути преодоления недостатков общества в отношении женщин в семейных отношениях. В связи с этим вопрос обеспечения занятости женщин, расширения их возможностей для полноценной реализации своих стремлений и способностей находится в постоянном центре внимания как во всем мире, так и в нашем государстве.*

Ключевые слова: *Семья, отношение, пол, право, равенство, традиция, образование, долг, гендерное равенство, право, социальные барьеры.*

THE PROBLEM OF THE CONNECTION OF GENDER ROLES AND STEREOTYPES WITH EMOTIONS IN FAMILY RELATIONSHIPS

Abstract. *This article presents the problem of the correlation of gender roles and stereotypes in family relations with emotions and reveals various proposals, ways to overcome the shortcomings of society in relation to women in family relations. In this regard, the issue of ensuring women's employment and expanding their opportunities for the full realization of their aspirations and abilities is in the constant focus of attention both around the world and in our country.*

Key words: *Family, attitude, gender, right, equality, tradition, formation, duty gender equality, law, social barriers.*

Tadqiqotning dolzarbligi. Nikoh shakllanishidagi gender munosabatlar yoki er va xotin o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari gender tadqiqotlarda o‘z isbotini topgan. Gender o‘zini-o‘zi anglash jarayonida shaxsning subyektiv tajribasi ortadi va uning faol o‘zini-o‘zi rivojlantirish jarayoni jadallashadi. Bu jarayon o‘z navbatida nikoh munosabatlarini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik jihatini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi. Gender tengligini singdirish tizimli yondashuv va uzoq muddatni talab qiladigan jarayon. Uni ta’limning faqatgina ma’lum bir qismida yoki faqatgina oila instituti orqali singdirish mumkin emas. Shuning uchun ham ijtimoiy ongda gender bilan bog‘liq sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda oila-mahalla-ta’lim tizimining o‘zaro hamkorligini ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Dastavval, gender tengligini ta’minlashda oila institutining roliga to‘xtalib o‘tsak. Hech kimga sir emas, oila inson tarbiyasida eng asosiy rol o‘ynaydi, bola oilada tug‘iladi, ulg‘ayadi, olam haqidagi tasavvurlari unda shakllanadi, dastlabki axloqiy qoidalarni o‘zlashtiradi.Oilada insonning his-tuyg‘ulari tarbiyalanadi, olam, unda insonlarning o‘rni haqidagi qarashlari paydo bo‘ladi. Xuddi shu davrda bola ongida gender stereotiplar ham shakllanishni boshlaydi. Bu stereotiplarning shakllanishida bolaga jinsiga qarab qanday kiyim kiydirish, sochini turmak qilish, mashina yoki qo‘g‘ir-choq olib berish kabi bolaning ilk go‘daklik davridagi kattalarning qarorlari va xatti-harakatlari muhim

ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida bunday gender stereotiplarning inson ongida mavjudligi va xatti-harakatlarida aks etishi jamiyat, oilaning katta vakillari tomonidan qo‘llab quvvatlanadi. Ovqat pishirishga taqlid qilib o‘tirgan o‘g‘il bola yoki mashinalar rasmini chizishga qiziqadigan qiz bola kattalar tomonidan tanbeh olishi mumkin. Chunki gender stereotiplar ijtimoiy ongda chuqur o‘rin egallagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Oilada gender tenglik tamoyilini singdirishda kattalar, xususan, bolaning ota-onasida genderga oid to‘g‘ri, sog‘lom munosabatlar, qadriyatlar tizimi, dunyoqarash shakllangan bo‘lishi talab etiladi. Buni ikki jihat bilan bog‘lash mumkin. Avvalo, bolaning oiladagi eng asosiy tarbiyachilari ota va ona hisoblanadi. Agar ular bolaga gender bilan bog‘liq to‘g‘ri qarashlarni singdira olmasa, noto‘g‘ri ma’lumotlar berib borilsa, bola ilk marotaba o‘ziga aytilgan fikrlarni eng to‘g‘ri fikr deb qabul qiladi. Masalan, ota o‘g‘liga “Sen o‘g‘il bolasan, singillaringdan kuchlisan, ular seni hurmat qilishga, aytganlaringni qilishga majbur. Agar aytganingni qilmasa, ularni jazolash kerak” deb singdirsa, bola uchun u voyaga yetganida ham ayollarning erkaklarni hurmat qilishiga majburiy yo‘l bilan erishish eng to‘g‘ri qarorga aylanadi. Shuning uchun bolaga yoshligidan gender tengligi tamoyilini singdirish uchun ularning ota-onasida ham shu tamoyilni singdirish kerak bo‘ladi.Boshqacha qilib aytganda, tarbiyachining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, oilaviy tarbiyada shaxsiy namuna va ibrat ko‘rsatish eng asosiy ta’sir vositalaridan hisoblanadi. Agar ota o‘g‘liga “erkak kishi har doim ayollarni hurmat qilishi lozim” desa-yu, lekin o‘zi turmush o‘rtog‘i bilan yomon munosabatda bo‘lib kelsa, bola katta ehtimol bilan ulg‘ayganda ayollarga nisbatan shunday munosabatda bo‘ladi.Boshqacha qilib aytganda, qush inida ko‘rganini qiladi, deb bejiz aytilmagan.Gender bilan bog‘liq ilk qarashlar oilaviy muhitda shakllana boshlasa, ularning mustahkamlanib borishida ijtimoiy muhit, xususan bola yashayotgan mahallaning o‘rni ham katta bo‘ladi.Bejizga “bir bolaga yetti mahalla ota-ona” kabi maqollar xalqimizda yaratilmagan. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Mahalla – asrlar o‘sha milliy urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlab, xalqimiz uchun ezgulik va tarbiya beshigi, yaxshi qo‘shnichilik va hamjihatlik maskani. Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz” .[1,1]

Gender bilan bog‘liq sog‘lom dunyoqarashlarni shakllantirishda mahallaning amalga oshiradigan funksiyalari quyidagilardan iborat: – Bevosita va bilvosita tarbiyalash funksiyasi. Mahalla bu milliy o‘zini o‘zi boshqaruv shakli, fuqarolik jamiyati institutidir. U o‘zida insonlarning jipslashuvi, birgalikda jamiyatdagi muammolarni hal qilishi, yaxshi va yomon kunlarida birgabo‘lishi, qadriyatlarni saqlashi va rivojlantirishi kabi an’analarni, ijobiy tendensiyalarni jamlaydi. Shu bilan birgalikda, mahallaning yosh avlod tarbiyasidagi ta’siri ham beqiyos. Odatda mahalla avlodlar o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik hisoblanadi, unda yoshi katta bobo va buvilar yoshlarni tarbiyalashga e’tibor qaratadi. Xususan, mahalladagi yoshi kattalar, nuroniylar jamiyatda ayollar va erkaklarning huquqlari, o‘zaro munosabatlarida tenglik tamoyiliga amal qilinishi bilan bog‘liq bo‘lgan qarashlarni o‘zlarining so‘zlari va amallari bilan mahalladagi yosh avlodga singdirib, ularni tarbiyalab borishadi;

– Ijtimoiy hamkorlik funksiyasi.

Mahalla, eng avvalo, hamkorlikdagi insonlar uyushmasi. Insonlarning taqdiri mahalla bilan bevosita bog‘liq. “Ayni paytda, yurtimizda yashayotgan har bir inson, millati, tili va dinidan qat’i nazar, o‘z hayotini, quvonch-u tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur eta olmaydi”.[1,2]

Bu ijtimoiy birdamlik turli muammolarni yechishda va vazifalarni bajarishda hamkorlik qilish imkoniyatini taqdim etadi. Xususan, mahalla a’zolari gender tenglik tamoyilini yoshlarga singdirishda o‘zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Oilada gender bilan bog‘liq tarbiyadagi kemtiklar mahallada to‘ldiriladi, bola oilasidan ham, mahallasidagi yoshi katta insonlardan ham ayol va erkak o‘rtasida tenglik, o‘zaro munosabatning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirib boradi;

– Ijtimoiy nazorat funksiyasi.

Mahalla ijtimoiy nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy institut.Uning mavjudligi jamiyatdagi axloqiy normalar, milliy urf-odatlarning ta’minlanishiga ham xizmat qiladi.Gender masalasida mahallaning ijtimoiy nazoratni amalga oshirishi gender tengsizlikning kamayishiga olib keladi. Masalan, bola oilasida gender tengsizlik muhitida voyaga yetayotgan, ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikni kuzatayotgan bo‘lishi mumkin. Mahalla, qo‘ni-qo‘shnilar tomonidan bu jarayonga aralashuv, gender tengsizlik, oilaviymaishiy zo‘ravonlikni to‘xtatishga harakat qilish bolaning ongida gender tengsizlik axloqsizlik, yomon illat ekanligiga oid tushunchalarni shakllantirishga xizmatqiladi. Bu esa yoshlarni gender tenglik tamoyili ruhida tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb etadi. Gender tenglikni yoshlarga singdirish masalasida oila va mahalla institutlaridan tashqari ta’lim tizimining ham

ahamiyati katta. Chunki bolada nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘ri ekanligi haqidagi qarashlar maktabgacha ta’lim muassasasi, maktab va keyinchalik oliy ta’lim muassasasi orqali ham shakllantirilib boriladi. Bunda eng asosiy ko‘rsatkich ta’lim tizimining tashkil etilish xususiyati bilan bog‘liq. Ya’ni mamlakatimizda ta’lim dunyoviy bo‘lib, o‘g‘il bolalar va qiz bolalar birgalikda sinf-dars ko‘rinishida tahsil olishadi. Maktabda o‘g‘il va qizlar ilk marotaba oila a’zosi bo‘lmagan qarama-qarshi jins vakillari bilan ko‘p vaqt o‘tkazadi. Aynan sinfdagi qizlar va o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan munosabatlar tizimining mavjudligi yoshlar ongida genderga nisbatan to‘g‘ri dunyoqarash shakllanishiga asos bo‘ladi. Maktabda o‘qitilayotgan fanlar va dars mashg‘ulotlarining mazmuni ham ma’lum darajada, gender tenglik tamoyili targ‘ibotiga xizmat qiladi.

Tadqiqotni nazariy va amaliy ahamiyati. Xususan, Respublikamizning barcha maktablarida “Tarbiya”, “O‘zbekiston tarixi”, “Adabiyot” kabi fanlar doirasida To‘maris, Zarina, Turkon xotun, Saroymulkxonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Anbar Otin, Saida Zunnunova, Zulfiya Isroilova kabi vatanimiz tarixida, milliy adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan ayollarning faoliyati o‘quvchilarga o‘rgatiladi. Bu orqali ayollarning ijtimoiy hayot va boshqaruvda azal-azaldan faol ishtirok etib kelganligiga oid qarashlar bolalar ongida sekinlik bilan singdirilib boriladi. “Oila-mahalla-ta’lim” o‘rtasidagi ijtimoiy hamkorlik tizimi jamiyatda gender tenglik tamoyilini qaror toptirish, yoshlarda genderga oid sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki ushbu uch ijtimoiy institut insonlarning shaxs bo‘lib shakllanishida asosiy tamal toshni qo‘yadi, bola tug‘ilganidan voyaga yetguniga qadar deyarli barcha vaqtini yo oilada, yo mahallada yoki ta’lim muassasasida o‘tkazadi. Genderga oid to‘g‘ri munosabatning shakllanishida yuqorida tilga olingan yaxlit tizimning uch komponenti bir-birini to‘ldirib boradi. Oila, mahalla va ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash yosh avlodni gender tenglik tamoyili asosida tarbiyalashda talab etiladigan eng asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi. Gender tengligini ta’minlash muammosi oila, mahalla va ta’limning barcha bosqichlarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Afsuski, bugungi kunda ham oila, mahalla, ta’lim tizimida gender muammolari uchrab turibdi. Masalan, bugungi kunda ham oilaviy munosabatlarda ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari uchraydi.

Xulosa qilib aytganda,, mahalla tizimida ham boshqaruv aksariyat holatda erkaklar qo‘lida. Yoki ta’lim jarayonida yashirin va ochiq gender stereotiplari bugungi kunda ham mavjudligini e’tirof etish mumkin. Masalan, maktablarda asosiy o‘qituvchilar ayollar bo‘lgani bilan boshqaruv faoliyatidagi maktab direktorlari va ularning o‘rinbosarlari ko‘proq erkaklar hisoblanadi. Bu yashirin gender stereotip bo‘lsa, maktabda o‘tilayotgan fanlar, xususan “Mehnat ta’limi”, “Jismoniy tarbiya” fanlarida o‘g‘il bolalar va qizlar uchun alohida dasturlarning ishlab chiqilganligi ochiq gender stereotiplar hisoblanadi. Bularning mavjudligi esa tarbiya tizimining o‘zida gender bilan bog‘liq muammolar mavjudligini anglatadi. Umuman olib qaraganda, gender tengligini ta’minlashda oila-mahalla-ta’lim tizimi hamkorligini yo‘lga qo‘yish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda gender bilan bog‘liq sog‘lom munosabatlar, qarashlar tizimi shakllanishida ijobiy ahamiyat kasb etadi.Oila qurish masalasi har bir inson hayotida jiddiy, mas’uliyatli qadam ekanligi, bu masala shaxsiy, xususiy doiradan chiqib, ijtimoiy ahamiyat kasb etishini, nikohdagi gender rollar va ularning vazifalari haqida ma’lumotlarni oila qurish ostonasida turgan yoshlarga yetkazish, voyaga yetayotgan bolalar, avvalambor qizlarimiz ongida onalik mas’uliyati, o‘g‘illarimizda esa ota bo‘lish mas’uliyatini shakllantirish jamiyat va davlat oldidagi muhim vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akramova F.A. "Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratishning ijtimoiy-psixologik asoslari". O'quv qo‘llanma. T., 2014.

2. Акрамова Ф.А., Товбаева М.С. Оиладаги зўравонликнинг ижтимоий-психологик масалалари. Монография. – Тошкент: «Lesson-press» нашриёти, 2021. – 124 б.

3. https://uza.uz/uz/posts/ O‘zbekiston-mahalla-tizimi-xodimlari-va-faollariga.

4. Axrorova S. A. Mahalla boshqaruvida xotin-qizlarning ishtiroki // orienss. 2021. №3. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/mahalla-boshqaruvida-xotin-qizlarning- ishtiroki.

5. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2007. – 300-b.

6. Усманова А. Гендерная проблематика в парадигме культурных исследований //Введение в гендерные исследования. Ч.1: Учебное пособие. –Харьков, Спб., 2001. – 447-449 с.

7. Хоф Р. Возникновение и развитие гендерных исследований //Пол, тендер, культура /Под ред. Э.Шоре и К.Хайдер. –М., 1999. –23-53 с. www.lib.vsu.ru/project/golosary.phtml.

Turopova Ma'mura Safar qizi
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti

BO'LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY SHAKLLANISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya *Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirishning psixologik asoslari masalalariga qaratilgan. Kasbiy motivatsiyani shakllanishida motiv va o'quv faoliyati motivatsiyasi manbalarining ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan. Kasbiy motivatsiyani shakllanishida talabalarning individual xususiyatlarini inobatga olish muhimligi xususida ham so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar*: motiv, motivatsiya, shaxs qadriyati, ustanovka,ijodkorlik, metod, texnologiya, vosita, laboratoriya, refleksiv faoliyat.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Аннотация *В данной статье основное внимание уделено вопросам психологической основы формирования профессиональной мотивации у будущих воспитателей. Значение источников мотивации и мотивации учебной деятельности в формировании профессиональной мотивации научно обосновано. Также говорится о важности учета индивидуальных особенностей учащихся при формировании профессиональной мотивации.*

Ключевые слова*: мотив, мотивация, ценность личности, установка,творчество, метод, технология, средство, лаборатория, рефлексивная деятельность.*

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL FORMATION IN FUTURE EDUCATORS

Abstract *In this article, the main attention is paid to the issues of the psychological basis for the formation of professional motivation among future educators. The importance of the sources of motivation and motivation of educational activity in the formation of professional motivation is scientifically substantiated. It is also said about the importance of taking into account the individual characteristics of students in the formation of professional motivation.*

Keywords*: motive, motivation, personality value, attitude,creativity, method, technology, means, laboratory, reflexive activity.*

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimiga malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 9 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-3261-sonli qarori hamda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 30-sentabrdagi PF-5198-sonli farmonida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta'lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta'lim-tarbiya jarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog-tarbiyachilari, rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish vazifasi belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarbiyachilar kasbiy tayyorgarligining turli psixologik tomonlarini o'rganish keyingi yillarda psixologiya fanining asosiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Bu sohada xorijda A.Bandura, G.V.Kaprara, A.Maslou, K.Rodjers, N.M.Myasishchev, K.K.Platonov, M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovich, N.F.Talizina, YE.A.Klimov, N.V.Kuzmina, A.K.Markova, L.M.Mitina N.D.Levitov, V.A.Krutetskiy; vatanimiz psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov, B.R.Qodirov, R.Z.Gaynutdinov, A.M.Jabborov, V.A.Tokareva, Sh.R.Barotov, Z.T.Nishonova, R.I.Sunnatova, N.S.Safoyev, G.Berdiyev, B.T.Gappirov, S.X.Jalilova, M.Qoplonova, M.M.Mavlanov, N.M.Majidov, A.M.Mashkurov, N.X.Murataliyeva, X.A.Ruxiyeva, Sh.A.Eshmetov, K.B.Qodirov, E.A.Xidirov va boshqalarning olib borayotgan ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir. Ularning ishida kasbiy

tayyorgarlikning biron bir jihatini yoki kasbiy tayyorgarlikka ta'sir etadigan omillarni o'rganish, muayyan fan sohasining ilmiy izlanishlari nuqtai nazaridan yoritilgan.

Mazkur muammolarni yechishda oliy ta'lim tizimi ham alohida o'rin tutadi. Oliy ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim tizimida sifatli ta'limni tashkil etishni ta'minlaydi. Kasbiy motivatsiya talabalarni kasbiy-didaktik bilim, ko'nikma va malakalarni yetarli darajada o'zlashtirishlariga turtki beradi. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani shakllantirish maktabgacha ta'lim jarayonida innovatsion g'oyalarni yaratish va samarali ravishda tashkil etish hamda pedagogik izlanuvchanlikni amalga oshirishni kafolatlaydi. Bugungi kunda zamonaviy tarbiyachilarga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablardan eng muhimi ularning shaxsi va kasbi bilan bog'liq sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim muassasasida bo'lg'usi tarbiyachining kasbiy sifatlari shakllantirib borilishi lozim. Kasbiy pedagogik motivatsiyaning paydo bo'lishi bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy ehtiyoj, kasbiy qiziqish va pedagogik faoliyatga undaydi. Tarbiyachi o'zini ma'naviy va ma'rifiy tomondan tarbiyalashi hamda umuminsoniy qadriyatlarning mohiyatini bilishi, bolalarni Vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'z Vatani, tabiatga va oilasiga bo'lgan muhabbatini shakllantirishi lozim. Shuningdek, maktabgacha ta'lim sohasiga oid turli ma'lumotlardan xabardor bo'lishi talab etiladi. Bo'lajak tarbiyachilar yosh va pedagogik psixologiya, ijtimoiy psixologiya, pedagogika, yosh fiziologiyasi hamda gigiyenadan chuqur bilimlarga ega bo'lishi talab etiladi. Chunki, maktabgacha ta'lim sohasiga oid mukammal bilimga ega bo'lish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarbiyachilar o'z kasbi, sohasi bo'yicha jahon fanida erishilgan yangi yutuq va kamchiliklar, rivojlangan davlatlar tajribasidan xabardor bo'lishlari lozim. Bo'lajak tarbiyachilar ta'lim va tarbiya metodikasini egallashlari, bolalarning yosh xususiyatlarini bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olish, pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta'limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi, o'z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish malakasiga ham ega bo'lishlari zarur.

Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda o'quv faoliyati motivatsiyasi asosiy omil hisoblanadi. O'quv faoliyati motivatsiyasi harakatlantiruvchi kuch bo'lib, talabalarni bilim, ko'nikma va malakalarni faol o'zlashtirishga yo'naltiruvchi jarayondir. O'quv faoliyati motivatsiyasining manbalari mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

1. Ichki manbalar. Ular insoniy tug'ma yoki orttirilgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Orttirilgan ehtiyojlar faollikka undaydi hamda gnostik va ijtimoiy ijobiy ehtiyojlar hisoblanadi.

2. Tashqi manbalar. Ular shaxsning ijtimoiy shart-sharoitlari bilan belgilanadi. Turli xil ta'limiy vaziyatlar va jamiyatni shaxsdan talab qiladigan doimiy xulq-atvori bildiradi.

3. Shaxsiy manbalar. Shaxsning qadriyatlari sistemasi ustanovkalari g'oyalaridir. Bu manbalar har bir shaxs faoliyatida u yoki bu darajada mavjud. Ularning barchasi faoliyatga ta'sir etib ta'lim jarayonining motivatsiyasini tashkil etadi. Shaxsning ichki qoniqishi, o'zini tan olish, muvaffaqiyatlarga erishishi bilan namoyon bo'ladi [4;92-93 b].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlaridagi ta'lim va tarbiyaga oid g'oyalar, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"; o'zbek psixologiyasi maktabi vakillarining tarbiyachi kasbiy tayyorgarligi, uning shaxsi va faoliyati psixologiyasi, o'quv-tarbiya jarayonlarining o'ziga xos psixologik xususiyatlariga bag'ishlangan izlanishlari nazariy-metodologik asos qilib olindi. Shuningdek, psixologiya fanidagi etnosning turmush tarzi, hayoti va faoliyati kontekstidagi ong va faoliyat birligi tamoyili; faoliyatli, madaniy-tarixiy, tizimli yondashuvlar; ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslilik va kasbiy yo'nalganlik to'g'risidagi konsepsiyalar, o'qitish jarayonini insonparvarlashtirish konsepsiyasi (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontyev, B.F.Lomov, P.K.Anoxin, B.G.Ananyev); faoliyatni tashkil qilishning ilmiy tamoyillari, etnografik va etnopsixologik qonuniyatlar, sharq mutafakkirlarining ta'limotlari, boshqaruv va prognostik ehtimollilik tamoyillariga amal qilindi.

Tahlil va natijalar. Agarda aniq maqsad va natijalar belgilangan bo'lsa, motivatsiya manbalari o'quv faoliyatiga ijobiy munosabatni paydo qiladi [3;127b]. Tadqiqot davrida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiya o'quv faoliyati jarayonlarida rivojlantirildi. YA'ni "Bolalarni sahnalashtirish va ijodiy faoliyatga o'rgatish" modulini o'qitishda, ma'ruza, amaliy va seminar darslari, to'garaklar, amaliyot va malakaviy amaliyot uchun tanlangan "Maktabgacha ta'lim tashkiloti laboratoriyalari" da amaliy mashg'ulot va ma'naviy tadbirlar ("Bolajon qo'g'irchoq teatri studiyasi" va "Ertaklar olamiga sayohat") tashkil etildi. Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishda ularning

qiziqishlari va moyilliklarini inobatga olish lozim. Bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiya shakllanishi natijasida kasbiy kompetensiya ham rivojlanadi. Ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liklikni ta’minlash uchun oliy ta’lim jarayonida bo‘lajak tarbiyachida o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli bo‘lishiga yuqori darajada ishonch motivatsiyani oshirish lozim.

Shuningdek, talabalarda shaxsiy muvaffaqiyatga erishishga harakat qilish va ma’suliyatni o‘z qo‘liga olish ko‘nikmasini ham tarbiyalab borish zarur. Talabalarda kasbiy motivatsiya turli motivlar negizida shakllanadi. Kasbiy sohaga oid motivlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: maktabgacha ta’lim sohasi bo‘yicha bilim olishga intilish; pedagogik faoliyatida muvaffaqiyatga erishish yo‘llarini puxta egallash; pedagogik mahorat va etikaga ega bo‘lish. Mazkur komponentlar kasbiy faoliyatni tashkil etishning asosi hisoblanadi. Bularning barchasi talabalarning kasbga qiziqishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishda yutuqlarni egallash va kasbiy faoliyatida ijod qilishga intilishni ta’minlaydi. Shaxsiy motivlar talabalarda kasbiy faoliyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lish va o‘zini tarbiyachilik kasbiga bag‘ishlashga undaydi. Talabalar jamoada va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, tashqilotchilik va rahbarlik qilish qobiliyati, shaxsiy hatti-harakatlarini namoyon etishga harakat qiladilar. Shuningdek tanlagan kasbiga qiziqishi ortadi, intellektual jihatdan dunyoqarashi kengayadi, ijodiy faoliyat yuritishga harakat qiladi. Shaxsiy motivlar o‘quv faoliyati mazmuni bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Talabalarni faol o‘qishga yo‘naltiradi. Amaliy motivlar ish harakatda namoyon bo‘ladi, talabalar o‘z bilimi va tajribasiga tayanib amaliy mashg‘ulotda ertak va hikoyalarni sahnalashtiriradilar. Natijada turli hayotiy vaziyatlar, pedagogik faoliyatida duch keladigan muammolarni hal etish ko‘nikma va malakalari shakllanadi. Talabalar pedagogik amaliyotda tarbiyachilik kasbiga oid muhim jihatlarni o‘zlashtiradilar. Bundan tashqari ijtimoiy motivlar ham mavjud bo‘lib, talabalarni oliy ma’lumotli shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, ijtimoiy tan olinish, jamiyat ravnaqi uchun hissa qo‘shish, fuqarolik burchini his etishga undaydi. Oliy ta’lim jarayonida kasbiy motivatsiyani shakllanishida o‘quv-tarbiyaviy jarayonda turli metod, texnologiya va vositalarni samarali qo‘llanilishi talabalarda faollikni uyg‘otadi, amaliy ko‘nikmalarni egallaydilar. Bugungi kunda zamonaviy pedagoglarga jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablardan eng muhimi ham bolalarni maktab ta’limiga samarali tayyorlashdir. Buning uchun bo‘lajak tarbiyachilarda shaxsiy va kasbiy kompetensiya yetarli darajada shakllangan bo‘lishi lozim. Kasbiy motivatsiya kasbiy kompetensiyani shakllanishiga zamin yaratadi. Kasbiy ehtiyoj talabalarni tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Kognitiv faoliyat esa maktabgacha ta’limga oid nazariy-metodologik bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi. Refleksiv faoliyat o‘z-o‘zini va kasbiy imkoniyatlarini tahlil qilish hamda takomillashtirishga harakat qilishga undaydi.

Mazkur omillar ta’sirida bo‘lajak tarbiyachilarda ma’naviy sifatlar hamda umuminsoniy qadriyatlar, bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘z Vatani va oilasiga bo‘lgan muhabbat shakllanadi. Shuningdek, maktabgacha ta’limga oid puxta bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Maktabgacha ta’lim sohasiga oid mustahkam bilimga ega bo‘lish bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashdagi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak tarbiyachidan o‘z kasbi va sohasi bo‘yicha jahon fanida erishilgan so‘nggi yutuqlar rivojlangan davlatlar tajribasidan xabardor bo‘lish taqozo etiladi. F.Haydarov, X.Abdukarimov va boshqalarning fikricha “kasbni to‘g‘ri tanlashga xos yetakchi motivlarni aniqlash muhim. Yetakchi motivlar sirasiga sevimli o‘qituvchisiga taqlid qilish; kasbiy-mutaxassislik yo‘nalishidagi fanlarga qiziqish;kasbning ijtimoiy mohiyatini anglab yetish; kasbga xos amaliy ko‘nikmalar va xulq-atvorning shakllanishi; o‘ziga xos kasbiypedagogik mahorat fantaziyasining shakllanishi; kasbiy o‘z-o‘zini tarbiyalashga bo‘lgan talabchanlikning ortib borishi; kasbiga xos bilim va qobiliyatlarning rivojlanib borishi; kasbiy izlanish va ijodkorlikka xos faollikning ortib borishi; tahlil va o‘z-o‘zini tahlil etish hamda o‘zining kasbiy faoliyatiga baho berib borish; kasbiy-pedagogik faoliyatga oid sinovlarga shaylik hissining paydo bo‘lishi va x.k.lar kiradi” [5;42 b].

Xulosa. Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy motivatsiyaning shakllanishi ta’limni sifatli tashkil etish, talabalarda tanlagan kasbi mohiyatini chuqur anglash va his qilishlariga ham bog‘liq degan xulosani tasdiqlaydi. Bo‘lajak tarbiyachilar ta’lim va tarbiya metodikasini egallashlari, bolalarni bilishi, ularning ichki dunyosini tushuna olish, pedagogik texnika (mantiq, nutq, ta’limning ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo‘lishi, o‘z bilimi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda oshirib borish malakasiga ega bo‘lishlari lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида қарор. 9.09.2017 й., ПҚ-3261, «Халқ сўзи» газетаси. 2017 й., 11 сентябрь. 181 (6875)-сон.

2. Мирзиёев Ш.М. Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида фармон. 30.09. 2017 й., ПФ-5198.

3. Абатуров И.А. Исследование профессиональной мотивации у студентов педагогических специальностей. Вестник ТГПУ(TSPU Bulletin). 2014. №3

4. Давлетшин М.Г ва бошқ. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма-Т.: 2004.-129 б.

5. Ҳайдаров Ф., Абдукаримов Х., Алимова Ф., Ботиров Б. Талабаларнинг ўқув мотивларини шакллантириш.Т.:2009-131 б.

6. Тешабаева З.С. Олий таълим жараёнида бўлажак тарбиячиларни инновацион фаолиятга тайёрлаш. Журнал. Замонавий таълим.№1-сон. 2020 й. Б. 30-35 .

7. Teshabaeva Z. THE use of modern information technologies in the process of training future preschool educators. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 09, 2020.y. P. 440-446. ISSN: 1475-7192

Baratova Dilafro‘z Olimjonovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti Pedagogika va
o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

NOTO‘LIQ OILALARNING O‘ZIGA XOS IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada noto‘liq oila masalasiga bag‘ishlangan ishlarning ilmiy tahlili va muallifning shaxsiy ilmiy qarashlari asosida noto‘liq oilaning kelib chiqish omil va sabablari, turlari, bola shaxsi shakllanishiga ta’siri ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga noto‘liq oilalarga xos psixologik iqlim , uni yuzaga keltiruvchi sabablar xususida to‘xtalib o‘tilgan.*

Tayanch so‘z va tushunchalar*: noto‘liq oila, shaxsni shakllantirish, noto‘liq oila turlari, oilaga psixologik-pedagogik yordam, oila funksiyalari.*

СПЕЦИФИКА СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ НЕБЛАГОПОЛУЧНЫХ СЕМЕЙ

Аннотация. *В статье на основе научного анализа работ, посвященных различным аспектам неполной семьи и личной позиции автора в качестве социально-педагогической проблемы изложены факторы, причины, виды неполных семей и их влияние на формирование личности ребенка.*

Ключевые слова и понятия: *неполная семья, формирование личности, виды неполных семей, психолого-педагогическая помощь, функции семьи.*

SPECIFICITY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DISADVANTAGED FAMILIES

AbstractIn *the article, on the basis of a scientific analysis of works devoted to various aspects of the incomplete family and the author's personal position as a social and pedagogical problem, factors, causes, types of incomplete families and their influence on the formation of the child's personality are expounded.*

Keywords: *incomplete family, personality development, types of incomplete families, psychoeducational support, family function.*

Mustaqillik davrida O‘zbekistonda xalq hayotida misli ko‘rilmagan ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu bilan birga so‘nggi o‘n yillikda bir qator muammolar yanada dolzarblashdi. Shulardan biri – oila institutining zaiflashishi, ajralishlar va ularning asorati sifatida noto‘liq oilalar sonining keskin o‘sishidir. Noto‘liq oilalar sonining ortib borishi va ulardagi bolalarning otasiz o‘sishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha taraqqiy etgan va rivojlanayotgan davlatlarda o‘z ifodasini topadigan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammodir. Masalan, MDX davlatlarida so‘ngi yillarning o‘zida YE.A.Lapshina tadqiqotiga binoan, 1 million bola ota yoki onasiz qolgan, oiladagi ajralishlar esa Rossiya davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 57 foizni tashkil qilgan. Noto‘liq oila va undagi bola tarbiyasi Rossiyada ijtimoiy muammo sifatida V.V.Bodrova, Y.G.Nikolayeva, A.Y.Gross, T.A.Gurko, O.G.Yusupova, YE.I.Kalabixina, A.Demidov, I.F.Dementyeva, V.Titarenko, G.A.Kantemirova, YE.A.Lapshina, T.V.Andreyeva, M.YE.Baskakova, L.G.Lunyakova, S.Yaroshenko, S.Ayvezova, L.N.Ovcharova, L.M.Prokofyeva, Z.A.Xatnina va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. Yuqorida qayd qilingan olimlarning barchasi o‘z ishlarida bir umumiy xulosani ifodalaydilar. Ularning fikricha, noto‘liq oilada qanday yaxshi sharoit yaratilmasin, unda komil shaxsni shakllantirib bo‘lmaydi G.A.Kantemirovaning dissertatsiya tadqiqotida keltirilishicha, 2008 yil Alaniyaning rasmiy ma’lumotiga ko‘ra voyaga yetmagan vaqtincha jamiyatdan «izolyatsiya» qilingan (maxsus muassasalarda tutilayotgan) yoshlarning 39,2 foizi va deviant xulqi

sababli ichki organlar ro‘yxatiga olingan voyaga yetmagan bolalarning 36,8 foizi noto‘liq oilalardan bo‘lgan. Y.G.Nikolayevaning dissertatsiya tadqiqoti natijalariga ko‘ra, noto‘liq oilalardagi 92 foiz ayollar farzandlarining otasidan olayotgan moddiy yordamini yetarli emas, deb biladilar. Ayollarning 61 foizi oilada ota – erkak kishining yo‘qligi bola shaxsiga salbiy ta’sir qilishini ko‘rsatdi, 69 foiz ayollar noto‘liq oila ham moddiy, ham ma’naviy qiyinchiliklarni boshdan kechirishini qayd etdi. Noto‘liq oilada o‘smirlarni tarbiyalashni ijtimoiy psixologik shart-sharoitlar masalasi S.V.Zelenchukovaning dissertatsiya ishida tadqiq etilgan. Izlanish obyekti sifatida Germaniya va Rossiyadagi noto‘liq oilada voyaga yetayotgan o‘smirlar qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 27 foiz rossiyalik o‘smirlar o‘zini tarbiyalayotgan ota yoki onalaridan, qarindosh yoki yaqin odamlaridan 25 foizi namuna oladilar. Hech kimdan namuna olmaydigan o‘smirlar 19 foizni tashkil qildi. O‘smirlarning 15 foizi faqat o‘zlarini namuna sifatida ko‘radilar. Germaniyalik o‘smirlarning 33 foizi uchun ota-onalari namuna vazifasini o‘taydilar, 17 foizi uchun namuna mashhur shaxslardir. Aka va opalari 14 foiz o‘smirlar uchun namuna bo‘lsalar, qarindoshlari namuna sifatida 10 foizni tashkil qildilar. Noto‘liq nemis oilalarda voyaga yetayotgan 17 foiz o‘smirlar hech kimni namuna sifatida ko‘rmaydilar. Shaxsan o‘zlarini namuna sifatida ko‘radiganlar 4 foizni tashkil qildi. Bola shaxsining noto‘liq oilada shakllanish masalalari YE.V.Nedelinaning dissertatsiya tadqiqotida atroflicha o‘rganilgan. Noto‘liq oila masalasini ilmiy tadqiq etgan ishlar (Lapshina YE.A., Kantemirova G.A., Nikolayeva Y.G., Zelenchukova S.V., Nedelina YE.V.) tahlillari va bizning shaxsiy ilmiy kuzatuvlarimizga ko‘ra, muammoning dolzarbligi quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, jamiyatda noto‘liq oilalar sonining ortib borishi oila institutiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, uning mustahkamligini zaiflashtirib boradi.

Ikkinchidan, noto‘liq oilalar sonining ortishi yoshlarda oila haqidagi tasavvurlarining to‘g‘ri shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi. Qizlarning ma’lum qismi noto‘liq oilani o‘zlari uchun andoza sifatida oladilar. Bu esa noto‘liq oilalar sonining yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, yoshlardan komil shaxs shakllantirishda qator muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

To‘rtinchidan, yosh oilalar, aksariyat holda ayollar va bolalarni iqtisodiy jihatdan murakkab vaziyatga tushiradi.

Beshinchidan, voyaga yetmagan yoshlarda jinoyatchilik, shu jumladan, ularning og‘ir turlarining o‘sishiga shart-sharoit yaratadi.

Oltinchidan, ota-onalarga eng muhim vazifalari – tarbiya funksiyalarini to‘laqonli ado etishlariga yetarli imkon bermaydi.

Yettinchidan, ayollarning ma’lum qismida jinsiy-tanosil kasalliklarining ko‘payishi, reproduktiv organlarida onkologik xastaliklar sonining oshishiga olib kelishi mumkin.

Sakkizinchidan, jamiyatda poliandriya va poligeniya, ya’ni ko‘p erlik hamda ko‘p xotinlik holatlarining o‘sishiga olib keladi.

To‘qqizinchidan, mahalliy millatlar, jumladan, o‘zbeklardagi o‘ta muhim, qimmatli etnopsixologik xislatlardan biri bo‘lgan ota-ona hurmati, oiladagi mavqei, ota-onalik va farzandlik burchlarining shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi.

O‘ninchidan, avlodlar orasidagi xissiy emotsional yaqinlik, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning zaiflashishiga olib keladi.

O‘n birinchidan, ota modeli, namunasining yo‘qligi o‘g‘il bolalar shaxsining erkak, oila boshlig‘i, ota sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir qiladi, ularda ayolsifat xarakterning paydo bo‘lishiga imkon yaratadi. Qizlarda ota yo‘qligi ota mavqei, hurmati, er-xotin munosabatlarini ko‘rmasligi, voyaga yetib shaxsiy oilaviy hayot qurganda er-xotin munosabatlarini talab darajasida olib borishiga salbiy ta’sir qiladi.

Noto‘liq oilalar sonini ortib borishi va ulardagi bolalarni otasiz o‘sishi nafaqat O‘zbekistonda, balki barcha taraqqiy etgan va rivojlanayotgan davlatlarda o‘z ifodasini topadigan katta ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va pedagogik muammodir. Noto‘liq oilada bir qator ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik, pedagogik, tibbiy, huquqiy va boshqa

muammolar kuzatiladi. Noto‘liq oiladagi bola shaxsini shakllantirishdagi muammolarni quyidagi chizma asosida yoritish mumkin .

1-jadval. Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishida mavjud muammolarni bartaraf etishning ijtimoiy psixologik mezonlari

Mezonlar	Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni va ularning ko‘rsatkichlari
Onaning ma’lumot darajasini ko‘tarish, oila funksiyalarini to‘laqonli bajarilishi “	Ota-onalar universiteti” qoshida, ta’lim muassasalarida noto‘liq oiladagi onalar uchun psixolog va pedagoglar tomonidan seminar-treninglar tashkil etish, oila funksiyalari haqida ma’lumotlar berish, ularni amalga oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berish
Onaning mustaqil ta’lim olishi, mustaqil rivojlanishi	Noto‘liq oiladagi ona doimiy ravishda zamonaviy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni o‘qish, rivoyat va Hadislarni farzandi bilan birgalikda tahlil qilish, onlayn va offlayn kurslarda tahsil olish
Bolaning ijtimoiylashuvini o‘rganish	Ona, ota, yaqin qarindoshlar, amaliyotchi psixologlar bilan birgalikda pedagogik, psixologik metodikalar yordamida bolaning ma’naviy-axloqiy xulqini o‘rganish hamda xulqidagi salbiy hislatlar va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berish
Bolaning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish	Noto‘liq oiladagi bolalarni sport, musiqa, san’at yoki o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib qo‘shimcha ta’limga jalb etish va qobiliyatlarini rivojlantirishga oid tadbirlar o‘tkazish
Bolaning xayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish	“Muammoli vaziyat”, “Keys stadi” metodlari orqali bolada hayotda uchraydigan muammoli vaziyatlarni yechishda ko‘nikmalarini shakllantirish va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish
Ona va bolaning o‘zaro munosabatidagi muammolarni bartaraf etish	Oila, ta’lim muassasa va mahalla hamkoriligida psixologik, pedagogik metodika, test, korreksion mashg‘ulotlar orqali bolaning onaga, otaga bo‘lgan munosabatini o‘rganish, tahlil qilish, tavsiyalar berish

Yuqoridagi chizma asosida keltirilgan noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishidagi muammolar 4 turga ajratildi: pedagogik, psixologik, ijtimoiy hamda iqtisodiy. Noto‘liq oiladagi pedagogik muammo bu – bola tarbiyasidir. Bola shaxsi shakllanishidagi muammolarda odob-axloqi, xulq-atvor normalari, ma’naviyati, madaniyati, oiladagi urf-odat va an’analarga ota yoki ona tomonidan e’tiborsizligi natijasida namoyon bo‘ladi. Ota yoki ona tomonidan bola tarbiyasiga bee’tiborligi yoki tarbiya jarayonidagi “ikkilanish”, ya’ni bolani to‘g‘ri yo‘l, usul bilan tarbiya qilayotganligidan shubxalanish bolaning barkamol shaxs bo‘lib shakllanishida pedagogik to‘siqlarga duch kelishi mumkin. Psixologik muammolarda birinchi o‘rinda onaning ma’lumot darajasi pastligi, ona tomonidan oilaviy vazifalarni to‘liq bajarilmasligi hamda onani “Mustaqil ta’lim” bilan shug‘illanmasligi, ya’ni ma’lumot darajasidan kelib chiqib, bola tarbiyasida o‘z bilimini: diniy, dunyoviy, ilmiy, pedagoik va psixologik bilimlarini egallamasligi natijasida oilada turli pedagogik muammolarga duch keladi. Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishida mavjud muammolarni bartaraf etishda oilada onaning ma’lumot darajasini oshirish, mustaqil ta’lim olishni motivatsiya berish, bolaning ijtimoiylashuvi, bo‘sh vaqtini

to‘g‘ri tashkil etish hamda ona va bola o‘rtasidagi nizolarni bartaraf etish bo‘yicha ijtimoiy-pedagogik texnologiyani takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Yuqorida sanab o‘tilgan ijtimoiy psixologik muammolardan kelib chiqib, noto‘liq oilada bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik modeldan foydalandik. Model asosida tajriba-sinov ishlarining maqsadini noto‘liq oilada tarbiyalanayotgan bolaning ijtimoiy-pedagogik muammolarini bartaraf etish deb belgiladik. Noto‘liq oilalarda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida “ReneJilya metodikasi”, Rassel va Fergyussonlar tomonidan ishlab chiqilgan “Yolg‘izlikni subyektiv his qilish” metodikasi, TMAT (tarbiyadagi muammoni aniqlovchi test) metodikalari asosida ota-onalar bilan maqsadli seminarlar o‘tkazish, maktab va mahallalarda tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish, psixologik suhbat, test, seminar, metodikalarni o‘tkazish, “Muammoli vaziyat” metodi orqali hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalarni bo‘sh vaqtini to‘g‘ri va samarali tashkil etishni o‘z ichiga qamrab olgan. Noto‘liq oilada bola shaxsi shakllantirishni quyidagi komponentlar asosida aniqladik: profilaktik, korreksion va rivojlantiruvchi. Profilaktik komponentlarda ma’lumotlarni yig‘ish va prognoz, ya’ni bashorat qilish. Korreksion komponentlarda ta’lim-tarbiyani yo‘naltirilganligi, ya’ni muloqotga kiruvchanlik, dominantlik, ijtimoiylashuvi, erkin fikrni bayon eta olishi. Rivojlantiruvchi komponentlar esa, ta’limtarbiyaning rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lishi, bolalarda motivatsiyani shakllantirish orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni yanada oshirish, “Men konsepsiyasini” yanada rivojlantirishlar va albatta bolalarga yordam ko‘rsatishlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Belgilangan komponentlar amalga oshirishda noto‘liq oilada bola shaxsi shakllanishidagi pedagogik, psixologik, ijtimoiy jarayonni muvofiqlashtirish orqali noto‘liq oila bola shaxsidagi ijtimoiy-pedagogik muammolarni oldini olish va bartaraf etishga erishiladi. Shu o‘rinda, noto‘liq oiladagi onaning ma’lumot saviyasini ko‘tarish, bolaning “Men konsepsiyasi”ni shakllantirish, ona va bola o‘rtasida nizolarni bartaraf etish maqsadida bir nechta treninglarni tasiya etamiz. Keng tarqalgan va samarali ijtimoiy pedagogik texnologiyalardan biri trening hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogik trening jamoaviy ish olib borishning faol metodlariga asoslangan pedagogik ta’sirdir. Shuningdek, tashkillashtirilgan muloqotning maxsus turi bo‘lib, bu jarayonida shaxs rivojlanishi, kommunikativ malakalar paydo bo‘lishi, psixologik yordam ko‘rsatish masalalari hal qilinishi kuzatiladi. Bizning tadqiqot natijalarimizga ko‘ra Toshkent shahar, Qashqadaryo hamda Buxoro viloyatlarida 2020-2023 yillar mobaynida o‘tkazilgan so‘rovnomada qatnashgan noto‘liq oilalarning 98 nafari ajrashgan, 25 nafari beva hamda 3 nafar nikohsiz farzandli bo‘lgan (yolg‘iz ona)lar respondent sifatida ishtirok etgan. Ajrashgan onalarning 77 nafari o‘rta ta’lim ma’lumotli, (tugallanmagan o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar va boshq.), 21 nafari oliy ma’lumotga ega. Shu o‘rinda bevalarning 19 nafari o‘rta ma’lumotli, 6 nafari oliy ma’lumotga ega ayollardir. Har bir oilaning, jumladan noto‘liq oilaning eng muhim bo‘lgan asosiy vazifasi – tarbiya funksiyasidir. Tadqiqotimizda noto‘liq oilalardagi onalardan olingan natijalarga ko‘ra oiladagi farzandlarning axloqida, xulq-atvorida tarbiyaviy muammolar mavjudligi 47 nafar respondent e’tirof etgan. Yuqoridagi oilalarda tarbiyaviy muammolarning ba’zida uchrab turishini 39 nafar onalar ta’kidlagan. Jami 86 nafar noto‘liq oilalarni tashkil qiladi. Ushbu tarbiyaviy muammolar 21 nafar noto‘liq oilalarda kamdan-kam uchrasada, ularni mavjudligini o‘z oilalarida inkor etganlar 19 nafardan iborat bo‘ldi. 1 Otalik belgilanmagan. Har bir oilaning psixologik iqlimi, oila a’zolari orasidagi munosabatlarni sog‘lom bo‘lishi, oilada nizolarni kelib chiqishi, nizolar asosida bolalarni yoki ba’zan kattalarni ham depressiya holatiga tushishi, shu asosida ba’zi hollarda o‘z joniga qasd qilish hollarini ham kuzatilishi, nosog‘lom psixologik iqlimda bolalarni o‘z-o‘ziga baho berishining pasayishi, uning shaxsida turli negativ komplekslarni paydo bo‘lishi va yuqoridagilarni barchasi oilada katta ijtimoiy-pedagogik muammolarni yuzaga keltirishi sababli biz o‘z tadqiqotimizda “Rene-Jilya metodikasi”ni qo‘llashni lozim topdik. Chunki ushbu metodika pedagoglar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan keng qo‘llangan bo‘lib, oiladagi munosabatlar haqida yetarli ma’lumot beradi. Ushbu metodika, ishonchlilik va validlilik talablariga javob beradi. Noto‘liq oilalarda o‘rganilgan bolalar soni

126 nafarni tashkil qilib, 98 nafar ajrashgan ona tarbiyasidagi bolalar hamda 25 nafar beva ona tarbiyasidagi bolalar respondent sifatida 123 nafari qatnashdi. Notoʻliq oilalardagi bola shaxsini oiladagi munosabatlarni aniqlash boʻyicha “ReneJilya metodikasi”da notoʻliq oilalardagi shaxslararo munosabatlar oʻrganilganda quyidagilar ma’lum boʻldi: 1. Notoʻliq oilalardagi bolalarda, ayniqsa bir farzandli oilalarda kommunikativ, yetakchilik xislatlari kam ifodalangan. Chunki oilada aka-uka, opa-singillarni yoʻqligi kommunikativ xislatlarni yetarli shakllanishiga imkon bermagan. Notoʻliq oilada 2-3 nafar farzand boʻlsa, yuqoridagi xususiyat ya’ni, kommunikativ, yetakchilik xislatlarini kam ifodalanganligi deyarlik uchramaydi. Notoʻliq oiladagi bolalarda onasiga hissiy va mehr jihatdan yaqinligi ifodalandi (92%), ammo bu yaqinlik bolani yoshiga bogʻliqligi, yosh psixologiyasidagi maktabgacha va boshlangʻich sinf yosh davri bilan cheklanmasdan oʻsmirlik davrida ham kuchli (86%) ifodalanishi kuzatildi. Bu yosh davr psixologiyasidagi ayrim xususiyatlarni oʻzga davrlarda ham kuchli ifodalanishi, bizning fikrimizcha ota-onalar muloqotining “tanqisligi” bilan tushuntiriladi. Shu bilan birga onaga hissiy emotsional yaqinlik notoʻliq oilani kelib chiqish sabablari bilan bogʻliqligi aniqlandi. Ajralish asosida yuzaga kelgan oilaga nisbatan bevalik sababli notoʻliq oilalarda farzand va ona bilan hissiy-emotsional yaqinlik kuchliroq (98%) ifodalanishi kuzatildi. Ajralgan ota-onalar tomonidan bola uchun kurash boʻlgan oilalarda bolani ona bilan hissiyemotsional yaqinligi zaifroq (75%) ekanligi aniqlandi. Bu, bizning fikrimizcha, bola uchun kurash davrida otaga qarshi ishlatilgan uslublar, gaplar, ota haqidagi turli salbiy tasavvurlar va stress holatlari ona obrazini bola tasavvurida qisman emotsional qadrsizlanishiga olib kelish natijasida deb, taxmin qilinadi. Bizning tadqiqotimizda aksariyat onalar oʻz farzandlarini axloq-odob jihatlarida kamchiliklarini koʻra bilmaydilar. YA’ni oʻz farzandlarini ideallashtirish, yaxshi koʻrsatish, kamchiliklari yoʻq sifatida ma’lumot berish holati kuzatildi. Shu sababli biz tomondan “Notoʻliq oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiy-pedagogik test” nomli maxsus ijtimoiy-pedagogik test ishlab chiqildi. Metodikaning maqsadi: toʻliq, notoʻliq va boshqa turdagi oilalarda bola tarbiyasi bilan bogʻliq muammolarni aniqlashdan iborat. Ushbu test metodikasi vositasida oilani oʻrganish quyidagi vazifalarni koʻzlaydi:

1. Oilada bola tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni aniqlash.
2. Bola tarbiyasi bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni ifodalanish saviyasini aniqlash.
3. Oilada bola tarbiyasi bilan bogʻliq muammolarni ona tomonidan idrok etilishi hamda oʻqituvchi tomonidan idrok etilishi, ular idroki orasidagi tafovutni aniqlash.
4. Tarbiya jarayonini samarali boʻlishishga erishish har bir bolani tarbiyasidagi muammolar holatini, darajasini aniqlashdan iborat. Test natijalari asosida tarbiyaviy tadbirlar mazmunini mavzu rejasini korreksion tarbiyaviy dasturni tuzish, tarbiyaviy ishlarni, ayniqsa, aniq shaxs bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishni samaradorligini oshirish imkonini beradi. Notoʻliq oilada bola shaxsi shakllanishining ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari boʻyicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Notoʻliq oilalarning aksariyatida ona bolasini (yoki bolalari)ni otasiz tarbiyalayotgan boʻlib, asosiy faoliyatini ishlab chiqarish, ya’ni, mehnat qilish bilan bandligi sababli, bolalarni tarbiyalashga yetarli vaqt ajrata olinmaydi. Oilaning notoʻliqligi unda oʻsayotgan bolani ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir qiladi.
2. Notoʻliq oilalarning aksariyati moddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirish sababli bola tarbiyasida qoʻshimcha ta’lim, turli sport, san’at va boshqa sohalar bilan shugʻullantirishga yetarli imkon topa olmaydilar. Bu esa bola shaxsida boʻlgan tugʻma layoqatini erta aniqlash, uni oʻstirish va qobiliyatga aylantirishga yetarli imkon bermaydi.
3. Notoʻliq oilada bola shaxsini shakllantirishda eng katta muammolardan biri bu psixologik va pedagogik muammolardir. Uning kelib chiqishiga sabab oilaning yoshligi, onaning tarbiyachi sifatida tajribasi yoʻqligi, psixologik va pedagogik bilimlarni sayozligi, asosiy vaqtini oila budjetini ta’minlashga sarflash natijasida bolasi bilan muloqotda boʻlish, uni tarbiyalashga vaqti va tajribasini yetarli emasligi, pedagogik, psixologik maslaxatlarga muxtojligidir.

4. Noto‘liq oilalardagi o‘g‘il va qizlar orasida tarbiyasidagi salbiy jihatlarini ifodalanishi orasida yetarli farq bo‘lib, ularning bir qismi yosh xususiyati, qolgan qismi noto‘liq oilaning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari bilan belgilangan. Shu bilan birga “Noto‘liq oila farzandlarining tarbiyasidagi muammolarni aniqlovchi ijtimoiypedagogik test” natijalarga ko‘ra genderga xos hususiyatlar aniqlangan. Bularga yolg‘onni ko‘p ishlatish odati, dugonalarini dugonalariga rashk qilish, arzimas narsaga xafa bo‘lish, nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirish, kek saqlash kabilar kiradi. Yuqoridagilar oila turi (noto‘liqligi), ijtimoiy-iqtisodiy holati, yosh davri hamda xotin-qizlarga xos xususiyatlar tomonidan belgilangan. Noto‘liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda bizning fikrimizcha quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1. Noto‘liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga pedagogik-psixologik yordam ko‘rsatish kerak. Mahalla psixologlari tomonidan pedagogik-psixologik trening, psixologik monitoring, pedagogik-psixologik tashviqot, seminar, maxsus o‘quvlar (otaonalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa formasida bo‘lishi mumkin. Bunda xar bir noto‘liq oilani o‘ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy xolatini xisobga olish zarur.

2. Noto‘liq oilada o‘sgan va o‘z sohasida taniqli bo‘lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni maktab o‘quvchilar bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib shunday muvaffaqiyatlarga erishganligi haqida davra suhbati qilish lozim. Bundan maqsad noto‘liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o‘rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to‘liq oila bolalariga ham kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi.

3. Noto‘liq oiladagi bolalarni tug‘ma layoqatini va qiziqishini hisobga olib sport, musiqa, tasviriy san’at va boshqalarga jalb qilish lozim.

4. Noto‘liq oilalar bilan mahalla hamda maktab psixologi muntazam ishlashi va psixologo-pedagogik monitoringini olib borishi lozim.

5. Noto‘liq oiladagi bolalarni ta’til davrida dam olishini tashkil etish, qo‘shimcha ta’lim olishda mahalla, ta’lim muassasa, NNT va boshqa davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yordam berish kerak.

Yuqoridagilarning barchasi yoshlarni zamon ruhida, umummilliy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalab voyaga yetkazishimizda qator murakkab muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Bizning fikrimizcha, noto‘liq oilalar sonining kun sayin ortib borishi sabablarini quyidagilar tashkil qiladi. Buning eng asosiy sabablaridan biri – yoshlarimiz oilaviy xhyot haqida to‘laqonli va psixologik pedagogik jihatdan to‘g‘ri savodli tasavvurga ega emasligi. Aksariyat yoshlar oilaviy hayotni «asal oyi» kabi tasavvur qiladilar, vaholanki oilaviy hayot har bir yosh uchun katta taqdir sinovidir. Har bir oila «Oilaviy hayot chidaganga chiqarilgan» tamoyili bilan yoshlarni turli iqtisodiy, axloqiy, individual-psixologik, shu jumladan, sabr-chidamlilik sinovidan o‘tkazadi. Afsuski, yosh oilalarning ma’lum bir qismi bu sinovlarga bardosh berolmay, noto‘liq oilalar sonining keskin o‘sishiga olib keladi. Noto‘liq oilalar ko‘payishiga olib keluvchi muhim sabablardan navbatdagisi oila masalalarida shaxs xulqi ustidan ijtimoiy nazoratning susayishi, «Odamlar nima deydi?» mazmunidagi an’anaviy savol ta’sir kuchining keskin zaiflashib ketganligi. Albatta, demokratik jamiyat qurayotganda shaxs erkinligini ta’minlashimiz, fuqaroning shaxsiy hayotiga qo‘pol ravishda aralashmasligimiz darkor. Shu bilan birga, biz yoshlarning oilaviy hayotida uchrashi muqarrar bo‘lgan sinov va muammolarga oldindan tayyorlab, uni oila to‘liqligi, oila a’zolar salomatligiga salbiy ta’sir etmagan holda hal qilish, sinovlardan yosh oilani talofatsiz olib chiqishga yordam berishimiz lozim. Bu borada Xotin-qizlar qo‘mitasi, «Mahalla», «Sog‘lom avlod» fondlari, hokimliklar va hukumat tomonidan katta samarali ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, noto‘liq oilalarning ko‘payishi, poliginiya (ko‘p xotinlilik) hamda poliandriya (ko‘p erlilik) tendensiyasining kuchayish omillariga, bizning fikrimizcha, oilada erkak mavqeining pasayishi, erkaklarda impotensiyaning yosharishi, son jihatdan o‘sishi, ayollarda jinsiy xulqning erkinlashishi, yoshlarning hayotiy

qiymatliklarida kuzatilayotgan o‘zgarishlar, urg‘u ma’naviy boylikdan iqtisodiy boylik tomon ko‘chishi, ya’ni ma’naviy boylikdan iqtisodiy, moliyaviy boylik keskin ustunlik qilishi, aholida kuzatilayotgan gipodinamiya, urbanizatsiya natijasida mamlakat aholisida shahar hayot (Poligiiniya (poli - ko‘p, yun. gyne - xotin) – ko‘p xotinlilik. Ayrim xalqlarda, ko‘proq musulmon xalqlarida shu kunga qadar saqlanib qolgan turmush tarzining tarqalishi, turli ijtimoiyiqtisodiy sabablarga ko‘ra yerli xalq orasida migratsiyaning kuchayishi va boshqalar kiradi. Yuqorida bayon etilgan fikrlardan noto‘liq oilaga qarshi kurashish, noto‘liq oilani faqat salbiy, muammoli oila turi sifatida ko‘rsatish, ularni yomon jihatdan idrok etish ma’nosi kelib chiqmaydi. Shunday noto‘liq oilalar borki, ular to‘liq oiladan o‘n chandon yaxshi yashaydi va o‘z oilaviy vazifalarini to‘laqonli, yuqori saviyada bajarib kelmoqda. Biz muammo sifatida mulohaza yuritayotgan noto‘liq oilalar deyarli asossiz yuzaga kelgan, aksariyati jiddiy sabablarsiz ajralgan va yosh bolalari bilan katta iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan, ma’lum guruhi nikoh qurishdan oldin ajralib erkin hayot kechirishni maqsad qilib qo‘ygan, oila, ayniqsa bola tarbiyasiga befarq qaraydigan, bola shaxsi shakllanishiga mas’uliyatsizlik bilan yondashadigan, o‘z shaxsiy manfaatini farzandlari, oila manfaatidan ustun qo‘yadigan, ota-onalik burchlarini deyarli unutib qo‘ygan yoki davlat, jamiyat zimmasiga yuklab yengil hayot kechirayotgan, ba’zi hollarda farzandlarini butunlay unutgan noto‘liq oilalardir. Noto‘liq oilalarni oila funksiyalarining to‘laqonli bajarilishi darajasiga ko‘ra shartli ravishda uch turga bo‘lish mumkin:

● oila funksiyalarini yuqori darajada bajarayotgan noto‘liq oila. Bu vaqtincha yoki uzoq yillar davomida noto‘liq bo‘lib, oilaning barcha funksiyalarini to‘liq ravishda bajarib kelayotgan noto‘liq oila. Bunday oilalarga aksariyat holda yetuk yoshdagi avlod – buva, buvilar yordam beradilar va bola tarbiyasi, bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish, moddiy ta’minot kabi funksiyalar to‘liq bajarilishida o‘zlarining hissalarini qo‘shadilar. Bunda (agar bevalar oilasi bo‘lmasa) ajrashgan oila bilan yashamayotgan turmush o‘rtog‘i ham oila funksiyalarining bajarilishiga imkon darajasida o‘z tashabbusi bilan hissa qo‘shadi;

● o‘rta darajadagi noto‘liq oila. Oila funksiyalarining bajarilishiga oila bilan yashamayotgan turmush o‘rtog‘i aliment to‘lashdan ortiq hech qanday hissa qo‘shmaydi. Oila funksiyalaridan eng muhimi bo‘lgan bolani tarbiyalash masalalarida onada, ba’zi xollarda otada (otasi bilan yashayotgan bo‘lsa) yetarli qiyinchiliklar uchraydi. Shu bilan birga ona aksariyat hollarda mehnat faoliyati bilan band bo‘lishi oqibatida oilada psixoterapevtik, regulyativ, kommunikativ funksiyalar xam yetarli bajarilmaydi;

● oila funksiyalarini past darajada bajarayotgan noto‘liq oila. Oila funksiyalarining yarmidan ko‘pini bajarmayotgan, bolalar tarbiyasini o‘z holiga tashlab qo‘ygan, ko‘pincha o‘z onalik vazifasini deyarli bajarmayotgan, ichkilikka berilgan, oilada muntazam ravishda nosog‘lom psixologik muhit bo‘lgan moddiy nochor, noto‘liq oilalar. Ushbu turdagi oilaviy muhit ba’zan to‘liq oilalar orasida ham uchrab turadi.

Noto‘liq oilada bola shaxsini talab darajasida shakllantirishda fikrimizcha quyidagilarga e’tibor berish lozim.

1. Noto‘liq oilada bola tarbiyalayotgan yosh onalarga psixologik yordam ko‘rsatish kerak. Bu psixologik maslahat, psixologik trening, psixologik monitoring, psixologik tashviqot, seminar, maxsus o‘quvlar (ota-onalar universiteti doirasida), maxsus tayyorlangan buklet, broshyuralar va boshqa shakllarda bo‘lishi mumkin. Bunda har bir noto‘liq oilani o‘ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy-iqtisodiy holatini hisobga olish zarur.

2. Noto‘liq oilada o‘sgan va o‘z sohasida taniqli bo‘lgan artist, sportchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir va boshqalarni maktab o‘quvchilari bilan uchrashuvlarini tashkil qilib, ular hayotidagi qiyinchiliklarni qanday yengib, shunday muvaffaqiyatlarga erishganliklari haqida davra suhbati qilish lozim. Bundan maqsad noto‘liq oilani ideallashtirish emas, balki yoshlarda, ayniqsa, noto‘liq oilada voyaga yetayotgan bolalar hayotida uchraydigan qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga o‘rgatishdir. Bunday uchrashuvlar to‘liq oila bolalariga ham foydalidir.

3. Notoʻliq oilada oʻsayotgan oʻgʻil bolalarni (agar oʻz otasi namuna vazifasini bajara olmayotgan boʻlsa) qarindoshlar, qoʻshnilar yoki yaqin tanishlar orasida har tomonlama namuna boʻladigan kishi vaqtincha otaliqqa olishi. Otaliqqa olgan erkak yoki ayol vaqtivaqti bilan oʻz farzandlari bilan birga notoʻliq oilada voyaga yetayotgan bolaning boʻsh vaqtini madaniy tashkil etishi lozim, toki otasiz oʻsayotgan bola yoki qiz toʻlaqonli oiladagi munosabatlar, ota va ona mavqei, ular orasidagi namunali munosabatlarni idrok etib, oʻziga kelgusi hayotida namuna sifatida olsin.

4. Oila funksiyalarni past darajada bajarayotgan notoʻliq, moddiy jixatdan oʻta nochor oilalardagi bolalarni mahalla, psixolog tavsiyasiga koʻra onaning roziligi bilan vaqtincha bir yilga mehribonlik uylariga qabul qilish va bir yil oʻtgach muddatini uzaytirish masalasini ona ishtirokida mahalla faollari, psixolog, mehribonlik uyi rahbarlari koʻrib chiqishlari tavsiya etiladi.

5. Notoʻliq oiladagi bolalarni tugʻma layoqati va qiziqishini hisobga olib sport, musiqa, tasviriy san'at va boshqalarga jalb qilish lozim.

6. Notoʻliq oilalar bilan mahalla hamda maktab psixologi muntazam ishlashi va psixologo-pedagogik monitoringini olib borishi lozim.

7. Notoʻliq oiladagi bolalarni ta'til davrida dam olishlarini tashkil etish, qoʻshimcha ta'lim olishlarida yordam berish kerak.

8. Oʻzbekistonda notoʻliq oila psixolog, pedagog, sotsiolog, yurist, iqtisodchi, tibbiyotchi, demograf olimlar tomonidan ilmiy tadqiq etilishi lozim. Yuqorida oʻz ifodasini topgan choralarni koʻrish notoʻliq oilalardagi bir qator muammolarni samarali bartaraf etishga imkon bergan boʻlar edi.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Shoumarov Gʻ., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. - T.: «Ilm-Ziyo Zakovat», 2016. - 270-b. Lapshina YE.A. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya konkurentosposobnoy lichnosti uchashixsya iz nepolnix semey v vospitatelnoy sisteme shkoli. / Dissertatsiya i avtoreferat na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. – Ulyanovsk. 2010.

2. Шаамирова Ю.К. “Нотўлиқ оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш” Дисс., п.ф.н. Т.2006 й. 33-34-бет.

3. .Файзиева М.Х.Оила психологияси. Қарши ”Насаф нашриёти” 2018 й.138-бет.

Turobova Maxbuba Alisherovna
Iqtisod va Pedagogika universiteti
Pedagogika va o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi

TALABA QIZLARNI OILAVIY XAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada talaba qizlarni oilaviy xayotga tayyorla shning psixologik xususiyatlari, muhim o‘rin tutuvchi oilaviy qadriyatlar hamda oiladagi ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolarning kelib chiqishi, ajrim muammolarini o‘rganish jamiyat taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik tomonidan o‘rganilishi masalalari keng yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Talaba qizlar, oilaviy xayotga tayyorlash, psixologik xususiyatlar, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy psixologik muhit, nizolarning kelib chiqishi, ajrim muammolarini o‘rganish.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА СТУДЕНТОК К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

Аннотация. *В данной статье широко освещены психологические особенности подготовки студенток к семейной жизни, важные семейные ценности и социально-психологическая среда в семье, супружеские отношения, возникновение семейных споров, исследование проблем развода. научное сообщество в ходе развития общества.*

Ключевые слова: *студентки, подготовка к семейной жизни, психологические особенности, семейные ценности, социально-психологическая среда, возникновение конфликтов, исследование проблем разрешения.*

PSYCHOLOGICAL PREPARATION OF FEMALE STUDENTS FOR FAMILY LIFE FEATURES

Abstract. *In this article, the psychological features of preparing female students for family life, important family values and the socio-psychological environment in the family, marital relations, the origin of family disputes, and the study of divorce problems are widely covered by the scientific community during the development of society.*

Key words: *female students, preparation for family life, psychological characteristics, family values, socio-psychological environment, origin of conflicts, study of resolution problems.*

Jahon xalqlari hayotida muhim o‘rin tutuvchi oilaviy qadriyatlar hamda oiladagi ijtimoiy psixologik muhit, er-xotin munosabatlari, oilaviy nizolarning kelib chiqishi, ajrim muammolarini o‘rganish jamiyat taraqqiyoti davomida keng ilmiy jamoatchilik tomonidan o‘rganilishini taqozo qilmoqda. Oila va nikohning ma’naviy-psixologik asoslari, oilaviy hayotga psixologik tayyorlik shuningdek, oilaviy munosabatlarda xulq-atvorni tartibga solish haqidagi g‘oyalar tizimini shakllantirish dolzarb ehtiyojdir. Shunday ekan, oilaviy munosabatlar, oiladagi shaxslararo munosabatlarning ijtimoiy- psixologik ta’siri hamda oilaviy hayotga psixologik tayyorlikni kompleks o‘rganish, ularning hali yaxshi o‘rganilmagan jihatlarini ilmiy tadqiq qilish jiddiy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo miqyosidagi yetakchi universitetlar ilmiy tadqiqotlarida yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorligi tobora dolzarb bo‘lib kelmoqda. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirishda va farovon oilaga erishishda yoshlarning o‘z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari hal qiluvchi nikoh oldi omillaridan biridir. Shu bilan birga oila qurishda uning ustanovkasi, oilaviy hayot tarziga ijobiy munosabati, kommunikativ xususiyatlari, oilaviy hayot qadriyatlarini ongli qabul qilganligi va oilaviy hayotga tayyorlik kabi murakkab va ko‘p darajali tarkibiy xususiyat faol shakllanishiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorij psixologlarining ilmiy tadqiqotlari xulosalarida qayd etilishicha, oilaviy hayotga tayyormaslik oilaviy hayotga nisbatan qarashlarning o‘zgarishi, qadriyatlar tizimining o‘zgarganligi bilan xozirda oilaviy hayotga tayyorlik muhim zarurat.

O‘zbekistonning yoshlarini oilaviy hayotga tayyorlash, oila va nikoh haqida adekvat tasavvurlarning demografiya sohasida mavjud jiddiy vaziyat sharoitlarida shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni1ga muvofiq yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlari tashkil etishni kengaytirish borasidagi ishlar yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Shu nuqtai

nazardan, respublikamizda oilaga va birinchi navbatda, oilaviy hayotga tayyorlashning zarurligiga davlat ahamiyati darajasida e'tibor qaratilib, zamonaviy oilani mustahkamlash va rivojlantirish masalalari bo'yicha fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratilgan.

talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligini quyidagi umumlashtirilgan mazmuniy komponentlarini ajratish imkonini berdi:

birinchi mazmuniy komponent – qadriyatli, uzoq muddatli hayot istiqboliga yo'nalganlikni aks ettiruvchi maqbul oilaviy hayot, yaxshi ko'rgan insoni bilan yaqinlik, o'ziga ishonch, mas'uliyat, sezgirlik, ratsionalizm, yuzaga keladigan hayot qiyinchiliklari oldida chekinmaslik qobiliyatlarini aks ettiradigan talaba shaxsining qadriyat sohasini o'z ichiga oladi;

ikkinchi mazmuniy komponent – emotsional-shaxslararo, o'z-o'zini nazorat qilish, muloqotda emotsional samaradorlik, kommunikativ refleksiyaga qodirlik, o'zaro ta'sir jarayonida nizoli vaziyatlarni hal eta oladi;


uchinchi mazmuniy komponent – kognitiv-xulqiy, o'z xatti-harakatlari, holati, istaklari, shuningdek, axloq mezonlari, shaxslararo muloqot prinsiplari, jamoadagi xulq-atvor individual xususiyatlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi tarkibiy qismlari shartlidir, chunki ularning mazmun asoslari o'zaro bog'liq, ya'ni bir-birini to'ldiradi, chambarchas aloqadadir.

O'tkazilgan tadqiqotning ko'rsatishicha, talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorligi universal metodika mavjud bo'lmagan psixodiagnostika uchun yetarlicha murakkab, integrativ tuzilma sanaladi. Shu bilan bog'liq ravishda, aniqlangan mazmuniy komponentlar, baholash mezonlarini hisobga olgan holda talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi rivojlanish darajasini empirik aniqlash uchun o'zini amaliyotda yaxshi isbotini topgan quyidagi psixodiagnostik kompleks tanlandi va qo'llandi: Xulosa qilish mumkinki, tashkillashtirilgan va o'tkazilgan empirik tadqiqot (n=64) tayyorlangan ijtimoiy-psixologik treningning maqsadga muvofiq samaradorligi va amaliy maqbulligini tasdiqlash imkonini berdi. Olti hafta davomida o'tkazilgan ish natijasida tajriba guruhidagi (n=30) oilaviy hayotga tayyorlik rivojlanishining yuqori, o'rtadan yuqori va o'rta darajalari 0%dan 13,3% (4 kishi)gacha, 10%dan (3 kishi) 33,3% (10 kishi)gacha va 30%dan (9 kishi) 53,4% (16 kishi)gacha oshdi, oilaviy hayotga tayyorlikning o'rtadan past va past darajadagilari 50% (15 kishi)dan 0%gacha va 10% (3 kishi)dan 0% gacha tushdi. Ijtimoiy-psixologik treningga jalb qilinmagan nazorat guruhi talabalari (n=34) orasida bunga o'xshash ijobiy o'zgarishlar bo'lmadi. Bu davrda ushbu kategoriyadagi oilaviy hayotga tayyorligi yuqori, o'rtadan past va past darajada bo'lgan kishilar soni o'zgarishsiz qoldi (0 %; 47,1 %, 16 kishi; 8,8 %, 3 kishi). O'rganilayotgan xususiyatning o'rtadan yuqori rivojlanish darajasi 11,8 % (4 kishi) dan 8,8 % (3 kishi) gacha biroz pasaydi, o'rta daraja esa 32,4 % (11 kishi) dan 35,3 % (12 kishi) gacha bir oz oshdi.


Barcha aniqlangan farqlar tajriba va nazorat guruhlarida Styudentning t-mezoni bo'yicha o'tkazilgan o'rtacha qiymatlar tengligi tahlili (talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi koeffitsiyenti (Tk) tajriba guruhida ijtimoiy-psixologik trening o'tkazilgunga qadar talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi koeffitsiyenti (Tk) tajriba guruhida ijtimoiy-psixologik trening o'tkazilgandan so'ng r = 0,00 da - t = 6,14); nazorat guruhida ijtimoiy-psixologik trening o'tkazilgunga qadar talaba-yoshlarning oilaviy hayotga tayyorlik koeffitsiyenti aniqlandi. (Tk) r = 0,76 da - t = -0,3).

Oilaviy hayotga tayyorgarlik tushunchasi va uni ilmiy-psixologik mohiyati, talabalarni oilaviy hayotga tayyorgarlik shakllanishining faol davri ekanligini asoslashga qaratilgan ilmiy-nazariy masalalar o'z aksini topdi va talabalarning oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik omillari, xususiyatlari va mexanizmlarining mazmuni yoritilishi masalalariga aloxida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorlashda "qadriyatli mazmun", "shaxslararo-emotsional mazmun", "kognitiv-xulqiy mazmun" komponentlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlar sifatida aloxida o'rin tutadi. Talabalik yoshi oilaviy hayotga kirishning motivatsion pozitsiyalarini mustahkamlash, oilada jinsiy-rolli xulq-atvoriga tayyorgarlik ko'rish va kelajakdagi oilaparvar insonning kommunikativ sohasini optimallashtirish uchun sensitiv davr ekanligi asoslandi.



2-rasm. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi qadriyatli mazmuniy komponenti shakllanligining miqdoriy tavsifi (n=288)


B.S. Kruglovning qadriyat oriyentatsiyalari shakllanganligini aniqlash metodikasini tatbiq etishdan olingan empirik ko‘rsatkichlarda , tayyorlangan umumlashtiruvchi mexanizmni qo‘llash orqali olingan psixodiagnostik natijalar talabalarning aksariyatida Talabalarning 2,1 % (6 nafar)ida rivojlanishning past darajasi aniqlandi. Talabalarning faqat 33 % (95 nafar)ida o‘rta darajadagi rivojlanish kuzatildi. Shunga ko‘ra, o‘rtadan yuqori va yuqori darajadagi talabalar aniqlanmagan (2-rasm).



3-rasm. Talabalarning oilaviy hayotga tayyorligi shaxslararo- emotsional mazmuniy komponenti shakllanligining miqdoriy tavsifi (n=288)

Oilaviy hayotga tayyorlikning shaxslararo-emotsional mazmuniy komponentini tadqiq etishda M. Snayderning muloqotda o‘z-o‘zini nazorat qilishning baholash so‘rovnomasi, V.V. Boykoning shaxslararo muloqotda emotsional to‘siqlarni aniqlash so‘rovnomasi, A.V. Karpovning refleksivlikning rivojlanish darajasini aniqlash so‘rovnomasi, O.L. Goncharovning nizo darajasi namoyon bo‘lishining ekspress-diagnostik so‘rovnomalariga tayanildi. Tayyorlangan umumlashtiruvchi mexanizmni qo‘llash orqali olingan psixodiagnostik natijalar respondentlarning aksariyatida (82,3 %, 237 nafar) shaxslararo-emotsional mazmuniy komponentning rivojlanish darajasi o‘rtadan past ekanligi kuzatish imkonini berdi. O‘rganilayotgan komponentning o‘rtacha rivojlanish darajasiga ega respondentlar soni 16,7 % (48 nafar), past va o‘rtadan yuqori

- 0,7 % (2 nafar) va 0,3 % (1 nafar)ni tashkil etdi. Shunga ko‘ra, oilaviy hayotga tayyorlikning shaxslararo-emotsional mazmuniy komponenti yuqori darajada rivojlanmagan talabalar aniqlanmagan (3-rasm).



Yuqorida olib borilgan tadqiqotimiz davomida tayyorlangan ijtimoiy-psixologik trening dastur oilaviy hayotga tayyorlikda uning samaradorligi va amaliy maqbulligi o‘z tasdiqini topganligi bois, “Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash” markazlari psixologlari va FXDYO xodimlari dasturdan keng foydalanishlari lozim. Talabalarga ta’lim muassasasi rejalari asosida oila psixologiyasi yo‘nalishi professor-o‘qituvchilari bilan davra suhbatlari tashkil etilishini muntazam amalga oshirish maqsadga muvofiqligi. Tadqiqot ishimizdan olingan natijalarni amaliyotda qo‘llanilishi maxallalardagi xotin - qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy ahloqiy qadriyatlarni mustaxkamlash bo‘yicha mutaxassislar o‘z faoliyatlarini samarali tashkil qilishga xizmat qilishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Shoumarov G‘., Rasulova Z. Oila ensiklopediyasi. - T.: «Ilm-Ziyo Zakovat», 2016. -270-b. Lapshina YE.A. Pedagogicheskiye usloviya formirovaniya konkurentosposobnoy lichnosti uchashixsya iz nepolnix semey v vospitatelnoy sisteme shkoli. / Dissertatsiya i avtoreferat na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. – Ulyanovsk. 2010.
2. Шаамирова Ю.К. “Нотўлиқ оилаларда ўсмирларни миллий-маънавий тарбиялаш” Дисс., п.ф.н. Т.2006 й. 33-34-бет.
3. Файзиева М.Х.Оила психологияси. Қарши ”Насаф нашриёти” 2018 й.138-бет.
4. Файзиева М.Х.Шахс психологик ҳимоя механизмининг ижтимоий-этник асослари.Дисс.п.ф.д.Т.2023 й -201б.

Bo‘ronova Kamola Baxtiyorovna
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya (amaliy psixologiya) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqish talabasi

O‘ZBEK OILALARIDA OTA-ONA VA FARZANDLAR O‘RTASIDAGI EMOTSIONAL MUNOSABATLARNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek oilalarida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi emotsional munosabatlarning pedagogik – psixologik xususyitalri haqida so‘z boradi. Bundan tashqari oilaviy munosabatlarda emosional zo‘riqishlarni korreksiyalashning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlangan. Shuningdek oila va oilaviy munosabatlarning ilmiy adabiyotlarda yoritilishi to‘g‘risida fikr mulohazalar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Emotsiya, determinizm, bezovtalik, korreksiya, stress, psixofiziologiya, emotsionallik, individuallik, psixologik xususiyatlar, emosional zo‘riqishlar, tasavvur, idrok.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ЭМОЦИОНАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ РОДИТЕЛЯМИ И ДЕТЬМИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются социально-психологические основы эмоциональных отношений между родителями и детьми, а также интерпретация практических результатов исследования эмоциональных отношений между родителями и детьми в научной литературе.*

Ключевые слова*: эмоция, детерминизм, тревога, коррекция, стресс, психофизиология, эмоциональность, индивидуальность, психологические особенности, эмоциональные напряжения, воображение, восприятие.*

PEDAGOGISAL-PSYSHOLOGISAL DETERMINANTS OF EMOTIONAL RELATIONS BETWEEN PARENTS AND SHILDREN IN UZBEK FAMILIES

Annotation. *This artisle will talk about the sosio-psyshologisal foundations of emotional relations between parents and shildren and the interpretation of the prastisal results of the study of emotional relations between parents and shildren in the ssientifis literature.*

Key words*: emotion, determinism, restlessness, sorrestion, stress, Psyshophysiology, emotionality, individuality, psyshologisal sharasteristiss, emotional stresses, imagination, perseption.*

Kirish. Jahonda inson hayotida yuzaga keladigan oilaviy muammolarni psixologik jihatdan tahlil qilish, zarur psixologik chora-tadbirlarni belgilash, oqilona yeshim topish, natijalarni to‘g‘ri baholash va ilmiy tadqiqotlar asosida qarorlar qabul qilish muammolarini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida ahamiyat berilmoqda. Jenevada Millatlar Ligasining Beshinchi Assambleyasida qabul qilingan «Bola huquqlari to‘g‘risidagi Deklaratsiya»da keltirilishisha, «o‘smirlarni psixologik jihatdan sog‘lom qilib tarbiyalash ushun barcha sharoitlar yaratib berilishi», «ularning ijtimoiy munosabatlarda faol qatnashishi», «o‘smirlarni ta’lim olishida bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi salbiy emotsional holatlarini bartaraf etilishi» kabilar dolzarb muammolardan bo‘lib qolmoqda.

O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida so‘nggi yigirma yillar davomida muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bu madaniy ma’rifiy mazmunga ega bo‘lgan tub islohotlarning samarasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu islohotlardan ko‘zlangan asosiy maqsad – O’zbekiston Respublikasida insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamoyat barpo etishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda oila va oilaviy munosabatlarga oid muammolar, masalasini F.A.Akramova, Sh.R.Baratov, M.G.Davletshin, A.M.Jabborov, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, S.A.Oxunjonova, N.A.Sog‘inov, G‘.B.Shoumarov, N.S.Safayev, B.M.Umarov, M.A.Utepbergenov, E.G‘.G‘oziyev singari olimlarning tadqiqotlarida o‘rin egallaydi.

Mustaqil Davlatlap Hamdo‘stligi mamlakatlapi olimlapidan A.V.Petrovskiy, L.I.Bojovish, D.B.Elkonin, D.I.Feldshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, G.M.Andreyeva, V.S.Merlin, V.V.Stolin, N.S.Leytes, V.M.Rusalov, O.A.Konopkin, I.S.Ognevlarning olib borgan tadqiqotlarida oilaviy munosabatlardagi emosional zo‘riqishlar to‘g‘risida sharhlar berilgan.

Oilaviy munosabatlar har qanday bolaning hayotida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bolalikda shakllangan xulq-atvor namunasi, hatto buzg‘unchi bo‘lsa ham, u ko‘p jihatdan o‘zini namoyon qiladi. Ota-onalar bolalar va o‘smirlarga eng katta ta’sir ko‘rsatadigan odamlardir. Shuning ushun ularning asosiy vazifasi eng kam nizolar va janjallar bilan uyg‘un, yaxshi munosabatlarni shakllantirishdir.

O‘smirlarning ideallari, negizida orzu, maqsad va ularni ro‘yobga chiqarish rejalari namoyon bo‘la boshlaydi. Muayyan kasbga mayl va qiziqish tug‘iladi. Orzu-istaklar rang-barangligi bilan bir-biridan keskin ajralib turadi.

O‘smirlardagi emosional holatlari ularning oiladagi munosabatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. V.G.Kamenskaya ushbu holatlarni shaxsdagi ahloqiy sifatlar bilan bog‘laydi. Uning tadqiqotlariga ko‘ra ular to‘rtta guruhga ajratiladi [2]:

1) xatti-harakatda o‘zlari anglagan, ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so‘zi bilan ishi mos o‘smirlar;

2) axloqiy tushunshalari harakatlariga mos keladigan o‘smirlar;

3) xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan, shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o‘smirlar;

4) o‘zlari biladigan axloqiy talablar bilan kundalik xulq-atvorning aloqasini tushunmaydigai o‘smirlar [3].

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto‘g‘ri tushunib, shaxsning ba’zi fazilatlarini noto‘g‘ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o‘z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o‘smirlar o‘zlarida salbiy sifatlarni o‘stirishga urinishini ko‘rsatdi. Hatto ular o‘zlarida shakllangan ijobiy hislatlarni yo‘qotishga ham harakat qiladilar. O‘qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto‘g‘ri qarashlarini o‘zgartirish va o‘smirlarning adashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdir. O‘smir o‘g‘il-qizlar shaxsining kamol topishida o‘zini anglash muhim ahamiyatga ega. Shunki o‘zini anglash jarayonida o‘ziga baho berish mayl va istagi o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o‘ziga bino qo‘yish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Bular esa o‘smirning psixik dunyosiga, aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatining shakllanishiga ta’sir qiladi.

O‘smirlarda o‘zini anglashning rivojlanishi shaxsiy xulq-atvorini tushunishdan boshlanib, axloqiy fazilatini, xarakterini, aqliy imkoniyat va qobiliyatini bilish bilan yakunlanadi.

O‘smirda o‘zini anglash rivojlanishi uchun sinf jamoasi va oila a’zolarining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Uning xatti-harakati, o‘z kuchiga, mayliga, yoshiga loyiq ijtimoiy munosabatlari, muayyan muhitda o‘z o‘rnini topishga intilishi o‘zini anglashining takomillashuviga puxta zamin yaratadi. O‘smirlarda o‘zini anglash yangi bosqishga ko‘tarilgash, ular o‘ziga xos axloqiy namunani tanlaydilar. O‘quvchi o‘ziga namuna bo‘lgan shaxsning xulq-atvori bilan o‘zining xatti-harakatini solishtiradi va o‘zining ijobiy yoki salbiy jihatlarini anglab yetadi. Natijada unda o‘zini o‘zi tarbiyalashga bog‘liq yana bir muhim xislat vujudga keladi. O‘smir o‘zini o‘zi tarbiyalashda kitob qahramonlaridan, kinofilm ishtirokchilaridan o‘rnak olib, goho ularga taqlid qilib, butun iroda kuchi va xarakter xislatlarini ishga solib, har xil xususiyatlarni egallashga intiladi va bu yo‘lda uchraydigan to‘siq hamda qiyinchiliklarni yengadi.

N.I.Xalilova izlanishlarida «O‘smirlik davrida o‘zini o‘zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari» nomli nomzodlik dissyertasiyasida shaxsning o‘zini o‘zi nazorat qilishi, birinchi navbatda, uning psixologik bilish jarayonlari, individual psixologik xususiyatlari hamda irodaviy-emosional holatlarining shakllanish darajasiga, ikkinshidan, uning ma’naviy bilimlari shakllanganlik darajasiga, ushinshidan, shaxs mafkurasi, fikr-mulohaza va tafakkurining shakllanganlik darajalari bilan tahlil qilinadi.

M.X.Fayziyevaning «Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy-psixologik hususiyatlari» nomli nomzodlik ishida o‘smirlarda yuzaga kelishi muqarrar inqirozlar ularda xavotirlanish hissining kushayishiga sabab bo‘ladi. Bu holat o‘z-o‘zidan ularning mafkura tizimiga ham xavf soladi. Chunki xavotirlanish, fobiyalar (qo‘rquv) kuchaygan bir vaqtda o‘smirda sog‘lom, barqaror fikr va tafakkurni shakllantirish qiyin ro‘y beradi. Bu jarayon ularning qaror qabul qilishiga xalaqit beruvshi psixologik sun’iy to‘siq hisoblanadi, deb ta’kidlaydi muallif [1].

G.T.Yadgarovaning «Noto‘liq oilalarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari» nomli dis-syertasiyasida esa shaxsning ijtimoiylashuvi normal kechishi inson psixikasida barcha jarayonlarga tezlik bilan adaptasiya (moslashuv) hosil qilinishi ilmiy psixologik jihatdan asoslab beriladi [3].

M.Sh.Rasulova «Oilada bola tarbiyasining psixologik tomonlari» nomli ma’ruzalarida milliy qadriyatlar tizimi, urf-odatlar, milliy a’analar, ijtimoiy normalar inson ma’naviyatini, mafkurasini to‘g‘ri shakllantirishga xizmat qilishining psixologik xususiyatlarini tahlil qiladi.

D.M.Anvarovaning «O‘smirlar ma’naviyati shakllanishi va rivojlanishining psixologik xususiyatlari» nomli nomzodlik dissyertasiyasida esa o‘smirlarning hissiy-emosional xususiyatlarni ularning ma’naviyatini shakllanishi va rivojlanishining psixologik qonuniyatlari va aynan o‘smirlik yoshida keshadigan inqirozli holatlarda shaxsda shakllangan ma’naviy bilimlar uning ko‘plab salbiy ilatlarga og‘ishishini bartaraf qilishi mumkinligi ilmiy asoslab berilgan.

Oilaviy munosabatlar turlari

1. Ijtimoiy - biologik. Bular gigiena, tug‘ilish, bolalar va ota-onalarning bir-biriga g‘amxo‘rlik qilishlari.

2. Huquqiy. Ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar masalalari, shuningdek, meros va farzandlikka olish masalalarini o‘z ishiga oladi.

3. Iqtisodiy va iqtisodiy. Pul topish, oila byudjetini yaratish, bolalar va qariyalarga g‘amxo‘rlik qilish.

4. Axloqiy. Bolalarni tarbiyalash, har bir oila a’zosining axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish.

5. Pedagogik. Ota-onalar bolani tarbiyalaydi va u ulg‘aygach, u o‘z farzandlarini tarbiyalashi uchun pedagogik funktsiyani unga o‘tkazadi.

6. Psixologik. Oila ishidagi his-tuyg‘ular va uning barcha a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar. Muloqot va munosabatlar sog‘lom bo‘lishi ushun oila har qanday urinishda bir-birini qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Ota-ona va bola munosabatlarining shakllanishi va dinamikasiga ta’sir qiluvshi omillarga quyidagilar kiradi: butun oila tizimi, uning faoliyati va rivojlanishining xususiyatlari; oila tizimining tarkibiy elementlari sifatida har bir oila a’zosining individual xususiyatlari; jamiyat, chunki oila bu katta ijtimoiy tizimning tarkibiy qismidir. R.V.Ovcharova barcha omillarni to‘rt darajaga guruhlashni taklif qiladi:

1) makro daraja yoki ijtimoiy ta’sir darajasi;

2) mezo-daraja yoki ota-ona oilasining ta’sir darajasi;

3) mikro daraja yoki o‘z oilasining darajasi;

4) individual daraja yoki barsha individual va shaxsiy xususiyatlariga ega bo‘lgan o‘ziga xos shaxs darajasi[3].

Bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar ikkita asosiy komponentni o‘z ishiga olgan noyob tuzilishga ega: ota-onalarning bolaga munosabati va bolaning ota-onasiga munosabati.

Ota-onalarning bolaga munosabati boshqa ko‘plab elementlarni o‘z ichiga olgan murakkab va ko‘p qirrali hodisadir. Ota-onalarning o‘z farzandiga bo‘lgan munosabatini o‘rganishda tadqiqotchilar hozirgi kunga qadar aniq belgilangan yagona tuzilmani aniqlamadilar.

Xulosa. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi hamda o‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan nafaqat aqliy faoliyatiga balki, emotsional holatlarida ham o‘zgarishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatlarda, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat’iy o‘zgarishlar vujudga keladi va bu o‘zgarishlar ularda turli ko‘rinishdagi emotsional zo‘riqishlarga sabab bo‘lar ekan. Sharq olimlarining bir qator asarlarida o‘smir shaxsi, uning individual-psixologik, hissiy-emotsional holatlari hamda adekvat va noadekvat sifatlari haqida ilmiy asoslangan fikrlar mavjud bo‘lib, ushbu nazariy tahlillar oila a’zolari o‘rtasidagi bo‘ladigan o‘zaro munosabatlarni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi PF-60-sonli Farmoni.

Granovskaya P.M. Elementы, praktisheskoy psixologii / R.M.Granovskaya. – L.: Izd. LGU, 2013. – 392 s.

Drujinin V.N. Oila psixologiyasi. -M.: "KSP", 1996 yil.

Jabborov X.X. O‘smirlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari: Psixol. fanlari... falsafa doktori (PhD) disser.avtoref. –T., 2019. – 56 b.

Psixologik maslahatdagi oila: Psixologik maslahat tajribasi va muammolari / Ed. A.A. Bodaleva, V.V. Stolin. – M.: Pedagogika, 1989 yil.

Sinyagina N.Yu. Ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarni psixologik va pedagogik tuzatish. - M .: Insonparvarlik. ed. VLADOS markazi, 2003 yil.

Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya. O‘quv ko‘llanma. – T.: «Iqtisodiyot», 2014. – 175 b.

Azizova Dinara Rahmiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti
Pedagogika va Psixologiya yo'nalishi 2-bosqich magistranti

MUAMMOLI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QUVCHILARNING BILIMLARI VA INTELEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGOK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muammoli o'qitish texnologiyalari asosida o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogok psixologik xususiyatlari haqida so‘z boradi. Bundan tashqari o‘quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatlarning o‘rni va ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek muammoli o'qitish texnologiyalari asosida o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini rivojlantirish borasida olimlarning ilmiy nazariy ma’lumotlar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *o‘qitish tizimi, qobiliyat, ijodkorlik, uzluksiz ta’lim, kreativlik, intelektual qobiliyatlar, divergent fikrlash, korreksiya, diagnostika.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЗНАНИЙ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОБЛЕМНОГО ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются педагогико-психологические особенности развития знаний и интеллектуальных способностей учащихся на основе технологий проблемного обучения. Кроме того, изучается роль и значение творческих способностей в развитии знаний и интеллектуальных способностей учащихся. Также были проанализированы научно-теоретические данные о развитии знаний и интеллектуальных способностей учащихся на основе технологий проблемного обучения.*

Ключевые слова: *система обучения, способности, креативность, непрерывное образование, креативность, интеллектуальные способности, дивергентное мышление, коррекция, диагностика.*

PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF STUDENTS ' KNOWLEDGE AND INTELLECTUAL ABILITIES ON THE BASIS OF PROBLEMATIC TEACHING TECHNOLOGIES

Annotation. *This article will talk about the pedagogical psychological characteristics of the development of students ' knowledge and intellectual abilities on the basis of problematic teaching technologies. In addition, the role and importance of creative qoboliats in the development of students ' knowledge and intellectual abilities has been studied. Also on the basis of problematic teaching technologies, scientific theoretical data on the development of students ' knowledge and intellectual abilities has been analyzed.*

Key words: *teaching system, ability, creativity, continuing education, creativity, intellectual abilities, divergent thinking, correction, diagnostics.*

Kirish. Jahonda ta’lim tizimida o‘quvchi yoshlarga yangicha zamonaviy dunyo standartlari asosida bilim berish, ta’limning barcha sohalarida ularning ijodiy faoliyatini ta’minlash, talaba-yoshlarning yangi ilmiy-amaliy g‘oyalarni yarata oladigan va har qanday vaziyatda faoliyatdagi muammoning yechimini topa oladigan ijodkorlik xususiyatiga ega shaxsni tadqiq etishga alohida e’tibor berilmoqda. Xususan, AQShning Garvard universitetida tashkil etilgan Career Services markazi tomonidan ish beruvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rov natijalariga ko‘ra ishtirokchilarning 74,8% qismi malakali mutaxassisning kasbiy kompetentligini belgilovchi muhim mezon sifatida ijodiy fikrlash va nostandart tafakkur tarzi bilan bog‘liq sifatlarni belgilagan. Singapurdagi Nan’yan texnologiya universiteti Biznes maktabida ham aynan shunga o‘xshash so‘rovnoma natijasida 62,5% ish beruvchilar bitiruvchining bilim darajasi va ijodkorlik qobiliyatlarini muhim sifatlar qatoridagi kiritishgan. Shu sababdan muammoli o'qitish texnologiyalari asosida o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari muammosi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Jahonda mamlakatlarning ravnaqi ko‘p jihatdan uning intellektual, kreativ imkoniyatlari bilan

belgilanadi. Chunki, ilmiy-innovatsion salohiyati yuqori darajada rivojlangan mamlakat barcha sohalarda doimo ilg‘or bo‘ladi. Davlatlarning tarixiy rivojlanishida yoshlarga bo‘lgan e’tibor muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda zamonaviy ta’lim sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ham talabalarni ijodiy, tanqidiy fikrlaydigan, ta’lim jarayonidagi yuzaga keladigan muammolarga aniq yechim topa oladigan qilib ta’lim-tarbiya berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, bugungi kunda ilm-fan va axborot texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta’limning samaradorlik, natijadorlik va sifatini ta’minlashda ta’lim oluvchilarning kreativlik, tanqidiylik, mantiqiylik, mazmundorlik, ijodiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz olimlaridan A.Abduqodirov, Sh.R.Barotov, A.M.Jabborov, G.N.Ibragimova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, Sh.Sh.Ostanov, M.I.Salaxutdinova, N.S.Safoyev, G‘.B.Shoumarov, E.G‘.G‘oziyev, F.A.Choriyev va boshqalar o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini oshirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonini muayyan darajada tadqiqotlar olib borishgan. Biroq aynan talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish masalalari batafsil o‘rganilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini (MDH) olimlaridan L.M.Azariyans, D.B.Bogoyavlenskaya, L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, P.M.Granovskaya, V.N.Drujinin, L.B.Ermolaeva-Tomina, V.N.Kozlenko, N.S.Leytes, A.N.Leontev, A.M.Matyushkin, A.A.Melik-Pashaev, B.M.Nemenskiy, S.O.Raevskiy, A.Z.Raximov, N.P.Sakulina, V.I.Slobodchikov, N.M.Sokolnikova, Ye.L.Soldatova, D.I.Feldshteyn, Y.A.Flerina, D.B.Elkon va boshqalar o‘quv jarayoni tafakkurning kognitiv omillar bilan bog‘liqligini, o‘quvchilar bilimini rivojlantirish va intellektni – inson tafakkuri va aqliy faoliyatining muayyan shakli sifatida o‘rganib, uning o‘ziga xos pedagogik-psixologik jihatlari ochib berilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy pedagogika fanida bugungi kunda «ijodiy qobiliyat» atamasining yagona talqini mavjud emas. Tadqiqotlarda ijodiy qobiliyat bilan bog‘liq juda ko‘p tushunchalarni topish mumkin.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, barkamol shaxsni shakllantirish muammolarini muvaffaqiyatli hal etish, qulay kasbiy layoqatni aniqlash, o‘zgaruvchan zamonga moslashish tayyorligi va qobiliyati, ijtimoiy ahamiyatga ega yutuqlar yuqori darajada rivojlangan kreativlik qobiliyati bilan o‘zaro bog‘liq ekanligini ko‘rsatmoqda.

So‘nggi yillarda o‘quvchilarni yosh davrlari, ontogenez, zamonaviy ta’lim psixologiyasi, shaxs psixologiyasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Ushbu qobiliyatni erta aniqlash, shakllantirish, o‘quvchining umumiy shakllanishi va kamolotidagi ahamiyati, kelajakda shaxs muvaffaqiyatining kreativlik darajasiga bog‘liqligini ilmiy asoslaydi. Bu kabi tadqiqotlarni bir butun mantiqiy tizimlashtirish va o‘quvchilarda kreativlik xususiyatlarini shakllantirish maqsadida biz kreativlik kategoriyasini har tomonlama o‘rganishni maqsad qildik.

Bola shaxsini rivojlantirish, dunyoqarashini o‘stirishda sharq mutafakkirlarining o‘rni katta. Ularning hayoti, ijodi, axloqiy ta’lim va o‘gitlari yosh avlodni tarbiyalashda meros hisoblanadi. Ular ijodiga xos xususiyat – ilm ma’rifatni ulug‘lash, axloq masalalari, Vatanni sevish, insonparvar bo‘lishga undashdan iborat bo‘lgan. Qolaversa, mazkur mutafakkirlarimiz tomonidan ham o‘z davrida ta’lim jarayonida mustaqil va kreativ fikrlovchi, ijodkor shaxslarni tarbiyalashda o‘qitishning qanday usul va vositalaridan foydalanish lozimligi borasida ahamiyatli fikr va mulohazalar o‘rtaga tashlangan.

Buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” – (baxt saodatga elituvchi bilim) asarida ham barkamollik asosida insonning mantiqiy, o‘quv va ijodiy va ijobiy fikrlashi turishini asoslab o‘tadi. Misol tariqasida, asarda komil insonning eng asosiy jihatlari sifatida u ilm, ijodiy va ezgu (ijobiy) fikrlashni ko‘rsatib o‘tadi. Komil inson aynan shu kabi fazilatlar orqali voqelikni to‘laqonli anglashi va mazkur zakovat orqali go‘zal va kreativ fikrlashi mumkinligini ilgari suradi. Bilimi buyuk – o‘quvi ulug‘, deb ta’kidlaydi. Chunki zakovatli inson ulug‘ bo‘ladi, bilimli kishi buyuk bo‘ladi, deb ilmli kishilarni asl toifadagi kishilarga qo‘shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishini aytadi.

Inson go‘zal va ijodiy fikrlashi orqali sog‘lom xulq-atvorga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lish g‘oyasi Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ham keng yoritilgan. Kaykovusning fikricha, ilm uning asosida ijodiy va mantiqiy fikrlash insonni kamolotga yetaklovchi asosiy omillardandir. U ilmni uchga bo‘ladi:

1. Biror kasb-hunarga bog‘liq bo‘lgan ilm.
2. Ilm bilan bog‘liq bo‘lgan kasb-hunar. Z. Hayr va dalolatga taalluqli odat.

Kaykovusning mazkur qarashlari o‘sha davrda ilg‘or qarashlardan sanalgan. Chunki bu fikrlar uni zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega bo‘lganligidan dalolat bergan.

Uning pand-nasihatlarida har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyasiga oid turmush “Qobusnoma” asarining barkamol avlodni tarbiyalashda amaliy ahamiyati juda kattadir.

Ushbu holatlardan kelib chiqib, o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini rivojlantirishning madaniy sharoit, ijodiy muhit, zarur individual pedagogik-psixologik sifatlarning mavjudligi, tegishli aqliy xavfsizlik darajasi muhim, lekin muayyan faoliyat jarayonlari beqiyos o‘rin tutadi. Olingan ma’lumotlar natijalari va tahlil qilish natijasida quyidagi yo‘nalishlarda ishlash kerakligini ko‘rishimiz mumkin:

- ta’lim muasssalarida o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, turli soha mutaxassislari ishtirokida davra suhbatlari, anjumanlar, seminarlar tashkil etish;

- umumta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitish jarayonida talabalar o‘rtasida ijodiy fikrlashni **o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini** rivojlantirishga, shuningdek ularning shaxslararo munosabatlar mexanizmlarini shakllantirishga e’tibor qaratish;

- **o'quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini** aql-idrok ijodiy tafakkurni rivojlantirishning eng muhim omili ekanligini tushuntiring.

- ta’lim muassasalari uchun ijodiy fikrlash va ijodkorlikning asosiy omillari, usul va vositalarini amaliy psixologik tajriba asosida tahlil qilish. Ta’lim muassasalari talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik dasturlar va tadbirlar natijalarini tavsiflash.

«O‘quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini ijodiy fikrlash darajalarini tadqiq qilish» psixologik so‘rovnomasi orqali olingan dastlabki natijalar tahlili (n=80)

Omillar	O’g‘il bolalar n=40	%	Qiz bolalar n=40	%
divergent fikrlash	5	13,3	6	14,4
konvergent fikrlash	6	20,0	5	20,0
nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyati	5	21,1	7	20,0
semantik spontan moslashuvchanlik	5	12,2	5	13,3
kreativlik kognitiv	10	17,8	6	17,8
original yechimlarga erishish qobiliyati	20	15,6	5	14,4
Jami:	40	100	40	100

Olib borgan tadqiqotimizda «O‘quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini ijodiy fikrlash darajalarini tadqiq qilish» psixologik so‘rovnomasi bo‘lib, ushbu metodika orqali olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi. Dastlab nazorat guruhidagi respondentlardan olingan ko‘rsatkichlarni tahlilini keltiramiz.

Demak, yuqoridagi statistik tahlillardan ko‘rinib turibdiki, oquvchilarda g‘oyalarni yaratish, fikrlarning rang-barangligi fikrlar uyg‘unligi, mantiqiy ijodiy fikrlash kabi xususiyatlar yetakchilik qilsa, qiz bolalarda esa maqsadga muvofiq keladigan adekvat yechimni tanlash, muammolarni hal qilishning yangi strategiyalarini tez va oson topish qobiliyati ustunlik qilar ekan. O’quvchilarda «original yechimlarga erishish» qobiliyatini yetarlicha shakllanmaganligi esa, ularning faoliyat samaradorligiga salbiy ta’sir qilib, shaxsiy kamolotining rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Biz tadqiqot davomida tajriba guruhidagi o‘quvchilardan dastlab o‘quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlarini ijodiy fikrlash darajalarini rivojlanganlik darajasini aniqlab, uning psixotrening dasturigacha va undan keyingi holatiga ko‘ra olingan natijalarning o‘rtacha miqdoriy natijalarini taqqosladik.

Xulosa va tavsiyalar. O‘quvchilarning bilimlari va intelektual qobiliyatlari psixologik tarkibini **o‘rganish** davomida o‘quvchilarga xos “og’zaki kreativlik”, “hayoliy kreativlik”, “mazmundor kreativlik” va “mantiqiy kreativlik” kabi tayanch pedagogik - psixologik xususiyatlar aniqlandi. O'quvchilarning ijodkorligini rivojlantirish jarayoni mavsumiy fanlarni o’qitishda ma’lum shartlarni

talab qilar ekan (pedagogdan g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy rejalarni mustaqil amalga oshirish imkoniyati, tanqidning yo'qligi, shaxsga va uning faoliyati natijalariga nisbatan qadriyatlarni yaratish), shuningdek «ravonlik», «moslashuvchanlik», «o'ziga xoslik», «birlashish qobiliyati» ko'rsatkichlarini o'zgartirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategisi to'g'risida"gi PF 4947-sonli Farmoni.
2. Abdullaeva Sh.X. Pedagog professional kompetentliligini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari. Psixol.f.d. dissertasiyasi avtoreferati. – T.: 2019 y. - B. 36-49.
3. Abu Rayxon Beruniy. Hikmatlar. (To'plovchi A.Irisov). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1973. – 103 b.
4. Бухвалов, В.А. Алгоритмы педагогического творчества [текст] / В.А. Бухвалов. – 2-е изд. – М.: Просвещение. – 2004 – 96 с. – ISBN 5-09-004471-
5. Ллексеева Л.Г., Воронин А.М., Галкина Т.В.и др. Развитие и диагностика способностей/ АН СССР, Ин-т психологии. – М.: Наука, 1991. – 177 с.
6. Ллексеева Л.Г., Воронин А.М., Галкина Т.В.и др. Развитие и диагностика способностей/ АН СССР, Ин-т психологии. – М.: Наука, 1991. – 177 с.
7. Torrence E.P., Growing up creativity gifted: a 22-years longitudinal study//Creative child and adult quaterly, 1980. 5 P.

Abdullayev Shahzodjon Zokirjonovich
Buxoro davlat universiteti
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasi
2-bosqich magistranti

REKLAMANING SHAXS TOMONIDAN IDROK QILINISHINI O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada reklamaning shaxs tomonidan idrok qilinishini o‘rganishning ilmiy-nazariy muammolari haqida so‘z boradi. Jamiyatdagi shaxs xususiyatlari, ijtimoiy ustanovkalari, tasavvurlari hamda ta’sirchan reklamani idrok qilish jarayoni ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Bundan tashqari reklama faoliyati va uni idrok qilinishining psixologik jihatlari yoritilgan tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlarni nazariy-metodologik jihatdan tadqiq va tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *reklama, idrok, individuallik, kasbiy muammolar, stress, suhbat, adekvat munosabat, milliy qadriyatlar, reklamalar bozori, iqtisodiy islohotlar, psixologik qonuniyatlar.*

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОГО ВОСПРИЯТИЯ РЕКЛАМЫ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научно-теоретические проблемы изучения индивидуального восприятия рекламы. Научно исследованы особенности личности в обществе, социальные установки, восприятие, процесс восприятия аффективной рекламы. Кроме того, были исследованы и проанализированы теоретико-методологические аспекты рекламной деятельности и психологические аспекты ее восприятия.*

Ключевые слова: *реклама, восприятие, индивидуальность, профессиональные проблемы, стресс, разговор, адекватное отношение, национальные ценности, рынок рекламы, экономические реформы, психологические закономерности.*

SCIENTIFIC-THEORETICAL PROBLEMS OF STUDYING THE PERCEPTION OF ADVERTISING BY A PERSON

Annotation. *In this article, we will talk about the scientific and theoretical problems of studying the perception of advertising by an individual. The process of perception of personality traits, social Masters, imagination and impressive advertising in society has been scientifically researched. In addition, the activities of advertising and the psychological aspects of its perception are covered by research, research and analysis of scientific literature in theoretical-methodological terms.*

Key words: *reclamation, perception, individuality, professional problems, stress, conversation, adequate attitude, national values, advertising market, economic reform, psychological laws.*

Kirish. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurishda iqtisodiy taraqqiyot muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy rivojlanish esa raqobat muhitini talab etadi. Raqobatbardosh mahsulotlar va xizmatlar haqida ma’lumot berish, iste’molchilarni tanishtirish, ular e’tiborini aynan u yoki bu tovar mahsulotlari, xizmat turlariga jalb qilish maqsadida reklamaga murojaat etiladi. Bugungi kunda reklama jamiyatning turli sohalarida, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarda tobora o‘zining mustahkam o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish va savdo-sotiqning muvaffaqiyatli yechimida reklama industriyasining mavqei alohida ahamiyatga ega. Zero, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda raqobat muhitining mavjudligidir. Raqobat muhiti esa reklamaga bo‘lgan talab va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. O‘zbekistonda ham yildan-yilga sanoat rivojlanayotganligi hamda ijtimoiy infratizimni jadal rivojlantirish, turli xizmat va servis turlarini takomillashtirishga ehtiyoj ortib borgani sayin reklama xizmatlariga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda.

Ma’lumotlarga ko‘ra, hozirda mamlakatimizda 200 dan ortiq reklama agentliklari faoliyat yuritib, ular turli ko‘rinishdagi va turli mazmundagi mahsulotlar va xizmatlar bozori bilan aholini tanishtirib kelmoqda. Chunki reklama mazmun-mohiyatiga ko‘ra, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o‘rtasidagi aloqachi vazifasini bajaradi. Bu esa yangi mahsulotlar va xizmatlar haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘lish imkonini yanada oshiradi. Reklama jamiyatda faqatgina iqtisodiy sohagagina samarali ta’sir etmay, balki ijtimoiy, siyosiy, madaniy sohalarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Reklama psixologiyasi ijtimoiy psixologiyada tobora keng o‘rganilib kelinayotgan muammolardan biri sanaladi.

Reklama faoliyatining mohiyati, uning shaxs va guruhlar tomonidan baholanishi, ushbu jarayonlarda shaxsning o‘rni va shaxslararo munosabatlar masalasi konkret tadqiqotlarning predmetiga aylantirilgan .

Reklama faoliyatining boshqa sof ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, ijtimoiy-madaniy, texnologik sohalari turlicha yondashuvlar, tahlillar doirasida ham o‘rganib chiqilgan Uzoq xorij mamlakatlaridan farqli o‘laroq, reklamaning o‘ziga xos jihatlari yaqin hamdo‘stlik mamlakatlari olimlari tomonidan ham o‘rganib kelinmoqda (G.M. Andreyeva, V.G. Zazikin , L.N. Xromov , M.Yu Rojovin, E.Ye.Starobinskiy).

Reklamalar dastlab yangi mahsulotlar va xizmatlar haqida ma’lumot berib, xaridorlarni yaqindan tanishishiga imkon bergan. Ma’lumki, «reklama» so‘zi lotincha «reklamare» so‘zidan olingan bo‘lib, «qichqirish», «chaqirish» ma’nolarini bildiradi. O‘zbekchada «jarchi», «dallol », «jallob » so‘zlariga to‘g‘ri keladi. Ingliz tilida esa «reklama» so‘zi o‘rnida «advertising» so‘zi ko‘p ishlatilib, bu ham reklama qilish, reklama faoliyati tushunchalarini ifodalaydi. Ilk bor reklamalar hududma-hudud yurib og‘zaki va ko‘rgazmali tarzda jarchilar tomonidan amalga oshirilgan. Reklamalarning paydo bo‘lishi va ko‘rinishlari xususida F.G. Pankratov, Yu.K. Bajenov, V.G. Shaxurinlar shunday yozadi: «Reklama eramizgacha bo‘lgan davrlarda paydo bo‘lgan. Zamonaviy tadqiqotchilar qadimiy reklamalar matni toshlarga o‘yib yozilgan deb hisoblaydilar. Qadimgi Gresiya va Rimda reklama e’lonlari yog‘och doskalarga yozilgan va xalq to‘planadigan joylar va maydonlarda baland ovozda o‘qilgan» . Qadimiy Gresiyada jarchilar ko‘chalarda reklama qo‘shiqlari bilan yurib chiqishgan. Eramizgacha VI-VIII ming yilliklarda reklamaning ilk madaniy taraqqiyoti yozma matn ko‘rinishida bo‘lgan. Savdogarlar o‘z mahsulotlariga xaridorlar e’tiborini jalb etish uchun og‘zaki muloqot bilan birga, ko‘rgazmali reklama elementlari va grafik tasvirlaridan ham foydalanganlar. Masalan, Mesopatamiyada maxsus qurilmalarga xo‘jayinlarining nomi va ularni maqtovchi yozuvlar yozilgan. Qadimgi Gresiya va qadimgi Rimda savdo uylari, jamoat joylarida aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar va sotiladigan tovarlar haqida ma’lumotlar ko‘p miqdorda ilingan. Maxsus o‘rnatilgan tosh plitalarga nafaqat qarorlar, balki reklama e’lonlari ham yozilgan.

Tahlil va natijalar. Amerikalik psixolog D.Starch reklama e’lonlarini gazeta va jurnallarning qaysi betida berish samarali bo‘lishini o‘rgangan. Aniqlanishicha, e’lonlar turli sahifalarda bo‘lsa 50%, birinchi va oxirgi sahifalarda bo‘lsa 100% e’tiborni jalb qilar ekan. Demak, reklama ma’lumotlarining idrok etilishida matnning sahifalarda joylashtirilishi, reklama axborotlarining takrorlanishi ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari ommaviy axborot vositalari orqali ma’lumotlar bilan tanishuvchilar yosh xususiyatlariga ko‘ra tafovutlanishi N.Bogomolova tomonidan o‘rganilgan. Unga ko‘ra, gazeta ma’lumotlari bilan asosan katta yoshdagilar, radio ma’lumotlari bilan yoshlar va kattalar, tyelevideniye orqali uzatiladigan ma’lumotlar bilan barcha yoshdagilar, aynan bolalar va keksalar tanishishi ta’kidlangan. Olima N. Bogomolova bolalarda ijtimoiy hayot haqidagi tasavvurlarning shakllanishida televideniye uchinchi ota-ona hisoblanib, ular dunyo qadriyatlari haqidagi birlamchi tasavvurlarini televideniye ko‘rsatuvlari orqali oladilar degan fikrni qayd etadi. Tadqiqotchi A.Azlarova esa gazeta ma’lumotlari bilan asosan erkaklar qiziqishlarini qayd etib o‘tgan. Shuningdek, u aholi o‘rtasidagi reklama axborotlari bilan qiziquvchilarni ham o‘rganib, aholining 4 foizi va o‘rta yoshdagilarning 20 foizigina reklama axborotlari bilan qiziqishini, 24 foiz aholi esa o‘zi uchun muhim bo‘lgan tanlangan axborotni izlashini va 52 foizi esa reklamalarga umuman qiziqmasligini ta’kidlaydi. Demak, reklama ma’lumotlarining adekvat idrok qilinishida ommaviy axborot vositalari muxlislarining yosh xususiyatlari ham e’tiborda tutilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda reklamaning ijtimoiy sohadagi ta’sir xususiyatlari muammosi V.M.Mosin ishlarida ham o‘rganilgan bo‘lib, u reklamaning shaxs ruhiy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni masalasiga e’tibor qaratgan. Tadqiqotda reklama orqali shaxs tarbiyasiga ta’sir etish, ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rni, iste’molchilarning reklamaga nisbatan munosabat motivlari, shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga kommunikatsiyaning ta’siri ilmiy asoslar bilan tahlil qilingan.

Reklamaning iqtisodiy vazifasi iqtisodiy sohani faollashtirish va tezlashtirish hisoblanadi. Iste’molchilarda xarid qarorining qabul qilinishida, yangi mahsulot va xizmatlarning turlari, imkoniyatlari, qulayliklarining targ‘ib qilinishida reklama asosiy vazifani bajaradi. Reklama yangi mahsulot yoki xizmatlarga iste’molchilar diqqatini, qiziqishlarini jalb qilib, ehtiyojlarining qondirilishiga ta’sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, rossiyalik olim R.Mokshansev reklamani quyidagicha ta’riflaydi: «Reklama bu–aholini mahsulot bilan tanishtirish, u haqida axborot berish, sotib olishga jalb

qilishdir. Reklama kuchli raqobatli bozor sharoitida eng asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi». Shuningdek, olim reklamaning quyidagicha maqsad va vazifalarini ta’kidlaydi:

1. Mahsulotni, ishlab chiqaruvchini va savdogarni identifikatsiya qilish.
2. Mahsulot, xizmat yoki g‘oyalarning yashovchanligini ta’minlash.
3. Xaridorni ogohlantirish.
4. Talab va didni shakllantirish va b.

Reklama beruvchilar mahsulotlar haqida uning bahosi, xususiyatlari, yangiligi, foydali tomonlari va foydalanish usullari haqida axborot berishlari zarur. Reklama barcha ommaviy kommunikatsiya vositalarida mavjud bo‘lib, ular uchun iqtisodiy manba biznes muvaffaqiyati hisoblanadi. Xaridorlarning yangi talablarini o‘stirishda, tanlash imkoniyatlarini oshirishda, yangi mahsulot yoki xizmatlar bilan tanish bo‘lishlarini ta’minlashda reklamalar asosiy ahamiyat kasb etadi. Reklama iqtisodiyotning bir bo‘lagi sifatida aholining yangi ish o‘rinlari bilan ta’minlanishida, yangi mahsulotlar va bilimlarning amaliyotga tatbiq etilishida, ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning o‘zaro foydali aloqalarida vositachilik vazifasini o‘taydi.

Reklamaning ijtimoiy vazifasi. Har qanday reklama mamlakatning madaniyatini, turmush tarzini, tarixiy-madaniy an’analarini, hayotiy qadriyatlarini targ‘ib qiladi. Avvalo, reklamalar jamiyatdagi insonlar guruhiga ta’sir etish, ularda yangi tasavvur va tushunchalarni hosil qilish, qiziqishlarini orttirishga qaratilgan bo‘ladi. Reklama ma’lumotlari bilan tanishish davomida turli ijtimoiy munosabatlar haqida qatlamlar va millatlar urf-odatlari, stereotiplari, turli oilalardagi shakllangan qadriyatlar tizimi haqida tasavvurlar shakllanib boradi. Reklama insonlar tomonidan bir yoqlama qabul qilinmaganligi bois ham bugungi kunda kundalik hayotimizdagi axborotlar tizimida asosiy o‘ringa ega bo‘lib qolmoqda. Buni mashhur psixolog I.V.Groshev ta’biricha shunday izohlash mumkin: «Zamonaviy inson hayotini reklamasiz tasavvur etib bo‘lmaydi, chunki u tobora faol va ta’sirchan bo‘lib bormoqda» . Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari asosan reklama manbai sifatida xizmat qilmoqda.

Demak, reklama ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra, shaxsni ijobiy maqsadlari sari undovchi faoliyat motivini kuchaytiruvchi, ijobiy hayot obrazini shakllantiruvchi, ijtimoiy qadriyatlar va stereotiplarni targ‘ib qiluvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Reklamaning ta’limiy vazifasi bu yuqoridagi vazifalardan tubdan farq qilib, uni anglash, idrok qilish yangi bilim, ma’lumot va tasavvurlarning hosil bo‘lishiga, intellektual salohiyatning oshishiga ta’sir qiladi. Insoniyat jamiyatining eng noyob va amaliy isbotlangan kashfiyotlari, tajriba va izlanishlarining mahsuli sifatida paydo bo‘lgan eng yangi texnika, texnologiya turlaridan foydalanish qoidalarini iste’molchilarga tanishtirish imkonini reklama xizmatlari bajaradi. Reklamalar doimo aniq bilim va maqsadga asoslanilgan tarzda ishlab chiqiladi, bu esa reklama samaradorligini ta’minlaydi. Reklama iste’molchi fikriga va xulq-atvoriga ta’sir qiladi. Shuningdek, reklamaning samaradorligi unda inson ruhiy jarayonlariga qay darajada ahamiyat berilganligiga bog‘liq. Insonning u yoki bu reklama qilinayotgan mahsulotlarni idrok qilishida ishonch muhim rol o‘ynaydi, chunki reklama ishlab chiqaruvchilarda mijoz ishonchini qozonish qobiliyati mavjud. Insondagi bu sifat shaxs xulq-atvoridagi konformizm yoki nonkonformizm fenomeni bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Xulosalarga ko‘ra, odamlarda reklamalarga tez ishonmaslikka moyillik yuqori bo‘ladi. F.G.Pankratov fikricha, reklamaning inson xulq-atvorida ifodalanishiga ichki va tashqi omillar ta’sir qiladi.

Reklama qilinayotgan mahsulotlarni idrok qilinishining ijtimoiy-psixologik tafovutini ilmiy tadqiq qilish natijalari quyidagicha:

1. Chet el olimlari tomonidan reklama va uning faoliyatiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa-da, biroq ularning natijalari, ularda ilgari surilgan g‘oyalarning hammasi ham O‘zbekiston hududi va o‘zbek yoshlariga mos kelavermaydi. Ular har bir hududda o‘z madaniy an’analaridan kelib chiqib, maxsus tadqiqotlar o‘tkazilishini talab etadi;

2. Reklamani o‘rganish yuzasidan qilingan qator tadqiqotlarda turlicha yondashuvlar, turlicha ilmiy metodlar talqin qilingan. Ijtimoiy munosabatlardagi o‘ziga xoslikning reklamani idrok qilishga ta’siri ko‘proq ijtimoiy so‘rovlar, oilaviy munosabatlar xarakterini aniqlovchi metodlar yordamida o‘rganiladi. Reklama tadqiqida gender sohasi ta’siri yuqori bo‘lib, bunga ko‘ra, reklama ma’lumotlariga munosabat bildirilishi, baholanilishi gender xususiyatlariga ko‘ra tafovutlanadi. Va yana mavjud ijtimoiy rollar ham gender tamoyillariga asoslanilib, bu reklamaga munosabat bildirishda muhim omillardan biri hisoblanadi;

3. Reklamaning anglanishida yigit va qizlarning yoshi, ma'lumotlilik darajasi, barqaror qadriyatlar tizimi muhim ahamiyatga ega;

4. Reklama faoliyati va uning idrok qilinishini o'rganuvchi ayrim metodikalar o'zga millat vakillarida qo'llanilganda milliy, mintaqaviy, ijtimoiy xususiyatlarni hisobga olib moslashtirilishi lozim. Bir millat uchun ahamiyatli diagnostik metodika o'zga milliy madaniyatga tegishli sinaluvchilar uchun ayrim tasdiqlari mos kelmasligi va yetarlicha samara bermasligi mumkin. Shuning uchun o'zbeklarda reklamaga bo'lgan munosabatni o'rganishda milliy qadriyatlarga yo'nalganlik birligi kabi jihatlarni inobatga olish lozim;

5. Reklamaga bo'lgan munosabat tabiatini va uning idrok qilinishini o'rganish yaratilayotgan milliy reklamalarda jamiyat ehtiyojlarining inobatga olinishini, bevosita jamiyatga yo'naltirilgan samarali reklamalar yaratilishini ta'minlash imkonini beradi;

6. Reklamalarga nisbatan shakllanadigan munosabat motivlari jamiyatdagi yigit va qizlarning bajaradigan ijtimoiy rollariga ko'ra tafovutlanadi;

Xulosa. Ushbu ishimizda o'zbeklarda reklama qilinayotgan mahsulotlar va xizmat turlarini idrok qilinishining ijtimoiy psixologik xususiyatlari o'rganildi. Ish doirasida o'tkazilgan empirik tadqiqotlar asosida o'zbek yoshlarini reklama qilinayotgan mahsulotlarni adekvat idrok qilishi o'zaro munosabatlaridagi moslik va qovishuvchanlik bilan bog'liq bo'lishi, qadriyatlarga yo'nalganlik birligi bilan uyg'unligi empirik tasdiqlandi. E'tibor qaratilgan asosiy jihatlardan biri – yosh va o'rta yoshlilarlarni reklama qilinayotgan mahsulotlar va xizmatlarga nisbatan munosabatini ifodalovchi motivlar tizimini aniqlash va yoshlarni reklama qilinayotgan mahsulotlarni turlicha idrok qilishlariga ijtimoiy ustanovkalar ta'sirini, o'zaro moslik, bir-birlarini tushunish va muhit ta'sirini o'rganishdan iborat edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pankratov F.G, Bajenov Yu.K., Shaxurin V.G. Osnovы reklamы. – M., 2006.
2. Drujinina V.N. Psixologiya. Uchebnik dlya ekonomicheskix vuzov. – SPb.: Piter, 2002.
3. Karimova L.I. Sosialno-psixologicheskiye i etnopsixologicheskiye osobennosti sosialnыx predstavleniy i ustanovok lichnosti po otnosheniyu k reklame: Dis. ... kand. psixol. nauk. – Tashkent, 2004.
4. Mokshansev R.I. Psixologiya reklamы. Ucheb. posobiye. M.: INFRA-M; Novosibirsk: Sibirskoye soglasheniye, 2001.
5. Groshev I.V. Pololevыye stereotipы i gendernaya neverbalnaya kommunikatsiya v zerkale reklamы // Vestnik Tambovskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta, 1998.

Internet saytlari

1. www.google.ru
2. www.gov.uz
3. www.lex.uz

Dehqonboyev Shohajahon Oybek og‘li
Buxoro davlat universiteti
psixologiya va sotsiologiya kafedrasi magistranti

SUD OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZASINI TASHKIL QILISH VA O’TKAZISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sud psixologik ekspertizasini tashkil qilish va o‘tkazishning innovatsion va ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish borasidagi samarali faoliyat olib borish tartibi tahlil qilingan. Bundan tashqari sud psixologik ekspertizasini olib borish bosqichlari bo‘yicha tavsiya va xulosalar ishlab chiqilgan. Shuningdek psixologik ekspertizaning asosiy vazifalari, ekspertga qo‘yilgan talablar, psixolog ekspertining faoliyat olib borish tartibi, huquqlari, majburiyatlari, burchlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: Ekspert, qobiliyat, psixik hodisalar, Sud tibbiy ekspertizasi, Kompleks ekspertizalar, tergov, affekt, stress, jinoiy ish.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация. *В данной статье анализируется порядок организации и проведения судебно-психологической экспертизы для осуществления эффективной деятельности с использованием инновационного и передового зарубежного опыта. Кроме того, разработаны рекомендации и выводы по этапам проведения судебно-психологической экспертизы. Также речь идет об основных задачах психологической экспертизы, требованиях к эксперту, порядке осуществления деятельности экспертом-психологом, его правах, обязанностях, обязанностях.*

Ключевые слова: *эксперт, способность, психические явления, криминалистика, комплексные экспертизы, следствие, аффект, стресс, уголовное дело.*

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Annotation. *This article analyzes the procedure for organizing and conducting a forensic psychological examination and conducting effective activities on the use of innovative and advanced foreign experiments. In addition, recommendations and conclusions have been developed on the stages of conducting a forensic psychological examination. It also talks about the main tasks of psychological examination, the requirements for the expert, the procedure for conducting activities of the psychologist's expert, rights, obligations, duties.*

Key words: *expert, Ability, Psychic Phenomena, forensic medical examination, comprehensive examination, investigation, affect, stress, criminal case.*

Kirish. Jahonda sud psixolog eksperti va voyaga yetmaganlarni sud psixologik ekspertiza qilishga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimini takomillashtirish, uni bugungi zamon talablari asosida o‘qitishning ilg‘or yondashuvlarini joriy etish bo‘yicha olib borilgan islohotlar natijasida ichki ishlar organlari psixologi kasbiy kompetentligini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari fan-texnika taraqqiyoti, insonlarning sifatli va aniq ma’lumotga bo‘lgan ehtiyojlarining ortishi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish zarurati mavjud ekanligini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiy va siyosiy sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ishlar bilan bir qatorda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, ertangi kuni, jismoniy va aqliy jihatdan barkamol rivojlanishlari borasida ham kishini quvontiradigan darajadagi ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sog‘lom va barkamol, bilimli, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni shakllantirishdan iborat.

Oliy ta’lim muassasalarining ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari, qonun osti hujjatlari jumladan farmonlar, farmoyishlar, qarorlar va buyruqlar kabi tashkiliy huquqiy hujjatlar qo‘llanilmoqda.

Yuridik psixologiya fanining nazariy va amaliy muammolari, fanni o‘qitishdagi innovatsiyalar, o‘quv dasturi, ma’ruza matnlari, keyslar, amaliy topshiriqlar, nazorat savollari shu kunga qadar oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari tomonidan etarli darajada o‘rganilmaganligi yuridik psixologiya fani muammolarini, xususan sud psixologik ekspertiza mavzusi muammolarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to‘laroq anglash va amaliyotga keng tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo‘lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o‘rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o‘rnini bo‘shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o‘tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o‘z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta’minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko‘p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog‘liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug‘ullana boshladilar.

Sud psixologik ekspertiza bugungi kunda huquqshunoslik amaliyotiga chuqur kirib bormoqda. Sud psixologik ekspertizasining mohiyatini to‘laroq anglash va amaliyotga keng tadbiq etish uchun esa uning shakllanish yo‘lini, tarixini bilish talab etiladi.

Huquqbuzarlik jarayonidagi ishtirokchilarning (ayblanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlik beruvchi) psixik xususiyatlarini tadqiq qilish va o‘rganishga qiziqish qadim-qadimdan mavjud bo‘lgan.

Kishilik jamiyatining taraqqiy etib borishi, bir ijtimoiy tuzumning ikkinchi bir ijtimoiy tuzumga o‘rnini bo‘shatib berishi jamiyatda bir qator yangiliklarni, o‘zgarishlarni keltirib chiqargan. Shu tariqa jamiyat rivoji barcha sohalar singari psixologiya ilmining ham rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Natijada huquqshunoslik amaliyotida psixologik sinovlarning ahamiyati yanada ortib, uni o‘tkazish usullari takomillashib bordi. Bu o‘z navbatida, tergov va sudlov jarayonlarining oshkoralik asosida, odilona olib borilishini ta’minladi. Biroq, tergov va sudlov jarayonlarining oshkora va odilona olib borilishi ko‘p hollarda faqat sudya yoki tergovchining tajribasiga, ilmiga, malakasiga va vijdoniga bog‘liqligicha qolaveradi. Bunday holat tabiiy ravishda sudlov va tergov jarayoniga boshqa sohalarning ham aralashishi zaruriyatini keltirib chiqardi. Dastlab sudlov jarayonida psixologlar voyaga yetmaganlarning psixik rivojlanishi xususiyatlarini, xotira, tafakkur jarayonlarini tadqiq qilish bilan shug‘ullana boshladilar.

Huquqshunoslik amaliyoti tarixidan ma’lum bo‘lishicha, ilk marta 1810-yilda Napoleon “jinoyat kodeksi”ga o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish yoki boshqara olmaslik (vnmenyaemost, nevmenyaemost) layoqatini aniqlash tushunchasini kiritdi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir qator mamlakatlarning jinoyat protsessual kodekslariga ayblanuvchining o‘z xatti-harakatlariga javob bera olish yoki javob bera olmasligini aniqlashga doir tibbiy tushunchalar ham kiritila boshlandi.

Rossiyada 1864-yilda jinoyat ishlari bo‘yicha sudlov nizomiga psixiatrik ekspertiza o‘tkazish zarurligi to‘g‘risidagi kodeks qo‘shilgan edi. Ushbu psixiatrik ekspertiza tarkibida psixologik ekspertiza o‘tkazish ham ko‘zda tutilgan. Shu vaqtdan e’tiboran Rossiyada psixologik ekspertiza o‘tkazila boshlandi.

Asrimizning o‘rtalariga kelib, eksperimental psixologiya sohasi bo‘yicha erishilgan yutuqlardan sud amaliyotida ham foydalanila boshlandi. Ushbu yo‘nalish bo‘yicha laboratoriyalar tashkil etilib, ularda jinoyatchi shaxs xulqi o‘zgarishlari, fiziologik affekt holati va shu kabilar o‘rganila boshlandi.

1922-yilda Rossiya Federatsiyasida birinchi marta jinoyat protsessual kodeksi qabul qilindi. Asrimizning boshlarida sobiq ittifoqning bir qator shaharlarida jinoyatchi shaxsini o‘rganish bo‘yicha markazlar ochilib, ularda sud psixologik ishlari olib borila boshladi.

XX asrning 70-yillaridan boshlab, psixologik ekspertiza xizmati yana rivojlana boshladi. Psixologik ekspertiza sohasining rivojlanib borishi natijasida asta-sekin uning vazifasi, tergov va sud jarayoniga aralashuv chegarasi aniqlashib bordi. Bugunga kelib psixologik ekspertizaning vazifasi, o‘rganuvchi sohasi xususidagi anglashilmovchilik, tushunmovchiliklar barham topdi.

O‘zbekistonda XX asrning 70-80-yillaridan boshlab, psixologiya, huquqshunoslik psixologiyasi, kriminal psixologiya fanlari muayyan darajada rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bu sohadagi o‘zgarishlar yanada yaqqol sezila boshladi. Qonunchiligimiz asosi rivojlangan dunyo mamlakatlari tajribasidan foydalanilgan holda xalqaro talablar asosida qayta ko‘rib chiqilib, yangilandi va takomillashtirildi. Sud ekspertizalari va shu jumladan, sud psixologik ekspertizasiga nisbatan yangicha yondashuvlar yuzaga keldi.

Sud-psixologik ekspertizasini o‘tkazish

Sud psixologik ekspertizasi O‘zbekiston Respublikai JPKning tegishli moddasiga binoan tergovchi tomonidan chiqarilgan qarorga ko‘ra tayinlanadi. Sudda esa ko‘rilayotgan ishda psixologik mazmundagi vaziyatlarning mavjudligi haqida va ularning tergov jarayonida o‘z yechimini topmaganligiga shubha tug‘ilgan holatlarda sudya tomonidan chiqarilgan qarorga binoan sud psixologik ekspertizasi tayinlanadi. Bu xildagi protsessual hujjatlarda ekspertizadan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan shaxs, uning sodir etgan jinoiy xatti-harakati haqidagi qisqacha bayonnoma hamda ushbu sodir etilgan jinoiy xatti-harakatda psixologik mazmundagi holatlarning mavjudligiga asoslanib, sud psixologik ekspertizasini tayinlash zarurligi to‘g‘risidagi fikr aks etgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, ushbu hujjatda ekspert aniqlanib, uning oldiga hal qilinishi lozim bo‘lgan savollar qo‘yilishi kerak.

Jinoyat protsessual qonun talablariga ko‘ra tergovchi tayinlangan barcha ekspertizalarda, jumladan, sud psixologik ekspertizasi o‘tkazish jarayonida ham qatnashish huquqiga ega. Biroq qonunni inkor qilmagan holda, bizning nazarimizda, tergovchining sud psixologik ekspertizasida qatnashishini har doim ham maqsadga muvofiq deb bo‘lmaydi. Chunki ayrim hollarda psixologik eksperiment o‘tkazish jarayonida tergovchining qatnashishi sinaluvchi uchun teskari ta’sir qilishi, ya’ni uning ko‘nglidagi fikr-mulohazalarini ochiq-oydin ayta olmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayblanuvchi o‘z jinoyatini tergov jarayonida tan olmagan bo‘lsa, psixologik ekspertiza jarayonida jinoyatni sodir etganligini bo‘yniga olishi mumkin. Bunday vaziyatda ekspert ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini tan olganligini ta’kidlab, jinoyatning sodir etilish holatlarini ekspertiza xulosasida ko‘rsatishi maqsadga muvofiq. Bizning nazarimizda, psixologik ekspertizaning bunday vaziyatlarni yoritib berishi ko‘rilayotgan ishning muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, unutmaslik kerakki, psixologik ekspert ushbu xulosalarni faqat o‘rganilayotgan ayblanuvchiga nisbatangina berishi zarur. Agarda ekspertiza uchun qo‘shimcha ma’lumotlar olinishi lozim bo‘lsa, ekspert-psixolog boshqa mutaxassislarni ham ekspertizaga taklif qilish huquqiga ega. Sudda sud psixologik ekspertizasini o‘tkazish dastlabki tergov jarayonida o‘tkaziladigan psixologik ekspertizaga qaraganda bir qator o‘ziga xosliklarga egadir. Xususan, sudda ekspert-psixolog jinoyat ishiga taalluqli bo‘lgan holatlar bo‘yicha, ayblanuvchining jinoyatni sodir etganligini isbotlash jarayonida, uni so‘roq qilishda va hokazolarda bevosita ishtirokchi sifatida qatnashadi. U psixologik tadqiqot jarayoniga zarur boshqa kishilarni taklif etishi va ish yuzasidan yangi daliliy ko‘rsatmalarni talab qilishi ham mumkin.

Sud psixologik ekspertizasini tayinlashdagi muhim jihatlardan biri ekspert tanlashdir. Shuning uchun biz quyida psixolog ekspertlar tanlash masalasi bo‘yicha batafsilroq fikr yuritamiz.

1. Ekspert komissiyasi tarkibi kamida uchta mutaxassisdan iborat bo‘lishi lozim. Chunki mutaxassislar hamkor va hamfikr bo‘lib birgalikda ishlashadi, buning natijasida ekspertizadagi xatoliklarning oldi olinadi.

2. Psixologik ekspertiza o‘tkazishga 5 yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lgan psixologlar, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarining psixologiya kafedrasida ishlayotgan xodimlar yoki ilmiy tadqiqot institutlarining psixolog ilmiy xodimlari jalb qilinishi maqsadga muvofiqdir.

3. Ekspert komissiyasi tarkibida huquqshunoslik psixologiyasi bo‘yicha mutaxassis xodim hamda huquqshunos bo‘lishi shart. Chunki, oliy o‘quv yurtlari psixologiya bakalavriat yo‘nalishini tugatgan psixologlar ko‘pincha ekspertizaning huquqiy asoslariga, protsessual mohiyatiga taalluqli bo‘lgan huquqiy tushunchalarni yetarlicha bilmasliklari mumkin.

4. Katta yoshdagi shaxsni sud psixologik ekspertizasidan o‘tkazishga umumiy va yuridik psixologiya mutaxassislarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Voyaga yetmagan yoshlarni sud-psixolog mutaxassisi bilan birgalikda bolalar psixologiyasi mutaxassisi, keksa yoshdagi kishilarni esa gerontopsixologiya yo‘nalishidagi mutaxassislar ishtirokida sud-psixologiya ekspertizasidan o‘tkazish lozim.

Psixologik-psixiatrik kompleks ekspertizasini o‘tkazishda komissiya tarkibiga umumiy psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sud patopsixologiyasi mutaxassislari va psixiatrlar kirgani ma’qul.

Tibbiy-psixologik ekspertiza komissiyasi tarkibiga esa yuqoridagi mutaxassislardan tashqari sinaluvchining kasalligi bo‘yicha (agar u mavjud bo‘lsa) nevropatolog, logoped, seksopatolog, okulist va boshqa mutaxassislarning qatnashishi ayni muddaodir.

Psixolog-texnik ekspertizalar injenerlik, mehnat psixologiyasi mutaxassislari va albatta, texnik mutaxassis ishtirokida o‘tkazilishi shart.

Sud psixologik ekspertizasining bosqichlari. Sud psixologik ekspertizasi bir qator bosqichlardan iborat bo‘ladi:

1. Ekspertlarning jinoyatni isbotlash maqsadida o‘tkazilgan jarayonidagi ishtiroki;
2. Tadqiqotni o‘tkazish;
3. Xulosa uchun ahamiyatli bo‘lgan vaziyatlarni oydinlashtirish;
4. Tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish va xulosani bayon etish;
5. Ekspertlarni so‘roq qilish.

Ekspert psixolog vazifasi nuqtai nazaridan ekspertizani ishga doir materialni o‘rganishdan boshlanadi. Shuningdek, taqdim qilingan ish bo‘yicha maxsus adabiyotlar bilan tanishish va metodika tanlash jarayoni ham amalga oshiriladi. So‘ngra dastlabki asosiy eksperiment o‘tkaziladi. Eksperiment natijalarini qayta ishlash va uni asoslash, xulosa qilish hamda uni sud yoki tergovga taqdim qilish ham psixolog-ekspertning vazifasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Bogdanov V.M. Psixologicheskie osobennosti professionalnogo mishleniya rabotnikov ugolovnogo roziska. Omsk. 1994.
3. Zokirov I.B. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (1-qism). Darslik. -Toshkent: TDYuI, 2009.
4. R.Qobilov, A.A. Otajonov va boshqalar Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik.– T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
5. Jinoyat huquqi (Umumiy qism) Darslik. Usmonaliyev M, Bakunov -T., “Nasaf” 2012.

Elektron ta’lim resurslari:

1. http: www.Iib.psixology.msu.ru
2. http: www.Iib.psixology.ru
3. http: www.Iib.psixology.rin.ru

UDK: 15:342:.56(045)

Bobirov Davron Bobir o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti
Psixologiya kafedrasi magistranti

PSIXOLOGIK XIZMAT KO`RSATISHNING HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARDAGI ASOSIY MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya. *Psixologik bilimlarga bo‘lgan talab, huquqni muhofaza qilish organlari amaliyotining turli sohalarida psixologik yordam ko‘rsatishning ijtimoiy tartibi psixologik ishni bir butun sifatida tezkor faoliyatning zarur tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi. Maqolada huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga psixologik xizmat ko‘rsatishning bugungi kundagi maqsad vazifalariga to‘xtalgan bo‘lib ularni psixologik jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *huquq, dinamika, psixologik xizmat, ijtimoiy, uslubiy metodika, subyekt, mahsuldorlik, mahorat*

ОСНОВНЫЕ ЦЕЛИ И ОБЯЗАННОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНАХ

Аннотация. *Востребованность психологических знаний, социальный заказ оказания психологической помощи в различных областях правоохранительной практики позволяют рассматривать психологическую работу в целом как необходимую составляющую оперативной деятельности. В статье рассмотрены современные задачи оказания психологических услуг сотрудникам правоохранительных органов, а их психологический анализ является актуальной проблемой.*

Ключевые слова: *право, динамика, психологическая служба, социальная, методическая методология, субъект, продуктивность, навык.*

MAIN GOALS AND DUTIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN LAW ENFORCEMENT BODIES

Abstract. *The demand for psychological knowledge, the social order of providing psychological assistance in various areas of law enforcement practice allows to consider the psychological work as a whole as a necessary component of operational activity. The article focuses on the current goals of providing psychological services to law enforcement officers, and their psychological analysis is an urgent issue.*

Key words: *law, dynamics, psychological service, social, methodological methodology, subject, productivity, skill*

Kirish. XXI asr axborot texnologiyalari asri deb ta`rif berilishi bejiz emas, haqiqatdan ham shiddat bilan rivojlanayotgan bu zamonda huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlariga yuklanadigan vazifalar nafaqat jismoniy balki axborot texnologiyalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Bu esa o‘z navbatida tegishli tahlilni o‘tkazishning alohida ahamiyati huquqni muhofaza qilish tizimini isloh qilish, xodimlarning munosabatlari va maqomini o‘zgartirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish tendentsiyasi bilan belgilanadi. Ushbu xodimlarining faoliyatini faollashtirish, hukumat oldida turgan muhim dasturilamal bo‘lib, tezkor va xizmat vazifalari doirasini kengaytirish sharoitida nomzodni professional psixologik tanlash sifatini oshirish zarurati ortib bormoqda. Shu munosabat bilan, amaliyotchi psixologlar tomonidan kadrlar bilan psixologik ishlarni tashkil etish va faoliyatning asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirishning samarali uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega

Shu munosabat bilan psixologlar oldida zamonaviy fan va amaliyot talablariga javob beradigan zamonaviy psixologik vositalarni izlash va ishlab chiqish vazifalari turibdi. Psixologik xizmat bo‘linmalarining faoliyati xodimlarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish, psixologik barqarorlik va kundalik va ekstremal sharoitlarda tezkor va xizmat vazifalarini samarali bajarishga tayyor bo‘lish bilan bog‘liq muammolarni kompleks hal qilishga qaratilgan. Idoraviy psixologik xizmatning jadal rivojlanishining asosiy omillaridan biri Ichki ishlar vazirligi tomonidan psixologlar faoliyatini muvofiqlashtirishni kuchaytirish edi. Yurtimizda Ichki ishlar vazirligi

tizimida tashkiliy-uslubiy boshqaruv va ma'naviy-psixologik yordamni muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan asosiy bo‘linma Ichki ishlar vazirligining davlat xizmati va kadrlar boshqarmasining psixologik ishlarni tashkil etish bo‘linmalarini tashkil etish hisoblanadi. Ushbu bo‘linma xizmatni rivojlantirishni kontseptual jihatdan aniqlash, psixologik ishlarni huquqiy tartibga solish va uslubiy ta'minlashni takomillashtirish, amaliy psixologlarning professional yadrosini shakllantirish, psixologik ishning turli sub'ektlari o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha katta hajmdagi ishlarni amalga oshirdi Ushbu organlarga psixologik xizmat ko‘rsatishning rivojlanishida sezilarli ijobiy dinamikani hisobga olgan holda, to‘plangan tajribani tahlil qilish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Ichki ishlar xodimlarining umumiy faoliyatini yaxshilash uchun ko‘plab psixologik treninglar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ularning ta'siri hech qanday natija bermadi. Ushbu sa'y-harakatlarning ko‘pchiligining umidsizlikka tushishining markazida xodim madaniyatining o‘zaro ta'siri va ruhiy salomatlik muammolarining stigmasidan kelib chiqadigan aralashuvlarga qarshilik ko‘rsatmoqda. Politsiya xodimlariga psixologik xizmat ko‘rsatishning asosiy maqsadi - ular o‘z vazifalarini xavfsiz va samarali bajarishda davom etishlari uchun ularning etarli darajada ishlashini tiklashdir. So‘nggi yillarda ichida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari kasbining ularning ruhiy va jismoniy salomatligiga ta'siriga katta e'tibor qaratilmoqda. Umuman olganda, huquqni muhofaza qilish organlari ruhiy kasalliklarning odatda past ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan juda chidamli guruh ekanligi aniqlandi. Biroq, xodimlarining umr ko‘rish davomiyligi oddiy aholi qatlamiga nisbatan qaraganda ancha past ekanligi haqida ayrim statistikalar ko‘zga tashlanib qoladi.

Psixologik xizmatning maqsadi (vazifasi) psixologiya fanining yutuqlaridan uning samaradorligini oshirish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarning amaliy faoliyatida foydalanishdan iborat. Aslini olganda, gap huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini intellektuallashtirish va insonparvarlashtirish haqida ketmoqda. Kasbiy qadriyatlari ko‘p jihatdan huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining umumiy qabul qilingan qadriyatlariga mos keladi. Shu bilan birga, har bir xizmatning o‘ziga xos professional mentaliteti mavjud. Sudyalarning kasbiy qadriyatlari prokurorlarnikidan farq qiladi; Hushyorlik markazi xodimlari hayot faktlarini tergovchilardan farqli ravishda baholaydilar. Amaliyotchi psixologlar uchun asosiy kasbiy qadriyat shaxsiyat, uning o‘ziga xosligi va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatidir. Huquqni muhofaza qilish organlarida psixolog nafaqat huquqiy, balki axloqiy me'yorlarga ham (kasbiy axloq kodeksi) amal qiladi. Ushbu vazifalarga muvofiq, ular o‘z ishida faqat zamonaviy psixologiya fanlari doirasida sinovdan o‘tgan va shaxsning sog‘lig‘i uchun xavfli bo‘lmagan usullardan foydalanishi mumkin. Bu, ayniqsa, jazoni ijro etish muassasalari uchun to‘g‘ri keladi, chunki mahkumlar odatda xodimlarga (hatto psixologlarga) nisbatan jazo talablarini qo‘yishadi. Psixolog mijozdan "shaxsiy ishonch" asosida olingan psixodiagnostik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi kerak. Psixolog sub'ektni test natijalaridan kim va nima uchun foydalanishi mumkinligi haqida ogohlantirishi kerak (masalan, xodimni sertifikatlashda). Psixolog o‘z kasbiy faoliyati davomida to‘plagan ma'lumotlardan uchinchi shaxslar manfaati uchun foydalanilmasligi kerak. Huquqni muhofaza qilish organlarida psixologik xizmat oldida ikkita asosiy vazifa turibdi:

- birinchisi, xodimlarning psixologik ishonchliligini oshirish va ularning psixologik salohiyatidan to‘liqroq foydalanish,

- ikkinchisi - tezkor muammolarni hal qilishda xodimlarga psixologik yordam ko‘rsatish.

Ushbu vazifalarga muvofiq psixologik xizmat ikkita faoliyat yo‘nalishini amalga oshiradi:

ichki ishlar organlari xodimlari bilan ishlashni psixologik qo‘llab-quvvatlash va tezkor va xizmat vazifalarini psixologik qo‘llab-quvvatlash.

Birinchi yo‘nalish quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kasbiy rahbarlik va kadrlarni psixologik tanlash; yosh xodimlarni joylashtirish va kasbiy moslashtirishda psixologik yordam ko‘rsatish; xodimlarning psixologik malakasini va shaxsiy rivojlanishini oshirish; jamoadagi axloqiy-psixologik iqlim diagnostikasi va buzg‘unchi hodisalarning oldini olish; nomzodlarni ko‘rsatish va xodimlarni attestatsiyadan o‘tkazishda ishtirok etish uchun kadrlar zaxirasi bilan ishlashni psixologik qo‘llab-quvvatlash; boshqaruv maslahati; xodimlar va ularning oila a'zolari uchun psixologik maslahat.

Ikkinchi yo‘nalish - tezkor va xizmat vazifalarini hal qilishda xodimlarga psixologik yordam ko‘rsatish - quyidagilarni o‘z ichiga oladi: mintaqada qonuniylik va huquq-tartibot holatiga ta'sir ko‘rsatadigan mintaqadagi ijtimoiy-psixologik hodisalarni o‘rganish; joriy operatsion va xizmat

vazifalarini hal qilishda xodimlarga psixologik maslahat berish; sud-psixologik ekspertiza o‘tkazish; ekstremal sharoitlarda xizmat qilish uchun psixologik yordam; garovga olish va terrorchilik xurujlari tahdidi holatlarida muzokaralar faoliyatini psixologik qo‘llab-quvvatlash; ketma-ket qotillarning psixologik portretlarini ishlab chiqish; individual profilaktika ishlarini amalga oshirish; jazoni ijro etish muassasalarida jinoiy-ijroiya jarayonini psixologik ta'minlash va boshqalar.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillariga psixologik xizmat ko‘rsatish va ularni har tomonlama qo‘llab quvvatlash amaliyotchi psixologlarning asosiy maqsad vazifalariga kiradi deb bemalol aytishishimiz mumkin, shu o‘rinda aholining quyi pog‘onalari bilan ishlovchi huquq tartibot organ vakillarini alohida psixologik qo‘llab-quvvatlash ham bugungi kundagi dolzarb masala bo‘lib hisoblanadi, buni to‘g‘ri tashkil qilish esa bizning oldimizdagi burch deb bilaman.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Nishonova Z. T. Psixologik xizmat. Toshkent, 2006y.
2. Рогов Е.И. Настолъная книга практического психолога Т. 1-2-М.,1999г
3. Психологическая служба: учебно-методическое пособие В.Матвеева. - Киров: Изд-во ВятГГУ, 2007.
4. Слюсарева Е.С., Козловская Г.Ю.Методы психологической Учебно-методи-ческое по-собие). - Ставрополь, 2008
5. Psixologik kutubxona: Http://www.psychol-ок.ru/Library.html
6. Psixologik tadqiqotlar. Ilmiy elektron jurnal. http://www.psustady.ru/
7. Psixologiya bo‘yicha materiallar. http://www.psuhology-online.net

Muxamadiyeva Roza Urazovna
Termiz davlat universiteti
Musiqa ta’limi kafedrasi o‘qituvchisi

VOKAL-XOR PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MALAKALARI VA ULARNING AHAMIYATI

Annotatsiya. *Maqolada vokal-xor malakalari va ularning ahamiyati, musiqadan ovoz tarbiyasi va ularning bosqichlarida pedagogik-psixologik tamoyillarining qoidalari, qo‘shiq kuylash holati, ashulachilik nafasi turlari; Ovoz hosil qilishda differensial emmotsiyasi, sozlanish, ansamblning xususiy va umumiy turlarga bo‘linishi, talaffuz uslubiy qoidalari bayon etilgan.*

Kalitli sozlar: *vokal,xor, ovoz tarbiyasi, qo‘shiq, ashula, sozlanish, ansambl, talaffuz, uslub, ko‘krak nafasi, diaffragma nafasi, qorin nafasi, globallashuv, pedagogik-psixologik,ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-axloqiy, innovatsion, konstruksiya, differensial emmotsiyasi.*

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАВЫКИ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. *В статье отражены вокально-хоровые навыки и их значение, правила музыкального вокального воспитания и педагогико-психологических принципов на их этапах, состояние пения, виды певческого дыхания; Описаны дифференциальная эммоция при формировании голоса, настройка, разделение ансамбля на частные и общие виды, методические правила произношения.*

Ключевые слова: *вокальное, хоровое, звуковое воспитание, песня, пение, настройка, ансамбль, произношение, стиль, грудное дыхание, диафрагма, брюшное дыхание, глобализация, педагогико-психологическое, духовно-просветительское, культурно-нравственное, инновационное, конструктивное, дифференциальная эммотция.*

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL SKILLS AND THEIR SIGNIFICANCE

Summary. *The article reflects vocal and choral skills and their meaning, the rules of musical vocal education and pedagogical and psychological principles at their stages, the state of singing, types of singing breathing; Differential emmotism in voice formation, Tuning, separation of the ensemble into particular and general types, Methodological pronunciation rules are described.*

Key words: *vocal, choral, sound education, song, singing, tuning, ensemble, pronunciation, style, chest breathing, diaphragm, abdominal breathing, globalization, pedagogical-psychological, spiritual-educational, cultural-moral, innovative, constructive, differential emmotation.*

Xor bo‘lib kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon hisoblanadi. Musiqa madaniyati darslarida vokal-xor ishlari, o‘quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyasi o‘qitishning eng faol shaklidir. Xor bo‘lib qo‘shiq kuylash o‘quvchilarning diqqat e’tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqi rivojlantiradi, ovoz diapazoni kengaytiradi, musiqiy o‘quvi o‘stiradi, mutatsiya davri yengil o‘tadi, dunyoqarashi yildan-yilga shakllanib boradi. Vokal-xor malakalari musiqa darsida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xor mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning diqqat-e’tibori, ongliligi va aktivligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o‘rgangan qo‘shiqlarini ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo‘ladi. Qo‘shiq kuylaganda, ijodiy ijrochilik hamkorligi kuchayadi va do‘stona jamoaga birlashadi.

Vokal-xor malakalari yordamida o‘quvchilar, qo‘shiqni so‘z ma’nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o‘rganadilar. Yuqorida bayon etilgan natijalarga erishish uchun quyidagi vokal-xor malakalarini shakllantirib borish va xor bo‘lib kuylaganda bunga qattiq rioya qilish shart. Chunki aynan vokal-xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishish mumkin.

Vokal-xor malakalari 6 (olti) turga bo‘linadi:

1. Darsda qo‘shiq kuylash holati
2. Ashulachilik nafasi
3. Ovoz hosil qilish
4. Sozlanish
5. Ansambl
6. Talaffuz.

1. **Qo‘shiq kuylash holati**, deganda darsda o‘quvchilarning o‘tirishi va turish holati nazarda tutiladi. O‘tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo‘l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o‘quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turishdan iboratdir. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to‘g‘ri turish, o‘tirib kuylaganda parta suyanchig‘iga suyanmasdan, yelkalarni yengil kerib, iyakni ortiqcha ko‘tarmasdan, bo‘yin va boshni to‘g‘ri ushlash, qo‘llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo‘yib engashmasdan o‘tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

2.Ashulachilik nafasi. Ma’lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o‘rtasida ma’lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug‘ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma’lum bir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Ashula aytishdagi nafas esa qo‘shiq xarakteriga qarab, tez, qisqa vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo‘shiq jumlasining cho‘zimiga, sur’atiga va xarakterining ifodalanishiga qarab cho‘ziladi. Sun’iy nafasdan aktyorlar, suxandonlar va qo‘shiqchilar foydalanadilar. Shuningdek, sun’iy ya’ni ehtiyojga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi.

Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud:
ko‘krak nafasi;
diaffragma nafasi;
qorin nafasi.

Kichik bolalarning ko‘krak nafasi hali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko‘krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganlarida yelkalarini ko‘tarib, shoshilib va qo‘shiq jumlasini, so‘zini bo‘lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun bolalarning yelkalarni ko‘tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olishi va uni qo‘shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda yetkazish, ayniqsa so‘zni bo‘lib nafas olmaslikni o‘rgatib borishi lozim. Nafas olish malakasini ustida ishlash jarayonida bolalar diqqatini ovozlarning kuychan, ravon, yoqimli jaranglashiga jalb etiladi. Buning uchun gulni hidlagandek osoyishta va shovqinsiz nafas olishga o‘rgatiladi. Ana shu malakani amalga oshirishda darsliklarda, qo‘llanmalarda tavsiya etilgan vokal-xor mashqlarini kuylash, bolalar xorlarida ijro etilgan qo‘shiqlarni magnit tasmalari orqali tinglash kabi amaliy mashg‘ulotlarda shakllantirib boriladi.

Bolalar mashq va qo‘shiqlarni kuylaganda o‘qituvchining qo‘l ishoralarga qarab nafas olishga va uni tejab, rasamati bilan jumla oxirigacha yetkazishga odatlanib borishadi. Ayniqsa, dirijyorlik holatlari «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijroni tugatish»larga rioya etib kuylashga o‘rgatish nafasini rejaga solish uchun muhimdir. Bolalar nafasining hajmi imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo‘shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo‘yiladi va ularni o‘rgatish jarayonida amalga oshiradi.

Ovoz hosil qilish. Ovozni vujudga kelishi murakkab psixologik, fiziologik jarayondir. U ovoz apparati (kekirdak, hiqildoq) va uning ichidagi konussimon ikkita ovoz pardasining nafas (o‘pka, traxeyalar, ko‘krak qismi) va eshituv apparatlarining birgalikdagi amaliyotida hosil bo‘ladi. Tomoqda hosil bo‘lgan tovush kuchsiz va xishillab, sadolanib chiqadi, uning nutq apparati ayniqsa burun bo‘shlig‘i orqali tebranishi kuchayadi va o‘ziga xos tembr va jarangdorlik xususiyatiga ega bo‘ladi. To‘rt organ – nafas, ovoz, nutq va eshituv apparatining o‘zaro faoliyatidagi musiqiy ohangga qo‘yiladigan ovoz-ashulachilik ovozi deb ataladi.

1-sinfda o‘quvchilarning ovozni zo‘riqtirmasdan kuylatish uchun ashula aytishi primar (sol_1-lya_1) bo‘ladi, ishchi diapazoni (mi_1-si_1). Umumiy diapazon (re_1-do_2) bo‘lib, bunga me’yorida amal qilish lozim.

Bolalar bosh rezanatoriga asoslangan falsetga yaqin ovozda kuylaydilar.

Bolalarni kuylatganda faqat yumshoq attaka bilan boshlash lozim, hech qachon qo‘shiqni qattiq attaka bilan boshlamaslik kerak. Buni professional o‘qituvchi nazorat qilib borishi shart. Yuqoridagilardan anglash mumkinki, bolaning kuylashidan oldin fanda pedagogik-psixologik nomlanishidagi differensial emmotsiyasida sodir bo‘lishi ko‘rinishlaridan oldinroq anglash mumkin bo‘ladi.

Sozlanish. Soz har bir bolaning berilgan musiqa tovushini aniq idrok etib, o‘z ovozini unga moslab kuylashi, saqlanishi degan ma’noni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, sozlanish– ma’lum balandlikdagi tovushni aniq intonatsiya kuylash demakdir. Bu muhim malaka bo‘lib hisoblanadi, chunki boshlang‘ich sinfdagi vokal-xor ishlarining asosiy maqsadlaridan biri sof unison (sof bir ovozda kuylashga) erishishdan iboratdir. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab bolalarda sozlanish malakalarini rivojlantirish ustida sistemali ish boriladi. Ayniqsa, musiqa o‘quvi sust rivojalanayotgan bolalarga e’tibor kuchaytiriladi. Ularni o‘qituvchi ovoziga cholg‘u asboblardan soz uchun berilayotgan tovushga va

iqtidorli bolalar ovoziga qo‘shilishga va tovush balandligi bilan barobarlashishga, ya’ni tenglashishga da’vat etiladi va intonatsion sof sozga erishiladi va bir hil balandlikda kuylanadigan mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Ansambl. Ansambl – fransuzcha so‘z bo‘lib, birgalikda degan ma’noni anglatadi. U musiqa, balet, arxitektura san’atlarining qonuniyatlaridan biridir. Musiqada bir necha ijrochilarning birgalikdagi ijrosi ansambl deyiladi. Masalan: o‘zbek xalq cholg‘u asboblari ansambli, raqs ansambli, vokal ansambli va boshqalar. Xorda esa barcha xonandalarning soz birligi, ijro tempi, ritm-usul va dinamik uyg‘unligi vokal-xor ansambli deyiladi. **Ansambl xususiy va umumiy turlarga bo‘linadi**. Xordagi barcha ijrochilarning bir ovozga sozlanib, hamma bir kuyda ansambl bo‘lib, ikki yoki uch ovozda kuylashi **umumiy** ansambl deyiladi. Har bir ovozni alohida-alohida sozi va ansambli **xususiy** ansambl deyiladi. Soz va ansamblni uyg‘unligi uzoq ish jarayonini talab etadi va shundagina oldimizga asosiy maqsad qo‘yilgan sof unisonga erishish mumkin.

Talaffuz. Kuylashdagi talaffuz nutq talaffuzidan farq qiladi. Kuylashdagi talaffuz artikulyatsiya organlari (lab, til, jag‘) ning faol hamjihatligi, vositasida amalga oshiriladi. Bolalar nutqida zaiflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish natijasida xorda baqirib kuylash nuqsonlari uchraydi. Bunday bolalarga e’tiborni kuchaytirish va ular bilan uzoq vaqt yakka tarzda olib borish, shoshmasdan erkin gapirish va kuylashga undash lozim.Nafasni to‘g‘ri olib, jumlani oxirigacha yetkazishda, unli tovushlarni cho‘zib, undosh tovushlarni burro, dona-dona qilib kuylashga o‘rgatib borish talab etiladi. Bunda og‘iz shaklini, tilni harakatlariga, o‘zgarishiga katta ahamiyat berish kerak. Eng muhimi, bolalarni mashq va qo‘shiqlar matnini vokal uslublariga muvofiq, talaffuz etishga o‘rgatib borish lozim.

An’anaviy va zamonaviy maktab ta’limining ustoz –shogird tizimlari, qo‘llanilayotgan tizimlar va mutaxassislik fanlari bilan bog‘lanishida ulkan iste’dod egalari bo‘lgan, bu ustoz bastakorlar o‘z ijodiy faoliyatlari bilan muhim ahamiyat kasb etib kelganlar, bular; Borbad, Farobiy, Ibn Sino Hoja Abdulqodir Marog‘iylar asos solgan o‘zbek bastakorlik san’atining nodir namunalarini targ‘ib qilishdi va davom ettirishdi. Sir emaski, milliy bastakorlik masalasiga yaqin-yaqinlargacha asosan g‘arbiy musiqashunoslikda qabul qilingan talablar bilan yondashildi. Shuningdek, kompozitorlik ijodi uchun birdan bir xos bo‘lgan sabablar umuman zamonaviy musiqiy ijodkorlikning shartli mezonlariga aylandi. Zotan, o‘zbek milliy uslublarining uzoq xududiy ijodiyot tasniflari to‘g‘risida shu paytgacha ijobiy so‘zlar aytilmasin, uning tarixi, ijodkorlik qonuniyatlari, rivojlanish xususiyatlari, ovoz sozlash turlari va xastalangan ovozni qayta tiklash jarayonlari deyarli o‘rganilgani yo‘q.

Empirik jihati; Ta’lim jarayonida musiqa o‘qitish metodikasining maqsadi; Vokal-xor malakalari va ularning pedagogik-psixologik ahamiyatiga e’tibor berib, ovoz sozlash va talaffuz qoidalarini kelajak avlod tarbiya vositasini yanada yorqin mavzularda konseptual yechimiga olib kelish, metodik prinsiplarni jahon standartlariga xos tarzda yuksaltirish, dasturamal muvofiqlashtirilgan imkoniyatlardan keng foydalanish, izlanish va tadbiq etishdan iboratdir. Muhim vazifalardan biri uzliksiz ta’lim bosqichlarining dasturamal differensial pedagogikasini har tomonlama globallashtirish, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ahloqiy tarbiyaning serqirrali innovasion konstruksiyalarida majmuaviy ketma-ketligini tadbiq etish va boshqalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L. Qo‘ldoshev «Maktab xor to‘garagi». T. 1978.
2. R.G‘. Qodirov. «Boshlang‘ich maktabda ko‘p ovozda kuylash». T. 1997
3. Г., Дмитриева.Черноиванова. «Методика музыкального анализа в школе». М. 1987
4. D.Omonullayev. «O‘zbek maktablarda musiqa ta’limi mazmuniga bo‘lgan zamonaviy talablar» nomli ilmiy ishi. T. 1990
5. G.M. Sharipova. «Musiqa o‘qitish metodikasi». T. 2000
6. Qo‘ldoshev “O`zbekistonda musiqa tarbiyasi va ta’limining rivojlanishi”. Toshkent - 1985 yil.

WWW. Lib. Ru – Maksim Электронная библиотека Машкова.
www. Entslopediya. ru – “Мир энциклопедия” – rus tilidagi ensiklopediyalar.
WWW. Kitob. uz
WWW. Natlib. uz

Toshmurodov Bahriddin Umarovich

Navoiy davlat pedagogika instituti
Musiqa ta'limi kafedrasi dotsenti

O‘ZBEK MUSIQA FOLKLORI NAMUNALARINI TO‘PLASH VA YOZIB OLISH TARIXIDAN

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek musiqa folklori namunalarini to‘plash va yozib olish tarixidan me’rosiy kuy va qo‘shiqlar haqida ma’lumotlar berilgan va an’anaviy sozanda bastakor san’atiga xos asosiy xususiyatlar aks ettirilgan.Shuningdek, kompozitorlarning jahon musiqasidan o‘rin olgan dastlabki kompozitsiyalar va musiqiy tarbiyaning zamonaviy tizimlanishi haqida yoritilgan.*

Kalitli so‘zlar: *Shashmaqom, etnografik, «Turkiston», «Latifa», «Zar kokul», Sarbozlar», «Azizam», «Layzongul», «G‘ayro-g‘ayro dambadam», «Lola bayrami», « Bastakor », «Kompozitor».*

ИЗ ИСТОРИИ СБОРА И ЗАПИСИ ОБРАЗЦОВ УЗБЕКСКОГО МУЗЫКАЛЬНОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. *В статье представлены сведения о традиционных напевах и песнях из истории сбора и записи образцов узбекского музыкального фольклора, отражены основные особенности композиторского творчества традиционного музыканта, а также место композиторов в мировой музыке, первые сочинения и объяснена современная систематизация музыкального образования.*

Ключевые слова: *Шашмаком, этнографические, «Туркестан», «Латифа», «Зар кокул», «Солдаты», «Азизам», «Лайзонгул», «Гайро-гайро дамбадам», «Праздник тюльпанов», «Бастакор-унисон», «Композитор».*

FROM THE HISTORY OF COLLECTION AND RECORDING SAMPLES OF UZBEK MUSIC FOLKLORE

Annotation. *The article presents information about traditional tunes and songs from the history of collecting and recording samples of Uzbek musical folklore, reflects the main features of the compositional work of a traditional musician, as well as the place of composers in world music, the first compositions and explains the modern systematization of music education.*

Key words: *Shashmakom, etnograficheskie, "Turkestan", "Latifa", "Zar kokul", "Soldaty", "Azizam", "Layzongul", "Gyro-gyro dambadam", "Prazdnik tyulpanov", "Composer- unison", "Composer".*

1920-yillardan boshlab xalq og‘zaki ijodiyotini o‘rganish va uni yozib olish alohida o‘rinni egalladi. 1919-yilda Turkiston respublikasida badiiy-etnografik komissiya tuzilgandi va bu komissiya hay’atida V.A.Uspenskiy, G‘ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar. Komissiya o‘ziga maqsad qilib birinchi o‘rinda «Shashmaqom»ni va Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o‘rganishni o‘z oldiga qo‘ydi. 1923-yilning boshlarida V.A.Uspenskiy boshchiligida komissiya Buxoroda bo‘lib Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘anilarning maqom majmuasini hammasini yozib oladilar. Lekin bu noyob xalq durdonalarini yozib olishda ancha qiyinchiliklar ham bo‘ldi, chunki maqomlardagi qochirmalar, nolalar va kuylarning yo‘nalishi Uspenskiyni qiynab qo‘yishdi. Shashmaqom bilan bir qatorda komissiya hay’ati xalq qo‘shiq va kuylarini ham yozib olgan edilar.

1925-yilning bahorida V.A.Uspenskiy boshchiligidagi komissiya hay’ati Qo‘qon ovullarida bo‘lib u yerdan ham birqancha xalq qo‘shiqlarini yozib oladi. Masalan: «Lola bayrami»-dagi Naqshi kalon, naqshi xurd va boshqalar.

V.A.Uspenskiy boshchiligidagi ekspeditsiya faqatgina xalq qo‘shiqlarini yozib olmasdan balki ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘illanadilar va 1927 yilda «O‘zbeklar klassik musiqalari» nomli katta maqola chop etadilar. O‘sha yili Uspenskiyning bu maqolasi qatorida Abdurauf Fitratning «O‘zbeklar klassik musiqalarining tarixi» nomli ishi ham chop etiladi va bu to‘plamda Abdurauf Fitrat mahalliy mutaxassislardan ilmiy ishlarni tayyorlash topg‘risidagi o‘z fikrlarini bayon etadi. Fitrat to‘plamida «Shashmaqom» qismlari to‘g‘risida batafsil fikrlar yuritilib ularning ijrochilari haqida ham yozilgan.

1928-yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti ochildi. Bu oliy dargohda milliy musiqa mutaxassislarini tayyorlash asosiy maqsad qilib qo‘yilgan edi. Institutga N.N.Mironov rahbarlik qiladi va u kishi o‘sha davrda mashhur bo‘lgan hofizlar, xonanda va sozandalardan: Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoil (nay, qo‘shnay, surnay ijrochisi), Matyusuf Xarratovlar bilan bir qatorda yosh san’atkorlar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonovlarni oldiga taklif etadi.

Institut ilmiy ishlarini natijalari sifatida biz N.N.Mironovning kitobini «O‘zbeklar musiqasi» (Samarqand, 1929-yil), «O‘zbeklar va boshqa Sharq xalqlarining musiqa madaniyati to`g‘risida» (Samarqand, 193 yil), «Buxoro, Xiva, Farg‘ona qo‘shiqlari» (Toshkent, 1931 yil) misol keltirishimiz mumkin.

Samarqand institutining ilmiy ishlari bilan bir qatorda Toshkentda Ye.Ye.Romonovskaya boshchilik ekspeditsiya ham xalq kuy va qo‘shiqlarini yozib olgan edi. Bu eqspedisiyaning eng muhim ilmiy yozuvlaridan biri bu o‘zbek Xotin-qizlarining ichkarida aytiladigan kuy va qo‘shiqlari edi, Ye.Ye. Romanovskaya bilan H. Muhammedovalar bu ishga asos solgan edilar. 1917-1932-yillardagi ilmiy ishlar folklor yozishlarni yakunlab shuni ta’kidlash keraki, xalq noyob durdonalarini yozib ularning abadiy tarixda va xalqimizga taqdim etilib bu buyuk xalq musiqiy asarlari qanchadan-qancha avlodlarga meros sifatida qoladi.

Xalq kuy va qo‘shiqlarini yozib olish bilan bir qatorda ularni qayta ishlash xor va orkestr jamoalariga moslash ishlari ham boshlanadi. 1922-yilda V.A.Uspenskiy va N.N.Mironovlarning birinchi simfonik qayta ishlagan partituralari tinglandi. «Sharq musiqa kechalari» Konsertlarida Mironovning «Turkiston» va Uspenskiyning «Latifa», «Zar kokul» xalq qo‘shiqlarini qayta ishlab orkestrga moslaganlari tinglovchilar diqqatini o‘ziga jalb etdi.

«Turkiston» syuitasida 4 o‘zbekcha va 4 qozoqcha xalq qo‘shiqlari garmoniyalashtirilib orkestrga moslashtirilgan. Bu asarda o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan «Sarbozlar», «Azizam», «Layzongul» va «G‘ayro-g‘ayro dambadam»lar qayta ishlanib orkestr ijrosida o‘zgacha jiloga erishgan.

Puflab chalinadigan orkestr uchun ham o‘zbek xalq kuy va qo‘shiqlarini qayta ishlash ishlari boshlanib bu xayrli ishlarni chex millatiga mansub V.V.Leysek bajarishga kirishgan. Masalan: Leysek «Rajabia» nomli kuyni orkestrga moslab qayta ishladi va bu asar o‘sha yillardagi konsert dasturlaridan mustahkam joy oldi.

Xususan, an’anaviy sozanda bastakor san’ati tarixining buyuk ijodkorlari tarixini har tomonlama chuqur o‘rganish, izlanish hamda xalqimizga yetkazishga keng imkoniyatlar ochildi.

An’anaviy sozanda bastakor san’atiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Tayyor kuyga so‘z solish.
2. An’anaviy musiqiy merosimizdan foydalanib asar yozish.
3. Og‘zaki an’anaga murojaat qilib asar yozish.
4. Har xil janrlarni uyg‘unlashtirib asar yozish.
5. Qardosh xalqlar ohangini o‘zbek uslubiga moslab asar yozish.

San’atshunos olim S. Saidiyning ma’lumotida; «“Bastakor” atamasining “Kompozitor”, “Kompozitor” atamasining o‘zbekchasi “Bastakor” degan fikrga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki, bu ikki musiqiy ijod yo‘nalishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Bastakor forscha so‘z bo‘lib, basta-tuzish, bog‘lovchi ma’nosini, kor-ishlash mazmunini bildiradi. Bastakor ijodi monodiya, ya’ni bir ovozli kuy ma’nosini bildiradi. Kompozitor-fransuzcha so‘z bo‘lib, yaratuvchi degan ma’noni anglatadi.Sharqda esa kompozitorni “Mussandif” deb atashadi. Bu musiqiy ijod ko‘p ovozli musiqa uslublari garmoniya va polifoniyaga bog‘langan ijoddir. Bastakor ijodi asosan ikki yo‘nalishda:

1. Og‘zaki, ya’ni nota yozuvisiz
2. Nota yozuvi yordamida rivojlanib kelmoqda.

Milliy musiqa merosini yozib olish va qayta ishlashga doir ishlar 1919-yil dekabrida Turkiston respublikasi maorif Xalq Komissarligi san’at bo‘limi qoshida badiiy-etnografik komissiya tashkil etildi. Komissiyaning dastlabki vazifalaridan biri bo‘lib hisoblangan musiqa folklorini yozib olish ishning boshqa barcha turlarini ham o‘ziga qaratdi, natijada komissiya bir butun, musiqali-etnografik komissiya deb atala boshladi. G‘.Zafariy, N. Mironov, V. Uspenskiy komissiya a’zolari edi.

O`zbekistonda musiqa folklorshunosligiga asos soluvchilar orasida V. A. Uspenskiy alohida ajralib turdi. Uspenskiy ko‘p asrlik badiiy madaniyat an’analarining vakillari xalq musiqachilari orasida juda tez do‘stlar topar edi, shuning o‘zi ko‘pincha uning ishlarining muvaffaqiyatini belgilab berardi.

Shashmaqomning yozib olinishi muhim ish bo‘ldi. Ana shu maqsadda musiqali-etnografiya komissiyasi Uspenskiyni Buxoroga komandirovka qilgan edi. Uspenskiy Buxoroda bir yildan ko‘proq (1923-24) turib, taniqli ijrochilari-hofiz Ota Jalol Nosirov va tamburchi Ota G`iyos Abdug‘anilar bilan hamkorlikda ish olib bordi.

Markaziy Osiyo respublikalarida bu sohada dastlabki qadamlar V. A. Uspenskiy va N. N.Mironov tomonidan qo‘yildi. Ular qayta ishlagan xalq kuylari 1922 yil fevralda Toshkentda ijro etildi. Mironovning syuitasi simfonik orkestr uchun moslashtirilgan sakkizta xalq qo‘shig‘ini (to‘rtta o‘zbekcha va to‘rtta qozoqcha) o‘z ichiga olgan edi..

Uspenskiyning 20-yillarning boshlarida alohida pyessalar tarzida maydonga kelib, keyinchalik «Мелодии народов Средней Азии» (в обработке для симфоничесского оркестра) degan umumiy nom bilan Moskvada nashr etilgan (1934) partiturasi o‘zgacha belgilarga ega. Partitura simfonik orkestr uchun qayta ishlangan o‘zbekcha, afg‘oncha va ikkita qozoqcha qo‘shiqdan tashkil topgan.

Uspenskiy bilan bir qatorda o‘zbek xalq kuylarini garmoniyalashda boshqa musiqachilar ham o‘z kuchlarini sinab ko‘rdilar. 20-yillarning oxiriga kelib O`zbekistonda N.N.Mironov rahbarligidagi Samarqand o‘zbek Musiqa va Xoreografiya instituti (Ilmuzxoruz) folklorshunoslik ishlarining tashkiliy markaziga aylandi. Institut o‘zining Samarqandda ishlagan yillari mobaynida (1928-32) nusxa ko‘chiruvchi vakillardan besh yuzdan ortiq xalq ijodi asarlarini yozib oldi hamda bir qancha kitoblarni nashrga tayyorladi. Bular orasida N.Mironovning «Музыка Узбеков» (1929), «Обзор музыкальных культур Узбеков и других народов Востока» (nota yozuvi M. Ashrafiy, Sh. Ramazonov va T. Sodiqovlarniki, 1931, «Песни Ферганы, Бухары и Хивы» (1931) kitoblari bor ed. Har bir nashr etilgan kitob Mironovning kirish maqolari bilan ochilgan bo‘lib, ularning shogirdlari notaga olgan xalq kuylari to‘plamidan iborat edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуллаев Р.С. Обрадовая музыка народов Центральной Азии. - Т.: Фан, 1994.– 135 с.
2. Ibragimov O. “O‘zbek musiqa ijodi”. 1990 y.
3.Saidiy S.B. Buxoro sozgarlik san'ati- “Mahorat ko‘zgusi”.G` J.Buxoro-1999.y.
4.Мамарасулзода З.А. из истории сбора и записи образцов узбекской народной музыки. Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов.Вып.21МАПН,2020.–215-217с.

Gulnora Xaliqova
Navoiy viloyat pedagoglarni yangi metodikalarga
o‘rgatish milliy markazi “Aniq va tabiiy fanlar metodikas”
kafedrasi katta o‘qituvchisi

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI O‘QITUVCHILARINING IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH: SAMARALI O‘QITISH UCHUN PEDAGOGIK DASTURIY TA’MINOTDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Ushbu maqola pedagogik dasturiy vositalarning informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishdagi rolini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada pedagogik dasturiy vositalarning pedagoglarning uzluksiz rivojlanishidagi imkoniyatlari haqida xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *informatika va axborot texnologiyalari, pedagoglar, malaka oshirish kurslari, kasbiy malaka, uzluksiz ta’lim, pedagogik dasturiy vosita, interfaol ta’lim*

РАСШИРЕНИЕ ВОЗМОЖНОСТЕЙ УЧИТЕЛЕЙ КОМПЬЮТЕРНЫХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Аннотация. *Целью данной статьи является изучение роли педагогических программных средств в формировании необходимых компетенций учителей информатики и информационных технологий. В статье сделаны выводы о возможностях педагогических программных средств в непрерывном развитии педагогов.*

Ключевые слова:*информатика и информационные технологии, педагоги, курсы повышения квалификации, профессиональная квалификация, непрерывное образование, педагогическое программное обеспечение, интерактивное образование*

EMPOWERMENT OF COMPUTER AND INFORMATION TECHNOLOGY TEACHERS: USING PEDAGOGICAL SOFTWARE FOR EFFECTIVE TEACHING

ANNOTATION

Annotation. *This article aims to study the role of pedagogical software tools in the formation of necessary competencies for informatics and information technology teachers. The article draws conclusions about the possibilities of pedagogical software tools in the continuous development of pedagogues.*

Keywords:*informatics and information technologies, pedagogues, training courses, professional qualification, continuous education, pedagogical software, interactive education*

Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta’limga integratsiyalashuvi keyingi yillarda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Pedagogik dasturiy vositalar - kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vositalar. Pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish o‘qituvchilarni o‘qitish amaliyotida texnologiyadan samarali foydalanishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu dasturiy vositalardan foydalanish orqali informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarida kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishimiz mumkin. Informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilarida kasbiy kompetentsiyani shakllantirishni tushunish uchun ushbu sohadagi mavjud tadqiqot va adabiyotlarni hisobga olish muhimdir. Olib borilgan tadqiqotlar majmuasi o‘qituvchilar ta'limida AKT integratsiyasining ahamiyatini ta'kidlab, texnologik savodxonlik, axborotni qayta ishlash qobiliyatlari va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga urg‘u beradi . Tadqiqotchilardan Angeli va Voogt va Mishra va Koehler tomonidan olib borilgan tadqiqotlari pedagoglarni AKT kompetensiyalarini rivojlantirish tarafdori bo‘lib, o‘qituvchilarga o‘quv amaliyotlarida texnologiyadan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotchilardan N. Morze, O. Glazunova, Krinchenko “Axborot texnologiyalari universiteti o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish: motivatsiya va mazmun” mvzusidagi ilmiy

tadqiqotida bo‘lajak o‘qituvchilarning ta’limni samarali loyihalash uchun AKT vositalaridan foydalanishda malakali bo‘lishlari zarurligini ta’kidlaydi [4]. Ushbu tadqiqotda olimlar texnologiyadan foydalanishni o‘quv dasturlariga integratsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.Tadqiqotchilardan Fatime Balkan shuni e’tirof etadiki, hatto kuchli boshlang‘ich tayyorgarlik bilan ham, o‘qituvchilar rivojlanayotgan texnologik landshaftdan xabardor bo‘lish uchun doimiy rivojlanishga muhtoj ekanligini ta’kidlaydi[5]. Xeydi Arasti va Anu Ojala: Ularning tadqiqoti shuni ko‘rsatadiki, pedagogik dasturiy vositalar o‘qituvchilarning texnologiyani o‘qitishga integratsiya qilishda pedagogik mahoratini sezilarli darajada oshirishi mumkin [1]. Yolanda Velaskes-Fernandes va Migel Anxel Konde-Gonsales pedagogik dasturiy ta’minotlardagi hamkorlik xususiyatlari, masalan, onlayn hamjamiyatlar, bilim almashishni rag‘batlantiradi va o‘qituvchilarning texnologiyani muayyan o‘qitish kontekstlariga moslashtirish qobiliyatini oshiradi deb ta’kidladilar [3]. Devid Gibson: Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalarga ega pedagogik dasturiy vositalar kiberxavfsizlik kabi muayyan axborot texnologiyalari sohalarida o‘quvchilarning faolligini oshirish va o‘rganish natijalarini yaxshilashga olib kelishi mumkin [6].

Pedagogik dasturiy vositalarning afzalliklari:

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik dasturiy vositalardan malaka oshirish dasturlarida foydalanish o‘qituvchilarning turli sohalarda texnologik kompetentsiyalarini oshirishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

Vizualizatsiya va taqdimotlar uchun texnologiyadan foydalanish kerak. Samarali o‘rganish uchun vebga asoslangan resurslarni integratsiyalash amalga oshirishimiz lozim.Ko‘pgina pedagogik dasturiy vositalar umumiy o‘qituvchilar ta'limiga qaratilgan bo‘lsa-da, axborot texnologiyalari o‘qituvchilari uchun maxsus ishlab chiqilganlar rivojlanmoqda. Mavjud vositalar ko‘pincha mavzuga oid mazmunning yo‘qligi, pedagogik mahoratni rivojlantirishga e'tibor bermaslik va eskirgan interfeyslar yoki funktsiyalardan foydalanish kabi cheklovlardan aziyat chekadi (Borko va boshq., 2018)[2]. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish pedagogik dasturiy vositalarni loyihalash va amalga oshirishga moslashtirilgan yondashuvni talab qiladi, bu axborot texnologiyalari o‘qituvchilarining o‘ziga xos ehtiyojlari va muammolariga mos kelishini ta'minlaydi.

Pedagogik dasturiy vositalardan foydalangan holda informatika va axborot texnologiyalari o‘qituvchilari o‘rtasida kasbiy kompetensiyani shakllantirishga ko‘maklashish maqsadida o‘quv kurslarda pedagoglarga quyidagi topshiriqlarni berilishimiz mumkin:

1. **Pedagogik dasturiy ta'minot vositalarini o‘rganish** : Talabalar o‘z tadqiqot natijalarini o‘rganishni boshqarish tizimlari, kodlash platformalari, virtual simulyatsiyalar va multimedia mualliflik vositalari kabi turli xil pedagogik dasturiy vositalar bo‘yicha taqdim etishlari mumkin. Ular informatika va axborot texnologiyalari ta'limida ushbu vositalarning xususiyatlari, afzalliklari va potentsial qo‘llanilishini muhokama qilishlari mumkin.
2. **Interfaol ta'lim faoliyatini loyihalash** : Talabalar pedagogik dasturiy vositalardan foydalangan holda interfaol ta'lim faoliyatini yaratishi mumkin. Masalan, ular Scratch kabi vizual dasturlash vositasi orqali dasturlash tushunchalarini o‘rgatuvchi kodlash loyihasini ishlab chiqishlari mumkin. Ular, shuningdek, talabalarga real dunyodagi informatika o‘qitish metodikasini o‘rganishga imkon beruvchi virtual simulyatsiyani ishlab chiqishlari mumkin.
3. **Loyihani hamkorlikda ishlab chiqish** : Talabalar pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishni birlashtiradigan hamkorlik loyihasini ishlab chiqish uchun birgalikda ishlashlari mumkin. Masalan, ular taqdimot dasturidan foydalangan holda multimedia taqdimotini yaratishi va Google Docs kabi bulutga asoslangan hamkorlik vositasidan foydalangan holda umumiy hujjat ustida hamkorlik qilishlari mumkin. Ular ushbu vositalar talabalar o‘rtasidagi hamkorlik va muloqotni qanday yaxshilashini ko‘rsatishi mumkin.
4. **Pedagogik dasturiy vositalarni baholash** : Talabalar turli xil pedagogik dasturiy vositalarni foydalanishda qulaylik, foydalanish imkoniyati, turli o‘quv uslublariga moslashish va o‘quv maqsadlariga moslashish kabi mezonlarga ko‘ra baholashlari mumkin. Ular har bir vositaning kuchli va zaif tomonlarini qiyosiy tahlil qilishlari va tengdoshlari uchun tavsiyalar berishlari mumkin.
5. **Reflektiv jurnallar** : Talabalar pedagogik dasturiy vositalardan foydalangan holda o‘z tajribalarini muhokama qiluvchi aks ettiruvchi jurnal yozuvlarini yozishlari mumkin. Ular ushbu vositalar informatika va axborot texnologiyalari kontseptsiyalari haqidagi tushunchalarini qanday yaxshilagani, o‘qitish mahoratini oshirganligi va kasbiy o‘sishiga hissa qo‘shgani haqida fikr yuritishlari

mumkin. Shuningdek, ular duch kelgan har qanday qiyinchiliklarni va ularni yengish uchun foydalangan strategiyalarini baham ko‘rishlari mumkin.

Natijalar va muhokama.

Kasbiy kompetentsiyani shakllantirishda pedagogik dasturiy vositalarning samaradorligi bir necha asosiy omillarga bog‘liq:

Mavzuga oid e'tibor: pedagogik dasturiy vositalar informatika va axborot texnologiyalari ta'limining o‘quv rejasi va o‘quv maqsadlariga, shu jumladan tegishli tushunchalar, algoritmlar, dasturlash tillari va dasturiy ilovalarga mos kelishi kerak. Interaktiv simulyatsiyalar, muammolarni hal qilish faoliyati va virtual laboratoriyalar maxsus texnologiyalar va vositalar yordamida amaliy o‘rganish tajribasini osonlashtirishi mumkin.

O‘qituvchi talabalarga kompyuter dasturlash haqida o‘rgatish uchun virtual haqiqat eshitish vositasidan foydalanish

Pedagogik ko‘nikmalarni rivojlantirish: oddiy bilimlarni tarqatishdan tashqari, pedagogik dasturiy vositalar o‘qituvchilarni o‘z sinflarida texnologiyadan samarali foydalanish uchun pedagogik ko‘nikmalar bilan jihozlashlari kerak. Darsni rejalashtirish modullari, o‘quv dizayn shablonlari va baholash vositalari kabi xususiyatlar o‘qituvchilarga qiziqarli va texnologiya bilan ta’minlangan ta’lim tajribasini rivojlantirishda yordam berishi mumkin. Hamkorlik platformalari va onlayn hamjamiyatlar tengdoshlarni o‘rganishni, ilg‘or tajribalarni almashishni va ta'lim texnologiyalari bo‘yicha mutaxassislarning doimiy ko‘magidan foydalanishni rag‘batlantirishi mumkin.o‘qituvchilar raqamli doska yordamida dars rejasida hamkorlik qiladilar

Foydalanuvchilar uchun qulay dizayn: Intuitiv interfeyslar, aniq navigatsiya, qulaylik xususiyatlari va turli qurilmalarga sezgirlik foydalanuvchilarning ishtiroki va inklyuzivligini ta'minlash uchun juda muhimdir. Ko‘p tilli yordam turli xil ehtiyojlarni qondirishi va hech qanday o‘qituvchining ortda qolmasligini ta'minlashi mumkin. Muntazam yangilanishlar va texnik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari funksionallikni saqlash va foydalanuvchi so‘rovlarini samarali hal qilish uchun zarurdir.

Doimiy baholash va takomillashtirish: pedagogik dasturiy vositalar samaradorligini foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari, ishlash ma'lumotlarini tahlil qilish va o‘qituvchilarning o‘qitish amaliyoti va talabalarning ta'lim natijalariga ta'sirini o‘rganish orqali baholanishi kerak. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, dizaynerlar va ishlab chiquvchilar vositalarni takomillashtirishlari, tarkibni o‘zgaruvchan ehtiyojlarga moslashtirishlari va kasbiy rivojlanishga barqaror hissa qo‘shishlarini ta'minlashlari mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, informatika va axborot texnologiyalari bo‘yicha pedagoglarning malakasini oshirishda pedagogik dasturiy vositalarni integratsiyalash juda foydali ekanligi aniq bo‘ldi. Bu o‘qituvchilarga nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga imkon beradi, natijada talabalar uchun ta'lim strategiyalari va natijalari yaxshilanadi. Shu bois ta’lim muassasalari informatika va axborot texnologiyalari ta’limi sohasida uzluksiz o‘sish va innovatsiyalarni ta’minlab, pedagoglar malakasini oshirish dasturlariga ushbu vositalarni integratsiyalashuviga ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Ushbu vositalarni qo‘llagan holda, o‘qituvchilar tez rivojlanayotgan sohadan xabardor bo‘lishlari va o‘z talabalariga dinamik va qiziqarli o‘rganish tajribasini taqdim etishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arasti, H., Ojala, A. (2018). Development and Evaluation of Pedagogical Software Tools for Teachers' ICT Integration Skills. Education and Information Technology, 23(3), 707-730.

2. Borko, H., Davidson, K., Howley, A. (2018). Design principles for developing professional technologies for STEM educators. Journal of Learning Design, 11(3), 9-23.

3.Velazquez-Fernandez, Y., Conde-Gonzalez, M.A. (2017). Collaboration and sharing of experiences through pedagogical software tools: A proposal for teacher training in the use of ICT. Education and Information Technology, 22(6), 1423-1433.)

4. Development of Professional Competencies of Information Technology University Teachers: Motivation and Content Nataliia Morze, Olena Glazunova Boris Grinchenko Kyiv University.

5. Participatory Educational Research (PER) Vol.9(6), pp. 66-88, November 2022 What do science teachers expect from a technology-based professional development program?: Insights from a pilot

study Shule Fatime Balkan Kiyıcı Department of Science Education, Sakarya University, Sakarya, Turkey

6. Gibson, D.C. (2019). Training future cybersecurity professionals: Design issues for IT-specific pedagogical software tools. Education and Information Technology, 24(8), 6635-6652.

7. Borko, H., Davidson, K., & Howley, A. (2018). Design principles for developing professional technologies for STEM educators. Journal of Learning Design, 11(3), 9-23. .

8.Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.

9. Qodirov B.G'., Begimqulov U.Sh., Abduqodirov A.A. “Axborot texnologiyalari”. Elektron darslik. 2002 y.

10. Ishmuxammedov R. J. “Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligini oshirish yo‘llari”. Toshkent: 2000 y

11.Angeli, F., & Voogt, J. (2014). Digital competence for teachers: Towards a teacher development model. Journal of Educational Technology & Society, 7(4), 15-25.

Nurmedov Nurmuxammed Axmed o‘g‘li
O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Alimbetova Aynura Targinovna
O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Nukus filiali Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar
fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

QO’L JANGI BILAN SHUG‘ULLANUVCHILARNI MUSOBAQALARGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qo‘l jangi bilan shug‘ullanuvchilarni musobaqalarga tayyorlash samaradorligi hamda qo‘l jangi orqali yosh avlodni tarbiyashning muhim pedagogik-psixologik xususiyatlari o‘rganilgan. Bundan tashqari qo‘l jangi jang san’atining chuqur tarixiy ildizlari hamda hozirgi davrda qo‘l jangi musobaqalarining o‘tkazilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *kuch tuzilmalari, ekstremal vaziyatlar, qo‘l jangi, jismoniy tayyorgarlik, karate, individual xususiyatlar, sport musobaqalari, kasbiy jangovar qobiliyat.*

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОДГОТОВКИ УЧАСТНИКОВ РУКОПАШНОГО БОЯ К СОРЕВНОВАНИЯМ

Аннотация. *В данной статье рассмотрена эффективность подготовки участников рукопашного боя к соревнованиям, а также важные педагогико-психологические особенности воспитания подрастающего поколения посредством рукопашного боя. Помимо рукопашный бой глубокие исторические корни боевых искусств хамдса упоминает проведение соревнований по рукопашному бою в настоящее время.*

Ключевые слова: *силовые структуры, экстремальные ситуации, рукопашный бой, физическая подготовка, карате, индивидуальные особенности, спортивные соревнования, профессиональные боевые способности.*

EFFECTIVENESS OF PREPARING HAND-TO-HAND COMBAT PARTICIPANTS FOR COMPETITIONS

Annotation. *This article explores the effectiveness of preparing hand-to-hand combat participants for competitions as well as the important pedagogical and psychological features of educating the younger generation through hand-to-hand combat. In addition to the deep historical roots of hand-to-hand combat martial arts, hamdsa talks about the holding of hand-to-hand combat competitions in the current era.*

Key words: *power structures, extreme situations, hand combat, physical training, karate, individual characteristics, sports competitions, professional combat ability.*

Kirish. Zamonaviy jang yoshlarning jismoniy va ruhiy tayyorgarligi, jangovar mahoratiga tobora yuqori talablar qo‘ymoqda, har bir yosh avlod zamonaviy texnika va qurollarni mukammal bilishi, qo‘l jangning istalgan vaziyatida mohirona, maksimal samaradorlik va keskinlik bilan harakat qila olishi zarurki, bu undan yuksak jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab etadi.

O’quvchilarni umumqo‘shin jangiga jismonan va ruhan tayyorlash tizimida qo‘l jangi muhim o‘rin tutadi. Harbiy ixtisosligidan qat’i nazar qo‘l jangi usullarini puxta o‘zlashtirgan shaxsiy tarkib jismonan chiniqqanligi, o‘zini tuta bilishi, dushman ustidan jismonan kuchlilik hissi, doimiy jangovar faollik va jangning barcha bosqichlarida o‘z majburiyat va vazifalarini tobora sifatli bajarishi bilan ajralib turadi. Qo‘l jangi bilan shug‘ullanish irodani mustahkamlaydi va kasbiy jangovar qobiliyatni sezilarli darajada oshiradi. Qo‘l jangi usullari yaqindan jang olib borishning vositalaridan biri sifatida ham axamiyatli. Qo‘l jangi yuzaga kelishini belgilovchi yaqin jangning keng tarqalgan ko‘rinishlari aholi punklari, tog‘li hududlar, cheklangan maydonlar, transheyalar va ayniqsa shaxarlarda boradigan

janglardir. Zamonaviy jang turli sharoitlarda qarama-qarshi tomonlar bo‘linmalari va alohida guruhlari o‘rtasida qo‘l jangi yuzaga kelishi ehtimolini inkor etmaydi. Shu bois razvedkachi, tankchi, motoo‘qchi, desantchi, aloqachi bir so‘z bilan barcha ixtisoslikdagi harbiylar o‘qotar va sovuq qurolni puxta egallashi, qurolsiz va qo‘l ostidagi vositalar yordamida muvaffaqiyatli harakatlanishga o‘rgangan bo‘lishi shart. O’smirlar jangovar tayyorgarligida qo‘l jangining axamiyati aynan shu bilan belgilanadi. Dushman bilan aniq qo‘l jangi nafaqat zarbalar bilan almashish, balki jangning to‘liq kontaktga o‘tishi, yiqitishlar, bo‘g‘ishli va og‘riqli ta’sirlar bilan belgilanadi. Bu kabi texnik yechim dushman harakatlarini «bog‘lab qo‘yish» zarurati bilan belgilanadiki, bu bilan zarba o‘tkazib yuborish xavfi kamayadi, kuchli va to‘g‘ri bajarilgan uloqtirish, ayniqsa og‘riqli tutish bilan dushmanni safdan tez va ishonchli chiqarib yuborishga qodir.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy qo‘l jangi mashg‘ulotlarini tartibga solish va uni o‘rganish bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan Lavrov V.N, Podlipnyak Yu.F, Nepomnyashchi C.B, Panyukov A.B, Klimenko C.B, Kilin V.V, Kalashnikov A.F, Kadurin V.V., Bler A.N, Nikolaev A.A., Ashkinazi S.M, Shiyan V.V, Evsikov A.I., Kononov V.A, Solonskiy B.Yu., Gavrilenko R. A., va boshqalar tadqiqot olib borishgan.

Jangchilarni qo‘l jangiga tayyorlashning yangi modelini ishlab chiqish ularning psixologik va maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasi bilan belgilanadi. Qo‘l jangida jangning natijasi jangchining psixologik va maxsus jismoniy tayyorgarligi darajasiga bog‘liq. Ko‘p narsa uning tez va samarali kurashish qobiliyatiga bog‘liq. Shu sababli, qo‘l jangi jangchilari uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikning eng samarali usullari, vositalari va tamoyillarini topish muammosi dolzarb ahamiyatga ega.

Tahlil. Qo‘l jangi jang san’atining bir turi sifatida chuqur tarixiy ildizlarga ega. Qadimgi odamlar qurol va jihozlar paydo bo‘lishidan ancha oldin, faqat tanalarini ishlatib, himoyalanish va hujum qilishni o‘rgangan.

- **Qadimgi Misr va Mesopotamiya**: Qo‘l jangining birinchi tasvirlaridan ba’zilari miloddan avvalgi 2500-yilga to‘g‘ri keladi. Qadimgi Misr va Mesopotamiyadagi qabrlar devorlarida topilgan.
- **Qadimgi Xitoy:** Qadimgi Xitoyda kurash va qurolsiz jang san’ati rivojlangan. Eng mashhur uslublardan biri kung-fu bo‘lib, u zarba berish, blokirovka qilish va tortishish usullarining keng doirasini o‘z ichiga oladi.
- **Qadimgi Yunoniston:** Yunonlar ham o‘zlarining qo‘l jangi an’analarini ishlab chiqdilar va eng mashhur uslublardan biri pankratiya - kurash va zarba berish elementlarini o‘z ichiga olgan aralash jang san’ati edi. Pankratiya Qadimgi Yunonistondagi Olimpiya o‘yinlarida mashhur sport turiga aylandi.
- **Qadimgi Rim:** Rimliklar harbiy maqsadlarda qo‘l jangi usullarini takomillashtirdilar. Jangchilar o‘zlarini samarali himoya qilishlari va yaqin janglarda hujum qilishlari uchun ular o‘z askarlarini jangovar va zarba berish usullariga o‘rgatgan.
- **O’rta asrlar va Uyg‘onish davri:** O’rta asrlarda Evropada qo‘l jangi ritsarlik ta’limining muhim elementiga aylandi. Uyg‘onish davrida qo‘l jangi qilichbozlikni o‘rganish bilan izohlanadi.
- **Modernizatsiya va evolyutsiya**: 19-20-asrlarda qo‘l jangi sport turiga aylana boshladi. Boks, dzyudo va karate kabi turli uslublar va maktablar paydo bo‘ldi. 20-asr aralash yakkakurashlar (MMA) evolyutsiyasining boshlanishi bo‘lib, unda jangchilar turli xil jang san’atlari uslublaridan foydalanadilar.

Sport qo‘l jangi kurash xarakteridagi harakatlarni ham o‘z ichiga olganligi sababli, yosh sportchilar uchun birinchi yil mashg‘ulotlari dasturiga quyidagi kurash usullari ham kiritilgan:

1. Oshqozon orqali tirsak dastagi:
– ushlab turgandan keyin raqibning tepasida o‘tirish;
– ushlab turgandan keyin boshning yon tomonidan;
– baland yerda orqa tomondan;
– baland parterda boshning yon tomonidan;
-orqa tomondan past parterda.

Yosh sportchilarning intellektual faolligini faollashtirish va murabbiy tomonidan texnik tayyorgarlik jarayonini boshqarish samaradorligini oshirish uchun har bir tayanch nuqtasini, uni bajarishdagi har bir xatoni ixcham va majoziy tavsiflovchi tayanch iboralar ishlab chiqilgan va amaliy foydalanish uchun tavsiya etilgan. va sportchini vosita harakati jarayonida rag‘batlantirish. Sport mashg‘ulotlari jarayonida tashqi va ichki nutqdan qo‘shimcha foydalanish harakatning indikativ asosini yanada samarali shakllantiradi va sportchining e’tiborini asosiy texnikaning nuqtalariga qaratadi.

Jadvalda bajarilgan ishlarni ko‘rsatish uchun. 1 va 2 ikkita texnik texnikaga misollar keltiradi - nisbatan sodda va murakkabroq.

Jadval-1

Malumot nuqtasi	Xatolar	Asosiy iboralar
1. Bilak bilan himoya qilish qisqa muddatli. Qo‘llaringizni boshingizda ushlab turishning hojati yo‘q.	1. Zarbadan keyin boshida baland ko‘tarilgan qo‘llarni mahkamlash, himoyalanmagan tana.	1. Tepishdagi nosozlik
2. Tanani orqaga siljitish	2. Tanani siljitmasdan orqaga qadam tashlang.	2. Tana yetishmovchiligi
3. Himoya harakatini bajaruvchi sportchining boshi darajasida qo‘llar	3. Qo‘llar bosh darajasidan pastda	3. Qo‘llar boshga
4. Bilak zarba paytida boshga bosiladi	4. Bilak raqibning zarbasini qaytaradi	4. Qo‘lingizni bosing

Zarba texnikasi bo‘yicha mashg‘ulotning birinchi yilida quyidagi asosiy hujum usullari taklif etiladi:

1) oldingi qo‘l bilan boshga bir marta to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarba;
2) uzoq qo‘l bilan boshga bir marta to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarba;
3) ikkita to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarbalar seriyasi - chap qo‘l bilan, o‘ng qo‘l bilan boshga;
4) chap qo‘l bilan boshga ikki marta zarba berish (old qo‘l);
5) tanani va boshni tortib olish bilan orqaga qadam tashlash, qo‘l orqali boshga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarba berish bilan qarshi hujum bilan bitta zarbaning muvaffaqiyatsizligi.
6) qo‘l ostidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarbalar;
7) qo‘l ostidan dumaloq zarbalar;
8) bir qator zarbalarni taqlid qilish - o‘ngga, chapga tekis zarbalar (yoki chap, o‘ng) va qo‘l ostidan to‘g‘ri zarba;
9) bir qator zarbalarga taqlid qilish - o‘ngga, chapga to‘g‘ri zarbalar (yoki chap, o‘ng) va qo‘l ostidan dumaloq zarba.

Zarbalardan himoya qilish uchun quyidagi harakatlar tanlangan:

1) yelkani qo‘llab-quvvatlash;
2) bilakni qo‘llab-quvvatlash;
3) gavda va boshning tortilishi bilan orqaga qadam tashlash, raqibning bir martalik zarbasini muvaffaqiyatsizlikka uchratish.
4) qarshi hujum bilan raqibning zarbasi muvaffaqiyatsizlikka uchragan holda, xuddi shu qo‘l bilan boshga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarba berish.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, qo‘l jangiga jalb qilingan yosh sportchilarni tayyorlash metodologiyasida eng kam rivojlangan masalalar turli yoshdagi bolalarning maxsus jismoniy va texnik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi hisoblanadi. Psixomotor funktsiyalarni rivojlantirish. Qo‘l jangiga jalb qilingan bolalarning psixomotor funktsiyalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan vositalarni oqilona tanlash va ularni texnik tayyorgarlik bilan mos ravishda uyg‘unlashtirish individual tabaqalashtirilgan yondashuvni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

Xulosa. Hozirgi kunda qo‘l jangi ham pedagogik, ham sport yo‘nalishlarida rivojlanmoqda. Qo‘l jangini rivojlantirishning pedagogik yo‘nalishi harbiy xizmatchilari va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy-amaliy jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liq. Ushbu yo‘nalishda qo‘l jangining nazariy va uslubiy asoslari shakllantirildi va hozirgi vaqtda pedagogik intizom ko‘rinishida rivojlandi, uning asosiy vazifalari texnika va taktikalarni, vosita fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirish usullarini umumlashtirish; qo‘l jangini o‘rgatish sifatini oshirish uchun uslubiy materiallar to‘plashdan iborat.

Sport yo‘nalishi qo‘l jangining mahalliy sport turi sifatida shakllanishini belgilab berdi. Uni rivojlantirish jamoat tashkiloti "Qo‘l jangi federatsiyasi" tomonidan amalga oshiriladi, u kattalar va

yoshlar o‘rtasida sport sifatida qo‘l jangini sport, ilmiy va uslubiy jihatdan ta’minlashga qaratilgan. So‘nggi o‘n yillikda qo‘l jangi bolalar va o‘smirlar sporti sifatida keng tarqaldi. Ayni paytda mahallalardagi sport seksiyalari, bolalar va o‘smirlar sport maktablaridagi bo‘limlar tarmog‘i hamma joyda kengaymoqda. Qo‘l jangi bo‘yicha alohida o‘smirlar to‘garaklari, bolalar va o‘smirlar sport maktablarini ochish tendentsiyasi kuzatildi.

Foydalanilgana abiyotlar

1. Zavyalov, A.A. Erkin kurashda boshlang‘ich kurashchilarning g‘alabali harakatlarini shakllantirish: Muallif avtoreferati. dis. ...pedagogika fanlari nomzodi Fanlar / A.A. Zavyalov.- Krasnoyarsk, 2005.-25 b.

2. Krivoshapkin, P.I. Tezlik-kuch mashqlari zaxiralari / P.I. Krivoshapkin // Uzluksiz jismoniy tarbiya tizimida universitetgacha tayyorgarlik: ilmiy pakt materiallari. konf. - Yakutsk: YaF nashriyoti SB RAS, 2002.- P.95-96.

3. Minixonov, V.A. Taekvondo jang san’atida muvofiqlashtirish qobiliyatlarining namoyon bo‘lishi va ularni tayyorlash usullari / V.A. Minixanov// Urals va Sibirning ilmiy va sport xabarnomasi.- 2015.- T.6.-No.3.- B. 14-17.

4. Qo‘l jangi: bolalar va yoshlar uchun taxminiy sport mashg‘ulotlari dasturi. sport maktab, ixtisoslashgan bolalar - yoshlar maktab Olympus. zaxira: qo‘shimcha Feder. jismoniy agentlik madaniyat va sport / [muallif: Akopyan A.O. [va boshq.] ; Feder. jismoniy agentlik madaniyat. - M.: Sov.sport, 2009. - 112 b.

5. Tedeschi, M. Erdagi kurash san’ati: amaliy qo‘llanma / M. Tedeschi. - M.: Grand-yarmarka, 2005. - 231 b.

6. Шепетюк, М.Н. Совершенствование в спортивной борьбе: учебное пособие/ М.Н. Шепетюк.- Алматы: КазАСТ, 2005. 228 с.

7. Травников, А. Боевое карате и рукопашный бой : основы боевого тренинга : тренинг-интенсив : по системе спецназа КГБ / А. Травников. - М.: АСТ: АСТ Москва; СПб.: Прайм-Еврознак; Владимир: ВКТ, 2008. - 127 с.

Нурматова Фируза Муминовна
Независимый исследователь Термезского государственного университета

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИМ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИМ ПРИНЦИПАМ В РАБОТЕ НАД ТЕХНИКОЙ ИГРЫ НА ФОРТЕПИАНО

Аннотация. *В статье рассматривается использование ИКТ в специализированных детских музыкальных школах, совершенствование методов и направлений, развитие сенсорно-музыкальных способностей, активизация слухового восприятия, приобретение знаний о средствах музыкальной духовности и свойствах музыки. Он также подчеркивает важность индивидуального подхода в музыкальной педагогике и психологии. Освещаются методы расширения знаний учащихся при использовании зарубежный опыть, зарубежного опыта.*

Ключевые слова: *педагогика и психология, реформ, система, сформирования, высококвалифицированный, конкурентоспособный, арсеналом творческих приемов, «Шульверк. Музыка для детей», Сузуки, "гармонизирующее",«Сольфеджирования», вызов, осмысление, рефлексия, метод, кластер.*

O‘YIN TEXNIKALARI USTIDA ISHLASHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK PRINSİPLARNI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Annotatsiya. *Maqolada ixtisoslashtirilgan bolalar musiqa maktablarida AKT dan foydalanish, usullar va yo‘nalishlarni yaxshilash, sensor-musiqa qobiliyatini rivojlantirish, eshitish qabullarini faollashtirish, musiqa ma’naviyati vositalari va musiqa xossalari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishni egallashga qaratilgan. Shuningdek, musiqa pedagogikasi va psixologiyasida yakka tartibdagi yondashuv muhimligini ta’kidlaydi. Xorijiy tajribadan foydalanishda talabalar bilimini kengaytirish usullari yoritilgan.*

Kalitli so‘zlar: *Ключевые слова: педагогика и психология, реформа, система, образование, высококвалифицированный, конкурентоспособный, арсенал творческих приемов, «Шульверк. Музыка для детей», Сузуки, и «гармонизирующее», «Сольфедирование», вызов, осмысление, размышление, метод, кластер.*

MODERN METHODS OF TEACHING PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES IN WORKING ON PLAYING TECHNIQUES

Annotation. *The article discusses the use of ICT in specialized children's music schools, the improvement of methods and directions, the development of sensory and musical abilities, the activation of auditory perception, the acquisition of knowledge about the means of musical spirituality and the properties of music. He also emphasizes the importance of an individual approach in music pedagogy and psychology. The methods of expanding students' knowledge using foreign experience are highlighted.*

